

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA`LIMI VAZIRLIGI

**A. QODIRIY NOMIDAGI JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI**

O`ZBEK TILI VA ADABIYOTI FAKULTETI

O`ZBEK TILI VA UNI O`QITISH USLUBIYATI KAFEDRASI

O`ZBEK TILI STILISTIKASI FANIDAN

Ma'ruza matni

Tuzuvchilar:

dots. Musayev A.

JIZZAX-2014-2015

Ushbu ishchi dastur 2011-yilda tasdiqlangan davlat ta'lim standart va O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligidan ro'yxatdan (№ BS-5110000-3.06, 2011-yil 17-noyabr) o'tgan va 2014-yil 29-avgustda tasdiqlangan ma'naviy fan dasturi asosida ishlab chiqilgan.

Tuzuvchilar:

dots. Musayev A.

Taqrizchilar:

dots. M.Tursunpo'latov

katta o'qit. H.O'roqov.

Dastur A.Qodiriy nomli JDPI ilmiy-uslubiy kengashida ko'rib chiqilgan va tavsiya qilingan.

O'zbek tili va uni o'qitish uslubiyati kafedrası ilmiy metodik seminarining 2014-yil avgustdagi 1-sonlik yig'ilishiga binoan tavsiya etilgan.

KIRISH

Har bir xalqning o'z tarixiy taraqqiyotdagi eng noyob va mukammal boyligi uning tilidir. Shu boisdan Stilistika-uslubshunoslik, uslubiyat-tilshunoslik fanining til uslublarini tadqiq etuvchi, tilning leksik frazeologik, fonetik, morfologik, so'z yasalishi va siyosiy sathlarda sinxroniya va diaxroniya nuqtai va nazaridan funksional qatlamlanishining mohiyati va o'ziga xosligini o'rganuvchi fandır.

«O'zbek tili stilistikasi» fanining maqsad va vazifalari. «o'zbek tili stilistikasi» fanining maqsadi bo'lajak mutaxassislarğa til va nutq uslublari haqida ma'lumot berishdir.

«o'zbek tili stilistikasi» fanining vazifalari quyidagilardir: uslublar, ularning asosiy tushuncha va kategoriyalarini namoyon etish; fonetik, leksik, frazeologik, sintaktik birliklarning uslubiy imkoniyatlarini namoyon etish; adabiy me'yor bilan uslubiy me'yor o'rtasidagi munosabat va ularning farqli jihatlari haqida ma'lumot berish; Talabalarga uslubiy xatolar va ularning oldini olish yo'llari yuzasidan bilimlar berish va h.k.

Mazkur fanni o'rganish natijasida talabalarning quyidagi bilim, malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishlari talab qilinadi. Uslub, uslubshunoslik. Til vositaldarini tanlashda xatoga yo'l qo'yimaslik. O'zbek tili uslublari. Ularning o'ziga xosligi. Fonetik, morfologik, frazeologik, sintaktik birliklarning uslubiy imkoniyatlari o'rganish kerak bo'ladi.

1-Mavzu: Stilistikaning asosiy kategoriya va tushunchalariyu

Reja :

1. Stilistika fani,uning maksadi va vazifalari.
- 2.“ Stil” suzinig izoxi xakida.
3. Uslubshunoslikning ikki ikki kurinishi va lingvistik uslubshunoslikning axamiyati.

Mavzu uchun tayanch atamalar: Stilistika, funksional stilistika, og'zaki va yozma nutq, stilistik sinonimiya, nutq stillari.

Tadqiqotchilar stilistikaning o'rganish ob'yekti til stillari¹, leksik, grammatik sinonimiya hamda til vositalarining ma'no va qo'llanish imkoniyatlarini tekshirish deb bilsalar ham, lekin ularni yoritishda, klassifikatsiya qilishda, til vositalarining stilistik va emotsional-ekspressiv buyoqlarini tushunishda bir-birlaridan farq qiladilar.

Akademik V. V. Vinogradov stilistika bahsida bir-biri bilan uzviy aloqador, lekin vazifalari turlicha bo'lgan uchta tekshirish aspektini farqlash zarur, deb uqtiradi. U stilistikani uch qismga ajratadi: 1) tilning funksional stillarini o'rganuvchi stilistika (strukturnaya stilistika); 2) turli janrlarning semantik va ekspressiv-stilistik xarakterlarini hamda og'zaki va yozma nutq orasidagi farqni tekshiruvchi nutq stilistikasi (sti-listika rechi); 3) adabiy yo'nalishlar, badiiy asar hamda yozuvchi uslubini tadqiq etuvchi badiiy adabiyot stilistikasi².

Ko'rinadiki, stilistika har biri o'z muayyan stilistik belgi-sifatlariga ega bo'lgan stillarni o'rganadi. Masalan, funksional stilistika ilmiy, rasmiy, publitsistik, badiiy stillarning o'ziga xos xususiyatlari va ifoda vositalarini tekshiradi.

Milliy til stilistikasining mundarijasi birmuncha keng bo'lib, u tilning barcha stilistik sistemasni tekshiradi. Bu stilistik sistema stillardan tashqari, tilning yozma va og'zaki formalarii, adabiy va so'zlashuv nutq ko'rinishlarini ham o'z ichiga oladi. Shunday qilib, stilistika til birliklaridan qaysi biri u yoki bu stilda, yozma yo og'zaki nutqda ko'proq ishlatiladi, degan masala bilan ham shug'ullanadi. Bundan tashqari, stilistikaga fikr va maqsadni ifodalashda til vositalarining to'g'ri tanlangani yoki tanlanmaganligi aniqlash hamda shu til vositalarini maqsadga muvofiq tanlash va ishlatish yo'llarini belgilash vazifalari yuklatiladi. Stilistikaning vazifasini bu tarzda sharhlash uning mundarijasini yana ham kengaytiradi. Stilistikada sinonimiya masalalarini o'rganish ham markaziy o'rinni egallaydi. Ammo tildagi sinonimiyaning umumiy qonuniyatlarini o'rganish stilistikaning ob'yektiga kirmaydi. Stilistikada sinonimik munosabatlarning barcha ko'rinishlari: so'zlarning stilistik sifatlari, sintaktik konstruksiyalarnng qo'llanish

xususiyatlari o'rganiladi.

Stilistik belgi-sifatlar til birliklarining barchasida mavjuddir. Fonetik, morfologik, sintaktik va leksnik birliklar stilistikaning ham predmeti hisoblanadi.

Fonetika va stilistika. Fonetika nutq organlarining tovush hosil qilish paytidagi harakati va holati — artikulyatsiyani, tovush o'zgarishi qonuniyatlarini, uning intonatsiyasi kabi masalalarni tekshiradi. Fonetik stilistika esa tovushlarning bir-biriga bog'lanishining ekspressiv-stilistik imkoniyatlarini, xullas, nutq tovushlarining tilning ta'sirchan vositasi bo'lib xizmat qila olish usullari va qonuniyatlarini o'rganadi.

Fonetik stilistika nutqning ta'sirchanligini oshirish vositasi sifatida nutq tovushlarining stilistik imkoniyatlaridan foydalanish usullari bilan qiziqadi. Nutqda tovush va ohangdan foydalanish, ta'sirchanlikni kuchaytirish turlari xilma-xildir. Nutqni emotsional va ifodali qilishda alliteratsiya, assonans va tovush takrorlashning rang-barang ko'rinishlari muhim rol o'ynaydi. Narsa va jonivorlarning tovushlariga taqlid qilish hodisasidan ham stilistikada fikrni bo'rttirib ifodalash va unga ekspressiv tus berish uchun keng foydalaniladi. Nutqni xushohang qilishning bunday usullarini proza asarlarida, maqol va matallarda, hatto xalq ertaklari va dostonlarining nasriy yo'l bilan yozilgan o'rinlarida ham uchratish mumkin. Unli va undosh tovushlarning fonetik jihatdan uyg'uilashib, takrorlanib kelishi nutqni ohangli va ta'sirli qiladi, til faktini esda saqlab qolishni osonlashtiradi. Nutqni ohangdor qilishning xilma-xil shakl va usullari o'z tabiati va mohiyati bilan asosan she'riy nutqqa xosdir. Poetik nutq ohang jihatidan ma'lum tartibga solingan, his-tuyg'u ifodasi sifatida vujudga kelgan hayajonli ritmik nutqdir. Poeziyada nutqni ohang jihatidan ma'lum tartibga soluvchi vositalarni (masalan, ritm, qofiya, radif, bandlarni) keng qo'llash xarakterlidir. Shuning uchun she'r tuzilishi fonetika stilistikasining maxsus sohasi sifatida alohida ajralib turadi.

Leksikologiya va stilistika. Leksikologiya tilning lug'at sostavini, uning tarixiy qatlamlari, boyib borishi va taraqqiyot yo'llarini, so'zni, uning ma'nosini, qo'llanishini va shu kabi masalalarni o'rganadi. Leksik stilistika ham lug'at sostavini o'rganadi, lekin uni so'z ishlatish, so'zdan foydalanish qonuniyatlari tomonidan tekshiradi. Leksik stilistika so'z yoki so'z birikmalarining ekspressiv tomonini o'rganadi. Demak, bir xil til hodisasi leksikologik va stilistik tahlilda turlicha yoritiladi. Bu narsa leksikologiya bilan stilistikaning leksik hodisalarga yondashishdagi prinsipial farqini ko'rsatadi. Masalan, leksikologiya nutqning tugal fikr anglatadigan bo'lagi - gapda ishlatilgan so'zning leksik ma'nosining yuzaga chiqishida kontekstning rolini yolg'ilaydi; stilistika esa so'zning kontekstda bajarayotgan kommunikativ-ekspressiv vazifasi nuqtai nazaridan yoki so'zning emotsional bo'yog'i, uning ishlatilish sharoitiga bog'liqligi jihatidan tekshiradi.

Leksikologiya uchun so'zlarning etimologiyasini belgilash juda muhim. Stilistika uchun esa so'zlarning etimologiyasi uning muayyan kontekstda yoki nutq situatsiyasida hosil qiluvchi stilistik effektining sababi va mohiyatini ochishga

ko'maklashgan vaqtdagina ahamiyat kasb etadi. Masalan, tilimizga rus tilidan kirib kelgan stansiya, nomer kabi so'zlar o'ziga xos stilistik effekt tug'dirishi ham mumkin. Bu so'zlarning har biri o'z ishlatilish doirasida stilistik nuqtai nazardan betarafdir. Lekin ular tilimizdagi boshqa so'zlar bilan o'zaro ma'lum ma'no munosabatiga kirishish tufayli muayyan stilistik effekt kasb etadi. Chunonchi, stansiya so'zi yo'k va ishlamoq so'zlari bilan birikib, stilistik bo'yoqli stansasi yo'q, stansang ishlaydimi pboralarini hosil qiladi. So'zlashuv stnnga xos ma'no ottenkasiga ega bo'lgan bu ibo-ralarning birinchisi «yengiltak, beburd, tuturiqsiz, betayin (odam)» ma'nosini bildirsa, ikkinchisi «kallang, miyang ishlaydimi» ma'nosida qo'llanadi. Shuningdek, rus tilidan o'zbek tiliga shaklan o'zgarib kirgan kampirak (konforka) so'zi ham uchirmoq so'zp bilan o'zaro ma'lum semantik munosabat hosil etishi natijasida kampiragini uchirmoq iborasi yuzaga kelgan. Muayyan kontekst yoki nutq situatsiyasida hosil bo'luvchi bunday stplistik bo'yoqlar aniqlanayotganda so'zning boshqa tildan kirib kelganli-gnni hisobga olish o'rinlidir.

Leksikologiya so'z ma'nosi ko'chishining turli tiplarini (masalan, metafora yokn metonimiyani) ham tekshiradi. Lekin leksikologiya bu hodisalarni til sistemasida mustahkamlanib, qat'iylashib qolganligi jihatidan tekshiradi. Stilistika esa so'z ma'nosi ko'chishiningturli tiplarining emotsional-ekspressiv maqsadga qaratilgan tomonini o'rganadi. Stplistika umumtil praktikasida mustahkamlanib qolgan figural (majoziy) ma'nolargagina emas, individual semantik neologizmlarga ham alohida ahamiyat beradi. Individual semantik neologizmlarni o'rganish stilistikaning asosiy vazifalari qatoriga kiradi.

Grammatika va stilistika. Grammatikaning gapda so'zlarning o'zgarishi va birikishi, so'z shakllari va gap qurilishi kabi hodisalar haqida umumny qoidalarni belgilab berishi nazarda tutilsa, uning stilistika bilan ham aloqador ekani aniq tasavvur qilinadi. Stilistika birinchi galda fikrni ravshan va aniq bera olish uchun grammatika belgilab bergan umumiy qoidalaridan qaysi birini qanday holatda qo'llash maqsadga muvofiq bo'lishini belgilab beradi. Gapda fikrni tushunarli ifodalash uchun faqat grammatika qoidalariga rioya qilishning o'zigina kifoya qilmaydi, gapni stilistik to'g'ri tuza bilish ham kerak. Quyidagi misollarga e'tibor qiling: Sessiyada ishtirok etgan rayon partiya komitetining sekretari sessiya oxirida so'z olib so'zladi, ...bu nuqsonlarni tugatish uchun zarur yordam ko'rsatishlari zarur. (Gazetadan.) Bu gaplar grammatik jihatdan to'g'ri tuzilgan bo'lsa ham, sessiya, so'z, zarur so'zlarining o'rinsiz takrorlanishi stilistik nuqson sanaladi.

Ko'rinadiki, grammatik hodisalar stilistikaning ham tahlil qilish ob'yektidir. Lekin bunday tahlilning usul va maqsadlari grammatpka va stilistikada bir xil emas. Morfologiyada so'z tuzilishi, so'z formasining yasalishi, grammatik ma'no ifodalovchi morfologik vositalar o'rganiladi. Stilistikada esa faqat fikrning u yoki bu emotsional-ekspressiv ottenkasini ifodalashga xizmat qiladigan morfologik formalar tekshiriladi.

Sintaksis gapda so'zlarning birikish yo'llarini, so'zlarning gaplardagi o'zaro

aloqasini, gapning strukturasini, tiplarini, gap bo'laklarini tekshiradi. Lekin gapda ifodalanadigan fikr u yoki bu sintaktik kopstruksiyalarni qanday qo'llashga, munosabatlarni ifodalashning u yoki bu usullarini ishlatishga qarab turlicha o'ttenka olishi mumkin. Stilistikada bir xil ma'no, bir xil fikrni ifodalovchi parallel vositalar o'rganiladi. Stilistika gap bo'laklarining ma'nodoshligi, gaplarning fikrdoshligini tekshirayotganda sintaktik sinonimiya hodisalarini bir-biriga qiyoslash, taqqoslash prinsipi asosida ish tutadi, ulardan har birining fikr ifodalashdagi ekspressiv ma'no tafovutlarini aniqlaydi.

Xullas, stilistika grammatik hodisalarni fikrga turlicha bo'yoq va stilistik ohang beruvchi ekspressiv vositalar sifatida izohlaydi, tushuntiradi.

Stilistika (yunoncha *stilos* - yozuv, xat tayokchasi) uslubshunoslik, uslubiyat - tilshunoslikning til uslublarini tadqiq yetadi. «Til kishilarning eng muhim aloqa vositasidir». Binobarin, kishilar o'rtasidagi aloqa-aralashuv protsessini uyushtiruvchi ijtimoiy hodisa bo'lgan tiplarning roli nihoyatda kattadir.

Kishilar har qanday sharoitda va faoliyatning barcha sohalarida aloqa qilish jarayonida tildagi leksik, frazeologik, grammatik va fonetik vositalarni tanlash va ishlatishda bir-birlaridan ma'lum darajada farq qiladilar. Umumxalq tili doirasida til vositalarining bunday tanlab olinishi nutqning xilma-xil ko'rinishlarining paydo bo'lishiga olib keladi. Nutqning bu xilma-xil ko'rinishlari nutq stillari deb yuritiladi.

Nutq stillari — ifoda vositalari sistemasining muayyan aloqa doirasida maqsadga muvofiq tanlash natijasida tarixan tashkil topgan nutq ko'rinishlaridir.

Assalom, Elnurjon aka!

Ming-yuz ming qatla shukur: xatnngiz, xushxabaringiz keldi. Baxtimizga hamisha salomat bo'ling. Ayamlar aytishlaricha (tashvishlanmang, sihatlari oydek), butingiz orasidan shamol o'tib yursa bas emish. Gapga shahar berasiz. Lekin, Elnurjon aka, meni shunaqangi noqulay ahvolga qo'yishingiz insofdan emas. Ayamlar hadeb maktubingizni to'lasicha o'qib berishimni qistaydilar. Qani aytingchi, haligi sho'xlik aralash erkaliklarni, «yomon yigit» ekaningizga iqrorligingizni qay yuz bilan o'qib beray u kishiga? Endi bilsam sizda ham ayyorlik misqolidan anchagina bor ekan shekilli... (Sarvar Azimov.)

Bu xat o'zining tuzilishi, sintaktik qurilishi, so'z tanlash va ishlatish va boshqa leksik, grammatik xususiyatlariga ko'ra bir-biridan keskin farq qiladi. Birinchi xatda rasmiy yozishmalarga xos so'z va iboralar ishlatilgan. Ikkinchi xat esa ikki sevishtan yordan birining javob maktubi bo'lib, unda so'z tanlashda va grammatik qurilishda jonli so'zlashuv nutqiga xos erkinlik sezilib turadi, emotsional-ekspressiv bo'yoqli so'zlar tekst mazmuniga samimiylik ruhini kiritadn.

Bu xat misolida yana shularni ta'kidlash mumkinki, kishilar tildan u yoki bu

aloqa doirasida foydalanishda tarkibiy qismlari bir-birlari bilan uzviy bog'langan va bir butunlikni tashkil qiladigan ifoda vositalarinnng tuzilishiga ongli ravishda rioya qilishga majbur bo'ladilar.

Nutq stillarining har biri alohida yagona bir sistemani tashkil qiladi. Nutq stilining bir-biriga bog'liq elementlar sistemasini tashkil qilishi aloqa-aralashuv quroli bo'lgan tilning ijtimoiy tabiatidan kelib chiqadi. To'g'ri, tilning fonetik tuzilishi, grammatik qurilishi va lug'at sostavining har biri ham alohida bir sistemani, tilning o'zi esa yaxlit holda butun sistemani tashkil etadi. Tilning funksional stillari mana leksik, grammatik va fonetik sistemalarga xos barcha vositalarning ma'lum kommunikativ maqsadga ko'ra uyushishi tufayli bunyodga keladi. U faqat muayyan hodisalar sostavi bilangina emas, balki ularning bog'lanishi, aloqasi va munosabatlari bilan ham xarakterlanadi. Demak, nutq stillari tilning vazifasi — funksiyasi bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Shuning uchun ham ular funksional stillar deb yuritiladi.

Funksional stilning umumxalq tili xazinasidan tanlab olgan vositalari ayni shu stil sistemasini tashkil qiladi. Tildagi bu stilistik hodisalar tarqoq xarakterda bo'lmay, balki kommunikativ vazifasi va umumiy stilistik bo'yog'i bilan o'zaro aloqador elementlar sistemasini tashkil etadi.

Demak, tilning stilistik sistemasini ta'riflashda til birliklaridagi funksional-stilistik bo'yoq muhim belgi sifatida asosga olinishi kerak. Ekspressiv-stilistik bo'yoq esa, asosan, so'zlarning o'zaro semantik munosabati tufayli sodir bo'ladi. Buni, ayniqsa, bir sinonimik qatordagi so'zlarni taqqoslaganda yaqqol ko'rish mumkin. Masalan, jilmaymoq, iljaymoq, irjaymoq, tirjaymoq, ishshaymoq, irshaymoq kabi bir sinonimik qatordagi so'zlar o'z stilistik bo'yog'iga ko'ra farqlidir. Jilmaymoq va iljaymoq so'zlari stilistik bo'yog'i jihatidan neytral hisoblanadi. Irjaymoq, tirjaymoq, ishshaymoq, irshaymoq so'zlari salbiy ottenkaga ega. Bu salbiy ottenka irjaymoq so'ziga nisbatan tirjaymoq so'zida, tirjaymoq so'ziga nisbatan ishshaymoq so'zida, ishshaymoq so'ziga nisbatan irshaymoq so'zida kuchliroq.

Ba'zan yakka holda olingan so'z va grammatik qurilish stilistik bo'yog'ining qaysi stilga mansubligini annqlash ham qiyin bo'ladi. So'z va grammatik qurilishning stilistik bo'yog'i faqat ma'lum nutq tekstida boshqa elementlar bilan bo'lgan munosabat va bog'lanishda shakllanadi. Bunday stilistik bo'yoq nutq situatsiyasida reallashadi. Masalan, tulki so'zi yovvoyi hayvonlarningbir turiga nisbatan ishlatilsa, stilistik bo'yog'i neytral bo'ladi; odamga qarata «quv, ayyor» ma'nosida qo'llansa, bu so'z muayyan stilistik bo'yoq kasb etadi.

Adabiy tilning stilistik sistemasi jargon, mahalliy dialekt va shuning kabi tildagi boshqa hodisalar bilan ham ma'lum munosabatda bo'ladi. Masalan, umumxalq tiliga jargonlar, ko'pincha, oddiy so'zlashuv stili orqali kirib keladi. Badiiy nutq stilida esa ba'zi personajlarning tilini individuallashtirish uchun ulardan qisman foydalaniladi.

Dialektal soʻzlar ham adabiy til stillari sistemasi bilan asosan oddiy soʻzlashuv va baʼzan badiiy nutq stili orqali munosabatda boʻladi. Dialektal soʻzlar oʻz sistemasi doirasida, odatda, maxsus stilistik boʻyoqqa ega boʻlmaydi. Ammo dialektizmlar adabiy tilning muayyan funksional stili doirasiga oʻtishi bilan oʻsha stilga mos va muvofiq keladigan stilistik va emotsional boʻyoq olishi, masalan, oddiy soʻzlashuv stiliga yoki poetik stilga xos boʻyoq kasb etishi ham mumkin. Oddiy soʻzlashuv stilining koʻpgina xususiyatlari kelib chiqishiga koʻra dialektlarga borib taqaladi. Lugʻatlarda alpoz, manot («soʻm»), yalpizlamoq kabi soʻzlarni bir yoʻla shevaga hamda soʻzlashuv tiliga oidlik («obl. razg.»— oblastnoye-razgovornoye slovo) belgilari bilan berilishi ham bejiz emas¹.

Shuni ham antish kerakki, nutq stillari sistemasini tashkil qiluvchi vositalarning bir-biri bilan oʻzaro bogʻliqligi ayni shu nutq stilining asosiy funksiyasidan kelib chiqadi. Masalan, ilmiy stilning asosiy funksiyasi — tabiiyot va ijtimoiy hayot hodisalarini, u yoki bu fikrning logik isbotini aniq taʼriflash va izohlashdan iborat. Ilmiy stilning mantiqiy xarakteri uning leksik-frazeologik va grammatik xususiyatlarida oʻz ifodasini topadi. Bu stilda narsa va hodisalarni aniq belgilovchi va toʻgʻri maʼnoda ishlatiluvchi terminologik xarakterdagi soʻz, iboralar koʻpchilikni tashkil qiladi.

Nutq stili sistemasini tashkil qiluvchi elementlarning baʼzlari boshqa bir stil tarkibida ham uchrashi mumkin. Lekin bu elementlar tarkibiy qismlarining yigʻindisi ayni bir stilga mansublikni koʻrsatadi. Masalan, ilmiy terminlar rasmiy, publitsistik va soʻzlashuv kabi turli stillarda ishlatilishi mumkin, lekin ularning stilistik jihatdan bir xil boʻlgan leksik, grammatik va fonetik hodisalar bilan bogʻlanib, bir butun stilni hosil qilishi faqat ilmiy stil tarkibidagina roʻyobga chiqadi.

Demak, har bir nutq stili oʻzining barcha elementlari bilan yagona va alohida maqsad uchun boʻysungan muayyan til vositalari kompleksiga ega. Shunga koʻra, nutq stili — ifoda vositalarining maqsadga muvofiq uyushgan sistemasidan iborat deyish mumkin.

Nutq stillari til taraqqiyotining maʼlum davrida asta-sekin shakllanadi va oʻzgarishlarga uchraydi. Masalan, XX asr boshida hozirgi Oʻzbekiston territoriyasida nashriyot va vaqtli matbuot ishlari doirasining kengayib borishi bilan bogʻliq holda oʻzbek tilida publitsistika stili yuzaga keldi. Oʻzbek adabiy tilidagi bu yangi stilning leksik, frazeologik va grammatik vositalari rivojini rus gazeta va publitsistik stilining barakali taʼsiri-siz tasavvur qilish qiyin. Chunonchi, 1903—1917 yillardagi oʻzbek adabiy tili leksikasini maxsus tekshirgan professor A. K. Borovkovning koʻrsatishicha, bu davr vaqtli matbuotida, ayniqsa, siyosiy leksika va frazeologiyaning rivojlanishida rus tilining taʼsiri juda katta boʻldi. 1920 yillardan esa badiiy stil boyidi va taraqqiy qildi. Publitsistik stil shakllandi, umumxalq tili zaminida rasmiy, ilmiy singari yangi nutq stillari vujudga keldi.

Nutq stil tushunchasi — ogʻzaki va yozma nutq formalari bilan uzviy

bog'liq. Bir nutq stili aloqa formalarining har ikkalasida ham ishlatilishi mumkin. Masalan, ilmiy stil aloqaning yozma formasida ham (ilmiy kitoblar, maqola, darslik), og'zaki formasida ham (leksiya, doklad va boshqalar) uchraydi. So'zlashuv stili, odatda, kishilarning o'zaro og'zaki fikr almashuv murosa-soatlarida ishlatilsa ham, ammo undan yozma nutq aloqalarida, masalan, xat, kundalik, esdalik kabilarda ham foydalaniladi. Shuni ham aytish kerakki, nutq stillari aloqa formalarining ifoda vositalarini tanlashga bo'lgan ma'lum ta'sirini inkor qilmagani holda, hamma vaqt o'zlarining asosiy belgi-xususiyatlarini saqlaydi. Masalan, yozma aloqa formasida so'zlarni e'tibor bilan tanlash va nutqni grammatik jihatdan aniq shakllantirish tufayli fikrni yana ham ravshan va tushunarli ifodalashga erishiladi.

Tilda turli nutq stillarining mavjudligi umumxalq tili birligini inkor etmaydi. Har qanday so'z qaysi stilda qo'llanmasin, u umumxalq tili lug'atiga mansub bo'ladi. U yoki bu nutq stilida ishlatiladigan har qanday grammatik konstruksiya til grammatik sistemasining tarkibiy qismi hisoblanadi. Shu tilda so'zlashuvchilar vaziyat va aloqa xarakteriga qarab tilda mavjud bo'lgap nutq stillarining birortasidan foydalanadi. Barcha nutq stillari shu til egasining umumboyliqi sanaladi. Masalan, rasmiy ishlar doirasida so'zlayotgan yoki yozayotgan kishi rasmiy stil normalariga rioya qilishga harakat qiladi; ilmiy faoliyatda esa ilmiy stil normalariga rioya qilishga intiladi.

Nutq stillari o'zlariga xos belgi va farqlardan qat'i nazar, adabiy til normalari asosida umumiylikka ega. Adabiy norma tilning tovush sistemasini, grammatik qurilishi hamda uning lug'at sostavidagi eng tipik hayotiy va zaruriy elemeptlarini tanlab olish asosida tashkil topadi. U tilning eng yuksak, ishlangan, silliqlashgan formasidir. Adabiy normalar faqat yozma adabiy til uchungina taalluqli bo'lmay, u og'zaki adabiy til uchun ham zaruriy holatdir. Shuniig uchun adabiy tilning og'zaki formasida (doklad va leksiyalar, radio va televideniyedagi chiqpshlar, jonli suhbatlar) ham adabiy normaga bo'ysuniladi, uning qonun-qoidalarpga rioya qilinadi. Funksional stillar nutq ko'rinishlariing asosiy funksiyalariga (aloqaaralashuv; ta'spr etish vositasi bo'lishiga) muvofiq qismlarga bo'linishidir. Shunga ko'ra adabiy tilning quyidagi funksional stillari ajratiladi: 1) s o' z l a s h u v s t i l i; 2) r a s m i y s t i l; 3) i l m i y s t i l; 4) p u b l i s i s t i k s t i l; 5) b a d i i y s t i l.

Tilning bu funksional stillari inson faoliyatining u yoki bu sohasiga mos keluvchi umumxalq adabiy tilining turli xpl ko'rinishlaridir. Funksional stillarni nomlash va atash ham ularning qanday aloqa doirasida ishlatilganligiga qarab belgilanadi. Chunki bir xil narsa va hodisalar haqidagi fikrlar turli xil stillarda birdek bayon qilinmaydi.

2-Mavzu: Tilning funksional uslublari.

Reja :

- 1 Vazifadosh uslublar va ularning turlari.
- 2 Til va nutq tushunchasi.
- 3 Adabiy me'yor uslubiy me'yor.

Mavzu uchun tayanch atamalar: Funktsional uslub, nutq jarayoni, kitobiy uslub, so'zlashuv uslubi, ilmiy nutq uslubi, publististik uslub, rasmiy-ish nutqi uslubi.

Jamiyat, unda faoliyat ko'rsatayotgan xalq tinimsiz rivojlanish va taraqqiyotda bo'lgani kabi ularning tili ham uzluksiz boyib borishi tabiiy bir holdir. Juda ko'p asrlardan buyon o'z xalqi va millatining aloqa vositasi bo'lib kelayotgan o'zbek tilining imkoniyatlari uning barcha ko'rinishlarida yana ham kengaydi, zamonlar silsilasida, badiiy ijod jarayonida sayqal topdi. U endi o'zbek xalqi uchun o'zaro aloqa qilish, muloqotda bo'lish va bir-birlariga xabar uzatish vositasigina emas, balki yuksak badiiy-estetik tuyg'ularni ham ifodalaydigan va xuddi shunday ta'sir ko'rsata va zavq bera oladigan nodir boylikka aylandi.

Ana shu nodir boylikni, boshqacha qilib aytganda, ona tilimizning serqirra imkoniyatlarini butun nozikliklari bilan tahlil qilish va uni yana o'zining ijodkori bo'lgan xalqqa qaytarish o'zbek tili stilistikasi fanining bosh vazifasi bo'lib qoldi.

Ushbu muhim vazifani hal etishga kirishishdan avval mazkur fanning mundarijasini belgilab olish maqsadga muvofiq bo'ladi. «Milliy til stilistikasining mundarijasi birmuncha keng bo'lib, u tilning barcha stilistik sistemasini tekshiradi. – degan edi soha tadqiqotchilaridan biri I.Rasulov. – Bu stilistik sistema stillardan tashqari, tilning yozma va og'zaki formalarini, adabiy va so'zlashuv nutqi ko'rinishlarini ham o'z ichiga oladi. Shunday qilib, stilistika til birliklaridan qaysi biri u yoki bu stilda, yozma yoki og'zaki nutqda ko'proq ishlatiladi, degan masala bilan shug'ullanadi. Bundan tashqari, stilistikaga fikr va maqsadni ifodalashda til vositalarining to'g'ri tanlangani yoki tanlanmaganligini aniqlash hamda shu til vositalarini maqsadga muvofiq tanlash va ishlatish yo'llarini belgilash vazifalari yuklatiladi».

Mazkur kuzatishda qarab chiqiladigan o'zbek tili funksional stilistikasi (FS) masalalari ham milliy til stilistikasining ana shu mundarijasi tarkibida qaraladi. O'zbek tilining FSga oid mulohazalarni bayon etishdan avval funksional stilistika yoki funksional uslub tushunchalarining mohiyati va ularning tasnifi haqida mulohaza yuritishimizga to'g'ri keladi.

Funksional uslub tushunchasi. Stilistika alohida fan sifatida shakllangandan buyon funksional uslubshunoslik ham zamonaviy stilistikaning markaziy yo'nalishlaridan biri sifatida soha tadqiqotchilarining e'tiborida bo'lib kelmoqda.

Kishilar o'z ijtimoiy faoliyatlarida tildagi barcha vositalardan – fonetik,

grammatik, leksik, frazeologik birliklardan foydalanganlarida, avvalo, ularni o'z ehtiyojlaridan kelib chiqib, nutq mavzusiga, vaziyatga qarab tanlaydilar va qo'llaydilar. Tilimizdagi vositalarning bir nechalab ko'rinishlarga ega bo'lishi, sinonimik rang-baranglik shunday yo'l tutishga imkon beradi. Mana shu tanlash nutq jarayonida til birliklarining o'ziga xos uslubiy chegaralanishini taqozo qiladi. Til birliklarini ijtimoiy muhitda tanlab ishlatish zarurati va ularni tilshunoslikda ilmiy-amaliy tahlil qilish stilistikada yangi sohani – funksional stilistikani vujudga keltirdi.

M.N.Kojinaning ta'rificha, «funktional stilistika – bu tilning turli muloqot doiralarida amal qilish qonuniyatlarini, inson faoliyatining u yoki bu sohalariga muvofiq kelish darajasini, shuningdek, funksional uslublar va boshqa funksional uslubiy ko'rinishlarda til vositalarining tanlanish me'yori va muvofiqligi jamlanadigan nutqiy tizimni o'rganadigan tilshunoslik ilmidir».□

Anglashiladiki, tilda alohida uslublarning vujudga kelishi bevosita nutqiy jarayon bilan bog'liq va undan tashqarida funksional uslublar (FU) to'g'risida gapirish mantiqsizlikdan boshqa narsa emas. Tilning ekspressiv imkoniyatlari va uning qo'llanishidagi chegaralanish va xoslanishlar ham faqatgina nutqiy jarayon tufayli namoyon bo'ladi. Shuning uchun masalaga til uslublari va nutq uslublari tushunchalari nuqtai nazaridan yondashish, savolni Fular til hodisasimi yoki nutq hodisasimi, Fularni ularning qaysi birining tarkibida qarash lozim, tarzida qo'yish to'g'ri bo'lmaydi. O'zbek tilining ijtimoiy vazifasi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan funksional uslubshunoslik til va nutq dialektikasining bevosita mahsuli sifatida yuzaga kelgan bo'lib, o'zbek tili materialining o'zbek muloqot shaklining turli ko'rinishlarida namoyon bo'lish xususiyatlarini tadqiq etish bilan shug'ullanadi.

Insonlar hayoti va u mashg'ul bo'ladigan sohalarning turli-tumanligi ularning yoshi, jinsi, bilim darajasi, kasbi, jamiyatda tutgan mavqei va boshqa omillarga bog'liq ravishda tildan foydalanishning o'ziga xos manerasini, yana ham aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, o'ziga xos uslubini keltirib chiqaradi. Tildan foydalanishdagi uslublar rang-barangligining boisi ham ana shunda. Shuning uchun ham tildan foydalanishda har bir kishining jinsi, yoshi yoki kasbidan, u yashayotgan ijtimoiy muhitdan kelib chiqadigan o'z uslubi bo'lishi mumkin. Hayot jabhasi, insoniyatning faoliyat doirasi va ko'lami g'oyatda keng. Har bir ijtimoiy sohada tilni ehtiyojdan kelib chiqib iste'mol qiladi. Bu ham tabiiy ravishda tildan foydalanishning o'ziga xos tarzini, uslubini keltirib chiqaradi. Demak, tilni iste'mol qilish kompleksida har bir individning, kasb egalarining, ijtimoiy guruhlarining, hatto muloqot jarayonining o'z uslubi bo'lishi tabiiy. Funksional uslub tushunchasi nutqiy faoliyatning ana shu jihatlarini o'zida mujassam qiladi.

Adabiy tilning barcha sathlarida, aytaylik, fonetik, leksik-frazeologik, grammatik sathlarida me'yorlarning mavjudligi ularning amalda bo'lishidagi o'z uslubiy me'yorlarini keltirib chiqaradi.

O'zbek tili Fularining yashash shart-sharoitlari ko'lami g'oyatda keng. Bu

uslublar o'zbek xalqi ijtimoiy hayotining barcha sohalarini qamrab olar ekan, faqatgina adabiy til doirasiga kirgan elementlar ularning faoliyatini ta'minlaydimi, degan savol tug'iladi. Yo'q, albatta. Fular o'zbek umumxalq tilining manbalaridan oziqlanadi. Har bir FU o'zi xizmat qilayotgan ijtimoiy soha talab va ehtiyojlaridan kelib chiqib, bu manbalarga murojaat qiladi.

Shuning uchun ham o'zbek tilshunosligining bugungi taraqqiyotida Fularni o'rganish sotsiologistik jihatdan g'oyatda dolzarb masalaga aylandi. Buning asosiy sabablaridan biri mustaqillik sharoitida o'zbek lug'at tarkibida bo'lgan jiddiy o'zgarishlar, tilning turli muomala jarayonida aloqa imkoniyatlarining kengayganligi va tobora takomillashib borayotganligi bo'lib hisoblanadi. Ona tilimizning xalqaro nufuzi ortib borayotganligi, nafaqat mamlakatimiz doirasida, balki ayrim undan tashqarida ham bo'layotgan anjumanlarda xalqaro muloqot vositasi sifatida qo'llanilayotgani buning yaqqol dalilidir.

Funksional uslublar tasnifi. Yuqorida qayd etganimizdek, agar har bir individ, kasb egasi yoki ijtimoiy guruhlarining tildan foydalanishdagi o'ziga xos jihatlarini inobatga oladigan bo'lsak, muayyan bir tildan foydalanishda ham son-sanoqsiz uslublarni o'rganishga to'g'ri kelar edi. Amalda esa buning imkoni bo'lmaydi. Shundan kelib chiqib, ularni muayyan guruhlariga ajratgan holda o'rganish, tasniflash zarurati paydo bo'ladi.

Tilshunoslikning stilistika sohasi bilan shug'ullangan deyarli barcha taniqli olimlar Fularga o'z munosabatlarini bildirishgan, ularning tasnifini berishga harakat qilishgan (Vinogradov V.V., Yefimov A.I., Kojina M.N., Azimov P., Balaqayev M., Baskakov N.A., Gorelov V.I., Kurbatov X., Xovanskaya V.I. va boshqalar). Bu tasniflarning birining ikkinchisiga aynan o'xshaydiganlari kam. Tadqiqotchilarning biri ajratganlarini ikkinchisi birgalikda olib qaraydi, yoki aksincha, birgalikda olib qaralgan holatlar ajratiladi. Shunday qilib, Fular soni o'ntagacha ko'rsatiladi: badiiy-belletristik, ijtimoiy-publitsistik (matbuot), ilmiy bayon, texnik-ishlab chiqarish, rasmiy-hujjat (idoraviy), epistolyar, neytral, notiqlik, maishiy nutq, diniy kabi.

Tasniflar borasida o'z mulohazalarini bildirgan ayrim mualliflar (M.Balaqayev, V.Bondaletov, X.R.Kurbatov, A.I.Chijik-Poleyko) Fularni bunday tasnif qilgunga qadar, avvalo ikkiga – yozma (kitobiy) va og'zaki (so'zlashuv) uslublariga bo'lib qarash lozim deb hisoblaydilar.

Turkologiyada, jumladan, o'zbek tilshunosligida ham Fularni tasnif qilishning hozirgacha yagona prinsipi ishlab chiqilgan bo'lmasa-da, ushbu masala bilan olimlarimiz shug'ullanishgan. Turmush sharoitiga, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy taraqqiyot darajasiga ko'ra, tilning qanchalik rivojlanganligi va undan foydalanish madaniyatiga qarab turli tillarda Fular miqdori turlicha ekanligi haqida fikrlar bildirilgan.

Masalan, A. Sulaymonovning «Til stillari haqida» nomli maqolasi o'zbek tilshunosligida ana shu masalaga oydinlik kiritish yo'lidagi dastlabki urinishlardan

biridir. Muallifning «Stilistikaning vazifasi u yoki bu stilda yoki nutq formasida, ya'ni og'zaki va yozma nutqda, qanday til hodisalari ko'proq qo'llanishini aniqlashdan iboratdir», degan gaplaridan tushunish mumkinki, u til yoki nutq uslublarini yozma va og'zaki – so'zlashuv uslublariga ajratgan.□

Akad. G'. Abdurahmonov ham mazkur masalaga e'tiborini qaratgan. U «Stilistik normalar haqida» maqolasida quyidagilarni yozgan edi: «Ma'lumki, nutq ikki xil (yozma va og'zaki) nutqdan iborat.

Yozma nutq: 1) badiiy nutq, 2) ilmiy nutq, 3) publitsistik nutq, 4) rasmiy nutq, 5) neytral nutqdan iboratdir (Bu nutq turlari ayrim adabiyotlarda stilistik qatlamlar sifatida talqin qilinadi).

Og'zaki nutq esa turli ijtimoiy qatlamlarning nutqlaridan, turli sheva nutqlaridan tashkil topadi.

Nutq stili bo'lsa quyidagi qatlamlardan iborat bo'ladi: 1) neytral stil, 2) tantanali stil, 3) intim stil, 4) yumoristik stil va satirik stil, 5) rasmiy stil.

Nutqda (xoh yozma, xoh og'zaki bo'lsin) bu stil qatlamlari aralashib keladi, nutq janriga ko'ra biror stilistik qatlam yetakchi, asos bo'ladi».

I. Qo'chqortoyev «O'zbek adabiy tilining stilistik ixtisoslashuvi, uning funksional uslublari ilmda ham qat'iy chegaralab berilgan emas. Shuning uchun bu masala yuzasidan hozircha aniq, izchil bir fikr aytish qiyin, albatta. Lekin o'zbek adbiy tili doirasida badiiy, ilmiy, ijtimoiy-siyosiy uslublarning o'ziga xos xususiyatlari, ularni bir-biridan farqlaydigan belgilar ma'lum darajada aniq sezilib turadi», deyish bilan bu masalaga ancha ehtiyotkorlik bilan yondashganligi sezilib turadi.

B.O'rinboyev ham «Funksional uslubiyat va uning mohiyati» asarida ushbu masalaga to'xtalgan: «Hozirgi o'zbek tilidagi uslublar quyidagilardan iborat deb hisoblaymiz:

1. .Til uslublari.
2. .Kitobiy uslub;
3. So'zlashuv uslubi.
4. Nutq uslublari.
5. .Asosiy kommunikativ uslub.

Bu uslubga o'z navbatida:

- a) so'zlashuv nutqi uslubi;
- b) ilmiy nutq uslubi;
- v) gazeta – publitsistik uslubi;

g) rasmiy – ish nutqi uslubi kiradi».

FUlar tasnifi masalasiga oid fikrlar S. Muhamedov tomonidan ham aytilgan. U «O'zbek tili funksional stillarini belgilash to'g'risida» nomli maqolasida o'zbek tilidagi uslublar sonini 3 ta deb ko'rsatgan: rasmiy-ish funksional uslubi, ilmiy funksional uslub, publitsistik uslub.

A.Shomaqsudov quyidagilarni qayd etgan: «Funksional stillar nutq ko'rinishlarining asosiy funksiyalariga (aloqa-aralashuv; ta'sir etish vositasi bo'lishiga) muvofiq qismlarga bo'linishidir. Shunga ko'ra adabiy tilning quyidagi funksional stillari ajratiladi: 1) so'zlashuv stili; 2) rasmiy stil; 3) ilmiy stil; 4) publitsistik stil; 5) badiiy stil».

Ko'rinadiki, o'zbek olimlarining masalaga qarashida har xilliklar, munozarali jihatlar mavjud. Biz bu qarashlarga «O'zbek tilining badiiy uslubi» nomli monografiyamizda o'z fikr-mulohazalarimizni bildirganmiz.

Bu gal munozaralarni chetlab o'tib, Fular tasnifida nimaga asoslanib ish ko'rishimiz lozim, degan savolni o'rta qo'yamiz. Masala shunday qo'yilganda unga yondashishning ikki yo'li e'tiborni ko'proq o'ziga tortadi: 1) tilning vazifasiga asoslanish; 2) u qo'llanadigan doirani, muhitni e'tiborga olish. Bunday paytda til bajaradigan ijtimoiy vazifadan kelib chiqib ish ko'rish maqsadga muvofiqligi e'tiborga olinsa, V.V.Vinogradovning quyidagi tasnifi nima uchun shuhrat qozonganligining sababini tushunish qiyin bo'lmaydi: «Tilning aloqa, xabar va ta'sir kabi muhim ijtimoiy vazifalari ajratilganda til qurilishi umumiy planida quyidagi uslublar chegaralangan bo'lishi mumkin edi: kundalik-maishiy uslub (aloqa vazifasi) kundalik-xizmatga doir, rasmiy-hujjat va ilmiy (xabar vazifasi), publitsistik va badiiy-belletristik (ta'sir vazifasi)».□

FUlarni tasniflashda V.V.Vinogradov fikrini alohida bir prinsip sifatida e'tirof etish to'g'ri bo'ladi. Lekin ba'zi tadqiqotchilar Fular tasnifida faqat til bajarayotgan vazifani hisobga olishning o'zi yetarli emas deb hisoblaydilar, bunda ular nutqning mavzusi, so'zlovchining va tinglovchining (yozuvchining yoki o'quvchining) shaxsi va ular o'rtasidagi munosabat, muloqot paytidagi nutqiy vaziyat kabilarning ham ahamiyatli ekanligini qayd etadilar. «Hozirgi zamon stilistikasida, - deb yozadi V.G.Kuznetsov, – funksional uslublarni ijtimoiy ongning ma'lum sohalari bilan o'zaro munosabati hamda ijtimoiy munosabatlarga aloqadorligiga bog'liq holda ajratish prinsipi keng tarqaldi. Moddiy borliqni, real voqelikni aks ettira borib, ijtimoiy ong – jamiyat hayotining ma'naviy tomoni – ma'lum huquqiy, yuridik, siyosiy, ilmiy, estetik, etik va boshqa qarashlarni, tasavvur va nazariyalarni o'ziga qo'shib oladi. Ijtimoiy ong doirasi uslubga nisbatan birlamchi bo'lib, uning shakllanishi, amal qilishi va rivojlanishini belgilaydi. Ijtimoiy ongning har bir sohasi ma'lum til vositalarini tanlash va (ma'lum matnga) berkitishda o'z ifoda usuliga ega. Shunday qilib, funksional uslublarni aniqlash zahirida ekstralingvistik omil bo'lishi kerak».□

V.G.Kuznetsovning fikrini Fularni tasniflashning asosiy prinsipi sifatida

qabul qilib bo'ladimi? Yo'q, albatta. Chunki til hodisalariga oid har qanday tasnifda lingvistik omillar yetakchi bo'lishi aniq. Ammo bu fikrni inkor qilish ham mumkin emas. Chunki Fular tasnifi bevosita nutqiy jarayon bilan bog'liq ekan, bunda ana shu jarayonda ishtirok etadigan ekstralingvistik omillarni aslo chetga surib qo'yib bo'lmaydi. Shuning uchun ham olimning nuqtai nazarini qo'shimcha, V.V.Vinogradov prinsipini to'ldiruvchi, ayni paytda, zarur prinsip sifatida qabul qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. Boshqacha aytganda, har ikki omil – lingvistik va ekstralingvistik omillar birgalikda, yaxlitlikda olingandagina Fular tasnifiga bo'lgan qarash atroflicha va mukammal bo'lishi, ularning qamrov doirasi birmuncha aniq ifodalanishi mumkin, deb o'ylaymiz.

O'zbek tilidagi Fularga doir qarashlar umumlashtiriladigan bo'lsa, uslublar dastlab og'zaki va yozma shakllarga, ularni yana o'z navbatida ilmiy, rasmiy, publitsistik, badiiy, diniy va so'zlashuv kabi ko'rinishlarga ajratish haqida qarashlar mavjudligi ma'lum bo'ladi. Hozircha ulardan beshtasi – ilmiy, rasmiy, ommabop, badiiy, so'zlashuv uslublari va ularning me'yoriy xususiyatlari, til materiali sifatidagi hamda nutq jarayonidagi o'ziga xosliklari o'zbek tilshunosligida monografik yo'nalishda o'rganilgan.□ Ammo diniy uslub o'zbek tilida haqiqatdan mavjudmi, agar mavjud bo'lsa, uning lingvostilistik xususiyatlari nimalardan iborat, degan masala hozircha o'rganilgan emas.□

Har bir FU doirasidagi og'zaki yoki yozma ko'rinishlar, har bir uslub qamroviga kiradigan tarmoqlar va janrlar ham o'z navbatida alohida uslubiy xususiyatlarga ega bo'lsa-da, ularni ana shu beshta FU fonida o'rganish maqsadga muvofiq bo'ladi. Jamiyat taraqqiy etagani sari bu uslublar nafaqat sifat jihatdan takomillashib boradi, balki ularning miqdori ortishi ham ehtimoldan xoli emas. Biz ham nutqning og'zaki va yozma shakllari mavjudligini e'tibordan chetda qoldirmagan holda o'zbek tilida yuqoridagi beshta uslub mavjudligini e'tirof etamiz va kuzatishlarimizni shu tasnifga tanyagan holda olib boramiz.

3-Suzlashuv uslub

Reja:

- 1 Adabiy suzlashuv va oddiy suzlashuv uslubi .
- 2 Suzlashuv uslubiing leksik-frzologik xususiyatlari.
- 3 Suzlashuv uslubining marfolagik, sintaktik xususiyatlari.

Mavzu uchun tayanch atamalar: So'zlashuv uslubi, adabiy so'zlashuv, oddiy so'zlashuv, uslubiy bo'yoq, emotsional-ekspressiv so'z .

Hozirgi o'zbek tilining so'zlashuv stili ikki asosiy turga ajratiladi: adabiy so'zlashuv stili va oddiy so'zlashuv stili.

Adabiy so'zlashuv stili tilning adabiy normalariga mos, tartibga solingan va ishlangan bo'lishi bilan xarakterlanadi. Uning tili sodda: jargon va sheva elementlaridan xolidir. Adabiy so'zlashuv stili o'z adabiy tilini bilgan kishilar uchun tanish va ma'lum bo'lgan asosiy stil hisoblanadi. Tilning adabiy so'zlashuv stili kundalik aloqa-aralashuv uchun xizmat qiladi: maktab-larda va o'quv yurtlarida o'qitish ishlari shu stilda olib boriladi, undan badiiy adabiyotda juda keng foydalaniladi. Qisqasi, adabiy so'zlashuv stili umumxalq adabiy tilining eng keng va universal turidir.

Oddiy so'zlashuv stili uchun esa betakalluflik bilan erkin muomala — aloqa qilish xarakterli xususiyatdir. Unda so'zlashuv nutqiga xos emotsionallik yaqqol sezilib turadi. Bu hol, ayniqsa, uning sintaktik qurilishida, lug'at boyligidan so'z tanlashida yaqqol ko'rinadi. Oddiy so'zlashuv stili tarkibiga sodda tilga xos elementlarni, ya'ni u yoki bu darajada tilning adabiy normalariga mos kelmaydigan fonetik, grammatik va leksik-frazeologik hodisalarni kiritish mumkin.

So'zlashuv stilining bu ikki turi o'zining bir qator grammatik, leksik-frazeologik va fonetik xususiyatlariga ega.

So'zlashuv stilining fonetik xususiyatlari. So'zlashuv stilida, bir tomondan, umumadabiy tilga xos, ikkinchi tomondan, og'zaki nutqqa xos talaffuz xususiyatlarini ko'rish mumkin.

Nutqning xarakter va xususiyatlariga ko'ra talaffuz normalarini ikki tipga ajratish mumkin. Birinchi tip talaffuz normasi lektorlar, aktyorlar, diktorga, notiqchalar nutqi uchun xarakterli bo'lib, adabiy til normalariga rioya qilishni talab etadi, unda har bir so'z aniq, dona-dona talaffuz qilinishi shart.

Talaffuzning ikkinchi tip normasi esa, asosan, so'zlashuvda, og'zaki nutqda uchraydi. So'zlashuv stilida umumiste'moldagi adabiy-neytral so'zlarni talaffuz qilishda birmuncha erkinlik sezilib turadi. So'zlashuv stiliga mansub so'zlar ko'pincha amaldagi adabiy-normativ shakllardan farqlanuvchi yoki unga qarama-qarshi keluvchi fonetik belgilarga ega. Buning quyidagi ko'rinishlari mavjud.

So'z tarkibidagi tovushlarning o'rin almashinishi: qiyg'ir, nalat, shapra, o'rpimoq so'zlari talaffuzga ko'ra jonli so'zlashuvga xos bo'lib, ularning adabiy talaffuz formasi qirg'iy, la'nat, sharpa, o'pirmoqdir.

So'z tarkibidagi tovushlarning tushib qolishi: quflamoq (qulflamoq), tashamoq (tashlamoq), ko'kartmoq (ko'kartirmoq), barikaram (bargikaram).

Biror tovushning orttirilishi: chechmoq (yechmoq), qamchin (qamchi), korchallon (korchalon), yangitdan (yangidan).

4. Tovush almashinishi: bo'qoq (buqoq), mo'nchoq (munchoq), ko'-mirchak (kemirchak), ko'ynak (ko'ylak), tannov (tarnov), qamich (qamish), nusqa (nusxa), qalmoq (qarmoq), qimillamoq (qimirlamoq), tiqillatmoq (tiqirlatmoq), boylamoq (bog'lamoq), maxta-moq (maqtamoq) va boshqalar.

5. Affikslar qo'shilishi natijasida o'zak-negizlarda hosil bo'ladigan qisqartmalar: opti (olipti), kepti (kelibdi), opkepti (olib kelibdi).

Talaffuzning bu usuliga xos ko'rinishlaridan badiiy adabiyotda og'zaki nutqni aks ettiruvchi o'rinlarda, asar qahramonlari nutqida foydalaniladi.

So'zlashuv stilining leksik-frazeologik xususiyatlari. So'zlashuv stilida ishlatiladigan lug'atning asosiy qismini aktiv leksik qatlam tashkil qiladi. Shuningdek, adabiy-neytral lug'atning katta bir qismi kundalik hayotdagi narsa va hodisalarni ifodalashga oid bo'lib, ular ham asosan, so'zlashuv stilida ishlatiladi. Masalan: non, osh, tuz, yer, osmon, quyosh, yulduz, kishi, bola, er, xotin, o'rtoq, oyoq, qo'l, ko'z, ota, ona, kitab, qalam, xalq, olmoq, kelmoq, uxlamok, sen, biz, u, bu va boshqalar. So'zlashuv stilidan kishilar faqat kundalik turmush muomalasidagina emas, balki xilma-xil sharoitlarda — uyda, ko'chada va ish joylarida ham foydalanadilar. Shuning uchun so'zlashuv stilida kundalik turmushga oid lug'atdan tashqari, siyosat, san'at, madaniyat, sport va so'zlovchining kasb-hunariga mansub xilma-xil narsa va hodisalarni ifodalovchi umumadabiy leksika ko'plab ishlatiladi.

So'zlashuv stilining asosini tashkil etuvchi umumadabiy leksika «maxsuslik» xususiyatiga ega bo'lmay, balki har qanday nutq stilida ham, turli xil faoliyat doirasida va ijtimoiy muhitda ishlatilishi jihatdan stilistik neytral hisoblanadi. So'zlashuv stilini asosan so'zlashuv bo'yog'iga ega bo'lgan leksika xarakterlaydi. Stilistik bo'yoqli so'zlashuv elementlariga oddiy so'zlashuv hamda sodda tilga oid leksika kiradi. Oddiy so'zlashuv leksikasiga, yuqorida aytib o'tilganidek, adabiy til normalariga mos keluvchi so'zlashuv stilining oddiy so'zlashuv turida ko'proq ishlatiladigan so'zlar kiradi. Sodda tilga esa adabiy normaga u yoki bu darajada mos kelmaydigan leksika kiradi. So'zlashuv stili salbiy va ijobiy munosabatni ifodalovchi ekspressiv leksikaga juda boy. Masalan, bola, farzand, jujuq, churvaqa so'zlari o'zaro ma'lum semantik munosabatda bo'lib, asosan bir ma'noni anglatadi. Bulardan bola so'zi betaraf, u barcha nutq stillarida keng qo'llanadi. Farzand so'zi ko'proq kitobiy stilga xos. Jujuq esa jonli so'zlashuvga xos bo'lib, unda erkalash-suyish ottenkasi bor. Churvaqa so'zida esa stilistik bo'yoq juda aniq seziladi va bu so'zda umuman mensimay qarash ma'nosi mavjud.

So'zlashuv stilida tasviriy so'zlardan yasalgan fe'llar ham ko'p ishlatiladi. Masalan: akillamoq, bobillamoq, valdiramoq, do'ng'illamoq, ming'illamoq, po'killamoq, po'ng'illamoq, to'ng'illamoq, ting'illamoq kabi. Kamsitish, mensimaslik, umuman betakalluf muomalada ishlatiladigan bunday birliklar tovush va obraz bilan bog'lpq bo'lgan harakatni ifodalaydi hamda shu harakatning bevosita atamasi bo'ladi. So'zlashuv stilida keng tarqalgan

hodisalardan yana biri ot turkumidagi so'zlarni qisqartirib ishlatishdir. Masalan, quyidagi qisqartmalar jonli tilimizda keng ishlatiladi: mil-mil (million-million), kilo (kilogramm), gidro (gidrostansiya), foto (fotografiya), metro (metropolitan), avtomat (avtomat, telefon), lineyka («pioner lineykasi» ma'nosida), taksi (taksomo-tor, ya'ni kirakash avtomobil), marshrutka (marshrutli taksi — belgilangan marshrutga qadar boradigan avtomobil).

Ma'lumki, so'zning ichki formasi, hodisalarga nom berishga asos bo'lgan muhim belgisi ma'lum darajada ayon bo'lib turadi. So'zda ichki formaning ayon bo'lib turishi undagi baho ma'nosi va ekspressivlikni ham kuchaytirishi mumkin. So'zlashuv stilidagi ko'pgina yasama so'zlarda mana shu ichki formaga ega bo'lish saqlangan. Masalan, kekkaymajon singari otlarning hosil bo'lishida kekkaymoq fe'lining, yapasqi sifatining yasalishida yapaloq so'-zining belgilari nazarga olingan.

Oddiy so'zlashuv nutqida umumiste'moldagi ko'pgina adabiy-neytral so'zlar ko'chma ma'noda ham qo'llanadi. Oddiy so'zlashuv nutqiga xos ma'no kasb etgan bunday so'zlar adabiy tildagi ma'no xususiyatlariga nisbatan alohida obrazlilikka va ekspressiv bo'yoqqa ega ekanliklari bilan ajralib turadi.

Adabiy tilda iskovich iz va hidni iskab topadigan it, kuchuk ma'nosini bildirsa, so'zlashuv nutqida esa ko'chma ma'noda nafrat, jirkanch ottenkalariga ega bo'lgan «izquvar, ayg'oqchi, shpion» ma'nosini anglatadi: Qambar cho'loqdek iskovich yetti iqlimda bormikin? (O.)

Fe'llarning ko'pchiligi polisemantikdir. Chunonchi, tuzlamoq so'zi adabiy tildagi (ruscha «solit», zasolivat») ma'nosidan tashqari, so'zlashuv tilida «pand bermoq, aldamoq, qo'lga tushirmoq» ma'nosida ham qo'llanadi. Adabiy tilda qulamoq fe'li to'g'ri va ko'chgan ma'noda asosan «yiqilmoq», «qulab (ag'anab) tushmoq», «buzilib ketmoq» ma'nolarida ishlatiladi. So'zlashuv tilida esa «o'lmoq, jon bermoq» ma'nolarida ham qo'llanadi: Chol qulamay turibdi. Qulagan kun... merosimni da'vo qilaman. (O.) Qiyoslang: imtihondan yiqildi yoki quladi.

Shuningdek, cho'zmoq fe'li adabiy tildagi (ruscha «rasstyagi-vat», vntyagivat», protyagivat», udlenyat», tyanut») ma'nolaridan tashqari, so'zlashuv tilida «qaytarmoq, qaytarib bermoq» ma'nolariga ham ega. Masalan: «Pulni cho'z, jannatning kalitini qo'lingga tutqazaman». (O.)

Oddiy so'zlashuv stiliga xos ottenkaga ega bo'lish xususiyatini biron kasb-hunar bilan bog'liq bo'lgan so'zlarda ham va boshqa tillardan o'zlashtirilgan ba'zi so'zlar misolida ham ko'rish mumkin. Masalan, andavalamoq fe'li ish quroli andava vositasida «suvamoq» ma'nosidan tashqari, so'zlashuv nutqida ko'chma ma'noda «biron kamchilikni bekitmoq», «bo'yab ketmoq», «xaspo'shlamoq» ma'nolarini ham ifoda qiladi. Kasb-hunarga oid shibbalamoq fe'li esa ko'chma ma'noda «adabini bermoq», «ta'zirini bermoq», «koyimoq» ma'nolarida ishlatiladi. Xuddi shuningdek, tarkibida ruscha soldat, schyot so'zlari bo'lgai xonasallot, xomcho't leksemalari ham oddiy so'zlashuv stiliga mansubligiga ko'ra

farqlanadi. Xonasallot so'zi «uy-joyi va oilasidan ajralgan, xonavayron bo'lgan» ma'nosidan tashqari, so'zlashuv tilida so'kish va koyishni ifodalaydigan «mal'un, la'nati, shum, badbaxt» ma'nosida ishlatiladi. Xomcho't ko'chma ma'noda «taxminiy, dastlabki hisob»ni anglatadi.

So'zlashuv tili ham o'z taraqqiyotining har bir bosqichida yangi so'z va iboralar hisobiga boyib boradi. Chunonchi, XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab to revolyutsiyaga qadar oddiy so'zlashuv nutqida o'z ma'nosi va yasallishiga ko'ra juda xilma-xil ko'pgina yangi so'zlar paydo bo'ldi. Bularning ba'zilari o'zbek tilida avvaldan mavjud bo'lgan so'zlar vositasida yasalgan, ba'zilari rus tilidan kirgan bo'lib, talaffuzi va yozilishi jonli so'zlashuv nutqiga moslashtirilgan so'zlardir. Masalan: patta, chipta (yo'l bileti — masalan, «temir yo'l bileti» ma'nosida), chiptachi (temir yo'l kassiri), po'rim (olifta, olifta kiypnishlik), sim qoq-moq (telegraf orqali xabar qilmoq), shayton arava (velosiped), so'lkavoy (bir so'mlik — pul, tanga), pudratchi (podryadchik), ko'nka («konka»—ot qo'shib yuritilgan shahar transporti) izvosh, izvo-ishk (ikki yoki to'rt g'ildirakli yengil arava, kirakash arava), izvoshchi (izvosh haydovchi), zakalat («zadatok»—bay puli), zakun (zakon), zakunchi (advokat, yurist), zakun so'qmoq («zakon»—qonunlarni bilishligi bilan maqtanmoq, ro'kach qilmoq).

Til taraqqiyotining revolyutsiyadan oldingi davri nuqtai nazaridan neologizm deb baholangan so'zlarning ko'pchiligi hozir arxaizmga aylangan. Ulardan faqat o'tmish voqeligini tasvirlashda stilistik maqsad uchun foydalaniladi. Bunday so'zlarning hozir aktiv so'zga aylanganlari ham bor. Bunda ularning leksik ma'no hajmi kengayadi. Masalan, pudratchi so'zi hozir odatdagi so'z sifatida «baylab (baholab) ish oluvchi qurilish tashkiloti, boshqarmasi» ma'nosida, shuningdek, «uyquni pudratga olganmi» kabi ko'chma ma'noda ishlatiladi.

So'zlashuv stilidagi emotsional-ekspressiv leksika o'z ma'nosiga ko'ra nutq stillarining barchasida ishlatiladigan adabiy-neytral leksika bilan o'zaro munosabatda, bog'lanishda bo'ladi. Bir predmet va hodisa ko'pincha o'zaro ma'nodosh so'zlar, leksik sinonimik vositalar yordamida ifodalanadi. So'zlashuv stilida narsa va hodisani uning turli xil qo'shimcha semantik va emotsional-ekspressiv ottenkalari bilan ifodalovchi leksik vositalar juda keng qo'llanadi. Qo'shimcha emotsional-ekspressiv ottenkaga ega bo'lgan sinonim so'zlarni ko'plab ishlatish asosan oddiy so'zlashuv stili uchun xos xususiyatdir. Masalan, xunuk so'z ma'nosi bilan birlashuvchi badbashara, badburush, badqovoq, tasqara, taviya, taraqqos sinonimik qatorda so'nggi ikki so'z, asosan oddiy so'zlashuv stiliga xos. Soqov so'zi atrofida uyushgan tilsiz, gung, gungalak so'zlaridan so'nggisi so'zlashuv tiliga mansub. Bechora, sho'rlik, boyaqish so'zlari ham nutqda ishlatilishi jihatidan o'zaro farq qiladi. Bulardan boyaqish so'zi ko'yaroq so'zlashuv stiliga xos. «Biror ish-harakatni o'rniga qo'ymoq», «qoyil qilib bajarmoq» ma'nosi bilan birlashgan boplamok, do'ndirmok, o'rinlatmok fe'llari, asosan, oddiy so'zlashuv stilida ishlatilishi bilan farqlanadi. Ko'rtirmok, o'xshatmok fe'llari esa o'zlarining ko'chgan ma'nolarida oddiy so'zlashuv stiliga xos ma'no kasb etadi.

Sinonimik munosabat so'zlardagina emas, frazeologik birikmalarda ham mavjud. Lekin frazeologik sinonimlar nutq ko'rinishlariga xoslanganligi jihatdan u qadar ko'p va rang-barang emas, ular asosan so'zlashuv nutqiga va qisman boshqa nutq ko'rinishlariga xos. Masalan (oldingi qator iboralar umumnutqqa xos, keyingilari so'zlashuv nutqiga xos iboralar; ularning chegarasi tire bilan ajratilgan): «lom-mim» demaslik — churq etmas-lik; miyasi g'ovlab ketdi — kallasi g'ovlab ketdi; ta'bi xira — ta'bi nomozshom; dunyodan o'tmoq — jon bermoq.

So'zlashuv stilining grammatik xususiyatlari. So'zlashuv stili-ning ishlatilish sharoitlari, intonatsiya va imo-ishora singari vositalardan foydalanish hamda fikr va bayonning asosan kundalik turmush xarakteriga ega bo'lishi, odatda, gap tuzishning juda murakkab grammatik konstruksiyalarini talab qilmaydi.

Suhbatda (necha kishi ishtirok etishidan qat'i nazar) so'zlovchi va tinglovchining voqelikka munosabati ma'lum sharoitda nutq vaziyatidan, situatsiyadan bilinib turadi. Situatsiya suhbatdoshlarning nutqiga aniqlik kiritadi, uni to'ldiradi, fikrning to'la reallashuviga ko'maklashadi. Suhbatdoshlar xoh sodda, xoh murakkab fikrni ifoda etsinlar, ular hamma vaqt suhbat situatsiyasiga suyanadilar. So'zlovchi o'z suhbatdoshiga nimanidir ko'rsatishi, nimanidir intonatsiya orqali tushuntirishi yoki nimanidir mimi-ka, ko'z, qo'l, bosh harakati bilan anglatishi mumkin. Shunday qilib, suhbat sharoitida namoyon bo'luvchi situatsiya so'zlashuv nutqi uchun xarakterli xususiyatdir. Bunda paralingvistik vositalar (imo-ishora, ko'z, qo'l, bosh harakatlari kabilar) ham alohida rol o'ynaydi.

Suhbat situatsiyasida dialog muhim rol o'ynaydi. Agar dialoglar savol-javob xarakterida bo'lsa, javob to'liqsiz gap formasida bo'ladn. Bunday gaplarda yashiringan muayyan bo'lak suhbatdoshlar nutqidagi oldingi va so'nggi jumlar mazmunidan anglashilib turadi. Umuman, fikrni ixcham ifodalash maqsadida juda zarur bo'lmagan gap bo'lagini takrorlamaslik—«tushirib qoldirish» jonli so'zlashuv tili uchun xarakterlidir. «To'liqsiz gapning jonli tilda ko'p uchrashining bir sababi so'zlash paytidagi vaziyatning, situatsiyaning, mimika va turli imo-ishoralar-ning fikrni ixcham anglatishga imkon berishidir. Ular aytilmagan — ifodalanmagan bo'lakning kompensatsiyasidir»².

Fikrni odatdagiga qaraganda ifodali, ta'sirli ifodalash usullaridan biri ajratilgan bo'laklardan foydalanishdir. So'zlashuv stilida gapning ajratilgan ikkinchi darajali bo'laklaridan muhim stilistik-grammatik vosita sifatida keng foydalaniladi. So'zlashuv stilining hozirgi taraqqiyot bosqichida ajratilgan bo'laklarning keng qo'llanishi, avvalo, o'zbek yozma adabiy tilining xalq tiliga yaqinlashuv hodisasi bilan bog'liqdir.

Kuzatilgan maqsadning har xilligiga — maqsadning yo'nalishiga qarab, so'zlashuv stilida darak, so'roq, buyruq va undov gaplarning qisqa va ixcham ko'rinishlari, to'liqsiz formalari juda keng qo'llanadi. Ayniqsa, so'roq gaplar ko'p ishlatiladi.

Sof so'roq gaplar taajjub, shubha, gumon singari turli-tuman ottenkalarga ega bo'ladi. Bunday so'roq gaplar tarkibida so'roqni bildiradigan so'zlar qo'llanmaydi, so'roq gap intonatsiyasi orqali ifodalanadi. Masalan:—Hujjatingiz? (Hujjatingiz qani?) Ismingiz (Ismingiz nima?). Shuningdek, so'zlashuv stilida undov gaplar ham ko'p ishlatiladi.

Morfologik sistema milliy tilning barcha nutq stillari uchun yagona va umumiy bo'ladi. Morfologiya sohasida so'zlashuv stilining o'ziga xos xususiyati juda oz darajada seziladi. Nutq stillarining morfologik jihatdan farqi, asosan, u yoki bu morfologik elementlarni ortiq yoki kam ishlatishdagina ko'riadi. Chunonchi, holat oti yasovchi -chilik, -garchilik murakkab affiksi so'zlashuv stili uchun xarakterli bo'lgan otlar yasaydi. Masalan (qavsdan tashqarida berilgan otlar so'zlashuv nutqiga xos, qavsning ichida berilganlari shu otning adabiy tildagi formasi): xafagarchilik (xafalik), muttahamgarchilik (muttahamlik), tabibgarchilik, tabibchilik (tabiblik), sherikchilik (shariklik), yuzakichilik (yuzakilik), dinchilik (dindorlik), tilyog'lamachilik (tilyog'lamalik).

So'zlashuv stilining o'ziga xos xususiyatlari fe'lning ba'zi formalarni ishlatilishida ham ko'rinadi. O'zbek tili grammatikasiga oid adabiyotlarda fe'lning -i(b) edi formasi og'zaki nutqda -uvdi, -ovdi tarzida talaffuz etiladi, deb ko'rsatiladi. Talaffuzdagi bu holat to'liqsiz fe'lning bu formasini og'zaki nutqqa xos qilib qo'yadi. Misollar: Egardan irgitib yuborishlari-ga sal-pal qoluvdi. (Sh. Rashidov.) Shahardan kelishimda yo'lni qisqartirish uchun qir orqali yurib... shu yo'ldan keluvdim. (U. Nazarov.)

-r edi formasida ham shu holatni ko'rish mumkin. So'zlashuv stiliga xos bu formadan badiiy asarlarda jonli tilni aks ettiruvchi o'rinlarda, asar qahramonlari nutqida keng foydalaniladi.

Bulardan tashqari, fe'l formalari qo'llanish chastotasi jihatidan ham biror stilga xoslangan bo'ladi. Masalan, bo'l ko'makchi fe'lining -gan affiksi bilan yasalgan sifatdoshlarga qo'shib kelishi tufayli hosil bo'lgan: ovqatdan bir oz yegan bo'ldi, bir-ikki og'iz gapirgan bo'ldi, u yoq-bu yoqni ko'rgan bo'ldi kabi formalari ayniqsa jonli tilda ko'p uchraydi¹. Xuddi shuningdek, fe'lning ikkinchi shaxsi uchun -ng + iz + lar va -ng + lar formula-ri qo'llanadi: bordingizlar va bordinglar (-iz o'rniga -lar). Bu-lardan keyingi forma jonli tilda juda ko'p ishlatiladi². Jonli tilda keng qo'llanishiga ko'ra bularni so'zlashuv stilga xoslangan formalar deyishimiz mumkin.

O'zbek tili leksikasida sub'yektiv baho ifodalovchi formalar, ya'ni kichraytirish, erkalash ma'nolarini bildiruvchi affikslarni olgan so'zlar, oddiy so'zlashuv stilida ba'zan affiksoid holatiga kelgan jon, xon, xo'r (xo'rda, xo'rak), bachcha (vachcha), tilla kabi elementlarni olgan sub'yektiv baho bildiruvchi otlar so'zlashuv stplida keng qo'llaniladi. Ular orqali so'zlovchi bir shaxsga nisbatan salbiy munosabatini ifodalaydi: oyimcha, do'ndiqcha, tirrancha, kerilmajon, qaqajon, kekkaymaxon, baloxo'r, ko'zaxo'r, pashshaxo'rda, mazaxo'rak, jinnivachcha, oyimtilla va boshqalar.

So'zlashuv stilpda sifatlardagi sub'yektiv baho formalarida (Oydekkina ekansan-u olabayroq kiyimlarga balo bormi? (S. A.), fe'llardagi harakatning miqdoriy belgisini pfodalovchi formalar **-(i) msira, -(i) qira**) keng qo'llanadi: kulimsiramoq, yig'lamsiramoq, oqarinqiramoq, iljayinqiramoq kabi.

So'zlashuv stilining ba'zi morfologik xususiyatlarinn boshqa so'z turkumlari doirasida ham kuzatish mumkin.

4-Mavzu: RASMIY USLUB

Reja:

1. Davlat hujjatlari va ish yuritish qog'ozlarining uslubiy xususiyatlari.
2. Rasmiy uslubning o'ziga xos xususiyatlari.
3. Rasmiy uslubning o'ziga xos xususiyatlari.

Mavzu uchun tayanch atamalar: Rasmiy uslub, normativ-xuquqiy xujjat.

Hozirga o'zbek adabiy tilida rasmiy uslub (RU) ning qo'llanish ko'lami O'zbekiston Respublikasining «Davlat tili haqida»gi Qonuni qabul qilingandan keyin va davlat mustaqilligi qo'lga kiritilgandan so'ng g'oyatda kengaydi va yangicha mazmun kasb etdi.

Xalqaro doiralarda olib boriladigan diplomatik munosabatlar, davlatni boshqarishning zamonaviy usullari, ijtimoiy-siyosiy va gumanitar sohalarda jahonning ilg'or andozalari va texnologiyalarining mamlakatimiz hayoti va xalq xo'jaligiga tatbiq etilishi, respublikamiz hududidagi barcha ma'muriy idoralar va korxonalar, tashkilotlar va muassasalarda muomala vositasi sifatida o'zbek tilining amal qilishi qonuniy asosga qo'yilib, ish yuritish shu tilda olib borilishi natijasida o'zbek tilini bilishga va o'rganishga bo'lgan talab yanada kuchaydi. O'zbekiston Respublikasining «Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida»gi (14.12.2000 y. N 160-II) Qonuniga binoan mamlakatimizda ish yuritishning yagona davlat tizimini joriy etish huquqiy asosga qo'yildi va muayyan tartibga keltirildi. O'z navbatida, rasmiy doiralarda bo'ladigan munosabatlarda, xalqaro minbarlarda o'zbek tilidan foydalanishning o'ziga xos uslubi ham takomillashib bormoqda. Yurtboshimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek, «davlat tilining xalqaro miqyosda ham faol muloqot vositasiga aylanib borayotgani e'tiborlidir. Xususan, xorijiy mamlakatlar rahbarlari

bilan bo'ladigan uchrashuv va suhbatlar, muzokaralar, tegishli hujjatlarni imzolash marosimlarida, nufuzli sammitlarda, rasmiy matbuot anjumanlarida o'zbek tilining o'zni va ahamiyati ortib borayotgani hammamizga g'urur-iftixor bag'ishlaydi». □

Bemalol aytish mumkinki, keyingi o'tgan yigirma yilga yaqin vaqt mobaynida mamlakatimiz hayotining barcha jabhalarida o'zbek tili nafaqat davlat tili, balki ham rasmiy, ham o'zaro muloqot tili sifatida o'z mavqeini mustahkamladi. Qisqa vaqt ichida qonunlar, farmonlar, farmoyishlar, qarorlar, buyruqlar, nizomlar singari davlat ahamiyatiga molik huquqiy hujjatlarni muayyan bir uslubda yaratish va shakllantirish asta-sekinlik bilan yo'lga qo'yildi. Rasmiy-huquqiy hujjatlarning yozilishida ularning har birining xususiy, ayni paytda, barcha RUda shakllantiriladigan hujjatlar talabiga mos keladigan umumiy me'yorlari takomillashdi.

Aslida davlat miqyosida amalda bo'lgan har bir huquqiy hujjatning qat'iy me'yorlar asosida yaratilishi ham umumtil madaniyatining tarkibiy qismidir. Hujjatlar qanchalik tushunarli tilda yozilsa, uslubi qanchalik ravon bo'lsa, uni tushunish, binobarin, ijrosini ta'minlash va unga amal qilish ham shunchalik oson kechadi. Shuning uchun ham bugungi kunda faol amalda bo'lgan o'zbek tili RUni zamon talablaridan kelib chiqib tadqiq etish, uning xulosalari va natijalarini ommalashtirish o'zbek tili madaniyatining yanada takomillashuviga hamda uning barcha jabhalarda foydalanishiga qulay imkoniyatlar yaratilishiga xizmat qiladi.

To'g'ri, o'zbek tilining RU tilshunosligimizda ilmiy tadqiqot ob'yekti bo'lgan. 1987 yilda D.Boboxonova «Hozirgi o'zbek adabiy tilining rasmiy-ish uslubi» mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan. Dissertatsiya muallifi o'zbek tilshunosligida birinchi bo'lib RU doirasidagi hujjatlar ro'yxatini batafsil keltiradi va ularning har birining bir uslub ichida yana o'z shakllanish uslubi (podstillari) mavjudligini ta'kidlaydi. Masalan: hukumat qarorlari, farmonlar, farmoyishlar, chaqiriqlar, qonunlar, buyruqlar, nizomlar, yo'riqnomalar, diplomatik hujjatlar, xalqaro shartnomalar, kelishuvlar, rasmiy xabarlar, notalar, ultimatumlar, elchilik konvensiyalari, sud-protsessual hujjatlari, kodekslar, chaqiriq qog'ozlari, ishonch qog'ozlari, ijro varaqalari, ajrimlar, sud varaqalari, yuridik dalolatnomalar, raddiyalar, tavsiyanomalar, tashqariga chiqmaslik haqida tilxat, ayblov, ayblov nutqi, sudning al'ternativ qarori, hukm, davlat tashkilotlari o'rtasidagi yozishmalar, dalolatnoma, bayonnoma, tushuntirish xati, ma'lumotnoma, tarjimai hol, tavsifnoma, ariza va boshqalar. □

Dissertatsiya ushbu rasmiy hujjatlarning har birining o'ziga xos va umumuslubiy xususiyatlarini leksik-semantik, morfologik va sintaktik jihatdan tahlil etganligi bilan ilmiy ahamiyatga ega. Buning ustiga, mazkur uslubning o'zigagina xos bo'lgan xususiyatlar uni o'zbek tilidagi boshqa funksional uslublar bilan taqqoslash orqali ochib berilganligi ham e'tiborga molikdir. Masalan, leksik-semantik-stilistik jihatdan olib qaraganda ushbu uslubga oid matnlarda badiiy uslubga (BU) xos bo'lgan, voqelikni, inson hissiyoti, fikri va harakatlarini obrazli tasvirlashga yo'naltirilgan badiiy tasvir vositalari uchramasligi, binobarin,

o'xshatish, epitet, jonlantirish, metafora, mubolag'a, litota va boshqa vositalar, poetik leksika elementlari, chama sonlar, gumon olmoshlari, juft so'zlarning qo'llanishi xos emasligi; morfologik jihatdan esa -(i)m, -(i)ng, -(i)miz, -(i)ngiz, -(i)nglar, -laring kabi egalik ko'rsatkichlarining mutlaqo ishlatilmasligi, -a/-y, -(i)b singari ravishdosh shakllari qo'llanilmasligi; sintaktik jihatdan esa undov va so'roq gaplarning, shaxsi ma'lum, shaxsi noma'lum, shaxsi umumlashgan gaplarning xos emasligi RU va boshqa FUlarga doir matnlardagi faktlarni qiyoslash orqali dalillanganligi bugungi o'zbek tilshunosligi va o'zbek tili stilistikasi taraqqiyoti nuqtai nazaridan ham ilmiy qimmatga ega.

Ammo mazkur tadqiqotning yuzaga kelganiga salkam chorak asrga yaqin vaqt o'tdi. Ish sobiq kommunistik mafkura hukmron bo'lgan davrda yozilganligini inobatga olish lozim. Dissertatsiya muallifi RUning shakllanishida rus tili muhim rol o'ynaganligini, ko'plab hujjat turlari rus tilidan o'zbek tiliga tarjima qilinganligini ta'kidlaydi.□ Shu mazmundagi fikrlar «O'zbek tili stilistikasi» asarida ham uchraydi: «O'zbek adabiy tilida rasmiy hujjatlar stili rus tilining ta'sirida yanada takomillashdi, ishlatilish doirasi yanada kengaydi lug'at sostavi yangi so'z va terminlar bilan boyidi».□ Qarashlar o'z davri va qisman hozirgi davr nuqtai nazaridan ham to'g'ri, albatta. Shu bilan birga, keyingi o'n yilliklarda, ayniqsa, mustaqillik davrida ona tilimizning RU doirasida amal qilish xususiyatlari muzkur uslubda shakllanadigan hujjatlar mazmuniga bog'lik tarzda jiddiy o'zgardi, imkoniyatlari batamom kengaydi. Ushbu fikrning to'g'ri ekanligini Sh.Ko'chimov tomonidan 1995 yilda «O'zbekiston Respublikasi qonunlarining tili» mavzusida nomzodlik, 2004 yilda «Huquqiy normalarni o'zbek tilida ifodalashning ilmiy-nazariy muammolari» mavzusida himoya qilingan doktorlik dissertatsiyalari materiallari ham tasdiqlaydi. Mazkur ishlarda huquqiy davlat qurishda, fuqarolarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini shakllantirishda qonunchilik texnikasi, qonunlarning ifoda usuli masalalari muhim ahamiyat kasb etib, qonunlarning xalqaro standartlar darajasida mukammal ishlab chiqilishining asosiy omili ushbu sohadagi me'yoriy hujjatlar tilini ona tilimizning o'z xususiyatlaridan kelib chiqib tayyorlash ekanligi ta'kidlangan.□

Tilshunosligimizda FUlari, xususan, RU sohasida olib borilgan bu tadqiqotlar mazkur uslubning o'zbek tilida allaqachon shakllanib bo'lganligini ko'rsatadi. Uning mustaqil uslub sifatida shakllanganligi lingvistik va ekstralingvistik omillar yaxlitligi yaqqol ko'rinadi.

Rasmiy uslubning ekstralingvistik shart-sharoitlari.

Bu uslubda shakllanadigan hujjatlarga xos bo'lgan rasmiylik barcha ekstralingvistik omillarning markazida turuvchi va til elementlarini tanlovchi, saralovchi, birlashtiruvchi va, o'z navbatida, matnda ularni o'rniga qarab joylashtiruvchi yadroviy kuch sanaladi.

Rasmiylik tushunchasiga bog'liq tarzda uslubning o'ziga xos xususiyatlari namoyon bo'ladi va ular boshqa FUlari bilan taqqoslaganda yana ham oydinlashadi. Xo'sh, bu o'ziga xosliklar nimalardan iborat?

Birinchi navbatda, matnda bayonning aniq bo'lishi talab etiladi. Ushbu uslubda shakllangan matnda noaniqlikka, izohtalab o'rinlarga yo'l qo'yilmasligi lozim. Fikr va mazmun sodda, aniq va tushunarli tilda bayon qilinishi kerak: O'zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati xalq manfaatlarini ko'zlab va O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda uning asosida qabul qilingan qonunlar vakolat beradigan idoralar tomonidangina amalga oshiriladi. (O'zR Konstitutsiyasi, 7-modda). Aniqlik talabi uning ilmiy uslub (IU) bilan mushtarak jihatidir.

Matnning ravon, sodda va tushunarli bo'lishi taqozo etiladi. Buning yorqin dalili «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi» matnidir. Nima uchun mazkur hujjat tilida shu tamoyilga qat'iy rioya qilingan? Hujjatning «Davlat suvereniteti» deb nomlangan I bobiga ko'z yugurtiramiz: 1-modda. O'zbekiston - suveren demokratik respublika. Davlatning «O'zbekiston Respublikasi» va «O'zbekiston» degan nomlari bir ma'noni anglatadi. 2-modda. Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas'uldirlar. 3-modda. O'zbekiston Respublikasi o'zining milliy-davlat va ma'muriy-xududiy tuzilishini, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining tizimini belgilaydi, ichki va tashqi siyosatini amalga oshiradi. O'zbekistonning davlat chegarasi va hududi daxlsiz va bo'linmasdir. 4-modda. O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir. O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlar va an'analari hurmat qilinishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi. 5-modda. O'zbekiston Respublikasi qonun bilan tasdiqlanadigan o'z davlat ramzlari - bayrog'i, gerbi va madhiyasiga ega. 6-modda. O'zbekiston Respublikasining poytaxti - Toshkent shahri. Matndagi bu ravonlik va soddalik uning barcha aholi qatlamlari uchun mo'ljallanganligi va mazmunini bilishi shart qilib qo'yilganligi bilan izohlanadi.

Keltirilgan ushbu misol RUga xos bo'lgan qisqalik va aniqlik uchun ham dalil bo'la oladi.

Konstitutsiyaning 57-moddasini ko'zdan kechiramiz: Konstitutsiyaviy tuzumni zo'rlik bilan o'zgartirishni maqsad qilib qo'yuvchi, respublikaning suvereniteti, yaxlitligi va xavfsizligiga, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi chiquvchi, urushni, ijtimoiy, milliy, irqiy va diniy adovatni targ'ib qiluvchi, xalqning sog'ligi va ma'naviyatiga tajovuz qiluvchi, shuningdek harbiylashtirilgan birlashmalarining, milliy va diniy ruhdagi siyosiy partiyalarning hamda jamoat birlashmalarining tuzilishi va faoliyati taqiqlanadi. Anglashiladiki, bu o'rinda matn qurilishi sodda va qisqa emas, aksincha. Ammo uslub ravon va aniq. Bu kabi holatlar qonunlar matniga ham xos xususiyat sanaladi. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, RU uchun matnda qatnashayotgan gaplar qurilishining sodda yoki murakkab bo'lishi asosiy o'lchov emas, balki aniqlik va ravonlik muhim. Xullas, fikrning aniq bo'lishi, maqsadning qisqa va lo'nda bayon etilishi, izohga yo'l qo'yilmaslik ham RUga xos bo'lgan xususiyatlardir.

RUda har bir matn hujjat mazmun-mohiyatidan kelib chiqib, ma'lum reglament, ya'ni tartib va qoidalar asosida shakllantiriladi. Shu tarzda ariza, qaror, bildirishnoma, ma'lumotnoma, shartnoma, tabriknoma singari turli xarakterdagi rasmiy hujjatlarning har birining o'ziga xos bayon etish qolipi, standart, shablon abzatslar va jumlarar vujudga keladi.

Rasmiy uslubning boshqa funksional uslublarga munosabati. Har bir hujjatning o'ziga xos xarakteridan kelib chiqib, qarorlar ijrochisining, ijro vaqtining aniq ko'rsatilishi boshqa uslubga xos emas. Bu uslubdagi matnlar asosan yozma shaklda namoyon bo'ladi.

Boshqa FUlarga tegishli bo'lgan xususiyatlarning RUga muvofiq kelmasligini ham unga xos bo'lgan xususiyatlar sifatida qarash mumkin. Masalan, rasmiylik va emotsionallik tushunchalari ushbu uslubda bir-biriga oppozitsiyadadir. Rasmiylik mantig'i shuni taqozo etadi. Rasmiy matnlarning «quruqlik» xarakteri sub'yektiv baho ifodalovchi vositalarning ishlatilishiga yo'l qo'ymaydi. Shu ma'noda u BU bilan qarama-qarshi qutbda joylashadi. Bu haqda L.G.Barlas quyidagilarni yozgan edi: «Rasmiy-ish uslubiga stilistik bir xillik va qat'iyat (mo'tadil kitobiy), ob'yektivlik va qisman ifodaning shaxssizligi xos. Unga emotsionallik, sub'yektiv baho va so'zlashuv tili xos emas. Shu ma'noda rasmiy-ish uslubi ilmiy uslubga yaqinlashadi».□

RUning IUga o'xshash jihatlar ko'p bo'lsa-da, undan jiddiy farq qiladigan tomonlar bor. Bayonda ayrim so'zlardan, masalan, fe'l shakllaridan foydalanishda umumiylik sezilsa ham, IUda yozilgan matnning muallifi bor va bu individuallik bayonda ham sezilib turadi. RUdagi ayrim hujjatlar garchi aniq bir shaxs tomonidan shakllantirilsa-da, muayyan shablonlarga bo'ysundirilgan va individuallik xususiyatlaridan mahrum bo'lgan hujjat hisoblanadi. Masalan, ariza aniq bir kishi tomonidan yoziladi, ammo mazkur hujjatga xos bo'lgan shablon va standart jumlarar til jihatdan individuallikni yo'qqa chiqaradi.

Ayrim elementlarning qo'llanishi rasmiy va ilmiy matnlarda muvofiq kelishi mumkin. Ammo mohiyatan ular bir-birlaridan farqlanadi. Publitsistik uslubda (PU) ham o'xshash so'z va jumlarar faol uchraydi. Ular uchraydi, xolos. Ammo bu degani ularning RU doirasidan chiqib, PU ixtiyoriga o'tib ketdi degani emas. Ommaviy axborot vositalari orqali rasmiy xarakterdagi axborotlarning berilishi jarayonida bu vositalardan aynan ana shu rasmiylik mezonini saqlash maqsadida foydalaniladi xolos.

Rasmiy uslubning lingvistik xususiyatlari

Ushbu uslubga xos bo'lgan yoki xos bo'lmagan stilistik xususiyatlar rasmiy tilda shakllangan matnlarning leksik-grammatik xususiyatlarida yana ham yaqqol namoyon bo'ladi. Rasmiy uslubning leksik xususiyatlari. RUga oid matnlar leksikasi va turg'un birikmalari o'zbek tilidagi boshqa FUlarga tegishli matnlar

tilidan sezilarli darajada farqlanadi. Shuning uchun ham, ularda boshqa vazifaviy uslublarda deyarli uchramaydigan alohida soʻz va turgʻun birikmalarga duch kelamiz: maʼmuriy javobgarlik, fuqarolik holati, fuqarolik javobgarligi, aybdor, gumondor, jabrlanuvchi, sudlanuvchi, guvoh, jamoat kafilligi, surishtiruv, jabrlanuvchi bilan yarashuv kabi. Yangi sharoitda yangicha mazmun kasb etgan Oʻzbekiston Respublikasining Qonuni, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Oliy Majlis, Qonunchilik palatasi, Oliy majlis senati, siyosiy partiyalar, davlat hokimiyat organi, qishloq fuqarolar yigʻini, saylovoldi tashviqoti, Oʻzbekiston ekologik harkati, «Kamolot» yoshlar harakati, qonun ijrosi, konstitutsiyaviy tuzum, davlat tuzilishi, siyosiy institutlar, milliy xolding kompaniyasi singari turgʻun birikmalar ham mustaqillik davri oʻzbek tili taraqqiyotining mahsulidir.

Qonunlarni yaratish jarayonida xalqaro standartlarga yaqinlashishga intilish uning tiliga ham taʼsir koʻrsatishi tabiiy. Masalan, «Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi»da hammasi boʻlib 5421 ta soʻz ishlatilgan boʻlsa, shundan 43 tasi halqaro atamalarga toʻgʻri keladi.□ Ular orasida oʻzbekcha muqobil variantlari boʻlgan atamalar ham mavjud: respublika-jumhuriyat, suveren-mustaqil, suverenitet-mustaqillik, demokratiya-xalqchilik, referendum-umumxalq ovozi, normativ-meʼyoriy, norma-meʼyor va boshqalar.

Mustaqillikning dastlabki yillarida ularni ana shu oʻzbekcha variantlar bilan almashtirib qoʻllash haqida fikrlar boʻlgan. Bunday soʻzlar tilimizda anchagina. Boshqa FUlarda ularni oʻzaro almashtirib qoʻllash mumkindir. Ammo rasmiy matnlarda uslub nuqtai nazaridan bunday qilish toʻgʻri emas. Konstitutsiya matnidagi birgina suveren-mustaqil variantlarining qoʻllanishini solishtirib koʻraylik. Ular 10/6 nisbatda ishlatilgan: Oʻzbekiston - suveren demokratik respublika. Suveren Qoraqalpogʻiston Respublikasi Oʻzbekiston Respublikasi tarkibiga kiradi. Qoraqalpogʻiston Respublikasining suvereniteti Oʻzbekiston Respublikasi tomonidan muhofaza etiladi. Misollardagi suveren, suverenitet soʻzlarini bimalol mustaqil, mustaqillik elementlari bilan almashtirsa boʻladi. Ammo matn ikki jihatdan zarar koʻradi. Birinchidan, hujjatning xalqaro standartlar darajasidagi maqomiga, ikkinchidan rasmiylik ottenkasiga putur yetadi. Matnda mustaqil soʻzi qoʻllangan holatlarga eʼtibor beraylik: Qoraqalpogʻiston Respublikasi oʻz maʼmuriy-hududiy tuzilishi masalalarini mustaqil hal qiladi. Sudʼyalar mustaqildirlar, faqat qonunga boʻysunadilar. Oʻzbekiston Respublikasi prokuratura organlari oʻz vakolatlarini har qanday davlat organlari, jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslardan mustaqil holda, faqat qonunga boʻysunib amalga oshiradilar. Gaplardagi mustaqil soʻzining oʻrnini almashtiramiz: Qoraqalpogʻiston Respublikasi oʻz maʼmuriy-hududiy tuzilishi masalalarini suveren hal qiladi. Sudʼyalar suverendirlar, faqat qonunga boʻysunadilar. Oʻzbekiston Respublikasi prokuratura organlari oʻz vakolatlarini har qanday davlat organlari, jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslardan suveren holda, fakat qonunga boʻysunib amalga oshiradilar. Gaplarda suveren soʻzining qoʻllanishida sunʼiylilik, uslubiy gʻalizlik paydo boʻlganligini payqash qiyin emas. Xulosa

shunday bo'ladiki, mustaqil so'zi tilimizda ommalashgan, uni barcha o'zbekcha matnlarda uchratishimiz mumkin, ma'nosida kenglik, qo'llanishida erkinlik mavjud. Suveren so'zi esa jiddiy ma'noga ega bo'lib, rasmiy ohang beradi va RU doirasida chegaralanib, faqat davlat so'ziga bog'langanligi ma'lum bo'ladi.

Mana shu ma'noda yuzaki qaraganda go'yo bir tushunchani anglatadigan bu elementlarning biri o'rnida ikkinchisini bimalol qo'llash mumkin emas, uslub bunga yo'l qo'ymadi.

Shuning uchun ham mustaqillik davrida yangicha mazmunda muomalaga qaytgan yoki kirib kelgan prezident, parlament, palata, senat, senator, mahkama, vazirlik, vazir, hokimiyat, hokim, fuqaro, harakat, suverenitet so'zlarning qo'llanishiga tilning amalda bo'lish qonuniyatlariga, uslub talablariga ko'ra yondashish to'g'ri bo'ladi.

RUda qo'llaniladigan ayrim so'z va jummalarning faolligi shu darajaga yetganki, ularni RUga xos shtamlar sifatida e'tirof etishga majbur bo'lamiz: maqsadida, muvofiq, binoan, belgilamoq, tasdiqlamoq, kuchaytirmoq, nazorat o'rnatmoq, zimmasiga yuklamoq, taklif kiritmoq, ta'minlamoq, chora ko'rmoq, ishlab chiqmoq, joriy etmoq, qabul qilmoq, amalga oshirmoq, tavsiya etmoq, zimmasiga yuklamoq kabilar. O'tgan davr mobaynida, hisobot davrida, muayyan ishlar, e'tiborga olib, inobatga olib, kun tartibidagi masala yuzasidan, qaror qildi/qiladi, belgilangan tartibda singari jummalarni ham shu qatorga kiritish mumkin. Bu kabi jumlar RUning umumiy fonida olib qaralsa-da, har biri ma'lum bir hujjatlar matnidagina standart holatga kelgandir. Binobarin, o'zbek tilida RUga xoslangan umumiy leksik fond bilan birgalikda uning har bir janri va ko'rinishlariga xoslangan leksik elementlar ham ma'lum miqdorni tashkil etadi.

Rasmiy uslubning morfologik xususiyatlari. Rasmiy matnlarning uslubiy alomatlari uning morfologiyasi va sintaksisida ham yaqqol ko'zga tashlanadi.

Masalan, har bir so'z turkumiga oid so'zlarning qo'llanishida o'ziga xoslik ko'zga tashlanadi. Otlarni olaylik. Umumlashtiruvchi ma'nodagi otlar faol: bolalar, ota-onalar, qo'shin, qurol, aholi, xalq, ishchilar, xizmatchilar, shaxslar, tomonlar, saylovchilar, partiyalar, vakillar va hokazo. Otlarning ma'lum bir qismi RU ichidagi janr ko'rinishlariga mos tarzda qo'llaniladi. Idoraviy uslubdagi ma'lumotnoma, dalolatnoma, ariza, tilxat, tavsifnoma, bayonnoma singari otlar bunga misol bo'la oladi.

Noaniqliklarga yo'l qo'yilmaslik maqsadida ular olmoshlar bilan almashtirilmaydi: O'zbekiston Respublikasi o'z taraqqiyot yo'lini, o'z nomini aniqlaydi, o'z davlat ramzlarini: gerbi, bayrog'i, madhiyasini ta'sis etadi, o'z davlat tilini belgilaydi. O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining ramzlari muqaddasdir (1991 yil 31 avgustda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida» gi Qonunning 16 - moddasidan).

RUning noemotsionallik tabiatidan kelib chiqib, asliy sifatlarning qo'llanishi

xos emas. Nisbiy sifatlar esa faol qo'llaniladi: konstitutsiyaviy, qonuniy, noqonuniy, huquqiy, ma'muriy, tashkiliy, idoraviy, qat'iy, amaliy, majburiy, me'yoriy, shaxsiy, mahalliy, xorijiy, hududiy, jinoiy, tarkibiy, ijtimoiy, siyosiy, doimiy, ommaviy, ma'rifiy, ma'naviy, mintaqaviy, jismoniy, tarkibiy, moddiy, joriy, namunaviy; raqamli, tegishli, vakolatli, malakali, maqsadli, istiqbolli, sonli, razryadli, tizimli, darajali, ishonchli, samarali, imtiyozli, manfaatli kabi.

Shu o'rinda RUda yozilgan matnlar uchun barcha morfologik vositalar va kategoriyalarning qo'llanilishi bir xil darajada emasligini ta'kidlash ham maqsadga muvofiq. Masalan, sonlar va olmoshlar bu uslubda boshqa so'z turkumlariga qaraganda ikkinchi darajali omil hisoblanadi. Ular RUning o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatib bera olmaydi. Bu xususiyatlarni fe'l turkumi doirasidagi grammatik ko'rsatkichlar belgilashi mumkin.

RUga oid matnlarda fe'l so'z turkumidagi so'z shakllari alohida mavqega ega. Masalan, uning o'timli va o'timsiz shakllarini olib ko'raylik. Konstitutsiya matnida quyidagi o'timli fe'llar uchraydi: amalga oshirmoq, afv etmoq, bekor qilmoq, belgilamoq, vakolatlarini saqlab qolmoq, vakolatlarni amalga oshirmoq, joriy qilmoq, imzolamoq, kafolatlamoq, rag'batlantirmoq, saylamoq, tayinlamoq, taqdim etmoq, tartibga solmoq, tasdig'iga kiritmoq, tasdiqlamoq, ta'minlamoq, ta'sis etmoq, tuzmoq, o'zgartish va qo'shimchalar kiritmoq, qabul qilmoq, hal qilmoq kabi. O'timsiz fe'llar esa nihoyatda faol qo'llaniladi. Bu holat, ayniqsa, buyruq, farmoyish, bayonnoma, qaror, dalolatnoma, shartnoma singari hujjatlar matnida yaqqol namoyon bo'ladi: saylanmoq, amalga oshirilmoq, belgilanmoq, tasdiqlanmoq, taqdim etmoq, ilova qilinmoq, rasmiylashtirilmoq, taqdim etilmoq, qabul qilmoq kabi.

L.G.Barlas fikricha, fe'lning infinitiv shaklining hissasi boshqa uslublarga qaraganda birmuncha yuqori, taxminan 38%, boshqacha aytganda, IUga nisbatan ikki baravar, BUga nisbatan uch baravar ko'p. Fe'lning hozirgi zamon shakllari 79 % ni tashkil etadi (IUda 69%, BUda 11%).

Bu uslubda fe'lning harakat nomi shakli faol qo'llaniladi, gapning kesimi ko'pincha hozirgi zamonning majhul nisbatida ifodalanadi, hujjatning xarakteriga qarab shart mayli shakliga tez-tez murojaat etiladi. Masalan, «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining mutlaq vakolatlari» haqidagi 78 – moddasida o'zgartish va qo'shimchalar kiritish, qabul qilish, belgilash, tasdiqlash, tartibga solish, o'zgartirish, joriy qilish, komissiyasini tuzish, saylov kunini tayinlash, saylash, ozod etish, ratifikatsiya qilish, ta'sis etish, amalga oshirish singari fe'lli birikmalar ishlatilgan. Ushbu hujjatda amalga oshirilmoq, asos bo'lmoq, tashkil etmoq, belgilanmoq, asoslanmoq, hisoblanmoq, himoya qilinmoq, amalga oshirmoq, tan olinmoq, ish ko'rmoq, ado etmoq, kafolatlanmoq, taqiqlanmoq, tavsiya etilmoq singari fe'llarning faol ishlatilishi ham yuqoridagi fikrning tasdig'idir. Rasmiy matnlardagi to'lov, oqlov, boshqaruv, hal qiluv, surishtiruv kabi so'zlar ham harakat nomidir. Mana shu tarzda imperativ shakllar RU uchun xos xususiyat sanaladi.

Fe'lining yana quyidagi shakllari mazkur uslub uchun xarakterli:

-majhul nisbat shakli: musodara qilinmoq, saylanmoq, hal etilmoq, qo'llanilmoq singari: O'sha harakatlar: b) boshqacha og'ir oqibatlarning kelib chiqishiga sabab bo'lsa, mol-mulk musodara qilinib, yetti yildan o'n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi (Jinoyat kodeksi). O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 107-moddasiga muvofiq Konstitutsiyaviy sud besh yil muddatga saylanadi («O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida» Qonun). Advokatura manfaatlariga daxldor masalalar davlat organlari tomonidan respublika advokatlar jamoat birlashmasi ishtirokida belgilangan tartibda hal etiladi («Advokatlik faoliyati... to'g'risida» Qonun).

-buyruq mayli: topshirilsin, tasdiqlansin, amalga oshirilsin, belgilansin, tayinlansin, ta'minlansin kabi: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimovning ma'ruzasidagi konseptual qoidalar va xulosalar ma'qullansin hamda ular Oliy Majlisning kelgusi faoliyatida inobatga olinsin. Ma'ruzaning ... dasturiy xulosalari prokuratura, boshqa huquqni muhofaza qilish organlari, sudlar faoliyati uchun asos qilib olinsin. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga ... mustaqillik va demokratiya qo'lga kiritgan yutuqlarni himoya qilish, ijtimoiy adolat, fuqarolar tinchligi hamda totuvligini ta'minlash ishlarini kuchaytirish tavsiya etilsin. (O'zR Prezidenti I. A. Karimovning ikkinchi chaqiriq Oliy majlisining oltinchi sessiyasidagi ma'ruzasi yuzasidan O'zR Oliy majlisining 2001 yil 29 avgust qaroridan).

Harbiy hujjatlarda, jumladan, «O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlarining umumharbiy Nizomlari»da (Toshkent: «Sharq», 2004) aks etgan komandalar ham fe'lining shu maylida shakllangan: Bayroqdor, ortimdan qadam bos; Vzvod, bayroqqa qarab qaddingni rostla; qoravulga moslan; To'g'riga yur; Vzvod, qurollarni oyoq yoniga qo'y kabi. Ammo shu mayldagi fe'l shakllari BUda boshqacha ma'no kasb etadi, ya'ni istak mazmuni kuchli bo'ladi: Balki o'shalar «Tezroq o'la qolsin» deb duo qilishayotgandir... Men... Jalildan qarzman. Ha... qarzim bor undan. Hovli-joy olib berishim kerak edi. Mahmudga tayinlab qo'yishim kerak, mendan keyin olib bersin (T.Malik).

-hozirgi-kelasi zamon shakli: ko'rib chiqiladi, belgilanadi, taqiqlanadi, amalga oshiriladi, tasdiqlanadi kabi: Hokimning O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumatining hujjatlariga zid, prokuror protest bildirgan qarorlari shu hokimning o'zi tomonidan yoki yuqori turuvchi hokim yoinki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, zaruratiga qarab esa O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qayta ko'rib chiqiladi. Shuningdek deputatlarning mas'uliyati va sessiya ishini tashkil etishga doir boshqa masalalar xalq deputatlari Kengashining Ish tartibiga muvofiq belgilanadi. («Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida» Qonun). Tarixiy-madaniy ekspertiza O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi tomonidan tashkil etiladi va amalga oshiriladi («Madaniy meros... to'g'risida» Qonun), O'zbekiston Respublikasida davlat tiliga yoki boshqa tillarga

mensimay yoki xusumat bilan qarash taqiqlanadi («Davlat tili haqida» Qonun).

Ammo fe'lining 1,2-shaxs ko'rsatkichlari xos emas. Shuningdek, RUda modal xarakterdagi so'zlar chastotasi ham sezilarli darajada: majbur, shart, mas'ul, javobgar, haqli kabi: Davlat hokimiyati va boshqaruv organlari... foydalanuvchilarni fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va majburiyatlariga, ularning xavfsizligiga doir... masalalar yuzasidan axborot bilan ommaviy tarzda ta'minlashga majburdirlar. Maxfiy axborot mulkdori, egasi axborot so'rayotgan shaxslarni bu axborotni olishning amaldagi cheklovlari to'g'risida xabardor etishi shart («Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida» Qonun). Harbiy buyurtmalarni bajaruvchi vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar mudofaa ehtiyojlariga zarur bo'lgan mahsulotlar yetkazib berilishi, tarmoqning safarbarlik tayyorgarligi uchun mas'uldirlar («Mudofaa to'g'risida» Qonun). Vazirlar Mahkamasi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi oldida javobgardir («O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida» Qonun).

So'zning analitik shakllari ko'p uchraydi: qonun bilan, sud hukmi bilan, advokatlik faoliyati bilan, prokurorlarning sanksiyasi bilan, himoyasidagi shaxs bilan, jinoyatchilar uchun, himoya qilish uchun, maslahat olish uchun, huquqini ta'minlash uchun kabi.

Rasmiy uslubning sintaktik xususiyatlari. RU doirasida shakllanadigan matnlarning sintaktik qurilishi ham o'ziga xos. Darak gaplar, ayniqsa, uning qo'shma gap shakli ko'p ishlatiladi. Yoyiq va murakkab so'z birikmalari mahsuldor hisoblanadi, murakkab tipdagi nomlar keng qo'llaniladi. Gap tuzilishida o'zbek tilidagi odatdagi me'yorga amal qilinadi va yuqorida sanalgan jihatlari bilan IUga o'xshab ketadi.

RUda shakllantirilgan barcha me'yoriy hujjatlar uchun izchillik xos xususiyat. Matndagi har bir gap, har bir abzats, har bir modda yoki paragraf mantiqiy ketma-ketlikda joylashtiriladi, keyingi fikr oldingi fikrdan kelib chiqadi yoki unga chambarchas bog'langan bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi matni bunga yaqqol misol bo'la oladi. Muqaddimadan keyingi oltita bo'limda qonunning mohiyati izchil va qat'iy tartibda joylashtirilgan: qonunda ko'zda tutilgan asosiy prinsiplar, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va burchlari, jamiyat va shaxs, ma'muriy-hududiy va davlat tuzilishi, davlat hokimiyatining tashkil etilishi, Konstitutsiyaga o'zgartishlar kiritish tartibi tarzida. Boshqa qonunlar, ayniqsa, hajmi birmuncha yirik bo'lgan qonunlar avval umumiy qoidalar, qonunda ko'zda tutilgan asosiy holatlar va yakuniy qoidalar tartibida muayyan izchillikda shakllantirilgan.

Rasmiy hujjatlarda bayonning izchil bo'lishi har bir matnning o'ziga xos tarzidagi shablonlarni, standart jummalarni ham keltirib chiqaradi. Ish yuritishda keng tarqalgan hujjat – ariza misolida fikrni tasdiqlash mumkin. Ariza bir kishi

tomonidan tashkilot, korxona yoki muassasa rahbari nomiga yozilishi, ariza yo'llangan tashkilot, korxona, muassasa va uning rahbari nomining aniq ko'rsatilishi, arizachining turar joyi yoki ish joyi, vazifasi, ismi va otasining ismi ko'rsatilishi; shundan so'ng Ariza degan yozuv, arizaning mazmuni, agar lozim bo'lsa, arizaga ilova qilinishi mumkin bo'lgan hujjatlar ro'yxati, arizachining imzosi, ismi-familiyasi, ariza yozilgan vaqtining yozilishi shablonlikning yaqqol namunasidir. Arizaning meni, vazifasiga (lavozimiga) qabul qilishingizni so'rayman, hujjatlarni (ma'lumotnomani) ilova qilaman singari jumlar esa barcha arizalarda uchraydigan standart elementlar sanaladi.

Matnlarda izchillikka mos ravishda qat'iylik ham hukmron bo'ladi: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimovning ma'ruzasidagi konseptual qoidalar va xulosalar ma'qullansin hamda ular Oliy Majlisning kelgusi faoliyatida inobatga olinsin. Ma'ruzaning ... dasturiy xulosalari prokuratura, boshqa huquqni muhofaza qilish organlari, sudlar faoliyati uchun asos qilib olinsin. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga ... mustaqillik va demokratiya qo'lga kiritgan yutuqlarni himoya qilish, ijtimoiy adolat, fuqarolar tinchligi hamda totuvligini ta'minlash ishlarini kuchaytirish tavsiya etilsin (O'zR Prezidenti I. A. Karimovning ikkinchi chaqiriq Oliy majlisining oltinchi sessiyasidagi ma'ruzasi yuzasidan O'zR Oliy majlisining 2001 yil 29 avgust qarori). Misoldagi inobatga olinsin, asos qilib olinsin, tavsiya etilsin kabi jumlar ana shu qat'iyatni ta'min etuvchi lingvistik vositalardir.

Shuningdek, ta'kidlash ottenkasini yuzaga keltiruvchi grammatik vositalar ham shu uslubga xos matnlarda faol uchraydi: birinchidan, ikkinchidan, maqsadida: 1), 2), 3)...; maqsadida... belgilansin, amalga oshirilsin, ta'minlansin; belgilab qo'yilsinki, belgilansinki, tomonidan... amal qilinsin, qonuniga muvofiq... kiritilsin, yuklansin, almashtirilsin, hisoblansin kabi. Prezident Farmonlari, qarorlar kabi hujjatlar preambulasida gap oxiri rag'batlashtirish maqsadida, yaratish maqsadida, mustahkamlash maqsadida, kuchaytirish maqsadida, qonuniga muvofiq, qaroriga muvofiq, quyidagi o'zgartishlar kiritilsin, belgilab qo'yilsinki, belgilansinki kabi jumladan so'ng ikki nuqta qo'yiladi va hujjatning moddalari yoki birinchidan, ikkinchidan... tarzida, yoki raqamlar, nuqtali vergullardan so'ng kichik harflar bilan davom ettiriladi va gap buyruq mayli shaklidagi belgilansin, amalga oshirilsin, ta'minlansin, amal qilinsin, kiritilsin, yuklansin, almashtirilsin, hisoblansin fe'llari bilan yakunlanadi.

Ayrim gap bo'laklari takrori ham shu o'ziga xosliklarning bir ko'rinishidir. Konstitutsiyaning muqaddimasida shu holat mavjud: O'zbekiston xalqi: inson huquqlariga va davlat suvereniteti g'oyalariga sodiqligini tantanali ravishda e'lon qilib, hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi yuksak mas'uliyatini anglagan holda, o'zbek davlatchiligi rivojining tarixiy tajribasiga tayanib, demokratiya va ijtimoiy adolatga sadoqatini namoyon qilib, xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan qoidalari ustunligini tan olgan holda, respublika fuqarolarining munosib hayot kechirishlarini ta'minlashga intilib, insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etishni ko'zlab, fuqarolar tinchligi va milliy totuvligini ta'minlash maqsadida,

o'zining muxtor vakillari siymosida O'zbekiston Respublikasining mazkur Konstitutsiyasini qabul qiladi. Ushbu gaplardan RUda ravishdosh va sifatdosh oborotlarning faolligini ham kuzatish mumkin.

RU uchun shaxssiz gaplar xos: O'zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati xalq manfaatlarini ko'zlab va O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda uning asosida qabul qilingan qonunlar vakolat bergan idoralar tomonidangina amalga oshiriladi (Konstitutsiya). Mazkur Farmonni bajarish bilan bog'liq sarf-xarajatlar respublika byudjeti hisobidan amalga oshirilsin (Prezident Farmoni). Ishlab chiqarishga joriy etilgan yangi texnologik jihozlar besh yil muddatga mulk solig'idan ozod etilsin (Prezident Farmoni) kabi.

Prezident va hukumat farmonlari va qarorlarini so'zsiz hayotga tatbiq etilishiga da'vat ohangi mana shu so'z shakllari va jumlar orqali ro'yobga chiqariladi. Bu kabi davlat ahamiyatiga ega bo'lgan hujjatlar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki hukumat rahbari tomonidan imzolanadi va ko'pincha bajaruvchisi, bajarish muddati va nazorat qiluvchisi aniq ko'rsatilgan bo'ladi.

Har bir hujjat o'ziga xos kompleksga - preambula, asosiy qism va xulosa singari tarkibiy qismlarning qat'iy tartibiga ega bo'lishi, birinchi qismda hujjat nima asosda tuzilayotgani ko'rsatilishi, ikkinchi qismida xulosalar, takliflar, iltimoslar, qarorlarning bayon etilishi ham ularning sintaktik xususiyatlari sanaladi.

RUga xos bayonning og'zaki shakli bo'lishi ham mumkin. Aytaylik, ushbu uslubda yozilgan matnlar radio yoki televideniye orqali o'qib beriladi. Matn so'zma-so'z o'qilgani tufayli bunda rasmiylik ottenkasi, asosan, saqlanib qoladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining turli bayramlar munosabati bilan xalqqa qilgan murojaati, tabriklari va ularning diktorlar tomonidan o'qib berilishi bunga yaqqol misoldir.

Ba'zan esa rasmiy doiralarda, turli xarakterdagi yig'ilishlarda ham uning ishtirokchilari tomonidan chiqishlar amalga oshiriladi. Bu chiqishlar avvaldan tayyorlangan yoki tayyorlanmagan bo'lishi ham mumkin. Shunga qarab uning rasmiy ottenkasi ham o'zgaradi. Rasmiylik va norasmiylik aralash holda namoyon bo'ladi. Binobarin, so'z va jumlar ham ana shu vaziyatga mos ravishda tanlanadi yoki spontan tarzda ijro etiladi. Bu vaziyatdan kelib chiqadigan majburiylikdir. Lekin RU me'yorlarini bila turib, unga xos til elementlarini boshqa uslublarda qo'llash maqsadga muvofiq emas. Ammo ma'lum stilistik maqsadlarni ko'zda tutib, masalan, BU va so'zlashuv uslublarda (SU) atayin qo'llash boshqa gap.

RUga xos bo'lgan leksik-grammatik xususiyatlarni ko'zdan kechirib shunday xulosaga kelish mumkinki, mazkur uslubda kitobiylik ottenkasi kuchli.

RUga xos bo'lmagan xususiyatlar quyidagilar: sub'yektiv munosabat, stilistik jihatdan ma'no ottenkalari kuchsiz yoki kuchli bo'lgan so'zlar. Ushbu uslub uchun jargonlar, oddiy so'zlashuvga xos so'zlar, emotsional-ekspressiv bo'yoqqa ega bo'lgan so'zlarning ishlatilishi me'yor sanalmaydi va shu jihati bilan

boshqa uslublardan keskin farq qiladi. Ko'chirma gaplar yoki o'zlashtirma gaplar, kiritma gaplar, modal ma'nodagi gaplar qo'llanilmaydi.

RU doirasida qaraladigan har bir janr yoki hujjat nafaqat mazmunan, balki shaklan ham sezilarli darajada bir-biridan farq qiladi. Shuning uchun o'rganishni osonlashtirish maqsadida L.G.Barlas ularni ikki katta janrga: qonunchilikka oid (zakonodatel'nyy) va idoraviy (kanselyarskiy) janrlarga bo'lib, bu bilan RU janrlari tahlilini angchagina osonlashtirgan edi. Darhaqiqat, qonunchilik va uning ijrosi bilan bog'liq hujjatlar ham, idoraviy hujjatlar ham lingvistik xususiyatlariga ko'ra bir-biridan jiddiy farqlanib turadi.

Idoraviy shtamlarni L.G.Barlas quyidagi tiplarga ajratgan edi: rasmiy munosabatlarga daxldor bo'lgan shaxslar nomlari (arizachi, javobgar, davogar), hujjatlar nomlari (farmon, faroyish, qaror, buyruq), hujjatlarning tarkibiy qismlari (kun tartibi, qatnashdi, eshitildi, qaror qildi), RUda ixtisoslashgan umumxalq tili elementlari (shaxs - jismoniy shaxs, yuridik shaxs; tomonlar – ahdlashuvchi tomonlar) kabi. Bu standart va ixtisoslashgan jumlar, boshqa uslublarda, masalan, SU yoki BUda ham qo'llanishi mumkin. Ammo ularning bu uslublarda faollashishiga yo'l qo'yib bo'lmaydi.

Shunday qilib, o'zbek tili funksional uslublari orasida RU alohida mavqega ega va bu alohidalik unda lingvistik va ekstralingvistik omillarning uyg'unligida, leksik-grammatik elementlarning mazkur uslubda xoslanishida namoyon bo'ladi.

5-Mavzu: ILMIY USLUB

Reja:

1. Ilmiy uslubning o'ziga xos belgilari. Ilmiy terminologiyayu
2. Ilmiy uslubning o'ziga xos jihatlari.
3. Ilmiy uslubning leksik-grammatik vositalari.

Mavzu uchun tayanch atamalar: Ilmiy uslub, aniqlik, mantiqiy izchillik, obyektivlik, monografiya, risola, darslik, o'quv qo'llanma, dastur, maruza, taqriz, referat.

Hozirgi paytda ilmiy uslub (IU) jahonning barcha rivojlangan tillarida o'zining alohida lingvistik xususiyatlari bilan ajralib turuvchi uslub sifatida shakllangan. Jumladan, o'zbek tilida ham u mustaqil FU sifatida mavjud. Lekin o'tgan asrning 80-yillariga qadar bu uslub maxsus tadqiqot ob'yekti bo'lgan emas edi. Uni birinchi bo'lib M.Mukarramov monografik planda o'rgandi, shu mavzuda doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi. Ushbu tadqiqotda olim IUni o'zbek tilining boshqa FUlari orasida tutgan o'rnini belgilashda, uning o'zigagina xos bo'lgan lingvistik va ekstralingvistik xususiyatlarini aniqlashda akad. V.Vinogradovning til haqidagi aloqa-xabar-ta'sir konsepsiyasiga tayangan va ilmiy nutqni xabar anglatish, axborot berish xususiyatidan kelib chiqib o'rgangan. Kuzatishlarda to'g'ri yo'ldan borib, avval mazkur uslubning ekstralingvistik belgilarini o'rgangan va bu belgilarga tayangan holda uning leksik-semantik, morfologik va sintaktik xususiyatlarini tahlil qilgan. Mana shu asosda o'zbek tili FUlari tizimda mazkur uslubning alohida lingvistik alomatlari mavjud ekanligini nazariy jihatdan asoslagan.

Olimning ta'kidlashicha, XX asrning 20-yillarida rus tilidan turli xarakterdagi adabiyot va materiallarni o'zbek tiliga tarjima qilish IUning shakllanishiga sabab bo'lgan. □ Agar ajdodlarimiz qoldirgan ilmiy merosning ko'pchilik qismi turkiy tilda ekanligini va ularning muayyan bir uslubda yozilganligini inobatga olsak, bu fikr unchalik to'g'ri bo'lmasligi mumkin. Lekin hozirgi o'zbek adabiy tili FUlari nuqtai nazaridan tadqiqotchining fikrini inkor qilib bo'lmaydi.

O'zbek tili tarixida IUning qadimdan shakllanganligi bu borada muayyan kuzatishlar olib borishni va uning bugungi IU taraqqiyotida tutgan o'rnini belgilashni taqozo etadi.

Ushbu uslub tilshunoslikda ilmiy uslub, ilmiy proza, ilmiy adabiyot, ilmiy proza uslubi, fan tili, ilmiy bayon uslubi, ilmiy adabiyot uslubi, ilmiy funksional til

ko'inishi tarzida turlicha shakllarda nomlanib kelinmoqda. O'zbek tilshunosligida ulardan ikki variant – ilmiy uslub va ilmiy bayon uslubi atamalari ko'proq qo'llaniladi.

Ilmiy matnlarni til va uslub jihatdan o'rganish, mazkur uslubda bayonning eng maqbul variantlarini tavsiya etish, ushbu uslub qonuniyatlarini aniqlash IUning ob'yekti bo'lib hisoblanadi. IU ilmiy matnlar uslubidir. Til birliklarining fan sohasida, ilmiy bayon jarayonida ishlatilishi mazkur uslubning shakllanishiga asos bo'ldi. Ilmiy matnlar esa jamiyatda ilm-fan sohasidagi izlanishlar va uning taraqqiyoti natijasi o'laroq yuzaga keladi. IU tilning umumiy qonuniyatlariga, xususan adabiy til qoidalariga qat'iy amal qilib, ham nutqning IU, ham fan tili sifatida qaraladi. Shuning uchun IUni, bir tomondan, umumadabiy til fonida, ikkinchi tomondan, o'z qobig'ida olib qarash maqsadga muvofiqdir.

IUning janr xususiyatlari rang-barang va bunga ilmiy axborotlarni saqlash va yetkazish zarurati sabab bo'lgan. Tabiat va jamiyatdagi faktlarni, narsa-hodisalarni bayon qilish, ularning voqe bo'lish sabablari va o'zaro munosabatlarini o'rganish va izohlash ilmiy axborot va tahlillarning mazmunini tashkil qiladi. Monografiya, risola, darslik, o'quv qo'llanmasi, o'quv-metodik qo'llanma, dastur, ma'ruza matnlari, taqriz va referat singarilar uning janr ko'rinishlari hisoblanadi. Garchi ularning har birining bayon usuli va uslubi ma'lum darajada bir-birlaridan farq qilsa-da, til birliklaridan foydalanish me'yoriga ko'ra umumiylikka ega. Matnning ana shu farqlarini inobatga olgan mavzu tadqiqotchilari uni ikkiga bo'lib: ilmiy va ilmiy-ommabop matnlar tarzida o'rganishni tavsiya etadilar.

Ilmiy matnlarda muayyan fan sohasiga oid muammolar doirasida faqat bir soha va bir yo'nalishdagi mavzular chuqur tahlil etiladi. Binobarin, shunga bog'liq tarzda tildan foydalanish imkoniyatlari chegaralangan va xoslangan bo'ladi. Keng omma uchun mo'ljallanganlik, tushunarli uslubda yozishga intilish ilmiy-ommabop matnlarni muayyan bir fan yoki uning sohasi doirasida chegaralangan va faqat shu soha mutaxassislariga daxldor bo'lgan ilmiy matnlardan farqlovchi belgilar bo'lib hisoblanadi.

Tilning har bir FUDA bo'lgani singari bu yerda ham lingvistik va ekstralingvistik omillar ishtirok etib, ular birgalikda yaxlit bir IUning shakllanishiga asos bo'ladi.

Ilmiy uslubning ekstralingvistik shart-sharoitlari Matnlarning shakllanishida ishtirok etgan ekstralingvistik omillar ushbu uslubning o'ziga xosligini keltirib chiqaradi va bu o'ziga xoslik barcha lingvistik sathlar elementlarining saralangan holda, matn mazmuniga mos tarzda qo'llanishini taqozo etadi.

«Ekstralingvistik omillar, – deydi M.P.Senkevich, – bu muayyan fanning taraqqiyoti va uning jamiyat hayotidagi ahamiyati, ilmiy amaliyot maqsadlari, ushbu fan ob'yektining o'rganilganlik darajasi va sohalarining ixtisoslashuvi, shuningdek, ilmiy ijodning psixologik xususiyatlaridir».□ Ushbu omilarni yorqin tasavvur etishimiz uchun quyidagi fikrlarga e'tiborimizni qaratamiz: «Mustaqillik

sharoiti O'zbekistonda fanning rivojlanishiga katta ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Avvalo, fanimiz strukturasi keskin o'zgardi: ma'naviy fanlar hisoblanuvchi tasavvuf ilmi tiklandi, hadis bilimlariga yo'l ochildi, binobarin, ziyolilarimiz, talabalarning ruhiy dunyosi ancha boyidi, yangi oliy o'quv yurtlari, universitetlar tashkil qilindi; ilm ahli chet eldagi olimlar bilan mustahkam ijodiy aloqalar o'rnatdi. Buning natijasida tabiat va texnika-texnologiya haqidagi fanlarimiz ham jahon andozasi darajasiga ko'tarila boshladi. Olimlarimiz ilm-fanning dolzarb sohalarida tadqiqotlar olib borishga kirishdilar».□

Anglashiladiki, mustaqillik mamlakatimizda tabiiy va gumanitar fanlarning rivojlanishiga keng imkoniyatlar yaratib berish bilan birgalikda, ularning oldiga jahon andozalari darajasiga ko'tarilish hamda milliy g'oyamiz va ma'naviyatimizga mos keladigan gumanitar yo'nalishdagi tadqiqotlarni yangi mafkuraviy asosga qo'yish singari talablarni qo'ymoqda. Yurtboshimiz hozirgi vaqtda dunyoda kuchayib borayotgan turli ma'naviy tahdidlarning oldini olish, «ommaviy madaniyat»ning zararli ta'siridan farzandlarimizning ongu tafakkurini himoya qilishda ilmu fan va madaniyat jamoatchiligi, ijod ahlining o'rni va roli tobora ortib borayotganligini ta'kidlab, «Chindan ham agarki hozirgi vaqtda dunyoviy ilm-fan va texnologiyalarni chuqur o'zlashtirmasak, faqat tariximiz, olis ajdodlarimizning kashfiyotlari bilan maqtanib, ularga mahliyo bo'lib yashaydigan bo'lsak, ana shu noyob merosni asrab-avaylab, yanada boyitib, unga o'z hissamizni qo'shmasak, zamon bilan hamqadam bo'lib yurmasak, bizning jahon maydonida munosib o'rin egallashimiz qiyin bo'ladi», deydi.□ Ammo ularning hech biriga tildan foydalanishdagi yuksak madaniyat va savodxonliksiz erishib bo'lmaydi. Binobarin, o'zbek tili doirasida o'ziga xos qoida-qonunlarga ega bo'lgan fan tili va uslubi ham amalda bo'lmog'i lozim. O'zbek tilining IUni takomillashtirishga bo'lgan munosabat va mas'uliyat ham ana shundan kelib chiqadi.

Ilmiy tafakkur fikrlashning o'ziga xos usuli bo'lib, ob'yektiv borliqni idrok etishda faqatgina dalil va faktlarga tayanadi, ekstralingvistik omillar esa nutqning ushbu turining shakllanishida, binobarin, nutqiy me'yorning o'ziga xos turining yuzaga kelishida muhim omil sanaladi. Shuning uchun ham, xuddi boshqa FUlarda bo'lgani kabi bu uslubda ham lingvistik omillardan foydalanishdagi o'ziga xosliklarni ekstralingvistik omillardan tashqarida o'rganib bo'lmaydi.

Bayondagi fikriy aniqlik, mantiqiy izchillik, ob'yektivlik, ixchamlik, qisqalik, kitobiylik, mukammallik, alohida vaziyat, individuallik, qiyosiylik kabilar IUGa xos bo'lgan asosiy ekstralingvistik alomatlar sanaladi va ular lingvistik birliklarning mazkur uslub doirasida qat'iy tartib bilan tanlanish va xoslanish tamoyillarini belgilaydi. Ularning ayrimlarini ko'rib o'tamiz.

1. Aniqlik. Barcha FUlarda bo'lgani singari ilmiy bayonda ham, shubhasiz, aniqlik talab qilinadi. Shuning uchun bu uslubda so'zlarni asosan bir ma'noda qo'llash, sinonimik qatordagi variantlardan masalaning mohiyatini birmuncha aniq ifoda etadigan ko'rinishini tanlash, hech bo'lmaganda, neytral variantini qo'llash talab etiladi.

Terminlar ana shu talabga javob bera oladigan leksik birliklar bo'lgani uchun ular mazkur uslubning asosiy lug'aviy fondi sanaladi va ma'lum bir til elementlari, masalan, sohaviy terminologiya qo'llanish chastotasining yuqoriligi bilan xarakterlanadi.

Terminlarning qay darajada maqsadga muvofiq qo'llanilib kelinayotganligini tahlil etish uchun «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari» asari matnidagi fond va jamg'arma, yuridik va huquqiy, ustav va nizom so'zlarini qiyosan qarab chiqamiz.

Ushbu so'zlar o'zbek tilida sinonim hisoblanadi va ijtimoiy-iqtisodiy sohada faol qo'llaniladi. Matnda fond 8 marta, jamg'arma 6 marta qo'llangan: "Mikrokreditbank"ning nizom jamg'armasini ko'paytirishga oid farmoni qabul qilingani ham shu yo'ldagi amaliy qadam bo'ldi. Ushbu gaplardagi jamg'arma birligini fond bilan bermalol almashtirish mumkin. Ammo Respublika Tiklanish va taraqqiyot fondi faoliyatiga katta ahamiyat berilmoqda; Dunyoning yetakchi fond bozorlarida eng yirik kompaniyalar indeksleri va aksiyalarning bozor qiymati halokatli darajada tushib ketishiga olib keldi misollaridagi fond ni jamg'arma ga almashtirib bo'lmaydi. Shunday qilinsa, rasmiylik va ilmiylik o'rnini ommaboplik ottenkasi egallaydi. O'zaro sinonim bo'lgan bu ikki so'zning qo'llanilishida parallellik davom etayotgan bo'lsa-da, fond ning atamalik salohiyati kuchli va bu uning xalqaro termin ekanligi bilan izohlanadi.

Shuningdek, matnda yuridik va huquqiy so'zlari stilistik farqlarga ega bo'lgani uchun baravar qo'llangan. Yuridik shaxs deyish mumkin bo'lgani holda, huquqiy shaxs deb bo'lmaydi. O'zbek tilida huquqiy so'zining ma'nosi yuridik birligiga nisbatan keng: Ayni paytda banklarimizning umumiy aktivlari hajmi aholi va yuridik shaxslarning hisob raqamlaridagi mablag'lardan ikki barobardan ham ko'pdur. Birinchidan, mazkur dastur ijrosi bilan bog'liq qonunchilik va normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish ... zarur kabi.

Faktor va omil so'zlarining qo'llanish nisbatida (chastotasi: 1-16) ularning birinchisi ikkinchisiga asta-sekinlik bilan o'rnini bo'shatib berayotganligi seziladi: Nega deganda, bugungi kunda eksport asosan xom ashyo yetkazib berishdan iborat bo'lib, ...iqtisodiyotni izdan chiqaradigan jiddiy faktorga aylanmoqda. Uchinchidan, moliyaviy-iqtisodiy inqirozning har qaysi davlatdagi miqyosi, ko'lami va oqibatlari qanday bo'lishi ko'p jihatdan bir qancha omillardan kelib chiqadi kabi.

Ustav (1 marta) va nizom (3 marta) so'zlari esa jamg'arma so'zining aniqlovchisi sifatida parallel qo'llangan va stilistik farqlar sezilmaydi: Prezident farmoni asosida "Mikrokreditbank" ustav jamg'armasini 72 milliard so'mga oshirish va uning hajmini 150 milliard so'mga yetkazish haqida qaror qabul qilindi. 2006 yilda tashkil etilgan, bugungi kunda 3 milliard 200 million AQSh dollaridan ortiq nizom jamg'armasiga ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot fondi faoliyatiga katta ahamiyat berilmoqda.

Ushbu tahlillardan shunday xulosa kelib chiqadiki, IUda qo'llaniladigan terminlar, birinchi navbatda, atamalik vazifani ado etadi, ikkinchidan, fikriy aniqlik uchun xizmat qiladi, uchinchidan, ular sohaviy xarakterga ega bo'ladi. Mabodo bir soha atamalari o'rnida ikkinchisi qo'llaniladigan bo'lsa, unda qandaydir stilistik maqsad ko'zda tutilgan bo'ladi. Bunday paytda ular qo'shtirnoq ichiga olingan holda qo'llaniladi. Tibbiyotdagi shok terapiyasi atamasining iqtisodiyotda qo'llanila boshlaganligini bunga misol tariqasida keltirish mumkin: Eng avvalo, "shok terapiyasi" deb atalgan usullarni bizga chetdan turib joriy etishga qaratilgan urinishlardan, bozor iqtisodiyoti o'zini o'zi tartibga soladi, degan o'ta jo'n va aldamchi tasavvurlardan voz kechdik.

IUda aniqlik bilan bir qatorda mavhumlik tushunchasi ham mavjud. Ammo ularni bir-biri bilan oppozitsiyadagi tushunchalar deb qarash kerak emas. Mavhumlik – abstraksiya fanning ma'lum bir sohalariga, masalan, matematikaga tegishli bo'lishi mumkin: Faraz qilaylik, 1 va 2 jismlar bir xil bo'lsin; u holda 1-jismning eng yuqori ko'tarilish nuqtasigacha harakat vaqti, 2-jismning tushish vaqtiga teng. Faraz qilaylik birinchi jismning harakati boshlangandan to tugaguncha o'tgan vaqt, □ faqat 1-jism harakatlangan vaqt oralig'i (□) kabi. Mavhumlik sifatida qabul qilingan faraz masalaning yechilishi davomida aniq xulosa bilan yakunlanadi.

M.N.Kojina «Haqiqatdan ham, hozirgi zamon fani uchun, ayniqsa, matematik mantiq qo'llaniladigan deduktiv metodning keng tarqalishi bilan bog'liq holda fikrni mavhumlashtirish va ob'yektivlashtirish tendensiyasi xarakterli bo'lib qoldi», deb yozish bilan birgalikda, bu tendensiyaning IUdagi barcha janrlarga ham tegishli emasligini aytadi: «Aslida mavhumlashtirish va ob'yektivlashtirish tendensiyasi tafakkur jarayoni sifatida ham, ilmiy faktlarni bayon qilish usuli sifatida ham intuitsiyaning paydo bo'lishiga, obrazlilik, emotsionallik va ilmiy ijodda mantiqiy fikrlashdan tashqarida bo'lgan boshqa shakllarga zid emas».□

2. Mantiqiy izchillik ilmiy bayon uslubining o'ziga xos xususiyatini tashkil etadi. Matnda so'zlar, gaplar, abzatslar o'zaro mantiqiy bog'langan bo'ladi va bu izchillikni yuzaga keltiruvchi ma'lumki, ma'lum bo'ladiki, ta'kidlash lozimki, ta'kidlash o'rinliki, darhaqiqat, binobarin, shunday ekan, birinchidan, ikkinchidan, ko'rinadiki, ta'kidlash joizki, xulosa qilib aytganda, xulosa qilganimizda, birgina misol, faqat bugina emas singari ko'plab bog'lovchi vazifasini bajaradigan so'z va birikmalar qo'llaniladi: Inqirozga qarshi choralar dasturining konkret bo'limlari — belgilangan kompleks chora-tadbirlar quyidagi asosiy vazifalarni hal etishga qaratilgan. Birinchidan — korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlashni yanada jadallashtirish, zamonaviy, moslashuvchan texnologiyalarni keng joriy etish. Ikkinchidan — joriy kon'yunktura keskin yomonlashib borayotgan hozirgi sharoitda eksportga mahsulot chiqaradigan korxonalarning tashqi bozorlarda raqobatdosh bo'lishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha konkret chora-tadbirlarni amalga oshirish va eksportni rag'batlantirish uchun qo'shimcha omillar yaratish. Uchinchidan — qat'iy tejamkorlik tizimini joriy etish, ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxini kamaytirishni

rag'batlantirish hisobidan korxonalarning raqobatdoshligini oshirish. To'rtinchidan — elektroenergetika tizimini modernizatsiya qilish, energiya iste'molini kamaytirish va energiya tejashning samarali tizimini joriy etish choralari amalga oshirish. Beshinchidan — jahon bozorida talab pasayib borayotgan bir sharoitda, ichki bozorda talabni rag'batlantirish orqali mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini saqlab qolishda g'oyat muhim ahamiyatga ega singari.

Anglashiladiki, vazifalar ahamiyatlilik darajasiga qarab, ketma-ketlikda joylashtirilgan. Odatda matnda bir fikr ikkinchisi bilan chambarchas bog'liq bo'ladi va biri ikkinchisini to'ldirib boradi. Ilmiy matnlar sintaksisidagi segmental va supersegmental birliklarning qat'iy tartibi ana shu talablarga bog'liq holda ro'yobga chiqadi. «Ilmiy asarning vazifasi ma'lum qoida va gipotezalarni isbotlash, ilmiy muammolarni aniq va tartib bilan bayon etishdan iborat. — deb yozadi M.P.Sinkevich. — Shuning uchun ham ilmiy proza, asosan, mulohazalar zanjiridan iborat bo'ladi».□

Shunday qilib, mantiqiylik IUda alohida mazmun kasb etadi va u barcha tillarning IUiga xos xususiyatdir. Aslida mantiqiy izchillikning bo'lishi har qanday matnda talab qilinadi, ularning ta'minlanishi esa har bir FUda o'z janr xususiyatlaridan kelib chiqqan holda kechadi. IU va RUdagi izchillikni BUdagi, xususan, uning yirik polotnodagi janrlaridagi mantiqiy izchillikka tenglashtirib bo'lmaslikning sababi ham ana shunda. So'zlashuv jarayonida esa uni saqlab turish qiyin kechadi. Ammo nutqiy vaziyat bu izchillikning ta'minlanishiga, suhbatdoshlarning bir-birini tushunishlariga ko'maklashadi.

3. Ob'yektivlik. Ilmiy adabiyotlarda bu uslub doirasida til materiali fikrning haqqoniyligi, ob'yektivligiga xizmat qilishi lozimligi uqtiriladi.□

Ob'yektivlik haqiqat shakllaridan biri bo'lib, amaliyotda tasdiqlangan bilimdir.□ Binobarin, ilmiy bayonning ob'yektivligi deyilganda ham borliqdagi narsa-hodisalarni haqqoniy aks ettirish va xolisona munosabat bildirish tushuniladi. Ammo bu jarayon nihoyatda murakkab bo'lib, uning reallashuvida faqatgina til birliklariga tayanib ish ko'rish qiyin kechadi. Chunki, «haqiqat mazmunan ob'yektiv, lekin shaklan inson tafakkuri faoliyatining natijasi sifatida sub'yektivdir».□ Ilmiy matnda ham, garchi ob'yektiv borliq hodisalari haqidagi mushohadalar aks etsa-da, uning muallifi muayyan shaxs hisoblanadi, binobarin, sub'yektiv fikrlar bayon etiladi. Bu sub'yektivlik esa hayot haqiqati bilan hamisha mos kelavermasligi mumkin. Bu, ayniqsa, gumanitar fanlarda, masalan, tarix va adabiy tanqidga oid tadqiqotlarda yaqqol seziladi.

Ob'yektivlik masalasining murakkabligi yana shundaki, gumanitar sohadagi ilmiy xulosalar ma'lum bir davr, siyosat yoki mafkura bilan bog'liq bo'lishi mumkin. I.A.Karimovning «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q» asarida masalaning ana shu jihatiga munosib baho berilgan: «davrida yozilgan tarixni men tarix sanamayman. O'zgalar yozib bergan tarixni o'qitishga mutlaqo qarshiman. Mustamlakachi o'ziga qaram bo'lgan xalq haqida qachon xolis, adolatli fikr

aytgan? Ular bor kuch-g'ayratlarini Turkistonning o'tmishini kamsitishga, bizni tariximizdan judo qilishga sarflaganlar. Inson uchun tarixidan judo bo'lish - hayotdan judo bo'lish demakdir». Tarix - xalq ma'naviyatining asosi ekanligini ta'kidlagan Yurtboshimiz soha olimlari oldiga qat'iy vazifa qo'yadi: «Sizlar millatimizning haqqoniy tarixini yaratib bering, toki u xalqimizga ma'naviy kuch-qudrat baxsh etsin, g'ururini uyg'otsin. Biz yurtimizni yangi bosqichga, yangi yuksak marraga olib chiqmoqchi ekanmiz, bunda bizga yorug' g'oya kerak. Bu g'oyaning zamirida xalqimizning o'zligini anglashi yotadi. Haqqoniy tarixni bilmasdan turib esa o'zlikni anglash mumkin emas».□

IUda nafaqat ob'yektivlikka rioya qilish, balki uni bayon etish ham g'oyatda mushkul vazifa sanaladi. «Mantiq» darsligidan bir misol keltiramiz: «Epimenid «Men yolg'on gapiraman» deb aytdi. Bu paradoksni mutlaqo hal etib bo'lmaydi. Aytaylik, Epimenid rost gapirdi, bu holda uning haqiqatda yolg'on gapirgani aniq bo'ladi. Aytaylik, u yolg'on gapirdi. Bu holda uning haqiqatda ham rost gapirgani ma'lum bo'ladi».□

Ma'lum bo'ladiki, haqqoniylik, ob'yektivlik nihoyatda murakkab jarayon bo'lib, uning to'la aks etishi muallifning intellektual salohiyati, mafkurasi, mavzu atrofidagi bilimi kabi qator ekstralingvistik omillarga ham bog'liq. Til birliklari esa ana shu tildan tashqaridagi omillardan kelib chiqib tanlanadi va shu ikki omilning birlashuvida yaxlit bir IU yuzaga keladi.

IUning o'ziga xos xususiyatlari uni boshqa uslublar bilan qiyoslaganda yaqqol namoyon bo'ladi. Til materialidan foydalanishdagi juda ko'p jihatlari, aytaylik, fikrning aniqligi va ravshanligi, bayonning to'liqligi va ob'yektivligi, fikriy ifodaning ravonligi va realligi, standart jummalarning ko'pligi, umuman, fikrni standart andozalarda berishga intilish, emotsional-ekspressivlikning xos emasligi kabi ekstralingvistik omillar bilan RUGa yaqin turadi.

Bayonda butunlay boshqa xususiyatlari, masalan, targ'ibot-tashviqot xarakteri, emotsional-ekspressivlikning va obrazlilikning kuchliligi, ifodaning tanqidiyligi va, umuman, baholash munosabatining mavjudligi, ko'pplanlilik va ko'pma'nolilik, nutqining monologik va dialogik xarakteri, nutqning muallif, personaj va o'zgalar nutqiga bo'linishi ustun bo'lgan publitsistik va BUGa qarama-qarshi turadi. Shu ma'noda ilmiy va RU publitsistik va BUGa kuchli oppozitsiyadadir. «Bir tomondan, ilmiy nutqning, ikkinchi tomondan, badiiy nutqning o'ziga xos xususiyatini funksional-stilistik ahamiyatga ega bo'lgan (jumladan, til birliklarining muayyan muloqot doirasi va ma'no tiplarida qo'llanishi bilan qat'iy shartlanilganlikda o'z ifodasini topgan) mavhum-umumiylilikning/ aniqlikning funksional-semantik kategoriyalari asosidagina ob'yektiv belgilash mumkin», deb yozadi M.N.Kojina.□

IUdagi ekspressivlik publitsistik, badiiy va SUGa ekspressivlikdan farqlanadi. Garchi ularning ham sub'yektiv munosabatni ifoda etishi ma'lum bo'lib tursa-da, ular his-tuyg'u uyg'otuvchi vosita darajasiga yetmaydi. Shuningdek, SUGa xos bo'lgan nutqning spontan va dialogik xarakteri, kuchli sub'yektiv

munosabat, maishiy hayotga oid so'zlar, kirish so'zlar, undovlar, ko'p sonli qaytariqlar, to'liqsiz, his-hayajon, undov va ritorik so'roq gaplar IUning tabiatiga ziddir.

Ilmiy matnlarning faktik materiallarga boy bo'lishligi, bayonning axborot xarakterida ekanligi, bu axborotning lo'nda va qisqaligi, har qanday ilmiy muammoning izchil va aniq bayon etilishi bilan birgalikda muayyan bir janr doirasida til birliklaridagi chegaralanganlik ham istisno qilinmaydi.

Ilmiy uslubning lingvistik xususiyatlari

Ilmiy matnda lingvistik vositalarning tanlanishi, saralanishi bevosita ekstralingvistik omillarga bog'liq bo'ladi. Yuqorida sanab o'tganimiz aniqlik, mantiqiy izchillik, ob'yektivlik va boshqa omillar til sathlaridagi elementlarning mazkur uslubda qo'llanish me'yori va darajasini belgilaydi.

Ilmiy uslubning fonetik jihatlari. IU aslida nutqning kitobiy tipiga tegishli bo'lsa-da, ma'lum vaziyatlarda og'zaki tarzda namoyon bo'lishi tufayli bu uslubda shakllanadigan matnlarni ham xuddi RUdagi singari yozma va og'zaki ko'rinishlarga ajratish to'g'ri bo'ladi. Turli xarakterdagi ilmiy anjumanlarda qilinadigan ma'ruzalar yozma matndan ajralmagan holda ba'zan og'zaki tarzda bayon qilinishi mumkin.

Bayon esa ma'ruzachining individual uslubiga va notiqlik mahoratiga bog'liq tarzda amalga oshiriladi. Binobarin, ma'ruza jarayonida so'zlovchi o'z gapirish manerasiga mos tarzda ohangni o'zgartirib – pasaytirib yoki ko'tarib turishi, eng muhim hisoblangan nuqtalarni alohida ta'kid ohangida talaffuz etishi mumkin. Aslida ilmiy nutqqa monotonlik, standartlik xos bo'lib, ma'ruza jiddiy va xotirjam tepmda qilinishi lozim, unda ko'tarinki ohang ma'qul sanalmaydi. Adabiy talaffuz me'yorlariga qat'iy amal qilish talab etiladi. Shuning uchun ham IUni fonetik jihatdan boshqa uslublardan farqlanib turuvchi yorqin belgilarga ega deb bo'lmaydi.

Ilmiy uslubning leksik xususiyatlari. Fanning ma'lum bir yo'nalishiga xos bo'lgan sohaviy atamalarning faolligi IUning muhim leksik xususiyati hisoblanadi. Shu ma'noda «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari» asarini bugungi iqtisodiyot sohasidagi terminologiya aks etgan o'ziga xos oyna deyish mumkin.

Mustaqillik davrida o'zbek tilining lug'at boyligida bojxona, kimoshdi savdosi, jamg'arma, bozor iqtisodiyoti, kafolatlanmoq, makon, sarmoya, prognoz kabi so'z va iboralar yangicha sharoitda, yangicha mazmunda va xalqaro andozalar talablari darajasida qo'llanila boshlandi. Chunki shu paytga qadar bojxona xizmati, kimoshdi savdosi kabi faoliyat turlari yo'q edi. Sarmoya so'zi iste'moldan chiqib ketgan edi. Ularning barchasi tilimizda yangicha tarzda o'zining ikkinchi umrini yashay boshladi. Masalan: Ko'pgina xalqaro ekspert va mutaxassislar bu

inqirozning sabablari va yanada avj olishi bilan bog'liq prognozlarida javoblardan ko'ra ko'proq savollarga duch kelishmoqda. Yangi faoliyat turlarini, yangi muomala va munosabatlarini ifodalovchi moliya-valyuta, moliya-bank, oltin-valyuta, pul-kredit singari elementlar yuzaga keldi.

Shuningdek, yangicha ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy aloqalarning natijasi o'laroq tilimizda bir qator turg'un so'z birikmalari kalakalashdi, lug'at fondimizdan mustahkam joy oldi. Masalan, axborot kommunikatsiya texnologiyalari, aholi bandligi, bank aktivlari, bozor kon'yukturasi, boshqaruvning bozor tizimi, global iqtisodiy makon, daromad solig'i stavkalari, jahon moliyaviy inqirozi, jahon iqtisodiy inqirozi, yer maydonlarini optimallashtirish, ijobiy salmo hajmi, ijtimoiy infratuzilma, investitsiyaviy faollik, ishlab chiqarish infratuzilmasi, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, ishlab chiqarishni texnik yangilash, ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, inqirozga qarshi choralar dasturi, islohot va modernizatsiya modeli, ipotekali kreditlash tizimi, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, kichik beznis, kichik biznes sub'yektlari, korporativ manfaatlar, likvidlik qobiliyati, ma'muriy-buyruqbozlik tizimi, milliy kredit institutlari, spekulativ kredit, xususiy tadbirkorlik, xo'jalik yurituvchi sub'yekt, erkin bozor iqtisodiyoti, yalpi ichki mahsulot kabilar shular jumlasidandir. Mana bu nomlar esa mustaqillikning mevasi sifatida tilimizda paydo bo'lgan atamalar sanaladi: Asakabank, Mikrokreditbank, Paxtabank, Tashqi iqtisodiy faoliyat banki, O'zsanoatqurilishbank, G'allabank, Hamkorbank, O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot fondi va boshqalar.

Bu kabi jarayonlarni, ulardagi lingvistik o'zgarishlarning ozligi yoki ko'pligidan qat'iy nazar, fanning boshqa soha va yo'nalishlarida ham kuzatish mumkin.

Ilmiy uslubning morfologik xususiyatlari. Bu to'g'rida M.Mukarramovning «Hozirgi o'zbek adabiy tilining ilmiy stili» monografiyasida quyidagi fikrlar bayon qilingan: IUda faqat adabiy tilda me'yor sifatida e'tirof etilgan grammatik ko'rsatkichlardan foydalaniladi. So'z turkumlaridan ot faol, ko'pincha takror qo'llanadi. Sub'yektiv baho shakllari xos emas. –lar ko'plikdan boshqa semantik-uslubiy ma'nolarni ifodalama-da, atama hosil qilishda ishtirok etadi. Umumiy egalik ustun turadi, I-II shaxs qo'shimchalari ishlatilmaydi, III shaxs shakli faol. Undov va taqlid so'zlar ham bu uslubga xos emas. Yuklamalarning esa imkoniyati chegaralangan.

Ilmiy nutq uchun deyiladi, aytiladi, yoritiladi, bayon qilinadi, aniqlanadi, tekshiriladi, foydalaniladi, ta'riflanadi singari xoslangan fe'llar mavjud. Fe'lning majhul daraja shakli ham bu uslub uchun xos. Ammo hozirgi-kelasi zamon shaklidan tashqari xarakterli zamon ko'rsatkichi yo'q. Kishilik olmoshlari kam qo'llaniladi. Bu gap faqat muallif va men ma'nolarida qo'llaniladigan hamda kamtarlik ma'nosini ifodalaydigan biz olmoshiga tegishli emas. □

Olimning olmoshlar haqidagi fikrini to'ldirishga harakat qilamiz. IUda men va biz olmoshlariga sinonim sifatida qarash mumkin. Soha mutaxassislarining

yozishicha, avvallari bu uslubda men faol bo'lgan. Masalan, M.V.Lomonosov buyuk knyazga yozgan xatlarida uni faol qo'llagan.□ Ammo bu fikrni o'zbek tili uchun xos deb bo'lmaydi. To'g'ri, «mən~men olmoshi o'z ma'nosidan tashqari ot turkumiga kiruvchi so'z sifatida o'z qadr-qimmatiga ishongan shaxs – men ma'nosida ham ishlatilgan. Bunday qo'llanish XI-XII asrlarga oid yozma yodgorliklar tilida uchraydi».□ Bu kabi qo'llanishlar ilmiy matnlarda nihoyatda kam. Uning o'z vazifasini kesimlik ko'rsatkichi sifatida ado etishi bu holatda ham qo'l keladi: Ul kitobni oldik va bu mahallini topib nazar soldik va bildikki, ulcha men ta'rifida tahrir qilibmen, taqsir (kamchilik, nuqson) qilibmen (Alisher Navoiy. Muhokamat ul-lug'atayn). Bu to'rt devon ovozasin chun rub'i maskung'a yetkurupmen, «Xamsa» panjasig'a panja urupmen (Alisher Navoiy. Muhokamat ul-lug'atayn). Birinchi gapdagi soldik, bildik fe'llari men o'rnida biz ning qo'llanila boshlaganligining ildizlari qadimga borib taqalishidan dalolat beradi. – dik ning –duk varianti ham ilmiy matnlarda baravar ishlatilgan: Emdi kelduk so'z bayonig'a va kalom dostonig'a; Va kelduk qushqaki, anda muqarrar va mashhur ilbosun o'rdakdur (Alisher Navoiy. Muhokamat ul-lug'atayn).

«Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari» asarida 17 marta qo'llangan biz barcha o'rinlarda o'z ma'nosida kelgan. Muallif faqat bir marta men so'zini ishlatadi: Jahon iqtisodiy inqirozi esa, mening nazarimda, bu jarayonni yanada jadallashtirishga turtki bermoqda, uni har tomonlama tezlashtirishni taqozo etmoqda. Ammo «Menejment asoslari» asarida men o'rnida biz faol qo'llangan: Biz bu yerda uchinchi talabga duch kelamiz. Biz boshqarish deb ataydigan faoliyat to'la safarbarlikni talab qiladi. Bu holat ilmiy matnlarda ko'pchilikni tashkil qiladi. Tilga olingan birinchi asarda biz ning o'z ma'nosida qo'llanishi esa mamlakatimiz birinchi rahbarining davlat va xalq nomidan gapirganligi bilan izohlanadi.

Mustaqillik davridagi yangi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni ifoda etuvchi so'z shakllarining paydo bo'lishida tilimizning ichki imkoniyatlari juda qo'l keldi. Bunda quyidagi yasovchi qo'shimchalarni alohida ajratib ko'rsatish mumkin: -dor: mulkdor; -dosh: raqobatdosh; -iy: industrial-iqtisodiy, makroiqtisodiy, me'moriy-loyihaviy, normativ-huquqiy; -kor: tadbirkor; -lash: kreditlash, moliyalash, kafolatlash; -lashtirish: mahalliyashtirish, moliyalashtirish, erkinlashtirish; -li: maqsadli, imtiyozli, muddatli; -lik: agentlik, barqarorlik, raqobatdoshlik, tadbirkorlik; -lik: bandlik, vrachlik, kasanachilik, likvidlik, rentabellik, tanglik, fermerlik, ekspertlik; -no: nodavlat, nooziq-ovqat; -u(v): boshqaruv, kapitallashuv, integratsiyalashuv; -chi: iste'molchi, ijrochi, kasanachi, yurituvchi; -chilik: qonunchilik kabi.

Ilmiy uslubning sintaktik xususiyatlari. Ekstralingvistik omillar talabidan kelib chiqib, IUda bayon etilayotgan matnning sintaktik qurilishi fikriy tugallikka, mantiqiy izchillikka xizmat qiladi hamda bir tarkibli gaplarning shaxssiz, shaxsi umumlashgan turlari faol bo'ladi. Undov, atov gaplar qo'llanilmaydi, nutq monologik xarakterda bo'ladi. Gap tuzilishining odatdagi tartibi qo'llaniladi. Gaplar darak mazmunida bo'lib, asosan sodda yoyiq holda bo'ladi: G'alla ekinlari

urug'lari saqlashga ancha chidamli hisoblanadi. Qishloq xo'jaligini sifatli urug' bilan ta'minlashda uni saqlash muhim tadbirdir. Ekiladigan g'alla urug'lari uchun davlat standarti belgilangan kabi (Qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash texnologiyasi). Qo'shma gap faol ishlatiladi va bunda bog'lovchilarning ham ko'p ishlatilishi kuzatiladi.

So'roq va buyruq gaplar kam qo'llaniladi. Lekin qo'llanganda ular tasviriylilik uchun xizmat qiladi. Mavzu tadqiqotchilari keyingi paytlarda ushbu mazmundagi gaplarning ko'payib borayotganligini ta'kidlashadi. Biz tasviriylikka xizmat qiluvchi so'roq gaplarning matn muallifi uslubi bilan bog'liq ekanligini ta'kidlash tarafdorimiz. Chunki ayrim mualliflar muammoni yoki muammo atrofidagi masalalarni savol tariqasida qo'yadi va unga o'zi javob beradi. Mana shu tarzda har bir masala aniq va lo'nda tarzda o'z yechimini topadi. Masalan, «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari» asarida: Tabiiy savol tug'iladi — buning uchun bizda zarur imkoniyatlarimiz bormi, bunday loyihalarni amalga oshirish uchun mamlakatimizda qanday salohiyat yaratilgan? Ta'kidlash joizki, ana shunday keng ko'lamli dasturni amalga oshirish uchun biz so'nggi yillarda jiddiy tayyorgarlik ko'rib kelmoqdamiz. Jahon iqtisodiy inqirozi esa, mening nazarimda, bu jarayonni yanada jadallashtirishga turtki bermoqda, uni har tomonlama tezlashtirishni taqozo etmoqda.

IUdagi so'roq gaplar qo'llanishining individual xarakterini inobatga olib, uni barcha ilmiy matnlar uchun xos xususiyat deb bo'lmaydi. So'roq gaplar orqali yuzaga kelgan tasviriylilik darajasi ham turlicha bo'lishi mumkin. Masalan, fan va texnikaga yoki iqtisodiyotga oid matnlarda savolning qo'yilishi va unga beriladigan javobni gumanitar fanlar sohasida, aytaylik, adabiyotshunoslikka oid asarlarda qo'yiladigan savollar bilan tenglashtirib bo'lmaydi. O.Sharafiddinovning «Abdulla Qahhor» monografiyasida (Toshkent, 1988) shunday jumlar bor: Hozir Rohatoyning sakkizinchi farzandi dunyoga kelish arafasida. Kim bo'larkin? O'g'ilmi, qizmi? Umri bilan berarmikin yoki u ham Rohatoy bilan usta Abduqahhorning farzand dog'ida kuyib ado bo'lgan yuraklarini yana bir yaralab, tezda olamdan o'tarmikan? Yoki: Kim bilsin – ahvol shundoq ketaverganda nima bo'lardi? Abdulla dong'i ketgan temirchi usta bo'lib yetisharmidi? Yo, boshqa odam bo'larmidi?

Anglashiladiki, iqtisodiyotga oid matn bilan adabiyotshunoslikka oid matndagi so'roqlar javob talab qilishiga ko'ra biri ikkinchisiga o'xshamaydi. Birinchi matnda muallif o'z oldiga aniq savol qo'yadi va unga aniq javob beradi. Savolni qo'ymasdan ham fikrini bayon etish mumkinmidi? Albatta, mumkin edi. Ammo so'roqning o'rta qismiga qo'yilishi bilan birvarakayiga bir necha masala hal etildi: birinchidan, masalaning bayon etilishi lozim bo'lgan jihati aniq bo'ldi; ikkinchidan, aynan shu jihatga tinglovchi yoki o'quvchining diqqati qaratildi. Xuddi mana shu holat so'roq gapdagi stilistik o'ttikaning namoyon bo'lishidir, uning tasviriylilik imkoniyatidir. Adabiyotshunoslikka oid matnda esa so'roq gaplardagi stilistik jarayon mutlaqo boshqacha tarzda kechgan. Savol qo'yilmoqda,

ammo ritorik so'roq bo'lmasa ham, unga javob yo'q. Bu adabiy ifodaning tagma'nolilik bilan bog'liq bo'lgan o'ziga xos xususiyati. Obrazlar ruhiy holatini berishning, o'quvchini ham ana shu holatga olib kirishning bir usuli. Shu jihatlar adabiyotshunoslikka ham tabiiy ravishda ko'chadi. Ammo bu matnda ham so'roq gaplar o'zining asosiy stilistik vazifasini saqlab qolgan: Nima uchun Abdulla Qahhor bu hikoyada rivoyatga murojaat qildi? Chunki qayta ishlangan rivoyat har qanday hayotiy faktdan ko'proq darajada yozuvchining g'oyaviy maqsadini ifodalashga xizmat qiladi.

I.Karimovning «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q» asarida qo'llangan ritorik so'roqlar esa ifoda tasviriyligining, muallifning sub'yektiv munosabati aks etishining eng yaxshi namunalari: Dunyoda do'st bor ekan, g'animlar ham bo'ladi. Birgina misol. Biz 1996 yili Sohibqiron Amir Temur bobomizning 660 yillik to'yini o'tkazdik. Shuni ham turlicha talqin qiluvchilar bo'ldi.

Avvalambor, biz biror ajdodimizning to'yini o'tkazsak, bunga uning millatimiz ravnaqi uchun qilgan ishlari, tariximizda tutgan o'rni sabab bo'ladi. Shu nuqtai nazardan yondashsak, Amir Temur kim edi? U, birinchi navbatda ulug' bunyodkor shaxs edi. Samarqanddagi obidalarini, Shahrisabzdagi yodgorliklarni kim qurdi? Turkistondagi Yassaviy maqbarasini kim tikladi? Amir Temur va uning avlodlari zamonida Afg'oniston, Eron, Hindiston hududlarida amalga oshirilgan obodonchilik, me'morchilik ishlarini aytaysizmi? Kim «Kuch - adolatdadir» degan olamshumul, teran hikmatni o'z faoliyatiga asosiy tamoyil qilib oldi?

Endi Chingizxon shaxsini shu mezonga solib ko'raylik. Undan vayron etilgan shaharu qishloqlardan bo'lak qanday iz qoldi? Shunday ekan, biz o'zimizni Chingizxon vorislarimiz, deb o'tirsak, o'taketgan bema'nilik bo'lmaydimi?

Undov gaplarga kelsak, yuqorida tilga olingan iqtisodiyotga oid matnda bunday gap bir marta ham ishlatilmagan. Adabiyotshunoslik o'ldi matnda ham nihoyatda kam: Yana uning yon-veridagi qishloqlarni, ziyoratgohlarni aytaysizmi! Yaypanni maqtaganda Buvaydani aytmay bo'ladimi! Axir, yuzboshi – zamonning zo'ri bo'lsa, oqposhshoning arzandasi bo'lsa, unga shunaqa deyish osonmi? Buni bila turib, boshini yirtqichning og'ziga tiqish bilan baravar-ku! Bu dalillar har ikkala gapning IUda xoslanish darajasini ko'rsata oladi. Ularning nafaolligidan qat'iy nazar, ilmiy matnlarda qo'llanishidan va bu qo'llanishda matnning xususiyatiga qarab muayyan bir tasviriylikka xizmat qilishidan ko'z yumib bo'lmaydi.

Ilmiy uslubning tasviriy imkoniyatlari. IU talqiniga oid nazariy qarashlardan shu narsa ma'lumki, bu uslubda xuddi RUda bo'lgani kabi so'zlarni ko'chma ma'nolarda qo'llash, tasviriy vositalardan unumli foydalanish asosiy va odatiy xususiyat sanalmaydi. Sub'yektiv emotsionallik, obrazlilik, og'zaki nutq elementlari, umuman g'ayri adabiy unsurlar kam ishlatiladi. Ammo ularning ishtirokini inkor qilib ham bo'lmaydi. Bu holat, ayniqsa, ilmiy-ommabop matnlarda ko'proq ko'zga tashlanadi. Fikr yuritilayotgan manba, mavzu bilan uyg'un ravishda bu uslubda ham obrazli ifodalardan foydalanish istisno emas.

Ularning ishlatilishi matn mavzusiga, uning muallifining bayon uslubiga bog'liq bo'lib, muayyan maqsadlarda – tushunishni yengillashtirish va osonlashtirish uchun amalga oshiriladi.

Masalan, tahlil materiali qilib olingan matnda geografiya va lokomotiv so'zlarini muallif ko'chma ma'noda qo'llaydi va obrazli vositaga aylantiradi: Ta'kidlash kerakki, tashqi savdo munosabatlarimiz geografiyasi, avvalo, rivojlanib borayotgan Osiyo qit'asi bozorlari bilan savdo aylanmasining o'sishi hisobiga sifat jihatidan o'zgarmoqda. Bizning keyingi yillarda eksport sohasida qo'lga kiritgan yutuqlarimiz, avvalo, mamlakatimiz iqtisodiyotini tubdan tarkibiy o'zgartirish va diversifikatsiya qilish, qisqa muddatda biz uchun mutlaqo yangi, lokomotiv rolini bajaradigan tarmoqlarni barpo etish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash dasturlarini amalga oshirish, zamonaviy bozor infratuzilmasini shakllantirish borasida o'z vaqtida boshlangan, chuqur o'ylangan va uzoq istiqbolga mo'ljallangan ishlarimizning natijasidir kabi.

Bu kabi metaforik vositalardan foydalanish asar muallifining individualligini ta'minlovchi vosita darajasiga ko'tarila olmaydi va IUda bu narsa talab ham qilinmaydi. Ilmiy nutqdagi metafora faqat ekspressivlik vazifasinigina bajarib qolmaydi, balki yangi atama izlash jarayonida, so'z hali termin bo'lib ulgurmagan paytda izohlash va nomlash vazifasini bajarishdan tashqari o'zida obrazlilikni ham tashiydi; bu yerda eng muhimi: metafora ilmiy nutqning obrazli tasviri vositasi bo'la oladi. □

Masalaning boshqa tomoni ham bor. Bu kabi tasviri vositalarga hamma ilmiy matnlarda ham yoki har qanday muallif ham murojaat qilavermaydi va o'z-o'zidan ularning qo'llanilishi muallif «men»i bilan bog'liq bo'ladi, degan xulosa kelib chiqadi. Shunday ekan, avvalgi ishlarimizda aytilgan «ilmiy bayonda tilning tasviri imkoniyatlaridan deyarli foydalanilmaydi», tarzidagi fikrdan voz kechishga to'g'ri keladi. Muallif o'zi uchun muhim deb hisoblagan fikrlarni aytishda, faktlarni keltirishda ularni ajratib ko'rsatadi. Bu vazifani amalga oshirish maqsadida albatta, tabiiyki, shubhasiz, hech shubhasiz, shubha yo'q singari modal so'zlarga murojaat qilinadi: Albatta, mamlakatimizda bunday chora-tadbirlar tatbiq qilinishi bilan bir qatorda bu jiddiy sinovni yengish, hech shubhasiz, ko'p jihatdan hammamizdan avvalo mas'uliyatimizni teran his qilishni, barcha imkoniyat va resurslarimizni ishga solishni talab qiladi. Tabiiyki, yuqorida keltirilgan misol va raqamlardan tobora chuqurlashib borayotgan jahon moliyaviy inqirozi mamlakatimizga ta'sir ko'rsatmaydi, bizni chetlab o'tadi, degan xulosa chiqarmaslik kerak. Masalani bunday tushunish o'ta soddalik, aytish mumkinki, kechirib bo'lmas xato bo'lur edi. Shubha yo'q, jahon moliyaviy inqirozining ta'sirini kamaytirish va uning oqibatlarini bartaraf etish uchun bizda barcha zarur shart-sharoitlar mavjud. Sub'yektiv munosabatni ifodalovchi ushbu kiritmalar asarning ruhiga mos tarzda muayyan stilistik vazifani ham bajaradi, muallif uslubiga xos qat'iyatni ifoda etuvchi lingvistik vosita bo'lib yuzaga chiqadi.

Muallif tomonidan o'ta muhim hisoblangan o'rinlarda (gap boshida,

o'rtasida yoki oxirida) yana ta'kidlash lozim, ta'kidlash joiz, ta'kidlash kerak, ta'kidlash o'rinli, ta'kidlash darkor, ta'kidlash lozim; boshqacha aytganda; buning ustiga; eng asosiysi, o'z navbatida; birinchi navbatda; birinchidan, ikkinchidan, uchinchidan... singari jumlarlar qo'llaniladi: Shuni aytish kerakki, ko'plab davlatlarning tashqi qarz masalasidagi puxta o'ylanmagan siyosati ularning iqtisodiyotini zaif, tashqi omillarga qaram, xatarli vaziyatlar oldida himoyasiz va nochor ahvolga solib qo'yganini ko'rish, kuzatish qiyin emas. Ta'kidlash joizki, ana shunday keng ko'lamli dasturni amalga oshirish uchun biz so'nggi yillarda jiddiy tayyorgarlik ko'rib kelmoqdamiz. Shuni mamnuniyat bilan ta'kidlash kerakki, o'zlashtirilgan barcha investitsiyalarning qariyb 54 foizini korxonalar va aholi mablag'lari tashkil etadi. Gapdagi mamnuniyat bilan analitik birikmasi esa sub'yektiv munosabatni yanada kuchaytiradi.

Matndagi avvalambor, avvalo, agar, aynan, ayni paytda, ayni vaqtda, ayniqsa, aksariyat, nechog'liq, aslo, qat'iy singarilar modallik ottenkasi mavjud bo'lgan so'zlardir. M.Mukarramovning «Adabiy tilning konkret ko'rinishlari bo'lgan so'zlashuv, badiiy, publitsistik, rasmiy-hujjat va ilmiy nutqlarning real mavjudligini tan olsak, u vaqtda har bir nutq turining o'z modal ma'no ifodalovchi so'zlarini ham tan olishimizga to'g'ri keladi»,□ degan mulohazasi ushbu o'rinda ham ahamiyatlidir. Bundan tashqari, matnda men, qancha singari olmoshlar, ammo, lekin, biroq, balki kabi bog'lovchilar ham ma'lum bir stilistik maqsadni ifoda etishga qaratilgan elementlar sifatida namoyon bo'ladi. Shu o'rinda ilmiy matnlarda yana aksincha, albatta, afsuski, darvoqe, darhaqiqat, demak, jumladan, masalan, xullas, xususan, shubhasiz, haqiqatan singari modal so'zlar va modal ma'no anglatuvchi boshqa birliklarning, bilan, uchun, kabi, singari, haqida, to'g'risida, tufayli, sababli, doir, oid, binoan, tashqari, qaraganda, asosan, muvofiq, qadar singari ko'makchilarning faol qo'llanishini qayd etamiz.

Ba'zi bir misollarni tahlil etish bilan chegaralanamiz. Olmoshlarni olaylik. Ularning qo'llanishida o'ziga xoslik kuzatiladi. Masalan, men olmoshi matnda ta'kidlashning kuchli vositasi sifatida ishtirok etgan: Jahon iqtisodiy inqirozi esa, mening nazarimda, bu jarayonni yanada jadallashtirishga turtki bermoqda, uni har tomonlama tezlashtirishni taqozo etmoqda. Son-ravish xarakteridagi qancha olmoshi –lik bilan birgalikda qo'llanib, ma'noni kuchaytiruvchi vositaga aylangan: ...bank tizimlarining nechog'liq barqaror va ishonchli ekaniga, ularning himoya mexanizmlari qanchalik kuchli ekaniga bog'liqligini isbotlashga hojat yo'q, deb o'ylayman. Nega olmoshi esa faqat muallif uslubiga xos bo'lgan jumla tarkibida qo'llanilgan: Nega deganda, bugungi kunda eksport asosan xom ashyo yetkazib berishdan iborat bo'lib, ...iqtisodiyotni izdan chiqaradigan jiddiy faktorga aylanmoqda.

Matnda belgining ortiqlik darajasini ko'rsatishga xizmat qiluvchi yanada (21 marta), g'oyat (4 marta), juda (2 marta) kabi vositalarning qo'llanganligi ham ilmiy matnda muallif individual bayon uslubiga bog'liq ravishda tasviriy vositalarning qo'llanishi me'yoriy holat ekanligini yana bir tasdiqlaydi: Shu bilan birga, o'tgan davr mobaynida orttirgan tajribamiz fermerlikni yanada rivojlantirish uchun bir

qator juda muhim muammolarni, xususan, fermer xo'jaliklarining barqarorligi, eng muhimi, ularning samaradorligini oshirish bilan bog'liq masalalarni hal qilishni qat'iy talab etmoqda kabi.

Muallif ishlatgan holbuki, asno, bo'lur so'zi esa tasviriylilik doirasidan tashqiriga chiqqan, matnda su'bektiv munosabatning emotsional ifodalanishi namunasi sifatida kelgan: Holbuki, bu sohalarda tez o'zgaruvchan bozor talabi texnika va texnologiyani uzog'i bilan 5—7 yilda, rivojlangan mamlakatlarda esa bundan ham qisqa muddatlarda o'zgartirishni talab etadi. Inqirozga qarshi choralar dasturining mazmun-mohiyati va asosiy vazifalariga baho berish asnosida, g'oyat muhim, prinsipial ahamiyatga molik bir masalaga diqqatni qaratish o'rinlidir. Asno so'zini uning sinonimi bo'lgan va matnda 6 marta qo'llangan payt so'zi bilan qiyoslasak, uning emotsionallik ottenkasi yana ham yorqin namoyon bo'ladi: Shuni ham qayd etishni istardimki, qarzni o'z vaqtida qaytara olishga qat'iy ishonchimiz va kafolatimiz bo'lmagan paytlarda muayyan loyihalarni kreditlash bo'yicha ayrim takliflardan voz kechgan holatlarimiz ham bo'ldi.

Asar matnidagi –gina va –oq yuklamalari, -(a)r sifatdoshining poetik –ur shakli ham sub'yektiv munosabatni kuchaytiruvchi vositalar sanaladi: birgina, ko'pgina, orqaligina, kattagina kabi: ...biz iqtisodiyotimiz va mamlakatimizning jahon maydonidagi raqobatdoshligini aynan ana shu o'ta muhim, o'zak vazifani bajarish orqaligina ta'minlay olamiz; Boshqacha aytganda, biz hozirdanoq taraqqiyotimizning inqirozdan keyingi davri haqida chuqur o'ylashimiz, bu borada uzoq muddatga mo'ljallangan dastur ishlab chiqish haqida bosh qotirishimiz kerak. Masalani bunday tushunish o'ta soddalik, aytish mumkinki, kechirib bo'lmas xato bo'lur edi kabi.

Hatto matnning ma'lum qismining yozuvda to'q bo'yoqlarda berilishini ham tasviriylilikning bir vositasi sifatida qarashga to'liq asos bor va u ham individuallikning bir belgisidir. Masalan: Ma'muriy-buyruqbozlik tizimidan boshqaruvning bozor tizimiga o'tish jarayonida tadrijiy yondashuvni, «Yangi uy qurmasdan turib, eskisini buzang» degan hayotiy tamoyilga tayangan holda, islohotlarni izchil va bosqichma-bosqich amalga oshirish yo'lini tanladik kabi. Ayrim gap bo'laklarining tagiga chizilib ajratilishi, qo'shtirnoq ichiga olinishi, uyushgan yoki takrorlangan holda qo'llanilishi ham tavsiriylikka xizmat qiluvchi vositalardir.

Mustaqillik sharoitida mamlakatimizda siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning tubdan o'zgarganligi o'zbek tili IUni o'rganishga alohida e'tibor berilishini taqozo qilmoqda. Jahonda sodir bo'layotgan globallashuv va ilmiy-texnika inqilobi, axborot texnologiyalarining rivojlanishi va ularning hayotimizga shiddat bilan kirib kelishi, mustaqillik sharoitida ilm-fanga munosabat, talab va ehtiyojning ortganligi shuni ko'rsatmoqda.

6-Mavzu: PUBLITSISTIK USLUB

Reja:

1. Bu uslubning boshqa uslublardan farqi.
2. Publitsistik uslubning leksik, frazalologik, grammatik vositalari.
3. Publitsistik materiallar mazmuni yelementlari.

Mavzu uchun tayanch atamalar: Publististik uslub, gazetalar, jurnallar, axborotnomalar, teleradio, davriy nashrlar, elektron axborot tizimi.

Zamonaviy dolzarb mavzulardagi ijtimoiy-siyosiy adabiyotlarni qamrab oladigan «publitsistikaning vazifasi ijtimoiy fikr uyg'otish va uni shakllantirish, ma'lum maqsadga yo'naltirish, hujjatli fakt-ma'lumotlar asosida voqelik manzarasini yaratishdan iborat»□ ekan, ijtimoiy faoliyatining bu sohasida xizmat qiluvchi maxsus vositalar va ularning tildan foydalanishdagi maxsus uslubi yuzaga keladiki, bu uslub o'zbek tili FUlari tizimida publitsistik uslub (PU) nomi bilan yuritiladi.

O'zbek tili PUning shakllanishiga asos bo'ladigan lingvistik va ekstralingvistik omillar mavjud. Quyida ularni tahlil qilishga urinib ko'ramiz.

Publitsistik uslubning ekstralingvistik shart-sharoitlari

O'zbek tili publitsistik uslubning shakllanishi, taraqqiyot bosqichlari va o'rganilishi. O'zbek tilshunosligida mazkur soha bilan shug'ullangan mutaxassislarning ta'kidlashicha, PU o'zbek adabiy tilining nutq uslublari tizimida, asosan, XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida paydo bo'ldi.□ 1883 yildan boshlab o'zbek tilida to'ng'ich gazeta – «Turkiston viloyatining gazetasi» chiqib boshladi. XX asrning boshlarida esa matbuot ishlari ko'lamida «Sadoi Turkiston», «Sadoi Farg'ona», «Hurriyat», «Oyna», «Maorif va o'qitg'uvchi» kabi gazeta va jurnallar hisobiga kengaydi va Furqat, Hamza, Ayniy, Cho'lpon, Fitrat, Sattorxon singari yozuvchilar faoliyati tufayli takomillashib bordi.

Shuningdek, o'zbek publitsistikasining tarixiy ildizlari ulug' mutafakkir Alisher Navoiydan boshlanadi, degan qarashlar ham mavjud: «Navoiyning «Majolis un-nafois», «Munshaot», «Mahbub ul-qulub» asarlarida publitsistikaning tugal xususiyatlari uchraydi. Navoiyning Abdurahmon Jomiy, Pahlavon Mahmud, Sayid Hasan Ardasher va boshqalar haqidagi adabiy portretlarini publitsistik ocherklar, deb atash mumkin. Navoiy nasriy asarlarini chuqurroq tadqiq etish uni o'zbek badiiy publitsistikasining asoschisi, deb atashga imkon beradi».□

Publitsistikamizning tarixiy ildizlari bu qadar uzoqqa borib taqalishiga qaramasdan, uni o'zbek tili FUlariidan biri sifatida maxsus o'rganish keyingi davrlarga to'g'ri keldi. T.Qurbonovning 1987 yilda himoya qilgan «Hozirgi o'zbek

adabiy tilining publitsistik stili» mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida uning lingvostilistik xususiyatlari to'g'risida ilk bor ilmiy xulosalar bayon qilindi.□

To'g'ri, o'zbek tilshunosligida bu tadqiqotgacha ham PU haqida fikr-mulohazalar bayon etilgan edi. Masalan, V.V.Reshetov, A.K.Borovkov, M.Mirzayev, F.Abdullayev, I.Rasulov, A.Abdunazarov, G'.Karimov, K.Yusupov va boshqalarning tadqiqotlarida ushbu mavzuga aloqador bo'lgan fikr-mulohazalar aytilgan yoki uning muayyan bir janrining til xususiyatlari o'rganilgan.□ Lekin ularning birontasi ham PUga xos bo'lgan lingvistik va ekstralingvistik omillarni yaxlit va atroflicha tahlil etish vazifasini o'z oldiga maqsad qilib qo'ymagan edi. Bu vazifa yuqorida tilga olingan dissertatsiya ishida amalga oshirildi va keyinchalik mavzuni chuqurroq tadqiq etishga bag'ishlangan ishlar birin-ketin paydo bo'la boshladi. Ular orasida A.Abdusaidovning tadqiqotlari e'tiborga molikdir. Olimning gazeta janrining tili va uslubini o'rganishga bag'ishlangan nomzodlik, doktorlik dissertatsiyalari va e'lon qilingan alohida ishlari o'zbek tili stilistikasi taraqqiyotiga sezilarli hissa bo'lib qo'shildi.□

O'zbek tili FU tizimida PUning alohida o'rin va mavqega egaligi uning ijtimoiy hayotda keng ko'lamdagi ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy, madaniyat va sport kabi sohalarga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Mustaqillik davrida O'zbekiston sharoitida ommaviy axborot vositalariga (OAV) g'amxo'rlik davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Bu borada tegishli qonunlar va qarorlar qabul qilinib, matbuot erkinligining huquqiy asoslari yaratildi.□ «Ommaviy axborot vositalari to'g'risida»gi Qonunning 1-moddasida «Gazetalar, jurnallar, axborotnomalar, byulletenlar, axborot agentliklari, televideniye (kabelli, efir-kabelli televideniye) va radioeshittirishlar, hujjatli kino, elektron axborot tizimi, shuningdek, doimiy nomga ega bo'lgan, davlat tasarrufidagi, mustaqil va boshqa ommaviy davriy nashrlar ommaviy axborot vositalari» hisoblanishi ta'kidlanib, uning 3-moddasida «Har kim ommaviy axborot vositalarida chiqish, o'z fikri va e'tiqodini oshkora bayon etish huquqiga ega» ekanligi, 4-moddasida «O'zbekiston Respublikasida ommaviy axborot vositalarini senzura qilishga yo'l qo'yil»masligi belgilab qo'yildi.

Eng muhimi, OAV faoliyati hamisha mamlakatimiz birinchi rahbarining diqqat markazida turibdi. I.A.Karimov nufuzli yig'ilishlarda, xorijiy jurnalistlar bilan bo'lgan uchrashuvlarda OAVlarining roli, jamiyat hayotida tutgan o'rni haqida qayta-qayta gapiradilar. Masalan, Bi-Bi-Si muxbiri X. Ubaydullayevning «O'zbekiston matbuoti va televideniyesiga bugun Siz qanday baho bergan bo'lardingiz?», degan savoliga Yurtboshimiz shunday javob bergan edilar: «Matbuot va axborot vositalarini to'rtinchi hokimiyat sifatida e'tirof etish huquqiy davlat oyoqqa turishining muhim shartlaridan biri ekanligi bugungi kunda hech kimga sir emas. Modomiki, O'zbekiston erkin, ochiq huquqiy demokratik davlat qurishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan ekan, bu shartlarni so'zsiz bajarishi kerak» (1996 yil 12 aprel). Ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasidagi ma'ruzasida (2000 yil 22 yanvar) esa bu vosita

vakillari oldiga aniq vazifalar qo'yib, «Bunda, men yana takror aytaman, ommaviy axborot vositalari jamiyatimizda haqiqiy «to'rtinchi hokimiyat»ga aylanishi, fuqarolarning siyosiy huquq va erkinliklarini ro'yobga chiqarishda eng ta'sirchan omil bo'lishi kerak. Bu, eng avvalo, har bir fuqaroning o'z fikrini erkin ifoda qilish, axborot olish, davlat va jamiyat qurilishining o'ta muhim masalalarini muhokama etishda faol qatnashish huquqini ta'minlash demakdir», degan edilar.

Darhaqiqat, mamlakatimiz hayotida juda katta ma'naviy-ma'rifiy, ta'limiy-tarbiyaviy vazifani bajaradigan, targ'ibot va tashviqot olib borishda ko'makdosh bo'lgan OAVlari hamisha islohotlarning oldingi safida bo'lishi, uni amalga oshirishda, mazmun-mohiyatini ommaga tushuntirishda asosiy kuch bo'lishi lozim. PU borasida olib boriladigan tadqiqotlar esa mazkur soha faoliyatini ilmiy tashkil etishga, tildan foydalanishdagi madaniylik va me'yoriylik darajasining takomillashishiga, binobarin, xalqimiz ma'naviyati va madaniyatining yanada yuksalishiga xizmat qiladi.

PU o'zbek tili FU orasida eng keyin paydo bo'lgan bo'lsa ham, tildan foydalanishdagi imkoniyatlarining g'oyatda kengligi jihatidan ularning barchasidan yuqorida turadi. Publitsistik matnlarda tilning barcha leksik-grammatik qatlamlariga, FUlariga xos bo'lgan elementlarni uchratish mumkin. Bu esa publitsistikaning hayotga naqadar yaqinligi va uning bajarib kelayotgan ijtimoiy vazifasi bilan izohlanadi. U ilmiy adabiyotlarda publitsistik uslub, ommabop uslub, ijtimoiy-publitsistik uslub, gazeta-publitsistik uslub, gazeta-siyosiy uslub, gazeta uslubi singari nomlar bilan atalib kelinmoqda.

OAV deb nomlangan vositalar, jumladan vaqtli matbuot – gazeta va jurnallar hamda radio va televideniye mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy hayotida shu qadar muhim rol o'ynamoqdaki, axborot texnologiyalari asrining bugungi taraqqiyotini ularning aralashuvchisiz mutlaqo tasavvur qilib bo'lmaydi. Mamlakatimiz hayotida, butun dunyoda ro'y berayotgan har qanday dolzarb muammo: siyosiy, iqtisodiy, falsafiy, madaniy, tarbiyaviy, kundalik-maishiy va boshqa masalalar ana shu vositalar yordamida xalqqa yetkazib berilmoqda, ayni paytda, jamiyatning ma'naviy-ma'rifiy, axloqiy-tarbiyaviy yuksalishiga qaratilgan ulkan targ'ibot va tashviqot ishlari ham asosan ana shu vositalar yordamida olib borilmoqda.

Keyingi o'n yilliklarda jamiyat taraqqiyotida yuz bergan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar, o'zbek xalqining o'z mustaqilligini qo'lga kiritishi natijasida o'zbek publitsistikasi sohasida jiddiy o'zgarishlar ro'y berdi. Targ'ibot-tashviqot ishlarining mazmun-mohiyati, bir tomondan, yangidan shakllantirilgan milliy g'oya va mamlakatimiz bo'ylab amalga oshirilyotgan tub islohotlar, ikkinchi tomondan esa, jahonda ro'y berayotgan globallashuv, axborot uzatish va qabul qilishdagi inqilob, turli xarakterdagi ijtimoiy-siyosiy va harbiy o'zgarishlarga bog'liq ravishda tubdan o'zgardi. Binobarin, publitsistika sohasida tildan foydalanish ham o'ziga xos mazmun va mas'uliyat kasb etdi. Bu esa tabiiy ravishda o'zbek tili PUining yangi qirralari namoyon bo'lishiga olib keldi. Shuning

uchun uni davrimizda yuz berayotgan o'zgarishlar prizmasida qaytadan ko'rib chiqish va tahlil etishga zarurat paydo bo'ldi.

Publitsistik uslub ko'rinishlari va janrlar tasnifi. Publitsistikaga oid materiallar tahlili ularning ko'rinishlari va janrlari ko'lamining ham o'zbek tilidagi boshqa FU orasida g'oyatda keng ekanligidan dalolat beradi. U til materiali qamrovi jihatidan FU orasida birinchi o'rinni egallaydi. Chunki u xizmat qiladigan publitsistikaning faoliyat ko'lami g'oyatda keng. Bu keng ko'lamlilik uning uslubiy ko'rinishlari (podstillar) va janrlar miqdorining ko'pligida ham namoyon bo'ladi. Tahlilni muayyan bir tartib asosida olib borish uchun dastlab ularni tasnif qilish zarur va bunda yuqorida tilga olingan O'zbekiston Respublikasining «Ommaviy axborot vositalari to'g'risida»gi Qonunga tayanib, PUNing ko'rinishlari tarzida teleradio eshittirishlari, davriy nashrlar, elektron axborot tizimi uslubini olishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi.

Gazetalar, jurnallar, axborotnomalar, byulletenlarni davriy nashrlar, hujjatli kino (kinojurnal, telefilmlar)ni esa teleradio eshittirishlari tarkibida qarash mumkin. Elektron axborot tizimi o'zbek publitsistikasi uchun yangilik bo'lib hisoblanadi va u maxsus lingvistik tadqiqotlar ob'yekti bo'lishi lozim.

Jahon tilshunosligida PU tasnifi borasida ko'plab qarashlar mavjud. Masalan, rus tilshunosi L.G.Barlas PUNing ko'rinishlari sifatida quyidagilarni qayd etgan: gazeta-publitsistik (gazeta tili); targ'ibot (murojaatnomalar, chaqiriqlar, varaqalar, proklamatsiyalar); rasmiy siyosiy-g'oyaviy (qarorlar); ommaviy-siyosiy (yig'ilishlarda qilinadigan chiqishlar) va bu ko'rinishlarning fanda keskin ajratilmasligini ham aytgan.

Janrlar sifatida esa quyidagilarni ajratgan: siyosiy xarakterdagi yig'ilishlardagi chiqishlar, bosh maqola, nazariy-siyosiy maqola, axloqiy-etik maqola, g'oyaviy konsulyatsiya, xalqaro sharh, korrespondensiya, reportaj, fel'yeton, pamflet, ocherk, sport sharhi kabi.

Internetdan olingan boshqa bir manbada radioeshittirishlar misolida PUNing ko'rinishlari sifatida axborot, hujjatli-badiiy va aralash (sintetik) janrlar keltirilgan va quyidagicha tasniflangan: Axborot janrlari: axborot (xabar), radiohisobot, radiosharh, radiointerv'yu, radioreportaj, radiokorrespondensiya; tahliliy janrlar: tahliliy radiointerv'yu, tahliliy radioreportaj, tahliliy radiokorrespondensiya, radiotaqriz, radiosharh, radiobahs, radionutq; hujjatli-badiiy janrlar: radiokompozitsiya, radioocherk, radiomanzara, radiofel'yeton kabilar. Efirda eshutilish shakllari esa quyidagilar: monologik janrlar: radioxabar, radiotaqriz, radioobzor, radiohisobot, radiosharh, radiosuhbat, radionutq, radiomanzara; dialogik janrlar: radiosuhbat, radiointerv'yu, radiobahs; aralash (sintetik) janrlar: radiotaqriz, radioobzor, radiohisobot, radiokompozitsiya, radio korrespondensiya, radioreportaj, radiomanzara, radioocherk, radiofel'yeton kabi.

O'zbek tilshunoslari PU tasnifida V.V.Vinogradovning aloqa, xabar, ta'sir konsepsiyasiga asoslanib, to'g'ri yo'lni tanlaganlar. Masalan, T.Qurbonov□ va

A.Abdusaidovlarning tadqiqotlarida PU negizida tilning ta'sir ko'rsatishga qaratilgan vazifasi yotishi asosga olingan.

A.Abdusaidov tasnifi, garchi gazeta doirasida chegaralangan bo'lsa-da, mukammalligi bilan e'tiborga molik. Bu tasnifda avval PUning ko'rinishlari ajratiladi: axborot (informatsion), tahliliy (analitik) va badiiy-publitsistik. O'z navbatida ularning yana quyidagi janriy bo'linishlari sanab o'tiladi:

1. Axborot (informatsion) janrlar: xabar (xronika-xabar, axborot-xabar, tanqidiy-satirik xabar, maxsus sarlavhalar ostidagi qisqa xabarlar, kengaytirilgan xabarlar); reportaj (shu kungi voqealar haqidagi reportaj, mavzuli reportaj, muammoli reportaj); hisobot (oddiy hisobot, tahliliy hisobot, mavzuli hisobot, muammoli hisobot, ilmiy hisobot, sud hisoboti, rasmiy voqealar haqidagi hisobot); intervyu (intervyu-monolog, intervyu-lavha, portret-intervyu, davra suhbat, matbuot konferensiyasi).

2. Tahliliy (analitik) janrlar: korrespondensiya (axborot korrespondensiya, korrespondensiya, tahliliy korrespondensiya, muammoli korrespondensiya, ijobiy korrespondensiya, tanqidiy korrespondensiya, portret korrespondensiya, mulohaza-korrespondensiya); maqola (bosh maqola, nazariy maqola, muammoli maqola, tanqidiy maqola, tashviqot xarakterdagi maqola, ilmiy-ma'rifiy maqola), taqriz; sharh (umumiy sharh, mavzuli sharh, axborot sharhi, matbuot sharhi); obzor (mavzuli obzor, umumiy obzor, axborot obzor); xat (gazetxon xati, ochiq xat, murojaat, tabrik, yozuvchi xati); kuzatish (umumiy kuzatish, mavzuli kuzatish).

3. Badiiy-publitsistik janrlar: lavha; ocherk (ocherk-portret, safarnoma (yo'l ocherki), muammo-ocherk, ocherk-lavha); fel'yeton (hujjatli fel'yeton) kabilar.

Mavzuga oid materiallarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, PU ko'rinishlari va janrlari ana shu ko'rinishlarning biri sanaladigan gazeta janrlariga deyarli mos keladi. Teleradioeshittirishlar orqali faktlar haqida xabar qilish, voqea-hodisalarni tahlil etish, sharhlash, baho berish, tasvirlash kabi vazifalarni amalga oshirish jarayonida paydo bo'lgan ko'plab teleradiojanrlar faqat ana shu janrlarda axborot uzatish usullari bilan farqlanadi, xolos.

Bu kabi tasniflarni ko'plab keltirish mumkin. Ularning har biri o'ziga xos yutuq va kamchilikka ega. Masalan birgina maqola janrini bosh maqola, nazariy-siyosiy maqola, axloqiy-etik maqola tarzida uchta alohida janr sifatida ajratish o'zbek OAVlari tili uchun xos xususiyatmi, degan savolga ijobiy javob berib bo'lmaydi. Binobarin, masalaga milliy publitsistika xususiyatlaridan kelib chiqib yondashish va uning janrlarini tasnif qilish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Publitsistikaga oid materiallarning sof publitsistik (reportajlar, obzorlar), abadiy-badiiy (ocherk, fel'yeton), rasmiy (axborot) xarakterda bo'lishini e'tibordan chetda qoldirmagan holda A.Abdusaidov tasnifini o'zbek OAVlari materiallari uchun tatbiq etish mumkin deb hisoblaymiz. Ammo ularning satirik xabar, hisobot (oddiy hisobot, tahliliy hisobot, mavzuli hisobot, muammoli

hisobot, ilmiy hisobot, sud hisoboti, rasmiy voqealar haqidagi hisobot); korrespondensiyaning muammoli korrespondensiya, ijobiy korrespondensiya, tanqidiy korrespondensiya, portret korrespondensiya, mulohaza-korrespondensiya; intervʼyu-monolog, intervʼyu-lavha, portret-intervʼyu; umumiy kuzatish, mavzuli kuzatish kabi janrlari oʻzbek publitsistikasida mavjudligi masalasi aniqlikni talab etadi.

Shu sababli oʻsha paytlarda radiogazeta, radioopera, radiofilm, radiomiting singari atamalar maydonga kelgan. □ Oʻzbekiston radiosi faoliyati ham ana shu Turkiston axborot byurosi olib borgan faoliyatning bevosita davomidir.

Oʻsha paytlarda oʻz vazifasiga va jurnalistik kasbiga masʼuliyat bilan yondashgan eshittirishni olib boruvchilarni va diktorlarni xalq ovozi tanigan. Qodir Maqsumov, Qodir Tojiyev, Tuygʻunoy Yunusxoʻjayeva kabi soʻz va ovoz ustalarini radio efir orqali eshitib qolsa, keksa avlod vakillari hozir ham taniydilar. Ular soʻzga hurmat va samimiyat bilan, har bir soʻz talaffuziga alohida masʼuliyat bilan munosabatda boʻlishgan, oʻzbek adabiy tilining obroʻsini koʻtarishga harakat qilishgan, ovozlari sunʼiylik boʻlmagan. Oʻzbek radiosining obroʻsini ana shular belgilaganlar.

Bizning sharoitimizda barcha OAVlari kabi radio ham qandaydir bir mafkuraga emas, balki xalq manfaatiga xizmat qiladi. Mamlakatimizda senzura barham berilganligi, axborot erkinligi munosabati bilan hozirda radiostansiyalar soni ham koʻpaydi.

Radio tili oʻziga xos ekstralingvistik xususiyatlari bilan ajralib tursa ham, tildan foydalanishning umumiy qonuniyatlariga boʻysunadi. Bu haqda gap ketganda, tovush taʼsiriga yuqori baho berish, uni birinchi oʻringa qoʻyish kabi holatlar kuzatilgan. Bunga radio tili ogʻzaki adabiy tilning barcha rang-barangliklarini oʻzida aks ettirishi, tinglovchiga taʼsir koʻrsatuvchi vositalardan maksimal darajada foydalanishga intilish sabab boʻlgan. Toʻgʻri, radio tilida soʻzlashuv nutqiga (SN) xos boʻlgan talaffuz, soddalik, gʻayriodatiylik, emotsionallik, FBlar, idiomalar, maqol va matallarni qoʻllash, inversiya, qisqalik, ravonlik kabilar ham oʻz ifodasini topishi mumkin. Biroq SNdan foydalanishga radio tilida faqatgina maʼlum bir chegarada – badiiy, adabiy-dramatik eshittirishlarda, jonli muloqotda yoʻl qoʻyiladi. Boshqa holatlarda bu foydalanish radioning obroʻsiga salbiy taʼsir koʻrsatadi. Barcha OAVlarida boʻlgani singari bu yerda ham gʻoyalar tashuvchi, tushuncha va his-tuygʻuni aniq ifoda etuvchi soʻz asosiy element boʻlib qoladi. Materialning tinglovchiga yetib borishi faqat soʻzning kuchi bilan boʻladi. Bunda tilni bilish va notiqlik sanʼati birinchi planga chiqadi. Ovozning yoqimlilik, tembr, ravon nutq radioeshittirishning muhim omili, diktor esa asosiy figura boʻlib qoladi.

Radio tili kitobiymi yoki SN xarakteridami, degan savol atrofida bahslar avvaldan mavjud. A. Shneyderning «Kitobiy til ham, gazeta tili ham emas, soʻzlashuv tili radio tili boʻlishi lozim», Yu.Galʼperinning «Radio tabiatining oʻzi soʻzlashuv nutqini taqozo etadi» tarzidagi fikrlariga asoslanilib, shu paytga qadar

radio tili – soʻzlashuv tilidir va bu uning oʻziga xosligini begilaydi degan, xato fikr mavjud boʻlib kelgan. Aslida B. Mixaylovning «Radioeshittirish tili adabiy tilning soʻzlashuv koʻrinishi boʻlib hisoblanadi», degan fikri radio tilining mohiyatini toʻgʻri aks ettiradi. □

Radioeshittirishlarni adabiy tilda olib borish uning birinchi shartidir. Unda dialektal soʻzlar, argolar, parazit soʻzlar ishlatilishi kerak emas. Ayni paytda, uning soʻzlashuv tili ekanligini ham esdan chiqarib boʻlmaydi. Lekin oddiy soʻzlashuv degani koʻcha tilida gapirish emas. Demak, radio tili – adabiy soʻzlashuv tilidir, deyilsa toʻgʻri boʻladi.

Garchi radionutq ogʻzaki nutq hisoblansa ham, unga muayyan tayyorgarlik koʻriladi. Matnlar avvaldan yozib qoʻyilishi, eshittirishlarning rejaları tuzilishi mumkin. Eshittirish toʻgʻridan-toʻgʻri efirga olib berilayotgan boʻlsa, vaziyat birmuncha murakkablashadi, albatta. Chunki hamma ham mikrofon oldida qogʻozsiz gapirish salohiyatiga ega emas. Avval yozilib, keyin oʻqib beriladigan matn jonli, tabiiy, dialogik nutqqa nisbatan yaxshi qabul qilinmasligi mumkin. Shuning uchun ham eshittirishning reportaj usuli jonli chiqadi.

Radionutq oldiga qoʻyiladigan talablar nimalardan iborat? Axborot qisqa va eshitishga qulay boʻlishi, bayon loʻnda, ayni paytda, batafsil boʻlishi, gap qurilishi ana shunga moʻljallanishi, oʻrinsiz takrorlarga yoʻl qoʻyilmasligi lozim. Uzun va qisqa frazalar navbati bilan qoʻllanishi, uchtdan ziyod punktlarni sanamaslik, yozuvdagi qisqartmalarni gapirishda toʻliq talaffuz qilish, sonlarni umumlashtirilgan holda - yarim, uchdan bir, chorak tarzida qoʻllash, katta iqtiboslarni keltirmaslik va ularning mazmunini hikoya qilib berish, axborotning bir qismidan ikkinchisiga oʻtishni tinglovchiga sezdirish maqsadida Endi falon narsa haqida gaplashamiz tarzidagi kiritmalardan foydalanish lozim. Eshittirishni olib boruvchilarning «yuqorida taʼkidlaganimizdek, aytib oʻtganimizdek, xabardor qilganimizdek, hikoya qilganimizdek» singari jummalarni qoʻllash nojoiz. Chunki hikoya qilinayotgan voqealar tizimidan eshituvchi emas, faqat muallifning oʻzi xabardor boʻlishi mumkin. Qisqa jumalarda har safar uni voqealar ichiga olib kirish lozim.

Axborot uzatishga moʻljallangan radioeshittirishlarda soʻzlovchi va tinglovchi oʻrtasida faqat eshitishga asoslangan gʻoyibona aloqa shakllanadi. Ularning bir-birlarini koʻrishining iloji yoʻq. Bu aloqada ularning biri - adresant faol va ikkinchisi – adresat passiv pozitsiyani egallaydi. Adresat garchi passiv pozitsiyada tursa-da, uning muayyan huquqlari bor. U uzatilayotgan axborotni tinglash yoki tinglamaslik erkini oʻzida qoldiradi. U xohlasa eshitishi, xohlamasa eshitmasligi mumkin. Bu esa adresant zimmasiga maʼlum masʼuliyat yuklaydi, oʻziga xos muloqot muhitini yuzaga keltiradi. Binobarin, eshittirishning «eshitimli», qiziqarli boʻlishini taʼminlash, axborot uzatishning turli metod va usullaridan foydalanishi lozim boʻladi. Shuning uchun ham bu jarayon adresant nomi ostida birlashadigan jurnalist, muxbir, diktora, eshittirishni olib boruvchi yoki masʼul xodim faoliyatida mujassamlashgan va bilim, saviya, kasbiy malaka,

tajriba, iqtidor singari fazilatlarini o'zida mujassam qilgan g'oyatda murakkab jarayondir.

Hozirgi davrda radioeshittirishlar ikki yo'nalishda olib borilmoqda: informatsion va musiqaviy. Informatsion xabarlarida musiqa ishlatilmaydi. Axborot yangilanib turadi, reklamalar kiritilishi mumkin. Informatsion-musiqiy radioxabarlardagi axborot-musiqa nisbatida axborot 60-70 foizni, musiqa 30-40 foizni tashkil etadi. Ba'zi eshittirishlarda buning aksi bo'lishi ham mumkin.

O'zbekiston respublikasi hududida faoliyat ko'rsatayotgan radiostansiyalarning ko'plab eshittirishlari «axborot-musiqa» usuliga asoslangan va bu tinglovchilarga ham qulaydir. Chunki ular odatda musiqa bilan uyg'unlashgan qisqa va lo'nda xabarlarni eshitishni ma'qul ko'radilar.

Hozirgi paytda teleradio yangiliklarini yetkazishning xalqaro standarti 100 sekunddir. 3 minutda har qanday voqea-hodisa to'g'risida gapirib berish mumkin. 10 minutlik eshittirishda muammo to'g'risida batafsil axborot berish, 15 minut esa ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy-axloqiy mavzudagi har qanday materialni tahlil qilish va yoritib berish uchun yetarlidir.

Radiojurnalstning faoliyati ikkiga bo'linadi: efirgacha va efir vaqtida. Ikkinchi qism murakkab ijodiy jarayon bo'lib, radiojurnalstdan juda katta mahoratni talab etadigan jarayondir. Chunki bu jarayon bevosita til mahorati bilan bog'liq. Hozirgi bosqichda o'zbek radio tilining «interfaol» tipi shakllangan.

Radioeshituvchining eshitgan narsasiga qayta olmasligi, shu paytning o'zida tushunmay qolgan joylarini o'ylab ko'ra olmasligi, nutq sub'yekti va ob'yekti, asosan, bitta bo'lishi, jarayonda monologik nutq bilan birgalikda dialogik va polilogik nutqning ham uchrab turishi radio tiliga xos xususiyatlardandir. Ommaviy kommunikatsiyaning ko'rinishi sifatida radioning tabiatiga akustiklik va nutqiy aktning distantligi singari xususiyatlar mos keladi. Akustiklik – ifodaning asosiy vositasi sifatida tovushdan (nutq, musiqa, shovqin), ta'sirning asosiy vositasi sifatida jarangdor so'zlardan foydalanish; nutqiy aktning distantligi esa – gapiruvchi va eshituvchi o'rtasidagi masofaning uzoqligidir.

Shunday qilib, radio tili – radio orqali beriladigan umumxalq tovush, lug'aviy va grammatik tizimiga asoslangan og'zaki ijod ifoda vositalarining, u yoki bu fikrni, g'oyani ifodalashga xizmat qiladigan umumxalq tili vositalarini qo'llash usulining yig'indisi, adabiy tilning amaldagi bir ko'rinishidir. Uning OAVlari orasida yetakchilardan biriga aylanganligining sababi ham shunda. Radioeshittirish oldiga oddiylik va ta'sirchanlik, qisqalik va tabiiylik, tilning tozaligi va ma'no aniqligi, musiqiylik va xushovozlik kabi talablar qo'yilganligi tufayli unga nutqiy muloqotning alohida ko'rinishi sifatida baho berish mumkin. Keng auditoriyaga ta'sir o'tkazishga mo'ljallangan radio tili qaysidir ma'noda universaldir. Teleeshittirishlarning ekstralingvistik xususiyatlari. O'tgan asrning 50-yillarda hayotga televideniyeining kirib kelishi bilan OAVlarining ijtimoiy roli yana bir pog'onaga ko'tarildi. Axborot uzatishning yangi vositasi kishilarning

dunyoqarashiga jiddiy ta'sir ko'rsata boshladi. Avvallari axborot faqat o'qish yoki eshitish orqali olingan bo'lsa, endi uning mazmuniga oid voqea-hodislarni bevosita ko'z bilan ko'rishning imkoniyati paydo bo'ldi. Axborot uzatishning yangi vositasi paydo bo'lishi, tabiiyki, unda tildan foydalanishning oldiga yangi talablar qo'ydi. Jumladan, teleeshittirishlarning ta'sirchanligini oshirish maqsadida uning mualliflarida turli verbal va noverbal metodlardan foydalanish imkoniyatlari paydo bo'ldi. □ Televideniye paydo bo'lgunga qadar axborot uzatish jarayonida noverbal vositalarning ishtirok etishi amalda deyarli yo'q edi. Kommunikator tomonidan qo'llangan bu usullar berilgan ma'lumotning adresat tomonidan o'zlashtirilishini birmuncha osonlashtirdi.

O'zbekiston televideniyesi eshittirishlari ko'lami axborot, telesharh, teleinterv'yu, telereportaj, tahlilnoma, telebahs, teleko'prik va turli xarakterdagi adabiy-badiiy janrlar hisobiga kengayib bordi. Reklamalar esa OAV tizimiga yangilik sifatida kirib keldi. Teleeshittirishlarni takomillashtira borishga bo'lgan davr talabi o'zbek telejurnalistikasini vujudga keltirdi, bu jarayonida telejurnalistning kasbiy mahorati alohida ahamiyatga ega bo'la bordi. □ Chunki, teleeshittirishlarni olib boruvchilarning intellektual salohiyati: eruditsiya, bilim darajasi, jurnalistik ma'lumoti, hayotiy va kasbiy tajribasi, hatto jinsi, kiyinishi, kiyimining rangi, imidji, o'zini tutishi, dadilligi, jiddiyligi, axborotni yetkazish uquvi va boshqa omillar eshittirishlarning sifatiga samarali ta'sir ko'rsatadi. Bu omillar bilan birgalikda televideniye janrlarining tabiatiga mos ravishda ovoz egalari ham tanlanadi. Masalan, «Tahlilnoma», «Axborot», «Davr», «Hudud» kabi dasturlar rasmiy eshittirishlar bo'lganligi sababli, ular uchun rasmiy va jiddiy ohang tanlanishi lozim bo'ladi. Axborotning sifati, darajasi va xarakteriga bog'liq ravishda o'ziga xos ovoz toni («obrazi») shakllanadi. Masalan, ijobiy axborotlarda ton nisbatan yuqorilashadi, aksincha, salbiy (negativ) axborotlarni (aytaylik, baxtsiz hodisalar yoki kishilarning vafoti bilan bog'liq xabarlar) berishda ovoz tezligi va tembri pasayadi.

Shundan kelib chiqib, eshittirishni olib boruvchining ovoziga juda katta emotsional vazifa yuklanadi. Rasmiy xabarlar, masalan, davlat televideniyesi axborot dasturlarini olib borish, Prezident farmonlari, tabriklari, xorijiy davlat rahbarlarining turli bayramlar munosabati bilan mamlakatimiz rahbariga yo'llagan tabrik telegrammalari, hukumat qarorlari va boshqa hujjatlarni o'qish vazifasi yetakchi diktorga yuklatilishining sababi ham ana shunda. Teleko'rsatuvlarda beriladigan boshqa dasturlar birmuncha erkin bo'lgani uchun ularda kommunikatorlardan alohida artistizm va jurnalistik mahorat talab etiladi, nutqning estetik jihatiga e'tibor ko'proq beriladi. «O'zbekiston» telekanalining «Assalom, O'zbekiston!», «Kun mavzusi», «Ikki daryo oralig'ida», «Tezkor xabarlar», «Salomatlik dasturi», «Sizning advokatingiz», «Ming bir rivoyat», «Ertaklar – yaxshilikka yetaklar»; «Yoshlar» telekanalining «Salom, yoshlar!», «Davrnin bolasi», «Avtopatrul», «Ayolga ta'zim», «Vatan mehri»; NTT telekanalining «Diydor shirin», «Yaxshi kayfiyat» kabi eshittirishlarini bunga misol tariqasida keltirish mumkin. Ularning har biri tildan foydalanishda va eshittirishni olib

borishda o'ziga xos uslubga ega.

Bu yerda ham xuddi radioeshittirishlarda bo'lgani singari adresant va adresat – teleeshittirishni olib boruvchi va teletomoshabin o'rtasida muayyan aloqa vujudga keladi. Bu aloqani yanada yaqinlashtirish, teleeshittirishlarning qiziqarli bo'lishini ta'minlash maqsadida harakatlanuvchi elementlarni yirik planda berish, jestlar, mimikalar, kinestitikani ta'kidlovchi kamera rakursleri va boshqa turli vosita va usullardan foydalanadi. Natijada televizion kommunikatsiya jarayonida vizual-psixologik aloqa paydo bo'ladi.

Teleeshittirishlarda ham OAV larining barchasida bo'lgani singari ma'lum eshittirishni tayyorlashda ishtirok etgan xodimlardan professional bilim va layoqat, malaka va ko'nikma talab etiladi. Ba'zi eshittirishning muallifi ko'rsatilsa-da, uni tayyorlashda bir necha kishi ishtirok etadi va sifatning ta'min etilishida ularning har birining o'z hissasi va o'rni bo'ladi. Ularning loqal birontasining efirga talablar darajasida tayyorgarlik ko'rmasligi, masalan, texnik vositalarning yetarli emasligi, texnika xavfsizligining buzilishi, tasvir jarayonida ortiqchaliklar yoki zarur narsaning tasvirga olinmasligi kabi ko'zga mayda-chuyda ko'ringan narsalar ba'zan telekommunikatsiyaning barbod bo'lishiga olib kelishi mumkin. Ular orasidan adresat faqat eshittirishni olib boruvchiga ro'para keladi. Tinglovchi va tomoshabin bilan yuzma-yuz kelgani uchun ham eshittirishni olib boruvchiga alohida mas'uliyat yuklanadi. Eshittirish qahramonlari bilan jonli muloqotda bo'la olish, improvizatsiya uquvi va ko'rsatuvni, ayniqsa, bahsli ko'rsatuvlarni boshqarish mahorati hamma telejurnalistda ham birday bo'lavermasligi mumkin.

Tasviriy imkoniyatlarining kengligi, obrazliligi, emotsional ishon tiruvchanligi tufayli boshqa OAVlariga qaraganda televideniye ning audiovizual tili auditoriyaga ta'sir ko'rsatishda juda katta ustunliklarga ega bo'ldi.

Teleradioeshittirishlar oldiga tilning to'g'riligi, ya'ni teleradiomaterial til qurilishining adabiy me'yorlarga muvofiq kelishi, kommunikativ maqsadga muvofiqlik prinsiplarining saqlanishi; mantiqiy, leksik va grammatik jihatdan aniq ifodalashga asoslangan til formulalarini qabul qilishning ad'yekvatligi singari talablar qo'yiladi. So'z qo'llashdagi anqlik, o'ylab qo'llash va struktural yorqinlik, kodifikatsiyalashgan zamonaviy leksik elementlaridan foydalanish talabi radio va televideniye ning ommaviy kommunikatsiyaga mo'ljallanganligi bilan izohlanadi. Radio- va telejurnalistning nutqi og'zaki shaklda amalga oshirilgani uchun anqlik asosiy o'rinda turadi. Tilning anqligi esa olib boruvchi tomonidan tejamkorlikka, lo'ndalikka, tezkorlikka intilishdir. Eshittirishni olib boruvchi mikrofon oldida o'zini erkin tutishi, improvizatsiyaga hamisha ruhan tayyor bo'lishi lozim. Muvaffaqiyat garovlaridan biri esa adresatga nisbatan samimiylik va hurmatdir.

Teleradioeshittirishlar oldida turgan asosiy vazifani - xalqni jamiyat hayotidagi ijtimoiy-siyosiy voqealardan xabardor qilib turish, uning ma'naviy-ma'rifiy dunyoqarashini yuksaltirish ekanligi, ayni paytda, bu eshittirishlar nutqi o'zbek nutqi madaniyatining namunasi bo'lishi lozimligini ham anglatadi. Shuning uchun ham ayrim eshittirishni olib boruvchilarning degimiz keladi, deymiz, tilab

qolamiz singari qalbsiz va nosamimiy so'zlari noxush qabul qilinadi.

Anglashiladiki, radio va televideniya til vositalaridan foydalanishda yaxlitlik va o'ziga xos stilistik tizim mavjud hamda ular «radio tili» yoki «televideniya tili» degan tushunchalar atrofida birlashadi. Axborot industriyasining o'ziga xos fondini tashkil etadigan radio va televideniya nutqi hamisha boshqa OAV jurnalistlari uchun namuna, xalqimizning ma'naviy-ma'rifiy, axloqiy-madaniy saviyasi va savodxonligini oshirishda o'rnak bo'lib qolaveradi. Afsuski, o'zbek tili stilistikasida radio va televideniya nutqi maxsus tadqiqot ob'ekti bo'lgan emas. Ularning har biri o'z lingvistik va ekstralingvistik xususiyatlariga ega ekanligi bunday kuzatishlarni taqozo etadi va PU tizimidagi o'rnini belgilashga xizmat qiladi. Matbuot nashrlarining ekstralingvistik xususiyatlari. OAVlari orasida vaqtli matbuot, jumladan, gazeta ommaviyligi bilan yetakchi o'rinni egallaydi. Gazetaning publitsistik matnlar orasida alohida ahamiyatga egaligi uning ijtimoiy-siyosiy hayotda tutgan o'rni bilan izohlanadi. Sodir bo'lgan har qanday voqea-hodisa va yangiliklar dastlab OAVlarda o'z aksini topadi. Gazeta materiallarining faqat yozma tarzda ekanligi tildan foydalanishda uning har bir janriga xos xususiyatlarning barqarorlashishiga olib keladi. Shuning uchun gazetani tildan foydalanishning o'ziga xos oynasi deyish mumkin. Bu o'ziga xoslik shundan iboratki, birinchidan, unda adabiy til me'yorlariga qat'iy amal qilinadi. Ikkinchidan, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy, fan-texnika, ta'lim-tarbiya, xullas, inson hayoti va faoliyati bilan bog'liq bo'lgan voqea-hodisalar haqidagi yangilik dastlab gazeta sahifalarida o'z aksini topadi. Bu yangiliklar ifodasi bo'lgan til birliklari ana shu yo'l bilan ommalashadi, ko'pchilikka tushunarli bo'ladi va undan keyingina qaysidir bir uslub doirasida, masalan, ilmiy yoki rasmiy uslubda turg'unlashishi mumkin. Til birliklari nutqning qaysidir bir shaklida gazetada qo'llanilgunga qadar kodifikatsiyalashgan bo'lsa-da, gazeta orqali u iste'molga kiradi, ommalashadi, turg'unlashadi va ko'pchilik uchun tushunarli bo'lgan elementga aylanadi. Shuning uchun ham o'zbek OAVlari va vaqtli matbuoti taraqqiyotida mustaqillik davri alohida bir davr bo'lib hisoblanadi va bu davr publitsistikasining tilini lingvistik jihatdan tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Axborot uzatish va ta'sir etish imkoniyati gazetada boshqa publitsistik janrlarga nisbatan keng, deb aytish mumkin. Chunki gazetada beriladigan materiallarni avvaldan tayyorlash, qo'llaniladigan har bir til birligi ustida shoshmasdan mulohaza yuritish uchun vaqt va sharoit mavjud. Mana shunday sharoitda o'quvchiga axborotni eng qisqa jummalarda, tushunarli qilib, ayni paytda, ta'sirli qilib yetkaza oladigan til elementlari tanlanadi, qayta ko'riladi, tahrir qilinadi. Boshqacha aytganda, lingvistik va ekstralingvistik omillar mana shu nuqtada birlashadi. Materialga jurnalistik jilo berishga intilish oqibatida OAVlari, ayniqsa, gazeta tilida ko'p so'zlar o'zining yangi ma'nolariga ega bo'ladi, shundan so'ng ommalashadi va lug'atlardan joy oladi.

A. Abdusaidovning «Gazeta janrlarining til xususiyatlari» mavzusida yozgan doktorlik dissertatsiyasida gazetani o'zbek tilida alohida uslub sifatida

qaraydi va uning axborot, tahliliy (analitik) va badiiy-publitsistik ko'rinishlari (podstillar) tarzida tasnif qiladi hamda bu ko'rinishlarning alohida janrlarini birma-bir tahlil qiladi. Ushbu janrlarning har biri uchun xos bo'lgan xususiy holatlar hamda barcha janrlarni birlashtiruvchi umumiy holatlarni ilmiy asoslab beradi.

Aytilganlarga faqat shuni qo'shimcha qilish mumkinki, gazeta janrlari sifatida sanab o'tilgan va tahlil qilingan janrlar aslida faqatgina gazeta uslubi uchun xos xususiyat emas va ularni bir janr doirasida chegaralab qo'yish ham ma'qul emas. Bu janrlar OAVlarining radio va televideniye, jurnal singari ko'rinishlarida ham u yoki bu darajada daxldor. Ammo gap shundaki, ular har bir axborot vositasida o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Masalan, xabar janrini olaylik. Uning oldiga hamma vaqt konkretlik, aniqlik, operativlik, umumlashtirish, ixchamlik kabi talablar qo'yiladi. Faktlarning to'g'ri bo'lishi uchun adresant javobgar hisoblanadi. Axborot neytral pozitsiyada turib beriladi. Lekin axborotning uzatilishi va qabul qilinishidagi vaziyat radioda, televideniya va gazetada ularning janr xususiyatlari va axborot yetkazish xususiyatlaridan kelib chiqib, turlicha bo'ladi. Yozma va og'zaki nutqning, texnik vositalarning, material muallifining ishtiroki bir xil mavzudagi materialni yetkazishda vaziyatga mos tarzda til elementlarini tanlashni taqozo etadi. Ayni paytda, hamma holatlarda ham publitsistikaga xos bo'lgan umumiy uslub saqlanib qolaveradi.

Davlat qurilishi va boshqaruviga, madaniyat va sportga, adabiyot va san'atga oid, xullas, jamiyat va mamlakat hayotida yuz beradigan barcha ijtimoiy-siyosiy voqealar, yangiliklar gazeta matnida o'z aksini topadi. Prezident Farmonlaridan, Oliy Majlis qabul qilgan Qonunlar va hukumat qabul qilgan qarorlardan tortib, tabiat va jamiyatda yuz berayotgan voqea-hodisalar haqidagi xabar ham gazetada berib boriladi. Ammo ularning barchasining tili va uslubini PUGa xos deb qarash to'g'ri emas. Masalan, gazetada she'r berildi, deylik. Uni qaday qilib PU ga xos deb aytish mumkin? Uning tili BUGa, farmon, qonun yoki qarorlari tili esa rasmiy uslubga xos. Shunday ekan, ta'sir ko'rsatish xususiyatiga ko'ra ular bilan funksional yaxlitlik mavjudligini unutmagan holda mazkur uslubdagi bu matnlar ishtirokining muvaqqatligini qayd etish to'g'ri bo'ladi.

Gazeta matnidagi tahliliy va badiiy-publitsistik materiallar tildan foydalanish nuqtai nazaridan axborot xarakteridagi materiallardan uslubiy farqlanadi. Bu yerda bayondagi neytrallik bilan tasviriylilik, emotsional-ekspressivlik oppozitsiyada bo'ladi. So'z va iboralarni yangi ma'nolar va ottenkalarda yoki obrazli-metaforik qo'llashga intilish, ifodada jonlantirish usulidan, terminlar metaforizatsiyasidan (atmosfera, dialog), yuqori kitobiy leksikadan (burch, vatan, ilhom, missiya, muqaddas, tatbiq etish, tayanch, cho'qqi) sinonimlarning ekspressiv variantlaridan, sub'yektiv baho elementlari va doimiy epitetlardan foydalanish, mavjud FBlarni yangicha tarzda qo'llashga intilish publitsistikada tasviriylilikning asosiy omillari hisoblanadi. Shuning uchun ham M.N.Kojina so'zlarni yangi ma'noda qo'llashga intilish gazeta prinsiplaridan biri ekanligini ta'kidlagan edi. □

Gazetaning bosh maqola, korespondensiya, reportaj, xabar, fel'yeton,

xalqaro obzor va sport sharhi kabi janrlari borki, ularda aynan gazeta tili uchun xos bo'lgan uslubni kuzatamiz. Ularni L.G.Barlas mazkur janrning konstruktiv alomatlari sifatida qaragan. Til elementlarini yangi ma'nolarda qo'llashga intilish gazetizmlarni vujudga keltiradi. Bu sanab o'tilgan axborot vositalari va uslub ko'rinishlarining har biri tildan foydalanishda yana o'z uslubiy xususiyatlariga ega. Masalan, umuman tildan foydalanish ma'nosida yoki publitsistik mohiyati bilan gazeta, jurnal, axbortnoma, byulletenlar umumiy mahrajga birlashsa-da, ularning har birining oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalaridan, janr xususiyatlaridan kelib chiqib, o'z uslubi mavjud. Mazkur fikrlar radio, televideniye yoki elektron axborot tizimiga ham tegishli. Shundan kelib chiqib ularning har birini tili va uslubini ilmiy tahlil etish o'zbek tilshunosligi ilmining tadqiqot ob'yekti bo'lishi zarur. Afsuski, shu paytga qadar gazetadan boshqa janrlar lingvostilistik jihatdan tahlil etilmagan.

Publitsistik uslubning alohida belgilari. O'zbek tili Fularining barchasida bo'lgani kabi PUda ham faqat uning o'zigagina xos bo'lgan va matnda alohida bo'rtib turadigan xususiyatlar mavjud. Xo'sh, bu o'ziga xosliklar nimalardan iborat?

Bu xususiyatlar OAVlarining ijtimoiy vazifasiga bog'liq tarzda namoyon bo'ladi. Axborot berish barobarida ham targ'ibot ishlarini olib borish, ham tinglovchi, tomoshabin va o'quvchiga ta'sir o'tkazish ularning asosiy vazifasi sanalar ekan, til vositalari ham ana shunga mos ravishda tanlanadi.

OAVlarining informatsiya berish, ma'rifiylik, tarbiyaviylik, tashkilotchilik, gedonistik (ko'ngilochar), safarbarlik, deklarativ-shior, oddiylik, hamma uchun baravarlik kabi asosiy xususiyatlari tanlanish o'lchovlari bo'lib hisoblanadi. Jurnalistning materialni tayyorlash va uzatish jarayonidagi fikrni rivojlantirib borish san'ati, bayondagi dinamizm, fikriy va hissiy uyg'unlikni muvozanatda saqlashi, hujumkorligi va umuminsoniy etik me'yorlarni saqlashi kabi holatlar ham til vositalarini tanlash jarayonini boshqarib turadi.

Erkinlik, ob'yektivlik, obrazlilik, ta'sirchanlik, ravonlik, ixchamlik, konkretlik, haqqoniylik, dabdabali, balandparvoz uslubdan voz kechish, emotsional-ekspressivlik kabilar tildan foydalanishning OAVlariga xos bo'lgan jihatlari hisoblanadi. Bularni umumiy holat sifatida baholasak, har bir janrga xos bo'lgan xususiy holatlar ham mavjud. Masalan, konkretlik, aniqlik, operativlik, umumlashtirish, ixchamlik kabilar PUning axborot ko'rinishiga, shuningdek, faktning to'g'riligi, neytrallik singarilar xabar; biron bir yangilikdan xabardor qilish, unda faktlarga tayanish, tezkorlik, ta'sirchanlik, haqqoniylik, tantanavorlik, emotsional-ekspressiv bo'yoqli so'zlarning ko'pligi reportaj; dolzarblik, jonli suhbat, hozirjavoblik, ravonlik, ixchamlik, ta'sirchanlik interv'yu janrlariga xos bo'lsa, tahliliylik, umumlashtirish, haqqoniylik, xulosalash kabilar mazkur uslubning tahliliy ko'rinishlariga tegishlidir. Shuningdek, qoliplilik, andozalilik va neytrallik korrespondensiyalarga; dalil, isbot, tahlil, umumlashtirish, ob'yektivlik kabilar maqola janrlariga xos xususiyatlar sanaladi.

Bu xususiyatlar OAVlarining barchasiga tegishli bo'lsa, gazeta va jurnallar imkoniyati ularda beriladigan bosh maqola, bosh muharrir minbari singari rubrikalar hisobiga yana ham kengayadi. Ular dasturiy, safarbarlik, yo'l ko'rsatuvchilik, targ'ibot va tashkilotchilik, umumlashtiruvchilik, publitsistik va ishchanlik xarakteri bilan publitsistikaning maxsus janrlari sifatida namoyon bo'ladi. Sub'yektiv bahoning mafkuraviyligi, bayon uslubining yuqoriligi, ijtimoiy-siyosiy leksikaning faolligi, sintaktik qurilishi nisbatan murakkabligi bilan bu maqolalar alohida mavqeda turadi.

PU tadqiqotchilari unga xos bo'lgan va bir-biridan ajratib bo'lmaydigan asosiy prinsiplar sifatida informativlikni va ta'sir xarakterini inobatga olib, ekspressivlikni qayd etishadi. Ushbu prinsiplar uslubning muhim xususiyatlarini – standartlik va tasviriylilik xususiyatlarini keltirib chiqaradi. Bu bir-biriga qarama-qarshi tendensiyadagi hodisalar bir-birini taqozo ham qiladi va yaxlitlikda olib qaraladi. Shuningdek, standart va bo'yoqdorlik, informativlik va emotsionallik oppozitsiyasi ham PUning konstruktiv belgilari sanaladi va ular turli janrlarda turlicha namoyon bo'ladi. A.Abdusaidov «Gazeta janrlarining til xususiyatlari» mavzusida himoya qilgan doktorlik dissertatsiyasida standart-antieksspressivlik, ekspressivlik-antistandart formulasi haqida gapirganda ana shu belgilarni nazarda tutgan. PUning hozirjavoblik, targ'ibot-tashviqot xarakteri uning barcha janrlariga xos materiallarning qisqa vaqt ichida ommaga yetkazilishini taqozo etadi. Bir necha janrlarga oid va turli FUlarga tegishli materiallar ko'p sonli jurnalistlar, o'z va jamoatchi muxbirlar tomonidan tayyorlanadi. Bu jarayondagi vaqt tig'izligi bayonda ekspressivlikka intilish jurnalistni avvaldan ishlatilib kelinayotgan obrazli so'z va iboralarga murojaat qilishga majbur qiladi. Shu tarzda PUga xos bo'lgan baxtimiz qomusi, munosib hissalarini qo'shmoq, faxrlanish tuyg'usi bilan, zo'r qoniqish bilan, alohida mamnuniyat bilan singari nutqiy standartlar, klishealar, FBlning tayyor arsenali yuzaga keladi va ular barcha OAVlari tilida qo'llanishi mumkin bo'lgan muhim lingvistik omillar sanaladi. Nutqiy standartlarning afzallik tomoni shundaki, ular materialning tayyorlanishi va uzatilishini ham, omma tomonidan tushunilishini ham osonlashtiradi. Standartlik informativ janrlarda faol bo'ladi. Adresatga faol ta'sir ko'rsatish istagidan shakllangan standart birliklar tasviriylikka ham xizmat qilaveradi. Bu tasviriyl vositalar OAV tilida o'z qobig'iga o'ralgan holda yashamaydi. Masalan, XX asrning II yarmida publitsistikada sovuq urush, zarbdorchasiga mehnat qilish, sotsialistik musobaqa g'oliblari, ratsionalizatorlik harakati, staxanovchilik harakati, oq oltinni oltin qo'llar yaratadi singari jumlar faol qo'llangan bo'lsa, hozirda ular ishlatilmay qo'ydi. Bugun davr talabi bilan yangi so'z va iboralar qo'llanila boshladi: barkamol avlod orzusi, domino effekti, ijobiy ma'nodagi portlash effekti, ma'naviy jasorat, oila bekati, sog'lom turmush tarzi, O'zbekiston – kelajagi buyuk davlat kabi. Prezidentimiz I.A.Karimov o'z chiqishlari va asarlarida mustaqillik so'zi bilan bog'liq bo'lgan quyidagi jumalarni qo'llagan: «Mustaqillik» ordeni, mustaqillik – mas'uliyat, mustaqillik - muqaddas ne'mat, mustaqillik asri, Mustaqillik bayrami, mustaqillik daraxti, mustaqillik deklaratsiyasi, mustaqillik ideallari, mustaqillik imorati, mustaqillik inshootlari, mustaqillik istiqboli, mustaqillik yo'li, mustaqillik karvoni,

Mustaqillik kubogi, Mustaqillik kuni, Mustaqillik maydoni, mustaqillik mafkurasi, mustaqillik ma'naviyati, mustaqillik muzeyi, mustaqillikni mustahkamlash, mustaqillik ne'matlari, mustaqillik ob'yektlari, mustaqillik odimlari, mustaqillik paradi, mustaqillik ruhi, mustaqillik samaralari, mustaqillik sarchashmalari, mustaqillik tafakkuri, mustaqillik shabadasi, mustaqillik sharofati, mustaqillik g'oyalari, mustaqillik havosi, mustaqillik himoyachilari, mustaqillik – huquq, milliy mustaqillik, siyosiy mustaqillik singari. Demak, davrlar o'zgarishi, jamiyat taraqqiyoti, binobarin, odamlar dunyoqarashining o'zgarishi tasviriylarining doimo yangilanib turishini taqozo qiladi va u bilan bog'liq tarzda PU tasvir vositalarining sifati ham o'zgarib boradi. Til qurilishi prinsiplari esa o'zgarmasdan qoladi. Jurnalistning stilistik mahorati ham ana shu jarayon bilan, zamon talablaridan kelib chiqib tasviriylar vositalarini qo'llash bilan bog'liq. Tasviriylar va ekspressivlik publitsistik matnlarda bajaradigan vazifasiga ko'ra bir-biriga juda yaqinlashsa ham, mazmunan bir-biridan farqlanadi. Tasviriylar publitsistik matnlarning jozibali va ta'sirchan bo'lishi bilan bog'liq bo'lsa, ekspressivlik targ'ibot va baho munosabatiga borib taqaladi va ular matnning mazmun-mohiyatiga ko'ra leksik-grammatik va stilistik vositalarining qo'llanishini talab etadi.

OAVlari materiallarining davriyligi va qisqa muddatgaligi, millionlab tinglovchilar, tomoshabinlar va o'quvchilar ommasiga qaratilganligi bir lahzada qabul qilinadigan, yorqin ko'zga tashlanadigan tasviriylar va ekspressiv vositalarini talab qiladi. Aytilganlardan PU asosida til vositalaridan foydalanishdagi baholash prinsipi yotishi; publitsistika tilida logik va obrazli ibtidoaning organik uyg'unligi, mulohazalarning umumlashganligi, ilmiy bayonning isbotlash xususiyati, badiiy tasvirning obrazlilikgi uyg'unlashishi ma'lum bo'ladi. Xullas, publitsistika tili xabar uzatish xususiyati, mantiqiyiligi va emotsionalligi bilan FU doirasida alohida tizimni tashkil etadi. Publitsistik matn shakllari. PU o'zbek tili FUlari tizimida kitobiy uslub sifatida qaraladi. Unda amal qiladigan barcha me'yorlar adabiy til me'yorlari doirasida bo'lishi taqozo etiladi. Publitsistikaga oid ayrim janrlarning so'zlashuv jarayoni bilan bog'liqligi unda SUGa oid xususiyatlarning namoyon bo'lishiga ham olib keladi. Har ikki uslub xususiyatlari uyg'unlashgan holda yuzaga chiqishidan qat'iy nazar PU kitobiy uslub va SUNing etaloni sifatida omma uchun adabiy nutq namunasi vazifasini o'taydi.

Bu uslublarga bog'liq ravishda publitsistik matnlar yozma va og'zaki shakllarda namoyon bo'ladi. Ammo yozma shakldan foydalanish ustunlik qiladi. Siyosiy sharhlovchilar, komentatorlar, eshittirishni olib boruvchilar, diktorlarning chiqishlari va suhbatlariga oldindan tayyorgarlik ko'riladi – qog'ozga tushiriladi. Hech qanday tayyorgarliksiz amalga oshiriladigan, spontan nutqdan foydalanish undan keyingi o'rinda turadi. Ba'zi holatlarda bu ikki shakl aralash holda keladi. Siyosiy-publitsistik nutqning bu ko'rinishidan ko'pincha davlat rahbarlari foydalanadilar.

Publitsistika tufayli, radio va televideniye tilida tez-tez murojaat qilib turilishi natijasida nutqning og'zaki shakli faqat maishiy faoliyat doirasida qolib

ketmadi, u so'zlashuv va kitobiy nutq doirasida ham amal qila boshladi. Deyarli kitobiy vositalar qo'llaniladigan ilm-fan, rasmiy axborot, publitsistikaga ham kirib bordi. Bu esa kitobiy va SNni o'zaro yaqinlashtirishga, faollashtirishga va jadallashtirishga xizmat qildi. Aytilganlardan shunday xulosa kelib chiqadiki, publitsistika va jurnalistika mutlaq bir uslubga xos bo'lgan usullardan foydalanayotgan emas. Unda nutqning hozirgi o'zbek tili keng qamrovli tizimidagi barcha - kitobiydan (ilmiy, rasmiy, publitsistik, badiiy) tortib, SNgacha (adabiy-so'zlashuv, muomala-maishiy, oddiy nutq) elementlari keng qo'llanilmoqda.

Publitsistik uslubning o'zbek tilidagi boshqa funksional uslublarga munosabati. PU ma'lum ma'noda oraliq uslub sanaladi. Buning ma'nosi shuki, mazkur uslubda shakllangan matnlar obrazlilik, ta'sirchanligi, tasviriy vositalarning mahsuldor qo'llanilishi bilan BUGa yaqinlashsa, dialektizmlar, istorizmlar, argo va jargonlar qo'llanilmasligi bilan undan uzoqlashadi.

Adresat ongi va hissiyotiga ta'sir o'tkazish vazifasi PU va BUni funksional jihatdan birlashtiradi. Ta'sir o'tkazuvchi lingvistik vositalar bu uslublarning har ikkalasida ham umumiy bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, ushbu vazifa ularni bir-biridan ajratadi ham. Chunki ularning ta'sir ko'rsatishdan maqsadlari turlicha bo'ladi. PUGa xos bo'lgan jangovarlik, hozirjavoblik, axborot uzatishdagi vaqtning tig'izligi adresantga tezlikda, to'g'ridan-to'g'ri va ochiq ta'sir o'tkazish vazifasini qo'yadi. BUDA esa adresatning ruhiy olamiga, qalbiga ta'sir o'tkazish orqali uning badiiy-estetik, ma'naviy-ma'rifiy olamini boyitish va zavqlantirish maqsad qilib qo'yiladi.

Uslub mohiyatiga asoslanib aytish mumkinki, PUDA ekspressivlikka erishishning vositalari boshqa uslublarga qaraganda ko'p. Mana shu jihatlari bilan u BUGa juda yaqinlashadi. Shuning uchun ham mazkur uslubning lingvostilistik xususiyatlari haqida gapirganda asosiy e'tibor ekspressivlikni yuzaga keltiruvchi tasviriy vositalarga qaratiladi. Oshkora munosabat, sub'yektiv baho PUNing muhim xususiyati sanaladi va bu bilan BUDan farqlanadi. Badiiy mantlarda muallif g'oyasi va fikri boshqalarning nutqi orqali, PUDA esa bevosita muallif nutqi orqali ifoda etiladi. Publitsistik bayon usuli va kompozitsion qurilishi ham bu vazifalarga bog'liq tarzda reallashadi. Masalan, publitsistik matnda bayon 1- va 3-shaxs nomidan berilishi me'yoriy holat sanaladi. Muallif «men»i bayon 3-shaxs tilidan berilganda ham aniq bilinib turadi. BUDA esa hikoyachi «men»i bilan muallif «men»i hamma vaqt ham to'g'ri kelavermaydi. Hikoyachi obrazining kiritilishidan stilistik maqsad ko'zlanadi. Boshqacha aytganda, 3-shaxs tomonidan hikoya qilish muallifga ma'lum uslubiy qulayliklar tug'diradi. Ifodaning aniqligi va publitsistik janrlarga xoslangan hamda ijtimoiy-siyosiy terminologiyaning qo'llanilishi bilan IUGa o'xshaydi. Shuningdek, ifodadagi qisqalik, lo'ndalik, ixchamlik, yorqinlik kabi xislatlar ham uni IU bilan yonma-yon qo'yadi. Axborot xarakteridagi materiallarda umumtil vositalari faol uchraydi va bayonning neytralligi, til materialini tanlashdagi mushtraklik uni IU va RULarga yaqinlashtiradi. Aniqlik va ob'yektivlik ruhi ustunlik qiladi. Joy va kishi nomlari, hisob-kitob yoki aniq ma'lumotlarni ifodalaydigan raqamlar, abbreviaturalar, mavzuga oid terminologiya

ko'p qo'llaniladi.

Radio va televideniyaedagi ayrim chiqishlar bu uslubdagi matnda SU elementlari ham ba'zan aralashib ketishi mumkinligini ko'rsatadi. M.N.Kojina ta'kidlaydiki, gazeta janrlariga bog'liq tarzda namoyon bo'ladigan uslubiy rang-baranglik tarqoq holda mavjud bo'lmaydi. Ular umumiy nuqtada birlashadi. Masalan, bosh, ilmiy-nazariy, ilmiy-ommabop maqolalar, taqrizlar, intervyu va boshqalar bayonda tahlil xususiyatlari bilan ajralib tursa ham, ekspressiv ta'sir o'tkazuvchi, publitsistik va baholash momentlari bilan; ocherklar, pamfletlar, fel'yetonlar badiiylik xususiyatlari bilan ajralib tursa ham, publitsistikligi bilan o'sha uslublardan farqlanadi.

Demak, nutqda uslublararo yaqinlik bo'lishi, ularning biriga xos bo'lgan elementlarning ikkinchisiga o'tib turish funksional qonuniyati bu yerda ham amal qiladi. Shuning uchun ham M.N.Kojina bu elementlarning gazeta tilida uchrashi uslub yaxlitligiga zarar yetkazmasligini va matnda o'ziga xos vazifa bajarishini ta'kidlagan edi. PUda boshqa uslublar elementlarining qo'llanishi mazkur uslub funksional qamrovining kengligi bilan izohlanadi. PU boshqa uslublar bilan mustahkam aloqadorlikda, ayniqsa RU, IU va BUlar bilan mustahkam aloqadorlikda taraqqiy etmoqda. U FUlar tizimida lingvistik va ekstralingvistik alomatlari bilan alohida uslub bo'lishi bilan birgalikda, hayotiyli, jonliligi bilan SUGa, obrazlilik bilan BUGa, ijtimoiy-siyosiy terminologiyaaning qo'llanilishi bilan RUGa yaqin turadi. Ijtimoiy hayotdagi barcha yangiliklar dastlab matubotda, umuman OAVlarida dunyo yuzini ko'rishi va shundan so'nggina ommalashishi oqibatida PUNing boshqa uslublar taraqqiyotiga ta'sir o'tkazishi ob'yektiv jarayondir.

Publitsistik uslubning lingvistik xususiyatlari

PUNing o'zbek tili FUlari tizimida tutgan o'rni qanday va uning o'ziga xos jihatlari nimalardan iborat, degan savollar mazkur uslubning mohiyatini aniqlashimizga imkon beradi. Yuqorida ko'rib o'tganimiz ekstralingvistik shart-sharoitlar bilan chambarchas bog'liq holda PU o'z lingvistik uslubiy xususiyatlarini namoyish etadi. Bu xususiyatlar til qatlamlarining barcha sathlarida namoyon bo'ladi. Masalan, fonetik sathda kitobiy va so'zlashuv elementlarini talaffuz qilishning uyg'unligi, ohangning muayyan semantik-stilistik vazifalarni bajarishga bo'ysundirilishi; leksik sathda ijtimoiy-siyosiy leksikani samarali qo'llash; morfologik-so'z yasalishi sathida ot va fe'lning kategorial shakllarini faol ishlatish; abbreviaturalar, qisqartmalardan foydalanish; sintaktik sathda sintaktik qurilmalarning oddiyligi, gap qurilishining tartibligi, jumlaning mantiqiy markazi hisoblanadigan gap bo'laklari inversiyasi, poetik sintaksis va SN elementlari kabilar mazkur uslubning lingvistik xususiyatlaridir. Publitsistik uslubning o'zigagina xos bo'lgan fonetik xususiyatlar yo'q. Publitsistik janrlarga oid materiallarning ba'zan og'zaki shaklda ifodalanishi bu uslubda alohida fonetik xususiyatlar borligini anglatmaydi. Og'zaki publitsistik nutqda adabiy tilning orfografik me'yorlariga qat'iy rioya qilish talab etiladi. Shuning uchun

tadqiqotchilar ularga alohida to'xtalib o'tirishga zarurat sezishmagan.

Publitsistik uslubning leksik xususiyatlari. Publitsistik matnlar leksikasi va frazeologiyasi haqida so'z yuritish murakkab vazifadir. Unda kitobiy so'zlar ham, so'zlashuv elementlari ham mavjud, o'zbek tilining barcha FUlarga xos bo'lgan til elementlarining – oddiy va neytral, o'z va o'zlashgan leksikadan tortib emotsional-ekspressiv o'ttenkali yuqori uslubga oid so'zlargacha, jonli til elementlaridan tortib ijtimoiy-siyosiy terminologiyagacha bo'lgan til elementlarining qo'llanishi PUning ijtimoiy hayot voqealarini aks ettirishga bo'lgan munosabatidan kelib chiqadi. PUning leksik arsenalida OAVlari tiliga xos bo'lgan intervyu, korrespondensiya, bosh maqola, axborot, reportaj kabi professional leksika ham, aholi farvonligini oshirmoq, vazifalarni aniq belgilab olmoq, yetarli darajada foydalanmaslik, ishbilarmonlarga keng yo'l ochmoq, joriy yil, zo'r qoniqish bilan, ishni yangicha tashkil etmoq, mavjud imkoniyatlardan foydalanmoq, ma'lum qilishicha, mehnat va ijro intizomi, imkoniyatdan foydalanmoq, muammolarni o'z vaqtida hal etmoq, munosib hissalarini qo'shmoq, turmush madaniyatini yaxshilamoq, umumdavlat manfaati, umumxalq manfaati, farxrlanish tuyg'usi bilan, xabar qilishlaricha singari o'z turg'un birikmalari, standartlari, shtamlari, klishe'lari va ifoda qoliplari ham shakllanganki, ular FUlarni bir-biridan farqlash va mazkur uslubning mavqeini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, boshqa ijtimoiy sohalar, binobarin FUlarga xoslangan so'z va jumlar ham publitsistik matnlarda faol qo'llaniladi. Bu ham ana shu til birliklarining ommaviyligi va faolligining hosilasidir. Masalan, qo'yidagi so'z va jumlar boshqa FUlarga - IU va RUlarga ko'proq daxldor bo'lsa-da, PUda ham faol qo'llaniladi: iqtisodiy: aholi bandligini ta'minlamoq, barqaror rivojlanishni ta'minlamoq, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirimoq, izchil rivojlanish, innovatsion g'oyalar va texnologiyalar yarmarkasi, manziliy dastur, kichik va o'rta biznesni rivojlantirmoq, yangi ish o'rinlari tashkil etmoq, yangi ish o'rinlarini yaratmoq; huquqiy: odam savdosi, qonun ijodkorligi, qonunlar ijrosi, huquqiy bazani ta'minlamoq; tibbiy: reproduktiv salomatlik, aholini sog'lomlashtirish dasturi yoki ta'kidlamoq, qayd qilmoq, qayd etmoq, intellektual salohiyatini oshirmoq, davlat tashrifi, taklifga binoan kabi. Birgina sport so'zi atrofida shakllangan mana bu jumlar OAVlari tilida g'oyatda faoldir: bolalar sporti, bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi, ommani sportga keng jalb qilish, sport klubi, sport majmui, sport maskanlari, sport musobaqalari, sport olami, sport turlari, sport to'garaklari, eng faol sportchi singari. Barkamol avlod, ustuvor vazifa, ustuvor yo'nalish, yoshlar tarbiyasi singari umumnutqiy jumlalarining g'oyatda faolligi ham mazkur uslubning ommaviylik mohiyatidan kelib chiqadi. Davr talabi, do'stona suhbat, yuqori hosil uchun kurash, yaratuvchilik ishlari, dunyo hamjamiyati, mustaqil mamlakatlar hamdo'stligi singari turg'un birikmalarni faol qo'llash ham PU tabiatiga mosdir. PUda so'z qo'llash imkoniyati shu qadar kengki, hatto umumiste'moldagi so'zlar atamaga aylanadi. Masalan: ovoz, ochiq ovoz, yopiq ovoz, hal qiluvchi ovoz, maslahat ovozi, qarshi ovoz, ovozga qo'ymoq, ovoz bermoq, Osiyo ovozi singari. Publitsistika ijtimoiy-siyosiy hayot voqealariga faol aralashgani singari zamonaviy til rivoji va taraqqiyotiga ham jiddiy ta'sir ko'rsatib boradi. Aytish mumkin bo'lsa, ana shu taraqqiyot

darajasini belgilovchi muhim omil hisoblanadi. Masalan, birgina o'zbek terminologiyasi taraqqiyotini olaylik. Bu haqda akad. A.Hojiyevning aytganlarini eslaylik: «Hozirgi o'zbek adabiy tilining shakllanishi va taraqqiyotida vaqtli matbuotning roli ham juda muhimdir. Xuddi shu vaqtli matbuotda, ayniqsa, gazetada, adabiy tilning barcha stillari o'z aksini topadi. Shu bilan birga, ijtimoiy aloqaning bu formasi kundalik hayotda muhimligi, operativligi va ommaviyligi bilin ham xarakterlanadi. Shu jihatdan, «adabiy tilning eng muhim laboratoriyasi» degan iborani vaqtli matbuotga nisbatan aytish juda ham o'rinli bo'ladi».□

Hatto, ekspressivlikni ta'minlovchi lug'aviy vositalar sifatida yuzaga keladigan okkazional FBlarning og'zaki nutqdan ko'ra avval matbuot tilida namoyon bo'lishi ehtimoli ko'proq. Fikrni obrazli ifodalashga intilish, buning uchun vaqt, ijodiy muhit va erkinlikning mavjudligi shunday deyishimizga asos bo'ladi.

Darhaqiqat, erkinlik jamiyat va ijtimoiy tuzum mafkurasini inkor etmaydi. Shuning uchun ham til elementlarining qo'llanish holati turli davrlarda turlicha bo'lgan. Masalan, mustaqilligimizdan avval protsent, revolyutsiya, redaktor, reforma, spravka, student, tekst, ekonomika singari yuzlab so'zlarni xuddi shunday bo'lishi kerak deb tushunganmiz va publitsistikada faol qo'llab kelganmiz. Mustaqillik esa ongimizga, shuurimizga jiddiy ta'sir ko'rsatdi, asta-sekinlik bilan o'zligimizni anglay boshladik va milliy mafkuramizni shakllantirishga kirishdik. Bu esa, shubhasiz, tildan foydalanishga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Foiz, inqilob, muharrir, islohot, ma'lumotnoma, talaba, matn, iqtisod, iqtisodiyot singari birliklarni qo'llash tamoyilga kirdi. Aytilganlardan kelib chiqib, tildan foydalanish jarayonini shartli ravishda mustaqillikkacha bo'lgan davr, mustaqillikning dastlabki yillari va mustaqillikning keyingi davri deb o'rganish mumkin bo'ladi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida kishilar ruhiyatida sodir bo'lgan ijobiy o'zgarishlar ularni yangilanish sari undadi. Jumladan, amalda qo'llanib kelinayotgan ruscha-baynalminal so'zlarni «o'zbekchalashtirish» kayfiyati kuchaydi. O'rinli-o'rinsiz almashtirishlar natijasida ayrim holatlarda tilimizning leksik me'yorlari qo'pol ravishda buzildi. Jarida, majalla, musohaba, mushtariy, ilmgoh, oliygoh, o'yingoh, sihatgoh, issiqxona, ajoyibxona, eshikbon, sayrbon, oybitik, oynoma, ro'znoma singari so'zlar OAV tilida onda-sonda uchrab turdi. Ammo har qanday shoshma-shosharlik, termin yaratuvchilik salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkinligi ma'lum bo'lib qoldi. Oradan o'tgan davr asta-sekinlik bilan so'z qo'llashdagi bu salbiy holat va o'zboshimchaliklarga barham berdi. Vazirlar Mahkamasi qoshida faoliyat ko'rsatib kelayotgan Atamalar qo'mitasi va keng jamoatchilik tavsiyalari natijasida terminlarni, chet so'zlarni qo'llashga, ichki imkoniyatlarimizdan foydalangan holda yangi so'zlar yasashga muayyan aniqliklar kiritildi. Bu me'yorlashuv jarayonida OAVlarining xizmati katta bo'ldi.

To'g'ri, tilimizda hozirda ham ayrim tushunchalarning atamaları dublet holatida arxitektor-me'mor, injener-muhandis, respublika-jumhuriyat, universtet-dorilfunun tarzida qo'llanilib kelinmoqda. Tilshunoslikda ham epitet - sifatlash,

derivatsiya - soʻz yasalishi, affiks - qoʻshimcha, abbreviatura - qisqartma soʻz, anafora - misra boshidagi tovush takrori, antroponimlar - kishi ismlari, toponimlar - joy nomlari, atribut - aniqllovchi, affrikatlar - qorishiq undoshlar, stilistika - uslubshunoslik kabi oʻnlab atamalarni parallel holda hozir ham ishlatib kelayapmiz. Bunday parallel qoʻllanishning boisi atamalarning birinchisi xalqaro termin sifatida barcha tillarda qoʻllanilib kelinayotganligi boʻlsa, yana bir sababi – ularning har biri nutqda oʻziga xos stilistik ottenkalarga egaligidir.

Koʻpgina misollar tahlili atamalar, nomlanishlar turgʻunligi murakkab masala ekanligini koʻrsatadi. Oʻzbekiston Respublikasi sobiq Ittifoq tasarrufida ekanligida, rus tilining Ittifoq hududidagi boshqa tillarga taʼsiri kuchli boʻlgan paytlarda biz hech bir ikkilanmasdan respublika, oblastъ, rayon, avtor, agitatsiya, propaganda, ideya, plan, forma, protsent, protsess, komandirovka, raport, spravka, student, sekretarъ, ministr kabi koʻplab soʻzlarni, garchi ularning tilimizda (oldin qaysi tildan qabul qilingan boʻlishidan qatʼiy nazar) muqobil variantlari boʻlsa-da, ishlataverar edik. Vatanimizning mustaqillikka erishishi munosabati bilan tabiiy ravishda bu soʻzlarga jamoatchilik tomonidan munosabat bildirildi. Jumhuriyat, viloyat, tuman, muallif, tashviqot, targʻibot, gʻoya, reja, shakl, foiz, jarayon, safar, bildirishnoma, maʼlumotnoma, talaba, kotib(a), vazir, nozir, nazorat kabi muqobil variantlari ham 90-yillar boshlaridan ular bilan bab-baravar qoʻllanila boshlandi va bu parallellik tilimizda meʼyor sifatida maʼlum muddat saqlanib turdi.

Endi oradan oʻn yildan koʻproq vaqt oʻtgach, butunlay boshqa manzara kuzatiladi. Bu oʻtgan vaqt orasida birinchi guruh soʻzlar asosan ikkinchi guruh soʻzlariga oʻz oʻrnini boʻshatib berdi, deb bemalol ayta olamiz. Nega asosan deb aytayapmiz? Shuning uchunki, bu soʻzlarning har biri vaqt gʻalviridan oʻtdi. Ayrimlari hozir ham parallel xususiyatini saqlab qoldi: respublika-jumhuriyat, universitet-dorilfunun kabi.

A.Abdusaidov «Lugʻaviy dubletlarni ishlatishda maqsadga muvofiq boʻlmagan variantlilikdan voz kechish, yaʼni bir terminning faqat dubletini parallel holda qoʻllash lozim. Aks holda variantlilik kuchayib, ayrim tushunilishi qiyin soʻzlar gazeta matnlaridan oʻrin oladi», degan mulohazani bildiradi.□ Tildagi tejamkorlik va aniqlik tamoyillariga koʻra bu fikr toʻgʻri. Ammo biz dublet sifatida qaraydigan har bir elementning tilimizda oʻz stilistik qiymati bor. Masalan, Samarqand Davlat universteti – Samarqand Davlat dorilfununi deyish mumkin boʻlgani holda, Hayotning oʻzi bir dorilfunun deyish mumkinu, Hayotning oʻzi bir universtet, deb boʻlmaydi. Bu dorilfunun soʻzidagi sematnik-stilistik maʼnoning kengligi bilan, universitet esa aniq bir oʻquv yurtining nomini atash doirasida chegaralanganligi bilan izohlanadi.

Publitsistik matnlar leksikasi va frazeologiyasida til birliklarini qoʻllashda yangilikka intilish bilan bogʻliq boʻlgan yana bir holat bor. Bu soʻzlarning ohorlilik masalasi. OAVlari tilida paydo boʻlgan har bir yangi soʻz maʼlum muddat ohorlilikicha qoʻllanadi va u vaqt oʻtishi bilan bu xususiyatini yoʻqotadi – tilning umumiy lugʻat fondiga qoʻshilib ketadi. Masalan, bir vaqtlar

mustamlakachi, chorizm, burjuaziya, , kommuna, kommunizm, kommunistik axloq, sotsializm, sotsialistik jamiyat singari soʻz va jumlar tilimizda yangilik sifatida qayd etilgan boʻlsa, bugun ular ohorini yoʻqotish u yoqda tursin, ijtimoiy hayotimizda oʻzining butunlay ahamiyatini yoʻqotdi, isteʼmoldan qoldi va eskirgan lugʻat fondidan joy oldi.

Bugun tilimizda boshqacha bir manzara kuzatiladi. Dunyoda roʻy berayotgan ilmiy-texnikaviy, ijtimoiy-iqtisodiy oʻzgarishlar natijasida paydo boʻlgan bakalavr, bakalavriatura, birja, investr, kollej, konsalting, konsern, korporeyshn, lizing, litsey, magistr, magistratura, market, marketing, menejment, fermer, firma, xolding kabi yangi soʻzlar, eng avvalo, OAVlari orqali tilimizda oʻz «pasport»iga ega boʻldi va ommalashdi. Publitsistik uslubning morfologik xususiyatlari haqida shuni aytish mumkinki, uning faqat oʻzigagina xos boʻlgan morfologik koʻrsatkichlar yoʻq. U adabiy tildagi barcha morfologik vositalardan foydalanaveradi. Ammo ayrim qoʻshimchalar yordamida yasalgan soʻzlar va ular ishtirok etgan turgʻun jumlar mazkur uslubga xosligi va qoʻllanish chastotasining faolligi bilan ajralib turadi. Masalan, qoʻshma soʻzlarning tarkibiy qismi sanaladigan umum soʻzi ishtirok etgan umumxalq, umumbashariy, umuminsoniy, umummilliy, umumiy iqtisodiyot, umumevropa, umumittifoq soʻzlari; -ish qoʻshimchasi yordamida yasalgan liberallashtirish, rivojlanish, foyda keltirish, himoya qilish birliklari yoki insonning shaxsiy huquqini taʼminlash, sanksiya berish, sud-huquq tizimini leberallashtirish, oʻlim jazosini bekor qilish, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini himoya qilish, qamoqqa olish jumalari; -lik yasagan bagʻrikenglik, vatanparvarlik, jamoatchilik, izchillik, insonparvarlik, oshkoralik, peshqadamlik, safarbarlik, tadbirkorlik, toʻrachilik, fuqarolik, gʻoliblik, hamkorlik, homiylik elementlari yoki peshqadamlik qilmoq, hamkorlik oʻrnatmoq, safarbarlik chaqiruvi, insonparvarlik va bagʻrikenglik tamoyillari, jamoatchilik tashabbusi, fuqarolik jamiyati jumalari; -aro yordamida shakllangan xalqaro huquq, xalqaro hujjat, xalqaro konvensiya va deklaratsiyalar, gʻoliblik uchun oʻzaro bellashmoq singari jumlar publitsistik matnlarda faol qoʻllaniladi. Qoʻllanish chastotasi yuqori boʻlgan qoʻshimchalar tizimiga –chilik ni ham kiritish mumkin: Sanobar – iqtisodchilikni, Saltanat – hisobchilikni va Gʻoliba – ilm yoʻlini tanlagan. Oralariga bunchalik sovuqchilik tushadi deb oʻylamagandim. Chiraniq qilingan isrofgarchilik hisobiga guldek bir oila jar yoqasiga kelib turibdi («Zarafshon») kabi.

Fermerga kim yordam beradi? Tadbirkorning himoyachisi kim? kabi holatlarda otlarning birlikda qoʻllanishida tasviriylilik mavjud. Agar unga koʻplik qoʻshimchasi qoʻshilsa, oddiy soʻroqqa aylanishi mumkin. Ritorika esa fermer va tadbirkor soʻzlarining birlikda qoʻllanishi oqibatida yuzaga chiqqan. Koʻplik koʻrsatkichi –lar umumlashtiruvchilik, yaxlitlik maʼnolariga xizmat qiladi: ayollarimiz, otaxonlarimiz, onaxonlarimiz, opa-singillarimiz, veteranlarimiz kabi. U anglatadigan iliqlik, oʻziga juda ham yaqin olish ottenkalari publitsistik matn manfaatlariga gʻoyatda mos keladi: Oqsoqol birodarlarim maqtanayapti demasinlar-u, Xoʻja mahallasida gulchilarimiz 16 gektar yerda gullarning 30 xil

ko'chatini yetishtiradilar. Bozorning bir qismi yangi savdo rastalari qurilayotgan bo'lsa, ko'chalarimiz ham tekislanib yangi bunyodkorlik ishlari bajarilayotir. Yangi loyihaning amalga oshirilishi bilan muammolarimiz barham topdi. Vakillarimiz bo'sh kelmadi («Zarafshon») singari.

OAVlari tiliga xos bo'lgan morfologik xususiyalar boshqa so'z turkumlarida ham kuzatiladi. Masalan, «Zarafshon» gazetasi materiallaridan har, hech, hamma komponentli olmoshlar publitsistik matnlarda faol ekanligi kuzatiladi: har tomonlama, har qanday, har bir, har yili/har yilgi, har xil, har kuni, har doim, har hafta, har on, har qanday, har qadamda, har tong, har oy, har safar, har gal; hech qanday, hech narsa, hech kim, hech yer, hech bir, hech ham; hamma joyda, hamma gap, hamma narsa, hamma yer, hamma joy kabi.

Ilmiy adabiyotlarda OAVlari tili uchun hozirgi zamon, yaqin o'tgan zamon, hozirgi-kelasi fe'llarini qo'llash xos ekanligi aytiladi. Ularning biri ikkinchisiga nisbatan faolligi haqida gapirish mushkul, ammo ma'lum bir janrlar uchun fe'lning ma'lum bir zamon ko'rsatkichlari xoslanganligini aniqlash mumkin. Masalan, «Zarafshon» gazetasining «Bir jumlada» rubrikasi uchun fe'lning o'tgan – yaqin o'tgan zamon shakli xos: jo'nab ketdi, zarar bilan yakunladi, ish boshladi, majbur bo'ldi, majlis o'z ishini boshladi, ma'lum qildi, navbatdagi bosqichga yo'llanma oldi, namoyish etdi, rasman e'lon qildi, ratifitskatsiya qildi, tadbir bo'lib o'tdi, taqdim etdi, taklifni o'rtaqa tashladi, qaror qildi, hayotdan ko'z yumdi kabi.□

Axborot xarakteridagi materiallar bayonida sifatdoshning –gan shakli ham ishtirok etib, uning yordamida o'tgan zamon, aniqrog'i, uzoq o'tgan zamon mazmunini ifodalovchi gaplar tuzilgan: Shu tufayli ta'lim muassasalari vaqtincha yopib qo'yilgan. «Nikkei» nashriyotining yozishicha, bunga mazkur mamlakatda uning mahsulotlariga talablarning oshib borayotgani sabab bo'lgan. Mamlakatning Elazig' muzofotida yuz bergan zilzilaning kuchi Rixter shkalasi bo'yicha olti ballni tashkil etgan. Tabiiy ofat oqibatida 50 dan ortiq odam halok bo'lgan, qariyb 100 kishi tan jarohati olgan. Hududdagi oltita qishloq vayronaga aylangan («Xalq so'zi») kabi.

Axborotni uzatish jarayonida fe'lning zamon ko'rsatkichlari ishtirokida shakllangan ushbu gaplar umuman xabarni anglatish nuqtai nazaridan o'zaro farqlanmasa-da, stilistik jihatdan farqlanadi. –di yordamida ifodalangan o'tgan zamon ma'nosidagi harakatning bajarilishida (ketdi, yakunladi, boshladi, bo'ldi, qildi, oldi, etdi, o'tdi, tashladi, yumdi) qat'iyat, aniqlik, ishonch ottentalari mavjud bo'lib, ularning amalga oshishida material muallifi go'yo shaxsan ishtirok etganlik ma'nosi anglashilib turadi. –gan bilan hosil qilingan fe'llarda (qo'yilgan, bo'lgan, tashkil etgan, olgan, aylangan) esa ishtirok etganlik ma'nosi yo'qoladi, muallif bayonda passiv hamda neytral pozitsiyani egallaydi va bo'lib o'tgan voqeani hikoya qilib beradi.

Xabarning aniq va lo'nda bo'lishi talabi undagi fe'l ko'rsatkichlarining qo'llanishiga ta'sir ko'rsatishi ham tabiiydir. Zamon ko'rsatkichlari vaqtning bir parchasini ajratib va jarayonning qachon amalga oshganligi yoki oshishini aniq

ko'rsatishga xizmat qiladi. Qiyoslaymiz: musobaqa yakunlandi, g'oliblik uchun o'zaro bellashdi - musobaqa yakunlanadi, g'oliblik uchun o'zaro bellashadi. Shu ma'noda birinchi (ikkinchi va uchinchi) o'rinni qo'lga kiritdi, sportchilarga omad tiladi, deyish mumkin bo'lgani holda, birinchi (ikkinchi va uchinchi) o'rinni qo'lga kiritadi, deyish to'g'ri bo'lmaydi. Sportchilarga omad tilaydi, deyilganda ham stilizatsiya ro'y beradi, kelasi zamon shakli hozirgi zamon ma'nosini anglatadi: Faxriylarmiz yurtdoshlarimizni kuzatar ekan, sportchilarimizga omadlar tilaydi kabi.

OAV tilida yana shunday holatlar kuzatiladiki, bayon jarayonida fe'lning zamon shakllariga murojaat qilishda bir xillik yoki izchillik bo'lmaydi. Fe'lning bir zamon shaklidan ikkinchisiga o'tib turiladi. «Zarafshon»dan olingan «Mahalla markazimiz bo'lsa», deb nomlangan parchaga murojaat qilamiz. Unda bayon davomida deymiz, deydilar, havas qilamiz, to'planishib gurunglashadilar, orzu bo'lib qolgan, qabul qiladi, o'rta tashlandi, aytili, bahor kelayotir, yordam ko'rsatar singari fe'l shakllari ishlatilgan. Ular ikki holatdagina o'z ma'nosida, ya'ni hozirgi va kelasi zamon ma'nolarida qo'llangan: o'rta tashlandi, aytili; bahor kelayotir, yordam ko'rsatar. Ammo qolgan o'rinlarda ular boshqa zamon ma'nosini anglatishi bilan o'zida ma'lum stilistik yuk tashigan. Masalan: deymiz, deydilar – kelasi zamon, ammo zamonsizlik – hamma zamonlarda ma'nosida; havas qilamiz, to'planishib gurunglashadilar – kelasi zamon, ammo o'tgan va hozirgi zamon ma'nosida; orzu bo'lib qolgan – o'tgan zamon, ammo hozirgi zamon, davom etib kelayotganlik ma'nosida; qabul qiladi – kelasi zamon, ammo hozirgi zamon, davom etib kelayotganlik ma'nosida. Tahlildan shunday xulosa kelib chiqadiki, fe'l shakllarining noizchil xarakteri bayondagi tarqoqlik bilan emas, balki muayyan stilistik maqsadlar bilan bog'liq. To'g'ri, xat mualliflari «stilistik maqsad» tushunchasidan bexabar bo'lishlari mumkin. Ammo tilimizda yillar davomida shakllangan va me'yorlashgan ko'pma'nolilik va tagma'nolilik fe'llarning bu keltirilgan ko'rsatkichlari almashinuvida amalga oshganligi uning boy imkoniyatlarining bir ko'rinishi sifatida baholanadi.

Matndan masalaning yana bir jihatiga aniqlik kiritish mumkin bo'ladi. Kommunikatsiyaning ommaviy xarakteri matn stilistikasiga ta'sir ko'rsatgan. Bu yerda muallif ham, adresat ham ommaviy xarakterga ega. Garchi xatga uch kishining imzosi qo'yilgan bo'lsa-da, mualliflar ko'pchilik nomidan, hamfikrlar nomidan gapirmoqda. OAVlarining ko'pchilik janrlariga bu xususiyat xos.OAVlari tilida biz olmoshi qo'llanishining chastotasi yuqoriligi ham shundan kelib chiqadi: Bankning bu xil qat'iyatini biz ham qo'llab-quvvatlaymiz. Buni qarangki, bizga qanchalik aql bovar qilmas ish bo'lib tuyulmasin bu urinish behuda emas ekan («Zarafshon») kabi. Ayni paytda, biz ning men o'rnida qo'llanishi ham OAV tiliga xos xususiyatdir: «Navro'z – 2010» hududiy ko'rik-tanlovlari ikki bosqichda bo'lib o'tadi, – deydi biz bilan suhbatda viloyat madaniyat va sport ishlari boshqarmasi boshlig'i («Zarafshon»). Har ikki holatda ham mazkur olmoshning nutqqa ulug'vorlik, ko'tarinkilik berayotganligini payqash qiyin bo'lmaydi.

Aytilganlarga qo'shimcha sifatida o'zbek tili publitsistikasining shakllanish

bosqichida soʻz yasashning kalʼkalash usuliga koʻproq murojaat qilinganligi, ijtimoiy-siyosiy atamalar asosan –chi (terrorchi, qoʻporuvchi), –parast (aqidaparast), –parvar (millatparvar), –xona (devonxona, bojxona), –noma (axborotnoma, maʼlumotnoma), –dor (hissador), –kor (tadbirkor) qoʻshimchalari yordamida yaslashini taʼkidlashimiz mumkin. Bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki, tilimizning morfologik shakllari PU doirasida adabiy til meʼyorlariga amal qilgan holda qoʻllaniladi. Ayrim ot, olmosh va feʼl koʻrsatkichlarining qisqacha tahlili ularning PUda qoʻllanilishida uslubning janr xususiyatlaridan kelib chiqib, muayyan chegaralanishlar sodir boʻlishini koʻrsatadi. Publitsistik uslubning sintaktik xususiyatlari. Oʻzbek tili Fularida sintaktik kategoriyalarning amal qilishida ham umumiylik, ham xususiylik mavjud. Bu qonuniyat PUga ham daxldor. Xususiylikning namoyon boʻlishi OAVlarining janr xususiyatlariga bogʻliq. Shu maʼnoda ekstralingvistik omillarga ham bogʻliq boʻlgan holda radio, televideniye va gazeta-jurnallar tili va bayon uslubi bir-birlaridan farqlanadi. Masalan, radio nutqini olaylik. Soha tadqiqotchilarining radiojurnalistikaga oid ishlarda «uzun jumlar, kirish va ergash gaplarga radio chiday olmaydi», «ergash qoʻshma gaplar radioning dushmani» singari fikrlarini eslaylik.

Teleradio nutqida ogʻzaki nutq xususiyatlari mavjud boʻlsa-da, kitobiy nutq elementlari qoʻllanilishi ustunlik qiladi. Lekin kitobiy sintaksisning sifatli va ravishdosh oborotlar, kiritma gaplar kabi til birliklarining qoʻllanishi nutqda gʻalilikni keltirib chiqarishi mumkinligini eʼtibordan chetda qoldirib boʻlmaydi.

Sintaktik xususiyatlariga koʻra gazeta va jurnal tili radio-televideniye tilidan anchagina farqlanadi. Har bir material ustida bemalol oʻylash, kerakli joylarga oʻzgartishlar kiritish va tahrir qilish imkoniyati matubot tilining bir qadar mukammal boʻlishiga yordam beradi.

Bu imkoniyatlarni ishga solish gazeta uchun tayyorlangan materialni nomlashdan boshlanadi. Yana «Zarafshon» gazetasi materiallariga murojaat qilamiz. Iboralar va xalq maqollari yoki shu xarakterdagi gaplar, soʻroq va undov gaplarning materialga sarlavha sifatida keltirilishi tasviriylilik talabi bilan boʻladi: Suvsiz hayot munavvar boʻlmas. Sogʻliq – oʻzingizga bogʻliq. Hut kirdi – yer ostiga dud kirdi. Mutolaa – muolaja singari sarlavhalar ixcham tarzda materialning mohiyatini ochib beradi.

Shirkatdan shikoyat qilish oʻrinlimi? Toʻylarimiz oʻzimizga xosmi? «Shaddod qizlar» kim ekan? Ajdodlarimiz ulkan boʻlishganmi? Kim boʻlmoqchisan, bitiruvchi? Tomorqadan qanday foydalanayapmiz? Inson qayta dunyoga keladimi? Ixtilofning sababi nimada? singari soʻroq gaplar shaklida nomlangan sarlavhalar oʻzida bir necha vazifalarni tashiydi. Birinchidan, muammo oʻrtaga qoʻyiladi. Ikkinchidan, u sharhlanadi. Uchinchidan, muammoning yechimlari topiladi va tavsiyalar beriladi. Toʻrtinchidan, oʻquvchining diqqatini tortish osonlashadi. Bularning barchasi gazeta sarlavhalarining tasviriyligini belgilaydi.

Soʻroq gaplarning mahsuldor ishlatilishi, ularning murojaat va dialog

shaklida bo'lishi, bunda savol beruvchi ham, javob beruvchi ham muallifning o'zi hisoblanishi: G'urur nima o'zi? Rangi qanaqa? U hammada birday bo'ladimi yoki aksinchami? Menimcha, g'ururli odam mamlakat miqiyosida amalga oshirilayotgan har qanday muvaffaqiyatni o'ziga tegishli deb biladi va undan quvonadi («Xalq so'zi»), uyushiq bo'lakli gaplarga ko'proq murojaat qilinishi: Chunki o'qituvchi zoti mashaqqatli mehnati, hayotiy tajribasi, beqiyos mehri bilan yosh avlodga faqat ilm-fan sirlarini o'rgatib qolmay, uning yuragida Vatanga muhabbat, ajdodlar ruhiga hurmat, el-yurtga sadoqat kabi yuksak tuyg'ularni kamol toptirishda ibrat va namuna bo'ladi («Xalq so'zi»), undovlarning, kirish bo'laklar va kirish gaplarning: Vaholanki, ular o'z mutaxassisligi bo'yicha qayerga joylashishni bilmay yurishgandi. Albatta, bu bilan muammo bartaraf etildi, deb aytish noto'g'ri bo'lar edi («Ishonch») bilan yoki shaxsi umumlashgan gaplarning keng qo'llanishi bilan ajralib turadi.

Sarlavha-gap tarkibidagi har bir so'zning muayyan tovush bilan boshlanishi ham ohangdorlik, binobarin, tasviriylik uchun xizmat qiladi. Elni ergashtirgan Eliboy aka, Turmush – to'rt musht... bo'lmaydi. Sara yigitlar sardori, Hamkorlikda hikmat ko'p («Zarafshon») kabi sarlavhalardagi e,t,u-o',r,s,h kabi tovushlar uyg'unligi nafaqat ohangdorlikka, o'qimishlilikka, balki el-Eliboy, turmush-to'rt musht, sara-sardor, hamkor-hikmat oppozitsiyasidagi tenglikning go'yo obrazli ifodasi sifatida namoyon bo'ladi.

Axborot xarakteridagi materiallarda esa sarlavhalar darak mazmunida bo'ladi: Viloyat kegashi sessiyasi, Senatorlar saylandi, Hududiy dastur qabul qilindi, Vazifalar belgilab olindi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasida («Zarafshon»). Ularda tasviriylik bo'lmaydi. «Zarafshon» matnidagi darak xarakterida bo'lgan va tasviriylik ottenkasi bo'lmagan ikki gapning sarlavha sifatida yonma-yon qo'yilishi ham tasviriylikni vujudga keltirgan: Akalar xizmatdan qaytdi. Ukalar xizmatga yo'l oldi. Gaplar tarkibidagi aka-uka, qaytdi-yo'l oldi oppozitsiyasi vujudga keltirgan sintaktik parallelizm ana shu tasviriylikka xizmat qilgan va jurnalistning mahorati mahsuli bo'lib hisoblanadi. M.N.Kojina o'quvchiga ta'sir ko'rsatishning bu kabi usullariga poetik sintaksis namunalari sifatida qaragan.

Buyuk shoirga ehtirom, Sinovlarda toblangan iroda, Mehnatdan qadr topgan muallim, Muallimlarning muallimi, Yigit omon bo'lsa... singari sarlavhalarda ham buyuk, ehtirom, toblanmoq, qadr so'zlari hamda qiyoslash va ko'p nuqta tufayli tasviriylik vujudga kelgan. Ayrim sarlavhalar sub'yektiv munosabat mazmunida bo'ladi: Nolish emas, g'ururlanish kerak. Muammoni oqilona hal qilish kerak. Undov gapli sarlavhalar ham da'vat xarakterida bo'ladi: Yordamga qo'lingni cho'z! Temir yo'ldan ehtiyot bo'ling!

Keyingi paytlarda gazetalarning o'qimishlilikini oshirish maqsadida jurnalistlar turli usullardan foydalanmoqdalar. Bu holat sarlavhalarda ham kuzatiladi. Masalan, maqolaning birinchi gapidan sarlavha sifatida foydalanilmoqda. Gapning bir qismi bir shriftda katta qilib, ikkinchisi boshqa

shriftda undan kichik qilib yozilmoqda: Baxt – unga intilib yashashda deydi shifokor Abduhalim Ashurov. Yurtga xizmat fidoiylkdir deydi iqtidorli pedagog-muhandis Erkin Saidmurodov. Inson hayoti – oliy qadriyat u huquq bosh qomusimizda belgilab qo'yilgan, «Birni ko'rib fikr qil, birni ko'rib shukur qil» safar chog'ida bu naqlning nechog'lik to'g'riligiga ishonch xosil qildik kabi.

Matn boshida muhim bir fikrni keltirish ham hozir odat tusiga kirib bormoqda. Alohida shriftda yozilgan bu kichik matn asosiy matnning preambulasi hisoblanadi va o'quvchini qiziqtiradigan, diqqatini materialga jalb qila oladigan vositaga aylanadi. Uni o'qib o'quvchi o'qishni davom ettirish yoki ettirmaslik haqida xulosaga keladi: Ishonch yorlig'i topshirildi. O'zbekiston Respublikasining Belgiya Qirolligidagi Favqulodda va muxtor elchisi Baxtiyor G'ulomov ushbu mamlakat qiroli Alʼbert II ga ishonch yorlig'ini topshirdi («Xalq so'zi»).

Gapning uyushiq bo'laklari: Badiiy ijod bilan faqat shoir va yozuvchilar, jurnalistlarga emas, shifokorlar, iqtisodchilar, dehqon va hunarmandlar ham shug'ullanmoqdalar; sifatdash va ravishdash oborotlar: Shukrki, hozirda kitobxon xohlagan mavzudagi, istalgan tildagi adabiyotlarni olib o'qishi mumkin; ergash gapli qo'shma gaplar: Ko'rinib turibdiki, badiiy asarlarni uzluksiz mutolaa qilmay turib yod olish qobiliyatini bu darajada kuchaytirish mumkin emas; muallif fikrini reallashtiruvchi modal xarakterdagi kirish so'z va birikmalar: aytaylik, aytish mumkinki, albatta, aslini olganda, zarur, kerak bo'lsa, kerak, lozim, modomiki, mumkin, nima deganda, sir emaski kabilar vaqtli matbuot tilida faol uchraydigan sintaktik hodisalar hisoblanadi. A. Mamajonov publitsistik matnlarda yoyiq sodda gaplar chastotasi qo'shma gaplarga nisbatan yuqori ekanligini aniqlagan. J. Djumabayeva o'zining «Mustaqillik davri publitsistik asarlaridagi qo'shma gaplar talqini» nomli ishida mazkur uslubda qo'shma gaplarning teng va tobe tarkibli tipik turlari ko'p qo'llanishini, teng va tobe tarkibli qo'shma gaparlarda birinchi qismlar yoki ikkinchi qismlari bir tarkibli gaplardan iborat bo'lganda, odatda, axborot yetkazish, ta'kidlash, voqealarning ketma-ket bajarilganligi, xulosalash, urg'u berish, da'vat etish, izoh berish, qat'iylik, eslatish kabi qator mazmun munosabatlari ifodalanishini aniqlagan. Shuningdek, nutq ommaga qaratilganligi tufayli shaxssiz gaplar P. Uning xususiyati sanaladi: Kimki yoshligidan munosib tarbiya va ta'lim olsa, hayotda to'g'ri yo'lni topa oladi, o'ziga ham, jamiyatga ham foyda keltiradi kabi. Kamdan-kam holatlarda uchrasa-da, inversiya ham tasviriylikka bo'lgan intilishning oqibati sifatida namoyon bo'ladi: Xo'sh, bunday yonilg'ini qayerdan olish mumkin? Oydan, deb javob berishadi olimlar. Anglashiladiki, publitsistik matnlarda yuz beradigan sintaktik o'zgarishlar tasviriylilik bilan bog'liq. Odatdagi standart gap qurilishi, shtamp xarakteridagi jumalarning qo'llanilishi xabar mazmunidagi materiallarga xos. Shuning uchun ham M. N. Kojina sintaksisdagi ekspressiv vositalar va standartlar uyg'unligini stilistikaning prinsiplaridan biri sifatida qaragan. Shunday qilib, garchi P. Uning o'z sintaksisi bo'lmasa-da, sintaktik kategoriyalarning mazkur uslubga xos matnlarda qo'llanishida alohidaliklar mavjud va ular janr xususiyatlari bilan birgalikda namoyon bo'ladi. Publitsistik uslub va me'yor. Ushbu mavzuga oid

fikrlarimizni «Til ta'limi va me'yor» nomli ishimizda ham aytib o'tganmiz. O'zbek adabiy tiliga tegishli bo'lgan, barcha vazifaviy uslublar uchun baravar sanaladigan umumiy me'yorlar PU doirasida ham amal qiladi. Ayni paytda o'zbek tilida shunday vositalar borki, ularning qo'llanish chegarasini bir soha yoki bir FU doirasida belgilab bo'lmaydi. Ular bir uslub doirasida yoki ma'lum sohada bir ma'nosi bilan me'yorlashgan bo'lsa, ikkinchi bir ma'nosi bilan boshqa uslub yoki sohada me'yorlashgan bo'ladi. Masalan, PUda – dangasaning falsafsi, IUda – Sharq falsafasi, falsafa ilmi, SUda – falsafa o'qimoq; PUda – jig'ildon operatsiyasi, IUda - eksport-import operatsiyasi, neft-gaz operatsiyalari, Berlin operatsiyasi, Kursk yoyi operatsiyasi, exinokokk operatsiyasi; RUda – valyuta operatsiyasi, harbiy operatsiya kabi. Yoki ega, kesim, suv, aylana, zamon, asos, o'q, tekislik, sirt singari birliklar umumiste'moldagi so'zlar bo'lish bilan birga, IUda ega, kesim tilshunoslikda, aylana, sirt, tekislik, o'q geometriyada, zamon falsafada, asos qurilish-me'morchilikda, suv kimyoda atama sifatida me'yorlashgan. PUda esa ular har ikki ma'nosi bilan ham ishtirok eta oladi. PUga doir so'z va iboralar me'yorlashuvi davrga qarab ham o'zgarib boradi. Masalan: mustaqillikkacha avtonom, adres, aktiv, veteran, vizit, gimn, ideologik, injener, internatsional, kanikul, kollektiv, komitet, meditsina, oblast, rayon, sekretar, sovxoz kabi so'zlarning qo'llanishi tilimiz uchun rus tilining bevosita ta'sirida me'yor sanalgan bo'lsa, mustaqillikdan keyingi davrda ularning mavqei pasaydi yoki butunlay yo'qoldi. Ularning o'rnini muxtor, manzil, faol, faxriy, tashrif, madhiya, g'oyaviy, muhandis, baynalminal, ta'til, jamoa, qo'mita, tibbiyot, viloyat, tuman, kotib singari dubletlari egalladi va me'yorlashdi. Kolxoz va sovxoz kabi so'zlar ushbu tartibdagi boshqaruv tizimi yo'qolishi munosabati bilan qo'llanilmaydigan bo'ldi va butunlay tilimiz arxiviga ketdi. Adabiy til me'yorlari nuqtai nazaridan yozma nutqda ham, og'zaki nutqda ham bir xillikka erishish talab etiladi. Butun bir millat ana shu me'yorlarga rioya qilgan holda tildan foydalansa, uni bir xil talaffuz qilishga yoki yozishga erishilsa, bu juda katta yutuq bo'lib hisoblanadi. Ammo hayot bu yutuqqa erishish g'oyatda mushkul vazifa ekanligini ko'rsatmoqda. Chunki xalqimiz shevachilik asoratlaridan hamon qutula olgan emas. Aksincha, ba'zi holatlarda kuchaymoqda. Toshkent shevasi elementlarining radio-televideniye, kino, kinodublyaj tiliga faol kirib kelayotganligi kishini tashvishga soladi. Adabiy tilga, ona tilimizga bepisandlik, shevalarni undan ustun qo'yish kayfiyatning ayrim taniqli ijodkorlarda, masalan, O'zbekiston xalq artisti Murod Rajabovda yaqqol sezilmoqda. Remiks, imidj so'zlarini qo'llash o'zini ko'rsatishga intilishdan boshqa narsa emas. Me'yoriy buzilishlar, asosan, FU materiallarining og'zaki ifodasida ko'proq kuzatiladi. Bu esa yozma nutqqa nisbatan og'zaki nutqning o'zbek tilida talablar darajasida takomillashmaganidan dalolat beradi. Tildan foydalanishda bir xillikka va adabiy me'yorlarga asoslangan yuksak nutqiy madaniyatga erishish qanchalik qiyin bo'lishidan qat'iy nazar til madaniyatining bu darajasiga bo'lgan intilish davom etaveradi va bunda OAV tili hamisha namuna vazifasini o'tayveradi. PU haqida ushbu aytilganlar muayyan xulosalarga kelishimizga imkon beradi. Mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotida g'oyat muhim o'rin tutadigan publitsistika va uning barcha janrlari tildan foydalanish jarayonida yagona PU tizimda birlashadi. Muloqotning turli

shakllarida tilning amal qilish qonuniyatlarini bilish, nutqiy-stilistik hodisalarga sistem yondashish har bir konkret vaziyatda, jumladan, teleradio eshittirishlarida ham, vaqtli matbuotda ham ulardan maqsadga muvofiq tarzda foydalanishni keltirib chiqaradi. Teleradioeshittirishlar va vaqtli matbuot muxbirlari, sharhlovchilari, muharrirlari, eshittirishni olib boruvchilar va diktorlar nutqida til me'yorlarini aks ettirish, matnlar ustida ishlash, maxsus lingvistik bilimlar kompleksini egallash adresantning nutqiy madaniyati takomillashuviga ko'maklashadi. Zero, nutq madaniyati – bu, avvalo, fikrlash madaniyatidir.

Televideniye va radio oraqli uzatiladigan eshittirishlar, vaqtli matbuotda beriladigan materiallar zamonaviy texnik vositalar tufayli standartlashib, me'yorlashib, ularni ommaga yetkazish tobora osonlashib bormoqda. Elektron OAVlari esa ommaviy kommunikatsiyaning alohida usuli sifatida hayotimizga kirib keldi.

Mustaqillik davri OAVlari va matbuoti materiallari mazmunan o'zgardi, unda o'zbek xalqining turmush tarzi va ruhiyati o'z aksini to'laligicha topmoqda. Matbuot erkinligi, yoritiluvchi mavzular ko'lamining kengligi OAVlarida til demokratizatsiyasiga keng yo'l ochib bermoqda.

7-Mavzu: BADIY USLUB

Reja:

1. Badiiy uslubning vazifalari.
2. Badiiy uslub vazifasi haqida qarashlar.
3. Badiiy uslubning boshqa uslublar tizimidagi o'rni.
4. Badiiy uslubning morfologik-sintaktik xususiyatlari.

Mavzu uchun tayanch atamalar: Badiiy uslub, badiiy adabiyot stilistikasi, adabiy janr, yozuvchi uslubi, BU-da morfologik xususiyat, BU-da sintaktik xususiyat.

O'zbek tili FUlari tizimida qaraladigan uslublardan biri BUdir. Ushbu uslub ham o'zbek tilshunosligida tadqiqot ob'yekti bo'lgan va uning lingvistik shart-sharoitlari to'g'risida muayyan xulosalar bayon qilingan. □ Bu o'rinda bevosita ana shu manbalardan foydalanildi. Tildagi boshqa FUlardan prinsipial farq qiluvchi lingvistik va ekstralingvistik belgilar yaxlitligi hamda uning muhim bir vazifaga – badiiy-estetik vazifani bajarishga qaratilgan bo'lishi va ijtimoiy hayotning ma'lum bir sohasiga xizmat qilishi BUni mustaqil kategoriya sifatida qarashimizni taqozo qiladi. Ilmiy adabiyotlarda badiiy uslub ning dubletlari sifatida badiiy-belletristik uslub, badiiy nutq, badiiy nutq uslubi, badiiy adabiyot tili, badiiy adabiyot uslubi,

badiiy asar tili, badiiy asar uslubi, adabiy-badiiy uslub kabi terminlar ishlatilib kelinmoqda va bunday qo'llanishda ular orasida farq sezilmaydi. Biz badiiy uslub va ba'zan badiiy nutq yoki badiiy nutq uslubi terminlarini qo'llashni ma'qul deb hisoblaymiz va asosan badiiy uslub terminidan foydalanamiz. Ammo badiiy adabiyot uslubi, adabiy asar badiiy uslubi va yozuvchi uslubi atamalarini badiiy uslub tushunchasi bilan tenglashtirish to'g'ri emas. Badiiy adabiyot uslubiga asarning mavzusini, obrazlar tizimini va kompozitsiyasini tahlil qilish masalalari kiradi. Yozuvchi uslubi esa uning dunyoqarashini aks ettiradi va uni asarning g'oyaviy-obrazli mazmunidan ajralgan holda olib qarab bo'lmaydi. Badiiy uslubni (BU) o'zbek tili Fularining alohida bir ko'rinishi sifatida qarashga asos bo'luvchi tamoyillar va ekstralingvistik omillar borki, ularni o'rganmasdan turib mazkur uslubning lingvistik xususiyatlarini tahlil qilish qiyin kechadi.

Ushbu uslub xizmat qiladigan soha – badiiy adabiyot bilan bog'liq bo'lgan badiiy adabiyot stilistikasi tushunchasiga, adabiy janrlar, yozuvchi uslubi singari omillarga, shuningdek, uning tilimizdagi boshqa uslublarga bo'lgan munosabati ekstralingvistik omillarni belgilab beradi. Badiiy adabiyot stilistikasi va badiiy uslub munosabatini olib qaraylik. Adabiy til umumxalq tilining qayta ishlangan va eng madaniy ko'rinishi sifatida ma'lum millat ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida, jumladan, badiiy ijod sohasida ham bab-baravar xizmat qilaveradi. Badiiy adabiyotda u g'oyaviy mazmunni shakllantiruvchi material hisoblanadi. V.V. Vinogradov stilistikaning asosiy yo'nalishlarini belgilab berganida, uning uchinchisi – badiiy adabiyot stilistikasining ob'yektini ham aniq ko'rsatib o'tgan edi: «Badiiy adabiyot stilistikasining maqsadi ma'lum tahlil yo'li bilan adabiy asarni tashkil etishning qonuniyatlari va usullarini ochishdir, yozuvchining individual uslubini, adabiy maktablar, badiiy asarlar va shu kabilarning tuzilish tizimidagi individual o'ziga xosligini tasvirlab berish va aniqlashdir». Demak, badiiy adabiyot stilistikasi yozuvchi yoki uning ma'lum asari, adabiy maktablar, yo'nalishlar hamda ma'lum davr adabiyotining uslubiy o'ziga xosliklarini o'rganadi va bu stilistika adabiyotshunoslik stilistikasi deb ataladi. Badiiy asar matnini tahlil qilishning tilshunoslik fani manfaatdor bo'ladigan boshqa bir jihat bor va uni ikki yo'nalishga ajratib o'rganishga to'g'ri keladi. Birinchidan, badiiy asar matnidan tilni sinxronik va diaxronik yo'nalishda o'rganishda, tilshunoslikning esa nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqishda, uning ma'lum davrdagi yoki hozirgi paytdagi ahvolini, taraqqiyot qonunlarini o'rganishda, turli kategoriyalarni ilmiy tahlil qilishda material sifatida foydalaniladi.

Ikkinchidan, badiiy asar materialidan tilda yuz berayotgan sifat o'zgarishlari, ya'ni ma'no taraqqiyotini aniqlash maqsadida foydalaniladi. Bunda tadqiqotchining o'z oldiga qo'ygan maqsadidan kelib chiqib, tildagi barcha birliklar qamrab olinadi va ular alohida bir prizmadan – stilistik prizmadan o'taziladi. M.N. Kojina ta'biri bilan aytganda, bu tekshirish til birliklari ichiga vertikal kirib boradi. □ Bu tadqiqotlarda til vositalarining o'z birlamchi ma'nolari emas, balki matniy, nutqdagi qo'shimcha ma'nolari, ularning bajargan vazifalari va

bu bajargan vazifalariga qarab uslubiy chegaralanishlari o'rganiladi. Milliy til boyligini, uning bugungi ahvolini begilashda katta rol o'ynaydigan bu yo'nalishni lingvistik stilistika deb ataydilar. Masalaga xuddi ana shu tarzda yondashilsagina badiiy asar tilini kim o'rganishi kerak – tilshunoslarmi yoki adabiyotshunoslar, degan munozaraga birmuncha aniqlik kiritiladi, deb hisoblaymiz. Garchi stilistikaning tarmoqlari sifatida tilshunoslik va adabiyotshunoslik (badiiy adabiyot) stilistikalari bir-biriga yaqin bo'lsalar-da, o'zbek filologiyasi fanida ularning chegarasi aniq belgilanishi kerak. Badiiy asar tilini tilshunoslik aspektida o'rganishning katta umumnazariy ahamiyati bor. Birinchidan, u ma'lum bir davr tilini, uning taraqqiyotini hamda Fularini o'rganishga yordam beradi, ikkinchidan, yozuvchining til materialidan foydalanishdagi individual o'ziga xosligini aniqlashga ko'maklashadi. Shuning uchun ham ko'pgina chet el tilshunoslari, jumladan, chex olimlari V.Matezius, L.Dolejel va K.Gauzenblaslar tilshunoslikni badiiy asar uslubini o'rganishning yadrosi deb hisoblaganlar.

Shu bilan birga, stilistikaning ikki tarmog'i sifatida lingvistik va adabiyotshunoslik stilistikalarining hal qilishi lozim bo'lgan o'z muammolari bo'lishidan qat'iy nazar, ular o'rtasiga «xitoy devori» qo'yish ham tilni o'rganishning amaliy maqsadlariga mos kelmaydi. Bu o'rinda A.V.Stepanovning quyidagi fikrlarini ma'qullaymiz: «Stilistika muammolari xarakteri tilshunoslar va adabiyotshunoslarning hamkorlikdagi harakatini yoki bir tahlilda ham tilshunoslik, ham adabiyotshunoslik va, bundan tashqari, yana san'atshunoslik mahoratini albatta mujassam qilishni talab etadi». □ Ana shu fikrning maqsadga muvofiq ekanligini ko'pchilik tilshunos olimlar ta'kidlaydilar va bu narsa tilning kommunikativ vazifasini – aloqa, xabar va ta'sir etishini dialektik bog'liqlikda olib qarashga hamohangdir.

Biz ham masalaga lingvistik stilistika pozitsiyasida turib yondashamiz. Uning qoida va talablaridan kelib chiqqan holda o'zbek tili funksional stilistikasida BU deb e'tirof etilib kelinayotgan uslubning mustaqil lingvistik kategoriya sifatida o'ziga xosligi nimadan iborat ekanligini, o'zi bilan yonma-yon yashab kelayotgan boshqa Fular bilan o'zaro munosabati va farqini, badiiy adabiyotda obrazlar yaratishdagi ishtiroki va xizmatlari nimalardan iborat ekanligini ko'rsatib berishga harakat qilamiz. Adabiy janrlar ham mazkur uslubning ekstralingvistik jihatlarini belgilab beradi. BUni she'riy, nasriy va dramatik nutq uslublariga, ularni yana o'z navbatida janrlarga bo'lib o'rganish mumkin. N.A.Baskakov turkiy tillarda BU namunalari asosan yozma shaklda mavjudligini va unda nazmiy hamda nasriy janrlarning ko'plab tur va xillariga aloqador namunalari aks etganligini qayd qiladi. Ekstralingvistik omillar sirasida yozuvchi uslub va uning BUGa munosabati masalasi ham turadi. Yozuvchining so'z ustida ishlashi – bu uning ijod jarayonida matnni qayta-qayta ko'zdan kechirishi, syujetning, obrazning, tasvir va bayonning ta'sirchan bo'lishi uchun mehnat qilishi demakdir. Sinonimlar va variantlarni ishlatish, so'zlarni qarama-qarshi va polisemantik, okkazional ma'nolarda qo'llash, neologizmlar yaratish ana shu jarayonning mahsulidir. Boshqa FULarga oid materiallarning hech biri bilan adabiy matn ustida ishlaganchalik mehnat qilinmasa

kerak. Shuning uchun ham asar muallifining til vositalarini qo'llashga bo'lgan individual munosabatini BUning o'ziga xos ekstralingvistik belgisi sifatida qarash tarafdorimiz. Har bir badiiy asar chinakam ma'noda xususiyydir. Badiiy uslub va tilning boshqa funksional uslublari o'rtasidagi munosabat. BU doirasida bahs-munozaralarga sabab bo'lgan jihatlardan biri uni tilning FUlari tarkibida qarash kerakmi-yo'qmi degan masaladir. Bu boradagi qarashlarga munosabatimizni «O'zbek tilining badiiy uslubi» nomli doktorlik dissertatsiyamizda bildirganmiz. Badiiy asarda til vositalarining qo'llanishini qat'iy bir qolipga solib bo'lmasligi, unda umumxalq tilidagi barcha elementlarning qo'llanishida chegaraning yo'qligi, xullas, badiiy matnda umumtil fondining va boshqa FUlarga xos bo'lgan birliklarning uchrashi ayrim tilshunoslarning uni Fular qatorida qarash masalasida ikkilanishlariga sabab bo'lgan. Aslida barcha Fular uchun xos bo'lgan vositalarning badiiy adabiyot tilida kelishining o'zini ham BUning xususiyyati sifatida qarash kerak. M.N.Kojina «BNni Fular doirasidan chiqarib tashlash tilning vazifasi haqidagi tasavvurimizni kambag'allashtiradi. Agar BNni Fular safidan chiqarib tashlasak va adabiy til juda ko'plab vazifalarda amal qiladi, deb hisoblasak, - buni inkor qilish ham mumkin emas, - estetik vazifa tilning vazifalaridan biri bo'lmay qoladi. Tildan estetik doirada foydalanish esa adabiy tilning oliy yutuqlaridan biridir», deganda tamoman haqdir. Tilning imkoniyatlari BU doirasida g'oyatda kengayadi. Uning badiiy-estetik vazifani bajarishi birinchi o'ringa chiqadi. Shuning uchun ham Sh.Balli BUni estetik kategoriya deb tushungan va uni stilistikaga qarama-qarshi qo'ygan edi. Har bir FU o'zining alohida lingvistik vositalarga ega bo'lishi bilan birga, bu vositalar uslublarda bir-biriga o'tishiga, ular o'zaro oziqlanishiga ham yo'l qo'yiladi. Uslublararo farqlar va umumiylik BUni IU va Rular bilan solishtirganda yana ham ko'zga tashlanadi. Bu uslubda zaruriyatga qarab boshqa uslub elementlaridan ham foydalanish mumkin. Masalan, SUGa xos vositalarning badiiy matnlarda uchrashiga e'tibor beraylik. Ularning ayrimlari nutq jarayonida shunchaki so'zlashuv tili birligi sifatida qatnashib qolmasdan, balki ko'chma ma'nolarda ishlatilib, kutilmagan ekspressiyaga ega bo'lib qolishi, semantikasida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'lishi mumkin. Masalan, A.Qahhorning «Sinchalak» asarida Bir oz shabadalab, kolxozga boshqa eshikdan kiring demoqchiman, degan gap bor. Saida tilidan aytilgan shamollamoq so'zining sinonimi sifatida ishlatilgan shabadalamoq birligi o'quvchiga favqulodda estetik zavq beradi. Bilib-bilmay noto'g'ri yo'lga kirib qolib, Zulfiqorovning ikkinchi xotiniga aylanib qolgan Mehriqa kolxoz partiya tashkiloti kotibi bergan maslahatning badiiy ifodasi bo'lgan bu so'z poklanish ma'nosini beradi. Boshqa eshikdan kirmoq iborasi ham shu fikrning mantiqiy davomi bo'lib, Saida aytgan keyingi Boshqa eshikdan kirib yaxshi ishlangiz, egri yo'ldan borib erisholmagan martabaga to'g'ri yo'ldan borib erishasiz degan gaplarining obrazli ifodasidir. Bunday holatlarda til birliklarining stilistika vazni oshib ketadi, matnda alohida emotsional-ekspressiv qimmatga ega bo'ladi. Shuning uchun ham BUning boshqa Fular bilan o'zaro munosabati, o'xshash va farqli tomonlarini o'rganish funksional stilistika uchun qiziqarli material beradi. BN asosan yozma tarzda shakllanadi va, binobarin, uning qonuniyatlariga bo'ysunadi. Shuningdek, nolisoniy omil sifatida ohangning ham

ma'lum ahamiyati bor. Masalan, dramatik asarlarda lingvistik jihatdan alohida bir nutq shakllanadi. Nutqning ixcham va lo'nda, SUGa xos an'anaviy va jonli til birliklarining faol bo'lishi taqozo qilinadi. Gap asosan to'liqsiz shakllanadi, o'rtadagi munozara gaplarning tugamasdan qolishiga yoki savol bilan tugashiga sababchi bo'ladi. Modal va undov so'zlarga, ritorik gaplarga, sub'yektiv bahoni ifodalovchi maxsus birliklarga tez-tez murojaat qilinadi. Muallif remarkalari va turli replikalar ham dramatik uslubga xos murakkabliklar har bir til elementining alohida ohang bilan talaffuz etilishini taqozo qiladi. Boshqacha aytganda, yozma nutqda ohangning imkoniyatlari chegaralangan bo'lsa ham, she'riyatda, dramatik asarlarda uningsiz ko'zda tutilgan badiiy-estetik maqsad batamom amalga oshmaydi.

Dialogik nutqning tabiati va bu nutqning badiiy-estetik vazifani bajarishga qo'shgan hissasini yaxlit holda o'rganish ancha murakkab ish hisoblanadi. Chunki yozuvchi tomonidan tanlangan mavzu, suhbatdoshlarning dunyoqarashi, madaniy saviyasi, jamiyatda tutgan mavqei, xarakteri, kayfiyati, voqealar bayon qilinayotgan makon va zamon hamda nutq jarayonida vujudga kelgan dramatik holat asar g'oyasi va mazmunining tomoshabin yoki kitobxon tomonidan to'liq o'zlashtirilishiga xizmat qiladigan, ahamiyatiga kam darajada qarab bo'lmaydigan ekstralingvistik omillar sanaladi.

Gapda so'z tartibi muhim ekstralingvistik omil sanaladi. Masalan, prozaik asarlar uchun o'zbek tilining odatdagi so'z tartibi xos. Ammo personajlar nutqida bu tartibning buzilishini inkor qilib bo'lmaydi. Kuchli his-hayajon ifodasi odatdagi tartibning buzilish zaruratini keltirib chiqaradi. Poetik asarlarning shakllanishida alohida ekstralingvistik shart-sharoitlarning mavjud bo'lishi sintaktik birliklarning umumtil me'yori asosida amal qilishiga imkon bermaydi va shunday qilib, poeziyaning so'z tartibi erkin bo'lgan «o'z sintaksisi» vujudga keladi. BU ana shu xususiyatlari bilan boshqa FUlardan ajralib turadi. Buning o'zigagina xos bo'lgan ekstralingvistik omillarning mavjud bo'lishi esa uni mustaqil uslub sifatida qarashimizning muhim sharti bo'lib hisoblanadi.

Badiiy uslubning lingvistik xususiyatlari

Badiiy nutq doirasida til vositalarini qo'llashning ma'lum qoida-qonunlari ham amal qiladiki, ular bir tomondan mazkur uslubni boshqa FUlarga yaqinlashtirsa, ikkinchi tomondan, ulardan chegaralashga, farqlashga imkon beradi. Bu Buning fonetik, leksik-frazeologik, grammatik xususiyatlari va maxsus ifoda tasvir vositalarida ko'zga tashlanadi.

Badiiy uslubning fonetik xususiyatlari. Hozirgi o'zbek adabiy tilidagi assimilyatsiya, dissimilyatsiya, metateza, proteza singari ko'plab fonetik hodisalar, ya'ni tilning orfoepik me'yorlari nuqtai nazaridan bo'ladigan nutqiy o'zgarishlar BU uchun ahamiyatli emas.

Poetik hamda tarixiy mavzularda yozilgan prozaik asarlar tilida uchraydigan ayrim fonetik o'zgarishlarga BU me'yorlariga muvofiq keladi. Masalan:

- poetik asarlarda ba'zan so'z o'rtasidagi unli tovush tushirib qoldiriladi: so'ramoq – so'rmoq: Pishiqlabdi o'g'lini... Hay, hay... Sovchi bormay, rizolik so'rmay... (M.Ali). Bunday qo'llanish she'riy talablar, emotsionallik, tarixiylik kabilar bilan bog'liq. IU yoki SUda rizolik so'rma deyilmaganidek, yuqoridagi parcha Sovchi bormay, rizolik so'ramay tarzida shakllantirilsa, she'ning poetik ruhiga putur yetadi. Ammo bu o'zgarishni tilimizdagi sinkopa hodisasi bilan tenglashtirib bo'lmaydi. □ So'rmoq so'zida a unlisining aniq bir maqsadni ko'zlab tushirib koldirilgani esa ko'rinib turibdi;

- so'z o'rtasidagi undosh tovush orttirib talaffuz qilinadi: shabada – shabboda: Апрель. Olmaota. Tongotar. Jimlik. / Bir yengil shabboda oqadi ravon (U.Azim). Bu taxlit qo'llanish hozirgi o'zbek adabiy tilidagi ayrim undoshlarning qo'shaloq kelishi – geminatsiya hodisasidan matniy xarakteri bilan farq qiladi;

- [i>u]. So'z oxirida i unlisining u tarzida talaffuz qilinishi BUga xos bo'lib, jarangdorlik, tantanali ohang uchun xizmat qiladi: Qorong'u bu kechada sassiz / Kim o'ynaydi uni dastida? (U.Azim);

-[z>y]. So'z o'rtasida z tovushi y ga o'tadi: so'zlamok – so'ylamoq: Tasallilar so'ylading karaxt (U.Azim) kabi. She'riyatda so'zning bu shaklda qo'llanishining ma'lum sabablari bor va uni tilimizning talaffuz qonuniyatlari va tarixidan axtarish kerak bo'ladi. Badiiy asarlardagi z ning y ga o'tish holatlarini tilimizning orfografik qoidalariga zid bo'lmagan, faqat ohangdorlik ko'zda tutilib amalga oshirilgan ish sifatida baholanadi. Q.Mahmudov ham [z>y] hodisasining tilimiz tarixida mavjud bo'lganligini qayd etgan; □

-[q>g']. Bu hodisa ham tilimiz tarixida bo'lgan. □ Tilda ma'lum birlikning ayrim holatlardagi har ikki shakli – fonetik o'zgarishga uchragan va uchramagan varianti ham bab-baravar qo'llanilaverishi mumkin: yiroq-yirog'i, taroq-tarog'i, o'roq-o'rog'i, firoyq-firoyg'i, chiroq-chirog'i, quloq-qulog'i kabi. Bunday so'zga egalik qo'shimchalari qo'shilganda sodir bo'lgan o'zgarish adabiy til orfoepik me'yoriga mos keladi va uslubiy chegaralanishga ega emas. Ammo unga boshqa so'z yasovchi va forma yasovchi qo'shimchalar qo'shib, o'zaro teng variantlar paydo bo'lganda uslubiy chegralanishlar vujudga kelishi mumkin: so'roq-so'rog', tuproq-tuproq', yangroq-yangrog', chiroq-chiroq', yaproq-yaprog' kabi.

So'zlarning birinchi shakli uslubiy jihatdan betaraf bo'lsa, ikkinchisida – q ning g' ga o'tishida BUga xoslanish yuz bergan. Uni mumkin qadar muloyim, yumshoq talaffuz qilinadigan, jarangdor tovush bilan almashtirish ehtiyoji tug'iladi. Bu ehtiyojni talaffuzda unga yaqin bo'lgan, chuqur til orqa, sirg'aluvchi va jarangli undosh tovush g' qondira oladi. Hech qanday qo'shimchalar olmasdan q ning g' tarzida talaffuz qilinishi ham badiiy asarlarda uchraydi: yumshog', ushshog', toychoq', chiroq'/charog', qo'zichog' kabi. Ushbu ko'rib chiqqanimiz

ba'zi fonetik o'zgarishlar vaqt o'tishi bilan poeziyada me'yorlashgan.

Dialektal fonetik hodisalar badiiy adabiyot tilida ham mahalliy koloritni berishga, ham erkalash, hurmat singari qator ottenkalarni ifodalashga va boshqa turli badiiy-estetik vazifalarni bajarishga xizmat qilishi mumkin. Dialektal kolorit: Yashin akamlar ham sho'ttalar (O.Yoqubov); hurmat, erkalash: Halima ona meni ko'rib: «Opangizning yubileyiga keldingizmi, voy, aynanib ketay sizdan! – deb yelkamga qoqib qo'ydilar (O.Yoqubov); badiiy-estetik vazifa:...uka kechirasiz, siz bilan gap sotib o'tirishga «pussatim yo'» desalar nima qilaman? (O.Yoqubov).

SUGa xos talaffuzning personajlar nutqida berilishi BUda ahamiyat kasb etadi. Tovushlarning alohida talaffuzi tufayli so'zlar, so'z birikmalari, gaplar o'zgacha ma'no qimmatiga ega bo'lishi mumkin: – Jim yot, tuxuming qurigurr! Tinka madorim qolmadi-ku! Boshimga yetib tinchiysizlar! (O'.Usmonov). Birinchi gapdagi r tovushining orttirilishi so'zlovchi kayfiyatining yomon ekanligini ifodalashga xizmat qiladi.

Shuningdek, poetik nutqda hozirgi adabiy orfografik me'yor talablariga muvofiq kelmaydigan oshno, talosh, yamon, yaro, qaro kabi so'zlar ishlatiladi: Ne balolig' kun edikim, oshno bo'ldim sanga; Agarchi yo'qturur durluq taloshi; Boshi yarosig'a bog'ladi rust; Qoshi yosinmu deyin, ko'zi qarosinmu deyin? (Navoiy). Dirlabolardin yamonliq keldi mahzun ko'ngluma (Bobur).□

Adabiy asarlar matnigagina xos bo'lib, hozirgi o'zbek adabiy tilidagi fonetik hodisalarga o'xshamaydigan ayrim fonetik o'zgarishlar poetik nutq talabi bilan vujudga kelgan deb aytishga yetarli asoslar bor, deb o'ylaymiz.

Adabiy asarlar tilida uchraydigan fonetik o'zgarishlar tarixiy xarakterga ega bo'lib, ularning ro'y berishi Sharq mumtoz adabiyotining, jumladan, o'zbek adabiyotining shakllanishidagi ekstralingvistik omillar - vazn, qofiya hamda ohangdorlik, jarangdorlik va tantanavorlik kabilarning talablari asosida bo'ladi. Agar ular dialektal xarakterda bo'lsa, mahalliy koloritni berishga, erkalash, hurmat kabi ottenkalarni ifodalashga xizmat qiladi.

Z>y, q>g', a>o tovushlarining o'zaro o'rin almashishlari yoki biri o'rnida ikkinchisining ishlatilishi, tovushlarning so'z o'rtasiga qo'shilishi yoki tushirib qoldirilishi kabi holatlarning mumtoz poeziyamizda va bugungi she'riyatda ham faol bo'lib kelayotganligining sabablari ham ana shunda. Garchi ularning qo'llanilishi adabiy orfoepik va orfografik o'lchovlarga mos kelmaydi deb hisoblansa-da, bu birliklar allaqachon BU orqali stilistik me'yor doirasiga kirgandir. Badiiy uslubning leksik-frazeologik xususiyatlari. So'zlarning denotativ ma'no bilan bir qatorda konnotativ ma'nolarga ham egaligi ularning funksional va ekspressiv-emotsional chegaralanishlarni keltirib chiqaradi. «Funksional normativ so'zlar» (E. Begmatov), deb nomlanuvchi umumiste'moldagi birliklar qo'llanish chastotasining faolligi, barcha FULAR uchun bab-baravar xizmat qilishi bilan tilimizdagi boshqa leksik guruhlardan ajralib turadi.

Leksik birliklar orasida shunday elementlar mavjudki, ular badiiy-estetik vazifani bajarishga boshqa birliklarga qaraganda ko'proq xizmat qiladi. «O'TIL»dagi ayrim elementlar bu fikrni to'la tasdiqlaydi. Masalan, unda «poetizmlar» belgisi bilan quyidagi so'zlar berilgan: abru, armug'on, bazmaro, balqimoq, bahoriston, boda, bo'ston, gavharafshon, giryon, gulbahor, guliston, gulro', gulshan, debocha, durafshon, jahonbaxsh, jondosh, jo'shmoq, jo'shqin, kuylamoq, libos, lolagun, lo'livash, maygun, mardonavor, mastona, mahvash, mahpora, moviy, mujda, naylayin, nash'a, netay, otashlanmoq, otashqalb, paymona va boshqalar. □ Agar bu qatorga kt. va esk.kt. belgilari bilan ajratilgan so'zlarni ham kiritsak (kiritishimiz kerak, albatta), ular tilimizda salmoqli o'rinni tashkil qiladi.

Emotsional-ekspressiv ma'no ottenkasini ifoda etish asosiy o'lchov sanaladigan BUga xos chegaralanganlik ana shu tarzda namoyon bo'ladi. Bir narsa yoki voqea-hodisani anglatuvchi tushunchaning tilda bir necha xil ifodasi mavjud bo'lishi bunday chegaralanish, boshqacha aytganda, qamrov va tanlash doirasini yana ham kengaytiradi. Shuning natijasi o'laroq, tilimizda yuzaga kelgan poetik leksika hamda kitobiy leksika deb ataluvchi guruhdagi so'zlarning aksariyat qismi Buning Fular orasida o'z qiyofasiga ega bo'lishida asosiy poydevor bo'ladi.

Tilimizdagi so'zlar semantik strukturasi, shakl va ma'no munosabati, tarixiyliigi hamda iste'mol darajasining qamroviga ko'ra ma'lum lingvistik hodisalarni keltirib chiqaradi. Polisemantizm, sinonim, paronim, omonim, antonim, neologizm, istorizm, arxaizm, jargonlar singari bir qator guruhlar paydo bo'ladiki, ularning BUdagi o'rni to'g'risida so'z yuritmaslik mazkur uslubda leksik birliklarning ishtiroki to'g'risidagi tasavvurimizni kambag'allashtiradi.

Polisemantik so'zlar nutq jarayonida keng imkoniyatlarini namoyish qila oluvchi lingvistik vosita sanaladi. Biz uchun ham ularning ko'pchiligidagi ma'nolarning keng va turli-tuman ekanligi e'tiborga molikdir. Tilimizdagi bir, bosh so'zlari anglatgan ma'nolar ko'lamini eslashning o'zi kifoya. □ Ana shu ma'nolarning deyarlik hammasiga badiiy adabiyot tilida duch kelishimiz mumkin: Hukmingizga bo'ysundiramiz... O'z boshlaring qayda? -Boshimiz sizning qo'lingizdadir davlatpapoh... (O.Yoqubov).

So'zlarni ko'chma ma'nolarda qo'llash Buning muhim xususiyatlaridan biridir. Matnda so'z semantikasining o'zgarishi, kengayishi, ko'p aspektli bo'lishi va, hatto, lug'atlarda qayd etilmagan ma'nolar kasb etishi mazkur uslub uchun qonuniyat sanaladi.

Dublet so'zlar. Tilimizda baravar-barobar, nabira-nevara, ustoz-ustod singari dublet so'zlar bor. Ularning mavjudligi normativ leksika nuqtai nazaridan ijobiy hodisa sanalmasa-da, BUda ularga befarq qaralmaydi.

Masalan, O.Yoqubovning «Ulug'bek xazinasini» romani Ali Qushchini Mirzo Ulug'bek o'z huzuriga chaqirish voqeasi bilan boshlangan. Bayonga endigina kirishilgan, Ali Qushchi obraziga ta'rif berilib ulgurilmagan bir paytda muallif

nutqida ustod so'zi ishlatiladi: Ikki kungacha ustodning mahzun nigohi ko'z oldidan ketmay iztirob chekdi, bir necha bor Ko'ksaroyga borishga chog'landi, lekin jur'at etolmadi. Mana endi ustod o'zi uni Ko'ksaroyga chorlabdilar. Ustoz-ustod so'zlari bu o'rinda bir xil stilistik qiymatga ega emas. Ustoz odatda betaraf, ustod da esa unga nisbatan ekspressiv bo'yoq mavjud. Shuning uchun u matnda Ali Qushchining o'z muallimiga bo'lgan mehr tuyg'usini ifodalovchi vositaga aylangan: – Ma'zur ko'rgaysiz, ustod! Ammo ustod so'zining yuqorida muallif tilidan berilishi yanada chuqurroq ma'no kasb etgan. Bu bilan yozuvchi, birinchidan, Ali Qushchiga nisbatan o'zining ijobiy munosabatini bergan bo'lsa, ikkinchidan, eng asosiysi, personajning munosabatini va gapirish uslubini saqlab qolgan. Boshqa kishilarga nisbatan esa asarda asosan ustoz so'zi ishlatilgan.

Sinonimlar tilimizning ijtimoiy va badiiy-estetik jilolarini namoyish qila olishi bilan eng oliy o'rinni egallaydi.□ Shuning uchun ham A.M.Peshkovskiy va A.I.Yefimov singari olimlar nutqiy vositalar sinonimiyasini o'rganishni stilistikaning markaziy muammosi, deb hisoblaganlar.

Yozuvchining til ustida qilgan mehnati – sinonimik birliklar ustida ishlash mashaqqatidir. U badiiy adabiyotda zarur lingvistik vosita sanaladi. «Sinonimlarning mavjudligi va umuman variantlilik muomalaning u yoki bu vaziyatga mos keladigan til vositalarini tanlashga sharoit yaratadi, shu sababdan tanlash tushunchasi stilistik kategoriyalar qatoriga kiradi».□

Sinonimik qatordagi emotsional-ekspressiv ottenkaga ega bo'lgan elementlarni saralash funksional jihatdan chegaralashda o'lchov vazifasini bajaradi. Ularning emotsional-ekspressiv darajasini aniqlash bu elementlarning iste'moldagi faolligiga asoslanishi lozim. Darig' tutma mehringni mendan, So'zsiz qoldim, Tangrim, so'z yubor (U.Azim). Afrika, Hindiston, Iroqu Ajam Tevaning to'shiday bo'ldi tap-taqir (G'.G'ulom). Ha, shunday, xoqonim, hisoblab chiqdik (A.Suyun) misollaridagi tangri, hoqon, teva so'zlari hozirgi tilimizda deyarlik ishlatilmay kelayotgani uchun ham xudo, podshoh va tuya birliklariga nisbatan birmuncha emotsionallik kasb etgan.

Shunday holatlar borki, bir tushunchaning atamasi bo'lgan o'nlab so'zlar BUga tegishli. Masalan, go'zal ayolga, ma'shuqaga nisbatan ishlatiladigan so'zlarni ko'z oldimizga keltiraylik: malak, nozanin, parivash, sanam, sarvqomat, qalamqosh kabi. Ularning har biri matnda alohida stilistik qimmatga ega bo'lib, poetik aniqlovchi sifatida kelganida ularning salmog'i yana ham oshib ketadi.

Har bir milliy tilda sinonimlarning mavjud bo'lishi va sinonimik qatordagi birliklar soni bu tilning boyligini ko'rsatuvchi sifat belgilari sanaladi.

Neologizmlar. Tabiat va jamiyatdagi narsa va hodisalarining tildagi yangi ifodasi sifatida vujudga keladigan neologizmlar BUda salmoqli o'ringa ega.□ Ular tilda avvaldan bor bo'lgan birliklarning hozirgi til leksik-grammatik me'yoriga g'ayri odatiy bo'lgan tartibda qo'llanishidir.□

Badiiy ijod bilan bog'liq bo'lgan neologizmlarni okkazionalizmlar (E.Begmatov), individual-stilistik neologizmlar (X.Abdurahmonov, N. Mahmudov) tarzida atashlar uchraydi.

Badiiy ijodda doimo yangi so'z yasashga intilib kelinadi. Bu yaratilgan so'zlar o'sha matnning o'zida qolib ketishi, tildan mustahkam o'rin olmasligi mumkin. Bu narsa ma'lum sharoit va vaqt bilan bog'liq. Ammo uning, hech bo'lmaganda shu matnda, ta'siri bo'lishi shubhasiz: Qaldirg'ochlar uchdi larzakor (A. Oripov); Lekin faqirga eng ulug' tuyulgan fazilatlar – Hazrat Mirning iste'dodshunosliklari-yu, zakovatparvarliklari edi (P. Qodirov) kabi. Bu kabi so'zlar yangi semantik ottenkalarning paydo bo'lishiga asos yaratishi mumkin.

Neologizmlarga xos bo'lgan xususiyatlardan yana biri shundaki, ularning muallif nazarda tutgan ma'nosi matniy qurshovdagina reallashadi: Shunisi borki, bizdagi san'atshunoslarning ko'pchiligi shunaqa. Har qanday kartinaga duch kelsangiz bir xil qolipdagi an'anaviy gaplarni tizib tashlaydi. Bular tuyg'usi o'tmaslashib, fikrlashdan ham ortda qolgan shunoslardir (N. Qobul).

Yana bir xarakterli xususiyat – ularda muallifning sub'yektiv bahosi aks etishidir. Harqalay, ijodda o'z ovozi va individual uslubiga ega bo'lishga intilish mavjud ekan, yangi so'z yaratishga bo'lgan qiziqish ham davom etaveradi.

Frazeologizmlar. O'zbek tili FBlari borasida o'zbek tilshunosligida sezilarli ishlar qilingan. Ularning funksional-stilistik xususiyatlariga doir tadqiqotlar olib borilgan. Badiiy matnlar frazeologizmlari tahlili ularda funksional xoslanishning mavjudligini ko'rsatadi.

FBlar tabiatan obrazli ifoda bo'lganligi tufayli dastlab yo SNda yoki badiiy adabiyotda paydo bo'ladi va ular orqali ommalashadi. Vaqt o'tishi bilan boshqa uslublarga xos chegaralanish birmuncha aniq reallashishi, turg'un-me'yoriy holatga kelishi mumkin.

Frazeologizmlarning BUga xos alomatlari ularning ijodkorlar tomonidan erkin, umumxalq tilida mavjud bo'lgan shakllarini umumiy mazmunga putur yetmagan birmuncha obrazli tarzda o'zgartirib qo'llashda ko'rinadi: yelkasiga oftob tegmoq: Hech quyosh ko'rmagan bizning orqamiz (H. Olimjon). Ijodkorlar tomonidan umumxalq tilida mavjud bo'lgan frazeologizmlarning, maqollarning yangi variantlari yaratiladi: Tabiiy, bu kichik kolxozlarning har bittasining o'z kazo-kazolari, o'z ombori-yu, o'z kalamushlari bo'lgan (O. Yoqubov).

Demak, leksik birliklardan tashqari frazeologizmlarning, maqol va matallarning, xalq iboralari va hikmatli so'zlarning erkin va keng planda ishlatilishi ham BUNing asosiy belgilaridan sanaladi.

FBlar asosan so'zlashuv va badiiy nutqlar mevasidir. Ulardagi boshqa uslublarga xos chegaralanishlar esa ma'lum muddat keyin yuzaga keladi. Frazeologizmlardagi BUga xoslanish ularning ijodkorlar tomonidan erkin foydalanishida ham ko'rinadi. Shoir va yozuvchilar tilda mavjud bo'lgan modellar

asosida yangi frazeologizmlar yaratadilar. Har bir ijodkorning individualligi ularning frazeologizmlarga bo'lgan munosabatida xam yaqqol ko'rinadi.

Eskirgan so'zlar. Qo'llanishi birmuncha susaygan yoki umuman qo'llanilmay qo'ygan so'zlar guruhi borki, ular funksional jihatdan ham anchagina chegaralanib qolgan. SUda deyarlik ishlatilmaydi, IUda juda kam foydalaniladi, PU va RUlarda esa davlat tuzumimizning va ijtimoiy munosabatlarning yangi asosga qo'yilishi tufayli ularga qaytadan murojaat qilish ehtiyoji tug'ildi. Faqat BUdagina eskirgan deb ataladigan bu guruh mavqeini birmuncha saqlab kelmoqda : abas, abr, ayyom, aylamoq, alhol, anvo, andalib, anduh, asno, ag'yor, ahbob, bashar, baqo, bahr, bil'aks, boda, bo'sa kabilar.

Ma'lum guruh so'zlarning qo'llanilishi faqat she'riyat doirasi bilan chegaralanganligi ularning adabiy til me'yori nuqtai nazaridan passivlashganidan dalolatdir: aylamoq-etmoq; banogoh-kutilmaganda, tasodifan; mubham-noaniqlik; mujda-xabar; tilamoq-istamoq, xohlamoq, so'ramoq; g'addor-sotqin kabi. Demak, eskirgan so'zlar badiiy adabiyot tilida ikki vazifani: nominativ hamda emotsional-ekspressiv vazifani bajarishga xizmat qiladi.

Eskirgan so'zlarni qancha saqlansa bahosi shuncha oshib boraveradigan qimmatli javohirlarga qiyos qilish mumkin. Shuning uchun ularni BUning muhim lingvistik alomatlaridan deb aytishga asoslar bor.

Dialektizmlar. Umumxalq tilining muhim qismi bo'lgan dialektizmlar, garchi asosan SUGa xos birliklar sanalsa-da, ulardan badiiy adabiyotda foydalanishga yo'l qo'yiladi.

Ilmiy adabiyotlarda adabiy til me'yorlariga mos kelmasligi tufayli nutqda, xususan, adabiy nutqda chegaralangan dialektizmlar alohida holatlarda qo'llanilishi, ya'ni personajlar nutqini individuallashtirish, mahalliy koloritni, ruhni berish uchun qo'llanilishi qayd qilinadi. Shu bilan birga, ularni qo'llashda chegara bo'lishi, nutqda suiiste'mol qilishga yo'l qo'yib bo'lmasligi haqida so'z yuritiladi.

Badiiy adabiyot tilidagi dialektizmlar xususida gap ketganda ikki holatni nazardan qochirmaslik lozim. Birinchidan, ularning asarda til fakti sifatidagi ishtiroki: Mushtumzo'rni ontarganday ontarib yerni (U.Nosir). Ikkinchidan, ularning adabiy asarlarda stilistik vazifani bajarishi. A. Shomaqsudovning ta'kidlashicha, ular adabiy tilning muayyan FU doirasiga o'tishi bilan, o'sha uslubga mos va muvofiq keladigan stilistik va emotsional buyoq olishi, masalan, oddiy SUGa yoki poetik uslubga xos bo'yoq kasb etishi ham mumkin□: Momontlar to'dasi chiqdi o'rmondan... Bostirib keldilar guras va guras (A. Oripov) kabi.

Keyingi yillar o'zbek prozasida dialektizmlarni qo'llashda birmuncha erkinlik sezilmoqda. Bunday holni biz badiiy adabiyotni real hayotga yaqinlashtirish, tasvirda tabiiylikni ta'minlash deb baholash tarafdorimiz.

Dialektizmlar tilning boshqa elementlari kabi BUda estetik vazifani bajarishga xizmat qiladi va badiiy asarlar ularning adabiy tilga o'tib turishida ko'prik vazifasini o'taydi.

Gapiruvchi nomlar. Tilimizda laqablar va taxalluslarning□ qo'llanishida uslubiy alomatlar seziladi, ya'ni ularda SU va BUlarga xos obrazlilik mavjud. Ular personajlarni baholaydi, xarakterlaydn, mashg'ul bo'lgan kasbiga, yoshiga, qayerlik ekaniga ishora qiladi. Ular personajlarning ijtimoiy mavqeiga, fizionomiyasiga yoki xarakteriga moslab tanlanadi. Shuning uchun ham bunday antroponimlar tilda obrazli tarzda gapiruvchi nomlar deb yuritiladi.

Gapiruvchi nomlarning adabiy asarlarda ishlatilishida yaqqol anglashilib turmaydigan metaforizatsiya hodisasi yuz beradi.□ «Ulug'bek xazinasi»da: Ali Qushchi usta Temur Samarqandiy bilan xayrlashib, Qalandar ikkovlon g'ordan chiqarkan, go'yo yelkasidan tog' qulaganday yengil tortdi. Ustaning nomi Temur deb atalishi, Samarqandiy taxallusining berilishi ma'lum ma'noda personajning kasbiga, xarakteriga hamda tug'ilgan yoki yashash joyiga ishoradir. Ustaning shogirdlari nomlari Qolqonbek va Bosqonbek xaqida ham shu gaplarni aytish mumkin. Romandagi Xurshidabonu, Qalandar Qarnoqiy, Qashqir, amir Jondor kabi nomlar ham shu tarzda «gapiradi».

Laqablar va taxalluslar ramziy ma'no tashishga xizmat qiladigan nomlar bo'lib, ularning faolligi o'zbek tili tabiatiga mos va qo'shimcha ottenkalarni ifodalashga, ko'pincha komik effekt berishga xizmat qiladi: Xudoyqul chag'irko'z, qoqburun, Sattor sergap, Norbekso'qim; Mamadazim hechnima, Qodirqul nosfurush, Jumantoy tentak, Rahim boshmon; Suyunboy surpaquloq; Safar soqov; Allamurod dum (N.Qobul) kabi.

Adabiy asarda personajga umuman nom berilmasligi xam mumkin. Bunda ham ma'lum stilistik maqsad ko'zda tutilgan bo'ladi. A. Qahhor «San'atkor» hikoyasida asar qahramoni – san'atkorning nomi yo'q. Urg'u san'atkor so'ziga berilgan. U o'zini chinakam ma'noda san'atkor, bilimli, madaniyatli, tilni, o'z kasbini yaxshi biluvchi kishi deb hisoblaydi. Vaholanki, bayonidan qahramonning madaniyatdan, san'atdan yiroq kimsa ekanligi ma'lum bo'lib turadi.

Nomlar «gapirishi» SU va BUning lingvistik belgilari sanaladi. V. V. Vinogradov ta'kidlaganidek, badiiy adabiyotda ismlar, familiyalar, laqab va taxalluslar tanlash, ularning turli janr va uslublarda struktural o'ziga xosligi, obraz hamda xarakter yaratishdagi vazifasi va shu kabi masalalar - bu badiiy adabiyot stilistikasining juda katta va murakkab mavzusidir.

Anglashiladiki, tildagi leksik resurslarning BUdagi ishtiroki darajasi bir xil emas. Masalan, polisemantizmlar, sinonimlar, antonimlar, omonimlarning xizmatlari katta bo'lishi bilan birga, boshqa vositalar - dialektizmlarni, varvarizmlar, vul'gar, jargon so'zlarni, eskirgan so'zlarning bir qismi bo'lgan istorizmlarni va atamalarni BUga xoslangan deb bo'lmaydi.

Buning morfologik xususiyatlari. O'zbek tili grammatik, xususan morfologik stilistikasining nazariy masalalarini, ayniqsa, so'z turkumlaridan ot va ynga bog'liq kategoriyalar stilistikasini o'rganishga bag'ishlangan yirik hajmdagi ishlar R. Qo'ng'urov qalamiga mansub.□ Bizning mulohazalarimiz hamisha shu tadqiqotlarga tayangan holda bo'ladi.

O'zbek tili so'z turkumlarining grammatik shakllari turli adabiy, tarixiy hamda dialektal variantlarga ega bo'lib, ularning ma'lum qismida BUga xoslanganlik mavjud. Har bir so'z turkumi misolida bunga ishonch hosil qilishimiz mumkin.

Ot turkumiga oid elementlar badiiy adabiyot tilida o'zining asosiy va qo'shimcha ma'nolari bilan ishtirok etadi. Qo'shimcha ma'nolaridagi turli-tumanlik ham badiiy-estetik vazifani amalga oshirishga, ham funksional chegaralanishga olib keladi.

Masalan, –lar qo'shimchasi o'z grammatik ma'nosidan tashqari yana nutqda hurmat, kinoya, piching, kesatish. takror, ta'kid, noaniqlik, kuchaytirish, mubolag'a, ajratib ko'rsatish kabi konnotativ ma'nolarni ifodalashi tadqiqotchilarimiz tomonidan ko'rsatib o'tilgan.□ Ushbu ottenkalar funksional chegaralanishlarga ega. Kesim tarkibida kelgan paytda hurmat (dadam keldilar), kinoya, piching (mulla Eshmat, kelsinlar) kabi ma'nolar SUGa xos bo'lsa, ta'kid, kuchaytirish, mubolag'a singari ma'nolar BUda ko'proq anglashiladi: Jonlar sening yuzginangdan aylansun (Fitrat).

Bu kabi holatlar IU va RUlarda ko'zga tashlanmaydi. Bu uslublarda grammatik shakllarning faqat adabiy normativ variantlari qo'llaniladi. Badiiy nutqda esa, aksincha, ma'lum grammatik shaklning barcha ko'rinishlari – dialektal va tarixiy variantlari ham asarning mavzu talabi bilan qo'llanilaveradi: Ipak eding arqog'ingni bo'z qildilo (O.Hojiyeva).

Bu qo'shimchaning turli-tuman semantik-stilistik ma'nolari, asosan so'zlashuv jarayonida namoyon bo'lsa-da, ana shu ma'nolarning kengayishiga BU ham sababchi bo'ladi. Shu kishining o'zlarini xursand qilsak ...bir evini qilib yubormasmikanlar? (A.Qahhor) tarzidagi misollarda iltifot, xushomad ma'nosini ifodalashi SUGa xoslanishidan tashqari dialektal uslubiy chegaralanish seziladi.

So'zlashuv jarayonida namoyon bo'ladigan suhbatdoshni salgina mensimaslik, o'zini baland qo'yish ottenkalari (O, kelsinlar, kelsinlar, qadamlariga hasonot), go'yo hurmat qilayotganday, aslida esa iltifotsiz, quruq muomala, piching ohangi shu holicha badiiy matnlarga ko'chadi: Ichkari tarafdin keksa bir xodima – eshikochar xola ko'rinish, Gulshanga salom berdi va «xush keldilar» dedi (A.Qodiriy).

Kelishik qo'shimchalarining BUga xos ko'rinishlari ularning turlari bo'yicha quyidagicha:

Qaratqich kelishigining umumxalq tilida o'nlab shakllari mavjudligi ilmiy

manbalarda qayd qilingan. Ularning BUda faol bo'lganlari quyidagilar: -(i)m: Axir, hayajonlar o'zligim manim, Mayli qalbingga ham ko'chsin hayajon (K.Bahromova); -n: Inisin qo'lida goh pichoq ko'rib dong qotgan (H.Xudoyberdiyeva). Mumtoz adabiyotda qaratqich-qaralmish birikma inversiyaga uchragan holda ham ishlatilgan: Seli ashkim birla tutmish jumlai olamni su (Navoiy). Hozirgi poeziyada ham uchraydi: Yarqirar ming bir bahor ko'rki kamolingda sening (J.Jabborov). Shuningdek, aniqlovchi-aniqlanmishli birikmada uning qisqargan -ing shakli ishlatiladi: Ko'ngluming mahzani gul orazi gulnora fido (Joniy). Boshqa uslublarda bo'lgani kabi bu kelishik grammatik ko'rsatkichsiz ifodalanadi: Qarshingda turibdi umrim bir kuni (J.Kamol). Eski o'zbek tilida ham bunday qo'llanish she'riy asarlarga xos bo'lgan. □

Tushum kelishigi -(i)n: Erka malak achchig'lanmam senga. Uchirsangda ko'kka yurak kulin (Fitrat). Bu shaklda qo'llanish she'riyatda nihoyatda faol. Chunki uning ishlatilishi so'zdagi bo'g'inlar soniga ta'sir ko'rsatadi, ma'lum darajada adabiy asar pafosini ham o'zgartiradi, unga ko'tarinkilik, ulug'vorlik va ba'zan balandparvoz ruh bag'ishlaydi. Bu kelishikni belgisiz qo'llash BU va SUGa tegishli: Ulug' Hoqon, sendan so'rov shu erdi. Elga sabr, bardoshdan bo'lak narsa ber (H.Xudoyberdiyeva).

Jo'nalish kelishigi – a : Ul taajjub etardi, Kunduzdagi ahvola... (H. Olimjon); –na: Soya tushsa nogahon bu jismi betob ustina (Navoiy); –qa, -g'a: Hajri ashkim yetkurur har dam quyoshqa bir hayot, O'ylakim, yetkurdi Kayxusravg'a jomi Jamni su (Navoiy). Belgisiz qo'llanadi: Maktab bordik – og'ir bo'lib qoldik daf'atan (A.Oripov). U nutqda ayrim ko'makchilar bilan sinonimik tarzda qo'llanilishi mumkin. Ammo bu tarzda ishlatilishda uslubiy farqlanish yuz beradi. «-ga li konstruksiya hamma stillar uchun umumiy bo'lsa, tomon ko'makchili konstruksiya ko'proq ilmiy stil, yozma nutq uchun xarakterlidir. Sari ko'makchili forma esa, asosan, poetik nutq uchun xos». □

Chiqish kelishigi -din: Topmadi hargiz bu Mashrab o'z vujudidin xabar (Mashrab). U hozirgi she'riyatda ham faol: Vatan sevmakdin ortiq Menga olamda shior bo'lmas (E.Vohidov).

O'rin kelishigi –da bilan undan oldin kelgan egalik qo'shimchasi o'rtasidagi bitta n tovushi orttiriladi: Yoboningda bodomlarnng talx g'izodur, Qovun-tarvuz qursog'inda selitrodur (O.Hojiyeva). She'riyatda unga uzra ko'makchisi sinonim bo'lib keladi: Xok dedi: Ey Yer, jahon tuprog'i boshim uzraku (O.Matjon).

Kelishik qo'shimchalaridan ko'pchiligining bir necha variantlarga ega bo'lishi, ayrim ko'makchilar bilan sinonimik munosabatga kirishishi ularning uslubiy chegaralanishlarini keltirib chiqaradi.

BUda sub'yektiv baho shakllari ham faol. Ammo bu faollikni og'zaki SN uchun xos bo'lgan holatlar deb qarash ma'qul. □ BUda esa sub'yektiv baho shakllarining hamma vaqt ham yaqqol ko'zga tashlanib turavermaydigan juda nozik qirralari namoyon bo'ladi. «Ulug'bek xazinası» romanida mavlono

Muhiddinning qizi asosan Xurshida bonu, Bonu deb tilga olinadi. Ammo bobosi Salohiddin zargar uning nomiga bibi so'zini qo'shib ishlatadi: –Siz ...suyukli nabiram Xurshida bibini Amir Ibrohimbekning kenja o'g'liga nikohlab berganimdan xabaringiz bordur? Boboning o'z nevarasini bonu deyishi etiket yuzasidan maqsadga muvofiq emas. Buning ustiga, shu o'rinda bibi so'zi ham yaqinlikni, ham yosh jihatdan ulug' bo'lgan kishining kichikka munosabatini O.Yoqubov qalamida yaxshiroq va to'laroq ifoda qilmokda.

Egalik qo'shimchalarining morfologik variantlari hozirgi o'zbek adabiy tilida ozchilikni tashkil qilganligi sababli ularning uslubiy chegaralanishi ham yaqqol sezilib turmaydi. Lekin shunga qaramasdan, tajribali ko'z ularni payqashi mumkin.

Sifat va son so'z turkumlari doirasida qaraladigan grammatik birliklarning ko'pchiligi barcha FUlarda ishtirok etishi sonda ko'zga yaqqol tashlanib turadi. Shunga qaramasdan, nutq jarayonida sifatga ham, songa ham aloqador birliklarning uslubiy farqlanishlarini, stilistik ottenkalarini payqash qiyin emas.

Sifatlarning grammatik shakllarida, jumladan, yasovchi affikslarida ma'lum uslubiy chegaralanish mavjud. Ularning asosiy qismi umumiste'moldagi birliklar bo'lib, SUda faol ishlatilsa-da, -dor, -kor, -mand, -omuz, -parast, -parvar, ba-, no-lar adabiy tilda so'zlashuvchilar nutqida, -iy, -viy, -gan, -simon, -on, -shunos affikslarining IU, PU va RUlarda birmuncha faolligi seziladi. BUda esa -lik qo'shimchasining -liq, -lig', -luq, -lug' kabi variantlari ajralib turadi: Shohigul ermas bu o'tlug' yuzlaring hijronida (E.Vohidov) kabi.

Charog'on, shodon, za'faron kabi so'zlar tarkibidagi -on da ham BUga xos chegaralanganlik seziladi: So'ng bu iflos zafardan Ular shodon yurdilar (O.Matjon). Chirkin, otashin so'zlardagi -in qo'shimchasi to'g'risida ham shu gaplarni aytish mumkin.□ G'amgin so'zining sinonimi bo'lgan g'amnok birligi BUda ishlatiladi: Kurtakni uyg'otib so'yladi g'amnok (Zulfiya).

Sifatning orttirma darajasini ko'rsatishda juda, eng, g'oyat, nihoyatda, bir, biram, tim, naq, zap, behad, benihoya, ne-ne, naqadar; ozaytirma darajasini ko'rsatishda esa yarim, nim, och, xiyol, xiyla, cheksiz, sal, aytarli, uncha, unchalik emas, u qadar emas kabi maxsus so'zlar ishtirok etadi. Bular orasida behad, benihoya, nihoyasiz, beqiyos, nim, xiyol, ne-ne, g'oyat, cheksiz so'zlarida BUga xos moyillik kuchliroq: Nimmoviy shu'la kaftda Dunyoni ko'rganmisiz (Zulfiya); Ne-ne musibatda qolib boshimiz (G'.G'ulom); Kechga yaqin katta qishloq oldida qonli, behad zolim jang ro'y berdi (Oybek), Cheksiz ulug' Vatan har kaft tuprog'i, Sen bosgan qadamla bo'ldi chamanzor (G'.G'ulom) kabi. Bu so'zlar ravishlar tarkibida ham emotsional-ekspressiv ma'noni kuchaytirishga xizmat qiladi: Sarguzashtlarini anglatmoq behad og'ir edi (Oybek).

Sifatlarda modallik ma'nosini ifoda etuvchi -gina, -kina, -qina affikslari badiiy asarlarda juda faol. Mumtoz poeziyada -g'ina shakli ham uchraydi: Ey Navoiy, necha oz-ozg'ina may madrasa-da Dayr aro kirki, ichar shayx to'la, sharob

to'la (Navoiy).

Predmetlarning son-sanog'ini, tartibini ko'rsatuvchi so'zlarda□ uslubiy chegaralanish, xususan BUga xoslik deyarli sezilmaydigan darajada. Ammo numerativlar deb ataluvchi, sonlarga qo'shib ishlatiladigan maxsus so'zlar orasida BUga moyil bo'lganlari bor. Ularni sinonimik variantlari bilan quyidagicha ko'rsatish mumkin:

Buda SUda

qatra

tomchi

guruh

to'da

chimdim

siqim

shoda

tizim

daqiqa, lahza, zum

minut, sekund

karra, bor, qatla, dafa

marta

Ular nutqda asosan bir so'zi bilan birgalikda keladi va emotsionallikka xizmat qiladi.

Olmoshlarning uslubiy chegaralanishlari badiiy adabiyotda sezilarli o'rin tutadi.

Kishilik olmoshlarining biri o'rnida ikkinchisi, ya'ni men o'rnida biz (– Ma, ich, amir, – dedi va kuldi. – Bilib qo'y, bizday amirul-mo'min qo'lidan yolg'iz sen may ichursen. O.Yoqubov), men o'rnida sen (–Bilmaydikim ...yo'q, to'xta Muhammad Tarag'ay! Nechun sen shahzodadan ranjiysen? O.Yoqubov), siz o'rnida sen (Izn ayla! Ona, darig' tutma lutfingni, Avval shuki, senga qalqon bo'la olmagan Bizni – noshud farzandlarni afu etgaysen. E.Samandar) tarzida qo'llanilib, turli xil stilistik ma'no nozikliklarini ifoda etish imkoniyati ham asosan BUda, qolaversa SUda namoyon bo'ladi.

K. Yashinning «Nurxon» pyesasida Hojining o'z xotini bilan bo'lgan suhbatida senlash o'rniga sizlash matnda juda kuchli badiiy-estetik vazifa bajargan: Kimyo. Jon otasi, qizimga rahm qiling. Hoji. Ovozimgizni ko'tarmang, jim... Eshitiladi!! Kimyo. Yetti uxlab tushiga kirmagan kunlarni ko'radimi endi sho'rlik qizim...Hoji. Jim!! ...Gap bitta, indinga to'y, bu haqda birovga og'zingizni ocha ko'rmang! O'qdingizmi, aylanay xotin!..

Tarixiy-badiiy asarlarda kishilik olmoshlaridan men o'rnida faqir, kamina, banda so'zlari kelishi mumkin: Faqir ham o'z ustodimni ko'rgim keladi, inim! (O.Yoqubov), Sizni yolg'iz yubormaymen, davlatpanoh sizni ehtiyot qilmoqni kaminaga topshirgandur, ustod (O.Yoqubov).

So'zlarning bunday ishlatilishi, bir tomondan, kishilardagi kamtarinlik fazilatini juda nozik tarzda ifodalay olsa, ikkinchi tomondan, badiiy asardagi tarixiylik ruhini ushlab turishga ham xizmat qiladi.

Olmoshlardagi uslubiy chegaralanishlardan yana biri shuki, poeziyada, tarixiy mavzudagi badiiy asarlarda III shaxs birligi ko'rsatkichi -u alohida ko'rinishlarga ega bo'ladi. She'riyatda ul, qaratqich kelishigi bilan birga kelganda esa, asosan tarixiy mavzudagi asarlarda –aning tarzida ifoda etiladi: Gullar ichida Shohi o'zim der edi lola, Mag'rurligidan, ul o'zi sharmanda bo'libdur (E.Vohidov). Inchunun, savob aning fazli karami va azob-uqubat aning adolati va bandasidin aning qarzi yo'qdur... (O.Yoqubov).

Bu, shu, o'sha so'zlarining bitta -l tovushi orttirilgan shakli uslubiy chegaralanishga ega va tarixiy mavzudagi va poetik asarlarda qo'llaniladi: Inson jismi bo'lib menga bul sifat (E.Voxidov) kabi.

So'roq olmoshlarida uslublararo umumiylik mavjud. Faqat nima, qaysi, qayer olmoshlarining ne, na, qay variantlarida BUga xoslikni ko'rish mumkin. Nima olmoshi ne tarzda qisqarganda uchun ko'makchisi bilan birgalikda ishlatilishi va ba'zan poetik talabga ko'ra uchun ham qisqarib, chun, chuk holiga kelishi hamda nechun, nechuk shaklida qo'llanadi. Nima olmoshining qilmoq fe'li bilan birikib, nima qilmoq so'rog'ini hosil qilgan fe'l shakli BUda ne qilmoq, netmoq, netay, netib tarzida ishlatiladi. Tarixiy badiiy asarlarda kim, nima olmoshlarining arxaik kimarsa, nimarsa shakllari ham uchraydi. Badiiy nutqda ba'zan qaysi olmoshi va qayer nisbiy so'zi qay shaklida keladi.

O'zlik olmoshi o'z so'zi qo'llanishdagi grammatik me'yorlarni saqlagan holda□ she'riy talabga ko'ra egalik affiksini olmasdan yoki umuman belgisiz qo'llanilishi ham mumkin: Olovdek tashlanar ko'zga o'z odam (E.Vohidov).

Gumon olmoshlari ichida aksariyat mavhumlikni, noaniqlikni ifodalaydigan, ko'proq his-tuyg'ular ifodasida ishlatiladigan allaqanday, allanechuk va gumon yuklamasi bilan birga kelgan qandaydir, nechundir, nimadir, negadir olmoshlarini BU doirasida qarash to'g'ri bo'ladi: Nimanidir axtaraman – she'rdan ham ulug', Nimanidir axtaraman nondan azizroq (A.Oripov).

BUning funksional-stilistik jihatdan chegaralanuvchi alomatlari xaqida gap ketganda, ular ko'plab grammatik kategoriyalarda aks etgani singari olmoshlarda ham namoyon bo'lishini ko'ramiz.

Yirik so'z turkumlaridan sanaladigan fe'lda □ BUga xos belgilar sifatida quyidagilari ko'rsatish mumkin:

Ekan fe'li nutq jarayonida qisqargan holatga kelib, SUda kan, BUda kin shaklida o'zidan oldin qo'llanilgan so'zga qo'shilib ketadi: Bo'lganmikin yer uzra bir ko'z Ko'rmak uchun seni osmonda (H. Olimjon).

Buyruq-istak maylidagi fe'lga qo'shilib, buyruq ohangini kuchsizlantiruvchi –gin affiksining –gil shakli poeziyaga xos: Qo'ygil, u kunlarni eslatma jonim (A. Oripov). Bu affiksning arxaik –g'il ko'rinishi ham badiiy asarlarda uchraydi. Istak maylining -(a)y, -(a)yin shakli ham ko'pincha poeziya va folxlor tilida uchrashi ilmiy tadqiqotlarda qayd qilingan : Bir zum odam kabi yashayin men ham (A. Oripov). Ba'zan shart mayli –sin ning eskirgan –sun shakliga duch kelamiz: Jonlar sening yuzgingdan aylansun (Fitrat).

Badiiy adabiyot tilida fe'l turkumining stilistik imkoniyatlari yana ham kengroq ochiladi. Uning ma'lum grammatik kategoriya doirasida bir grammatik shaklning ikkinchi bir grammatik shakl mazmunini anglatishi shoir va yozuvchilar uchun fikrni rang-barang ko'rinishlarda ifoda etishning qulay usullaridir. Buni fe'lning mayl va nisbat kategoriyalari misolida ko'rishimiz mumkin. Masalan, aniqlik mayli shakli shart mayli shakli uchun xos bo'lgan ma'noni anglatishga xizmat qiladi: Men hayot ekanman, hayotsan sen ham (Zulfiya). Yoki aksincha, shart mayli shakli aniqlik mayli ma'nosini anglatadi: Sevaman yerlarga rangdor yaproqlar, Yumshoq va rang-barang gilam to'shaga (Zulfiya).

Mazmunan shart maylidagi fe'lning buyruq mayli shaklida ishlatilishi P.Qodirovning «Yulduzli tunlar» romanida kuchli poetik vositaga aylangan: Xonim darhol qizning gapini quvvatlab, o'g'liga yuzlandi: - Boysunqur mirzoga elchi yuboringiz, amirzodam! Oradagi adovatni yo'qotingiz! –Boysunqur mirzo zo'rovonlik qilsin! Men mo'minlarcha bosh egib elchi yuboray!

Fe'lning buyruq-istak mayli shakli aniqlik mayli ma'nosini bera oladi: Qayga borsin taqdirdan qochib? (Zulfiya). Bu yerda gap aniqlik mayli shaklida berilsa, ritorika susayadi.

Mayl shakllarining qo'llanilishi IU va RU chegaralangan. Ularda fe'llar asosan aniqlik mayli shaklida bo'ladi. O'rni bilan RUda buyruq istak mayli ishlatilsa, u IU uchun umuman xos emas. Unda ba'zan shart mayli shakli uchraydi.

BUda fe'lning barcha nisbat shakllari ishlatiladi. Ammo aniq nisbatdagi fe'llar birmuncha faol. Ilmiy nutqda esa, aksincha, fe'llar asosan majhul nisbatda qo'llaniladi.

Badiiy adabiyot tilida nisbat shakllari anglatgan ma'nolarda ham siljish yuz

berib turadi. Masalan, A. Qahhorning «O'g'ri» hikoyasida amin Qobil boboga qarab shunday deydi: – O'zi qaytib kelmasmikin?.. Birov olib ketsa qaytib kela ber, deb qo'yilmagan ekanda! Nega yig'lanadi? A? Yig'lanmasin!

Bu tarzda murojaat qilishning sababi shuki, Qobil boboni senlay desa, u o'zidan katta, shu darajadagi amalda bo'la turib, bir kambag'alni sizlasa, u ham obro'yiga to'g'ri kelmaydiganday. Fe'lining aniq nisbat ma'nosi majhul nisbat shaklida berilishi ijodkor qalamida favqulodda kuchli stilistik vosita vazifasini o'tagan.

-b(-ib) ravishdoshi ishtirokida yasalgan o'tgan zamon hikoya fe'lining III shaxs ko'rsatkichi -di badiiy asarlarda o'zining arxaik shakli -dur/ -tur (turur) ko'rsatkichini saqlab qolgan□: Mag'rurligidan ul o'zi sharmanda bo'libdur (E.Vohidov), Qani, ortimdan yur, senga aytaturg'on yana bir so'zim bor! (O.Yoqubov). Zamonaviy –dir shakli ham ishlatiladi: Oqadir odamlar ko'ziga/ «Zangori ekran»ning shu'lasi (E. Vohidov).

O'tgan zamon fe'lining ancha ilgari bo'lgan ish harakatni ifodalovchi qo'shma shakldagi emish so'zining qisqargan mish ko'rinishi BUda vazifa bajaradi: Nechun ollo senga bu jamolni bermish? – dedi alamli dard bilan (O.Yoqubov).

Kelasi zamon fe'lini yasovchi -(a)jak affiksi, garchi hozirgi o'zbek adabiy tilida faol bo'lmasa-da,□ badiiy adabiyotda hamda o'g'uz shevasida qo'llaniladi: Balki ustoz Oybekday bo'lib Yozajaksan yangi bir doston (A.Oripov).

Kelasi zamon fe'lini yasovchi –gay, -g'ay, -kay affikslari BUga xos: Hayot talvasasi tingmagay, ammo, Mangu boqiy qolur Inson va Xayol (A.Oripov), Kechib Shirindan yuz yil / Kuyingda darbadar bo'lg'ay (E. Vohidov).

-gu,- g' u, -k u, -q u affikslari yordamida yasalgan kelasi zamon fe'llari ham badiiy asarlarda, xususan mumtoz poeziyada uchraydi: Bir qissakim, buning so'ngida sevishtganlar topishgusidir (H.Olimjon).

Badiiy asar bayonida zamon ko'rsatkichlarining barchasi ishtirok etadi. Lekin odatda badiiy asarlarda bo'lib o'tgan voqealarning hikoya qilinishi tufayli unda fe'lining o'tgan zamon shakllari mahsuldor hisoblanadi: Qizil tuproqli tepaliklar orasidan o'tib ketayotgan sersuv Quvasoy qon qo'shib oqizilgandek qip-qizil bo'lib ketdi. (P. Qodirov) kabi.

Shu bilan birga, tasvirdagi kengplanlilik muallif tilida hozirgi va kelasi zamon shakllarining ishlatilishini ham taqozo qiladi.□ Kelasi zamon shakli o'tgan zamon ma'nosini beradi: Qish chillasi avjida. Izg'irinli yellar esadi (P.Qodirov). Kelasi zamon shakllari ko'proq personajlarning ichki kechinmalarini ifodalaydigan monologik nutqlarda kuzatiladi. She'riy nutqda esa, asosan fe'lining o'tgan va kelasi zamon shakllaridan foydalanish mahsuldor.

Fe'l zamonlaridan bu tarzda foydalanish BU uchun me'yoriy holat sanaladi.

Muallif tilidan hikoya qilinayotgan voqealar turli zamon shakllarida berilib borilishi, ularning o'zni bayon jarayonida almashinib turishi ham asosiy usullardan biridir.

Fe'llarning shaxs-son ko'rsatkichlari badiiy nutqda turli stilistik ottenkalari bilan namoyon bo'ladi. I va II shaxs birligini ko'rsatuvchi -man va -san shakllari ularning -men va -sen variantlari bilan, ayniqsa, tarixiy mavzudagi badiiy asarlarda, aralash holda qo'llanilishini kuzatamiz.

Shaxs-son ko'rsatkichlarining ma'nosida ko'chish yuz berib turishi, ya'ni ularning biri boshqa shaxs ma'nosini anglatishga xizmat qilishi badiiy adabiyot tili uchun tipik hodisadir. I shaxs birligi o'rnida I shaxs ko'pligi, I shaxs birligi o'rnida II shaxs birligi, II shaxs ko'pligi o'rnida I shaxs ko'pligi, II shaxs birligi o'rnida II shaxs ko'pligi, III shaxs birligi o'rnida III shaxs ko'pligi, II shaxs ko'pligi o'rnida II shaxs birligi, II shaxs ko'pligi o'rnida III shaxs ko'pligi qo'llanilishi an'anaviy xarakterga ega: Mute farzand, indamay bosh egdik va lekin bas! (O. Yoqubov). – Kechiradilar... So'raganning aybi yo'q... o'zlari kuyov qilganmilar? (A.Qahhor).

Badiiy adabiyot tilida hatto I shaxs birligi o'rnida III shaxs ko'pligi qo'llanilishi mumkin, bu hodisa ham BU uchun kuchli yumoristik vosita sanaladi: «Rozaxon» degan satirik drama xam yozganlar akamlar (O.Yoqubov).

Sifatdosh yasovchi -r (-ar) affiksining tarixiy poetik –ur shakli badiiy ijodda qo'llanilib kelmoqda: Yulduzlar o'tiga bardosh berurman, Fazolar taftiga qilurman toqat (A. Oripov).

Garchi -ur affiksi -ar ning varianti sifatida qaralsa-da, B. Umurqulov to'g'ri ta'kidlaganidek, ularning stilistik qiymati bir xil emas. Masalan, Qayga desang qaytmay keturman (H.Olimjon) parchasida bu affikslar qat'iyat ma'nosini ifodalab, variant sifatida bir-biriga teng kelayotgan bo'lsa, Lekin do'stlar, ayting ne bo'lar, Do'st do'stidan ayrilsa tirik? (A.Oripov) misolida -ar orqali gumon ma'nosi ifodalanganda bu gapni aytib bo'lmaydi.

Sifatdoshning arxaik -guvchi,-g'uvchi affiksi yordamida yasalgan ko'rinishlari ham adabiy asarlarda qo'llaniladi: Sevguvchi dilday o'ynaydi yellar (Zulfiya). Ravishdosh yasovchi -gani affiksining eskirgan -gali shakli hozirgi zamon o'zbek she'riyatida ham saqlangan: Yo'qdir yuraklarni yoritgali nur (H.Olimjon). Fe'lning infinitiv shakli -mak BUda faol: Yonmak, o'rtanmak nechun deb/ Hayrat etmang, do'stlar (E.Vohidov).

O'zbek tilida ayrim fe'llar o'z shaklini yuqori uslub talabiga mos holda o'zgartirib, asosan qisqartirib ishlatiladi: bilmayman-bilmam, bo'lmoq-o'lmoq, joylashmoq-jo bo'lmoq yoki jo, ishonmoq-inonmoq kabi. Fe'llarning tarixiy, kitobiy va poetik variantlaridan faol foydalaniladi: istamoq, so'ramoq-tilamoq, o'tirmoq-o'ltirmoq. Endi saroyda qolasenmu yo ketmoqni tilaysenmu, ixtiyor o'zingda... (O.Yoqubov) kabi.

Biz ko'rib o'tgan fe'l stilistikasiga xos ayrim holatlar, xususan grammatik transformatsiya tufayli yuz bergan o'zgarishlar Buning o'ziga xos jihatlarini ko'rsatishga yordam beradi.

Yordamchi so'zlar ham tilimizdagi boshqa birliklar singari nutq jarayonida o'zining stilistik imkoniyatlarini namoyon qila oladigan to'laqonli til birliklaridir. Ularning ana shu keng stilistik imkoniyatlarini biz, eng avvalo, funksional chegaralanishlarida payqaymiz.

Yordamchi so'zlar orasida son jihatdan salmoqli o'rin tutadigan ko'makchilarning funksional-stilistik xususiyatlari A.Pardayev tomonidan maxsus o'rganilgan.□

Ko'makchilarning BUga xos ko'rinishlarining ayrimlarini sanab o'tamiz: bilan – birla, birlan, ila, -la. Mumtoz ijod namunalarida bu ko'makchining ilan, bila varianti ham uchraydi: Bunyodi ilan har ishi bo'ldi jahonda mahkam (Poshshaxoja). Bo'lmadim umrimda bir dam xotiri xurram bila (Bobur). Uchun – chun: Tushunchasi nur olgani-chun / Nahot bo'lsa la'natga mahkum? (Zulfiya). Kabi, misol, misoli, misli so'zlari ham badiiy adabiyot tilida ko'p qo'llaniladi. Yanglig', uzra, ichra da BUga xoslanish kuchli: Bahor gulzorida o'sgan Bu yanglig' toza gullarni (E.Vohidov). Nun labing uzra sokin qoldi hiloldek holatim; Muhabbat gulshani ichra... (A.Oripov). Ushbu ko'makchining mumtoz badiiy adabiyot namunalarida vazn talabi bilan qisqargan uza varianti ham bor: Sarig' ruxsor uza gulgun sirishkim holatin ko'rgil (Joniy). Ora ko'makchisining aro shakli ham BUga xos: Qildi navo tong qushi xush chog' aro (Pahlavon Maxmud).

Bog'lovchilar adabiy tilimizda salmoqli o'rinni egallasa-da, ular orasida BUga xoslanganlari ozchilikni tashkil qiladi. Lekin va agar bog'lovchilarining qisqargan shakllari lek va gar ni tez-tez uchratish mumkin: Gar shul eshitganim bo'lmasa ro'yo (A.Oripov). Tarixiy mavzudagi badiiy asarlarda, ba'zan SUda ham va lekin, ammo lekin tarzida qavatlanib keladi: – Veline'mat ustod afv etsinlar, – dedi Ali Qushchi o'ng'aysizlanib, – va lekin men ham bir-ikki soniya muqaddam xuddi shu fikrni ko'nglimdan kechirgan edim... Mana bu voqealarning bo'lganiga qancha yillar o'tdi, qancha suvlar oqib ketdi, ammo lekin Ali Qushchi ko'zini bir zum yumsa hamon keksa allomaning nuroniy chehrasini ko'radi (O.Yoqubov). Mumtoz she'riyatda bu bog'lovchilar qo'shaloq kelganda ikkinchi so'z komponenti qisqarib vale shaklida qo'llanilgan: Men xud ul tifli parivashg'a ko'ngul berdim, vale, Xonumonim nogahon buzilmag'ay boshdin yana (Bobur). Yoinki bog'lovchisi ham adabiy-badiiy nutqda ishlatiladi: ...hammani olib boradimi yoinki xohlagan borib, xohlamagan qolaberadimi? (O'zbek tili grammatikasi). Ba'zan holonki bog'lovchisi ham qo'llanadi: Holonki men sizni xondan ham yuqori qo'ygan edim (A.Qodiriy). Bu bog'lovchiga murojaat qilish nafaqat boshqa uslublarda, balki BUda ham kamdan-kam uchraydigan hodisadir.

Yuklamalarda uslubiy chegaralanish aniq bilinib turmaydi. Faqat yuklamasining o'rni bilan sinonimi bo'lib keladigai yolg'iz so'zidagina BUga xoslik ko'rinadi: Nechun hamma darichalar qorong'i, yolg'iz uning darichasi

yorug' (O.Yoqubov). -ki yuklamasining -kim shakli BU va SUDA ishlatiladi: Nahotkim bu o'sha riyoziyot ilmida hech bir alloma bas kelolmaydigan, mashhur va ma'lum mavlono Muhiddin hazratlari bo'lsa? (O.Yoqubov). Badiiy asarlarda -chi yuklamasi so'roq va taajjub ma'nosini emas, balki ta'kid ma'nosini ifodalaganda emotsionallik kuchliroq ekanligi seziladi: Yo'q, agar-chi qaytmoq nasib etmasa, agar-chi peshanamga toabad darbadarlik bitilgan bo'lsa... murodim Istanbul yo Qohira madrasalaridan birining tuprog'ini yalab o'tmoqdur (O.Yoqubov). Bunday holatlarda -chi yuklamasi -da ga teng keladi.

Undov va taqlidiy so'zlar IU va RU uchun xos emas, PUDA kam ishlatiladi. Ular aslida SU va BULarga xos. SNda undovlarning qo'llanishi BUDagidan ham faol. Badiiy nutqning «o'z» undovlari bor: oh, eh, fu, tfu, dod, be-ye, evoh, voy-bo'y, voy-dod, hah, hayhot, e attang kabi so'zlarni ana shunday birliklar deb atasa bo'ladi.

Shu holat modal so'zlarda ham kuzatiladi. O'zbek tilida so'zlovchining o'z nutqiga munosabatini ifodalovchi darhaqiqat, haqiqatan, haqiqatda, filhaqiqat, nafsambiriga, muhaqqaq, voqean, shubhasiz, so'zsiz, shaksiz, albatta, o'z-o'zidan, tabiiy, rostdan ham, aslida, shekilli, ehtimol, balki, hoynahoy, aftidan, har qalay, har holda, chamasi, chog'i kabi til birliklari mavjud.

Garchi, bu modal so'zlarning aksariyat qismi umumiste'moldagi elementlar sanalsa-da, ularning ayrimlari uslubiy chegaralanganligini ham payqash qiyin emas. Masalan, albatta, ehtimol, balki, har holda, aslida so'zlari barcha FULarda bab-baravar ishlatilavergani holda rostdan ham, chog'i, chamasi, chindan, shekilli, har qalay, hoynahoy, so'zsiz, baxtga qarshi kabilar SUDA, darhaqiqat, haqiqatda, shubhasiz, tabiiy, bizningcha, ko'rinadiki so'zlari IU va PULarda birmuncha faol ekanligi ko'zga tashlanadi. Arxaiklashgan filhaqiqat, nafsambiriga, voqean, g'olibo hamda hozirgi tilimizdagi shoyad, shaksiz, beshak, zero, darvoqe, aftidan singari modal so'zlarni esa, asosan badiiy asarlar tilida uchratamiz: – Filhaqiqat sen bu tillalarni ishlatmoq yo'lini bilmassen, – dedi u, ancha sukutdan keyin (O. Yoqubov). Bil'aks, haq taolo sizlarga shunday poklik ato etgankim, shohlar hayotining mislsiz razolatini idrok etishdan o'jizdursiz! (O.Yoqubov).

O'zbek tilida modal so'zlar turkumiga kiritilmaydigan,□ ammo emotsionallik ottenkasiga ega bo'lgan, sub'yektiv munosabat birmuncha sezilib turadigan koshki, zora, yaxshiki, xayriyat, haytovur, attang, tavba, afsuski, ajabo, vojabo, obbo, darig'o kabi so'z tiplari borki, ularning ayrimlari undovlar bilan birikib, adabiy asarda his-tuyg'uni ifodalaydigan kuchli badiiy-poetik vositaga aylanadi.

Tilimizdagi yordamchi so'zlar orasida emotsional-ekspressiv ottenkalarni yorqin ifodalaydigan alohida so'zlarning mavjudligi, ko'plari variantlarga ega bo'lib, bu variantlarning asosiy qismi adabiy asarlar tilida yashab kelayotganligi ulardagi uslubiy chegaralanishlarning qat'iy ekanligini ko'rsatadi.

Yordamchi so'zlar sinonimik qatoridagi birliklar ekspressivlik darajasining

turlicha bo'lishi, variantlardagi bo'g'inlarning, unlilar qattiq-yumshoqligining, tovushlar jarangli-jarangsizligining farq qilishi va ularning qo'llanishida ham ma'lum stilistik nozikliklar mavjudligi ijodkor oldida tilimizning badiiy-estetik vazifa bajarishida keng imkoniyatlarga ega ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Yuqorida aytilganlar tilimizdagi morfologik kategoriyalarning adabiy tildagi, xususan FUlardagi stilistik mavqei baland ekanligidan dalolat beradi.

Badiiy uslubning sintaktik xususiyatlari. O'zbek tili FUlari sintaktik qurilishiga ko'ra bir-birlaridan farqlanadi.

Sintaksisda til birliklarini mazmunga mos ravishda cheksiz kombinatsiyalarda qo'llash mumkinligi ularning stilistik imkoniyati naqadar keng ekanligidan dalolat beradi. «Grammatik vositalarning stilistik differentsiatsiyasi sintaksis doirasida birmuncha aniq namoyish qilinadi. Bir mazmunni turli nutqiy vaziyatlarda ifodalash uchun o'zining asosiy grammatik ma'nosiga ko'ra sinonimik, ammo qo'shimcha ekspressiv ma'no va ekspressiv-emotsional o'ttenkaga ega bo'lgan turli variantlardan foydalaniladi».

Ammo BUning sintaktik alomatlari haqida badiiy asarlarning prozaik va she'riy kabi janr bo'linishlarini e'tiborga olmasdan turib gapirib bo'lmaydi.

Prozaik asarlar tili sintaksisi□ hozirgi o'zbek adabiy tilining sintaktik me'yorlarini o'zida aks ettiradi. Grammatikaga oid adabiyotlarda o'zbek tilida so'z tartibi, asosan, erkin bo'lishi, ayrim bo'laklarning muayyan o'rinlarda kelishi qayd qilinadi. Proza sintaksisida ham shu tartibni kuzatamiz. A.Nurmonov bu hodisaning turkiy tillar uchun ham mushtarak ekanligini ta'kidlagan: «Turkiy tillarda ham gapda so'zlar tartibi erkindir. Tartibning grammatik funktsiya bajarishi juda cheklangan. Chunki har bir mustaqil so'zning grammatik formasi uning grammatik funktsiyasini ko'rsatib turadi».

Poetik asarlarning shakllanishida esa ritm, qofiya, vazn singari talablar mavjudki, ular sintaktik bo'laklarning gapda umumtil me'yori asosida ishtirok etishiga imkon bermaydi. She'riyatning o'z qonuniyatlariga bo'ysunadigan «o'z» me'yorlari bor. Bu me'yorga ko'ra kesim oldin, ega keyin kelishi, ikkinchi darajali bo'laklar ham shunga muvofiq o'rinlarni almashtirishi, bosh bo'lak – ega va kesim atrofidagi bo'laklarning o'zida, masalan, aniqlovchi va aniqlanmish, to'ldiruvchi va hol yoki o'zaro holning turlari ichida ham so'z tartibi ma'lum o'zgarishlarga uchrashi mumkin.

She'riy nutqning asosiy xususiyatlaridan biri sanaladigan inversiya ekspressiv-emotsionallikni yuzaga keltiruvchi grammatik vositalardan biri sifatida SU va BUga tegishli kategoriyadir. Mazmun va emotsionallik talabi bilan prozaik nutqda ham unga yo'l qo'yiladi: Kerak emas menga xon qabuli! Bas! Uloqtiring hammasini! (P.Qodirov).

A.Mamajonov qo'shma gap stilistikasiga oid tadqiqotlarida inversiyaning bu tipdagi gaplarda kamdan-kam qo'llanilishini qayd qilgan.□ Inversiyaning

ekspressiv-stilistik imkoniyatlaridan BUda, publitsistikaning ayrim janrlarida keng foydalaniladi.

Darak, so'roq va buyruq gaplarning FUlarda ishlatilishi bir xil emas. Darak gaplarning ishlatilishi barcha uslublarda faol. So'roq gaplarning ritorik turi va undov gaplar qo'llanilishida BU va SUGa xos bo'lgan chegaralanish mavjud. Bu qo'llanishning badiiy-estetik talabga mos ravishda ro'y berishi, ritorik so'roq va undov gaplarning ketma-ket kelishi, keyingisining butunlay BU va SULARi doirasida amal qilishi shunday xulosa chiqarishimizga asos bo'ladi. Ilmiy nutqda bunday gaplarga faqat kitobxonning diqqatini tortish kerak bo'lgan holatlardagina murojaat qilinadi.

So'zlovchining o'ziga ma'lum bo'lmagan narsalarni bilishga intilishini yoki kuchli his hayajonni ifodalashda so'roq gaplar ketma-ket kelishi mumkin. Masalan: Qayoqqa chekinasan? Bormi keraksiz yering? Ne uchun odam bo'lding, Kelmasang dushmanga teng?.. (H.Olimjon). Ana shunday so'roq gaplar BU va SUGa xos sanaladi va matnda his-hayajonni ifoda etuvchi stilistik vositaga aylanadi.

Ritorik so'roq gaplar oddiy so'roq gaplardan qurilishi va talaffuziga ko'ra farq qilmaydi. Ammo mazmunida javob mavjudligi, javobning savol shaklida berilishi ularni oddiy so'roq gaplardan farqlaydi. Shuning uchun ham ularga badiiy-estetik usul sifatida qarash to'g'ri bo'ladi, deb o'ylaymiz. □

BU uchun xarakterli bo'lgan undov gaplar kitobxonga estetik ta'sir o'tkazishda kuchli vosita hisoblanadi: Mirzo Ulug'bekning ko'zlari yana jiqqa yoshga to'ldi. - Xudoga shukurlar bo'lg'aykim, oqibatli farzand ato qilmasa-da senday o'g'il ato qildi! Iloyim boshing toshdan bo'lg'ay! Movarounnahr baxtiga, ilm-ma'rifat va ahli irfon baxtiga umring boqiy bo'lg'ay, o'g'lim! - Mirzo Ulug'bek ko'z yoshlarini artib, quchog'ini ochdi. (O.Yoqubov). Kuchli his-hayajonni ifoda etish ehtiyoji bilan undov gaplar ketma-ket berilishi mumkin: Mayli! Og'u bo'lsa bo'lsin! Agarchi nobakor farzand og'u berib, uni o'ldirmoqqa qasd qilgan bo'lsa, niyatiga yetsin! (O.Yoqubov).

Gap tuzilishi FUlarda turlicha. RU va IUlarda ko'proq qo'shma gaplar, ularning bog'langan va bog'lovchisiz turlari, SUGa sodda gaplar, ularning to'liqsiz shakli ishlatilishi xos bo'lsa, publitsistik va badiiy asarlarda gapning har ikki turi ham aralash holda kelaverishi mumkin. To'liqsiz gaplar dramatik asarlarda, xususan dialogik nutqda juda ko'p qo'llaniladi. Uning monologik nutqda uchrashi ham badiiy asar uchun notabiiy holat emas: Bir planim bor: partizanlarga ketaman. Tezda. Faqat sen kengash ber. Faqat kengash. Aralashma. Uyda tinch yot. Qanday qilish kerak - kengash ber (Oybek).

Bir tarkibli gaplarniig shaxsi noaniq bo'lgan turi uning shaxsi aniq ko'rinishiga qaraganda badiiy adabiyot tilida birmuncha kam. I. Rasulov bu tipdagi gaplar BU, PU, SULARda kuchli stilistik vosita ekanligini qayd qilib, ularning ilmiy asarlar va rasmiy-ish qog'ozlari tilida deyarli ishlatilmasligini ta'kidlagan edi. □

Masalan: Loyihani ertaga beradilar (O.Yoqubov); Suyunchidan chashna olib kelinmadimi? (A.Qahhor).

Nominativ gaplarning badiiy adabiyot tilidagi o'zni salmoqli. U turli-tuman lirik kayfiyatlarni ifoda etishda, tabiat manzaralarini berishda muallifga qo'l kelishi mumkin: Subhidam. Tog'lar qorayib ko'rina boshladi (Ch.Aytmatov).

So'z-gaplarning badiiy asarlarda personajlar tilida fikrni emotsional tarzda ifoda etuvchi lingvistik vosita ekanligi ko'zga tashlanadi. Bu narsa uning nutq yakunida ishlatilganida aniq seziladi: To'qayga chiqib ketinglar. Tez! (P.Qodirov); Xullas, harna qilgandayam, Shorasul omadli yigit ekan... Epchilki! (U.Usmonov). So'z-gaplarning bu tarzda berilishi go'yo personaj fikr-mulohazalarini yakunlovchi vosita sifatida qaraladi.

Yirik polotnodagi asarlarda tasvirning batafsil bo'lish ehtiyoji gaplarning turlicha ko'rinishlaridan, jumladan, uyushiq bo'lakli gaplardan unumli foydalanishni taqozo qiladi. Bunday gaplar tarkibidagi bog'lovchilarning uslubiy chegaralanishga e'tibor bergan tadqiqotchilar «Gap bo'laklarining va bog'lovchisi bilan uyushib kelishi ko'proq kitobiy nutqqa, ham, bilan orqali uyushib kelishi esa BU va SULarga xosligi haqida fikr yuritadilar. Ammo bu uyushishda ohangning yordami ham kam emas.

Badiiy asar sintaksisida kiritma gaplarning ishlatilishi muallif yoki asar qahramonining ma'lum ob'yektga, voqelikka o'z shaxsiy munosabatini, mulohazalarini ifoda etuvchi maxsus badiiy usul sifatida namoyon bo'ladi: Qalandar bo'lsa... /O, sahroyi sodda, haq taolo devday qaddi-qomat berib, aql bermagan anqov!/ Qalandar bo'lsa ustodini o'yladi (O.Yoqubov).

Kiritma gaplarning ma'lum o'rinlarda faktlarga, fikrlarga sharh, izoh tarzida keltirilishi individual uslubni belgilovchi omillardan deb o'ylaymiz. Masalan, O.Yoqubovning «Ulug'bek xazinasi» romanida sharqona muomala, etiket tarziga xos kiritma gaplar asarning uslubiy alomati darajasiga ko'tarilgan: Bobosi Amir Temur... – xudovandi karim zoti tabarrukni bu dunyoda sohib toj qilg'ondek, oxritda ham muqarrabi dargoh qilgay!.. – Bobosi sohibqiron vasiyatlaridan yuz o'girib, din ahlini oyoq osti qildi, dahriylik yo'lini tutib, foni dunyo lazzatlariga sho'ng'idi. Asarda xuddi shu tarzda pokiza ruhlari gulshani baqoda masrur bo'lg'ay; ruhi ravzai firdavsda masrur bo'lg'ay; Ollo taolo alarg'a bog'i rizvonni makon qilg'ay; Tangri taolo alarga firdavsi a'loni makon qilgay; Osiylik qilsam o'zing kechirgaysen, Parvardigori olam singari kiritma gaplar berilgan.

Gaplarning struktural ko'rinishlari - sodda va qo'shma gaplardagi BUGa xos chegaralanish bir qaraganda sezilmasligi mumkin. Bunday chegaralanish, asosan yozuvchining bayon usuli va asar janriga mos ravishda yuzaga chiqadi. Masalan, SUGa moyil to'liqsiz gaplar ana shu nutq asosiga qurilgan dramatik asarlarda, nominativ gaplar, so'z-gaplar prozaik asarlarda ishlatilishi hamda qo'shma gaplardan foydalanish janr imkoniyatlariga qarab, kiritma gaplarning, uyushiq bo'laklarning keltirilishi esa ijodkorning individual uslubiga mos ravishda

berilishini kuzatamiz. Gaplarning ayrim turlari, masalan, bir tarkibli gaplarning shaxsi noaniq turi BU uchun xos emas, IU va RUlarda umuman ishlatilmaydi.

Badiiy adabiyot tili sintaksisida yana bir xarakterli holat mavjudki, bu muallif nutqi va personaj nutqi masalasidir. Badiiy asardagi gaplarning barcha struktural tiplari ana shu ikki nutq doirasida amal qiladi. Badiiy asar voqealarini hikoya qilish mutlaqo muallif irodasiga bo'ysundirilgan ish bo'lib, uning ta'sirchan, badiiylilikni ta'minlaydigan, kitobxonga oson yetib boradigan, o'qimishli yo'li tanlanadi.

Voqealar bayonidagi ikkinchi yo'nalish asardagi personajlar nutqidir. Tasvirdagi, personajlar o'rtasidagi ko'plab munosabatlar va xarakterlar yechimi ana shu nutqlar orqali o'z ifodasini topadi.

Tasvirning personaj tilidan berilishida gaplar qurilishi hikoyachining imkoniyatiga qarab shakllanadi, so'zlar boyligi ham shunga mos ravishda tanlanadi. N.Qobulning «Tubsiz osmon» qissasida tasvir endi maktabga bormoqchi bo'lib yurgan yosh bola tilidan berilgan, aksariyat so'zlar bolaning tasavvuriga sig'adigan darajada, gaplar esa sodda: Akam Toshkentda o'rmonlarning boshlig'i bo'ladigan o'qishda o'qir edilar. Zo'r o'qish-a? O'qishlarini bitirib, yaqinda bir yillik harbiyga ketdilar. Men birinchini bitirayotganimda kelarkanlar. Keyin meni May bayramida shaharga namoyishga olib boradilar. O'zlari shunday deganlar. Hamma tog'lar, archalar, ayiqlar, bo'rilar, olqorlar va kakliklar akamning ixtiyorida bo'larkan. Ayam aytdilar. Keyin menga rosa maza bo'lsa kerak. Bo'ynoqqayam. Bo'ynoq ikkimiz akamga tog'imizdagi hamma hayvon va daraxtlarni birma-bir ko'rsatib chiqamiz. Personajlar tilida maxsus so'z va iboralarni ishlatish orqali individual xarakter yaratish badiiy tasvirdagi alohida usuldir.

Nutqning kimning tilidan berilishi lingvistik tahlil uchun ahamiyatsiz narsa emas. Dialogik va monologik tarzda shakllanadigan personajlar nutqini olaylik.

Dialogik nutq birmuncha murakkab nutq shakli bo'lib, unda so'roq va undov gaplarning, to'liqsiz gaplarning, modal so'zlar, ritorik undov va murojaatlarning, sub'yektiv munosabatni ifoda etuvchi maxsus birliklarning tez-tez ishlatilib turishini taqozo qiladi.

Dialoglarni badiiy prozada, dramaturgiyada BU va SUni bir-biriga tutashtirib turuvchi ko'prik deyish mumkin. U ijtimoiy munosabatlardagi, jumladan, tildagi an'anaviylilikni, adabiy tilning me'yorini saqlab turishi kerak bo'lgan, ham jonli xalq tili elementlaridan voz kecha olmaydigan murakkab nutq birligidir.

Dialog doirasida mavzu e'tibori, vaziyat talabi bilan nafaqat SU, balki boshqa uslub, xususan RU elementlari ham ishtirok etishi mumkin.

Monologik nutq personajning ichki dunyosi ochilishida yozuvchi qo'lidagi eng yaxshi vositadir. Til birliklari va sintaktik qurilishi ham shunga mos ravishda

tanlanadi. Co'poq va gumon olmoshlarining, modal va undov so'zlarning ishlatilishi, ritorik so'roq va undov gaplarning tez-tez uchrab turishi monologlarning lingvistik belgilari sanaladi.

Badiiy asarlarda, asosan monologlarning ikki turi – ichki monolog va lirik monologlar uchraydi. Muallif yoki qahramonning ichki dunyosini ochib beruvchi, ularning kechinmalarini, hissiyotlarini, ruhiy iztiroblarni ifoda etuvchi butun-butun bir she'riy parchalarni, asarlarni ham lirik monologlar deyish mumkin: Do'stlar, ayting, dil yonmaganda / Chekarmidim shunchalar oh – zor. / Agar, agar... Hech bo'lmaganda / Topilsaydi ko'mgali mozor (A. Oripov) .

Monologlarning hislar tug'yoni ma'lum bir nuqtaga yetganda yuzaga keladigan ichki nutq ekanligini kuzatamiz. Personaj bu holat va kayfiyatda o'zini qiynagan cheksiz savollarga javob izlaydi, ikkilanadi, gumonsiraydi, hayratlanadi, kimlardan yoki nimalardandir najot kutadi, ma'lum xulosalarga keladi. Shundan kelib chiqib, monologning bu shaklida so'roq gaplarning, undovlarning, so'roq va gumon olmoshlarining faol ishlatilishi tabiiy bir holdir. Unda jim qolishlar ham kuzatiladi. Chunki, personajdagi ruhiy iztirob pauzalar bilan fikrlashni, mulohaza yo'nalishini ba'zan o'zgartirishni, ayrim o'rinlarda aniqlik kiritishni taqozo qiladi.

Ichki monologlarga xos yana bir xususiyat shuki, odatda nutq muallifining o'zi bilan o'zi muomalaga kirishayotgani tufayli bayon III shaxs birlik shaklida beriladi. Shundan kelib chiqib, bu nutqning grammatik qurilishi ham, masalan, zamon, mayl ko'rinishlarida, gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlarida o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi.

Badiiy asarlar tilida poliloglar ba'zi o'rinlarda xalq hukmi tarzida, ba'zan esa bir guruh kimsalarning fikri, hissini ifodalovchi so'zlar tarzida aytiladi va emotsional gaplardan iborat bo'ladi: Otlar xandaqlardan o'tolmas, ammo xon askarlarining haqoratomuz qichqiriqlari o'rdada o'tirgan Boburga va uning odamlariga baralla eshitilardi: – Joning bo'lsa maydonga chiq! – Qo'rqoqlar, kurk tovuqday moyak bosib o'tira berasanmi?! – Boburingda yurak bo'lsa ulug' xonga o'zini ko'rsatsin! – Mard bo'lsa chiqsin maydonga! (P. Qodirov).

Uchinchi yo'nalish esa personaj tilida o'ziniki bo'lmagan nutqning berilishidir. Bunday gaplarni IU va RUda ko'rmaymiz, PUda kam uchraydi. Ammo bu tip gaplar ham SUda, ham BUda faoldir. Bu uslublarda hatto o'zlashtirma gapning alohida turlariga duch kelamiz. Ularda gap ichida keltirilayotgan birlikning kimniki ekanligiga hech qanday ishora yo'q. Ammo so'zlovchining gap ohangidan va mazmunidan uning muallifini payqab olamiz: – E-e, gapiravering, Hakim aka! Hali siz ko'rganning o'ndan birini ham ko'rganimiz yo'q! Ammo yoqadan olishga ustamiz! - dedi Hakim bobo tomonga og'ib Narzulla (N.Qobul). «Men ko'rganning o'ndan birini ham ko'rmagansan. Ammo yoqadan olishga ustasan» gaplari aslida Hakim akaniki va qachonlardir Narzullaga qarata aytilgan. Narzullaning nutqiga singdirib yuborilgan ushbu parchada esa endi u Hakim akaning o'ziga nisbatan piching, kesatish ma'nolarini ifodalovchi stilistik

vositaga aylangan.

Dramatik asarlarning sintaksisidagi o'ziga xoslik esa qo'shma gaplarning kam ishlatilishida ko'rinadi. Nutq ko'pincha sodda gaplardan tashkil topgan dialoglardan iborat bo'ladi. Chunki asar personajlari o'rtasidagi suhbatning hayotiy va jonli bo'lishi zaruriyati murakkab tuzilgan gaplarni taqozo qilmaydi.

Xarakterlar kurashi va obrazlar qiyofasi faqat personajlar nutqi orqaligina shakllanadi. Muallif eng zarur paytlardagina remarka orqali vaziyatga, obrazlarga izoh, tushuntirish beradi:

Mansur. Pirim, gulob ichmoqchi edingiz... (Kosani tutadi).

Navoiy. Ha... (Kosani olib ichmoqchi bo'ladi).

Abdulmalih. (ichkaridan ingrab) Pirim ichmang! Zahar! Mansur zahar soldi!

Navoiy. Yo rabbiy!

Turdiyboy. (g'azabli, qilichini g'ilofdan sug'iradi). It emgan! Mal'un! (Mansurga hamla qiladi).

Navoiy. Qizishmang. Tabarruk qilichingizni bu iflosning qoni bilan harom qilmang! (Ichkariga kirib ketadi, birozdan so'ng hayajon bilan qaytib chiqadi). Turdiyboy, Abdulmalihning yarasini bog'lang!

Turdiyboy kirib ketadi (I.Sulton., Uyg'un).

Dramatik janrning sintaktik alomatlari uning SU elementlaridan mahsuldor foydalanishida, jumalarning ixcham va sodda bo'lishida, to'liqsiz gaplarning, ellipsislarining faolligida ko'rinadi. Muallif izohlari esa bu janrning uslubiy belgilaridan sanaladi.

Xullas, sintaksisning stilistik imkoniyatlari boshqa lingvistik kategoriyalarga qaraganda bir qadar kengdir. Bir fikrni bir necha xil sintaktik qurilmalarda bera olish imkoniyati, o'z navbatida, turli-tuman ma'no nozikliklarini hamda ularning qo'llanishida uslubiy farqlanishni keltirib chiqaradi.

Badiiy uslub va tilning ifoda tasvir vositalari. Badiiy adabiyot tilida uslubiy vazifani bajarishga xizmat qiluvchi tilning ifoda tasvir vositalari Buning boshqa Fular orasidagi mavqeini belgilovchi eng muhim alomatlardan biri sanaladi. Badiiy matnda tasviriy vositalarning shunday ko'rinishlariga duch kelamizki, ularni faqat maxsus ijodiy mehnat mahsuli bo'lgan badiiy tafakkurgina yuzaga keltirishi mumkin.

Ularning troplap deb ataluvchi qismi obraz yaratishda bevosita ishtirok etsa, ikkinchi bir qismi – uslubiy figuralar esa, garchi obraz yaratmasa-da, ana shu obrazlarning shakllanishiga, barkamol, pishiq bo'lishiga, o'quvchining matnni to'g'ri va tez tushunib olishiga ko'maklashadi. V.V.Vinogradov va A.I.Yefimovlar

esa stilistikaning sintaksis doirasida o'rganishi lozim bo'lgan muammolari sifatida so'z tartibining tasviriy imkoniyatlarini, ma'lum sintaktik qurilishlarning ekspressivligini hamda nutqiy sintaktik figuralar deb ataluvchi hodisalarni qaraganlar.

Uzoq tarixiy yo'lni bosib o'tgan o'zbek tili va uning BU bugungi kunda badiiy tasvir vositalarining, nutqiy ekspressiyaning juda katta xazinasiga ega. Ilmiy va badiiy manbalarda Sharq adabiyotidagi san'atlar – ma'naviy va lafziy san'atlarning turlari yoki ularning har ikkalasining qorishiq holatlari 120 dan ortiq ekanligi haqida ma'lumot berilgan.□

Tilning tarakqiyot qonunlari bilan bog'liq ravishda tilda yangi tasviriy vositalar paydo bo'ladi, faol muomalaga kiradi, ekspressivligini yo'qotishi bilan ma'nosi kengaygan til materialiga aylanib qolaveradi.

Quyida BU uchun ahamiyatli sanalgan, troplar guruhiga kiruvchi tasvir vositalarining asosiylarini ko'rib o'tamiz.

O'xshatish. O'xshatishning tasviriy vosita sifatida badiiy adabiyotda tutgan o'rni, uning lingvistik tabiati tilshunoslikda ancha durust o'rganilgan.□

Badiiy asardagi obrazlar dinamikasida insonlarni, ularning fazilatlarini, bugun borliqdagi narsa va hodisalarni bir-biriga qiyoslash juda muhim vosita sanaladi. Ana shu taqqoslashlar natijasida favqulodda go'zal badiiy obrazlar shakllanadi, tilimizning yangi-yangi imkoniyatlari namoyon bo'ladi. «Sinchalak»dagi Eshonning tashqi qiyofasiga e'tibor beraylik: baland yozgi qizil choyxona zinasidan chamandagul do'ppi, oq shoyi ko'ylak va shim kiygan bir bola yugurib tushdi va chopqillaganicha Qalandarovning oldiga kelib qo'l qovushtirdi. Eshon bola emas, yoshi ellikdan oshgan ko'sa ekan. Uning bo'yni toshbaqaning bo'ynini eslatar, yuzi so'rib tashlangan husayni uzumga o'xshap, lekin bir tomonga silliq qilib taralgan sochi oyog'idagi amirkon tuflisidan ham qorapoq va ko'proq yaltirar edi.

O'xshatishdan BUda foydalanishda yana ayrim o'ziga xosliklar ko'zga tashlanadi. Masalan, asar muallifi voqealar tugunini o'z qo'lida ushlab turar ekan, bayon davomida go'yo o'zini bilmaydigan holatga solib, o'xshatish yordami bilan o'quvchini bundan keyin yuz beradigan – ayniqsa, qayg'uli – voqealarga ruhan tayyorlaydi: Mirzo Ulug'bek ko'z yoshlarini artib, quchog'ini ochdi. Ustod bilan shogird, go'yo abadulabad diydor ko'rishmasliklarini sezganday unsiz yig'lashib uzoq vidolashishdi (O. Yoqubov).

Yana bir o'ziga xoslik, badiiy asar matnida bir-birlariga mutlaqo aloqasi bo'lmagan narsa va hodisalar ham o'xshatish ob'yekti va sub'yekti sifatida ishtirok etishi mumkin. «Ulug'bek xazinasini» romanida she'r misrasi va kesilgan bosh, garchi bir-birlaridan uzoq tushunchalar bo'lsa ham, xuddi ana shunday vazifani bajargan. Taxtni egallagach, vasvasa dardiga muhtalo bo'lgan Abdulatif tush ko'radi. Tushida amir Jondor uning o'z kallasini oldiga keltirib tashlaydi. Dodlab

uyg'ongan shahzoda o'ziga kelgach, nima bilandir andarmon bo'lish maqsadida javondagi qalin kitobni oladi: ...kitobni ochganda ko'zi tushgan ilk misralar... tushida ko'rgan qonli kalladan ham dahshatli edi... Shahzoda yuragini changallaganicha ko'zini yumdi, lekin zarhal harflar bilan bitilgan sirli misralar xuddi boyagi qonli kalladay ko'z oldidan ketmay, olovday lovillab turardi.

O'xshatishning badiiy asar tilidagi ishtiroki uning yuzaga kelishiga xizmat qiladigan til vositalarining realligi va ko'pligida ko'rinadi. Ularni tilshunoslar ikkiga bo'ladilar: leksik va grammatik vositalar. Leksik vositalar: kabi, singari, qadar, yanglig', bamisoli, bamisli, misoli, misli, monand, xuddi, naq, go'yo, teng, o'xshatmok, eslatmoq, demoq, bo'lmoq, bir, aynan, o'zi, tus, ibrat, holatda, chu, andoqki va boshqalar. Grammatik vositalar: -day (-dek), -dak -(tak), -dag' (-dog'), -dayin, -dan, -dir, -namo, -simon, -ona, -omuz, -li, -cha, (-larcha, -chalik, -chasiga) kabilar.

Ular orasida SUDA o'tgan va BU uchun xarakterli bo'lgan elementlar mavjud: -day=-dayin. Undan ham -dek ning esa BUDA moyilligi kuchli: Munajjim tasbehidan to'kilgan donalardek (E.Vohidov). Shuningdek o'xshatishni yuzaga keltiruvchi leksik vositalarning asosiy qismi BUDA tegishli: qadar, yanglig', misoli, misli, monand, chu, andoqki kabi.

BUDA ushbu vositalarning hammasidan samarali foydalanish mumkinligi ham o'ziga xoslikdir. Boshqa uslublarda ular o'xshatish sub'yektining ma'nosini konkretlashtirish uchun xizmat qilsa, BUDA badiiy-estetik vazifani ham bajaradi. Metaforik o'xshatishlar buning yaqqol dalilidir.

Metaforalar o'zbek tilshunosligida hali atroflicha o'rganilgan deb bo'lmaydi.□

A. Hojiyev metafora va metonimiya kabi hodisalarni so'zlarning ma'nosidagi o'zgarish yoki siljish natijasida emas, balki ulardagi nom ko'chishi oqibatida yuzaga keladi deb hisoblaydi hamda ularni nolingvistik jarayon tarzida izohlaydi.□ Bu fikrda ham ma'lum asos bor. Lekin so'zning shu jarayonda hosil bo'lgan ma'nosini metafora deyishga ham odatlanganmiz.

Matn so'zlardagi metaforik ma'noning kengayishini belgilab beradigan o'ziga xos maydondir. Masalan, ikki shoir ijodida temir so'zi metafora sifatida ikki xil ma'noni, birida mustahkamlik, zabardastlik yoki ishchilar ma'nosini, ikkinchisida esa qalbsizlik yoki hissiz, insoniy tuyg'ulardan yiroq kimsa ma'nosini anglatib kelgan: Million-million temir qo'l Ixtiyorsiz G'amgin-g'amgin yig'ladi (H. Olimjon), Hayotning poyonsiz ummoni ichra Bor shunday g'ariblar – temirlar hissiz (A.Oripov).

Tushunchalar o'rtasidagi dialektik muvofiqlik va aloqadorlik so'zlarning nutqda butunlay yangi ma'nolarda qo'llanishini keltirib chiqaradi va u ijodkorning sub'yektiv qarashlariga bog'liq ravishda yuzaga keladi. Masalan: Ana oqsoqlanib kelmoqda biri. Qoch, tili tagida palaxmoni bor (E. Vohidov) kabi.

Shuning uchun ham BUda poetik metafora faqatgina muhim tasviriyl vosita bo'lib qolmasdan, balki badiiy tafakkur elementiga, estetik hodisaga aylanib ketadi. U bizning hissiyotimizga, ongimizga ta'sir etish bilan birga yozuvchini ham uzundan-uzoq bayondan qutqaradi: Ilmlar dargohi Akademiya, Fanu ma'rifatga yarqiroq miya (G'.G'ulom).

Har bir yozuvchining o'z ijodiy mulki bo'lgan individual metaforalar tasviriyl vositalarning eng yaxshi namunalari bo'lib, u BUning ham o'ziga xos xususiyati sanaladi. Yozuvchi ijodida hatto bitta metaforik qo'llangan so'z butun bir matnni o'z atrofida jipslashtirishi, tayanch nuqta hisoblanib, metaforik matn hosil qilishi mumkin. Masalan, A. Oripovning «Xayr endi..» she'ridagi ohu so'zi ana shu vazifani bajargan.

Epitet. Badiiylkni ta'minlovchi tasviriyl vositalar ichida markaziy o'rinlardan birini badiiy aniqlovchi – epitets (sifatlash) egallaydi. U predmet yoki voqea-hodisaning belgisini ajratib ko'rsatish yoki o'zini aniqlab kelish bilan birga, o'sha predmet yoki voqea-hodisaga badiiy bo'yoq beradi, obrazlilikni tug'diradi.

BU doirasida, eng avvalo, xalq og'zaki ijodi uchun xarakterli bo'lgan doimiy epitetslar qaralishi kerak: er yigit, sher yurak, arslon bilak, devqomat, keskir shamshir kabi. Ammo «Badiiy adabiyotda, – deb yozadi R. Qo'ng'urov, – doimiy epitetslarni ishlatishdan, xususan, haddan tashqari foydalana berishdan qochish kerak».

BUga xos haqiqiy epitetslar metaforik epitetslardir. Ularda obrazlilik ham, baholash ottenkasi ham kuchli bo'ladi: Hali lab tegmagan kulgular oldda (A. Oripov). Bu tasviriyl vositaning qo'llanish miqdori va bundagi o'ziga xosligi asosan ijodkorning unga bo'lgan sub'yektiv munosabatiga bog'liq: Ko'lmak davra ko'rsam ezilar ko'nglim (A. Oripov) kabi.

Metonimiya va sinekdoxa. Tadqiqotchilar nom ko'chishiga asoslangan bu usullarning nafaqat obrazli tasvir uchun xizmat qilishini, shu bilan birga, fikrni juda siqiq shaklda bera olish xususiyatini ham alohida ta'kidlaydilar.

Original metonimiyalarning yuzaga kelishi alohida mehnat talab qiladigan jarayondir. Ular RU va IUlarda deyarli uchramaydi, SUda ham ko'pincha obrazlilikni yo'qotgan xillarini ko'ramiz. BU hamda SUning alohida janrlari uchun esa ular me'yoriyl holat hisoblanadi.

Metonimiya ning asl mazmuni boshqacha nom berish degan ma'noni bildirsa-da, bu hodisa nutq jarayonida qaysidir bir a'zoning, ammo eng muhim a'zoning tushib qolishi asosiy xususiyatday seziladi. Biroq, muhimi shundaki, bu tushib qolgan so'zning ma'nosi nutqda u bilan yonma-yon kelgan so'zga ko'chadi va undan bemalol anglashilaveradi: Boshqarmaga qo'ng'iroq Bo'ldi garajdan (E.Vohidov).

Gapda ma'lum bo'lakning tushib qolishi, shunday bo'lishiga qaramasdan, ma'noning to'liq anglashinilaverishi tilda mumkin qadar fikrni qisqa, lo'nda qilib

ifodalab berish ehtiyojiga va qonuniyatiga mos keladi: Kuy avjida uzilmasin tor, She'r yarmida sinmasin qalam (E. Vohidov). Ulug' jahongir amirzodalar yuragida qat'iyat va beshafqatlik hukmron bo'lishini qanchalik istamasin, taqdir so'z va soz tuyg'ularini bu yuraklarga joylab, ularning qo'liga ham qilich, ham qalam tutqazardi (X. Davron). Misollardagi qalam, qilich so'zlari metonimiya sifatida juda katta badiiy umumlashtiruvchilik vazifasini bajarmoqda.

Sinekdoxalarning nutqda mavjudligi predmetlarga nisbatan qo'llaniladigan son bilan bog'langan: Temur. Menda besh yuz oltmish nayza bor («O'zbek tili stilistikasi»). Sinekdoxalarda ham umumlashtiruvchilik imkoniyati mavjud bo'lsa-da, unda badiiylik hamma vaqt ham ko'zga tashlanavermaydi.

Perifraz tasvir jarayonida narsa va hodisalarga, bo'yoq va bezak beruvchi usuldir. Kishilarning otlari yoki predmetlarning nomini to'g'ridan-to'g'ri aytmasdan, ularni boshqa so'z yoki iboralar vositasida bayon qiluvchi perifraz nutqqa ko'tarinkilik, tantanavorlik ruhini bag'ishlaydi, ijodkor uchun badiiy go'zal ifodalarni shakllantiruvchi, o'z yoki asar personaji tilidan sub'yektiv bahoni beruvchi vosita bo'lib xizmat qiladi. Masalan: O'sha kuni kechqurun raykom sekretari Rustam Qodirov «Bo'ston»ga borib, Qalandarovni shu munosabat bilan tabrikladi va kolxozchilar oldida uni: «Kolxoz dalalarining arsloni» deb atadi (A.Qahhor).

BU uchun ommalashib ketgan dala malikasi, oq oltin, qora oltin singari perifrazlarning ahamiyati yo'q. Uning uchun matnda kutilmaganda vujudga keladigan vositalar muhim. Boshqacha nom berishning o'zi oddiy tasvirdan qochish, ifodaning badiiyligiga intilish deganidir: Ajal, sen nayzangni sanchdingmi chindan O'zbek she'riyatini pahlavoniga (A.Oripov) kabi.

Frazeologik birikmalarning perifraz bo'lishi badiiylikka salmoqli xizmat qiladi. Perifrazlarning o'zi ko'plab frazeologizmning yaratilishiga asos bo'ladi.

O.S.Axmanova evfimizlarni ham troplarning bir turi sifatida qaraganda, ulardagi perifrastik ma'nolarni nazarda tutgan. □ Masalan: O'sha yili kuzakda unga birdan ikki kishi sovchi qo'yibdi: biri qishloq aktivlaridan shu Qalandarov, ikkinchisi Asad boyvachcha degan mol-dunyosi ko'p bir kishi ekan. Hurinisoning ota-onasi Asad boyvachchaga rozilik berib, «og'izboylar» bo'ladigan kunlari Qalandarov bir nima qilibdi-yu, ishni buzibdi, bir haftaning ichida hamma rasm-rusmni joyiga qo'yib Hurinisoni nikohlab olibdi (A.Qahhor).

R.Qo'ng'urovning ta'kidlashicha, perifraz ko'proq ilmiy va ommabop asarlarda uchraydi. Badiiy adabiyotda perifrazdan o'rni bilan foydalanish lozim. Ularga haddan tashqari berilib ketish tilni sun'iy lashtiradi, asar qimmatini oshirish o'rniga unga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. □

Ironiya BU va Suda keng qo'llaniladigan stilistik usuldir. Bunda nutq muallifining boshqa bir shaxsga, narsa, predmet va hodisaga bo'lgan salbiy munosabati tildagi aytaylik, hayvon, it, ho'kiz, eshak, ablah, iflos, yaramas singari

vulgar so'zlar bilan emas, balki muloyim, odatdagi so'z yoki iboralar, gaplar yordamida ma'lum qilinadi. Ammo bunda til birliklari o'z ma'nosida ishlatilmaydi, balki ular, aytish mumkin bo'lsa, butunlay teskari ma'noni beradi. Bunday paytda so'zlovchi tomonidan munosabat bildirayotgan ob'yektga unda bo'lmagan fazilatlar yopishtiriladi, ba'zan haddan tashqari maqtaladi, Tinglovchi yoki o'quvchi bu fazilatlarning tasvir ob'yektida yo'qligi uchun ham beixtiyor kulishga majbur bo'ladi.

«Sinchalak»da A.Qahhor Qalandarov va Saida o'rtasidagi munosabatlar rivojini g'oyatda nozik til ifodasida berib boradi. Mana Qalandarovning o'zaro munosabatlari birmuncha noziklashgan paytlardagi gaplari: – Men kolxozni opichlab katta qilganman. Kolxozning dardi qayerda, qitig'i qayerda ekanini men bilaman. Akademiyadan kelgan mo'ysafid olimlar ham avval menga uchraydi, men bilan suhbatlashib, undan keyin xo'jalikni ko'radi. Kolxoz to'g'risida kitob yozganman.

Lekin baqirib chaqirish bilan Saidani egib bo'lmasligini tushungach, u keyinchalik gap ohangini o'zgartiradi, pichingga o'tadi.

– Kolxozni opichlab katta qilgansiz ... Kolxozning dardi qayerda, qitig'i qayerda ekanini yaxshi bilasiz. «Bo'ston»ga o'xshagan kolxozlardan o'ntasini bitta chinchilog'ingiz bilan ko'tarasiz...

BUda ironiyaning ahamiyati shundaki, birinchidan, vulgar so'zlar ishlatilmasdan, axloq me'yorlariga mos ravishda odob mezoni saqlab qolinadi. Ikkinchidan, personajda, voqea-hodisada yo'q xislat, fazilatlar bilan ta'rif etilishi orqali muloyim kulgi vositasida obrazli xarakter yaratiladi. Uchinchidan, asar zavq bilan o'qiladi. Shuning uchun ham ironiyaning sof lingvistik hodisa demasdan, lingvo-estetik kategoriya sifatida qarash to'g'ri bo'ladi.

Antifraza ironiyaning bir ko'rinishi. Bunda ham ironiyadagi kabi piching, kesatiq, masxaralash, istehzo, ba'zan mensimaslik ma'nolari kuchli. Lekin unda bu ma'nolar ironiyadagidek keng ko'lamda emas, balki aniq matnda, so'z va iborada – teskari ma'noda qo'llangan birlikda o'z aksini topadi. Masalan: Zulfiqorovni xotini uydan haydab yuboribdi va Qalandarovning nomini aytmagan bo'lsa ham «suyangan tog'i» sha'niga qancha baytu g'azallar aytibdi (A.Qahhor).

Sarkazmni ironiyaiing eng yuqori, kulminatsion darajaga yetgan nuqtasi deyish mumkin. Aslida sarkazm muallif yoki personaj hissiyotining, aniqrog'i qahr-g'azabining juda oshib ketgan paytda ham uning axloq-odob doirasidan chiqib ketmasdan, shunday og'ir psixologik holatda o'zini tutib fikr ifodalash vositasidir: Qo'lingga solmishlar tilladan zanjir, Shahzoda yigitga hurmat bu axir (A.Oripov).

Mubolag'a va kichraytirish (giperbola va litota) Buning xalq og'zaki ijodi janrlariga ko'proq mos keladi: Tersak kal shunday edi: oqshomlari kamonni qo'lga olsa, qushni ko'zidan urar edi... (E.Jumanbulbul) kabi. Bu usuldan

foydalanish an'anasi hozirgi poeziyada ham davom etmoqda: Chiqma, Qays, ohim bilan yonmoqda bu sahro bu kun (A.Oripov).

Litotada narsa-hodisani kichraytirib, juda ozaytirib, kamaytirib ko'rsatish yo'li bilan mubolag'a qilinadi, ya'ni inson, jonivor predmet voqea-hodisadagi ma'lum belgi-xususiyatining haddan tashqari ko'pligiga ishora qilinadi: Pomir cho'qqilari biz yuksalarkan, Etik poshnasiday kichik poyadir (G'.G'ulom).

Allegoriya stilistik usul sifatida Buning ajralmas belgisi sanaladi. Til imkoniyatlaridan ijodkorning istagancha foydalanishiga yo'l ochiq bo'lsa-da, ularda hamma vaqt ham ayrim kishilardagi noma'lum, yaramas odatlarni to'g'ridan-to'g'ri fosh qilib tashlashning, bemalol tanqid qilishning imkoni bo'lmaydi. Ana shunday paytda bayon ma'lum ma'noda shu xislatlarga ega bo'lgan yoki bu xislatlarning ramzi sifatida qaraladigan hayvonlar, daryolar, dengizlar, tabiat hodisalari va shu kabilarning nomiga bog'lab ifoda qilinadi. Shuning uchun ham u asosan badiiy ijodning masal, ertak kabi janrlariga xos usul sanaladi. A. Oripovning «Tulki falsafasi» she'ridagi tulki obrazi allegoriyaning yorqin namunasidir.

Simvol deyarlik barcha ijodkorlar murojaat qiladigan badiiy usuldir. Uni faqat BU uchun xos deb ayta olamiz. Chunki uni oddiy so'zlashuvda ekspromt tarzda hosil qilish qiyin, IU va RUlarda esa unga murojaat qilishning zarurati yo'q. A.Oripov ijodida bunday detallarning bir qanchasini uchratish mumkin. Uning ijodida burgut kuchi, qudrati bor, lekin uni nimaga sarflashni bilmaydigan odamning («Burgut»), mitti yulduz o'ylamasdan ish qilib qo'yib, o'z yaqinlaridan ajralib qolgan kishilarining («Miltiraydi mitti yulduz»), tilla baliqcha esa o'z qadriga yetmaydigan, imkoniyatidan to'liq foydalanmaydigan, dunyoning go'zalliklarini his qila olmaydigan bechora kimsalarning («Tilla baliqcha») ramzi sifatida talqin qilinadi.

Jonlantirish. Bu usul ham BUga xos xususiyat bo'lib, metaforaning bir ko'rinishi hisoblanadi va uning yordamida predmetlarga, hodisalarga xuddi inson bilan muomala qilinayotgandek munosabat bildiriladi, ular ham xuddi insonlardek harakat qiladi, «gapiradi» hamda shu yo'l bilan badiiy obrazning ibratli namunalari yaratiladi: «Fayct» yondi gullab, «Xamsa» o'tga tutashdi (E.Vohidov). R. Qo'ng'urov jonlantirish badiiyat qadar qadimiy ekanligini ko'rsatib, avvallari tabiat hodisalari jonlantirilgan bo'lsa, davrlar o'tishi bilan uning doirasi kengaya borganini, asta-sekin konkret predmetlar, turli xil tushuncha va tasavvurlarga ham inson uchun xos bo'lgan xususiyatlar ko'chiriladigan bo'lganini ta'kidlaydi. □ Kuzning rutubatli oqshomi edi Bog'lar sekingina chekar edi oh (A.Oripov) kabi.

Jonivorlarga ham xuddi insonlarday, marhumlarga tiriklarday murojaat qilish jonlantirish usulining imkoniyatlari keng ekanligidan dalolat beradi. A.Oripovning «Ohujon» va «Pahlavon Mahmud qabri qoshida» kabi asarlar bunga misol bo'la oladi.

Uslubiy figuralar badiiy ijod namunalarini bir qadar go'zal, jarangdor,

ta'sirli qilib bayon etish zaruratidan kelib chiqqan.

Ilmiy adabiyotlarda bu figuralarning o'nlab ko'rinishlari mavjudligi BUda ifoda tasvir imkoniyatlarining naqadar kengligidan dalolat beradi. Ammo ularning hammasi ham BUda mahsulдор sanalmaydi. Ayrimlarini ko'zdan kechiramiz.

Antiteza. Tabiat va jamiyatdagi narsa-hodisalarning mohiyati, insonlarning xarakteri ularni bir-biriga qiyoslash, taqqoslash, chog'ishtirish asosida oydinlashadi. Shuning uchun ham, bu qiyoslash tafakkur jarayonida doimo hamqadamdir. Badiiy adabiyot tilidagi antiteza usuli ham bir-biriga nisbatan qarama-qarshi ma'nolarni beradigan so'zlarni, iboralarni bayonda yonma-yon qo'llash orqali obrazlilikni keltirib chiqarishga asoslangan: Barcha shodlik senga bo'lsin, Bor sitam zorlik menga. Bu jahonning rohatin ol, Bor azobin menga ber, Senga bo'lsin barcha orom, Barcha bedorlik menga (E. Vohidov). «Bayonning bunday vositasi yoqimlidir, – deydi Aristotelъ «Ritorika» asarida, – chunki qarama-qarshilik anglash uchun qulaydir, agar ular yonma-yon tursa yana ham tushunarlidir, yana shuning uchun qulayki, bu vosita isbot qilish, ziddiyatlarni qiyoslash bo'lganidan sillogizmga yaqinlashadi».□ Sh.Balli esa quyidagilarni aytgan: «Antiteza uslubiy vositalar nutqning tabiiy yo'nalishini «estetiklashtirish» va yangilashining yaqqol namunasidir.

Oksyumoron antitezaning bir ko'rinishidir. Bunda ham ma'nolari bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan so'zlar ishtirok etadi. Ammo farq shundaki, antitezada ma'no bir-biriga zid birliklarni parallel, yonma-yon qo'yish orqali ochilsa, oksyumoronda bu ikki so'z birikma holida bo'ladi va zid ma'noli so'zlardan ularning har birining ma'nosi saqlab qolingan yaxlit bir matniy ma'no kelib chiqadi: Dunyo qarshisida o'jiz jasorat Inson bolasiga hamisha xosdir (A. Oripov).

Akroteza antitezaning to'liq ma'nodagi ko'rinishi bo'lib, unda bir-biriga matnda qarama-qarshi qo'yilayotgan belgi yoki xususiyatning biri inkor qilinish orqali ikkinchi ma'no alohida ta'kidlanadi va tasdiqlana-di: Uning hovlisini, uyini, ro'zg'orini ko'rib Saidaning og'zi ochilib qoldi: hovli emas, guliston-bo'ston, uy emas, kichkina qasr, ro'zg'or emas, xazina -muzey (A.Qahhor).

Asindeton, ya'ni bog'lovchisizlik BUda emotsionallikni yuzaga keltiruvchi vositalardan biridir. Bog'lovchilarning yordamisiz hosil qilingan nutqning bu shaklida uyushgan bo'laklar alohida qat'iyat, keskinlik va jangovarlik bilan talaffuz qilinadi: Sen tuproq, osmonim, qoyam, o't, nahrim, Sen so'nggi nidomsan jon berar palla (Zulfiya). Bunday holatda ham fikriy ifoda katta kuchga ega bo'ladi, ham emotsionallik yuzaga keladi.

Polisenditon. BUda ko'p bog'lovchilik (polisenditon) ham ishlatiladi. Bunday gaplar anglatgan ma'nolariga ko'ra bog'lovchisizlik usulida shakllangan gaplardan farqlanmasalarda, shu ma'noni ifodalash usuli bilan farq qiladi. Bunda ham uyushiq bo'laklar ohangidagi me'yor, ritm saqlanib qoladi, ammo u bog'lovchisiz gaplardagidan o'z salobati bilan, ta'kidlash ohangi bilan farq qiladi:

Farhodning «Aynul-hayot» suyin «Bahrun-najot» havzi arig'iga ochib, ko'zadin ul chashma rashahotidek ashki rudin sochib. Armaniya sori xiromi va xaloyiqning ul arig' atrofida tamosho uchun g'avg'oyi omi va parivashning parikash devzodi po'yadin qolmoq va Farhod devonavor parikash bila parivashin egniga olmoq va Armaniya tog'i sori barqdek gom solmoq va falaki kadxamdek mehr ostida yugurmak va mehrni falak ayvonig'a yetkurmak va junun bodpoyin qulla sori surmak (Navoiy) kabi.

Gradatsiya belgi-xususiyatlarni, harakatlarni alohida urg'u bilan ko'rsatishga intilish samarasidir. Bu yerda ham so'zlarning uyushib kelishida uyg'unlik mavjud. Ammo farq shundaki, ketma-ket kelayotgan so'zlarning birining ma'nosi o'zidan oldin kelganiga nisbatan, ma'no ahamiyatiga ko'ra kuchliroq buladi: Eng arriq, Eng qattiq, Eng och, qoq yerda Biz omoch surganmiz– qo'llarda kishan (H.Olimjon).

Diatezada ikki inkordan bir tasdiq ma'nosi kelib chiqadi. Na kuldi, na qatra to'kdi yoshni (A.Oripov).

Paronomoziya. «Paronomaziya – deydi Kvintilian, – tinglovchining e'tiborini so'zlarning yo ohangdorligi, yo muvofiq kelishi yoki qarama-qarshi qo'yilishi bilan uyg'otadigan va kuchaytiradigan figuradir. O. S. Axmanova unga qo'yidagicha ta'rif bergan: «Nutqda paronimlarning (komik yoki obrazli tarzda) yaqinlashishidan, qo'llaniladigan so'zlarning tovush yoki semenatik mosligidan stilistik maqsadda foydalanishdan iborat bo'lgan nutq figurasidir».□ Devordan uzilib Tushsa plakat, Axir bitta boshga Bu ham «palakat» (E.Vohidov) kabi.

Ritorik so'roq va ritorik undov (ritorik murojaat) gaplar ham emotsionallik nuqtai nazaridan BUda ma'lum qimmatga ega. Ritorik so'roq gaplarning stilistik usul sifatida o'ziga xosligi shundan iboratki, bu savollarning ichida javobi ham tayyor bo'ladi: Yolg'iz menmi ko'klam chog'i yig'lagan? Yolg'iz menmi har umidda aldangan? (Cho'lpon).

Ritorik murojaatdan nutqqa tantanavorlik ruhini berish uchun foydalaniladi: Ey jism, aning kuyini paydo qilako'r, Ey ko'ngul, o'shul kuyni ma'no qilako'r (Navoiy).

Ellipsisda nutq jarayonida qaysidir bir bo'lak qisqalikka erishish yoki nutq vaziyatdan kelib chiqib tushirib qoldiriladi. BU uchun bunday ellipsislar ahamiyatli emas. Uning uchun muallifning yoki personajning psixologik holatini ochib bera oladigan ellipsislar zarur. Shu ma'noda Sh. Ballining: «...chamasi ellipsis, birinchidan, so'zlovchining fikrni ifodalashda notugallik, uzuq-yuluqlikka olib keladigan qat'iyatsizligi va ikkilanishi, ikkinchidan, kuchni kam sarflashga intilishi va nihoyat, uchinchidan, kuchli emotsiyaning birgalikdagi ta'siri bilan izohlanishi mumkin», degan fikrlari muhim.□

Stilistik figura sifatida qaralgan zevgma ham tashqi tomondan qaraganda ellipsislarga o'xshab ketadi. Chunki unda ham gapdagi biron bo'lak tushib qoladi: Orzu qildim vafo ahlin ko'ray deb topmadim, Xoh zohid, xoh fosiq, xoh soyil, xoh

shoh (Qit'a). Bu kabi qurilishlar o'zbek tilining BUda kam uchraydi.

Jim qolish ham ellipsisning bir turi sifatida qaraladi. BUda ruhiy iztiroblarni, psixologik holatni ifodalaydigan jim qolishlar birmuncha faol. Bu usul yordamida yozuvchi va o'quvchi o'rtasida mustahkam psixologik aloqa o'rnatiladi, o'quvchi beixtiyor ijodkor hissiyotlariga sherik bo'ladi: O'ylarim kezadi Shohimardonda... Hozir: bir quchoq gul, dilda ehtirom (Zulfiya). Bu usul lirik qahramonning tabiatdan, voqea-hodisalardan ta'sirlanish, xususan, zavq olish holatini berishda juda qo'l keladi.

Takror – BUda eng faol qo'llaniladigan stilistik usullardan biri. Uning boshqa FUlarda foydalanilishini ham inkor etib bo'lmaydi. BUda esa takrorning vazifasi, qo'llanish doirasi jiddiy ravishda kengayib boradi. Chunki BUda takrorning vazifasi faqatgina ma'lum narsa-hodisani yoki holatni ajratib, ta'kidlab ko'rsatish bilangina chegaralanmaydi. Badiiy asarda, barcha uslubiy vositalarda bo'lgani kabi, takrorning zimmasiga ham til birliklariga emotsional bo'yoq, alohida ohang, joziba berish vazifasi yuklanadi. Agar imkoniyat bo'lsa, shu vazifalarni amalga oshirish bilan bir qatorda muallifning yoki asar qahramonining voqelikka sub'yektiv munosabatini ham bera olishi kerak.

Ko'rinadiki, takrorning BUdagi vazifasi birmuncha mas'uliyatli. Shuning uchun ham ijod jarayonida ularga murojaat qilish qalamkashdan maxsus tayyorgarlikni talab qiladi va ana shunday ijodiy mehnat mevasi bo'lgan takrorlarga BU uchun chinakam stilistik usul sifatida xizmat qiladi.

Alliteratsiya nutqdagi tovush takrori demakdir. Bunga E.Vohidovning «Qaro qoshing» she'ri misol bo'ladi. Anafora usulida she'riy asarda misralar boshidagi so'z yoki birikma takrorlanadi: Bir o'lkaki, tuprog'ida oltin gullaydi, Bir o'lkaki, qishlarida shovillar bahor (Oybek). Assonans –matnda unlilar uyg'unligi: Kuyov pochchangiz, Keldi qochingiz, Sochqi sochingiz Yo'lni ochingiz (G'. G'ulom).

Rifma (qofiya)da qo'shimchalar ham, so'z yoki so'z birikmalari ham takrorlanib kelaveradi: Ohkim, vola men ul sarvi xiromondin judo, Ko'zlarim giryondir ul gulbargi xandondin judo (Navoiy) kabi.

Akromonogrammada bir to'rtlik yoki bayt qaysi gap bilan tugasa, ikkinchisi shu birlik bilan boshlanadi: Yasab devi hamul qo'rg'onin hosil, Ki bor emish aning oti Salosil. Salosil qo'rg'oni el ichra mashhur, Aning oti bilakim qildi ma'mur (Navoiy).

Epifora jumla oxirida tovushlarning, so'zlarning, so'z birikmalarining takrorlanishidir: Xushtur bo'lsak, ikovlon hamdam senu men, Bir-birga desak, yetushsa har g'am senu men (Navoiy).

Epistrofada band yoki to'rtlik bir so'z yoki ibora bilan boshlanib, yana shu birlik bilan tugaydi: To y jonzodlarni tinchgina qo'ysin, Qirilib bitmasin tirik dunyo to (A.Oripov).

O'zbek she'riyatida barmoq vaznida ijod qilish imkoniyatining kengayishi bilan BUda, shu bilan birga, individual uslubda ham takrorning turli-tuman ko'rinishlari paydo bo'ldi. Masalan:

1. Birinchi misra har bir to'rtlikda takrorlanadi: Dunyoni qizg'anma mendan azizim (A.Oripov);

2. Oxirgi misra har bir to'rtlikda takrorlanadi: Bir nomard qoshida ojiz qolganda Pahlavon Mahmuddan so'radim madad (A.Oripov).

3. Birinchi misra shu bandning oxirida qaytariladi: Nafis chayqaladi bir tup na'matak (Oybek).

4. Bir so'z bir misraning o'zida muttasil takrorlanadi: Xalq dengizdir, xalq to'liqindir, xalq kuchdir (Cho'lpon).

Takrorning bunday ko'rinishlarini A.Mamajonov struktural parallelizm sifatida qarab, bu tipdagi gaplar qo'shma gaplarning u yoki bu turini yuzaga chiqarib, ular asosan SU va BUga xosligi, bunday gaplarda ritmomelodika alohida tarzda yuzaga kelishi to'g'risida so'z yuritgan. □

Shunday qilib, ifoda tasvir vositalari, boshqacha aytganda, badiiy san'atlar adabiy asarni shakllantiruvchi til birliklari va ularni qo'llashning uzviy qismi sifatida Buning boshqa Fular orasida o'ziga xos o'rni borligini aniq ko'rsatib tura oladigan lingvoestetik omillardan sanaladi.

O'zbek badiiyati, xususan, she'riyatida san'atlarning yuzlab ko'rinishlari mavjudligi o'zbek tili Buning ildizlari qadimiy ekanligidan dalolat bersa, ikkinchidan, ular ona tilimizning, jumladan, badiiy nutqning yuksak ma'naviy-badiiy-estetik fazilatlari, mukammalligi va kamolotidan guvohlik beruvchi omillardir.

Tushunishimizcha, tasviriy vositalarni, xususan troplarni lisoniy omillar doirasida chegaralab qo'yish to'g'ri bo'lmaydi. Ular matnda o'rni bilan badiiylikka shu qadar uyg'unlashib ketadiki, til qoidalari doirasiga sig'maydi. Shuning uchun ham ironiya, allegoriya, jonlantirish kabi hodisalarni, oksyumoron singari uslubiy figuralarni lingvistik emas, balki lingvoestetik kategoriya sifatida qarash maqsadga muvofiq bo'ladi. Ularni BUDan ajratib bo'lmaslikning mohiyati ham ana shundadir.

O'zbek tilining badiiy tasvir vositalari deb ataladigan shunday bir ulkan xazinasini mavjudki, ular BU jilolarini ming bir qirrasi bilan ko'rsata oladigan va shu orqali ona tilimizning naqadar boy hamda go'zal ekanligini namoyish etishga tayyor turgan bitmas-tuganmas imkoniyatdir.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, Buning Fular oldiga qo'yiladigan barcha lisoniy talablarga javob bera olishi uni shu uslublar qatorida qarashimiz kerakligini ko'rsatadi. Adabiy asarda til vositalarining imkoniyati kengayib, ularning badiiy-

estetik vazifani bajarishga bo'ysundirilishi BUni boshqa FUlardan jiddiy farqlab turadi. O'zbek badiiy nutqining ko'p janrliligi Buning qamrovi g'oyatda keng va murakkabligini keltirib chiqaradi. Ko'puslublilik badiiy adabiyot tilida Fular ishtiroki va ularning badiiy-estetik vazifaga xizmat qilishidan kelib chiqadigan xarakterli xususiyat sanaladi.

Badiiy nutqda tildagi barcha FUlarga xos elementlar turli ekstralingvistik sabablarga ko'ra ishtirok etsa-da, ular bilan BU o'rtasiga tenglik alomatini qo'yib bo'lmaydi. Anqlik, ta'sirchanlik va mantiqiylik kabi nutqiy talablar har bir FUda, jumladan, BUda ham o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Personaj nutqining qurilishi esa uni SUGa ham yaqinlashtiradi.

Adabiy asar matnida yuz beradigan fonetik o'zgarishlar hozirgi o'zbek adabiy tili orfoepik me'yorlari doirasidagi fonetik hodisalardan farq qiladi. BUni mustaqil uslub sifatida ko'rsata oluvchi eng muhim lingvistik elementlardan biri so'zdir. Badiiy matnda o'zining denotativ va konnotativ ma'nolari bilan ishtirok etadigan so'z o'z navbatida unda emotsional-ekspressiv ma'nolarni namoyish qiladi va shu o'lchov tufayli ularning ko'pchiligi uslubiy tabaqalanib boradi. Badiiy adabiyot tilida barcha grammatik formalarning keng ko'lamda amal qilishi ulardagi ko'plab grammatik-stilistik ma'nolarning ro'yobga chiqishiga sabab bo'ladi va ana shu ma'nolar doirasida uslubiy chegaralanish, xususan BUGa xoslanish ham yuz beradi. Ma'lum maqsadlardan kelib chiqqan holda adabiy asar matnida til birliklaridan cheksiz kombinatsiyalarda foydalanish mumkinligi badiiy nutqdagi sintaktik qurilmalarning o'ziga xos tarzda namoyon bo'lishini keltirib chiqaradi.

Shuningdek, adabiy matnlar tahlili shuni ko'rsatadiki, BUni uning lingvistik alomatlarisiz yoki boshqa funkitsional uslublardan ajralgan holda tasavvur qilish mumkin bo'lmaganidek, uning shakllanishida, rivojlanishida va mavjud bo'lishida nolisoniy omillarning ahamiyatini ham inkor etish mumkin emas.

8-Mavzu: Lingvistik stilistika

Reja:

1. Til vositalarining uslubiy emotsional-ekspressiv bo'yoqdorligi.
2. Hozirgi o'zbek adayuiy tilning uslubiy strukturasi.

Intellektual leksika. Ma'lum bir tushunchanigina ifodalab, qo'shimcha emotsional-ekspressiv bo'yoqqa ega bo'lmagan so'zlar intellektual leksika deyiladi. Masalan: yer, suv, non, qalam, daf-

tar, yil, hamma, tarbiya, masala, yuz, qora, qizil, ko'rmoq, bormoq, isbotlamoq va boshqalar. Ilmiy-texnik terminlar, kasb-hunarga oid maxsus so'zlar,

ijtimoiy-siyosiy va umumadabiy leksikaga oid ba'zi so'zlar ham emotsional bo'yoqqa ega bo'lmaganligi uchun intellektual leksikaga kiradi.

Intellektual so'zlar umumiste'moldagi leksikaga xos bo'diganligi sababli har qanday janrda ishlatilaveradi va stilistik jihatdan chegaralanmagan bo'ladi. Shunga ko'ra ular stilistik neytral leksika dab ham yuritiladi.

So'z turkumlaridan son, olmosh, ko'makchilar (bir, ikki, ...o'n, yuz, ming...; men, sen, shu, bu, hamma...; bilan, uchun, kabi, singari, so'ng, keyin...), bog'lovchilar (va, ham, ammo, agar, chunki, yoki, to-ki...) deyarli intellektual leksikaga kiradi.

Emotsional-ekspressiv leksika va ularning turlari. G'zbek tili leksikasida ekspressiv¹ va emotsional² rangdorlik bilan bog'liq bo'lgan so'zlar ko'p. Masalan, quyidagi so'zlar ta'sirli va ifodali (bo'yog'iga ko'ra nutqqa ko'tarinki, tantanali va ulug'vor ruh kiritadi: navqiron (yoshlik), istiqbol (egallari), mag'rur (jaranglamoq), muqaddas (burch).

Tilda o'z leksik ma'nosi bilan histuyg'u, kechinma va hayajon ifodalovchi so'zlar ham bor: sevinch, quvonch, tabassum, dahshat, hiylagar kabi.

Ba'zi ko'p ma'noli so'zlar to'g'ri ma'nosida emotsional-ekspressiv bo'yoqqa ega bo'lmaydi, lekin ko'chgan ma'nolarida emotsional-ekspressivlik yaqqol seziladi. Masalan, gumbaz so'zining qubba, ravoq ma'nolarida emotsional bo'yoq yo'q, lekin ko'chgan ma'noda qo'pol, beso'naqay, semiz odamni ifodalaydi. Xuddi shuningdek, mag'zava so'zi ham ko'chgan ma'nosida (mag'zava mahsum) mujmal, lanj, sustkash odamni anglatadi.

Ba'zi holatlarda sinonim so'zlar birnibiridan emotsional-ekspressiv bo'yog'ining kamroq yoki yaqqol sezilib turishi bilan farqlanadi: yuz, chehra, jamol, oraz, bet, aft, bashara, turq kabi sinonim so'zlarning keyingi uchtasi o'zining emotsional-ekspres-siv rangiga ko'ra oldingilaridan ajralib turadi. Aft, bashara, turq so'zlarida salbiy ottenka yaqqol seziladi. Xuddi shuningdek, bo'shang, lapsshang, noshud, landovur, so'tak sinonim so'zlari chaqqon (epchil)ning aksi ma'nosi bilan birlashsa-da, bulardan landovur, so'tak so'zlarida salbiy ottenka kuchlidir.

So'zlarning emotsional-ekspressiv ma'no xususiyati kontekstda reallashadi. Masalan, ko'pik, nok so'zlari kontekstda salbiy baho ma'nosini olishi mumkin: Maqolaning ko'pigi ko'p. Bu nok odam (chiniqmagan ma'nosida).

Shunday qilib, so'z \bir predmet yoki voqeaning nomini atash-dan tashqari, jirkanish va manmanlik, mensimaslik, masxara, nafrat, g'azab, kinoya hamda hurmat, erkalash, ko'tarinkilik, ulug'- vorlik singari emotsional-ekspressiv ma'nolarni ham ifodalaydi. Shunga ko'ra so'zlar ijobiy ma'no ottenkasiga ega bo'lgan so'zlar va salbiy ma'no ottenkasiga ega b o' l g a n so'zlar deb ikkiga ajratiladi.

Ijobiy ma'no ottenkasiga ega bo'lgan so'zlar qatoryga quyidagilar kiradi:

a) erkalash-suyish va xushmuomalalikni bildiruvchi so'zlar. Bunday so'zlarning ko'pchiligi erkalash-kichraytirish affikslari yordamida yasaladi: toychoq, qo'zichoq, qizaloq, bo'taloq, do'mboq, kenjatoy, bolatoy, opajon, bolagina, aylanay, o'rgilay, girgiton bo'lay va hokazo;

b) tantanali, ritorik hamda poetik so'zlar. Bunday so'zlar nutqqa dabdabali, ko'tarinki ruh kiritadi. Kuchli ifoda vositasi' hisoblangan bunday so'zlarning ko'pchiligini arxaik so'zlar tashkil qiladi.

Bu turkumdagi so'zlarga og'zaki ijodiyot — folklorda keng qo'llanuvchi xalq poetik so'zlarini ham kiritish mumkin. Bunday so'zlar adabiy tildagi so'zlardan o'zining og'zaki-poetik bo'yog'i va doston qo'shiqlariga xos xususiyati bilan ajralib turadi. Masalan: alp (pahlavon), lopchi (lofchi), sinchi (otni yaxshi biluvchi), alqor (tog' qo'yi), havar (to'g'ri, tekis yo'l), bedov (chopqirot), bedov suvor (chavandoz), ko'kalam (ko'kalamzor), kelbatli (qaddi-qomati kelishgan), halolxo'r (to'g'ri, vijdonli).

Salbiy baho ottenkasiga ega bo'lgan so'zlar qatoriga quyidagilar kiradi:

a) jirkanish va mensimaslikni ifoda qiluvchi so'zlar: oyimcha, oyimchaxon, oyimtilla, baloxo'r, pashshaxo'rda, kerilmajon,, mazaxo'rak, yutoqmoq, so'tak, soyaparvar, xomkalla, o'limtik kabi;

b) qarg'ish, so'kish va haqorat ma'nosini ifoda qiladigai so'zlar: zumrasha, xumpar, tirrancha, la'nati, gazanda, simyon, bachchag'ar, oqpadar, qizitaloq, jinnivachcha, juvonmarg, go'rso'xta, baraka topmagur, qoqbosh, to'ymagur, turqing qursii...;

v) xalq tilidagi hazil so'z va iboralar: ahmoqqa to'qmoq (kishining muskul kuchini o'lchaydigan asbob), oyog'ini to'rtta qilib qo'ymoq (uylantirish ma'nosida);

g) salbiy emotsional bo'yoqqa ega bo'lgan publitsistik leksika. Bunday so'z va iboralar publitsistikada dushman va yot oqimlarni fosh etishda keng qo'llaniladi. Masalan, qora guruh, sariq iblis, irqchilar, okean ortidagilar, banditlar, bosqinchilar, sox-t talashtiruvchilar, yo'lhilar, shovinistlar, imperialistlar, urush olovini yoquvchilar, ma'rifat dushmanlari kabi.

_Emotsional-ekspressiv leksikadan foydalanish tekstning umumiy stilistik maqsad va yo'nalishi bilan bog'liq. Emotsional xususiyatga ega bo'lgan so'zlar badiiy-publitsistik asarlarda hamda so'zlashuv nutqida qo'llanadi. Biroq dag'al so'zlar (vulgarizm-lar) va haqorat so'zlardan foydalanishda ma'lum odob chegarasi-da turnsh zarur. Qo'pol, vulgar, argo so'zlarni hatto asarda ishtirok

etuvchi shaxslarning nutqiy xarakteristikasini berish maqsadida ishlatish ham naturalizmga olib keladi. Evfemizmlar va ularning stilistik roli. Evfemizm tilning iyfoda va stilistik vositalaridan biri sanaladi. Aytish noqulay yoki no'rin bo'lgan so'z yoki ibora o'rniga ishlatiladigan «pardali» so'z yoki ibora evfemizml deyiladi. Masalan, bo'g'oz xotin deb aytish jonli tilda ham, adabiy tilda ham noqulay bo'lganligi uchun uning o'rnida ikkiqat, g'iroyoqli, homilador, yukli jabi evfemistik so'zlar ishlatiladi. Xuddi shuningdek, nutq vaziyatiga qarab tug'di o'rnida ko'zi yoridi, ahmoq o'rnida aqli qisqa, tsar o'rnida qulog'i og'ir, o'g'ri o'rnida qo'li egri kabi iboralar qo'llanadi. Tilda evfemizmlarning yaratilishi etnografik tushuncha — tabu hodisasi bilan ham aloqadordir. Kishilik jamiyati taraqqiyotining ibtidoiy davrida tabiat hodisalarining sirini bi«dishga ojiz bo'lgan inson qo'rquv uyg'otadigan sehir va zararli, «yovuz kuchlardan, jin, arvoh, «yomon ruhlar»dan, ofatli kasallik va yirtqich hayvonlardan saqlanishning birdan-bir chorasi ularning nomini aytishni man etish, atamaslik deb tushungan. Aloqaaralashuv muomalasida so'zlarni aytishni bunday man qilish, taqiqlash hodisasi tabu deb ataladi.

Nomini aytish man etilgan qo'rqinchli narsa va hodisalarni, yovuz kuchlarni chaqirish xavfini tug'dirmay gapirish zaruriyati tug'ilganda, ular boshqa so'zlar, ya'ni evfemizmlar bilan almashtiriladi. Tabu hodisasi izlarini tilda hozir ham uchratish mumkin. Masalan, yirtqich hayvon bo'ri o'rnida itqush, qabishqir, qoribiqul, jondor; kasallik nomi qizamiq o'rnida gul, oymoma, haymoma; chayon o'rnida eshak, oti yo'q, benom (Urgut rayonida), gazanda (Andijon), ayri quyruq (Xorazmda), besh bo'g'in, gaj-dum (Surxondaryoda) kabi so'z yoki so'z birikmalarining ishlatilishi evfemizm hodisasidir³.

Quyndagi misolda aytish noqulay bo'lgan kasallik nomi o'rnida evfemistik so'z ishlatilgan: Biz oq domla deganning tashqisiga ko'chadigan bo'ldik. Oq domlaning tashqisi... hozir jin-nixona qilib qo'yilgan, domla shu yerda jinnilarni o'qib tuzatar ekan. Oq domla peshanasi, ko'z ostlari, bir chekkasi va butun bo'yni oppoq pes, biroq nafasidan jinni shifo topadigan bo'l-gani uchun xalq pes domla degani og'zi bormay, oq domla derkan». (A. Q.)

O'zbek tili xilma-xil evfemistik iboralarga boy bo'lib, muomalada ularning turli tiplari keng miqyosda ishlatiladi.

Ba'zi evfemizmlar bir asosiy tushunchani ifodalasa-da, lekin ular o'zlariga xos ottenkalari va kishilarning bir xil tushunchaga turlicha munosabatda bo'lishlarini ko'rsatishi jihatidan farqlanib turadi. Evfemizmlarning bunday farqlanuvchi belgilari sifatida turli emotsional-ekspressiv bo'yoqqa egaligi, biron nutq ko'rinishiga mansubligi, adabiy til yoki dialektga xosligi kabi holatlarni ko'rsatish mumkin. Masalan, o'zbek tilida o'lim tushunchasini ifodalash uchun ishlatiladigan vafot qilmoq, joni uzilmoq, jon bermoq, qazo qilmoq, olamdan o'tmoq, ko'z yummoq, mangulik uyqusiga ketmoq, bandalikni bajo keltirmoq, omonatini topshirmoq kabi evfemizmlar emotsional-ekspressiv va stilistik bo'yog'i bilan bir-biridan farqlanadi. Bulardan tashqari, kitobiy nutqqa xos bo'lib, hozirda

arxaiklashgan quyidagi kboralar ham o'lim tushunchasini bildiruvchi evfemizmlar hisoblanadi: Safar ixtiyor qildi va ul safarda oxirat safari oldig'a tushdi. (N.) Pirim shu yerda manzilu murodlarini topib, ilohimning dargohiga maktul ztildilar. (As. M.)

Nihoyat, shevalarda ham shu tushunchani ifodalovchi yana bir-muncha evfemizmlar uchraydi. Masalan, bola o'lsa bola uchOi, go'dagi uchdi (Namangan va Farg'ona shevasida), nobud bo'ldi (Toshkent), bola chennadi (Samarqandning ayrim rayonlarida), bola chetnabdi (Gurlan rayonida) kabi iboralar ishlatiladi.

Yuqoridagilardan ko'rinadiki, evfemizmlarni aytish noqulay yoki noo'rin bo'lgan so'z, ibora o'rnida silliqroq, pardali so'zlarni ishlatish ehtiyoji bilan yasalgan ijobiy ottenkali so'z va iboralar yig'indisi tashkil qiladi.

Leknn tilda aytish noqulay va noo'rin bo'lgan tushunchaii evfemistik usul bilan yumshoq, silliqroq formada ifoda etishdan tashqari, qo'pol va dag'al formada ifodalash usuli ham mavjud. Bunday so'z va iboralar kakofemizm (yoki disfemizm) deb yuritiladi. Masalan, o'lim tushunchasini ifodalash uchun quyidagi kabi kakofemizmlar ishlatiladi: ko'ziga tuproq to'lmoq, asfo-losofilinga jo'natmoq, yer tishlamoq, yerning qa'riga ketmoq, qulog'i tagida (ostida) qolmoq, yostig'ini quritmoq, narigi dunyoga jo'natmoq va boshqalar. Kakofemizmlar so'zlovchining tinglovchi-ga yoki biror predmetga nisbatan masxara, istehzoli, iltifotsiz qarashini, munosabatini ifodalaydi.

Tilda azaldan o'rnashib qolgan evfemizmlardan tashqari, muayyan nutq vaziyati talabi bilan yaratilgan evfemizmlar ham mavjud. Bu xil evfemizmlar tildagi mavjud so'zlarga nisbatan kontekstual sinonim bo'ladi. Ko'pgina hollarda evfemistik perefrazalarning ma'nosi kontekstda ochiladi va ular stilistik funksiyasi jihatidan avtor yoki asar qahramoni nazarida qo'pol tuyulgan so'z, iborani yumshoq, silliqroq formada ifoda qilish vazifasini bajaradi. Masalan: —Avval eson-omonqutulib oling, o'rtoqjon. (As. M.) Ra'noni egasiga topshirmagunimizcha — dedi Nigor oyim,— quyilmaydiganga o'xshaydi. (A. Qod.) Bu misollarda nutqiy odob nuqtai nazaridan qo'llanilib, tug'moq so'zi o'r-nida qutulib olmoq, erga bermoq o'rnida egasiga topshirmoq kabi evfemistik ma'no kasb etgan bu iboralar kontekstdan tashqari-da butunlay boshqa ma'no apglatishi mumkin.Xuddi shuningdek, badiiy evfemizmlarning ham ma'nosi, odatda, kontekstda ro'yobga chiqadi. Kontekstdan tashqarida o'zining evfemistik ma'no xususiyatini yo'qotadi. Haqiqatan ham quyidagi misolda turmush o'rtog'i—«eri» ma'nosida qo'llangan gavhar, suvvat so'zlari kontekstdan tashqarida hech vaqt bu ma'noni anglatmaydi. Masalan: Maryamxonim (achchiq ila marjonni uzib yutib, yerga urib): — Ol bisotingni, mening gavharim bor, quvvatim bor, ko'zimga ko'rinmaydi bunaqa narsalar. (H. H.) Quyidagi kontekstda esa bir zanjir — uchinchi bir odam birikmalari «qornimda bola bor, homiladorman» ma'nolarida ishlatilgan: Jamila: — Hali men sizdan suyunchi olmoqchi edim. Bizni kim ajrata oladi, axir ikkimizni

mahkam bog'laydigan yana bir zanjir — uchinchi bir odam... (H. H.)

Vzuvchilar evfemizmlardan o'z asarlarida hazilomuz, yumoristik tayevir yaratish uchun ham keng foydalanadilar. Masalap, Abdulla Qodiriy «Kalvak Maxsumning xotira daftaridan» degan hajviy asarida Maxsum domlaning jismoniy nuqsonini — Rilayligini xalq tilidagi hazil ibora — qassobdan et olib baqqol bilan muomala qilmoq evfemizmi bilan ifoda qiladi. Maxsum domla o'zining go'daklik chog'ini hikoya qilar ekan, shunday deydi: Faqir shu yo'sin ikki yil komil beshikda sirilib yota-yota— boshqalardek beshikdan qutulib erkka chiqibdurmen. Ammo nazir boshim kesak qisqon qovundek qiyshiq bo'lib va yana jovdirlag'on ko'zim qassobdan et olib baqqol birlan muomala qilaturg'on darajaga yetibdur.

Quyidagi misolda esa Hamza Hakimzoda pora bermoq o'rnida tarnov-parnovini ho'llamoq individual evfemistik iborasini qo'llaydi: Qodirqul: — Biz ham o'shalarchalik tarnov-parnovingiz-ni ho'llab qolarmiz. Keltirilgan misollardan ko'rinadiki, evfemizmlar badiiy adabiyotda, asosan, aytish uyat, noqulay va poxush vaziyatlardan qutulishning birdan-bir stilistik vositasi sifatida ishlatiladi. Bundan tashqari, badiiy asarda obraz va personajlar nutqdada ishlatilgan evfemizmlar har bir obraz va personajning maqead, dunyoqarashi va saviyasini ifodalashdek muayyai stilistik mahsadni ham ko'zda tutadi.

9- Mavzu FONETIK USLUBSHUNOSLIK

Reja:

1. Fonetik uslubiyyat va uning asosiy ob'yekti.
2. To'liq va to'liqsiz talaffuz ko'rinishlari.
3. Ayrim nutq tovushlari talaffuz variantlarining uslubiyy ahamiyati.

Adabiyotlar:

1. Shoabdurahmonov Sh. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Tosh: O'qituvchi. 1980.
2. Shomaqsudov A. So'zlashuv stili// O'zbek tilshunosligining ba'zi masalalari. Tosh DU. Ilmiy asarlar, 427-chiqishi. Toshkent. 1972, 37-42-b.
3. Hakimov M. O'zbek tilida matnning pragmatik talqini: Filol. fan. d-ri diss. ...avtoref. Toshkent. 2001, 21-23-b.
4. Bondaletov V., D., Vartapetova S.S., Kushlina E.N., Leonov N.A. Stilistika russkogo yazika. grad: Prosvesheniye. 1989.

5.Boymirzayeva S. Oybek prozasining lingvostilistik tadqiqi:Filol.fan.nom....dis.avtoref. Samarqand. 2004.

6.Abdullayeva L. Stilistika differentsiatsiya leksiki uzbekskoy xudojestvennoy literatury. Avtoref.diss....dok-ra filol.nauk. Tashkent. 1980.

7.Shomaqsudov A. va boshqalar. O'zbek tili stilistikasi. Toshkent: O'qituvchi. 1983.

8.Kazakov Sh. Semantika-stilisticheskiye osobennosti emotsional'no-otsenochnoy leksiki dram Xamzy. Avtoref. Diss....kand.filol.nauk. Tashkent. 1990.

9.Xolboyeva M. Emotsional bo'yoqdor so'zlarning uslubiy qo'llanishi. //G'afur G'ulom va davr. Toshkent. 2003, 104-108-b.

10.Karimov S. O'zbek tilining badiiy uslubi.- Samarqand: Zarafshon. 1992.

11.Kojina M.N. Stilistika russkogo yazyka. Moskva: Prosveshcheniye. 1977.

Hozirgi o'zbek tilining so'zlashuv uslubi xilma-xil bo'lib, uni ikki asosiy turga ajratish mumkin: adabiy-so'zlashuv uslubi va oddiy-so'zlashuv uslubi. Adabiy - so'zlashuv uslubi tilning adabiy me'yoriga mos bo'lib, tartibga solingan va puxta ishlanganligi bilan ajralib turadi. U grammatik noaniqliklardan hamda sodda til, jargon va sheva elementlaridan holidir. Oddiy-so'zlashuv uslubi uchun esa erkin muomala qilish xususiyati mavjud. Bu uslubda tilning adabiy me'yorlariga mos kelmaydigan fonetik, leksik-frazeologik hamda grammatik hodisalarni kuzatish mumkin. Milliy tilning ravnaqi uchun leksik-frazeologik va grammatik me'yorlar bilan bir qatorda talaffuz me'yorlari ham juda ahamiyatlidir. Nutqning xarakter va xususiyatlariga ko'ra talaffuz usullarini ikki asosiy guruhga bo'lish mumkin: 1) to'liq usul; 2) qisqartma usul.

So'zlashuv uslubida umumadabiy tilga xos, shuningdek og'zaki nutqqa xos talaffuz xususiyatlarini ko'rish mumkin.

Talaffuzning qisqartma usuli asosan jonli so'zlashuvda, og'zaki nutqda uchraydi. Buning quyidagi ko'rinishlarini uchratish mumkin: 1) so'z tarkibidagi tovushlar tushib qolishi: ko'kartmoq-ko'kartirmoq, barikaram-bargikaram, tashamoq-tashamoq kabi; 2) so'z tarkibidagi bir tovushning boshqa tovush bilan almashinishi: bo'qoq-buqoq, minchoq-munchoq, ko'mirchak-kemirchak, ko'ynak-ko'ylak, tannov-tarnov, qamich-qamish, tiqillamoq-tiqirlatmoq, to'xtamoq-to'xlamov kabi; 3) o'zak, negizlarda hosil bo'ladigan qisqartmalar: opti - olibdi, kepti-kelibdi, opkepti-olib kelibdi kabi; 4) so'z tarkibidagi tovushlarning o'rin almashishi: qiyg'ir, na'mat, sharpa, o'rpimoq kabi; Nutqda tovush hamda ohanglarning ma'lum yashirin (illokutiv) maqsad bilan qo'llanishi natijasida muallif munosabatining ifodalanishi fonopragmatik tahlil ob'yekti hisoblanadi.

Lingvistik birliklar tarkibidagi tovushlarning o'zgarishi natijasida hosil bo'luvchi ma'nolarni fonopragmatika tadqiq etadi. Masalan, «Aylanay, o'jimi qijimdan!» (So'zlashuvdan) gapidagi «o'zim», «qizim» so'zlaridagi tovush o'zgarishi bilan erkalash, suyish ma'nolari yuzaga chiqadi. «Men o'richcha bilmayman» (S.A.) gapidagi personaj nutqida «o'rischa» so'zining «o'richcha» tarzida talaffuz etilishi bilan uining «sodda», «qishloq qizi» ekanligi kabi ma'no anglab olinadi.

Nutqda tovush tushirilishi hodisasi salbiy va ijobiy xususiy munosabatni ifoda etadi. Masalan, «Qayerning xandalagi, amak? – dedi u oliftagarchilik qilib» (S.A.) Bu nutqda «amaki» so'zidagi «i» tovushining ataylab tushirilishi bilan «mensimaslik», «o'zini katta olish» kabi ma'nolar yuzaga chiqadi.

Tovush almashinish hodisasi asosida ma'no hosil bo'lib, bu nutq muallifining adresatga nisbatan salbiy yoki ijobiy munosabati bilan bog'liq bo'ladi: Masalan: Kelling ismi Olimboy akaga Xanka emas, Xangi bo'lib eshitildi shekilli, bir sakrab tushdi» (S.A.) Bu o'rinda tovush almashinishi bilan «befarosat», «baqiroq» ma'nolari hosil bo'lgan.

Tovush orttirilishi fonostilistik tomondan nutqiy ohangdorlikni hosil qiladi.

Tovush ikkilantirish bilan nutqda «ta'kid», «piching» kabi ma'nolar yuzaga chiqadi: Ne'mat o'rnidan turib ketdi.

-Bas qiling, o'rtoq Xo'jjayip, gap tamom.

-Xo'p, kechirasiz o'rtoq Babbayev,-dedim (S.A.)

Tayanch tushunchalar:

Fonostilistika – uslubshunoslikning nutq tovushlarining tilning ta'sirchan vositasi bo'lib xizmat qila olish usullari va qonuniyatlarini o'rganuvchi bo'limi.

Fonetik o'zgarish-so'zning fonetik tuzilishda bo'ladigan o'zgarish.

Assonans-aynan yoki yaqin unli.

Nazorat savollari:

Fonetik stilistikaning maqsad va vazifalari nimalardan iborat?

To'liq talaffuz kimlar nutqi uchun xarakterli?

To'liqsiz nutqning xarakterli xususiyatlarini misollar yordamida tushuntiring.

Ayrim nutq tovushlari talaffuz variantlarining uslubiy ahamiyatiga badiiy asarlardan misollar keltiring.

10-Mavzu: Leksik stilistika

Reja:

1. Tilning leksik-frazalogik jihatidan uslubiy boyligi.
2. Ko'p ma'noli so'zlarning uslubiy xususiyatlari.
3. Boshqa tillardan kirgan so'zlar.
4. Emotsional-ekspressiv leksikaning uslubiy xususiyati.
5. Dialaktizmlar, kasb –hunar leksikasining uslubiy ahamiyati.
6. Jargon va argonlar uslubiy xususiyatlari.

Mavzu uchun tayanch atamalar: Polisemantik so'zlar, dublet, frazeologizm, eskirgan so'zlar, dealektizm, alliteratsiy, omonimlar, sinonimlar, antonimlar, efemizmlar, jargon, argon.

Tilning leksik-frazeologik xususiyatlari. So'zlarning denotativ ma'no bilan bir qatorda konnotativ ma'nolarga ham egaligi ularning funksional va ekspressiv-emotsional chegaralanishlarni keltirib chiqaradi. «Funksional normativ so'zlar» (E. Begmatov), deb nomlanuvchi umumiste'moldagi birliklar qo'llanish chastotasining faolligi, barcha Fular uchun bab-baravar xizmat qilishi bilan tilimizdagi boshqa leksik guruhlardan ajralib turadi. Leksik birliklar orasida shunday elementlar mavjudki, ular badiiy-estetik vazifani bajarishga boshqa birliklarga qaraganda ko'proq xizmat qiladi. «O'TIL»dagi ayrim elementlar bu fikrni to'la tasdiqlaydi. Masalan, unda «poetizmlar» belgisi bilan quyidagi so'zlar berilgan: abru, armug'on, bazmaro, balqimoq, bahoriston, boda, bo'ston, gavharafshon, giryon, gulbahor, guliston, gulro', gulshan, debocha, durafshon, jahonbaxsh, jondosh, jo'shmoq, jo'shqin, kuylamoq, libos, lolagun, lo'livash, maygun, mardonavor, mastona, mahvash, mahpora, moviy, mujda, naylayin, nash'a, netay, otashlanmoq, otashqalb, paymona va boshqalar. Agar bu qatorga kt. va esk.kt. belgilari bilan ajratilgan so'zlarni ham kiritsak (kiritishimiz kerak, albatta), ular tilimizda salmoqli o'rinni tashkil qiladi. Emotsional-ekspressiv ma'no ottenkasini ifoda etish asosiy o'lchov sanaladigan BUga xos chegaralanganlik ana shu tarzda namoyon bo'ladi. Bir narsa yoki voqea-hodisani anglatuvchi tushunchaning tilda bir necha xil ifodasi mavjud bo'lishi bunday chegaralanish, boshqacha aytganda, qamrov va tanlash doirasini yana ham kengaytiradi. Shuning natijasi o'laroq, tilimizda yuzaga kelgan poetik leksika hamda kitobiy leksika deb ataluvchi guruhdagi so'zlarning aksariyat qismi BUning Fular orasida o'z qiyofasiga ega bo'lishida asosiy poydevor bo'ladi. Tilimizdagi so'zlar semantik strukturasi, shakl va ma'no munosabati, tarixiyligi hamda iste'mol darajasining qamroviga ko'ra ma'lum lingvistik hodisalarni keltirib chiqaradi. Polisemantizm, sinonim, paronim, omonim, antonim, neologizm, istorizm, arxaizm, jargonlar singari bir qator guruhlar paydo bo'ladiki, ularning BUdagi o'rni to'g'risida so'z yuritmaslik mazkur uslubda leksik birliklarning ishtiroki to'g'risidagi tasavvurimizni

kambag'allashtiradi. Polisemantik so'zlar nutq jarayonida keng imkoniyatlarini namoyish qila oluvchi lingvistik vosita sanaladi. Biz uchun ham ularning ko'pchiligidagi ma'nolarning keng va turli-tuman ekanligi e'tiborga molikdir. □ Tilimizdagi bir, bosh so'zlari anglatgan ma'nolar ko'lamini eslashning o'zi kifoya. □ Ana shu ma'nolarning deyarlik hammasiga badiiy adabiyot tilida duch kelishimiz mumkin: Hukmingizga bo'ysundiramiz... O'z boshlaring qayda? - Boshimiz sizning qo'lingizdadir davlatpapoh... (O.Yoqubov).

So'zlarni ko'chma ma'nolarda qo'llash Buning muhim xususiyatlaridan biridir. Matnda so'z semantikasining o'zgarishi, kengayishi, ko'p aspektli bo'lishi va, hatto, lug'atlarda qayd etilmagan ma'nolar kasb etishi mazkur uslub uchun qonuniyat sanaladi. Dublet so'zlar. Tilimizda baravar-barobar, nabira-nevara, ustoz-ustod singari dublet so'zlar bor. Ularning mavjudligi normativ leksika nuqtai nazaridan ijobiy hodisa sanalmasa-da, BUda ularga befarq qaralmaydi.

Masalan, O.Yoqubovning «Ulug'bek xazinasi» romani Ali Qushchini Mirzo Ulug'bek o'z huzuriga chaqirish voqeasi bilan boshlangan. Bayonga endigina kirishilgan, Ali Qushchi obraziga ta'rif berilib ulgurilmagan bir paytda muallif nutqida ustod so'zi ishlatiladi: Ikki kungacha ustodning mahzun nigohi ko'z oldidan ketmay iztirob chekdi, bir necha bor Ko'ksaroyga borishga chog'landi, lekin jur'at etolmadi. Mana endi ustod o'zi uni Ko'ksaroyga chorlabdilar. Ustoz-ustod so'zlari bu o'rinda bir xil stilistik qiymatga ega emas. Ustoz odatda betaraf, ustod da esa unga nisbatan ekspressiv bo'yoq mavjud. Shuning uchun u matnda Ali Qushchining o'z muallimiga bo'lgan mehr tuyg'usini ifodalovchi vositaga aylangan: – Ma'zur ko'rgaysiz, ustod! Ammo ustod so'zining yuqorida muallif tilidan berilishi yanada chuqurroq ma'no kasb etgan. Bu bilan yozuvchi, birinchidan, Ali Qushchiga nisbatan o'zining ijobiy munosabatini bergan bo'lsa, ikkinchidan, eng asosiysi, personajning munosabatini va gapirish uslubini saqlab qolgan. Boshqa kishilarga nisbatan esa asarda asosan ustoz so'zi ishlatilgan. Sinonimlar tilimizning ijtimoiy va badiiy-estetik jilolarini namoyish qila olishi bilan eng oliy o'rinni egallaydi. □ Shuning uchun ham A.M.Peshkovskiy va A.I.Yefimov singari olimlar nutqiy vositalar sinonimiyasini o'rganishni stilistikaning markaziy muammosi, deb hisoblaganlar. Yozuvchining til ustida qilgan mehnati – sinonimik birliklar ustida ishlash mashaqqatidir. U badiiy adabiyotda zarur lingvistik vosita sanaladi. «Sinonimlarning mavjudligi va umuman variantlilik muomalaning u yoki bu vaziyatga mos keladigan til vositalarini tanlashga sharoit yaratadi, shu sababdan tanlash tushunchasi stilistik kategoriyalar qatoriga kiradi». Sinonimik qatordagi emotsional-ekspressiv ottenkaga ega bo'lgan elementlarni saralash funksional jihatdan chegaralashda o'lchov vazifasini bajaradi. Ularning emotsional-ekspressiv darajasini aniqlash bu elementlarning iste'moldagi faolligiga asoslanishi lozim. Darig' tutma mehringni mendan, So'zsiz qoldim, Tangrim, so'z yubor (U.Azim). Afrika, Hindiston, Iroqu Ajam Tevaning to'shiday bo'ldi tap-taqir (G'.G'ulom). Ha, shunday, xoqonim, hisoblab chiqdik (A.Suyun) misollaridagi tangri, hoqon, teva so'zlari hozirgi tilimizda deyarlik ishlatilmay kelayotgani uchun ham xudo, podshoh va tuya

birliklariga nisbatan birmuncha emotsionallik kasb etgan.

Shunday holatlar borki, bir tushunchaning atamasi bo'lgan o'nlab so'zlar BUGa tegishli. Masalan, go'zal ayolga, ma'shuqaga nisbatan ishlatiladigan so'zlarni ko'z oldimizga keltiraylik: malak, nozanin, parivash, sanam, sarvqomat, qalamqosh kabi. Ularning har biri matnda alohida stilistik qimmatga ega bo'lib, poetik aniqlovchi sifatida kelganida ularning salmog'i yana ham oshib ketadi. Har bir milliy tilda sinonimlarning mavjud bo'lishi va sinonimik qatordagi birliklar soni bu tilning boyligini ko'rsatuvchi sifat belgilari sanaladi. Neologizmlar. Tabiat va jamiyatdagi narsa va hodisalarining tildagi yangi ifodasi sifatida vujudga keladigan neologizmlar BUDA salmoqli o'ringa ega. □ Ular tilda avvaldan bor bo'lgan birliklarning hozirgi til leksik-grammatik me'yoriga g'ayri odatiy bo'lgan tartibda qo'llanishidir. □

Badiiy ijod bilan bog'liq bo'lgan neologizmlarni okkazionalizmlar (E. Begmatov), individual-stilistik neologizmlar (X. Abdurahmonov, N. Mahmudov) tarzida atashlar uchraydi. Badiiy ijodda doimo yangi so'z yasashga intilib kelinadi. Bu yaratilgan so'zlar o'sha matnning o'zida qolib ketishi, tildan mustahkam o'rin olmasligi mumkin. Bu narsa ma'lum sharoit va vaqt bilan bog'liq. Ammo uning, hech bo'lmaganda shu matnda, ta'siri bo'lishi shubhasiz: Qaldirg'ochlar uchdi larzakor (A. Oripov); Lekin faqirga eng ulug' tuyulgan fazilatlari – Hazrat Mirning iste'dodshunosliklari-yu, zakovatparvarliklari edi (P. Qodirov) kabi. Bu kabi so'zlar yangi semantik ottenkalarining paydo bo'lishiga asos yaratishi mumkin. Neologizmlarga xos bo'lgan xususiyatlardan yana biri shundaki, ularning muallif nazarda tutgan ma'nosi matniy qurshovdagina reallashadi: Shunisi borki, bizdagi san'atshunoslarning ko'pchiligi shunaqa. Har qanday kartinaga duch kelsangiz bir xil qolipdagi an'anaviy gaplarni tizib tashlaydi. Bular tuyg'usi o'tmaslashib, fikrlashdan ham ortda qolgan shunoslardir (N. Qobul). Yana bir xarakterli xususiyat – ularda muallifning sub'yektiv bahosi aks etishidir. Harqalay, ijodda o'z ovozi va individual uslubiga ega bo'lishga intilish mavjud ekan, yangi so'z yaratishga bo'lgan qiziqish ham davom etaveradi.

Frazeologizmlar. O'zbek tili FBlari borasida o'zbek tilshunosligida sezilarli ishlar qilingan. Ularning funksional-stilistik xususiyatlariga doir tadqiqotlar olib borilgan. Badiiy matnlar frazeologizmlari tahlili ularda funksional xoslanishning mavjudligini ko'rsatadi. FBlar tabiatan obrazli ifoda bo'lganligi tufayli dastlab yo SNda yoki badiiy adabiyotda paydo bo'ladi va ular orqali ommalashadi. Vaqt o'tishi bilan boshqa uslublarga xos chegaralanish birmuncha aniq reallashishi, turg'un-me'yoriy holatga kelishi mumkin. Frazeologizmlarning BUGa xos alomatlari ularning ijodkorlar tomonidan erkin, umumxalq tilida mavjud bo'lgan shakllarini umumiy mazmunga putur yetmagan birmuncha obrazli tarzda o'zgartirib qo'llashda ko'rinadi: yelkasiga oftob tegmoq: Hech quyosh ko'rmagan bizning orqamiz (H. Olimjon). Ijodkorlar tomonidan umumxalq tilida mavjud bo'lgan frazeologizmlarning, maqollarning yangi variantlari yaratiladi: Tabiiy, bu kichik kolxozlarning har bittasining o'z kazo-kazolari, o'z ombori-yu, o'z kalamushlari bo'lgan (O. Yoqubov). Demak, leksik birliklardan tashqari

frazeologizmlarning, maqol va matallarning, xalq iboralari va hikmatli so'zlarning erkin va keng planda ishlatilishi ham BUning asosiy belgilaridan sanaladi.

FBlar asosan so'zlashuv va badiiy nutqlar mevasidir. Ulardagi boshqa uslublarga xos chegaralanishlar esa ma'lum muddat keyin yuzaga keladi. Frazeologizmlardagi BUga xoslanish ularning ijodkorlar tomonidan erkin foydalanishida ham ko'rinadi. Shoir va yozuvchilar tilda mavjud bo'lgan modellar asosida yangi frazeologizmlar yaratadilar. Har bir ijodkorning individualligi ularning frazeologizmlarga bo'lgan munosabatida xam yaqqol ko'rinadi.

Eskirgan so'zlar. Qo'llanishi birmuncha susaygan yoki umuman qo'llanilmay qo'ygan so'zlar guruhi borki, ular funksional jihatdan ham anchagina chegaralanib qolgan. SUda deyarlik ishlatilmaydi, IUda juda kam foydalaniladi, PU va RUlarda esa davlat tuzumimizning va ijtimoiy munosabatlarning yangi asosga qo'yilishi tufayli ularga qaytadan murojaat qilish ehtiyoji tug'ildi. Faqat BUdagina eskirgan deb ataladigan bu guruh mavqeini birmuncha saqlab kelmoqda□: abas, abr, ayyom, aylamoq, alhol, anvo, andalib, anduh, asno, ag'yor, ahbob, bashar, baqo, bahr, bil'aks, boda, bo'sa kabilar.

Ma'lum guruh so'zlarning qo'llanishi faqat she'riyat doirasi bilan chegaralanganligi ularning adabiy til me'yorlari nuqtai nazaridan passivlashganidan dalolatdir: aylamoq-etmoq; banogoh-kutilmaganda, tasodifan; mubham-noaniqlik; mujda-xabar; tilamoq-istamoq, xohlamoq, so'ramoq; g'addor-sotqin kabi. Demak, eskirgan so'zlar badiiy adabiyot tilida ikki vazifani: nominativ hamda emotsional-ekspressiv vazifani bajarishga xizmat qiladi.

Eskirgan so'zlarni qancha saqlansa bahosi shuncha oshib boraveradigan qimmatli javohirlarga qiyos qilish mumkin. Shuning uchun ularni BUning muhim lingvistik alomatlaridan deb aytishga asoslar bor.

Dialektizmlar. Umumxalq tilining muhim qismi bo'lgan dialektizmlar, garchi asosan UGa xos birliklar sanalsa-da, ulardan badiiy adabiyotda foydalanishga yo'l qo'yiladi.

Ilmiy adabiyotlarda adabiy til me'yorlariga mos kelmasligi tufayli nutqda, xususan, adabiy nutqda chegaralangan dialektizmlar alohida holatlarda qo'llanilishi, ya'ni personajlar nutqini individuallashtirish, mahalliy koloritni, ruhni berish uchun qo'llanilishi qayd qilinadi. Shu bilan birga, ularni qo'llashda chegara bo'lishi, nutqda suiiste'mol qilishga yo'l qo'yib bo'lmasligi haqida so'z yuritiladi.

Badiiy adabiyot tilidagi dialektizmlar xususida gap ketganda ikki holatni nazardan qochirmaslik lozim. Birinchidan, ularning asarda til fakti sifatidagi ishtiroki: Mushtumzo'rni ontarganday ontarib yerni (U.Nosir). Ikkinchidan, ularning adabiy asarlarda stilistik vazifani bajarishi. A. Shomaqsudovning ta'kidlashicha, ular adabiy tilning muayyan FU doirasiga o'tishi bilan, o'sha uslubga mos va muvofiq keladigan stilistik va emotsional

buyoq olishi, masalan, oddiy SUGa yoki poetik uslubga xos bo'yoq kasb etishi ham mumkin□: Momontlar to'dasi chiqdi o'rmondan... Bostirib keldilar guras va guras (A. Oripov) kabi.

Keyingi yillar o'zbek prozasida dialektizmlarni qo'llashda birmuncha erkinlik sezilmoqda. Bunday holni biz badiiy adabiyotni real hayotga yaqinlashtirish, tasvirda tabiiylikni ta'minlash deb baholash tarafdorimiz. Dialektizmlar tilning boshqa elementlari kabi BUda estetik vazifani bajarishga xizmat qiladi va badiiy asarlar ularning adabiy tilga o'tib turishida ko'prik vazifasini o'taydi.

Gapiruvchi nomlar. Tilimizda laqablar va taxalluslarning□ qo'llanishida uslubiy alomatlar seziladi, ya'ni ularda SU va BUlarga xos obrazlilik mavjud. Ular personajlarni baholaydi, xarakterlaydn, mashg'ul bo'lgan kasbiga, yoshiga, qayerlik ekaniga ishora qiladi. Ular personajlarning ijtimoiy mavqeiga, fizionomiyasiga yoki xarakteriga moslab tanlanadi. Shuning uchun ham bunday antroponimlar tilda obrazli tarzda gapiruvchi nomlar deb yuritiladi.

Gapiruvchi nomlarning adabiy asarlarda ishlatilishida yaqqol anglashilib turmaydigan metaforizatsiya hodisasi yuz beradi.□ «Ulug'bek xazinasi»da: Ali Qushchi usta Temur Samarqandiy bilan xayrlashib, Qalandar ikkovlon g'ordan chiqarkan, go'yo yelkasidan tog' qulaganday yengil tortdi. Ustaning nomi Temur deb atalishi, Samarqandiy taxallusining berilishi ma'lum ma'noda personajning kasbiga, xarakteriga hamda tug'ilgan yoki yashash joyiga ishoradir. Ustaning shogirdlari nomlari Qolqonbek va Bosqonbek xaqida ham shu gaplarni aytish mumkin. Romandagi Xurshidabonu, Qalandar Qarnoqiy, Qashqir, amir Jondor kabi nomlar ham shu tarzda «gapiradi».

Laqablar va taxalluslar ramziy ma'no tashishga xizmat qiladigan nomlar bo'lib, ularning faolligi o'zbek tili tabiatiga mos va qo'shimcha ottenkalarni ifodalashga, ko'pincha komik effekt berishga xizmat qiladi: Xudoyqul chag'irko'z, qoqburun, Sattor sergap, Norbekso'qim; Mamadazim hechnima, Qodirqul nosfurush, Jumantoy tentak, Rahim boshmon; Suyunboy surpaquloq; Safar soqov; Allamurod dum (N.Qobul) kabi.

Adabiy asarda personajga umuman nom berilmasligi xam mumkin. Bunda ham ma'lum stilistik maqsad ko'zda tutilgan bo'ladi. A. Qahhor «San'atkor» hikoyasida asar qahramoni – san'atkorning nomi yo'q. Urg'u san'atkor so'ziga berilgan. U o'zini chinakam ma'noda san'atkor, bilimli, madaniyatli, tilni, o'z kasbini yaxshi biluvchi kishi deb hisoblaydi. Vaholanki, bayonidan qahramonning madaniyatdan, san'atdan yiroq kimsa ekanligi ma'lum bo'lib turadi.

Nomlar «gapirishi» SU va BUning lingvistik belgilari sanaladi. V. V. Vinogradov ta'kidlaganidek, badiiy adabiyotda ismlar, familiyalar, laqab va taxalluslar tanlash, ularning turli janr va uslublarda struktural o'ziga xosligi, obraz hamda xarakter yaratishdagi vazifasi va shu kabi masalalar - bu badiiy adabiyot stilistikasining juda katta va murakkab mavzusidir.

Anglashiladiki, tildagi leksik resurslarning BUDagi ishtiroki darajasi bir xil emas. Masalan, polisemantizmlar, sinonimlar, antonimlar, omonimlarning xizmatlari katta bo'lishi bilan birga, boshqa vositalar - dialektizmlarni, varvarizmlar, vulʼgar, jargon soʻzlarni, eskirgan soʻzlarning bir qismi boʻlgan istorizmlarni va atamalarni BUGa xoslangan deb boʻlmaydi.

Soʻz va uning maʼnosi. Nutqning aniq va ravshan boʻlishi, avvalo, soʻzdan toʻgʻri foydalanishga bogʻliq. Soʻzni oʻz oʻrnida toʻgʻri ishlata bilish uchun uning leksik maʼnosini anglash zarur.

Soʻzning leksik maʼnosini tushunmaslik uni xato qoʻllashga olib keladi. Masalan: Oʻn kun deganda yer haydash va ariq chopish tugallandi. Bu gapda chopish soʻzi xato qoʻllangan. Odatda, ariq chopilmaydi, qaziladi. Sekin-asta deb, xotirjam yuraversangiz, gʻalvir suvdan koʻtarilganda, brigada aʼzolari yuzingizga qorakuya chaplaydi. Bu misolda chaplamoq feʼlining leksik maʼnosidan toʻgʻri foydalanilmagan. Odatda, qorakuya surtiladi, loy chapla-nadi.

«Agarda biror narsani aniq ifodalay olmas ekanmiz, bun-da tilimizdan emas, balki uquvsiz mahoratimizdan gina qilishimiz kerak»(,— degan edi M. V. Lomonosov.

Soʻz sanʼatkorlari tilga alohida eʼtibor berib keldilar, uslub va ifodaning sodda boʻlishini, nutqda fikriy mujmallikka yoʻl qoʻymaslikni targʻib etdilar. Ulugʻ oʻzbek shoiri Alisher Navoiy tilga eʼtibor — elga eʼtibor, deb tilning ahamiyatini alohida taʼkidladi. Bobur esa oʻgʻli Humoyunga yozgan maktublaridan birida uning (oʻgʻlining) xatda fikr ravonligi va aniqligiga rioya qilmaganligidan tashvishlanib «xatingni xud tashvish bilan oʻqisa boʻladi... Mundin nari betakalluf va ravshan va pok alfoz bila bit, ham senga tashvish ozroq boʻlur, ham oʻqigʻuvchiga»,— degan edi.

Ona tilini mukammal egallash uchun tilning nazariy va amaliy asoslaridan xabardor boʻlish kerak. Chunonchi, gap sostavidagi soʻzning semantikasi — maʼno tomoni, qoʻshimcha emotsional-ekspressiv ottenkasi va stilistik belgilari, fikrni soʻz vositasi bilan logik jihatdan toʻgʻri ifoda qilish usullari va shunga oʻxshash masalalarni puxta bilish zarur. «Opa tilini oʻrganish,— deydi M. I. Kalinin,— nihoyatda ulugʻ bir ish. Inson tafakkurining erishgan eng yuksak yutuqlari, eng chuqur bilimlari va gʻoyat otashin hislar, agar ularsoʻz vositasi bilan aniq va ravshan ifoda qilinmasa, odamlar uchun nomaʼlumligicha qolaveradi. Til fikrni ifodalash qurolidir. Binobarin, agar fikr nutq vositasi bilan bayon qilingan boʻlsa, agar u til vositasi bilan roʻyobga chiqqan boʻlsa, agar u, filosoflar tili bilan aytganda,— boshqalarga bevosita borib yetsa, reallashsagina fikr boʻla oladi».

Omonimlar. Har bir tilning lugʻat sostavida tovush tarkibi va yozilishi jihatidan bir xil, ammo maʼnosi har xil boʻlgan soʻzlar muayyan miqdorda topiladi. Bunday soʻzlar omonimlar grup-pasini tashkil qiladi.

Fonetik (tovush) tomondan bir xil — shakli oʻzaro teng kelib qolgan ikki va

undan ortiq so'zlar omonimlardir. Omonimlar ma'no jihatdan o'zaro munosabatda bo'lmaydi — boshqa-boshqa tu-shunchalarni anglatadi. Masalan: ot (ish hayvoni, ism, buyruq fe'-li). Ko'p ma'noli so'zlarning shakli asli bitta bo'lib, ma'nolari o'zaro bir-biriga juda yaqin va aloqador, b'pri-ikkinchisiga bog'-liq bo'ladi. Masalan, bosh so'zi: kuchaning boshi, gapning boshi, tomning boshi, yerning boshi.

O'zbek tilida omonimlar turli ko'rinnshlarga ega. Chang (to'-zon)— chang (muzika asboblari), yoqmoq (chiroqni yoqmoq)— yoqmoq (uning nutqi menga juda yoqdi, «xush kelmoq, ma'qul bo'lmoq») kabi barcha grammatik formalari teng, b'pr so'z turkumiga kiruvchi so'zlar omonimlar deyiladp.

Omonimlarning ikkinchi tipi — omoformalar□. Ba'zi gramma-tik formalardagina teng keluvchn bir xil talaffuz qilinadigan va bir xil yoziladigan so'zlar omoformalar deniladi. Omoformalar ko'pincha boshqa-boshqa so'z turkumlariga mansub bo'ladi. Masalan: olma (ot)— olma (fe'lning buyruq shakli), qo'y (uy hayvoni)—qo'y (fe'lnpng buyruq shakli). Omonimlarning uchin-chn tipi omofonlardir. Bular aytilishi (o'qilishi) bir xil, ammo yozilishi va ma'nosi har xil bo'lgan so'zlardpr. Masalan: yetti (son) — yetdi (fe'l), yot (begona, buyruq fe'li)—yod (xotira). Ommofonlarni farqlamaslik ko'pincha og'zakp nutqda dudmollikka olib keladi. Omonnmlarning to'rtinchi tipi omograflar bo'lib, ular yozilishn bir xil, lekpn aytilishi (o'qilishi) har xil bo'lgan so'zlardir. Masalan: tok (uzum) —tok (elektr quvvati), tur (xil, nav)—tur (davra, shaxmat o'yinlarining ikkinchi turi boshlandi).

Tildagi har bir so'zning leksik ma'nosi boshqa so'zlar bilan munosabatga kirishganda reallashadi. Omonimlarnnng kontekstdan tashqari yolg'iz o'zini ishlatnsh deyarln uchramaydn. Shupday ekan, kontekst omonim so'zlar ma'nosi tufayli sodir bo'luvchi qiyinchilikni bartaraf qiladi.

Nutqda ikki xil anglash holatiga yo'l qo'yuvchi omonimiya hodisasi, o'z navbatida, tushuncha doirasinp kengaytiradi. Chunonchn, yozuv va talaffuzda bir o'rinda so'zni, ikkinchi o'rinda so'z birikmasini o'xshash — teng keltirish hodisasi ham omonim so'zlar doirasini kengaytiradi. Misollar:

Inson bo'lib qidirmadim yengil turmush va tanga,
Kuch-quvvatim ham hayotim — bor imkonim Vatanga.
Vatan desam umrim uzoq, hayot porloq ko'rinur,
Chunki Vatan sevgisidan kuch-quvvat jon va tanga.
(«yosh I.»)
Deydilarki, kungaboqar

Umr bo'yi kunga boqar.

(«yosh l.»)

Mudir magazinda qirq «ish»ni o'ylar

Savdoda bo'y-endan qirqishni o'ylar

Qing'irlik qilmagin! — degan kishining

Darhol qadamini qirqishni o'ylar.

Nutqda omofonlarni bunday nshlatish orqali so'z o'yinlari hosil qilinadi. Bunda tovush tomonidan o'xshash, lekin ma'nosi turlicha bo'lgan elementlarning, omonim so'zmi yoki so'z birikmasi ekanndan qat'i nazar, tekstdagi har galgi takrori juda muhimdir. Omonim so'zlarning bu tipidan, aynnqsa askiyada so'z o'yini va qochiriq vositasi sifatida keng foydalaniladi. Bu priyom yozuvchi va shoirlarimiz ijodida tez-tez uchrab turadi. Masalan, quyidagi misolda ma'nosi bir-biridan juda uzoq bo'lgan so'zlarning «to'qnashtirilishi» omonimik holatni yuzaga keltirgan:

Bir yosh yigit iste'dodli shoir oldiga kelib yozuvchilik da'vo qila boshladi:

Men ko'p vaqtlardan beri adabiy ishlar bilan shug'ullanib kelayotirman. Istardimki, men yozgan asarlar ham nashr qilinsa.

Siz nozimmi yeki nosir?— so'rabdi shoir diqqat bilan uning so'zlarini eshitgach.

Yigit yelkasini qisib javob beribdi:

— Nozim ham, Nosir ham emasman, mening nomim Karimjon.

(«O'zbekiston madaniyati».) Bu o'rinda adabiyotdan butunlay xabarsiz kishi qiyin ahvolga tushib qoladi: nozpm, nospr (nazm, nasr — adabiy termin — poeziya va proza) o'rniga unnng omoniminp (Nozim, No-sir — atoqli ot) qo'llab, suhbatdoshining savolpga hech aloqasiz javob beradi. Latifa avtori omonimlarni «to'qnashtirish» yo'li bilan yozuvchilikni da'vo qiluvchi knshining satirik xarakteristikasini chizadi.

Omonimlardan xalq og'zaki ijodida, badiiy adabiyotda maxsus poetik janr — tuyuq tuzishda keng foydalaniladi. Misollar:

Ko'lingdan kelgancha chiqar yaxshi ot,

Yaxshilik qil, bolam, yomonlikni ot.

Nasihatim yod qilib ol, farzandim

Yolgiz yursa chang chiqarmas yaxish ot. (Folxlor.)

Bunda ot so'zi birinchi satrda «nom, shuhrat», ikkinchi satrda «tark etmoq, tashlamoq», uchinchi satrda «ish hayvoni — ot» ma'-nolarida ishlatilgan.

Olmani sudi nigorim — ol! — dedi,

Olma birla bu ko'ngilni — ol! — dedi.

So'rdim ersa olmasining rangini,

Ne so'rarsan?— olma rangi — ol dedi. (N.)

Bu tuyuqda ol so'zi uch ma'noda ishlatilgan: 1) buyruq fe'li; 2) ko'ngil ovlamoq; 3) qizil rang.

Omonimlar va paronimlar ba'zi jihatlari bilan bir-biriga yaqin. Paronimlar tovush jihatdan butunlay teng bo'lmasa-da, lekin aytilishda birmuncha o'xshash bo'lgan so'zlardir. Ma-salan: adresat — adresant, diplomat — diplomant, indeyets— indiyets va boshqalar.

Naronimlarni xato qo'llash, odatda, kam tanish bo'lgan so'zlarda uchraydi. Notanish so'zlarning talay qismini terminlar tashkil qiladi. Masalan: betonit (ichi kovak g'isht)—bentonit (yuqori kolloidli loy), vol'tometr (elektr tokini ximik ta'sirga qarab o'lchaydigan asbob)—vol'tmetr (elektr toki kuchlanishini o'lchaydigan asbob).

Nutqda noaniqlikka yo'l qo'ymaslik uchun tildagi paronimlarni farqlay bilish, ma'nolarini to'g'ri anglay olish zarur. Aks holda quyndagicha qo'pol xatolar sodir bo'lishi mumkin: Boboqul bilan Polvon yumshoq o'rindiqqa o'tirishganda og'ir yukka bardosh berolmagan devondan beo'xshov ovoz chiqdi. («Kizil O'zbekiston».) Chanoqlardagi lo'ppi ochilgan paxtalar quyoshda yarqirab kumushdek toblanadi. («Kommunist» gazetasi.) Vokzal maydonyga avtomashinalarda necha yuzlab yoshlar kelib to'plandilar. Ularning qo'llaridagi shiorlar va transportlar baxtli yoshlikdan darak berib turibdi. («Kommunist» gazetasi.) Bu misollarda divan o'rnida devon, tovlandi o'rnida toblandi, transparant o'rnida transport so'zi noto'g'ri ishlatilgan.

Sinonimlar. Ma'nolari bir xil yoki o'zaro yaqin, talaffuz va yozilishi har xil bo'lgan so'zlar sinonim hisoblanadi. Masalan: chiroyli, go'zal, ko'rkam, ko'hlik, xushro'y, suluv, zebo kabi.

Sinonimlar ma'no va qo'llanish doiralariga ko'ra uch xil: ideografik, stil va stilistik sinonimlar. Ideografik sinonimlar o'zaro leksik ma'no ottentaklari bilan farqlansa, stil sinonimlari qo'llanish doirasiga (nutqning turli stiliga mansubligiga), stilistik sinonimlar esa ekspressiv bo'yog'iga (sinonimik qatorda asosiy, neytral so'zga nisbatan ekspressiv ottenkaga egaligiga) ko'ra farqlanadi.

Sinonimlarni differentsiyalash paytida, avvalo, ularning ekspressiv-stilistik ottentaklari, muhim farqlari ko'rinadi. Masalan: yuz, bet, aft, bashara, turq, chehra, jamol, diydor, oraz, uzor, ruxsor sinonimik qatorida yuz umum

ishlatadigan soʻzdir. Qolganlari esa turli maʼno ottenkalariga ega: bet, aft soʻzlari salbiy ottenkaga ega; bashara soʻzida salbiy ottenka yuqoridagilarga nisbatan yanada kuchli; turq soʻzida esa salbiy ottenka bashara soʻzidagiga nisbatan ham kuchli; chehra—ijobiy ottenkaga ega; jamol soʻzida ijobiy ottenka yanada kuchli boʻlib, bu soʻz, asosan, poetik uslubga xos; diydor koʻrishmoq, diydoriga toʻymoq kabi bir-ikki soʻz bilangina qoʻllanadi; oraz, uzor, ruxsor esa eskirgan soʻzlar boʻlib, ular kitobiy uslubga xos.

Oʻzaro umumiy maʼnosi bilan birlashib, stilistik ottenkasi — boʻyogʻi va nutqda ishlatilish doirasi jihatidan farqlanadigan sinonimlar stilistik sinonimlar deyiladi.

Leksik maʼnosi jihatidan farqalanadigan sinonimlar ideografikl (maʼno) sinonimlardir. Masalan, kasal (umum ishlatadigan soʻz), bemor (yozuvda koʻp qoʻllanadi), xasta (eskirgan soʻz), ammo baʼzan-baʼzan, orasira kasal boʻlib turish maʼnosini bildiruvchi betob, iotob soʻzlari yuqoridagilarga nisbatan stilistik va ideografik sinonimdir. Ideografik sinonimlar oʻzaro leksik maʼno darajasiga koʻra farqlanadi: yomgʻirda plashim nam boʻldi, yomgʻirda plashim hoʻl boʻldi bogʻlanishlarining keyingisida belgi darajasi kuchliroq. Nutqda fikr ottenkasi yoki emotsiyasiga, leksik, grammatik yoki stilistik xarakteriga mos sinonim soʻzlardan faqat bittasi tanlab olinadi va ishlatiladi. Shu sababdan sinonimik qatordagi soʻzlar oʻrtasidagi baʼzi farqlarni oʻrganish stilistikaning vazifasi hisoblanadi.

Muayyan sinonimik qatorni tashkil etuvchi soʻzlar konkret hollarda maʼno tomonidan bir-biridan ajraladi, stilistik qoʻllanishiga koʻra farqalanadi.

Bir sinonimik qatorni tashkil etuvchi soʻzlar maʼno jihatidan yaqin boʻlsa ham, baʼzan ulardan birini ikkinchisining oʻr-nida ishlatib boʻlmaydi. Masalan: ayanch ahvol, ogʻir ahvol, qiyin ahvol, mushkul ahvol birikmalarida ayanch, ogʻir, qiyin, mushkul soʻzlarni bir-biriga sinonim boʻlib, ayni oʻrinda ularni almashtirish maʼnoga xalal yetkazmaydi. Ammo boshqa bir konkret tu-shuncha yoki tasavvurni ifodalashda bu sinonim soʻzlarni leksik maʼno nuqtai nazaridan baholash lozim boʻladi. Masalan, ogʻir chamadon deyish mumkin boʻlgan holda, mushkul chamadon, qiyin chamadon deyish kulgilidir.

Sinonimlar nutqda ishlatilish doirasi jihatidan ham oʻzaro farqlanadi. Masalan, lab — barcha nutq stillarida ishlatiladigan umumnutq soʻzi, dudoq — badiiy nutq soʻzi; shamol — umumnutq soʻzi; sabo — badiiy nutq soʻzi; rohat — umumnutq soʻzi; eslamoq — umumnutq soʻzi; xotirlamoq— rasmiy nutq soʻzi; yoʻqla-moq — soʻzlashuv nutqi soʻzi. Bu xil sinonimlar stilʼ (uslub) sinonimlari deyiladi.

Shuningdek, ishlatilish doirasi chegaralangan yo chegaralanmagan boʻlishi mumkin. Masalan, keksa, qari, oqsoqol, nuroniy, moʻysafid kabi bir sinonimik qatorni tashkil etuvchi soʻzlar orasida qari soʻzining ishlatilish doirasini koʻrsatadi. Bu soʻz insondan tashqari, hayvonlar uchun ham qoʻllaniladi: qari ot, qari tulki kabi. Dekin oqsoqol, nuroniy, moʻysafid sinonim soʻzlarining ishlatilish doirasi

chegaralangan. Bunday holatlar — ishlatilish doirasining keng-torligi sinonimlar ma'no hajmiga, ya'ni ularning keng yoki tor ma'no ifodalashiga bog'liq.

Til faktlarni sinonim so'zlar bilan evfemizmlar orasida ma'lum darajada munosabat borligini ko'rsatadi. Ma'nosi qo'pol yoki aytilishi noqulay so'zlarni shunday taassurot tug'dirmay-digap so'z yoki ibora bilan almashtirish vositalaridag'. biri evfemizmdir. Masalan, kar va qulog'i og'ir, o'g'ri va qo'li egri, ikki-qat va og'ir oyoq kabi.

O'zbek tili nutqda nozik ma'no ottenkalarini hamda rang-barang stilistik bo'yoqlarni bera oladigan sinonimlarga boy. Mashhur o'zbek shoir va yozuvchilari, so'z ustalari sshyunimlardan mohirlik" bilan foydalanib kelganlar. Masalan, Alisher Navoiy o'zinig «Muhokamatul-lug'atayn» asarida birgina yig'lamoq so'-ziga mazmunan yaqin bo'lgan yettita sinonimni keltiradi: yig'lamsiramoq, ingramoq, singramoq, siqtamoq, o'kirmoq, qichqirmoq, hoy-hoy yig'lamoq. Navoiy bu sinonimlar bir-biridan nozik ma'no ottenkalar va stilistik qo'llanish o'rinlariga ko'ra farqlanishini misollar bilan ko'rsatadi. Ko'zdan ssh chiqarmasdan npg'lash — yig'lamsiramoqning ma'nosini Navoiy quyidagi baytda ochib beradi:

Zohid ishqin desaki, qilg'ay fosh,

Yig'lamsinuru ko'ziga kelmas yosh.

So'ngra Navoiy ingramoq va singramoq so'zlariga izoh berar ekan, «dard bila yashurun ohista yig'lamoqdur va oralarida tafavut oz topilur», deydi va quyidagi baytni keltiradi:

Nstasam davr ahlidin ishqingni pinhon aylamoq,

Kechalar goh ingramoqdir odatim, goh singramoq.

Sinonimik qatorni tashkil qiluvchi qolgan so'zlarni ham shu tariqa baytlarda ma'nosini ochib beradi va farqlarini ko'rsatadp.

Ko'rinadpkn, sinonimlar bir xil ma'nosi bilan birlashuvchi sponim so'zlar qatorini tashkil qilsa, fikr va his-tuyg'ularpi aniqroq, ravshanroq ifodalashga imkop beradigan stplistik ma'nolariga ko'ra o'zaro farqlanadi.

Nutqning aniq va ravshan bo'lishi sinonimlardan to'g'ri foydalanpshga bog'liq.

Ba'zi sinonim so'zlarning ma'nosini farqlash birmuncha murakkab bo'ladi. Hatto adabiy nutqni yaxshi biladigan, sinonim-larnn to'g'ri tanlab, ularni maqsadga muvofiq ishlata oluvchi kishilar ham ko'pincha snnonimik so'zlar otteikalaridagi tafovutlarni tushuntirishda ojizlik qilnshlari mumkin. Masalan, bir sinonimik qatordagi iflos, isqirt, irkit, isliqi, iqna so'zlarining ma'no nozikliklarini

osongina izohlab berish qiyin.

Sinonim soʻzlarning maʼno qirralarini toʻgʻri anglash va oʻz oʻrnida qoʻllash ularning qanday soʻzlar bilan birikib kela olishi imkoniyatlarini ham hisobga olishni talab etadi. Masalan, qasamyod, qasam, ont; qasamyod qilmoq, qasam inmoq, ont ichmoq. Qasam qilmoq, oit qilmoq deb boʻlmaganidek, qasamyod ichmoq ham deyilmaydi.

Har bir sinonim soʻzning antonimini topish ham sinonim soʻzlarning maʼno farqini ochishga yordam beradi. Masalan: yengil — ogʻir, vazmin, zil, zildek, zalvorli; oson, oʻngʻay — qiyin, mushkul, mahol, mashaqqatli, dushvor. Yana: sekin—tez, ohista — ildam, sust — jadal kabi.

Sinonim soʻzlar oʻrtasidagi semantik-stilistik ayirmalarni hisobga olmaslik soʻz tanlash va qoʻllash bilan bogʻliq nuqsonlarga olib kelishi mumkin. Masalan, quyidagi jummalarda yiqilmoq va qulamoq, tashna va chanqoq, ozgʻin va oriq soʻzlari oʻrtasida maʼno ottenkalarini, ularning qoʻllanish doiralarini hisobga olmaslik natijasida stilistik xatoga yoʻl qoʻyilgan:

Bulʼdozer koʻchamizda yiqilgan va yiqilay deb turgan de-vorlarni bir chekkaga surib yoʻl ochar edi. Shiqilmoq soʻzi, asosan, odam va jonli narsalarga nisbatan qoʻllaniladi. Shuning uchun bu gapda yiqilmoqoʻrnta uningsinonimi va asosan, jonsiz narsalarga nisbatan qoʻllanuvchi qulamoq soʻzini ishlatish kerak edi.

Choʻponlar ozgʻin qoʻylarning parvarishiga alohida eʼtibor bermayotirlar gapida odamga nisbatan qoʻllanadigan ozgʻin soʻzi oʻrniga uningʻ sinonimi oriq ishlatilganda tekst mazmuniga mos boʻlar edi.

Brigada aʼzolaridan R. Avvalov va M. Qobilovlar tunda tashna gʻoʻzalarni suvga qondirib sugʻorishyapti gapidagi tashna soʻzi odamga nisbatan qoʻllanadi, odamga va boshqa jonli, jonsiz narsalarning suvtalab holatiga nisbatan chanqoq soʻzi ishlatiladi.

Bir fikr bayonida sinonimik qatordagi soʻzlardan bir yoʻla ikkitasini yoki undan ortigʻini ishlatish sinonimlarning stilistik figura sifatida xizmat qilishi bilan bogʻliq.

Sinonimlar stilistik figura sifatida quyidagi maqsadlarda ishlatiladi:

1. Maʼnoni kuchaytirish, umumlashtirish, jamlash maqsadida sinonimik juft soʻzlar ishlatiladi: baxt-saodat, qadr-qimmat, hurmat-ehtirom. Bunday vaqtda ikkinchi sinonim birinchisining aynai takrori boʻlmay, balki u ifodalayotgan tushunchani qoʻshimcha belgisi bilan toʻldirib turadi:

Kuyov tikilganda baxtiyor, maftun,

Gʻuncha lablaringga chiqar nim kulgu.

Sen va'da etding baxtu saodat.

Unda aks etadi misoli ko'zgu.

(Zulfiya.)

2. Fikrning nutqdagi o'xshash yoki yaqin tafsilotlarini xilma-xil formalarda ifodalash uchun ikki yoki undan ortiq sinonimlar ishlatiladi. Bunday vaqtda sinonimlar turli ko'rinishlarda, chunonchi, o'zak sinonimlar shaklida (katta, ulug', buyuk, zo'r, azim, ulkan), qo'shma, yasama so'zlar shaklidagi (dov yurak, qo'rqmas) sinonimlar, parallel ishlatiladigan (agitatsiya va tashviqot, tema va mavzu, protsess va jarayon) ekvivalent sinonimlar, birikma sinonimlar (farq qilmoq, tafovut qilmoq) va nihoyat, evfemistik so'z yoki so'zlar birikmasi orqali ifodalanadigan (og'ir oyoq, ikkiqat, homilador, yukli) sinonimlar shaklida bo'ladi.

Sinonimlar nutqni ta'sirchan bayon qilishda hamda uslubning rangdor bo'lishini ta'minlashda, qaytariqlarning oldini olishda katta ahamiyatga ega.

Antonimlar¹. Antonimlar ikki so'z orasidagi qarama-qarshi ma'no munosabatini ifodalaydi. Masalan, katta-kichik, issiq-sovuq, yaxshi-yomon.

Bir so'zning bo'lishli va bo'lishsiz formalari antonim so'zlardagi kabi zid, qarama-qarshi ma'no munosabatini hosil qilmaydi. Antonim bo'lishi uchun ikkita so'zning zid leksik ma'no munosabati bo'lishi shart.

Antonimlar, asosan, belgi anglatuvchi so'zlarda uchraydi (sifatlarda, ravishlarda): oq-qora, uzoq-yaqin, do'st-dushman. Miqdor, vaqt, o'rin, harakat-holat ma'nolarini ifodalaydigan so'zlarda zidlash ma'nosi kam bo'ladi (ravish, ot, sifat, fe'l): oz-ko'p, baland-past, kecha-kunduz, kulmoq-yig'lamoq. Shunga ko'ra antonimlar sifat, ravish so'z turkumlarida ko'p uchraydi. Fe'l-larda antonim hosil etuvchi so'zlar juda kam, son, olmosh, modal va yordamchi so'zlarda umuman yo'q.

Antonimik holat so'z birikmalarida ham bo'ladi: baland bo'yli semiz qari kishi — past bo'yli oriq yosh kishi; qizil rangli katta chamadon — qora rangli kichik chamadon.

Bir so'z bir ma'nosida antonimga ega bo'lishi, boshqa ma'nolarida umuman antonimga ega bo'lmasligi mumkin. Masalan, qalin so'zining odatdagi antonimi yupqa so'zi bo'ladi: qalin qog'oz — yupqa qog'oz, qalin ko'rpa — yupqa ko'rpa. Lekin qalin so'zi birikmaga o'zining ko'chma ma'nosi bilan kirishganda yupqa so'ziga antonim bo'lolmaydi; qalin o'rtoq («yaqin» ma'nosida)—yupqa o'r-toq deb aytilmaydi; qalin soch («zich» ma'nosida) — yupqa soch deyilmaydi.

Ba'zi so'z yasovchi affikslar ham o'zaro antonimik munosabat hosil qiladi: jonli — jonsiz, pulli — pulsiz, bepul. Antonimik juftiga ega bo'lmagan so'zlarga o'zaro antonim so'z yasovchi affikslarni qo'shish bilan qarama-qarshi ma'noli

antonimlar yasash mumkin.

Antonimlar nutqda katta ahamiyatga ega. Ular predmet va hodisalar orasidagi farqni to'g'ri ifodalay olish imkonini beradi. Antonimlarni to'g'ri qo'llay olmaslik qo'pol xatoga olib keladi. Masalan, quyidagi misolni kuzating: ...choyxona mudiri Yusuf-jon Nozimov ko'rinishdan turmushning issiq-chuchugini totigan kishiga o'xshaydi. («G'alaba» gazetasi.) Antonimlar tilning kuchli stilistik vositalaridan biridir. Yozuvchilar voqelikni, narsa va hodisalarning sifat va xususiyatlaridagi farqni ko'rsatishda, bir-biriga qarama-qarshi qo'yib tasvirlashda — kontrastlar hosil qilishda antonimlardan foydalanadilar. Ayniqsa, she'riy asarlarda bir-biriga zid fikr va hissiyotlarni ifodalashda antiteza priyomi keng qo'llaniladi:

Ota-ona uyquga ketdi,

Uyda faqat Inobat bedor...

Kichik qalbda buyuk sevinch bor

Yer yuzini tutib ketguday.

(Zulfiya.)

Ko'rinadiki, antonim so'zlar hodisa va holatlarning ichki ziddiyatini ochishda kuchli stilistik figura sifatida muhim rol o'ynaydi.

Zidlash munosabati kontekstualsituativ xarakterda ham bo'ladi. Antonimik munosabat nutq situatsiyasida, ya'ni so'zlarni ma'lum kontekstda qo'llash orqali voqe bo'ladi. Masalan, Do'st achitib gapiradi, dushman kuldirib. Bunday qarama-qarshi qo'yish, zidlash natijasida hosil bo'lgan antonimlar kontekstual antonimlar deb ataladi. Kontekstual antonimlar ko'pincha indivi-dual, biror avtorga xos bo'ladi.

Zidlash munosabatini ifodalashning ko'rinishlaridan yana biri oksimorondir¹. Kishi yoki predmetning tabiati va mohiyatiga xos bo'lmagan zid belgini unga nisbatan qo'llash orqali antoni-mik munosabat hosil qilish oksimoron deyiladi. Bu stilistik priyomda to'g'ri ma'nolari bilan mantiqiy jihatdan muvofiq kelmaydigan so'zlar bir-biri bilan uchrashadi, natijada, komponentlari mohiyat e'tibori bilan bir-biriga tamomila qarama-qarshi bo'lgan ko'chma ma'nodagi birikma hosil bo'ladi. Bu birikmaning material jihatdan ko'rinishi asosan sifat + ot tipida bo'ladi. Masalan, shirin dard, achchiq shodlik, aqlli tentak, soqolli ko'sa, ziyrak devona.

Aktiv va passiv so'zlar haqida. Leksika muttasil o'sish va rivojlanishda bo'lib, unda doim yangi so'zlar paydo bo'ladi, til-dagi mavjud so'zlarning ba'zilari asta-sekin eskirib boradi. Eskilik ottenkasiga ega bo'lgan so'zlar tilda birmuncha vaqtga qadar ishlatiladi. Shunga ko'ra umumxalq tili lug'at boyligini ikki katta gruppaga ajratish mumkin: aktiv so'zlar va passiv so'zlar.

Aktiv soʻzlar gruppasiga maʼnosi shu tilda gaplashuvchi barcha kishilarga tushunarli va kundalik turmushda qoʻllanishi odat

boʻlib qolgan soʻzlar kiradi. Bu gruppadagi soʻzlar eskilik boʻyogʻiga ega boʻlmaydi.

Passiv soʻzlar gruppasiga eskilik boʻyogʻi aniq bilinib turadigan va koʻpchilikka maʼlum boʻlmagan soʻzlar kiradi. Bu gruppadagi soʻzlar kundalik aloqada kamroq ishlatiladi.

Passiv soʻzlar ikki gruppaga boʻlinadi: eskirib qolgan soʻzlar (arxaizmlar, istorizmlar) va yangi soʻzlar (neologizmlar).

Arxaizm va istorizmlarning stilistik vazifasi. Tilning hozirgi davri uchun eskilik boʻyogʻiga ega boʻlgan soʻzlar arxaizm yoki arxaik soʻzlar deb yuritiladi¹. Soʻz maʼnosining eskirishi va turli sabablarga koʻra uning oʻrnini boshqa soʻz olishi natijasida arxaizm paydo boʻladi. Masalan: kashshof (pioner), firqa (partiya), yoʻqsil (proletar), avaxta (qamoqxona), musofirxona (mehmonxona) kabilar oʻzbek tilida bugungi kun nuqtai nazaridan eskirgan soʻzlar boʻlib, ularning oʻrnini yangi soʻzlar egallagan.

Arxaiklashish hodisasining koʻrinishlari:

a) soʻz butun holda, yaxlitligicha arxaiklashadi. Bu leksik arxaizm deyiladi: gardun (osmon), dovot (siyohdon), gazniqob (protivogaz);

b) soʻzning maʼnolaridan biri arxaiklashadi. Bu semantik arxaizm deyiladi. Masalan, nishon soʻzining «orden» maʼnosi arxaiklashgan, u belgi, alomat, iz, asar maʼnolarida keng qoʻllaniladi (nishon qoʻymoq, nishonga olmoq; undan hech nishon qolmadi). Shuningdek, gʻanimat soʻzining «qoʻlga tushirilgan narsa, oʻlja» maʼnolari arxaiklashgan, u «qulay, tuzuk, yaxshi» kabi maʼnolarida aktiv ishlatiladi (gʻanimat vaqt). Yana: daxa soʻzining «shaharning bir qismi, rayoni» maʼnosi (daha boshligʻi) arxaiklashgan, bu soʻz «ipak qurti yoshi» maʼnosida kasb-hunar leksikasida qoʻllaniladi (Qurtlar soʻnggi daxaga kirdi).

Arxaik soʻzlardan tarixiy voqea, hodisalarni real tasvirlashda stilistik vosita sifatida foydalaniladi. Arxaizmlar badiiy asarlarda, felʼyetonlarda, baʼzi ijtimoiysiyosiy uslubda yozilgan tanqidiy maqolalarda nutqqa kinoya, piching, mazax-masxara ruhi va hajv ottenkasini berish uchun ham ishlatiladi.

Eskirib qolgan soʻzlarga istorizmlar ham kiradi. Hozirgi hayotda uchramaydigan, faqat tarixiy narsa yoki voqea-hodisalar-ning nomini bildiruvchi soʻzlar istorizmlar² deyiladi. Masalan: omoch, allof, bakovul, yasovul, qozi, qozixona, bek, vasiqa, gu-mashta, meshkop, jigʻador kabi.

Istorizmlar — o'zi anglatgan narsa va hodisalarning yagona atamasi. Shuning uchun hozirgi tilda ularning o'rnini bosa oluvchi sinonimlari bo'lmaydi. Masalan, Hamzaning Bitsin endi eski turmush, ul kuloxu jandalar misrasidagi kulox, janda so'zlari kabi. Istorizmlar shu xususiyati bilan arxaizmlardan keskin

farqlanadi (eskirgan so'zlar iborasi bularning ikkalasi uchun umumiy nomdir).

Istorizmlar, asosan, o'tmish voqeligini atashda ishlatiladi. Lekin vasiqasi yo'q (odam); o'ziga xon, o'ziga bek kabi xalq iboralari sostavidagi tarixiy so'zlar (vasiqa, xon, bek) o'tmishdagi narsa va hodisalarning nomlari bo'lib, ularning ma'nolari iboradan anglashiladigan majoziy ma'noga singib ketgan, Bunday o'rinlarda, ba'zi, umum uchun yot bo'lgan tarixiy so'zlarni umumistem'oldagi so'zlarga o'xshatib olish hodisasi («xalq etimologiyasi» hodisasi) ham uchraydi. Masalan, san solor, man solor, otga bedani kim solar iborasi xalq etimologiyasiga uchrab san so-lar, man solar, otga bedani kim solar formasini olgan. Bu yerda solor¹ tarixiy so'zi umumnutqdagi solar (solmoq) fe'liga o'xshatib, tenglashtirib qo'yilgan. Tilda sansolarlik so'zining shakllanishi ham yuqoridagi ibora ta'sirida voqe bo'lgan: san solor — sansolarlik.

Istorizmlardan tarixchilar, olim va yozuvchilar tarixiy voqea va hodisalarning real tasvirini berish, badiiy asarga tarixiy ruh berish uchun foydalanadilar. Masalan: Qorani oqlash hech bir podshoning yosasiga sig'maydi (0.) gapida yosa tarixiy so'z bo'lib, «qonun, tartib» ma'nolarini bildiradi. Bozorni aylanib yuradigan poyaki voqeadan boshdan-oyoq xabardor ekan. (A. Q.) Ilgari-gi vaqtda bozor va rastalarda chilim chektirib yuruvchi kishini poyaki der edilar.

Neologizmlarning stilistik vazifasi. Adabiy til donmo yangi so'zlar — neologizmlar² bilan boyib boradi. Neologizmlar ishlab chiqarish va ijtimoiy munosabatda bo'ladigan o'zgarishlar, fan-texnika yangiliklari, san'at, adabiyot va publitsistikadagi yangicha tushunchalar — umuman, jamiyatning, hayotning talab-ehtiyoji bilan paydo bo'lgan so'zlardir: novator, changlagich; purkagich, izchil, ziyokor, po'lat quyuvchi, yer yo'ldoshi, kosmodrom.

Neologizmlarning paydo bo'lish yo'llari xilma-xil:

Tilning mavjud leksik sostavi va grammatik qonun-qoidalari bazasida yangi so'z yasash yo'li bilan. Bunda so'z yaxlitligicha neologizm bo'ladi: payvandchi (metallulovchi), ustqurma («nastroy-ka» ma'nosida), cho'lquvar (bo'z yerlarni o'zlashtiruvchi ma'nosida).

Tildagi mavjud so'zlarning leksik ma'nolaridan birini yangi ma'noda qo'llash yo'li bilan. Masalai: cho'mich so'zining «kovsh» ma'nosi kabi: Ekskavatorning cho'michi shu uyumlardan osha yangi tuproqlarni irg'itadi. («S. Uzb.»)

Boshqa tildan (asosan, rus tilidan) so'z qabul qilish yo'li bilan. Boshqa

tildan soʻz ikki xil usul bilan olinadi:

a) aynan qabul qilinadi: kosmonavt, samosval;

b) kalʼkalash yoʻli bilan olinadi: oʻziboʻlarchilik (samotyok), yer yoʻldoshi (sputnik zemli), odimlovchi ekskavator (shagayushiy ekskavator), koʻtargich kran (podʻyomniy kran) kabi. Kalʼka usulini oddiy tarjimadan farqlash kerak. Kalʼkalashda boshqa tildan oʻzlashtiruvchi tilga taqlidan nusxa olish asosida neologizm yaratilsa, oddiy tarjimada esa boshqa til soʻzi avvaldan mavjud boʻlgan oʻz soʻzlar bilan beriladi.

Nutqda neologizmning stilistik vazifasi juda rang-barangdir. Ilmiy-texnik, rasmiy adabiyotlardagi umumtilga xos neologizmlar asosan nominativ funksiyani bajaradi, badiiy ada-biyotda esa muayyan stilistik maqsadda qoʻllaniladi. Bu, birinchi navbatda, katta taʼsir va tasvir kuchiga ega boʻlgan individual nutq neologizmlariga taalluqlidir. Bunga yozuvchilar ijod qilgan yangi soʻzlar misol boʻladi.

Gʻafur Gʻulom soʻz ijodchiligida soʻzlarni qoʻshish yoʻli bilan yaratgan mehnatobod, urushtalab, insonozod, xushaxloq kabi neologizmlar oʻzining ifodaviyligi bilan ajralib turadi. Shoir yana -dosh qoʻshimchasi yordamida eldosh, yerdosh, kurashdosh, qalam-dosh kabi soʻzlarni ijod qiladi.

Yozuvchilar yaratgan individual nutq neologizmlari baʼzan satirik tasvir vositasi boʻlib xizmat qiladi. Masalan, quyidagi misollarda rasmiy-idoraviy nutqqa oid shablon soʻzlar: ocheredchilik, oshxoʻrchilik tekstga yumoristik ruh kirntgan: Roʻyxatdagi mana shu kamchiliklar tuzatilsa, bu narsa hozirgi ocheredchiligimizda ijobiy rolʼ oʻynashi, xaridorlarimiz orasida tarbiyaviy ish olib borishda alohida ahamiyatga ega boʻlishi mumkin boʻlsa kerak deb oʻylaymiz. (A. Q.) Keyingi paytlarda oshxoʻrchiligimizda yana bitta yomon xususiyat sezilmoqda. (S. Ahm.)

Boshqa tillardan kirgan soʻzlar va ularni ishlatishdagi stilistik imkoniyatlar.

Tilning boshqa tillardan olingan soʻzlar hisobiga boyishi juda qadimiy hodisadir. Buning sababi xalqlar oʻrtasida qadimdan ijtimoiy-siyosiy munosabat, madaniy aloqa va hamkorlikning mavjudligidir.

Odatda, boshqa tildan oʻtgan soʻzlarning baʼzilari soʻz oluvchi tilning ichki taraqqiyoti qonuniga, uning ayrim grammatik qoi-dalari va talaffuz normalariga boʻysunadi, moslashadi, baʼzi-lari asl holatlarini saqlab qolsa, baʼzilari jiddiy oʻzgarishga uchraydi. Masalan, tojikcha panjshanba, roʻybaroʻy soʻzlari payshanba, roʻpara shaklida, arabcha xilʼat soʻzi xalat tarzida qoʻllanadi. Oʻzbek tili lugʼatiga ilgari oʻrnashib qolgan tojikcha soʻzlar real narsa va predmetlarni ifodalaydi: daraxt, qogʻoz, sartarosh, sozanda, miskar, gʻoʻzapoya, sholipoya, paxtakor, dasht, devor, daryo, poytaxt, maydon, meva, mevazor, shudgor va boshqalar.

Oʻzbek tilidagi arabcha soʻzlar maʼno jihatdan koʻproq abstrakt xususiyatga

ega: hol, haqiqat, hurmat, imkoniyat, adabiy, faxriy, ma'naviy, ehtiyoj, istiqbol, daraja, ahamiyat, mas'uliyat, sharaf, iroda, ta'lim kabi.

O'zbek tilining tarixiy taraqqiyotida ulug' rus tilining sa-marali ta'siri progressiv ahamiyatga ega bo'ldi. Hozirgi o'zbek tilida rus tilidan o'zlashayotgan so'zlar miqdori tobora ko'pay-moqda va hozirgi o'zbek adabiy tilida juda keng ishlatilmoqda. Masalan: , stol, samovar, parta, ruchka, budil'nik, vistavka, vil'ka, gudok, duxovka, pechat', pechka, pol, paroxod, sud, razvedka, raz'yezd, slyot, seyalka, smena, stanok, sushilka, ukol, xolodil'nik, okop, okrug.

Bulardan tashqari, o'zbek tiliga rus tili orqali Yevropa xalqlari tillaridan ham juda ko'p so'zlar o'zlashtirildi. Bunday internatsional so'zlarga grekcha va latinchalar logika, grammatika, plenum, biologiya, invalid, dekan, konus, drama, iyul', avgust, xor, teorema; 'inglizcha sport, tennis, rel's, voleybol, futbol, miting; nemischa galstuk, buxgalter,- fartuk, slesar', stul kaOi so'zlar misol bo'ladi.

Boshqa tillardan o'zlashtirilgan, xalq ommasi o'rtasida keng iste'molda bo'lgan bunday so'zlar o'zbek tili lug'atidan mustahkam o'rin olgan.

Boshqa tillardan so'z o'zlashtirishning usul va yo'llari, ular-ning tillarga kirib qolish sabablari va singish darajalari kabi masalalar leksikologiyada o'rganiladi. Leksik stilistika esa o'zi maisub bo'lgan tilga xos belgisini saqlab qolgan so'z-larning ishlatilish shart-sharoitlari va stilistik vazifalarini tekshiradi.

Uzlashgan so'zlar ham sof o'zbekcha so'zlar singari stilistik jihatdan chegaralangan yoki hamma ishlatadigan so'zlar bo'ladi.

Hozir boshqa til so'zlari ko'pincha bosma manbalarni tarjima qilish hamda kundalik matbuot orqali o'zlashayotgani sababli ular butunlay kitobiylik rangiga egadir. Bundan umum ishlatadigan so'zlarga aylanib ketgan gazeta, jurnal, adres, kino, bilet, kassa, traktor, gaz kabi so'zlar mustasno, chunki bu so'zlarning leksik ma'nosi barchaga tushunarlidir.

Ma'lumki, ona tilidagi so'zning ma'nosi uning morfologik sostavidan aniq anglashilib turadi. Shuning uchun ona tilidagi so'zlar, garchi ba'zan ular umumiste'moldagi so'zlar bo'lmasa ham, shu til egalariga tushunarli bo'ladi. Bunday so'zlarning o'zak va affikslari shu tildagi boshqa so'zlarda ham uchraydi. Masalan, paxtachilik, ustqurma, shartnoma, kuzgi.

Olinmalarning esa ma'nosi va morfologik sostavi ona tilidagi so'zlar singari aniq anglashilib turmaydi. Ularning ma'nosini ko'pincha morfemalari tarkibidan anglab bo'lmaydi (kon-silium, vaksina, profilaktika). Shuning uchun o'zlashgan so'zlarning o'ziga o'xshash boshqa bir xil so'zlar bilan o'zakdosh so'z ekanini anglab ololmaymiz. Chunonchi, o'zbek tiliga rus tili orqali o'zlashgan fransuzcha kupe (temir yo'l vagonlarida ayrim xona) va kupon (qimmatbaho qog'ozlarning protsentini to'lashda kesib olinadigan qismi, taloni) so'zlari aslida «qirqilgan, kesilgan» ma'nosidagi bir o'zak (soirep)ka mansub ekanini izohlashni hatto xayolimizga ham keltirmaymiz. Ko'rinadiki, olinmalarning ichki aloqalarini

sezish imkoniyati birmuncha cheklangan bo'ladi.

Uzlashgan so'zning ko'pincha kitobiylik bo'yog'iga ega bo'lishi va leksik ma'nosini morfemalari tarkibidan keltirib chiqarish mumkin bo'lmasligi kabi hollar uning ona tilidagi so'zdan farqlanuvchi belgisi sanaladi.

Chet til elementlari va o'zlashtirma so'zlar, ayniqsa, badiiy adabiyotda stilistik maqsadda juda keng qo'llanadi. Badiiy nutqda chet til leksikasidan ko'pincha yozuvchilar obraz va perso-najlar nutqini individuallashtirishda foydalanadilar. Masalan, quyidagi misralarda shoir Muqimiy tojik va rus millati vakillarining nutq koloritini chizadi.

Qochib ketdi machchoyilar aksari

Borib shulki yurtiga ta'kidlari:

— «Saroyeki o' boshadash, zinhor,

Daronjo marav, memuri, ey tabor».

Dubora yana bordi bir ishga shul,

So'kib,—«Net,— dedi,— kelma, durrak, poshul!»

Badiiy va publitsistik asarlarda uchraydigan ekzotik1 so'zlarning chet tilga mansublik bo'yog'i kitobxonda o'zga yurt, uning xalqi, urf-odatlari, turmushi, madaniyati, tabiati, umuman «mahal-liy koloriti» haqida tasavvur hosil qiladi. Uquvchi lord, ser, leyborist so'zlarini uchratish bilan gap Angliya haqida borayotganini anglaydi:

— Io'q, yo'q, janobi oliylar, lordlar, marshall, cherchillar,

Do'qingiz qilolmas ijodimizni barbod. (T. G.)

Qisqagina suhbatdan sohib shuni bildiki, bu kamgap, ko'zlari zaif odamni o'z yo'lingga kiritish oson emas ekan. Ol rayt1, yoabu2, ko'ramiz, qani bundan nima chiqar ekan. (R. Tagor.)

So'z o'zlashtirish bilan chet so'zlarni ishlatish hodisasini bir-biridan farqlash zarur. Chet so'zlarni ishlatishga befarq bo'-lish V. I.ni qattiq tashvishlantirgan edi. U o'zining «Rus tilnni tozalash to'g'risida» degan maqolasida shunday deb yozgan edi: «Biz rus tilini buzyapmiz. Chet el so'zlarini o'rinsiz ishlatamiz. Bu so'zlarni biz noto'g'ri ishlatamiz. Nechochyotn yoki ne-dostatki yoki problemn deb aytish mumkin bo'lgani holda «defektn» deyishning nima hojati bor?... Chet el so'zlarining o'rinsiz ishlatilishiga qarshi kurash e'lon qilishimiz kerak emasmi-kin?»3.

Ko'rinib turibdiki, faqat chet so'zlarni o'rinsiz va noto'g'ri, ehtiyoj bo'lmaganda ishlatishga qarshi.

Ma'lumki, rus tili o'zbek tili lug'atining rivojiga samarali ta'sir ko'rsatdi va ko'rsatmoqda. Hozir o'zbek tilida rus tili va boshqa tillardan kirgan so'zlar miqdori kun sayin or-tib bormoqda. O'zbek tili lug'atida iqtisodiy-siyosiy va madaniy hayotimizga oid, fan va texnikaga doir bo'lgan murakkab tushuncha va tasavvurlarni ifoda etuvchi internatsional qatlam o'z mavqei-ni yanada kuchaytirmoqda.

Dialektalizmlar, kasb-hunar leksikasining uslubiy ahamiyati.

Dialektizmlar. O'zbek tilining dialektal qatlami nihoyatda murakkab va rang-barang bo'lib, u o'z ichiga bir qancha sheva va dialektlarni oladi. Bu sheva va dialektlarning har biri o'ziga xos fonetik, leksik-grammatik xususiyatlari bilan adabiy tildan, shuningdek, o'zaro farqlanadi.

Dialektizmlarning adabiy tildan farqi, avvalo, so'zning talaffuzida ko'rinadi. Masalan: gurgut — gugurt, bala — bola, yuzum — uzum, yig'namoq — yig'moq, buqinmoq — bekinmoq, chig'di — chiqdi kabi.

Bundan tashqari, adabiy tilda nisbatan dialektlarning lug'at sostavi birmuncha o'zgacharoqdir. Chunonchi, mahalliy dialektlar lug'atida fan, san'at va murakkab texnikaga oid maxsus ter-minlar kam, deyarli yo'q'bo'ladi, dialektlardagi ba'zi so'zlar zea adabiy tilda butunlay bo'lmasligi mumkin. Bunday so'zlar shu dialekt vakillari nutqida ishlatiladi. Masalan, varray (Toshkent dialektida)— bodparak (Buxoro dialektida) — shohin (Samarqand dialektida) — bodrak (Xorazm dialektida) kabi.

O'zbek shevalari lug'atida yana shunday so'zlar uchraydiki, bular adabiy tilda boshqa so'z bilan ifodalanadi: Andijon shevalarida buvak (chaqaloq); Xorazm shevalarida yorqanat (ko'rshapalak), tartanak (o'rgimchak), suzaq (cho'mich); Qirg shevasida barak (chuchvara), adrasman (isiriq); Buxoro shevalarida ashmishka (bir yumaloq choy).

Ba'zan dialektdagi so'z adabiy nutqdagi so'z bilan tovush talaffuzi jihatidan o'xshash bo'lsa-da, ma'noyeiga ko'ra farqlanadi. Masalan, buvi — bir dialektda ruscha «matъ», ikkinchi bir dialektda ruscha «babushka» ma'nosini bildiradi. Shuningdek, oq choy — Toshkent dialektida «sut qo'shib oqlangan choy»ni bildirsa, Farg'ona dialektida «ko'k choy»ni anglatadi. Mahalliy koloritni berish zaruriyati bilan qo'llangan bunday dialektizmlarning qavs ichida adabiy tildagi variantini berish maqsadga muvofiqdir. Masalan: Ularning hammasi Oltinko'lda ishlasa-da, eshigi (hovlisi) Andijonda Chivin (pashsha) yuqumli kasalliklarni tarqatuvchi ekanini esdan chiqarmang.

Adabiy tilning ayrim dialektlar lug'aviy birliklari hisobiga boyib borishi tillar taraqqiyotida qonuniy bir holatdir. Hozirgi adabiy nutq lug'atining katta bir qismi ham aslnda dialektlarga mansub bo'lsada, adabiy nutqqa xos deb qaralishining sababi bunday lug'aviy birliklarning umumlashib ketganligidadir¹.

Dialektizmlarni quyidagi holatlarda adabiy nutqqa olib kirish mumkin: agar

u yoki bu mahalliy tushuncha umumtilda aniq nomga ega bo'lmasa yoki uning shevadagi atamasi leksik ma'no ottenkasi bilan, stilistik bo'yog'i bilan umumtildagi so'zdan farqlanib tursa, uning adabiy nutqqa kirishi to'g'ridir. Masalan, adabiy nutqda qo'llanayotgan yelvizak (yelgizak) so'zi Shnmoliy o'zbek shevalariga xos birlikdir.

Biror dialektal so'zning adabiy nutqqa ko'chish hodisasi bi-lan dialektal so'zlarning badiiy asarda ishlatilishi hodisasini bir-biridan farqlash zarur. Yozuvchilar o'z asarlarida hayotning realistik tasvirini chizish, mahalliy koloritni berish, personajlar nutqini individuallashtirishda yoki biron tushunchaning shevadagi atamasi kitobxonga ahamiyatli bo'lgan holatning ma'lum mahalliy belgisini bildirsagina dialektal so'zlardan foydalanishlari mumkin. Sheva so'zlarining mana shunday vazifalarda ishlatilganini A. Qahhorning «Utmishdan ertaklar» nomli sarguzasht qissasidan olingan parchada kuzatish mumkin.

1. ...tor ko'prikning ustida bo'riq yotgan ekan, shuni tepib zovurga tushirmoqchi bo'lganimda ikkala oyog'im ko'tarilib ketdi shekilli, yiqildim, zovurga tushib ketdim. 2. ...anhor ko'prigidan oyog'imni osiltirib o'tirib pesa yeb o'tirganimda birdan ko'nglim to'ldi-yu, ko'kragimdan yig'i o'rniga bir kuy otilib chiqdi. 3. Doktor xotin dadam ikkovimizni ayamning chap tomonidagi kichkina sim karavot oldiga boshlab bordi va oq ro'yjaning bir chekkasini ko'tardi. Uning ostida buvak — ukacham ko'zlarini chirt yumib, qovog'ini solib yotardi.

Tekstlarda ishlatilgan sheva so'zlarining adabiy tilda muqobili bo'lmaganligi uchun yozuvchi ularga sahifa ostida izoh ham beradi: bo'rik — jo'xoripoyaning bir bo'g'ini; pesa — chala pishgan, dumbul o'rik, buvak — chaqaloq, ro'yja esa «prostina» ma'nosida qo'llangan. A. Qahhor «Utmishdan ertaklar»ida adabiy tildagi so'z-dan talaffuziga ko'ra farqlanuvchi vahmak (vahimachi), urpoq (urvoq), sepsildi (tovsildi), shapati (shapaloq), ziqnov (qistov), do'g'aymoq (o'dag'aylamoq) kabi sheva so'zlarini ham ishla-tadi.

Har qanday adabiy tilning taraqqiyoti, boyishi adabiy til bilan shevalar o'rtasidagi munosabatlarning bir-biriga ta'sir qilish darajasiga bog'liq. Shuning uchun dialektizmlarning ba-diiy asarda qo'llanishini hamda ularning adabiy tilga o'tish-o'tmasligini konkret-tarixiy sharoitlarga ko'ra izohlash zarur.

Madaniy hayotimizda adabiy tilning mavqei, ta'siri kuchayib borgan sari ayrim sheva so'zlari va iboralarining qo'llanish doirasi ham zaiflasha va yo'qola borishi tabiiydir. Shu jihatdan ba'zi adabiy nutq, ayniqsa, vaqtli matbuot tilida ayrim sheva xususiyatlarining davom etib kelayotganini normal hol deb bo'lmaydi: Tomoshabinlar minut sayin chuchkirishardi. Betobligingizni eshitdim-u boshimga tegirmon toshi ontarilganday bo'ldi. Erlari bilan yoshinmachoq o'ynab yuribdilar....to'kilgan «oq oltinni» ko'rib dilimiz siyoh bo'ldi. Bir boshdan pudlab ola boshladik Otlar, toylar chillada ko'taram bo'lib kishnamay qo'yishgani hammaga ma'lum.) ...havo tanqillab ochilib ketib, yerdagi bor nam ham yo'qolardi, nihoyat, chigit ko'karmasdi.

Kasb-hunar leksikasi va terminologik leksikadan stilistik maqsadda foydalanish. Tildagi kasb-hunarga doir bo'lgan so'z va iboralar professionalizml deb yuritiladi. Masalan, andava, rax, gazcho'p, molagazcho'p, vassa kabi so'zlar suvoqchilikka oid bo'lsa, biliska, chega, boshliq, seplama, pattyoyi, mixcho'p, shonno'p kabilar poyabzaldo'zlik hunariga oid professional so'zlardir. Bundan tashqari, o'zbek tilida xalqimizning qadimiy ishlab chiqarish faoliyati bilan bog'liq bo'lgan dehqonchilik, chorvachilik, ipakchilik va mayda hunarmandchilik (miskarlik, kulolchilik, me'morchilik, zargarlik, bo'zchilik, etikdo'zlik, duradgorlik, suvoqchilik) kabi kasb-korga doir so'z va iboralar ham bor. Har qaysi joyning mahalliy kosib va hunarmandlarining ishlab chiqarish qurollarida va mehnatni bajarish usullarida farqlar bo'ladi. Bu farqlar ularning leksikasida ham aniq seziladi. Chunki ularga mahalliy dialekt va shevalarning ham ta'siri bor.

Mustaqillikdan so'ng O'zbekistonda og'ir va yengil sanoatning zamonaviy tarmoqlari barpo etildi. Qishloq xo'jaligida, ayniqsa, paxtachilik sohasida mexanizatsiya keng joriy qilindi. Shu bilan bog'liq o'zbek tilida tor doirada ishlatiluvchi professional so'zlar paydo bo'ldi. Professionalizmlarning ko'pchiligini turli kasb-hunar sohasidagi terminlar tashkil etadi.

Terminl ilm, fan, texnika, san'at, madaniyat va shuning kabi sohalardagi ma'lum tushunchalarning aniq, konkret, bir ma'noli ifodasi bo'lgan so'z yoki so'z birikmasidir. Masalan, karta, atlas, globus, materik, ko'rfaz, o'zan, dara, bo'g'oz, tizma tog', yassi tog' kabilar geografik terminlardir.

Terminlar ma'lum bir aniq tushunchani ifoda etadi. Ular dialekt va shevaga oid so'zlardagi kabi fonetik, leksik va mor-fologik ko'rinishlarga ega bo'lmaydi. Terminlar, odatda, barcha sheva vakillari uchun umumiy bo'ladi va kasb egasi qaysi terri-toriyada yashashidan qat'i nazar, hamma joyda bir xilda qo'llanadi va yoziladi.

Terminlarning adabiy tilga kirib kelishida vaqtli matbuot va badiiy adabiyotning roli juda katta. Oybekning «Oltin vodiyan shabadalar», A. Qahhorning «Qo'shchinor chiroqlari», «Sinchalak» kabi asarlari muhim rol o'ynadi. K. Yashinning «General Rahimov» pyesasida esa harbiy va qurol-aslahalarni bildiruvchi terminlar ko'plab uchraydi.

Tekstda tushunilmaydigan ilmiy-texnik terminlarning had-dan tashqari ko'p uyib yuborilishi vaqtli matbuot materialining yorqin va mazmundor, tilining to'la tushunarli va ommabop bo'lishiga putur yetkazadi. Adabiy tilning ommaga oson tushunarli bo'lishi va tozaligi uchun kurashish kerak. Ayrim ixtisosga oid terminlarga izoh bermay o'tish xato, mutaxassislikka doir ilmiy-texnik adabiyotlarda ham xato hisoblanadi (ayniqsa, ommabop adabiyotlarda va publitsisti-kada). Gazeta va jurnallarda quyidagi kontekstlardagi kabi hech qanday izoh va tushuntirishsiz qo'llanilgan terminlar uchrab qoladi: Bu svecha zazorlaridan suyuqlik ichida ham uchqunlar chiqayotganligi ko'rinib turadi. Buning ustiga tokarlik stanogining rezsoderjateli o'rniga maxsus moslama tayyorlanib unga grebenlarni frez o'rnatdi. (gazetadan)

Fan va texnikaga oid va ilmiy-ommabop kitoblar tilini, fikr bayonini sodda qilish asarning ilmiy qimmatini pasaytiradi, deb noto'g'ri tushunmaslik kerak. Odatda, «o'ta olimona» til bilan ifoda qilingan oddiy narsalar va hodisalar, ko'pincha, murakkab va tushunarsiz bo'lib qoladi

Jargon va argonlarning uslubiy xususiyati. Rasmiy stilga xos so'z va nutq oborotlari kanselyarizm deyiladi. Qonun, buyruq va ish-xizmatga doir yozishmalar, chaqiriq qog'ozlari, taklifnoma-lar, xabarnomalar, telegrammalar tilida umumnutqqa xos vositalardan tashqari, rasmiy stilga xos maxsus so'z va bir qolipdagi tayyor formulirovkalar (yuqorida ko'rsatilgan, quyida bayon qilingan, maqsadga ko'ra, javoban, e'tiborga olingan holda kabi) keng qo'llanadi. Qanselyariya qog'oz va hujjatlaridagi qat'iy shaklga kirgan bunday tayyor so'z va iboralar tekstga alohida rasmiylik ottenkasini beradi. Masalan: ...sohasida erishgan juda katta muvaf-faqiyatlari uchun ...unvoni berilsin; ...belgilangan tadbirlarni qarab chiqdi va ma'qulladi; ...keng joriy qilish vazifasi topshirildi; ...qarorlarini amalga oshira borib kabi.

So'zlarni keraksiz o'rinlarda takrorlayverish ham nutqni g'alizlashtiradi. Masalan, ya'ni, demak, bevosita, aytaylik, xullasi kalom, umuman aytganda — olganda, asosan, shuni aytish ke-rakki, shunday qilib, asosiy masala kabi so'z va iboralar me'yoridan ortiq qo'llanganda «parazit» so'z hisoblanadi.

Kanselyarizmlar ko'pincha satira va yumorda stilistik priyem sifatida qo'llanadi. Bu priyomdan A. Qahhor o'zining hikoya va fel'yetonlarida juda ustalik bilan foydalanadi. Hikoyalaridan birida tasvirlangan notiq o'z uyida xotini bilan quyidagi rasmiy-idoraviy til bilan gaplashadi: ...ikkinchi masala, ya'ni ichki imkoniyatlardan foydalanish masalasini olaylik. Uzingizga ma'lum, bizda yuqori sifatli mis choynak bor. Bu choynakning qopqog'i bugungi kunda yo'q. Bu haqda biz bir-birimizga signal berdikmi? Yo'q! Agar biz o'zibo'larchilikka uzil-kesil barham berib, qopqoq masalasini kun tartibiga ko'ndalang qo'ysak, agar biz shu choynakni o'z vaqtida tegishli qopqoq bilan bevosita ta'min qilsak, samovarimiz safdan chiqqan kunlarda hal qiluvchi rol' o'ynardi. Afsuski, biz bu masalaga murosasozlik ko'zi bilan qaradik. Bugungi kunda choynagimiz qopqoqqa ega emas, mutlaqo ega emas!

Jargon so'zlar. Umumxalq tilidan farq qilib, biror ijtimoiy guruh o'rtasida yaratilgan va ularning talablarini ifodalovchi maxsus so'z va iboralarga jargon deyiladi¹.

Jargonlarning eng xarakterli belgisi o'zaro so'zlashuvda fikrni boshqalardan maxfiy, sir tutishdir. Shunga ko'ra jargonlarning yaratilish yo'llari ham ko'pincha tilning so'z yasash sis-temasiga to'g'ri kelmaydi. Ular o'ziga xos sun'iy, shartli so'zlardir. Jargonlar ko'pincha tildagi so'zlarning tovush tomoni-ni o'zgartirish, buzib qo'llash, boshqa tillardan so'z o'zlashtirish va tildagi mavjud so'zlarga maxsus ma'no berish yo'li bilan hosil qilinadi.

Jargonlarning biror guruh yoki tabaqa doirasida paydo bo'lishiga qarab

ikkiga ajratish mumkin: professional jar-gonlar va ijtimoiy jargonlar.

Professional jargonlarga biror kasb-hunar kishilari ora-sida ishlatiladigan maxsus soʻz va iboralar kiradi. Bu xil jar-gonlarning paydo boʻlishi, odatda, ishlab chiqarish ixtisosi, mehnatning umumiy sharoiti va baʼzan turmush-madaniyat tarzlari bilan ham bogʻliq boʻladi. Professional jargonlar ijtimoiy jargonlardan manfiy (nomaqbul) maʼno ifoda qilishi va baʼzan vulʼgar xarakterga ega boʻlishi bilan farqlanadi. Masalan, aravasoʻzlar nutqidagi soʻlogʻini oʻynatmoq, chuvini chiqarmoq; ot jaloblari nutqidagi dumini qoʻqoncha qilib tugmoq, dumini tugmoq; kaptarboz va bedanabozlar nutqidagi dumini setara qilmoq, qitiq pariga tegmoq, qitiq parini olmoq; tuya karvoni haydovchilar nutqidagi changʻarogʻini tushirmoq iborolari kelib chiqishi jihatidan jargonga borib taqaladi.

Qasbiy jargoilar orasida umumxalq tilidagi soʻzlarning maʼno tomonini sunʼiy ravishda oʻzgartirib yasalgan maxsus soʻz va iboralar bor. Masalan, ellik olti (ipak), qizil (oltin), tish (guruch) qaychi (revizor), suv qilmoq (molni birovga oshirmoq, sotmoq) kabi yashirin soʻz va iboralar tekinxoʻrlar — olibsotarlari, chayqovchilarga mansub jargon soʻzlardir.

Ijtimoiy jargonlarga oʻtmishdagi saroy doirasiga mansub boʻlgan yuqori mansabdorlarning hamda din ahllarining dabdabali, balandparvoz nutqlari — kitobiy tili yorqin misol boʻladi. Masalan, oddiygina keling oʻrniga tashrif qudum eting, qarang oʻrniga tavajjuh aylang, oʻldi, vafot qildi oʻrniga fano selobiga gʻarq boʻldi, ilohimning dargohida maqtul etildi deb aytish saroy va din ahllari nutqiga xos boʻlib, ular ana shunday yasama balandparvozliklari bilan oʻzlarining xalqdan yuqori turganliklarini koʻrsatishga harakat qilganlar. Bu, Gorʼkiy taʼbiri bilan aytganda, nutqda soddalik oʻrniga soxta, yoqimsiz chiroyliklar topishga intilishdan boshqa narsa emas, albatta.

Ijtimoiy jargon oʻzbek tilida abdol tili deb ham yuritilgan. Qadimda professional maddohlar va qalandarlar oʻz niyatlarini xalqdan yashirish maqsadida oʻzlari uchungina tushunarli boʻlgan abdol tilidan foydalanganlar. Oktyabr revolyutsiyasigacha baʼzi sozandalar, hofizlar, madrasa yoshlari ham oʻz niyat va fikrlarini boshqalardan sir tutish uchun bir-birlari bilan «zadgari» — abdol tilida soʻzlashganlar. Bunda ular soʻzdagi har bir boʻgʻin oxiriga za (zo, zi) yoki zor, zir tovushlarini qoʻshib aytganlar. Masalan, Men bilan borasizmi jumlasini shunday talaffuz qilganlar: mazaran bizirilazaran bozorasizirmiziri yoki mazan bizilazan bozorazasizizmizi.

Ijtimoiy ishlab chiqarishda qatnashmay tekinxoʻrlik, boshqalar hisobiga yashashlik, maishiy buzuvchilik yoʻliga kirib ketgan guruhlar (oʻgʻrilar, qimorbozlar, dallollar, kisavur va shuning kabi jinoyatchi elementlar) ham oʻzlarining maxsus jargonlari-ga ega. Bunday ijtimoiy jargonlar argo deb ham yuritiladi. Masalan, loy, yakan (pul), bedana (toʻpponcha), pero (pichoq), mo-lam bu (bor), noyyo (yoʻq), xit, degʻo (begona), dar (goʻzal), shashbil (palov) kabi. Xalqni aldovchi, firibgar dallollar ham molning narx va qimmatini maxfiy tutish maqsadida sanoq sonlarni sunʼiy ravishda quyidagicha ataganlar: nosir (yarim soni), sari (bir —1), piyoz (2),

giri (3), gapa (4), nimsari (5), kapara (ol-ti—6), giri kam (7), piyoz kam (8), arra kam (9) va boshqalar. Bu ijtimoiy guruhlarning o'ziga xos sun'iy ifoda vositalarini — maxsus so'z va iboralarini keng xalq ommasi tushunmaydi.

Jargonlar va argolar tilni bulg'aydi. Tilning sofliги va tozaligi, aniqligi va ravshanligi uchun kurash jargonlarga qarshi kurashni ham taqozo qiladi.

Lekin badiiy adabiyotda stilistik maqsadda jargonlardan qisman foydalaniladi.

Masalan: Qo'shni, har ehtimolga qarshi eshikning ilgagini solmay yoting, kechasi motkamizning jini qo'ziydigan odati bor». (S. A.) Said Ahmad o'yin kartasidagi motka («dama»)ni xotin ma'nosi-da ishlatgan.

«Qorilik» parodiyasida axloqiy buzuvchilik yo'liga kirgan ruhoniyyat — qori o'z nutqida qaymoq, araq, pivo, kon'alk, musallas, kolbasa, shashlik, likyor, lag'mon kabi so'zlarni arab tilidagi yasovchilarga taqlidan tovush tomonidan o'zgartirib, ularga jargonnamo tus beradi: Qori: — Billohu tavfiqun yetti yog'liq patiru nallaziyna kafaru qaymoqun to'qqiz chalpaki olib keltiring... Qulyo ayyuhal kerak mehmonxonada arog'atun, pivoxum, kon'yakun, musallasusha'riyun yog'liq kolbasatun xuvol vinou shashlikun minallikyoru vala'man. («gazetadan».)

Badiiy adabiyotda jargonlarning stilistik maqsadda ishlatilishi haqida gap borar ekan, adabiyot xalqni badiiy jihatdan tarbiyalash quroli ekanini unutmaslik kerak. Badiiy asar tili realistik tasvir qonunlariga bo'ysundirilgan, ya'ni individuallashtirilgan, tipiklashtirilgan bo'ladi. Badiiy asarda tasvirlanayotgan va o'ziga xos xulq-atvorga ega bo'lgan shaxs — ijobiy yoki salbiy qahramonning xarakteri va hatto voqealar rivojida u qadar muhim rol o'ynamaydigan personajning fe'li, tabiati ham ularning o'z nutqlari orqali beriladi. Yezuvchi tipik holatlarni saralab olishi va tasodifiy holatlardan xoli bo'lishga alohida ahamiyat (berishi lozim. Badiiy yndividuallashtirish qahramon yoki personaj nutqida umumlasmagan, ta-sodifiy holatlarga, ayni o'rinda jargon so'zlarning ishlatilishiga tanqidiy munosabatda bo'lishni talab qiladi.

Emotsional-ekspressiv leksikaning stilistik xususiyatlari, intellektual leksika.

Ma'lum bir tushunchanigina ifodalab, qo'shimcha emotsional-ekspressiv bo'yoqqa ega bo'lmagan so'zlar intellektual leksika deyiladi. Masalan: yer, suv, non, qalam, daftar, yil, hamma, tarbiya, masala, yuz, qora, qizil, ko'rmoq, bormoq, isbotlamoq va boshqalar. Ilmiy-texnik terminlar, kasb-hunarga oid maxsus so'zlar, ijtimoiy-siyosiy va umumadabiy leksikaga oid ba'zi so'zlar ham emotsional bo'yoqqa ega bo'lmaganligi uchun intellektual leksikaga kiradi.

Intellektual so'zlar umumiste'moldagi leksikaga xos bo'diganligi sababli har qanday janrda ishlatilaveradi va stilistik jihatdan chegaralanmagan bo'ladi. Shunga ko'ra ular stilistik neytral leksika deb ham yuritiladi.

So'z turkumlaridan son, olmosh, ko'makchilar (bir, ikki, ...o'n, yuz, ming...;

men, sen, shu, bu, hamma...; bilan, uchun, kabi, singari, so'ng, keyin...), bog'lovchilar (va, ham, ammo, agar, chunki, yoki, to-ki...) deyarli intellektual leksikaga kiradi.

Emotsional-ekspressiv leksika va ularning turlari. G'zbek tili leksikasida ekspressiv¹ va emotsional² rangdorlik bilan bog'liq bo'lgan so'zlar ko'p. Masalan, quyidagi so'zlar ta'sirli va ifodali (bo'yog'iga ko'ra nutqqa ko'tarinki, tantanali va ulug'vor ruh kiritadi: navqiron (yoshlik), istiqbol (egalari), mag'rur (jaranglamoq), muqaddas (burch).

Tilda o'z leksik ma'nosi bilan histuyg'u, kechinma va hayajon ifodalovchi so'zlar ham bor: sevinch, quvonch, tabassum, dahshat, hiylagar kabi.

Ba'zi ko'p ma'noli so'zlar to'g'ri ma'nosida emotsional-ekspressiv bo'yoqqa ega bo'lmaydi, lekin ko'chgan ma'nolarida emotsional-ekspressivlik yaqqol seziladi. Masalan, gumbaz so'zining qubba, ravoq ma'nolarida emotsional bo'yoq yo'q, lekin ko'chgan ma'noda qo'pol, beso'naqay, semiz odamni ifodalaydi. Xuddi shuningdek, mag'zava so'zi ham ko'chgan ma'nosida (mag'zava mahsum) mujmal, lanj, sustkash odamni anglatadi.

Ba'zi holatlarda sinonim so'zlar bir-biridan emotsional-ekspressiv bo'yog'ining kamroq yoki yaqqol sezilib turishi bilan farqlanadi: yuz, chehra, jamol, oraz, bet, aft, bashara, turq kabi sinonim so'zlarning keyingi uchasi o'zining emotsional-ekspressiv rangiga ko'ra oldingilaridan ajralib turadi. Aft, bashara, turq so'zlarida salbiy ottenka yaqqol seziladi. Xuddi shuningdek, bo'shang, lapsshang, noshud, landovur, so'tak sinonim so'zlari chaqqon (epchil)ning aksi ma'nosi bilan birlashsa-da, bulardan landovur, so'tak so'zlarida salbiy ottenka kuchlidir. So'zlarning emotsional-ekspressiv ma'no xususiyati kontekstda reallashadi. Masalan, ko'pik, nok so'zlari kontekstda salbiy baho ma'nosini olishi mumkin: Maqolaning ko'pigi ko'p. Bu nok odam (chiniqmagan ma'nosida). Shunday qilib, so'z \bir predmet yoki voqeaning nomini atash-dan tashqari, jirkanish va manmanlik, mensimaslik, masxara, nafrat, g'azab, kinoya hamda hurmat, erkalash, ko'tarinkilik, ulug'vorlik singari emotsional-ekspressiv ma'nolarni ham ifodalaydi. Shunga ko'ra so'zlar ijobiy ma'no ottenkasiga ega bo'lgan so'zlar va salbiy ma'no ottenkasiga ega bo'lgan so'zlar deb ikkiga ajratiladi.

Ijobiy ma'no ottenkasiga ega bo'lgan so'zlar qatoryga quyidagilar kiradi:

a) erkalash-suyish va xushmuomalalikni bildiruvchi so'zlar. Bunday so'zlarning ko'pchiligi erkalash-kichraytirish affikslari yordamida yasaladi: toychoq, qo'zichoq, qizaloq, bo'taloq, do'mboq, kenjatoy, bolatoy, opajon, bolagina, aylanay, o'rgilay, girgiton bo'lay va hokazo;

b) tantanali, ritorik hamda poetik so'zlar. Bunday so'zlar nutqqa dabdabali, ko'tarinki ruh kiritadi. Kuchli ifoda vosi-

tasi' hisoblangan bunday so'zlarning ko'pchiligini arxaik so'zlar tashkil qiladi.

Bu turkumdagi so'zlarga og'zaki ijodiyot — folklorda keng qo'llanuvchi xalq poetik so'zlarini ham kiritish mumkin. Bunday. so'zlar adabiy tildagi so'zlardan o'zining og'zaki-poetik bo'yog'i va doston qo'shiqlariga xos xususiyati bilan ajralib turadi. Masalan: alp (pahlavon), lopchi (lofchi), sinchi (otni yaxshi biluvchi), alqor (tog' qo'yi), havar (to'g'ri, tekis yo'l), bedov (chopqirot), bedov suvor (chavandoz), ko'kalam (ko'kalamzor), kelbatli (qaddi-qomati kelishgan), halolxo'r (to'g'ri, vijdonli).

Salbiy baho ottenkasiga ega bo'lgan so'zlar qatoriga quyidagilar kiradi:

a) jirkanish va mensimaslikni ifoda qiluvchi so'zlar: oyimcha, oyimchaxon, oyimtilla, baloxo'r, pashshaxo'rda, kerilmajon,, mazaxo'rak, yutoqmoq, so'tak, soyaparvar, xomkalla, o'limtik kabi;

b) qarg'ish, so'kish va haqorat ma'nosini ifoda qiladigai so'zlar: zumrasha, xumpar, tirrancha, la'nati, gazanda, simyon, bachchag'ar, oqpadar, qizitaloq, jinnivachcha, juvonmarg, go'rso'xta, baraka topmagur, qoqbosh, to'ymagur, turqing qursii...;

v) xalq tilidagi hazil so'z va iboralar: ahmoqqa to'qmoq (kishining muskul kuchini o'lchaydigan asbob), oyog'ini to'rtta qilib qo'ymoq (uylantirish ma'nosida);

g) salbiy emotsional bo'yoqqa ega bo'lgan publitsistik leksika. Bunday so'z va iboralar publitsistikada dushman va yot oqimlarni fosh etishda keng qo'llaniladi. Masalan, qora guruh, sariq iblis, irqchilar, okean ortidagilar, banditlar, bosqinchilar, sox-t talashtiruvchilar, yo'lchilar, shovinistlar, imperialistlar, urush olovini yoquvchilar, ma'rifat dushmanlari kabi.

_Emotsional-ekspressiv leksikadan foydalanish tekstning umumiy stilistik maqsad va yo'nalishi bilan bog'liq. Emotsional xususiyatga ega bo'lgan so'zlar badiiy-publitsistik asarlarda hamda so'zlashuv nutqida qo'llanadi. Biroq dag'al so'zlar (vul'garizm-lar) va haqorat so'zlardan foydalanishda ma'lum odob chegarasi-da turnsh zarur. Qo'pol, vul'gar, argo so'zlarni hatto asarda ishtirok etuvchi shaxslarning nutqiy xarakteristikasini berish maqsadida ishlatish ham naturalizmga olib keladi.

Evfemizmlar va ularning stilistik roli.

Evfemizm tilning iyfoda va stilistik vositalaridan biri sanaladi. Aytish noqulay yoki noo'rin bo'lgan so'z yoki ibora o'rniga ishlatiladigan«pardali» so'z yoki ibora evfemizm1 deyiladi. Masalan, bo'g'oz xotin deb aytish jonli tilda ham, adabiy tilda ham noqulay bo'lganlgi uchun uning o'rnida ikkiqat, g'iroyoqli, homilador, yukli jabi evfemistik so'zlar ishlatiladi. Xuddi shuningdek, nutq

vaziyatiga qarab tug'di o'rnida ko'zi yoridi, ahmoq o'rnida aqli qisqa, tsar o'rnida qulog'i og'ir, o'g'ri o'rnida qo'li egri kabi iboralar qo'llanadi. Tilda evfemizmlarning yaratilishi etnografik tushuncha — tabu2 hodisasi bilan ham aloqadordir. Kishilik jamiyati taraqqiyotining ibtidoiy davrida tabiat hodisalarining sirini bi«dishga ojiz bo'lgan inson qo'rquv uyg'otadigan sehir va zararli, «yovuz kuchlardan, jin, arvoh, «yomon ruhlar»dan, ofatli kasallika va yirtqich hayvonlardan saqlanishning birdan-bir chorasi ularning nomini aytishni man etish, atamaslik deb tushungan. Aloqaaralashuv muomalasida so'zlarni aytishni bunday man qilish, taqiqlash hodisasi tabu deb ataladi.

Nomini aytish man etilgan qo'rquinchli narsa va hodisalarni, yovuz kuchlarni chaqirish xavfini tug'dirmay gapirish zaruriyati tug'ilganda, ular boshqa so'zlar, ya'ni evfemizmlar bilan almashtiriladi. Tabu hodisasi izlarini tilda hozir ham uchratish mumkin. Masalan, yirtqich hayvon bo'ri o'rnida itqush, qabishqir, qotibiqul, jondor; kasallik nomi qizamiq o'rnida gul, oymoma, haymoma; chayon o'rnida eshak, oti yo'q, benom (Urgut rayonida), gazanda (Andijon), ayri quyruq (Xorazmda), besh bo'g'in, gaj-dum (Surxondaryoda) kabi so'z yoki so'z birikmalarining ishlatilishi evfemizm hodisasi3.

Quyndagi misolda aytish noqulay bo'lgan kasallik nomi o'rnida evfemistik so'z ishlatilgan: Biz oq domla deganning tashqisiga ko'chadigan bo'ldik. Oq domlaning tashqisi... hozir jin-nixona qilib qo'yilgan, domla shu yerda jinnilarni o'qib tuzatar ekan. Oq domla peshanasi, ko'z ostlari, bir chekkasi va butun bo'yni oppoq pes, biroq nafasidan jinni shifo topadigan bo'l-gani uchun xalq pes domla degani og'zi bormay, oq domla derkan». (A. Q.)

O'zbek tili xilma-xil evfemistik iboralarga boy bo'lib, muomalada ularning turli tiplari keng miqyosda ishlatiladi.

Ba'zi evfemizmlar bir asosiy tushunchani ifodalasa-da, lekin ular o'zlariga xos ottenkalari va kishilarning bir xil tushunchaga turlicha munosabatda bo'lishlarini ko'rsatishi jihatidan farqlanib turadi.

Evfemizmlarning bunday farqlanuvchi belgilari sifatida turli emotsional-ekspressiv bo'yoqqa egaligi, biron nutq ko'rinishiga mansubligi, adabiy til yoki dialektga xosligi kabi holatlarni ko'rsatish mumkin. Masalan, o'zbek tilida o'lim tushunchasini ifodalash uchun ishlatiladigan vafot qilmoq, joni uzilmoq, jon bermoq, qazo qilmoq, olamdan o'tmoq, ko'z yummoq, mangulik uyqusiga ketmoq, bandalikni bajo keltirmoq, omonatini topshirmoq kabi evfemizmlar emotsional-ekspressiv va stilistik bo'yog'i bilan bir-biridan farqlanadi. Bulardan tashqari, kitobiy nutqqa xos bo'lib, hozirda arxaiklashgan quyidagi kboralar ham o'lim tushunchasini bildiruvchi evfemizmlar hisoblanadi: Safar ixtiyor qildi va ul safarda oxirat safari oldig'a tushdi. (N.) Pirim shu yerda manzilu murodlarini topib, ilohimning dargohiga maktul ztildilar. (As. M.)

Nihoyat, shevalarda ham shu tushunchani ifodalovchi yana bir-muncha evfemizmlar uchraydi. Masalan, bola o'lsa bola uchOi,

go'dagi uchdi (Namangan va Farg'ona shevasida), nobud bo'ldi (Toshkent), bola chennadi (Samarqandning ayrim rayonlarida), bola chetnabdi (Gurlan rayonida) kabi iboralar ishlatiladi.

Yuqoridagilardan ko'rinadiki, evfemizmlarni aytish noqulay yoki noo'rin bo'lgan so'z, ibora o'rnida silliqroq, pardali so'zlarni ishlatish ehtiyoji bilan yasalgan ijobiy ottenkali so'z va iboralar yig'indisi tashkil qiladi.

Lekin tilda aytish noqulay va noo'rin bo'lgan tushunchani evfemistik usul bilan yumshoq, silliqroq formada ifoda etishdan tashqari, qo'pol va dag'al formada ifodalash usuli ham mavjud. Bunday so'z va iboralar kakofemizm (yoki disfemizm) deb yuritiladi. Masalan, o'lim tushunchasini ifodalash uchun quyidagi kabi kakofemizmlar ishlatiladi: ko'ziga tuproq to'lmoq, asfo-losofilga jo'natmoq, yer tishlamoq, yerning qa'riga ketmoq, qulog'i tagida (ostida) qolmoq, yostig'ini quritmoq, narigi dunyoga jo'natmoq va boshqalar. Kakofemizmlar so'zlovchining tinglovchi-ga yoki biror predmetga nisbatan masxara, istehzoli, iltifotsiz qarashini, munosabatini ifodalaydi.

Tilda azaldan o'rnashib qolgan evfemizmlardan tashqari, muayyan nutq vaziyati talabi bilan yaratilgan evfemizmlar ham mavjud. Bu xil evfemizmlar tildagi mavjud so'zlarga nisbatan kontekstual sinonim bo'ladi. Ko'pgina hollarda evfemistik perefrazalarning ma'nosi kontekstda ochiladi va ular stilistik funksiyasi jihatidan avtor yoki asar qahramoni nazarida qo'pol tuyulgan so'z, iborani yumshoq, silliqroq formada ifoda qilish vazifasini bajaradi. Masalan: —Avval eson-omonqutulib oling, o'rtoqjon. (As. M.) Ra'noni egasiga topshirmagunimizcha — dedi Nigor oyim,— quyilmaydiganga o'xshaydi. (A. Qod.) Bu misollarda nutqiy odob nuqtai nazaridan qo'llanilib, tug'moq so'zi o'r-nida qutulib olmoq, erga bermoq o'rnida egasiga topshirmoq kabi evfemistik ma'no kasb etgan bu iboralar kontekstdan tashqari-da butunlay boshqa ma'no apglatishi mumkin. Xuddi shuningdek, badiiy evfemizmlarning ham ma'nosi, odatda, kontekstda ro'yobga chiqadi. Kontekstdan tashqarida o'zining evfemistik ma'no xususiyatini yo'qotadi. Haqiqatan ham quyidagi misolda turmush o'rtog'i—«eri» ma'nosida qo'llangan gavhar, suvvat so'zlari kontekstdan tashqarida hech vaqt bu ma'noni anglatmaydi. Masalan: Maryamxonim (achchiq ila marjonni uzib yutib, yerga urib): — Ol bisotingni, mening gavharim bor, quvvatim bor, ko'zinga ko'rinmaydi bunaqa narsalar. (H. H.) Quyidagi kontekstda esa bir zanjir — uchinchi bir odam birikmalari «qornimda bola bor, homiladorman» ma'nolarida ishlatilgan: Jamila: — Hali men sizdan suyunchi olmoqchi edim. Bizni kim ajrata oladi, axir ikkimizni mahkam bog'laydigan yana bir zanjir — uchinchi bir odam... (H. H.)

Vzuvchilar evfemizmlardan o'z asarlarida hazilomuz, yumoristik tayevir yaratish uchun ham keng foydalanadilar. Masalan, Abdulla Qodiriy «Kalvak Maxsumning xotira daftaridan» degan hajviy asarida Maxsum domlani jismaniy nuqsonini — Rilayligini xalq tilidagi hazil ibora — qassobdan et olib baqqol bilan muomala qilmoq evfemizmi bilan ifoda qiladi. Maxsum domla o'zining go'daklik

chog'ini hikoya qilar ekan, shunday deydi: Faqir shu yo'sin ikki yil komil beshikda sirilib yota-yota— boshqalardek beshikdan qutulib erkka chiqibdurmen. Ammo nazir boshim kesak qisqon qovundek qiyshiq bo'lib va yana jovdirlag'on ko'zim qassobdan et olib baqqol birlan muomala qilaturg'on darajaga yetibdur.

Quyidagi misolda esa Hamza Hakimzoda pora bermoq o'rnida tarnov-parnovini ho'llamoq individual evfemistik iborasini qo'llaydi: Qodirqul: — Biz ham o'shalarchalik tarnov-parnovingiz-ni ho'llab qolarmiz.

Keltirilgan misollardan ko'rinadiki, evfemizmlar badiiy adabiyotda, asosan, aytish uyat, noqulay va poxush vaziyatlardan qutulishning birdan-bir stilistik vositasi sifatida ishlatiladi. Bundan tashqari, badiiy asarda obraz va personajlar nutqdada ishlatilgan evfemizmlar har bir obraz va personajning maqead, dunyoqarashi va saviyasini ifodalashdek muayyai stilistik mahsadni ham ko'zda tutadi.

Maqol va hikmatli so'zlarning stilistik xususiyati

Frazeologiyada1 tildagi turg'un — barqaror birikmalar o'rganiladi.

Odatda, so'zlarning birikuvi tufayli so'z birikmasi hosil bo'ladi. Bu so'z birikmalarining ba'zilari erkin bo'lsa, ba'zilari turg'un (barqaror) bo'ladi. Oyoq uchida birikmasi kontekstdan aiglashilgan ish-harakatning imi-jimida, yashirincha, maxfiy bajarilganligini bildiradi. Birikma tarkibidagi har bir so'z o'z mustaqil ma'nosini saqlamagan, shunga ko'ra bu sostavidagi so'zlari (komponentlari) barqaror, bo'linmas bir semantik birlikni hosil qilgan turg'un birikmadir.

Quyidagi gaplardagi og'zi qulog'ida, qo'l keladi, nonini tuya qilmoq iboralari ham turg'un birikma sanaladi: Istar-istamas idoraga kirgan Bo'riboy bu yerdan og'zi kulog'ida bo'lib chiqdi. (H. Nazir). Birvarakayiga sakson ming dona g'isht pishiradigan bu zavod kolxozga juda ko'l keldi. U dinni qurol qilib sodda dil musulmonlarning nonini tuya kilib yurar ekan. Ibora tarkibidagi har bir so'znng ma'nosi tushunarli bo'lsa-da, ammo bu so'zlarning se-mantik bog'lanishi cheklangan, ularni boshqa biror so'z bilan al-mashtirish mumkin emas.

Ko'p ma'nolilik hodisasi turg'un birikmalarga, ya'ni frazeologik iboralarga ham xos. Masalan, «O'zbek tilining qisqacha frazeologik lug'ati»da bosh ko'tarmoq iborasining 6 xil ma'no ottenkasi ko'rsatiladi.

Quyidagi iboralar ham bir necha ma'noga ega: yo'lga solmoq: 1) ketish tomoniga to'g'rilab jo'natmoq, yurgizmoq; 2) to'g'ri yo'lga qaytarmoq; 3) manfaatdor bo'lgani holda rag'batlantirmoq; 4) faoliyatini yaxshilamoq; bel bog'lamoq: 1) shaylanmoq, o'tlanmoq; 2) astoydil kirishmoq; 3) ahd qilmoq; tilga kirmoq: 1) nutqqa ega bo'lmoq; 2) ma'lum fursat o'tgandan so'ng gapira boshlamoq; 3) o'q uza boshlamoq1.

Frazeologik iboralarning ko'p ma'noliligi ularning sinonimik holati bilan bog'liq. Chunki u yoki bu iboraning yangi ma'nosi turg'un iboralar doirasida

yangidan-yangi semantik bog'lanishlarni aniqlashga, frazeologik ma'nolar miqdorini kengaytirishga olib keladi.

Frazeologik iboralarning sinonimiya hodisasiga boyligi ulardan foydalanishda katta stilistik imkoniyatlar yaratadi. Bu imkoniyatlarni, qisqacha, quyidagicha izohlash mumkin:

Frazeologik ibora alohida so'z bilan sinonimik munosabat hosil etadi. Masalan, tepa sochi tikka bo'ldi iborasi achchiqlan-moq, g'azablanmoq so'zlari bilan, ko'zi tor iborasi qizg'anchiq so'-zi bilan, nonini tuya qilmoq iborasi aldamoq so'zi bilan sinonimik holatda bo'ladi.

Bir sinonimik uyani tashkil qiluvchi iboralar o'zaro obrazlilik darajasi jihatdan farqlanadi. Masalan, boshiga yetmoq — boshini yemoq frazeologizmlari ayni bir ma'noni anglatadi-da, ammo obrazlilik darajasiga ko'ra farq qiladi. Ikkinchi iborada «yo'q qilmoq», «halok qilmoq» ma'nosini kuchli va qat'iyroq. Beshi qotdi, boish shishdi, miyasi g'ovlab ketdi iboralari-ning so'ngisi ma'no darajasining kuchliligi, obrazlilik va ifodaliligi jihatidan ajralib turadi. Xuddi shuningdek, mum tishlamoq, og'ziga tolqon solmoq, og'ziga qat'iq ivitmoq sinonimik uyada ikkinchi va uchinchi iboralar birinchisiga nisbatan obrazliroqdir. Olib borilgan maxsus. «kuzatishlar frazeologik sinonimlarning ko'pincha obrazlilik darajasida farq qilishini ko'rsatadi»¹.

Frazeologik sinonimlar ham nutq ko'rinishlariga xoslangan bo'ladi. Bir sinonimik uyadagi iboralarning ba'zisi umumnutqqa xos bo'lsa, ba'zisi boshqa biron nutq ko'rinishiga xoslangan bo'ladi. Masalan: erga tegmoq, turmushga chiqmoq, erga chiqmoq iboralarining birinchisi rasmiy nutqqa, uchinchi esa so'zlashuv nutqiga xoslangandir. Xuddi shuningdek, oila qurmoq, turmush qurmoq, bir yostiqa bosh qo'ymoq iboralarining birinchisi va ikkinchisi rasmiy nutqqa, uchinchi so'zlashuv nutqiga mansub. Quyidagi iboralarning birinchisi badiiy nutqqa, ikkinchisi umumnutqqa oiddir: bir yoqadan bosh chiqarmoq, bir jon bir tan bo'lmoq.

Frazeologik iboralar nutq ko'rinishlariga qarab turli xil vazifada qo'llaniladi. Ilmiy va rasmiy nutqda, ko'pincha, nominativ funksiyani bajaradi. Bunga qo'l qo'ymoq, qo'l qo'tarmoq, o'rta tashlamoq, ovoz bermoq, ovozga qo'ymoq, haddan oshmoq, fikri bir yerdan chiqmoq iboralari misol bo'ladi. Badiiy ada-biyot va publitsistik asarlarda dastavval turli ko'rinishlarga mansub frazeologizmlarning ekspressivstilistik jihat va uning obrazlilik, ta'sirchanligi nazarda tutiladi.

Badiiy adabiyot va publitsistikada iboralarni ishlatish, qo'llash yo'llari juda xilma-xil. Yozuvchi va publitsistlar umumtildagi mavjud tayyor iboralardan unumli foydalanibgina qol-may, o'zlari ham shular zahirida yangi iboralar yaratadilar. Bunda ular umumtil iborasi zahiridagi ma'noning yangicha tal-qinini ochish, iboraning leksik tarkibini o'zgartirish uning se-mantik-stilistik funksiyalarini kengaytirish, iboraga yangicha majoziy va obrazli ma'nolar kiritish kabi usullardan foyda-yaanadilar.

Yezuvchi Abdulla Qahhor «Qo'shchinor chiroqlari» romanida rus gilidan o'zlashgan o'z gazi bilan o'lchamoq iborasi asosida yangi ibora yaratadi. Bunda u «...ibora zamiridagi obrazni Urmonjonning fikriga muvofiqlashtirish uchun uning talqiniga «o'lchagani gazi yaramay qolmoq, eskilik qilmoq» tarzida yangicha yo'nalish, yangicha tus beradi. Natijada tushunishga ojizlik qilmoq degan ma'noni ifodalaydigan individual frazeologik neologizm vu-judga keladi: o'lchagani gazi eskilik qilmoq. Bu yangi ibora Urmonjonning fikrini obrazli qilib, yorqin ifodalash imkonini beradi»².

Quyidagi tekstda esa, loy bo'lmoq birikmasi ham erkin birikma, ham turg'un birikma sifatida ishlatiladi:

Iye, Ra'noxon, etagingizga loy tegibdimi? — so'radim.

Io'g'e, qani? — deb etagini ushlagan edi, chippa loyga tegdi.

Voy, loy qayerdan tekkan ekan-a?— dedi uyalib u.... Lekin bu loyni yuvsa ketadi-ku, o'zingiz loy bo'lib qolmasangiz deymen...

Nega endi men loy bo'lar ekanman?— dedim jahlim chi-qib, — shunday chiroyli qizlardan ham kesatiq chiqar ekan-a... Tavba...

— Chiroyli qizlar ketidan soyadek ergashaverishingizni kelinoyim ko'rsa-chi, naq bir zambil loy bo'lar edingiz, dedi. Terlab ketganimdan Ra'noxonning qaysi ko'chaga burilganini ham oil[^] may qolibman». («yosh 1.»)

Umumtil frazeologik iboralaridan Oybek, Abdulla Qahhor, Abdulla Qodiriy, G'afur G'ulom va boshqa ko'pgina talantli yozuvchilar o'z asarlarida mohirlik va ijodkorlik bilan foyda-langanlar. Masalan, A. Qahhor «Utmishdan ertaklar» qissasida To'raqul vofurushning juda ayyorligini, mug'ambir va quvligini ko'rsatish uchun ilonni yog'ini yalagan xalq iborasiga muqobil tarzda yangi ibora ijod qiladi:— Pulni oldingiz, usta, bo pand yemang. Bu odam sof ajdaho. Ulikning yog'ini, tirikning tirnog'ini yeydi bu!

Quyidagi misolda suvi qochgan (non) iborasi yangi ma'no kasb etgan — salbiy baho ottenkasiga ega bo'lgan: 110 qadoqdan (Amerika o'lchov vaznida) oshishni gunoh sanagan daroz, taxtakach, su-vi qochgan shilqiyag ayollarni ko'rganim sari bir kimsa, tabiatning tanti san'ati yaratgan bo'y-bast, bug'doy rangli bejirim chiroy... Meni bir zum ham tinch qo'ymas... (S. Azimov.)

Maqol, matal va hikmatli so'zlarning stilistik vazifasi. So'z ko'rki bo'lgan maqol va matallardan foydalanips har bir qalam ahlining so'z boyligini orttiradi, uning nutqini o'tkir va ta'sirli qiladi, unga badiiy jihatdan sayqal beradi.

Maqol va matallarning badiiy kuchi va qimmagini baholar ekan, «ularda butun-butun kitoblarning mazmuniga teng his-tuyg'ular ifodalangan»¹

O'zbek xalq og'zaki ijodn namunalari orasida nutq madaniyatini puxta egallashga, tilning qadr-qimmatini chuqur anglashga da'vat etuvchi maqol va

matallar keng o'rin olgan. Bu turdagi maqollarda so'zning serma'no va o'tkir, fikrning qisqa va ixcham bo'lishi kabi muhim fazilatlari talqin qilinadi. Quyida bulardan namunalar keltiramiz: Tilga e'tibor — elga e'tibor. Tilga huriat — elga hurmat. Xalq so'zi — dengiz to'liqini. Til qilichdan o'tkir. Oldin o'yla — keyin so'yla. Yaxshi naql — tomi-ri aql. Yaxshi so'z — jon ozig'i, yomon so'z — bosh qozig'i.

Ko'pgina maqollarda ortiqcha safsatabozlik, tilyog'lamalik qattiq qoralanadi, ixcham, qisqa va ma'noli gapirish, rostgo'y va shirin so'z bo'lish uluglanadi: Gapning qisqasi yaxshi, qisqa-sidan hissasi yaxshi. Ko'p bilgan oz so'zlar, oz so'zlasa haj soz so'zlar. Ko'p so'zning ozi yaxshi, oz so'zning o'zi yaxshi. Oz so'zla, ko'p tingla.

Badiiy adabiyotda maqol va matallar yozuvchi anglatmoqchi bo'lgav ma'noni obrazli qilib ifodalash uchun xizmat qiladi. Yezuvchilar personajning ichki dunyosini ochish va uning nutqiy xarakteristikasini berishda badiiy vosita sifatida maqol, matal, hikmatli so'zlardan o'rinli va ijodiy foydalanadilar. Buning uchun Oybekning «Qutlug qon», «Oltin vodiyan shabadalar» romanlari, Abdulla Qahhorning prozaik va sahna asarlarida ishlatilgan maqollarni kuzating. Ular so'z ko'rki — maqol, matallardan barakali foydalanibgina qolmay, o'zlari ham yangidan-yangi hikmatli so'zlar ijod etganlar. Masalan, O'qsizsoldat—qilichsiz qin. Yer hosilning onasi bo'lsa, otasi — mehnat (0.) kabi hikmatli so'zlar Oybek ijo-diga mansub.

Quyidagi tekstlarda esa A. Qahhor ijod etgan hikmatli iboralarni o'qiymiz: Dadam dam-badam ichidan xuruj qilib ke-layotgan yig'ini yutib, ayamga tasalli berdi, taqdiri azal, odam-ning umri bir tomchi kabobning seli. («O'tmishdan ertaklar».) Kana sigirning qulog'iga tushadi, tuyog'iga emas. Xazinaga kirgan. mushuk zarga qaramaydi, sichqon ovlaydi.

Publitsistik asarlarda maqol va matallar badiiylilikni kuchaytirishdan tashqari, fikrni alohida ta'kidlash uchun xizmat qiladi va uning siyosiy o'tkirligini oshiradi. Ijtimoiy-siyosiy adabiyotda uchragan maqol, matal va hikmatli so'zlar, V. I. ta'biri bilan aytganda, «qochiriq so'zlar g'oyat murakkab hodisalarning mohiyatini yaxshi ifodalab beradi».

G'oyaviy mazmuni, ma'naviy-axloqiy xulosasiga ko'ra xilma-xil, rangbarang bo'lgan maqollar stilistik funksiyasi jihatidan ham o'ziga xos xususiyatga ega. Maqollarda keng va teran g'oya-ni qisqa, ixcham shaklda ifodalash kishilarni nutqqa e'tibor berish va talabchan bo'lishga o'rgatadi, to'g'ri va mantiqiy fikr-lashga yordam beradi.

Maqollardan foydalanishda ularning tushunarli bo'lishi, o'z o'rnida to'g'ri ishlatilishiga, nutqni aniq va ta'sirchan qilishiga alohida e'tibor berish kerak. Maqollarni noto'g'ri, buzib ishlatish ham ularning ma'nosiga putur yetkazadi. Quyidagi misollarni kuzating: Bu taklifning yaxshi ekanligiga shubha yo'q, lekin bu taklif oy eshikka, arava tuynukka kelganda kiritiladi. («Qizil

O'zbekiston».) Bunda xalq tilidagi Oy tuynukka, arava eshikka kelganda maqolining leksik tartiblanishi buzib berilgan. Quyidagi tekstda esa xalq tilidagi Echiga jon qayg'u, qassobga yog' qayg'u maqolining butunlay buzib ishlatilishi maqoldan anglashiladigan majoziy ma'-noni ham, mantiqiy xulosani ham yo'qqa chiqargan: «Sichqonga don qayg'u, qassobga jon» deganlaridek, hamma nima dardda-yu, u nima hasratda.

11-Mavzu:MORFOLOGIK STILISTIKA

Reja:

- 1.Morfologik uslubshunoslik ob'yekti
- 2.So'z turkumlarining uslubiy imkoniyatlari.Ot turkumi
- 3.Sifat.Sifat darajalari uslubiyatlari.
- 4.Son stilistikasi.
- 5.Olmosh stilistikasi.
- 6.Fe'l.Felzamonlarining uslubiy imkoniyatlari.

Mavzu uchun tayanch atamalar: Morfologik uslub, ko'plik qo'shimchasi, kelishiklar, egalik qo'shimchalar, so'z turkumlari uslubi.

Ma'lum bir fikrni ifodalash uchun morfologik formalarning va sintaktik konstruksiyalarning stilistik variantlaridan foydalanish va tilda ana shunday sintaktik va morfolo-gik sinonimiyaning mavjudligi grammatik stilistika haqida ham so'z yuritishga asos bo'ladi. Masalan, Men kecha qishlog'imizga kelgan Ahmedov bilan tanishman. Men qishlog'imizga kecha kelgan Ahmedov bilan tanishman. Kecha qishlog'imizga kelgan Ahmedov bilan men tanishman gaplarining uchalasi ham grammatik jihatdan sodda, yoyiq, darak gap. Stilistik jihatdan esa ular fikr nozikliklariga ega. Shunga ko'ra ularga stilistikada bir xil hodisa sifatida befarq qarash mumkin emas. Stilistika har bir gapning ma'lum maqsadda ishlatilishiga alohida aha-miyat beradi va ularni tanlash imkoniyatini yaratadi, ya'ni: so'zlovchi bir necha Ahmedovlar ichidan qishloqqa kelgan Ahmedovning tanishligini bayon qilmoqchi bo'lsa, yuqoridagi gaplarning birinchisidan, agar qishloqqa bir nechta Ahmedov kelib ketganu, ammo ulardan qishloqqa faqat kecha kelganinigina tanishligini aytmoqchi bo'lsa, ikkinchi gapdan foydalanishi lozim. Uchinchi gap esa tamoman boshqa maqsad uchun ishlatiladi: bunda qishloqqa kelgan Ahmedov bilan boshqa kishi emas, balki faqat so'zlovchigina tanish ekanligi ifodalangan.

Hozirgi o'zbek tilida kelishik affikslarining, zamon, mayl formalarining, ayrim yasovchi affikslarning bir-biriga nisbatan sinonimik munosabatda bo'lishi, ularning biri o'rnida ikkinchisini ishlatish imkoniyati masalasi ham grammatik stilistikaning o'rganish ob'yektidir.

Ming yillik aloqalar natijasida o'zbek tiliga arab, fors-tojik tillaridan turli-tuman grammatik formalar kirib keldi. Ularning ba'zilar sof o'zbek affikslariga sinonim bo'lib qoldi. Bunday affikslarning ba'zilar hozir ham qo'llanmoqda. Jumladan, fors-tojik tilidan qabul qilingan no-, be-, ser-, ba- kabi prefikslardan no-, be- prefikslari o'zbek tilidagi sifat yasovchi -siz affiksi, ser-, ba- prefikslari esa o'zbek tili-dagi sifat yasovchi -li affiksi bilan sinonimdir. Lekin ularning qaysi negizlarga qo'shila olish, qo'shila olmaslik xususiyatini, qaysi vaqtlarda biri o'rnida ikkinchisini qo'llash mumkin emasligini — sinonim bo'la olmasligini bilish lozim. Masalan, noo'rin, nobop, nomahram so'zlaridagi no- prefiksi o'r-nida o'zbekcha -siz affiksini ishlatish mumkin bo'lmagani kabi, o'zbekcha tuzsiz so'zidagi -siz o'rnida no- prefiksini qo'llash mumkin emas. Chog'ishtiring: noto'g'riTS to'g'risiz, nobop// bopsiz, nomahramS mahramsiz, tuzsiz // notuz kabi.

E s l a t m a. Bu yerda tuzsiz so'zidagi -siz o'rnida forscha no-emas, balki be- prefiksini ishlatish maqsadga muvofiq bo'lardi.

Stilist, adabiy kuzatuv ishi bilan shug'ullanuvchi kishi, nor-mativ grammatika talablarini hisobga olish bilan birga, morfologik va sintaktik vositalardan stilistik maqsadda foyda-lana olish imkoniyatlariga ham ahamiyat berishi kerak.

Tilning u yoki bu grammatik formasi ma'lum davr uchun eskirgan bo'lishi yoki faqat ayrim stillar uchungina xarakterli bo'lib qolishi mumkin. Shu sababli zarur grammatik formani tanlayotganda, uning to'g'ri yoki noto'g'ri tanlanganligini tekshi-rayotganda tekst mazmuni, uning qanday janrga tegishli ekanligi, qaysi davr voqea-hodisasi bayoniga bag'ishlanganligi yoki umumiy stilistik yo'nalishini albatta hisobga olish lozim.

Sintaktik vositalarning va so'z turkumlarining stilistik maqsadda qo'llanishi faqat ularning ma'nosi bilangina emas, balki ayrim konstruksiya va grammatik formalarining bir necha xil variantlarga ega bo'lishi, u yoki bu konstruksiya va formaning birini ozroq, birini esa ko'proq qo'llanishi adabiy til normalaridan chekinish holatlari bilan ham bog'liqdir.

Lekin sintaktik sinonimlarning va morfologik variantlarning qo'llanishida ularning bir-biridan farqi grammatikmi yoki stilistikmi ekanligini anglash lozim. Qonstruksiya va gram-matik formalarining har qanday farqlanishi ham stilistik qiymatga ega bo'la bermaydi.

Stilistikaning ob'yektini faqat sinonimiya hodisasini o'rganish deb chegaralab qo'yish ham to'g'ri emas.

OT FORMALARINING STILISTIK XUSUSIYatLARI

Ot soʻz turkumining stilistik xususiyatlari, eng avvalo, ulardagi koʻplik, egalik, kelishik kategoriyalari va subʻyektiv baho formalarida koʻrinadi. Tarixiy taraqqiyot jarayonida bu kategoriyalarning baʼzi bir koʻrsatkichlari eskirgan, muomalada eskirganlari oʻrnida yangi formalarning qoʻllanishi natijasida turli xil parallellar, variantlar maydonga kelgan. Bu variantlar oʻrni bilan oʻzaro sinonim sifatida qoʻllanishi mumkin.

Hozirgi oʻzbek tilida grammatik kategoriyalar, jumladan, otning grammatik kategoriyalari stilistik xususiyati haqida gapirganda ularning faqat sinonimiyasi emas, balki boshqa holatlarda ham qanday stilistik qiymat kasb eta olishiga eʼtibor berish lozim.

Otlarning koʻplik qoʻshimchasi -lar ni ola olish yoki ola olmasligi, bu affiksni olgan soʻzlarning maʼno nozikligi, egalik, tegishlilik tushunchasining qabatlanishi, kelishik qoʻshimchalarining otlarda saqlanishi yoki tushib qolishi, bu kategoriyalarning uyushiq boʻlakli gaplarda uyushiq boʻlaklardagi maʼno nozikliklarini aniqlash grammatika bilan birga stilistikaning ham vazifasidir.

Baʼzi bir tillarda, masalan, rus tilida, bir kelishik bir necha xil qoʻshimchaga ega va bu qoʻshimchalar turlicha maʼno ottenkasiga ega boʻladi. Uzbek tilida har bir kelishik qatʼiy bit-ta qoʻshimchaga ega. Agar bu qoʻshimchaning variantlari boʻlsa, ular ham turli xil maʼno anglatish uchun xizmat qilmaydi. Masalan, joʻnalish kelishigi qoʻshimchasi -ga ning -ka, -na, -qa, -a variantlari ham harakat yoʻnaltirilgan tomonni koʻrsatish uchun ishlatiladi.

Demak, oʻzbek tilida kelishik qoʻshimchalarining turli formada kelishi funksional stillar nuqtai nazaridagina ahamiyatlidir.

Xuddi shunday fikrni koʻplik affiksi toʻgʻrisida ham aytish mumkin. Lekin bundan otning kelishik, koʻplik, egalik kategoriyalari stilistik ottenkalarga, stilistik qiymatga ega emas ekan, degan xulosa kelib chiqmaydi. Yuqorida koʻrsatilgai kategoriyalargina emas, hatto atoqli va turdosh otlarning oʻzaro bi-ri oʻrnida ikkinchisining qoʻllanishi, atoqli otlarning ayrim qoʻshimchalar bilan ishlatilmasligi ham stilistik ahamiyat kasb etishi mumkin.

KOʻPLIK KATEGORIYASINING STILISTIKASI

Oʻzbek tilida birdan ortiqlik — koʻplik maʼnosi morfologik, leksik va sintaktik yoʻllar bilan ifodalanadi.

Baʼzi soʻzlar hech qanday morfologik koʻrsatkichsiz, boshqa miqdor bildiruvchi soʻzlar bilan birgalikda kelmagan holda ham oʻz leksik maʼnosi bilan koʻplik tushunchasini ifodalaydi: xalq, el, qoʻshin, pada, armiya, generalitet, jamoa kabi. Bu soʻzlarda jamlik maʼnosi kuchli. Bu ham uning leksik maʼnosidan sezilib turadi. Bu jihatdan koʻpchilik, ozchilik kabi soʻzlar ham shu maʼnoga yaqinlashadi. Ammo bu soʻzlar grammatik jihatdan shakllangan jamlikni koʻrsatadi: Yoʻlchi chetroqdan bir oz qarab, soʻng olomon ichiga kirdi. (0.) Xalqning turmushi ilgorigidek emas, tanqislik, ularning ham yozga yetar-yetmas donlari qolgan... (Ch.

A.) Onasi bilan poda ketidan yurib, o'zi ham tog'da o'sdi. (Akopyan.)

Ba'zan so'z grammatik jihatdan birlik formasida bo'ladi-yu, ammo u kontekst bilan bogliq ravishda ko'plikni ifodalaydi: U o'z uyiga ketdi. Bolalar o'z uylariga ketdilar. Birinchi gapda o'z so'zi birlikda, ikkinchi gapdagi o'z so'zi esa bolalarning ko'p-ligini anglatadi. Shuning uchun u logik jihatdan ko'plikda deb karaladi va Bolalar o'zlarining uylariga ketdilar tarzida o'zlarining uyiga ketdilar tarzida tushuniladi.

Hozirgi o'zbek tilida ko'plik tushunchasi sintaktik yo'l bilan ham ifodalanadi. Bunday forma ko'plik affiksini olgan sintetik forma bilan sinonimik munosabatga kirishi mumkin. Qiyos-l a n g: snta daftar // daftarlar, beshta qalam /I qalajlar, uch tup daraxt // daraxtlar, dasta-dasta gul // gullar kabi. Bu juftlar predmetning konkret sonini va noaniq ko'plikni ko'rsatishi bilan bir-biridan farqlanadi.

Ba'zan bu tipdagi birikmalar oxirida -lar affiksi ham qo'shib keladi: ko'p bolalar, yuzta kemalar kabi. Bunday qo'llash stilistik nuqtai nazardan xato hisoblanadi. Chunki ot oldidagi so'z shu predmetning ko'pligini anglatadi. Shuning uchun -lar af-fiksini ishlatish ortiqcha, o'rinsizdir.

-lar hozirgi o'zbek tilida ko'plikni ko'rsatuvchi asosiy morfologik ko'rsatkichdir.

-lar affiksining asosiy vazifasi predmetlarning birdan ortiqqligini ko'rsatishdir. Uzi uchun tipik bo'lmagan konstruksiyalarda boshqa ma'no nozikliklarini ifodalashi uning stilistik xususiyati, funksiyasidir.

-lar affiksi predmetlarning birdan ortiqqligini ko'rsatishdan tashqari, yana quyidagi ma'nolarni ifodalaydi:

1. Hurmat ma'kosi. -lar gapning kesimiga qo'shib kelganda, birlikdagi ega orqali ifodalangan shaxsga nisbatan hurmat ma'nosi anglashiladi: Pochcham, rahmatlik, soatni so'fi degan-lari bilan namoz o'qimas edilar. (A. Q.)—Kelin ishga.ketgai-larmi?— deb so'radi Sur'at suhbat orasida. To'ychimurod piyolaga tikilganicha javob berdi:— Hali u kishining o'zlari hovlimizga kelganlari yo'q.

Bu ma'no (hurmat ma'nosi), ayniqsa, kesim bor va yo'q so'zlari bilan ifodalanganda yaqqol seziladi: Ug'illari Halimjon bormilar?— Borlar, kiravering!— dedi xotin va yurib ichkari hovliga kirib ketganini eshitdim. (J. Ikromiy.)— Boyvachcha-ku yo'klar, tag'in nimani talashadi bular. (J. Ikromiy.)

Ba'zan badiiy adabiyotda, og'zaki nutqda -lar affiksi otlarga ham qo'shib hurmat ma'nosini ifodalaydi. Bu ayrim ilmiy asarlarda ham o'zbek adabiy tilining normasi sifatida talqin qilinadi. Aslida esa hurmat ma'nosini ifodalash uchun ko'plik affiksini fe'llarga qo'shib ishlatish ma'qul.2. Kinoya, piching ma'nosi. Ba'zan fe'llar, ba'zan olmosh va otlar ko'plik affiksini olib, piching, kesatish, kinoya ma'nolarini ifodalaydi. Bunday vaqtda intonatsiya, turli xil imo-ishora va

mimikalar—ekstrolingvistik vositalar yordamchi vosita sifatida xizmat qiladi: Demak, U juda g'am-xo'rlik qilibdilar-da. (yo. Sh.)

3. Noaniqlik, kuchaytirish, takrorlash, ta'kid kabi ma'nolar.

Bizning uchun keraklardan biri paxta,

Burjuj yutsin ko'rolmasdan qonlar laxta. (G'. G'.)

Agar jangda ish bermasang,

Olmasang botir deb nom.

ni yengib qaytmasang,

Bergan sutlarim harom. (H. O.)

Uzbek tilida otlar ko'plik affiksi -lar ni qabul qila olish yoki qabul qila olmasligiga qarab ikki katta gruppaga bo'li-nadi: 1) ham birlikda, ham ko'plikda qo'llana oladigan otlar; 2) faqat birlikda qo'llanadigan otlar. Hozirgi o'zbek tilida quyidagi otlar faqat birlik formasida qo'llanadi.

1. Abstrakt otlar (yoshlik, muhabbat, orzu, do'stlik, uyqu, tushuncha kabi). Ba'zan stilistik maqsadda, ya'ni kuchaytirish, mubolag'a qilish maqsadida ularga ko'plik affiksi qo'shilishi mumkin:

Chor atrof bog'u rog'... Tushmi yo o'ngi?

Bari rost ekan-a! Chekinmish qumlar...

Chekinmish saroblar, qora samumlar...

Yarqiraydi shahar — uzoq yo'l so'nggi. (Mirtemir.)

2. Sanash mumkin bo'lmagan predmetlarni ko'rsatuvchi otlar

(un, guruch, suv, yer, qum, yog', benzin, kerosin kabi). Ular ko'plik formasida kelganda shu predmetlarning tO'rin i (masalan, yog'lar: saryog', paxta yog'i, kungaboqar yog'i, makkajo'xorining yog'i kabi) xamda kuchaytirish ma'nolarini anglatadi.

3. Atoqli otlar ko'plik affiksini olganda ma'lum affiks qabul qilgan so'z orqali ifodalangan joy yoki kishining birdan ortiqqligini emas, balki boshqa ma'nolarni ifodalash uchun xizmat qiladi: Biz ana shu Shirin shaharchasidagi Sirdaryo GRESini qurayotgan farhodlarning biri haqida hikoya kilamiz. (O'zbekiston ovozi)

Shirinlar qo'lidan sharob ichamiz,

Intyazor otalar bo'ladi soqiy.(G'. G'.)

Bundan tashqari, biror predmet bir necha shaxsga tegishli bo'lib, nomi atalgan shaxs ularning ichida olib qaralganda, u ko'plik affiksini qabul qilishi mumkin: Murodjon shu jaldallikda Qo'shtegirmon boshiga keldi. Fayzullalarning uyi Ko'shtegirmon yonida. (I. Sh.) yosh oybeklar dairog'in ko'taraylik balandga. (A. O.)

Kishilarning yakka organlari birlikda qo'llanadi: bosh, til, burun, yurak, jigar. Ular birlikda qo'llanganda neytral qim-matga ega bo'lsa, ko'plik affiksi bilan kelganda baholash o'tten-kasiga ega bo'ladi. Tasvirlanayotgan voqea-hodisa, predmet yoki shaxsga yozuvchining salbiy yoki ijobiy munosabati bildiriladi:— Hoy, hoy Rahima o'lgir, qachondan beri tiling chiqib qoldi? Hu, tillaring kesilsin! (H. H.)

Kishi, hayvon va jonivorlarning juft organlarini ko'rsatuvchi so'zlar odatda birlik formada ishlatiladi. Bunday so'zlar ko'plik affiksi -lar ni qabul qilganda, mubolag'a, kuchaytirish kabi ma'nolarni ifodalaydi: Bulardan ayniqsa, otam o'lishiga bag'ishlab aytgani hali ham quloklarimdan ketmaydi. (G'. G'.) Surma qo'ymay buncha ham, jonon, qarodur ko'zlaring. (Muqimiy.)

KELISHIK QO'SHIMCHALARNING STILISTIK XUSUSIYATLARI

O'zbek tilida kelishiklar o'zining turli xil territorial va fonetik variantlarining ko'pligi, turli kelishik formalarining biri o'rnida ikkinchisini sinonim sifatida almashtirib ishlatish imkoniyatlarining mavjudligi bilan boshqa grammatik kategoriyalardan farqlanadi.

Kelishik affikslari o'zaro sinonimik munosabatga kirishishdan tashqari, boshqa grammatik formalar, ko'makchilar bilan ham sinonimik munosabatda bo'la oladi. Bular ma'lum fikrni aniq, tushunarli ifodalash uchun yozuvchi yoki so'zlovchiga ko'rsatilgan turli vositalardan eng lozimini tanlab ishlatish imkonini beradi.

Bundan tashqari, kelishik affikslarini ham boshqa hamma til vositalari singari, funksional stillarda qo'llanish chastotasini, ularning tipik bo'lmagan qurshovda keltirib chiqaradigan ma'no nozikliklarini aniqlash ham stilistikaning vazifalaridan hisoblanadi.

Umuman, affiksial morfemalarning, jumladan, kelishik affikslarining semantikasi, odatda, o'zi qo'shilib kelgan negiz, lek-sikogrammatik qurshov bilan bog'liq.

Kelishik affikslarining pleonastik ravishda qo'llanishi (o'n so'mdanga pulladi, 20 tiyindanga to'g'ri keladi kabi), ularning belgisi yoki belgisiz

ishlatilishidan kelib chiqadigan ottenkalar, shu bilan bog'liq ravishda kelishik affiksini ba'zan tushirib qoldirish, ba'zan esa tushirib qoldirish mumkin emasligi masa-lalari ham stilistik qiymatga ega. Masalan, Ilon yutgan odam («S. Uzb.») gapida odam ilonni yutganmi yoki ilon odamni yutgan-mi? aniq tushunib olish qiyin, fikr aniq emas. Agar odam ilonni yutgan bo'lsa, ilon so'zi tushum kelishigi affiksini qabul qilishi kerak, agar odamni ilon yutgan bo'lsa, odam so'zi tushum ke-lishigi affiksini qabul qilishi kerak. Demak, keltirilgan misolda tushum kelishigi affiksini tushirib qoldirish mumkin emas.

Samarqand Davlat universitetining filologiya fakul'tetining ikkinchi kursining studenti gapi grammatik jihatdan to'g'ri shakllangan bo'lsa ham, stilistik jihatdan to'g'ri emas. -ning affiksini qo'llashda ortiqchalikka yo'l qo'yilgan. Bu gapni Sa-marqand Davlat universiteti filologiya fakul'teti (ning) ikkinchi kurs studenti tarzida tuzish ma'qul.

Qaratqich kelishigining hozirgi o'zbek tilidagi -ning formasi to'rt xil morfologik variantga (01, -ni, -ing, -n) ega. Ulardan -ni og'zaki so'zlashuv nutqiga, -n formasi esa poetik nutqqa xos.

Hozirgi o'zbek adabiy tilida qaratqich kelishigi affiksining -ning formasi norma hisoblanadi. Uning o'rnida -ni affiksidan foydalanish adabiy til normasidan chekinishga kiradi: Shu sababli Azimjon bir kosa lag'monni Hamidovni yoniga qo'ydi. («Mushtum».) ...xalqni har yerda, har ishda jahlni qurboni deb tushunar edi. (0.) Dod zolimni dastidan (H. H.) gaplarida tushum kelishigi affiksi o'rnida qaratqich kelishigi affiksi ishlatilishi kerak edi.

Jonli so'zlashuvda qaratqich kelishigi birinchi va ikkinchi shaxs kishilik olmoshlarining birligiga, dialektlarda, til ta-rixida uchinchi shaxs egalik affnkslaridan so'ng -i formasida qo'shiladi. Bu formada u, men, sen olmoshlaridan so'ng qo'shilgan tushum kelishigi qo'shimchasi hamda undosh bilan tugagan so'zlarga qo'shiluvchi uchinchi shaxs egalik affiksining birligi -i bi-lan omonimik munosabatda bo'ladi. Qiyoslang: Meni kitobim (qa-ratqich — dialektal), meni shersiz deding... (tushum), makoni (egalik affiksi).

Qaratqich kelishigi poetik nutqda -n formasida ham ishlatiladi, ana shu ko'rinishda ham qaratqich kelishigi tushum kelishigi bilan omonimiya hosil qiladi: Yer kurrasini boshin tang'idik Va tarixning tomirlariga quydik erigan temir (G'. G'.) ga-pida kurrasini qaratqich kelishigi, boshin tushum kelishigidagi so'zlardir.

Bu o'rinda birgina -n formasi ikki kelishik vazifasini bajaryaptimi yoki -ning va -ni affikslarining alohida-alohida shakliga kelgan omonimik holatmi? Keyingisi haqiqatga yaqin: ular ikki xil vazifadagi va boshqa-boshqa ma'no anglatuvchi omonimik affikslardir. Qeltirilgan misoldagi kurrasini va boshin so'zlarining o'rnini almashtirish mumkin emasligi ham ular-ning ikki boshqa-boshqa kelishiklar ekanligini, biri aniqlovchi, ikkinchisi aniqlanmish ekanligini ko'rsatadi. Qaratqichning -n formasi poetik nutqda boshqa nutq formalarida ishlatilmaydi.

Qaratqich kelishigi affiksi qarashlilik ma'nosinn anglatganda xuddi shu vazifani bajaruvchi -niki affiksi bilan sino-nimik munosabatga kirishadi. Bunday vaqtda -ning va -niki affikslari funksiyadosh bo'ladi. Bu esa ularning transpozitsiyasiga imkon beradi. -niki va -ning affikslarining sinonimik vosita sifatida ishlatilishi ham ko'proq hozirgi poetik nutq uchun xosdir: Bag'ringga tort, quchoqla, bahor, Jozibalar barchasi sening. (H. O.)

Qaralmish konkret ot bilan ifodalanganda, qaratqich-qaralmish birikmasidagi -ning affiksini -niki bilan almashtirish doim mumkin bo'la bermaydi: Ikki yuz yil yelkang sening Ezdi lordu, taxtu toj. (M.)

Hozirgi o'zbek adabiy tilida aniqllovchining aniqlanmishdan oldin kelishi norma hisoblanadi. Bularning o'rnini almashtirish yozuvchi yoki so'zlovchining maqsadi bilan bog'liq. Lekin shuni ham aytish kerakki, qaratqich va qaralmishning o'rnini faqat qaratqich belgili bo'lgandagina almashtirish mumkin. Bu ham asosan poetik nutq uchun xos. Masalan:

Ey muqaddas gul diyorim, gulshanim jonim mening,

Men sening bag'ringda o'sdim, yo'qdir armonim mening! (U.)

Qaratqich belgisiz bo'lganda, qaratqichni qaralmishdan keyin qo'yish mumkin emas, chunki bunday paytda ma'no tamoman buziladi: kutubxonasi Navoiy, ko'chasi Pushkin, uyi Hamid Olimjon. Ammo bundan bog'i Bobur, bargi gul kabi izofali konstruksiyalar mustasno.

Qaratqich kelishigi affiksi sanab ko'rsatish birinchi planda bo'lganda, uyushiq bo'laklarning eng oxirgisiga, ta'kidlash birinchi planga chiqqanda esa ularning har biriga qo'shiladi. Har ikkala ko'rinish ham adabiy til uchun norma hisoblanadi.

Ammo uyushiq bo'laklarning qachon qaysi birini belgili, qaysi birini belgisiz ishlatishni bilish kerak. Chunki buni bilmaslik ma'noga, aytilmoqchi bo'lgan fikrning aniqligi va kon-kretligiga salbiy ta'sir qiladi. Masalan, Tohir, Salim va Odilning otasi keldi! gapini bir necha xil tushunish mumkin. Ya'ni ota bitta bo'lib, Tohir va Salim bilan kelgan bo'lishi (birgina ota) yoki har uchala bolaning otasi kelgan bo'lishi mumkin.

Ko'rganimizdek, qaratqich kelishigining belgili va belgisiz qo'llanishi ayrim stilistik nozikliklarni keltirib chiqaradi. Ya'ni belgili qaratqich aniq qarashlilik, xususiyy xoslikni ko'rsatsa, belgisiz qaratqich umumiy xoslikni ko'rsatadi. Atoqli otlarda qaratqich kelishik affiksi tushirib qoldirilganda ham xususiyy xoslik ma'nosi anglashilib turadi.

Qelishik, jumladan, qaratqich kelishigini belgili-belgisiz ishlatish imkoniyatlari turli xil grammatik faktorlardan tashqari, qaratuvchi, qaralmish bo'lib kelgan so'zning semantikasi, uslub bilan uzviy bog'liq. Qaratqich kishilik olmoshi bilan, qaratqich va qaralmish otlashgan so'z bilan ifodalanganda,

qaratqich va qaralmish distant holatda hamda bir nechta qaralmish bitta qaratqichga ega bo'lganda va shunga o'xshash ba'zi holatlarda qaratqich affiksini tushirib aytish ma'noga salbiy ta'sir qilsa, sun'iylik keltirib chiqarsa affiks saqlanishi lozim. Boshqa holatlarda u belgisiz ishlatilishi mumkin.

Hatto ba'zi konstruksiyalarda stilʼ, ma'no qaratqichning, albatta, belgisiz bo'lishini talab qiladi. Jumladan, qaratqich qaralmish uchun ham logik, ham grammatik aniqlovchi bo'lsa, u qaralmishdan anglashilgan predmetni, joyning qaratqich anglatgan so'z bilan atalishini ko'rsatganda, qaratqich, albatta, belgisiz qo'llaniladi. Masalan Pushkin bog'i, Hamza ko'chasi kabi birikmalarni, Hamzaning ko'chasi tarzida ishlatish mantiqqa va stilga xilofdir. Dushanba kuni, fevralʼ oyi kabi birikmalar sostavidagi qaratqichni ham belgili ishlatish yuqoridagi kabi xatoni keltirib chiqaradi.

Qaratqich I — II shaxs kishilik olmoshlari hamda o'zlik olmoshi bilan ifodalansa, qaralmishda shaxs ko'rsatuvchi egalik affiksi saqlansa, qaratqich affiksiga emas, bu qo'shimchani ol-gan so'z ham tushib qolishi mumkin. Bunday tipdagi birikmalarni bir-biriga sinonim sifatida o'zaro almashtirib ishlatish mumkin: o'zimning uyim//o'z uyim // uyim kabi. Ammo bizning kolxoz, bizning Oygul tipdagi qaralmish belgisiz holatda bo'lgan birikmalarda na faqat qaratqich affiksini olgan so'zni, hatto qaratqich affiksini ham tushirib qoldirish mumkin emas. Qaratqich kelishigi affiksi o'zi qo'shilib kelgan so'z bilan birgalikda konkret xoslik, umuman xoslik, butunning bo'lagi, to'dadan ajratilganlik, o'xshatish, qiyos qilish, nomiga qo'yilganlik kabi bir qancha grammatik-semantik ma'nolarni ifodalaydi. U to'dadan ajratilganlik ma'nosini anglatganda, chiqish keli-shigi (xuddi shunday ma'no anglatuvchi) affiksi bilan sino-nim bo'ladi. Misol: viloyatdagi eng yirik fermaning biri (fermalardan biri) bo'lmish Polyasnya rayonining otryadi dastavvaldanoq umumiy qo'mondonlik ostida mayda gruppalariga bo'linib harakat qilardi. (A. Fadeyev.)

Tarixiy temada yozilgan ba'zi bir prozaik asarlar tilida, ba'zan hozirgi poetik asarlar tilida kishilik olmoshlarining birinchi shaxs birlik va ko'pligiga qaratqich -im formasida qo'-shiladi. Bunda -im qaratqich kelishigi affiksining sinonimi sifatida ishlatiladi. Misollar: Io'q! Siz bilasiz! Manim peshanamga nellar yozilgan, saltanatning taqdiri na bo'lur— bari-ni bilasiz. (0. yo.) Ona xalqim, jon-tanim manim, Uzbekiston, Vatanim mening («Sharq yulduzi».)

Bundan tashqari, kishilik olmoshlarining birinchi shaxs birligi gapda kirish so'z vazifasida kelganda ham ko'pincha -im formasi qo'llaniladi (menimcha). Qaratqich kelishigining bu formada qo'llanishi ma'lum darajada chegaralangan. Uning o'rnini hozirgi o'zbek adabiy tilida -ning egallamoqda (meningcha). Qaratqich kelishigi affiksi -ning ko'makchilar bilan sinonimik xolatda deyarli ishlatilmaydi.

Hozirgi o'zbek tilining hamma stillarida tushum kelishigi qo'shimchasi -ni. Og'zaki nutqda -n, -i, 0 variantlaridan ham foydalaniladi.

Ayrim dialektal variantlarning badiiy nutq stilida qo'llanishi yoki poetik nutq uchun xos bo'lgan formaning (masalan, -n) rasmiy yoki og'zaki so'zlashuv nutqida ishlatilishi ma'lum da-rajada ekspressivlikni keltirib chiqaradi.

Tushum kelishigining bu varianti, bir tomondan, qaratqich kelishigining jonli so'zlashuvdagi varianti (seni ukang), ikkinchi tomondan, uchinchi shaxs egalik affiksi (Sanami — Sanamni // Sanami — uning Sanalsh) ning birlik formasi bilan omonimdir. Bundan tashqari, tushumning -i formasi boshqa tillardan kirib kelib, o'rin va joyga munosabatni bildiruvchi (kashmiri, sa-marqandi) so'zlar sostavidagi sifat yasovchi -i, Samarqandi, Qo'qondi kabi so'zlardagi -lik affiksining sinonimi bo'lgan -i affiksi bilan, ot va sifatdan fe'l yasovchi (ranji, tinchi) -i affiksi bilan omonimik munosabatdadir.

Tushum kelishigining belgisiz formasi bosh kelishik va qaratqich kelishipshing belgisiz formasi bilan omonim hisoblana-di. Q i y o s q i l i n g: Gul ochildi // gul bargi // gul keltirdi kabi. Har uchalasida ham gul so'zi bironta formantga ega emas, ammo birinchi gapda bosh kelishikda — ega, ikkinchisida qaratqich kelishigida — aniqlovchi, uchinchisida esa tushum kelishigida— to'ldiruvchi. Ular bir-biridan formal jihatdangina emas, semantik jihatdan ham farqlanadi.

Tushum kelishigidagi so'z ham turli mazmuniy talablarga ko'ra belgili va belgisiz qo'llanadi. Bu stilistik va ma'no ji-hatdan ahamiyatlidir. Hozirgi o'zbek tilida ko'rsatish, kishilik, so'roq olmoshlari bilan ifodalangan tushum kelishigidagi so'z o'rin, payt ma'nosini bildiruvchi so'zlar bilan ifodalangan aniqlovchiga ega bo'lganda, tushum kelishigidagi so'z otlashgan so'z bilan ifodalanganda, tushum kelishigidagi so'z qaralmish payt bildiruvchi so'z bo'lganda, odatda, belgili ishlatiladi¹.

Tushum kelishigi affiksining saqlanishi yoki tushirib qoldirilishi ko'p jihatdan uni boshqarib kelgan so'zning xarakteriga bog'liq. Masalan, suv ichdim deyish mumkin, ammo suv se-vaman deyish mumkin emas.

Tushum kelishigining hozirgi adabiy tilda ishlatiladigan asosiy formasi -ni ham qaratqich kelishigining jonli so'zlashuv nutqi uchun xarakterli bo'lgan -ni formasi bilan omonimdir. Ba'zan yozma nutqda ham adabiy til normasiga xilof ravishda tushum kelishigi affiksi o'rnida qaratqich kelishigi affiksi ishlatiladi. Misollar: Qishloq xo'jalik maxsulotlarining yetshitirib berish, yangi suv omborlarining axtarib topish. Bu xodisaning prof. M. 3. Zakiyev haqli ravishda qayd qilib o'tgan. (F. Ibrohimova.) Bu qo'pol xatodir, chunki qaratqich va tushum kelishiklari affikslarining bir-birlariga sinonim bo'lishlari juda qiyin holdir.

Qaratqich bilan tushum kelishigini aralashtirish yaramaydi. Mana bu misolga ahamiyat bering: Direktorni idorasida ko'rdim — idorada direktor ko'rilgan, agar bu gap Direktorning idorasida ko'rdim tarzida qurilsa — kimdir boshqa kishini direktorning xonasida (direktorni emas) ko'rganligi tushuniladi.

Demak, ba'zi olimlar tomonidan «grammatik kelishiklar» terminiga birlashtiriladigan qaratqich va tushum kelishiklari bir-biriga nisbatan sinonim bo'la olmaydi.

Hozirgi o'zbek tilida tushum kelishigi affiksi noo'rin ravishda jo'nalish yoki o'rin kelishigi affikslari bilan ham almashtiriladi. Bunday almashtirish grammatik jihatdan ham, stilistik jihatdan ham noto'g'ridir. Anavi ar-ar terakka uya qo'yishga (to'g'risi qo'yishni) o'ylagan karruklar ham vijir-vijir qilishib kengash ochdilar. (A. Qod.)

— Voy siz... men... hali bunaqa masalada (to'g'risi masalani) o'ylab ko'rmaganman. («Kechirim».) Jo'nalish (qo'yishga) va o'rin (masalada) kelishigidagi bu so'zlar o'timli fe'llarga bog'lan-gan. Utimli fe'l esa o'zi "boshqarib kelgan so'zning tushum kelishigida bo'lishini talab qiladi.

Jo'nalish va tushum kelishiklari asosiy xususiyatlari bilan bir-biridan farqlanadi. Ammo ularni ayrim qo'shimcha ma'nolarining yaqinligiga ko'ra biri o'rnida ikkinchisini sinonim sifatida ishlatish mumkin. Bu holat dialektal (Samarqand, Bu-xoro) va adabiy tildagi qurshov va ekstralingvistik vositalar sababli maydonga keladi. Qiyoslang: Menga paxtani yuxlash-ni buyurdi // meni paxta yuklashga buyurdi¹; otga mindi// otni mindi.

Chiqish kelishigidagi so'z o'timli fe'l tomonidan boshqarilganda harakatning predmetga o'tganligi ma'nosi ifodalanadi va shu ma'nosi bilan tushum kelishigiga sinonimik munosabatda bo'ladi. Biroq chiqish kelishigi harakatni predmetning qismiga yoki qismi orqali predmetga o'tganligi ma'nosini, tushum keli-shign shu kelishikdagi so'z orqali ifodalangan predmetga harakatning to'lig'icha o'tganligi ma'nosini anglatadi. Qiyoslang: Yuzlarimni silab-siypalab, Baxting bor, deb esadi yellar. (H.O.) Hamroyev Hamdamning qulog'idan cho'zib, o'ziga qaratdi.

Tushum kelishigi bilan chiqish kelishigi funksiyasi ba'zan boshqa o'rinlarda ham bir-biriga yaqinlashishi mumkin. Masalan, daryoni kechib o'tdi // daryodan kechib o'tdi misollarini qiyoslang. Har ikki misolda ham daryodan o'tish harakati haqida gap boradi, ammo nimaga ahamiyat berilishi jihatidan ularning ma'nosida nozik farq mavjud. Misol: Hayot daryodan kechib o'tish emas.— Shu daryoni qanday kechib o'tganini hisoblash mumkinmikan. («Begonalar baxti».) Demak, tushum kelishigi affiksi ayrim va riantlari bilan ba'zi affikslar bilan omonimik va jo'nalish, o'rin, chiqish kelishiklari affikslari bilan kontekstual sinonimik munosabatga kirishadi.

Bundan tashqari, tushum kelishigi affiksi ba'zi hollarda ko'makchilar bilan ham funksiyada, ham anglatgan ma'noda yaqinlashadi va o'zaro sinonimik munosabatda bo'ladi. Qiyoslang: Muhabbatini so'zladi // muhabbati hatsida (to'g'risida) so'zladi. Ko'rpachani oyog'iga yopdi // ko'rpacha bilan oyog'ini yopdi.

Hozirgi o'zbek tilida jo'nalish kelishigining ko'rsatkichi -ga. U bir qancha fonetik (-ka, -qa, -ko), dialektal va tarixiy (-ga, -a, -na, -garu, -karu, -nar kabi) variantlarga ega.

Eski o'zbek tilida, ba'zi bir shevalarda jo'nalish kelishigi affiksi o'rin kelishigi affiksi bilan sinonim sifatida ishlatiladi. Masalan, «Bobirnom»da: Manko fursat bo'lmadi jum-lasida jo'nalish kelishikdagi manko so'zi Menda fursat bo'lmadi gapidagi o'rin kelishigi ifodalagan ma'noni anglatadi. Biroq o'zbek tilining Samarqand, Buxoro shevalarida jo'nalish va o'rin kelishiklarini farqlamasdan ishlatilishi stilistik xatodir. Masalan: Registonga (Registonda) non beropti; Registonda (Re-gistonga) boramiz; Bolani (bolaga) azob bermang. Bunday holat ba'zi badiiy asarlarda ham uchraydi:— Voydod, ilgari mushtga musht bilan javob qaytarilmas edi, javobgar bo'lardi. Sudda shikoyat qilaman. («Mushtum».) Chunki bizganing tushib o't-gan ko'z qiri, Sha'nimizda aytilgan tomlar to'la so'zi bor. (G'. G'.)

Ko'rsatilgan holat bilan jo'nalish va o'rin kelishiklarining sinonimik munosabatini aralashtirmaslik kerak. Bunday holat adabiy tilning stilistik normasiga xilof bo'lmaydi. Qiyos-l a n g: stadionda to'plandik // stadionga to'plandik; ishingizda muvaffaqiyat // ishingizga muvaffaqiyat. Misollar:

Agar bog'ingda gul bo'lmoq mening-chun noravo bo'lsa,

Ki ming bor roziman sasringga hattokim duvol bo'lsam.

(H. O.)

Ammo edik biz ezilgan sinfga farzand!

Omi edik, ammo kuyladik qo'shiqni xursand,

Chunki bo'ldik endi yenggan sinfda farzand. (M. Sh.)

So'nggi misolda bir maqsad ifodasi uchun ikki kelishik formasidan foydalanilgan. Lekin sinfga farzand, sinfda farzand birikmalari anglatgan ma'noda oz bo'lsada farq bor.

Jo'nalish kelishigi qo'shimchasi ba'zan tushum kelishigi qo'-shimchasi bilan sinonimik munosabatga kirishadi. Bunday vaqtda ularni boshqarib kelgan fe'lning tushum va jo'nalish kelishigidagi so'zlarni boshqara olish xususiyatiga ega bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Tushum va jo'nalish kelishiklarini sinonim sifatida ishlatish so'zlashuv nutqida ham, badiiy nutqda ham mavjud. Yorni (yorga) oynakdan qarang, noz uyquda yotganmikin? (Qo'shiqdan.)

Zahar bosgan tanini,

Og'ir qadam tashlaydi.

Tor ko'chaga burilib

Shikoyatga boshlaydi. (H. O.)

Jo'nalish kelishigi affiksi fe'ldan anglashilgan harakatning ob'yektga to'la o'tganligini (voqeaga tushundi — voqeani tu-shundi) ifodalaganda, tushum kelishigi bilan, harakat predmet-ning qismiga yoki qismi orqali butunga o'tganligi ma'nosini anglatganda, chiqish kelishigi bilan sinonimik munosabatda bo'la-di: Qo'ltig'idan kirib, oyog'ini yerga tegizmay olib keta berdi («Kuntug'mish»dan.). Chog'ishtiring: qo'ltig'idan // qo'ltig'iga.

Bundan boshqa holatlarda ham jo'nalish va chiqish kelishiklari affikslarini sinonim sifatida biri o'rnida ikkinchisini ishlatish mumkin. Masalan, Elga el, yomonga olisligimdan, Do'st bo'ldik, oppog'im, o'la-o'lguncha. (S. Zunnunova.) Mehr-muhabbatga to'ymaydi inson (S. Zunnunova.) gaplarida yomonga, muhabbatga so'zlarini chiqish kelishigi formasida ham ishlatish mumkin (hatto lozim ham). Mana bu misollarda esa chiqish kelishigi affiksi jo'nalish kelishigi anglatadigan ma'noni ifodalagani sababln chiqish kelishigi affiksi o'rnida jo'nalish kelishigi affiksini qo'llash imkoniyati bor: Kimdir shunday kichkina teshikdan ho'kiz sig'ishiga aql ishonmasligi to'g'risida kishilarga gap ma'qullaydi. (A. Q.) Jeyms Teylor. Maqsaddan ke-ling?! (S. Azimov.)

Aksincha, jo'nalish kelishigi narx, qiymat ma'nosini angla tish uchun ishlatilganda, chiqish kelishigi bilan antonimik muno-sabatda bo'ladi: Bu daftarlarni bir so'mga oldim (bnr necha daftar bir so'mga olingan — jamlik) — Bu daftarlarni bir so'm dan oldim (har bir daftar uchun bir so'mdan to'langan — partitivlik).

Uzbek tilida amal, lavozim bildiruvchi otlar jo'nalish ke-lishigidagi so'zlarni ham, o'rin kelishigidagi so'zlarni ham bosh-qara oladi. Bunday vaqtda jo'nalish kelishikli birikma va o'rin kelishikli birikma bir-biriga nisbatan sinonimik munosabatda bo'ladi: zavodda direktor // zavodga direktor; kolxozda rais // kolxozga rais kabi.

Bularni ikki formada qo'llash birikma ma'nosiga keskin ta'sir qilmasada, formalar bir-biridan ma'lum jihatlar bilan farq qiladi. Ya'ni bu birikmalarning qaysi formasini qo'llash so'zlovchining maqsadiga bog'liq: agar diqqat markazida shaxsshshg lavozimini aniqlash tursa, tobe so'z o'rin kelishigida bo'ladi. Ch o g' i sh t i r i n g: Institutda kim bo'lib ishlaydi?— Institutda dotsent bo'lib ishlaydi. Agar diqqat-e'tibor lavozim egasishshg faoliyat ko'rsatish ob'yektiga qaratilgan bo'lsa, tobe so'z jo'nalish kelishigi affiksini qabul qiladi: kolxozga rais, zavobga direktor kabi. Lekin bunday so'zlar boshqaruvidan yuzaga kelgan birikmalarning hammasini ham ikki xil formada qo'llay berish mumkin emas. Masalan, zavodda injener, rayvodxo-da texnik, kolxozda brigadir, maktabda o'qituvchi kabi birikma-larning tobe so'zini ham jo'nalish kelishigida qo'llash mumkin emas. Ya'ni kolxozga rais, maktabga direktor deyish mumkin, ammo kolxozga brigadir, maktabga o'qituvchi deyish mumkin emas. Chunki brigadir va o'qituvchining faoliyat ko'rsatish doirasi kol-xoz va maktabni to'la qamrab olmaydi.

Hozirgi o'zbek tilida jo'nalish kelishigi affiksi maqsad, sabab ma'nolarini anglatish niyatida qo'llanganda, uchun ko'makchisi bilan sinonim bo'lishi mumkin. Misollarni qiyoslang: Uquvchilar bizga Vatanimizning mashhur mashinasi «IL»ni ko'r-satishga shoshilib qoldilar. (H. O.) Kelgan mehmon paxtazorni ko'zdan kechirish uchun jo'nadi. (Said Nazar.)

Jo'nalish kelishigi qo'shimchasi -ga nima so'roq olmoshining qisqargan formasiga qo'shilib, uning tarkibiy qismiga aylanadi va ular birgalikda (nega) sabab ma'nosini anglatadi. Xuddi shunday ma'no nima olmoshi va uchun ko'makchisining qisqargan formalarining qo'shilishi natijasida ham hosil bo'ladi. Bunday vaqtda ham jo'nalish kelishigi qo'shimchasi va uchun ko'makchisi bir-biri bilan sinonimik munosabatga kirishishi mumkin. Cho-g'ishtiring: Nega cho'chib tushding, Murg'ak tasavvur, Go'dakxayo-lingga namalar keldi. (G'. G'.)— nega // nima uchun nima sababli. Nechun, nechun bo'ldi umring sargardon? Nechun, nechun so'ndi qop-qora ko'zlar. (Usmon Nosir.)— nechun // nega S nima sababli.

Jo'nalish kelishigi affiksi harakat yo'naltirilgan o'rinni ko'rsatganda tomon, sari ko'makchilari bilan sinonim bo'ladi: maktabga ketdi // maktab tomon ketdi.

Bunday vaqtda kelishik affiksi ko'makchiga nisbatan konkret ma'no anglatadi. Ya'ni maktabga ketdi deyilganda harakat ba-jaruvchisi maktabga yo'nalganligi aniq, ammo maktab tomon ket-di deyilganda kishi maktabga ketgan bo'lishi ham, maktab tomondagi klubga ketgan bo'lishi ham mumkin. Bundan tashqari, bu konstruksiyalar funksional stilistik tomondan ham bir-biridan farq qiladi: -ga li konstruksiya hamma stillar uchun umumiy bo'lsa, tomon ko'makchili konstruksiya ko'proq ilmiy stil, yozma nutq uchun xarakterlidir. Sari ko'makchili forma esa, asosan, poetik nutq uchun xos. Atash ma'nosini bildirganda ham jo'nalish kelishigi uchun ko'makchisi bilan sinonim bo'lishi mumkin: ukamga oldim // ukam uchun oldim.

Jo'nalish kelishigi maqsad, sabab ma'nolarini anglatganda ko'makchilardan (uchun, ko'ra) tashqari, boshqa so'zlar (sababli, maqsadida) bilan ham sinonimik munosabatga kirisha oladi. Ba'zan jo'nalish kelishigi affiksi maqsad yoki sabab ma'nosidan boshqa ma'noni anglatib, jo'nalish va bosh kelishikdagn otni fe'l bilan munosabatga kiritganda ham ko'makchilar bilan grammatik sinonim bo'la oladi. Misollar: Yakka va tarqoq xo'jalik-lar uyushib, kollektiv oilalar tuzishga kirishdilar. (H. O.) // tuzish uchun; Qo'sha qarimoqqa muhr bo'ladi — Hayotda ikki lab qovushgan bir zum. (G'. G'.) // qo'sha qarimoq uchun; Ma'rifat inson-ga xos Go'yo ko'z qarog'idir. (G'. G'.) Sinson uchun.

Jo'nalish kelishigi vosita, o'rin ma'nolarini anglatganda, bilan ko'makchisiga sinonim bo'la oladi. Bunday vaqtda jo'nalish kelishigidagi so'z ko'pincha to'lmoq fe'li tomonidan boshqarila-di. Misollar: Ko'nglim quvonchlarga to'ldi limmo-lim... («As. M.») Iquvonchlar bilan. Samarqand shikoyatga to'lib ketdi. (H. O.) II shikoyat bilan.

Umuman, jo'nalish kelishigi o'zining ko'p xususiyatlari jihatidan bilan

ko'makchisiga yaqinlashadi. Bu esa ko'p hollarda ularning buri o'rnida ikkinchisini ishlatish imkonini beradi. Q i y o s-l a n g: Doim tongga yo'ldosh bo'lgani uchun Quyosh chehrasidan ari-mas xanda. (S. Zunnunova.) tong bilan; Toshmoqda borsh bilan limmo-lim qozon, Gitarada bir kuyni Vanya timdalar. (G'. G'.)

Qelishik qo'shimchalari bilan ko'makchilarning, jumladan, jo'nalish kelishigi va bilan ko'makchisi sinonimik holatda qo'llanganda, ular anglatgan ma'noga — konstruksiyalar keltirib chi-qargan ma'noga ham ahamiyat berish kerak. Chunki ularni almashtirish mantiqsizlikka olib kelishi mumkin. Masalan, Haydar qog'ozga maxorka o'radi tipida gap tuzish hollari mavjud. Bu gap uncha qulay tuzilmagan. Chunki uni «maxorka bilan qog'ozni o'ramoq» tarzida tushunish ham mumkin. Fikr noaniqligidan qochish uchun Haydar qog'oz bilan maxorka o'radi shaklida yoki to'gridan-to'g'ri maxorka o'radi deb qo'ya qolish lozim. Chunki maxorka, odatda, qog'oz bilan o'raladi.

Jo'nalish kelishigidagi so'z fikr biror shaxs, predmet haqida borayotganligi ma'nosini anglatganda, haqida (haqda), xusus, to'g'ri kabi ko'makchi otlar bilan sinonimik munosabatga kiri-shishi mumkin. Bunday vaqtda ma'noga ayrim juz'iy konkret-lilik kiritishni hisobga olmaganda hech qanday o'zgarish yuz ber-maydi: ...eski shahzodalardan biriga qasida yozib, murojaat qilishni taklif etdi. (0.) // biri haqida qasida yozib...

Jo'nalish kelishigi affiksi harakat yuz bergan o'rin ma'nosini anglatish uchun ishlatilganda uzra ko'makchisi bilan funk-siyadosh bo'la oladi. Misollarni chog'ishtiring: Oy quyuq barglarni oralab, Tangalab nur sochdi qizning boshiga. (S. Zunnunova.) /I boshi uzra... Borliq uzra tushganda oqshom, Zaynab qo'ydi dalaga qadam. (H. 0.) // borliqqa tushganda.

Jo'nalish kelishigi affiksi ko'ra ko'makchisi bilan birga qo'llanib, fikr bayoni boshqa manba asosida ekanligi yoki fikrning juda qat'iy emasligi ma'nosini anglatish uchun xizmat qilganda, -cha morfemasi bilan sinonimik munosabatda bo'ladi: eshitishimizga ko'ra eshitishimizcha; aytishlariga ko'ra ay-tishlaricha.

Xuddi shunday sinonimik holat -ga + qaraganda konstruksiya-si .bilan -cha morfemasi o'rtasida ham ko'rinadi: aytishlariga qaraganda // aytishlaricha.

Chiqish kelishigining qo'shimchasi -dan hozir hamma funksional stillar uchun umumiydir. Ammo bugungi poetik nutqda unidin (bu asli tarixiy forma) formada, og'zaki so'zlashuv nutqida Esa -nan, -tan variantlarda ishlatish hollari ko'zga tashlanadi.

Chiqish kelishigi ham o'zi qo'shilib kelgan so'z tabiati, kontekst bilan bog'liq ravishda qaratqich, jo'nalish, o'rin kelishiklari affikslari, so'ng ko'makchilar va boshqa konstruksiyalar bilan sinonimik munosabatga kirishadi. Bu esa kerak bo'lgan o'rinda tanlash imkoniyatini yaratuvchi variativ va parallel konstruksiyalarni yuzaga keltiradi.

Chiqish kelishigidagi soʻz toʻdadan ajratilganlik maʼnosini anglatish uchun ishlatilganda qaratqich kelishigining xuddi shunday maʼno qirrasini bilan sinonimik munosabatga kirishadi. Bunday vaqtda chiqish yoki qaratqich kelishigidagi soʻz individlar toʻdasini koʻrsatadi, ajratilgan predmet esa bosh kelishikda boʻladi. Misollar: Секретарь oʻzining Saodati abadiya yoʻliga boshlab tarbiya qilgan jujuqlardan biri Javdat Naim edi. (A. Q.) /I jujuqlarning biri;— Hu, bolalar, yangi yil endi kirdi-ku, nega bahor kelsin deyapsiz?— degan edi, bolalardan tetikrogʻi:— Amaki, bahor kelsa, qushlar ham keladi,— dedi. («Mushtum».) // bolalarning tetikrogʻi.

Chiqish kelishigi affiksi yuqoridagi kabi konstruksiyalarda ajratilgan qismni koʻrsatuvchi soʻz son yoki sifatdan boʻlgan hollarda qaratqich kelishigi bilan oʻzaro almashtirib ishlatilishi mumkin. Boshqa hollarda ularning biri oʻrnida ikkinchisini qoʻllash maʼnoga salbiy taʼsir koʻrsatadi. Yaʼni ular bir-biri bilan sinonim boʻla olmaydi. Misollar: Biroq u Dasha yoqtir-maydiganlardan edi. (A. Tolstoy.) Toʻqqizinchi sinf qizlaridan Zuhaxon degan qiz yoʻqolib qoldi. (A. Q.)

Demak, qism bildiruvchi soʻz son yoki sifatdan boʻlmaganda, ular egalik affiksini qabul qilmaganda chiqish va qaratqich kelishiklari faqat funksiyadoshlik jihatdan yaqinlashadi, almashtirib ishlatish esa mumkin boʻlmaydi. Almashtirish uchun yuqoridagidek boshqacha transformatsiyani ishga solish, yaʼni ularning birini ikkinchisi bilan almashtirishga imkon beruvchi gram-matik, kontekstual sharoit yaratish kerak.

Tilda stil silligini taʼminlash uchun qator kelib qolgan konstruksiya, soʻz, hatto formani shunga oʻxshash vazifani bajara oladigan konstruksiya, soʻz yoki forma bilan almashtirish kerak. Masalan, Yaqinda menga gazetalardan biridan qoʻngʻiroq qilishib... («Uzbekiston madaniyati».) gapida chiqish kelishigi qoʻshimchasi noʻrin qator keltirilgan. Bunday oʻrinda gazetalardan soʻzidagi chiqish kelishigi qoʻshimchasini qaratqich bilan almashtirish maʼqul.

Chiqish kelishigi qism orqali umunga oʻtganlik maʼnosini anglatganda, oʻtmoq kabi feʼllar tomonidan boshqarilganda, tushum kelishigi bilan sinonimik munosabatda boʻlishi mumkin. Misollar: Ming yerimdan teshsang ham, endi qoʻrqmayman deydi. (H. O.) /I yerimni teshsang ham; Subhidamda kolxozchi qizni Uygʻotasan bo-shidan silab. (U.) S boshini silab; Sen qoʻlimda, kezib oʻtchim jahondan. Yuragimning qoʻri boʻlgan doʻmbiram. (H. O.) // kezib oʻtdim jahonni. Yana chogʻishtiring: gunohingdan kechdim // gunohingni kechdim.

Chiqish kelishigi affiksini olgan soʻz harakat yuz berayotgan oʻrinni, joyni bildirganda oʻrin kelishigi qoʻshimchasi bilan sinonim boʻla oladi. Bunda soʻzlovchining diqqati harakatning boshlanish oʻrniga emas, balki u yuz berayotgan oʻringa qaratiladi. Chiqish kelishigidagi bunday soʻzlar gapda koʻpincha oʻrin holi vazifa-fasida keladi. Misollar: Baland tutdan qichqirmoqda baboq xoʻroz. (Gʻ. Gʻ.) II tutda. Shahzoda Ivan bir mahal turib qarasa, oti yoʻq emish. Otini qidirib ketibdi, qidira-qidira oxiri bir joydan suyaklarini topibdi. (A. Suyumov. «Bolalar adabiyoti».) // joyda. Quyidagi misolda oʻrin kelishigi oʻrnida

chiqish kelishigi affiksining ishlatilishini individual stilga xos holat deb qarash lozim: Men o'zimga ham, Yedgorga ham yorug' kelajak, porloq taqdir yaratishga harakat qilmoqdaman. Bu to'g'ridan kampir tinch bo'lishi mumkin. (G'. G'.)

Chiqish kelishigidagi so'z jo'nalish kelishigi affiksi anglatgan ma'noga yaqin ma'noni ham anglatishi, ifodalashi mumkin. Bunday vaqtda ham butun bilan bo'lak munosabati mavjud bo'la-di. Masalan, Qo'ltig'idan kirib oyog'ini yerga tegizmay olib keta berdi. Orqa emas, ko'ksidan o'q yeganlar. (M. Sh.) Birinchi misolda harakat qism orqali butunga o'tganlik ma'nosi, ikkinchi misolda esa -dan harakat boshlangan o'rin emas, balki jo'nalish kelishigi anglatadigan harakat yo'naltirilgan o'rin ifodalanmoqda. Bu misolda ham qism orqali 'butun anglatish ottenkasi bor.

Chiqish kelishigidagi so'z ko'ra ko'makchisi bilan kelib, chog'ishtirish ma'nosini bildirganda, ko'ra ko'makchisi yoki qaraganda so'zi bilan kelgan jo'nalish kelishigi affiksiga sinonimik mu-nosabatda bo'ladi: Mendan ko'ra o'zi ko'p qiynaladi. (A. Q.) // menga qaraganda.

Chiqish kelishigi boshqa konstruksiyalarga nisbatan ham sinonimik munosabatda bo'lishi mumkin. Bunda chiqish kelishigi affiksi vositasida anglashilgan ma'no ot + haqida, ot + to'g'risida, ot+bilan, ot+lik konstruksiyalari anglatadigan ma'nolarga to'g'ri keladi. Misollar: Xotin-xalaj tinglashar uni, Bahri so'ylar qilgan ishidan, Niyatidan, istiqbolidan, So'ylab berar to'q turmushidan. (H. O.) niyati haqida, to'g'risida; Sovxozdan gapi-ring, sovxoz qalay? (Shuhrat.) sovxoz haqida.

Bu xususiyatlar ba'zan chiqish kelishigini tushum kelishigi bilan ham yaqinlashtiradi. Bu holatda so'z chiqish kelishigida bo'l-sa ham, tushum kelishigida bo'lsa ham haq, xusus ottenkasi saqla-nib qoladi. Misol: Susambil tarixidan, Ezilganlar holidan, Podsholarning zulmidan, Xo'jalarning molidan So'zladi juda uzoq. (H. O.) Qiyoslang: Susambil tarixidan tarixini tarixi haqida (to'g'risida); ezilganlar holidan // holini // xoli to'g'risida (haqida); podsholarning zulmidan // zulmini // zulmi haqida (to'g'risida); xo'jalarning molidan // molini // moli ha-qida (xususida, to'g'risida).

Kelishikli (-ni, -dan) konstruksiyalar ko'proq og'zaki so'zlashuv nutqi uchun, ko'makchili konstruksiya esa yozma nutq uchun xosligi ;bilan xarakterlanadi: Abror kelib otasini so'radi va uyga mehmon kelganligidan xabar beradi. (A. Q)// kelganligidan xabar berdi // kelganligi haqida xabar berdi.

Chiqish kelishigi affiksi sifat yoki ravishning qiyosiy daraja formasi bilan birgalikda chog'ishtirish ma'nosi uchun ishlatilganda, -ga + qaraganda, -ga + nisbatan konstruksiyalari bilan sinonim bo'ladi: bundan kattaroq bunga qaraganda (bunga nis-batan) kattaroq; bundan tezroq // bunga qaraganda (bunga nis-batan) tezroq. Xuddi shu ma'noda ko'ra ko'makchisi bilan ham sinonimik munosabatga kirishadi: Qampir odatdagidan chaqqonroq harakat qilar edi. (A. Q) // odatdagidan ko'ra.

Chiqish kelishigi affiksi sabab ma'nosini anglatganda, uni sababli, tufayli so'zlari bilan almashtirib ishlatish mumkin: Kasalligimdan kela olmadim // kasalligim sababli kela olma-dim; G'oyati nozikligidan suv bila yutsa bo'lur // nozikligi tu-fayli suv bila yutsa bo'lur.

-dan egalik, qarashlilik ma'nosini anglatganda, -niki (bu qo'ylar kimdan // kimniki) morfemasi tegishlilik, o'rin ma'nosini bildirganda, -lik morfemasi bilan (Samarqanddan // samar-qandlik); tartib sonlarga qo'shilib, kirish bo'lak vazifasida kelganda, -si morfemasi bilan sinonim bo'ladi. -dan va -si li konstruksiyalar ko'proq so'zlashuv nutqida ko'p ishlatilishi bi-lan xarakterlanadi: Qo'klam kelishi bilan bir necha ishlarni amalga oshirish lozim: birinchidan, ariq-zovurlarni qazish, ik-kinchidan, toklarni ochish, uchinchidan, o'simliklarning ortiqcha va quruq shoxlarini qirqish // birinchisi, ikkinchisi, uchin-chisi.

Hozirgi o'zbek tilida chiqish kelishigi affiksining ilgari, avval, oldin, burun, so'ng, keyin, beri, buyon, boshqa kabi ko'makchilar bilan ishlatilishi shartlangan. Beri, buyon ko'makchila-ridan boshqa ko'rsatilgan ko'makchilar chiqish kelishigi affiksi bilan ishlatilganda, kelishik affiksini yoki ko'makchini tushurib qoldirish mumkin emas. Aks holda ma'no o'zgarib ketadi. Chog'ishtiring: Hammadan avval ishga kirishdi // hamma... (?) avval ishga kirishdi // hammadan... (?) ishga kirishdi; Oshdan keyin achchiq ko'k choy damladi // osh... (?) keyin achchiq ko'k choy damladi // oshdan... (?) achchiq ko'k choy damladi kabi.

Ba'zi ko'makchilar esa chiqish kelishigi bilan sinonimik vo-sita sifatida ishlatilishi mumkin. Masalan, bilan ko'makchisi kontekst bilan bog'liq ravishda harakatning ma'lum yuza bo'yicha bajarilganligini ko'rsatishi mumkin. Bu bilan ko'makchisining qo'shimcha ma'nosi bo'lib, shu ma'nosi vositasida -dan affiksi bilan sinonimik munosabatga kirishadi: Tosh yo'l bilan yur/1 Tosh yo'ldan yur.

Chiqish kelishigi affiksi va bilan ko'makchisi sabab ma'nosini anglatganda ham sinonim bo'la oladi, ya'ni biri o'rnida ik-kinchisini ishlatish mumkin bo'ladi. Masalan: To'g'on qurilishidagi ish mening o'jarligim bilan barbod qilinishiga sal qoldi. (Sh. R.) o'jarligimdan...

Quyidagi kabi o'rinlarda ham -dan va bilan o'zaro sinonim bo'la oladi: Lola jomi to'lsa ko'klam shabnamidan ertalab, Yezgi chilla sho'x xayolday o'tsa kurtakni yalab. (G'. G'.) // shabnami bi~ lan.

Fazoviy ma'noda, vosita ma'nosida orqali ko'makchisi ham chiqish kelishigi affiksi bilan sinonim bo'ladi. Misollar: Gvardiyachi serjant Erkaboy Mirzayev gospitalning derazasidap ko'chaga qarab xayol surib o'tirgan edi, birov bir savat shaftoli olib o'tdi. (A. Q.) — deraza orqali...; Aravani pochtaning oda-midan berib yuboraman. (A. Q.) // pochtaning odami orqali...

-dan affiksi sabab ma'nosida ishlatilganda uchun ko'makchisi bilan ham sinonim bo'la oladi: Asqar ota shuncha xotinning ichida bir o'zi bo'lganligidan nechukdir o'ng'aysizlanar... edi (A. Q.)—

bo'lganligi uchundan affiksi sabab, vaj so'zlari bilan kelib, sabab ma'nosini anglatganda zsa ba'zan -li morfemasi bilan sinonim bo'ladi: do'sti bo'lganligi sababdan // do'sti bo'lganligi sababli.

Chiqish kelishigi o'zining asosiy ma'nosidan tashqari, ko'zidan akasi, jonidan akasi tipidagi birikmalarda ekspressivlikni; yaxshilardan yaxshisi, go'zallardan go'zali tipidagi kons-truksiyalarda qiyos, kuchaytirish; uni yelkasidan quchdi kabi ho-latlarda qism orqali butunni anglatish kabi qo'shimcha ma'no-larni ifodalaydi. Hatto kontekst bilan bog'liq ravishda -dan o'zinyang asosiy ma'nosi — harakatning boshlanish o'rni yoki paytiga qarama-qarshi bo'lgan ma'noni — borib yetganlikni ham ifo-dalay oladi: Biz odamlardan uzoqlashib, haykali yonidan chiqdik. (As. M.) Sal o'tmay bolalar allaqanday yerto'la ustidan chiqib qoldilar. (A. Gaydar.)

O'rin kelishigi «statik», jo'nalish kelishigi «dinamik» harakatni ko'rsatadi. Lekin shunga qaramay og'zaki nutqda, shevalarda, hatto yozma nutqda ham ko'pincha o'rin va jo'nalish kelishik-larini farqlamay ishlatish hollari mavjud. Masalan: To jil-va qildi ul pari, men muftalo kayda boray, Emdi degaykim, bor nari, men muftalo kayda boray. (Muqimiy.) Chunki bizga-ning tushib o'tgan ko'z qiri, Sha'nimizda aytilgan tomlar to'la so'zi bor. (G'. G'.) Bu misollarda jo'nalish kelishigi qo'shimchasini qo'llash lozim edi. Quyidagi misollarda esa jo'nalish keli-shigi emas, o'rin kelishigi affiksi qo'llansa maqsadga muvofiq bo'lardi: Tog'larga «qizillar» bekingan... (H. b.) Qorinlar ham piyoz bo'lib to'xtabdu, nonushtani kayerga kilamiz, Shahriyor. (A. Qod.)

Ba'zan jo'nalish va o'rin kelishiklaridan qaysi birini ishlatish lozimligini aniqlash juda qiyin. Misollar: Va o'rnidan qo'zg'alib xomush, sekin kelib joyiga yotdi. (H. O.) Turobjon ham daricha yoniga o'tirdi. (A. Q.) Bunday holatni olimlar o'rin va jo'nalish kelishigining tarixan — genetik bir kelishik bo'lganligi bilan izohlaydilar.

Xuddi shu sabablarga ko'ra bo'lsa kerak, o'zbek tilida chiqish va o'rin kelishiklarini ham farqlamasdan ishlatish holatlari uchraydi: Lekin orada bir necha kun o'tgach Xayriddin bunga javoban Minorka shahrini bosib oldi. («Fan va tur-mush».)

Avvalo, birinchi misoldagi o'rtamizda so'zi noo'rin ishlatilgan. Chunki gap ikki yoki ko'p kishi munosabati haqida borganda o'rta so'zini emas, ora so'zini qo'llagan ma'qul. Ikkinchidan, o'rtamizda so'zi harakat fe'li bilan bog'langan. Shuning uchun o'rin kelishigi emas, balki chiqish kelishigi affiksini ishlatish kerak. Ikkinchi gapda ham chiqish kelishigini ishlatish zarur-ligi sezilib turnbdi, quyidagi misollarni ham kuzating: Kampirning yuzidan kulgiga o'xshagan bir narsa aks etdi. (A. Q.) Asrorqulning... yuzidan soxta tabassum aks etdi. (A. Q.)— aks etdi— n i m a? aks etdi tabassum aks etdi; tabassum qayerda (yoki nimada)? aks etdi (q a y e r d a n emas) yuzida aks etdi.

Lekin o'rin kelishigi affiksi old ko'makchisi bilan kelib, biror ish-

harakatning boshqasidan ilgariroq bajarilishini ko'rsatganda shu ma'nodagi chiqish kelishigi affiksi bilan sino-nim bo'la oladi: Singlisi ham dalaga ketish oldida beqasam to'nga orden va medallarni taqib qo'ygan ekan. (0.) — dalaga ketish oldidan...

O'rin kelishigi affiksi otlarga qo'shilib, harakatni o'z ustiga olgan predmetni ko'rsatganda shunday ma'noni anglatish xarakterli bo'lgan tushum kelishigi bilan sinonimik munosabatda bo'la oladi. Bunday paytda ularning biri o'rnida ikkinchisini ishlatish mumkin. Masalan, Men maktab duxovoy orkestri sostavida trubada o'ynar edim gapi cholg'uvchi trubaning ustida yoki ichida o'ynar ekan deb tushunilmaydi, balki trubani chalar ekan degan ma'no, fikr uqiladi: trubada o'ynar edim trubani o'ynar edim.

O'rin kelishigi qo'shimchasi ko'makchilar bilan sinonimik mu-nosabatga kirisha oladi. Masalan, u ko'pincha ostida ko'makchisi bilan grammatik sinonim hosil qiladi: uning raisligida I/ uning raisligi ostida kabi1.

Vosita ma'nosini anglatganda -da affiksi bilan ko'makchi-sining sinonimi sifatida ishlatilishi mumkin. Chog'ishtiring: Mashinada keldim mashina bilan keldim; qalamda yozdim ~ qalam bilan yozdim kabi.

O'rin kelishigi ish-harakatning qaytarzda bajarilganligini, yuzaga kelganini bildirib, q a n d a y?, q a n d a y q i l i b?, qay tarzda? kabi so'roqlarga javob bo'lganda ham bilan ko'-makchisiga sinonimik munosabatda bo'la oladi: Ayniy keng yelka, yo'g'on, barvasta gavdali, to'la yuzli... U yo'g'on ovozda so'zlar edi. («Fan va turmush».) — ovoz bilan; Sosor Serenpelin — gidromelioratsiya fakul'tetini o'tgan yili a'lo baholarda bitirib, o'z vataniga injener bo'lib qaytgan edi. («Yesh l».) — baholar bilan...

Ayrim hollarda o'rin kelishigi maqsadni bildiradi va n i-ma uchun?, nima maqsadda?, nimaga? kabi so'roqlarga javob bo'ladi. Bunday vaqtda u bilan, uchun ko'makchilariga si-nonim bo'lishi mumkin. Masalan, bilim olish maqsadida, o'qish niyatida universitetga kirgan edim // bilim olish maqsadi bi-lan I/ o'qish niyati bilan // bilim olish uchun // o'qish uchun kabi: Sen deganda bir yor topilur. (H. 0.) sening uchun bir yor topilur.

O'rin kelishigining qo'shimchasi ba'zan, ko'makchili konstruk-siyaning vazifasini bajaradi: Juda ham holdan ozdim, Sandiq-da o'layozdim. (H. 0.) // sandiq ichida...; Qalandar kiyimida Bo'l-sa hamki, qilichi Ko'rinardi shimida. (H. 0.) // shimi ichida...

Agar ot ost, ust, ich, o'rta tipidagi ko'makchilar bilan birga kelsa, o'rin kelishigi qo'shimchasi ko'makchiga qo'shiladi. Ko'makchi tushirilib qoldirilsa, u endi otga qo'shiladi va birikma ang-latgan ma'noni berishga xizmat qila beradi: Tog' boshida qonga botib, shoir o'ladir. Tog' boshida bir umrga paymon to'ladir. (H. O.) Qiyos: Tog'da qonga botib shoir o'ladir, Tog'da bir umrga paymon to'ladir. Farq faqat shundaki, ko'makchili konstruksiyada harakat yuz bergan o'rin

aniq, konkret: tog'da tog' boshida.

Harakat biror yuza, soha bo'yicha davom etganda, o'rin kelishigi qo'shimchasi uzra ko'makchisi bilan grammatik sinonim bo'la oladi. Misol: Shahar uzra qanot yozgan xavf-xatar sababli, qalandarlarning jazava bilan xuxulab zikr tushishlari vahimali tuyular edi. (O. Ye.)—shahar uzra I/ shaharda. Uzra ko'makchisi konstruksiya ko'proq poetik nutq uchun xos.

O'rin kelishigi affiksi vosita ma'nosini anglatish uchun ishlatilganda orqali ko'makchisi bilan sinonimik munosabatga ki-rishadi. Masalan: Kolxozchilarning bugungi vazifasini kolxoz raisi radioda e'lon qildi // radio orqali e'lon qildi. Shu xususiyati bilan o'rin kelishigi affiksi chiqish kelishigi bilan funksiyadosh bo'ladi: Kolxozchilarning bugungi vazifasini kolxoz raisi radiodan e'lon qildi.

O'rin kelishigidagi so'z sabab ma'nosini anglatganda natijasida, sababli, orqali kabi so'zlar bilan sinonim bo'ladi. Misol: Oftobda qoraygan bo'yniga, chekkasiga ter bilan yopishgan sochla-rini tortqiladi. (A. Q.) — oftob natijasida // oftob sababli... uning yoqasi ochiq ko'ylagi ichidan mehnat qilib, quyoshda toblangan ko'kragi ko'rinib turardi. (Sh. R.) — quyosh natijasida // quyosh sababli...

O'rin kelishigi affiksi uchinchi shaxs egalik affiksidan keyin kelib, bilishimcha (bilishicha) kabi kirish so'z sostavidagi -cha affiksi bilan sinonimik munosabatga kirishadi. Ch o g' i sh t i r i n g: Men bilgimda ulug' shohning o'g'lisan. («Kuntug'mish»dan.) — bilishimcha...

O'rin kelishigi affiksini ba'zan -dan iborat, -dan tug'iladi

birikmalari o'rnida qo'llash mumkin: Hamma kuch birlikda // Qiyoslang: Hamma kuch birlikdan iborat.

Ergash gap kesimi o'rin kelishigi affiksini olgan sifatdosha bilan ifodalanib (yoki o'rin kelishigi qo'shimchasi chog', payt, dam kabi so'zlarga qo'shilgan holda) bosh gapga bog'langanda gan +

paytda, -gan + da kabi formalari -gan + edi konstruksiyasi bilan sinonim bo'lishi mumkin: Po'latjon endi tashqariga chiqmoqchi bo'lib turgan edi, yuz-ko'zi chang bo'lib ketgan Hojimat keldi // chiqmoqchi bo'lib turganda...

-gan + da formasi ergash gap kesimi bilan birga qo'llanib, shart ma'nosini anglatganda ba'zan -sa, ba'zan -sa + edi formalariga sinonim bo'ladi. -sa + edi formasi o'tgan zamon, -sa for-masi esa kelasi zamonni ko'rsatadi. Misollar: Siddiqjon ilgariroq shu qarorga kelganda, biz uni o'sha vaqtdayoq kolxozga a'zo qilib olgan bo'lar edik. (A. Q.) — shu qarorga kelsa edi; J&HL kelganda, aql qochadi. (Maqol.) — jahl kelsa...

O'rin kelishigi qo'shimchasi -da formantli ravishlar sostavi-dagi hamda bog'lovchi vazifasidagi, ta'kidlash ma'nosidagi -da yuklamasi bilan omonimik

munosabatda bo'ladi. O'rin kelishigi affiksini olgan so'zlar uyushib kelganda bu kelishik affiksi, odatda, har bir uyushiq bo'lakda saqlanadi, ularning birortasida tushirilib qoldirilishi juda kam uchraydi. Misol: Jasur o'g'illaring kor va bo'ronda Jahon taqdiriga najot izlaydi. (H. o.)

-da o'rin va payt ma'nosidan tashqari, kontekst bilan bog'liq ravishda quyidagi kabi qo'shimcha ma'nolarni ham ifodalaydi:

Sabab ma'nosini: Ishqingda men bahorlar topdim, Bahor ichra nahorlar topdim. (H. O.) — ishqing sababli.

Shart ma'nosini reallashtiradi: Majlisda katta-kichik degan gap bo'lmaydi, qofiyasi kelganda otangni ham ayama. (A. Q.) — qofiyasi kelsa...

3. Abstrakt o'rin, ko'chma ma'nodagi o'rin kabi ma'nolarni, ba'zan bir paytning o'zida ham o'rin, ham payt ma'nosini mujassamlashtirib ifodalaydi: Esimda o'sha damlar, o'zi uchar gilamlar. (H. O.) Birdan yondi satsolda kulgi. (O.) Uroqda yo'q, mashaqda yo'q, xirmonda hozir. (Maqol.)

EGALIK QO'SHIMCHALARNING USLUBIY XUSUSIYATLARI

Hozirgi o'zbek tilida egalik kategoriyasi ko'rsatkichlarining morfologik variantlari uncha ko'p emas. Ikkinchi shaxsning ko'p-ligi uch morfologik variantga ega: -ingiz, -inglar, -laring. Uchin-chi shaxs ko'rsatkichining esa ikkita morfologik varianti bor: -i, -si.

Ikkinchi shaxsning morfologik variantlaridan -ingiz formasi adabiy til uchun ham, og'zaki so'zlashuv nutqi uchun ham umumiy. Qolganlari esa jonli so'zlashuv nutqi (ba'zi dialektlar) uchun xarakterli. Ularni og'zaki nutqda, badiiy va publitsistik

nutqda bir-birlariga nisbatan sinonim sifatida qo'llash mumkin.

-i, -si variantlarining qo'llanishi qat'iy qonuniyatga asoslangan. Ularni biri o'rnida ikkinchisini ishlatish ko'pincha adabiy til normasining buzilishiga olib keladi.

Umuman, egalik tushunchasi o'zbek tilida morfologik, sintaktik va aralash yo'llar bilan ifodalanadi.

Qaratuvchi qo'llanmagan holatda tegishlilik, xoslik ma'nosi egalik affiksini olgan qaralmishdan sezilib tursa, bu morfologik yo'l bilan egalikning ifodalanishi hisoblanadi.

Uzbek tilida, umuman turkiy tillarda ham egalik affiks-larining kishilik olmoshlariga aloqadorligi, ya'ni egalik affiksining har biri o'zi qo'shilib kelgan so'z orqali ifodalangan predmetning ma'lum shaxsga tegishli ekanlipshi ko'rsatishi xuddi shu shaxslarni ko'rsatuvchi— kishilik olmoshlari bilan ifodalangan

qaratuvchini tushirib qoldirish imkoniyatini tug'dira-di. Chog'ishtiring: mening kitobim // kitobim, sening kitobing I/ kitobing.

Uzbek tili egalik, qarashlilik tushunchasini ixcham ifodalash xususiyati bilan boshqa ko'pgina tillardan farq qiladi. Jum-ladan, nemis, fransuz, rus tillarida (Маър, visN, gpopNug, moya kniga kabi) qaralmish hech qanday qo'shimcha olmaydi. Qaratqich tushirib qoldirilsa, predmet (kitob) kimga yoki nimaga tegishli ekanligini bilib bo'lmaydi.

Uzbek tilida ham ba'zan og'zaki nutqda va poeziyada egalik tushunchasini mening kitob tarzida ifodalash uchraydi. Egalik-ning bunday ifodalanishi sintaktikusul bilan ifodalanish deb yuritiladi. Misolar: Bizning xotinlarga • hayo fazilat, mehnat bor, muhtojlik doim begona. (G'. G').

Egalik, qarashlilik tushunchasining ham morfologik, ham sin-taktik usul bilan ifodalanishi aralash yo'l bilan ifodalanishga kiradi. Bunda avvalo egalik tushunchasi qaratqich keli-shigi vositasida — qaratuvchi orqali ifodalansa, so'igra shu ma'no qaralmishdagi egalik affiksi vositasida ham pleonastik takrorlanadi: Ko'zidan qon oqqan yovni ko'rganda, Sening yengi-shingga keltirdim imon. (H. O.) Egalikning bu kabi ifodalanishida olmoshdagi qarashlilik, xoslikni ko'rsatuvchi -ing, -ning qo'shimchasi doim saqlanadi. Chunki uning tushirib qoldirilishi ma'noga ta'sir qiladi.

Uzbek tilida tegishlilik ma'nosi Sen irodang bilan ham-mani qoyil qilding. Men qalbim, jonim bilan partiya ishiga so-diqman. U Vatani oldidagi burchini oqladi tipida ham faqat egalik affiksi vositasida ifodalanadi. Hatto bunday konstruksiyalarda olmoshlarni qaratqich kelishigi bilan qo'llash mumkin emas. Uni qaratqich kelishigi bilan Mening qalbim, tanim bilan partiya ishiga sodiqman. Sening irodang bilan qoyil qilding. Uning Vatani oldidagi burchini oqladi tipida qo'llash g'aliz, noaniq fikrlarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Bu ayniqsa, uchinchi gapda yaqqol seziladi. Chog'ishtiraylik: birinchi ko'rinishda (U Vatani oldidagi burchini oqladi) uchinchi shaxs Vatani oldidagi o'z burchini oqladi ma'nosi anglashilsa, keyingi holatda tamoman bunga qarama-qarshi ma'no — sub'yekt o'z Vatani oldidagi emas, balki boshqa birovning Vatan oldidagi burchini ado etdi ma'nosi anglashiladi. Bunday holatlarda ay-tilmoqchi bo'lgan fikr konkretligini, aniqligini saqlash uchun, albatta, kishilik olmoshlaridan so'ng o'zlik olmoshini ham (o'z) keltirish lozim bo'ladi. Kishilik olmoshi belgisiz bo'lishi, o'zlik olmoshi esa kerakli shaxsni ko'rsatuvchi egalik affiksini olishi yoki u ham belgisiz bo'lishi mumkin. Ammo har ikki holatda ham egalik affiksini olgan so'z orqali ifodalangan predmet o'zlik olmoshi birga kelgan so'z ko'rsatgan shaxsga tegishli ekanligi anglashiladi. Chog'ishtiring: Sen o'z irodang bilan hammani qoyil qilding // Sen o'zingning irodang bilan hammani qoyil qilding. Men o'z qalbim, jonim bilan partiya ishiga sodiqman /I Men o'zimning qalbim, jonim bilan partiya ishiga sodiqman. U o'z vatani oldidagi burchini oqladi // U o'zining Vatani oldidagi burchini oqladi kabi.

Ko'rinadiki, gapda kishilik olmoshi ham, o'zlik olmoshi ham, egalik affiksi

ham, hatto boshqa vositalar ham qo'llanishi mumkin. Bunda qarashlilik ma'nosi yanada kuchayadi, ta'kidlash ortadi. Bu so'zlovchi yoki yozuvchining aytayotgan fikrini yanada bo'rttirish, ta'kidlash maqsadi bilan bog'liq. Masalan, otim, mening otim, mening o'zimning otim, mening o'zimning shaxsiy otim kabi so'z va birikmalarda egalik tushunchasiniig gradatsiyasi yaqqol sezilib turibdi. So'nggi holatda yuqoridagi vositalarga yana leksik vosita (shaxsiy) ham qo'shilgan va u fikrga yanada aniqlik kiritishga xizmat qilgan. Bu konstruksiyalar har doim ham bir-biriga teng kela bormaydi. Shuning uchun ham situatsiya, kontekst talabini hisobga olgan holda har bir konkret sharoitda ularning shu sharoitga, kontekstga mos keladigan to'rin i tanlab, maqsadga muvofiq ravishda qo'llash lozim.

Qarashlilik, egalik tushunchasi -niki affiksi vositasida ham ifodalanadi. Bunday vaqtda abstrakt egalik ma'nosi ang-lashiladi. Chunki -niki affiksini olgan so'z qaysi predmetga yoki shaxsga (xoh birlik, xoh ko'plik bo'lsin) tegishliligi aniq ko'r-satilmaydi. -niki affiksini olgan so'z gapda ilgari eslatilgan predmetning shaxs yoki predmetga tegishli ekanligini ko'rsatadi. Ba'zan -niki affiksini olgan so'z gapda qo'llanadi-yu, ammo qarashli bo'lgan predmet tushirilib qoldiriladi. Bunday vaqtda u gap konstruksiyasidan bilib olinadi. Masalan: «Xolaning bo-la-chaqalari bo'lmaganligidan uylari biznikiga o'xshash to's-to'po-lon emas, yig'inchoqlik» (G'. G'.) gapida uyimiz so'zi tushirib qoldirilgan. Uni gap konstruksiyasi talab ham qilmaydi. Lekin jumla mazmunidan xolaning uyi bizning uyga taqqoslanayotgan-ligi ana^ shu «biznikiga» so'zidan anglashilib turadi. Bizniki so'zi bu o'rinda «bizning uy» birikmasi bilan sinonimik munosabatda. Agar -(i)m, -(i)ng, -(i)miz, -(i)ngiz tigshdagi egalik affikslari o'zi qo'shilib kelgan so'z orqali ifodalangan predmetning biror shaxsga tegishli ekanligini bildirsa, -niki affiksi shaxsga tegishli bo'lgan predmetni ko'rsatuvchi so'zga qo'shilmaydi, balki u predmet qarashli bo'lgan shaxs yoki predmetni ko'rsatuvchi so'z-ga qo'shiladi. Bu xususiyati bilan -niki affiksi egalik affiksidan ko'ra qaratqich kelishigi affiksiga yaqinlashadn. -niki af-«fiksili konstruksiyani shuning uchun ham qaratqichli (aralash) konstruksiya bilan almashtirish mumkin: Kitob seniki (meniki «yoki uniki), g'uncha gulniki, gul esa meniki (seniki yoki uniki) kabi birikmalarni o'rni bilan ma'noga uncha zarar yetkazmagan holda mening (sening yoki uning) kitobi (-m, -ing), gulning g'unchasi, gul esa mening (sening yoki uning) guli (-m, -ing) tipidagi konstruksiyalarni qo'llasa bo'ladi.

-niki affiksi anglatgan ma'noni ba'zan qaratqich kelishigi affiksi ham bajaradi. Bu ko'proq poeziya tili uchun xos:

Bag'ringga tort, quchoqla, bahor! Jozibalar barchasi sening, Ishga kirgan, gullagan chog'i, Sen yoshligi buyuk o'lkaning. (H. O.)

Uzbek tilida egalik, qarashlilik ma'nosini ifodalashda ay-rim maxsus so'zlardan ham foydalaniladi. Bunday so'zlar qatoriga ega, qarashli, tegishli, shaxsiy, xos, o'z kabilarni kiritish mumkin: kitobning egasi Karim, mollarning egasi kolxoz, kitoblar Karimga qarashli, mollar kolxozga qarashli, shaxsiy mashinalar uchun qurilgan garajlar; Uy o'ziniki, o'z uyi — o'lan to'shagi kabi,

kitob Karim-ga tegishli, mollarning egasi kolxoz konstruksiyalarini Karim-ning kitobi, kolxozning mollari birikmasi bilan almashtirish mumkin. Chunki egasi, tegishli so'zlari sostavidagi -si va -li affikslarining funksiyasi qaratqich kelishigi affiksi funk-siyasiga mos keladi.

Egalik, qarashlilik tushunchasi og'zaki nutqda ba'zan chiqish kelishigi (-dan) affiksi vositasida ham ifodalanadi:

Bu qo'ylar kimdan? — deb so'radi Rustam.

Bu qo'ylarning hammasi... boydan,— deb javob berdi cho'-pon II boyning qo'ylari bu qo'ylar boydan.

Egalik kategoriyasi qaratqich bilan mustahkam aloqadordir. Hatto ba'zan qaratqich bilan egalik affikslarini farqlash ham qiyin: Menim boshlarimga tegib o'tdilar Guldasta qo'llari bu-toqlaringning. (H. O.) Misoldagi menim so'zi sostavidagi -(i)m affiksini kelishik qo'shimchasi deb qarash kerakmi yoki egalik qo'shimchasi deb qarash kerakmi? I shaxs kishilik olmoshiing bu o'rinda qaratqich vazifasida ekanligini, egalik affiksi unga tegishli bo'lgan bosh so'zi sostavida ekanligini hisobga olib, uni qaratqich kelishigi affiksi deyish ma'qul.

Bundan tashqari, bu ikki affiks (-ning va egalik) ko'pincha biri bo'lmaganda ikkinchisining vazifasini bajaraveradi. Biri ikkinchisi uchun ko'rsatkich, garantiya hisoblanadi, ya'ni egalik affiksini olgan so'z orqali qaratqich oson topilgani kabi (Navoiy asarlari: asarlar Navoiyning asarlari ekanligi aniq) qaratqich vositasida qaralmishdagi egalik affiksini ham topib olish mumkin. Bizning kolxoz (0), bizning Oygul (0) misolla-ridan biz kolxozga, Oygul bizga tegishli ekanligi anglashiladi. Ba'zan qaratqich ham, qaralmish ham (asosan, III shaxsda) belgisiz bo'lganda, ularning munosabati kontekstdan aniqlanadi: shaftoli danak, ko'zoynak kabi.

Egalik affiksi ba'zi so'zlarga qabatlangan holda qo'shiladi, ya'ni bir negizda egalik affiksi pleonastik ravishda takrorlanadi. Bunday vaqtda ta'kidlash, ajratib ko'rsatish ma'nosi anglashiladi: Mana bunisinimi, u barmog'i bilan nuqib ko'rsatdi. («Sharq yulduzi».)

Egalik affiksining bu kabi qabatlenganda keltirib chiqaradigan ma'no nozikligi xuddi shu so'zni rus tilidagi paralleli bilan chog'ishtirilganda yanada ochiqroq ko'rinadi. Masalan,, o'zbek tilidagi qay olmoshiga egalik affiksi yakka holda qo'shilganda, uning ma'nosi rus tilidagi kotorʻsh so'zi anglatgan ma'noga to'g'ri kelsa (qaysi — kotorʻsh), egalik affiksi qabatlenganda (qay + si + si) rus tilidagi kotorʻsh iz nix yoki tojik ti-lidagi kadam az ino iboralari anglatgan ma'noga to'g'ri keladi (qaysisi — kotorʻsh iz nix).

Egalik affiksini quyidagi holatlarda tushirib qoldirish mumkin:

Egalik affiksini olish lozim bo'lgan so'z (qaralmish) jamlik, tur ma'nosini ifodalaganda, I shaxs egalik affiksining ko'plik formasi tushirilib qoldirilishi

mumkin:—Uzi-lshzning uzumdan, rahmatli qiblagohimiz o'tqazganlar. (J. Ykromiy.)

Qaralmish atoqli otlar bilan ifodalanganda, I shaxs egalik affiksining ko'plik formasi tushirilib qoldirilishi mumkin: bizning, Vatan, bizning Toshkent, bizning Oygul kabi.

Bunda egalik affiksi tushirib qoldirilganligi qaratqichdan bilinib turadi. Qaratqich qaralmishli birikmaning bu ko'rinishi poetik nutq uchun xos.

3. Qaratqich qaralmish orqali ifodalangan predmet yoki belgi bilan faxrlanganda, mag'rurlanganda III shaxs egalik affiksining ko'pligi tushirilib qoldirilishi mumkin: Biznikg xotinlarga hayo fazilat, Vafo hunaridir, mehnat odati. (G'. G'.) Bizning keksalar, bizning o'g'il, bizning yor kabi birikmalar ham yuqoridagi holatga misol bo'ladi.

Qishilik olmoshlari bilan ifodalangan qaratuvchi belgisiz bo'lsa, qaralmishdagi egalik affiksi hech vaqt tushirib qoldirilmaydi. Agar bunday vaqtda qaralmish belgisiz qo'llansa, ma'no tamoman o'zgarib ketadi. Chog'ishtiring: mening otam S men ota, mening onam // men ona kabi. Ko'rinadiki, bunday qo'llash na faqat ma'noga, hatto grammatik munosabatga ham ta'sir qiladi.

Evfemizmlarda, odatda, egalik affiksi saqlanadi:—Dadasi, ayb mendami, qizingiz o'zi... yaxshi yigit degan edi-da. («Gul-dasta».)— Onasi, hoy onasi! Men Qo'shqishloqqa ketdimmi, xavotir olmanglar. (H. G'.)

Bir shaxs affiksi o'rnida boshqa shaxs egalik affiksining qo'llanishi stilistik xususiyatlarga ega. Ya'ni ular og'zaki nutqda ko'proq kamtarinlik yoki mag'rurlik ottenkalari berish uchun qo'llanilsa, badiiy asar tilida ekspressivlik, emotsiya hosil qilish uchun ishlatiladi. Egalik affikslarining shaxslar bo'yicha almashtirilib ishlatilishi quyidagi ko'rinishlarga ega:

a) III shaxs egalik affiksining birligi birinchi shaxsning birligi o'rnida:—Keling, xolasi,— dedi u,— bu yer issiqqina, gaplashib o'tirishga yaxshi. (J. Ikromiy.);

b) III shaxsning birligi ikkinchi shaxsning birligi o'rnida:— Akasi jonidan, sizga navbat,— deb shivirlaydi Munavvarni o'yinga tortib. (S. Anorboyev.);

v) birinchi shaxsning ko'pligi shu shaxsning birligi o'rnida:— Ug'limiz ham Sultonmuroddok olim bo'lsin! — dedi samimiyat bilan Dildor. (0.);

g) uchinchi shaxsning birligi ikkinchi shaxsning ko'pligi o'rnida: Shunchalik qiynaganingiz yetar, ko'zidan, keling endi, ko'p intizor qilmang (M. Qoriyev);

d) ba'zan egalik affiksini olgan so'z formal jihatdan ma'lum shaxsni ko'rsatsa ham, III shaxsdagi qaratqichga aloqador bo'lmaydi. Masalan: Akasi, biron soatdan keyin otga ozroq beda tashlab qo'y! (S. A.)

Egalik affiksini olgan so'zlar sof egalik (real qarashlilik), qarashlilik ma'nosidan tashqari, quyidagi ma'no nozikliklarini ifodalaydi:

1. Erkalatish, ilhomlantirish ma'nosini. Bu ma'no ko'proq egalik affiksini olgan so'zni erka, xushro'y, jon, ona kabi so'zlar yoki sub'yektiv baho formalari bilan birga ishlatish nati-jasida kelib chiqadi, bu so'zlar va sub'yektiv baho formalari egalik affiksining shu ma'noni ifodalashda aktualizator rolini bajaradi. So'zlovchi yoki yozuvchi egalik affiksini bunday qo'llashda shu affiksni olgan so'z orqali ifodalangan predmetga yoki voqea-hodisaga befarq qaramaydi, unga o'z munosabatini bildiradi. Bu munosabat, asosan, ijobiy xarakterga ega bo'ladi. Biroq, shuni unutmaslik kerakki, intonatsiya vositasida har qanday ijobiy ma'no bildiruvchi yoki neytral ma'noli so'zga ham konkret situatsiyada salbiy ottenka berish mumkin. Qizim, qizginam, bolam, bolajonim, ona qizim, erka qizim, erka o'g'lim tipidagi so'zlar va birikmalarning ekspressivlik jihatdan farqini chog'ishtirib ko'ring: qizim so'zi intonatsiya yordamida erkalatish ma'nosini beradi. Lekin qizginam, bolajonim, ona qizim kabi so'z va birikmalar alohida intonatsiyasiz ham erkalatish ma'nosini bera oladi: Barakalla, bolajonlarim, ko'ngillaringga nima yoqsa, shuni qilinglar, — dedi u. (S. Anor-boyev.) Yuqorida aytilganidek, erkalatish, ilhomlantirish ma'nosi so'zlar oldidan aniqlovchilar keltirish yoki egalik affiksini sub'yektiv baho formalari bilan birga ishlatish orqali ifodalanadi: ...Onaginam, hujjatlarni ko'zdan o'tkazib, qo'linga zayavka blankasini tutqazdi. (A. Muqimov.) Otaginang o'rgilsin, poshsho qizim! — deb sevindi Cho'lbo'bo. — Qadamlaringga hasanot, onaginam! (G'. G'.)

Erkalash, ilhomlantirish ma'nosini kuchaytirish niyatida ba'zan egalik affiksi oldidagi sub'yektiv baho formalari birdan ortiq qo'shiladi: Oyijonginam, sizni qanchalar yaxshi ko'ri-shimni bilsangiz edi,— deya uning yuzlaridan o'pdi. (S. Karoma-tov.) Bu ma'no egalik affiksi va ekspressiv xarakterdagi so'zlarni takrorlash bilan ham ifodalanadi: Jon bolam, o'rgilay... ikkovini xijolatga qo'yma! (A. Q.)

Ko'rinadiki, erkalatish, ilhomlantirish ma'nosi ko'proq egalik affikslari qavm-qarindoshlik terminlariga qo'shilganda anglashiladi. Ular boshqa so'zlarga qo'shilganda — Ilohi tilgi-nangizdan o'rgilay!— dedi xotin va yana erkalab o'g'lining boshi-ni silab qo'ydi. (J. Ikromiy.) gapidagi kabi ba'zan erkalash ma'nosini bildirsa ham, ko'proq kichraytish ottenkasini ifodalash uchun xizmat qiladi.

Koyish, nolish, norozilik ma'nosini. Bunday ma'noni aniqlashda kontekstning ahamiyati katta:—Sho'rginam qursin... Ko'rmaysizlarmi... Besh-olti yildan beri bitta paypoq olib ber-gani yo'q-ku... hamma kiyimlaringga kerosin sepib o't qo'ydi.... (L. Q.)

Tinchlantirish, achinish ma'nosini. Bunda ham intonatsiya, kontekst hal qiluvchi rol o'ynaydi:—Bolaginam, bu ahvolda o'zingni o'zing yeb qo'yadiganga o'xshaysan-ku! («Guldasta»-)

Kinoya, kesatiq ma'nosini. Sovqotib qoldinglarmi?— Sovuk, oshnam, qishloqqa tez yetamizmi deyapman? (D. Furmanov.)

Egalik affiksini olgan so'z undalma vazifasida kelib, tinglovchining diqqatini o'ziga tortish uchun ishlatiladi. Shu bilan birga ogohlantirish, ta'kid, mensimaslik ma'nosini bil-diradi: Inim, sen hali yoshsan, endi yigirma ikkiga qadam qo'yding... (J. Sharipov.)

Faxrlanish, kamtarinlik ma'nosini bildiradi. Qamtarinlik ma'nosi, asosan, ilmiy stil uchun xos bo'lib, egalik affiksining ko'plik formasi uning birligi o'rnida qo'llanganda yuz beradi. Misol: Ishimizda yirik turkolog olimlarning fikrlariga asoslanganmiz (ishimda deyilmoqchi). Faxrlanish ma'-nosini anglatish uchun egalik affiksidan foydalanish og'zaki nutqda ham, badiiy asar tilida ham uchraydi: Olaxo'ja tushuntirdi:

— Bu, bizning o'g'limiz, mulla, buni o'zingiz alohida e'tibor berib o'qitasiz. (P. T.)

7.^ Egalik affiksi metaforik (ijobiy ottenkali) ma'nodagi so'zlarga qo'shilganda ham, erkalatipg ma'nosini anglatadi: — Qizarma endi, bo'tam,— dedi Nabigul amaki meni tushungandek ma'noli jilmayib,— lekin bundan keyin hech qachon so'roqsiz bunaqa ish qilma. (M. Salom.)

8. Oilaviy munosabatda qo'llanadigan ayrim tabulashgan so'zlarga qo'shilib, xushmuomalalik ma'nosini ifodalaydi: — E, e, keling, onasi Manzura Muqimova, manavini ko'ring-a.— Domla shishani uning burniga yaqinlashtirdi. («Chakkiga dakki».)

SIFAT STILISTIKASI

Sifat ma'lum bir belgini ko'rsatuvchi mustaqil so'z bo'lib, funksiyasi jihatidan boshqa so'z turkum (ot va otlashgan so'zlar) larining ma'lum xususiyatini konkretlashtiradi, uning ma'no-siga aniqlik kiritishga yordam beradi.

Sifat so'z turkumi poetik vosita sifatida ham katta ahamiyatga ega. U badiiy adabiyot tilida eng ko'p uchraydigan epitetlar hosil qilishda qo'llaniladi.

Bundan tashqari, sifat turkumi sistemasida sinonimiya ham keig taraqqiy etgan. Bu sinonimiyaning funksional stillar nuqtai nazaridan chegaralanganligi ham sezilarli darajadadir. Gularning hammasi sifat so'z turkumining stilistik kategoriya sifatida talqin qilinishiga imkon beradi.

Sifat darajasini hosil qiluvchi formalar stilistikasi. Sifatlar predmet belgisini

to'g'ridan-to'g'ri (oq qog'oz, sizil olma) va bir belgini boshqa belgi bilan chog'ishtirib, qiyos qilib ko'r-satishi mumkin. Shu xususiyatlari asosida sifatning qiyosiy va orttirma darajalari farqlanadi.

Sifatning qiyosiy darajasi -roq morfemasi yordamida hosil qilinadi va u, asosan, belgining normal holatga yetmaganligini bildiradi. Masalan Toqisi novcharoq odamning boshi tegadigan eski boloxona guldor sholchalar, chiroyli jihozlar bilan bezalgan edi.

-roq morfemasi o'zi qo'shilib kelgan so'z orqali ifodalangan predmet belgisning oddiy daraja holiga yetmaganligini ko'rsati-shi bilan shunga yaqin ma'no anglatuvchi -ish, -mtir, -imtir (-im-til) morfemalari bilan sinonimik munosabatda bo'la oladi. Qiyos qiling: qoraroq // qoramtir, qizilroq // qizg'ish, sariq-roq II sarg'ish. Ularning farqi shundaki, qiyosiy daraja ko'rsatkichi -roq predmet belgisini boshqa belgilarga qiyosan ko'rsatadi -ish, -mtir, -imtir (-imtil) morfemalari birgina predmet belgisining kamligini, kuchsizligini anglatadi. Bu formalarning o'zi ham o'zaro sinonimik munosabatdadir. Misollar Soyning naryog'ida, uzoqda ko'kimtir (II ko'kish) baland tog'lar osmonning yarmini to'sib turibdi. (A. Serafimovich.)

-roq morfemasi ayrim belgi bildiruvchi analitik formalar bilan ham sinonim bo'la oladi: yaxshiroq// bir oz yaxshi, oqroq// bir oz oq, ko'kroq//nim ko'k kabi.

-roq affiksi ba'zan boshqa vositalar yordamida, ular bilan birlikda predmet belgisining nisbatan ortiqqligini ham ko'rsatadi: Salim Karimga qaraganda kattaroq, Salima Karimaga nisbatan chiroyliroq, Moskva Samarqanddan ko'ra kattaroq kabi. Misollarga e'tibor bering: belgining ortiqqligi -roq morfemasisiz ham seziladi: Salim Karimdan katta; Salima Karimaga nisbatan chiroyli; Moskva Samarqanddan ko'ra katta. Bu o'rinda katta va kichik, chiroyli va xunuk oppozitsiyasi bemalol seziladi. Bu ma'noning anglashilishiga ko'ra, nisbatan, qaraganda kabi ko'makchilar yordam beryapti. Ammo ana shu kattalik, chiroylilik belgisi chog'ishtiriluvchi predmet belgisidan juda katta farq qilib ketmaydi. Bu holatni ifodalashda zndi -roq msirfemasi o'zining to'g'ri funksiyasini — kamlikni ko'rsatish funksiyasini ba-jaraveradi.

Ma'noni kuchaytirish uchun -roq morfemasini olgan so'zlardan oldin yana, yanada, tag'in, yana ham kabi so'zlar keltiriladi. Belgining ortiqqligini ko'rsatish uchun xizmat qiluvchi bunday konstruksiyalar ko'proq og'zaki so'zlashuv nutqi uchun xarakter-lidir.

Predmet belgisining nisbatan ortiqqligi, odatda, belgi bildiruvchi so'zdan oldin eng so'zini keltirish orqali ifodalanadi. Bunda bir xil belgiga ega bo'lgan premdetlardan bittasi ta'kid-lanadi. Misollar: Ahmadjon aka hozir qishlog'imizdagi eng xur-matli, mo'tabar kishilardan. (M. Qoriyev.) Shu-shu bo'ldi-yu, S-lih butunlay o'zgarib, mahalladagi eng odobli, eng tartibli bola bo'lib o'rldi. (M. Koriyev.) Demak, qishloqda hurmatli, mo'tabar kishilar ko'p, ammo Ahmadjon aka ularga nisbatan eng mo'tabari, hurmatlisi. Ikkinchi misolda ham

shu mazmun ifodalangan. Bu ma'no o'zbek tilida yaxshilarning yaxshisi, yaxshilardan yaxshisi tipidagi konstruksiyalar vositasida ham ifodalanadi. Bunday konstruksiyalar bilan orttirma daraja ko'rsatkichi eng sinonimik munosabatga kirishadi va ularning bir o'rnida ikknchisini qo'llash mumkin. Intensivlikni ko'rsatuvchi juft sifatlar ham predmet belgisining ortiqligini ko'rsata oladi: ko'm-ko'k, qip-qizil, sap-sariq, qop-qora kabi. Ma'lum konstruksiyalarda eng so'zi yuqoridagi juft sifatlar (sifatlarning intensiv formalari) bilan almashib ishlatilishi mumkin:

Bir Vatanning o'g'limankim, har taraf gul lola bog',
Qalb ko'ziday eng qorong'i ko'chada porlar chirog'.
Osmonlarning tiniq, ko'm-ko'gini tanlayman.

(G'. G'.)

Misollardagi eng qorong'i birikmasi o'rnida qop-qorong'i so'zini, ko'm-ko'k so'zi o'rnida esa eng ko'k birikmasini qo'llash mumkin. Predmet belgisining ortiqligini ko'rsatuvchi eng so'zi o'ni bilan xuddi shunday vazifa bajaruvchi juda, g'oyat, nihoyat, behad, cheksiz, g'oyatda, nihoyatda kabi so'zlar bilan vazifadoshlik qila oladi. Chog'ishtiring: eng go'zal // juda // g'oyat // nihoyat // behad I/ cheksiz // g'oyatda go'zal. Bu o'rinda ham farq qiyosiylik va bir predmet belgisining qiyos qilinmasdan ortiqligini ko'rsatish masalasi bilan bog'langandir. Bulardan eng, juda so'zi hamma stillar uchun umumiy; g'oyat, behad, cheksiz, g'oyatda kabilar shu vazifada ko'proq badiiy nutq stilida ishlatiladi.

SIFAT YaSOVChI AFFIKSLAR SINONIMIYaSI

Uzbek tilida ko'pgina affikslar bir-biriga yaqin yoki bir xil ma'no anglatuvchi sifatlar yasaydi. Sifat yasovchi affikslar o'zaro bir-birlari bilan hamda boshqa-boshqa gruppadagi sifat yasovchi affikslar bilan ham sinonim bo'la oladi. Masalan, -li affiksi o'zbek tilidagi -siz affiksi va fors-tojik tilidan qabul qilingan be-, no- prefikslarining antonimidir. -siz, be, no-morfemalari predmetning biror belgiga ega emasligini, -li, aksincha, predmetning biror belgiga, xossaga ega ekanligini ko'rsatadi: Qarshidagi uydan muzika sadosi eshitiladi, torlar yoqimli va g'amgin nola qiladi.

Ut yurakli akalar,

Ishda tolmas opalar,

Bizdan sizga bir jahon

Salom, salom, assalom.

Biror belgiga egalik, u belgining mavjudligini ko'rsatish xususiyati -li affiksining bir qancha morfemalar va konstruk-

siyalar bilan sinonimik munosabatga kirishishini ta'minlaydi.

-li ish otlaridan sifat yasaganda, sifatdosh yasovchi -gan af-fiksi bilan sinonim bo'la oladi. -li affiksi vositasida sifat, -gan vositasida sifatdosh yasaladi: bog'lovli // bog'langan, ulchovli //o'lchangan kabi. Bu so'zlar grammatik jihatdan ikki kategoriyaga mansub bo'lsa ham, ma'no yaqinliklari tufayli birini ikkinchisi o'rnida ishlatish mumkin. Bular semantik sino-nnmiyani hosil qiladi.

-li affiksi fe'l negizlaridan sifat yasaganda -digan morfemasi bilan sinonim bo'la oladi: o'qishli kitob // ...o'qiladigan kitob, yuqumli kasal // yuqadigan kasal, yoqimli kuy //yoqadigan kuy, sezilarli og'riq // seziladigan og'riq, ajablanarli ish // ajablanadigan ish, yararli // yaroqli // yaraydigan odam kabi.

Uzbek tilida -li va -lik affikslari ko'pincha farqlanmasdan biri o'rnida ikkinchisi ishlatila beradi. Hatto ba'zi ilmiy asarlarda ham ular sinonimlar sifatida talqin qilinadi. To'g'ri, ba'zi so'zlarda -li va -lik affikslarining biri o'rnida ikkinchisini qo'llash mumkin. Masalan, chiroyli — chiroylik, pul-li — pullik, sezilarli — sezilarlik so'zlari sostavida -li va -lik morfemalarining amlashtirilishi ma'noga salbiy ta'sir qilmaydi. Ammo multiqli kishi, ko'zoynakli odam, samarqandlik odam, toshkentlik chavandoz tipidagi konstruksiyalarda -lik va -li affikslarini almashtirib ishlatish mumkin emas yoki ma'noda tamoman farqlanuvchi telpakli (odam) telpaklik (teri), bo-lali (xotin), bolalik (davrim) so'zlarida ham -li va -lik affikslarining funksiyalari bir-biridan tubdan farq qiladi.

-li affiksi -dor, -kor va ba- morfemalari bilan sinonim sifatida funksiyadoshlik qiladi. Qiyos qiling: aybli // aybdor, gunohli // gunohkor, quvvatli // baquvvat, mazali // bamaza va ho-kazo. Ammo hamma vaqt ham bu morfemalarning biri o'rnida ikkinchisini ishlatib bo'lmaydi. Masalan, vijdonli, kuchli, terakli so'zlarini vijdondor, bavijdon, kuchdor, bakuch, terakdor, baterak tarzida ishlatish mumkin emas.

-li affiksini olib, biror belgiga yoki negiz orqali ifodalangan predmetga ega ekanlikni ko'rsatuvchi so'zlar ayrim analitik formalar bilan almashtirilishi mumkin: mevali // mevasi bor, dog'li S dog'i bor kabi.

Hozirgi o'zbek tilida predmetdagi biron belgining yoki negiz orqali ifodalangan predmetning yo'qligi -siz, be-, no- morfemalari yordamida beriladi. Ular ko'pgina hollarda yaqin yoki o'xshash ma'nolari bilan biri o'rnida ikkinchisi sinonimik vosita sifatida ishlatilishi mumkin. Masalan, umidsiz // noumid, ayov-siz S beayov, gunoxsiz // begunox, shafqatsiz // beshafqat kabi. Lekin ularni doim almashtirib bo'lmaydi. Xuddi shuningdek, be- va no- affikslari o'zaro sinonim bo'la olmaydigan holatlar ham mavjud. Masalan, ayovsiz, shafqatsiz, aybsiz so'zlarida -siz affiksi o'rnida no- prefiksini qo'llash mumkin bo'lmagani kabi notanish, nomard, noqulay, noma'lum so'zlarida no- o'rnida -siz morfemasini qo'llash mumkin emas. Shuningdek, beomon so'zida be-o'rnida -siz morfemasini ishlatish ma'noga salbiy ta'sir qila-di. Yuqorida aytilgan nomard, noma'lum kabi so'zlarda no- bilan be- morfemalari ham funksiyadoshlik qila olmaydi. Til praktikasida bu holatlarning hammasi hisobga olinishi ke-rak.

Sifat yasovchi affikslar sistemasida yana quyidagicha sinonimik holatlar mavjud:

-gi, -ki, -qi affiksining sinonimi: -dagi: pastki // pastdagi, sirtqi // sirtidagi, berigi // beridagi, tonggi // tongdagi, kuzgi // kuzdagi; -lik: yozgi ko'ylak // yozlik ko'ylak, qishki kiyim//qishlik kiyim.

-k (-uk, -ik, -ak), -q (-uq, -iq, -aq). Sinonimi: -gan: siniq// singan, chirik // chirigan, buzuv // buzilgan, titrov ovoz I/ titragan ovoz. Ammo tirik // tirilgan tarzida qo'llash mumkin emas.

-ma. Sinonimi -gan: suzma // suzilgan, ulama soch // ulangan soch kabi.

-kir, -gir, -qir, -g'ir. Sinonimi -ag'on: chopqir // chopag'on, top-qir // topag'on, olg'ir // olag'on kabi.

-mand. Sinonimi -li: Hunarmand // xunarli, davlatmand // davlatli kabi.

-namo. Sinonimlari: -ga o'xshash, -ga o'xshaydigan: olimnamo // olimga o'xshash, Majnunnamo // Majnunga o'xshash. Ba'zan -simon affiksi bilan sinonim bo'ladi: olimnamo // olimsimon.

-simon. Sinonimlari: kabi, -ga, o'xshash, singari: odamsimon // odamga o'xshash, oysimon // oyga o'xshash // oy kabi I/ oy singari; qilichsimon // qilichga o'xshash // qilich kabi // qilich singari va boshqalar.

SON STILISTIKASI

Sonlar gap ichida umumiy miqdorga aniqlik, konkretlik kiritish uchun xizmat qiladi. Bu xususiyati bilan ular sifatlarga o'xshab ketadi. Qiyos qiling: Magazindan olma sotib oldim (achchiq-lsh, shirinmi, oqmi, qizilmi)— qanday olma sotib olinganligi noma'lum // Magazindan qizil olma sotib oldim — qanday olma sotib olinganligi ma'lum. Magazindan ko'p olma sotib oldim (5 tami, 100 tami, necha kilogramm?!—miqdor noma'lum // Magazindan besh kilogramm olma sotib oldim — miqdor ma'lum.

Sonlar hamma vaqt ham konkret miqdorni ko'rsatavermaydi, balki ayrim affikslar va ba'zi bir so'zlar bilan birgalikda noaniqlik ma'nosini ham bildiradi. Bu ko'proq bir soniga te-gishlidir. Masalan,

Yuz ochganda ayoz bir sahar,

Xayr!— deb soching silaganlarim,

Senga toqat tilaganlarim. (Mirtemir.)

Ko'chada sizni bir kishi chaqiryapti. (Og'zaki nutq.) Birinchi misolda ayoz kunlarining qaysidir sahari, ikkinchi misolda chaqi-

rayotgan tinglovchiga notanish kishi ifodalangan. Bu o'rinda bir so'zi (son) hech qanday qo'shimcha olmagan holda noaniqlikni ko'rsatyapti. Quyidagi misollarda boshqacha hol: Biron narsani jin-girlatib yoki biror yangilik ko'rsatib, uning fikrini bo'lsangiz bas... (P. T.) Elmurod bir-ikkita jumboqni bilar, ammo buni si-ra eshitmagan edi. (P. T.) U birdan shoshib qoldi. (P. T.)

Bir talay, bir oz, baribir kabi (birikmalarda bir so'zining ma'nosi birikma (shartli ravishda) ma'nosiga tamoman singib ketadi, u o'zining son ko'rsatish xususiyatini yo'qotadi, ya'ni leksikalizatsiyalashadi. Bunday xususiyat, ayniqsa bir talay tipli birikmada yaqqol ko'zga tashlanadi: Eshonning bulardan boshqa yana bir talay qora mollari, qo'y va echkilari bo'lib, ...muridlar qo'-liga topshirib qo'ygan edi. (P. T.) Misoldagi bir talay birikmasini talay shaklida ishlatlsa ham bo'ladi. Har nkkala holatda ham noaniqlik ma'nosn anglashiladi. Bir talay birikmasi sostavidagi bir so'zi umuman sonlik xususiyatini yo'qotgan, u konkret miqdorni ko'rsata olmaydi. Agar shu birikma sostavida bir so'zi konkret miqdorni bildirish uchun ishlatilganda, birikmaning ikki talay, besh talay tipidagi ko'rinishlari ham bo'lar edi. Tilda esa bunday birikmalar yo'q.

Hozirgi o'zbek tilida dona sonlar sanoq sonlarga -ta affiksini qo'shish yo'li bilan hosil qilinadi va donalab sanash mumkin bo'lgan predmetlar miqdorini ko'rsatadi: o'nta daftar, beshta daraxt kabi. Xuddi shu ma'noda dona, nafar, bosh so'zlari -ta affiksi bilan sinonimdir. Bir sonidan katta sonlarning hammasi, odatda, ko'plik tushunchasini bildiradi. Ko'plikni ko'rsatuvchi son (masalan, uch, besh, yuz, bir ming kabi) tomonidan aniqlangan ot (aniqlanmish) ko'plikning morfologik ko'rsatkichi -lar ni qabul qila olmaydi. Agar tilda bunday holatlar, ya'ni birdan ortiqlikni ko'rsatuvchi miqdor ravishlari va sonlar tomonidan aniqlangan ot ko'plik affiksi bilan ishlatilgan holatlar uchrasa, bu hozirgi o'zbek adabiy tili normasidan ma'lum darajada chekinish deb qaralishi kerak. Ammo o'n uchlar, o'nlar kabilarni bu konstruksiya bilan aralashtirilmaslik kerak, ya'ni o'n uchlar deyish (bu ham shartli) mumkin, o'n uch odamlar deyish mumkin emas, o'nlar ta-shabbusi deyish mumkin, o'n ishchilar tashabbusi deyish mumkin emas.

Son o'zidan avval aniqlovchi qabul qilmaydi, chunki sonlarning o'zi gapda aniqlovchi funksiyasini o'taydi. Ammo tilda ba'zan-ba'zan Katta to'rt baho qo'yaman kabi uslubiy noto'g'ri (chunki 4 katta bo'lsa ham, kichik bo'lsa ham u 4, hech vaqt 5 emas) gaplar, Yaxshi o'nta qovun oldim tipidagi jumlar uchraydi. Ikkinchi gapda yaxshi sonning aniqlovchisi emas, balki u qovunning aniqlovchisi (yaxshi qovun oldim).

Uzbek tilida sostavli sonlar komponentlarining qat'iy tartibga asoslanganligi ham sonning stilistik xususiyatlaridan biridir. Chunki sostavli sonlar komponentlari tartibining o'zgarishi mantiqsizlikni keltirib chiqaradi va hozirgi o'zbek adabiy tili normasining buzilishiga sabab bo'ladi. Misollarni q i y o s-l a n g: o'n bir, to'qson besh, bir ming to'qqiz yuz yetmish yettiTSbir o'n, besh to'qson, yetti yetmish yuz to'qqiz ming bir. Birinchi qator bplan ikkinchi qator chog'ishtirilsa, ularning ma'nosida tamoman yaqinlik sezilmaydi, ular tamoman boshqa miqdorni bildiradi.

Uchinchi misoldan umuman biror ma'noni uqib olish mumkin emas. Bu xususiyat juft sonlar uchun ham xos. Juft sonlarda avval kichik sonlar, so'ngra katta sonlar keltiriladi: besh-olti, yetti-sakkiz, o'n-o'n besh kabi. Ba'zan Besh-to'rt kishi yig'ildi tipida katta miqdor bildiruvchi so'z avval keltiriladi. Bunday paytda so'zlovchining tasvirlanayotgan narsaga salbiy munosabati, unga loqayd qarashi ifodalanadi.

Jamlash ma'nosini bildiruvchi -ov va -ala affikslari o'zaro grammatik sinonimlardir. -ov ko'proq og'zaki nutqda, -ala badiiy nutqda qo'llanishi bilan farq qiladi. Misollar: Ikkalamiz bir qishloqning bolasi. (Qo'shiqdan.) Birov qo'rqsang ikkov kel, ikkov qo'rqsang o'nov kel, O'nov qo'rqsang baring kel. («Shirin bilan Shakar» dostoni.)

-ov, -ala affikslari qanday o'zak yoki negizga qo'shilib kela olishi bilan ham farq qiladi. Masalan, -ov affiksi bir soniga ham qo'shila oladi (birov qo'rqsang) va bunda jamlash emas, aj-ratish ma'nosini anglatadi. -ala affiksi esa bir soniga qo'shila olmaydi. Chunki u ajratib ko'rsatish ma'nosiga ega emas. Unda jamlash ma'nosi kuchli. Bundan tashqari, -ov affiksi o'n soniga ham qo'shila oladi, -ala esa bunday xususiyatga ega emas. Q i yo slang: Unov kel (mumkin)—o'nala kel (?!). Qirq, ellik sonlariga -ov qo'shilganda, albatta undan so'ng egalik affiksi qo'shiladi: qirqoving kel kabi. Bu sonlar ham -ala affiksini qabul qilmaydi. Olti soni ham -ala affiksi bilan qo'llanmaydi.

Hozirgi o'zbek tilida -cha va -lab affikslari sonlarga qo'shilib, chama sonlarni hosil qiladi. Bular ham bir-biri bilan grammatik sinonimlar hisoblanadi va ular nimani chamalash va qanday chamalash ma'nolarini ifodalashda bir-biridan farqli ottenkalarga ega.

-cha affiksi sonlarga qo'shilib kelganda, chamalash ottenkasi kuchli bo'ladi va ko'proq og'zaki nutqda qo'llaniladi, -lab affiksida chamalash ottenkasi bilan birga tantanavorlik ottenkasi kuchliroq hamda u adabiy til uchun xarakterlidir. Hatto bularga -lar, -larcha affikslari, o'n uch — o'n to'rt tipidagi konstruksiyalar ham grammatik sinonim hisoblanadi. Lekin qaysi biri qayerda qo'llanishi bilan ular bir-birlaridan farq qiladi.

OLMOSH STILISTIKASI

So'zlovchi yoki yozuvchi biror shaxs, predmet, belgi, miqdor haqida yozar yoki gapirar ekan, shu predmet, hodisa, miqdor yoki belgining nomini bildiruvchi so'zni takrorlay berishdan qochadi. Ularni ma'nodosh boshqa so'zlar bilan almashtiradi. Shunday hollarda ko'pincha ot, sifat, sonlarning ekvivalenti sifatida olmoshlar qo'llaniladi.

Bundan tashqari, olmoshlar stilistik tanlash va byri o'rnida ikkinchisini qo'llash imkoniyatlariga ega. Masalan, belgilash ol-moshlari: hamma, barcha, bari kabi har, har kim, har narsa, har qanday olmoshlari ham umumni, umumiylikni bildiradi. Shu sababli ko'pincha bu olmoshlarning biri o'rnida ikkinchisini qo'llash

mumkin: Dunyoda xar kim ham bitta-ikkita narsadan qo'rqsa kerak. (77. Q.) Har narsa o'z vaqtida yarashadi. («Mushtum»). Mi-sollardagi har kim, har narsa olmoshlari o'rnida, umumiy fikrga salbiy ta'sir yetkazmagan holda, hamma olmoshini qo'llash mumkin.

Hozirgi o'zbek tilida kishilik olmoshlari birlik va ko'plik sonlarda (men — biz, sen — siz, u — ular) ishlatiladi. Men, sen, u olmoshlari yakka shaxslarni ko'rsatish uchun xizmat qiladi. Bu olmoshlarning ko'plikda qo'llanishi oddiy kuzatuvchi uchun uncha sezilarli bo'lmagan turli xil ma'no nozikliklarini keltirib chiqaradi. Shu sababli ham ularning biz, siz formalarini yoki bizlar, sizlar, senlar formalarini befarq ravishda qo'llay berish mumkin emas. Masalan, birgina shaxs o'ziga nisbatan biz olmoshidan foydalanishi mumkin bo'lgani holda bizlar olmoshidan foydalana olmaydi. Umuman, men olmoshi hozirgi o'zbek tilida birlik formada doim yakka shaxsga nisbatan ishlatiladi va ko'plikning morfologik ko'rsatkichi -lar ni qabul qila olmaydi. Bu esa uning o'z xususiyati, tabiatidan kelib chiqadi. Chunki ayni bir vaqtning o'zida makon va zamonda tinglovchiga nisbatan bir nechta so'zlovchining bo'lishi normal hol emas. Ana shu holat men olmoshining grammatik birlik formada bo'lishini talab qiladi. Agar so'zlovchi bir necha kishi nomidan so'zlasa, unda men olmoshining ko'pligi biz dan foydalanadi. Ammo biz bir nechta menga teng emas, balki u (biz) men + sen+u yoki men + sen lardan tashkil topgan bo'ladi. Masalan, Gruppamizda 25 student o'qiydi. Biz gruppaning aktivistlari gapidagi biz olmoshi bir nechta men ga teng emas. Agar so'zlovchi men ni Qarim deb olsak, aktivistlar bir nechta Karim emas, balki uning yonida Salim, Halim, Zebo, Gulilar ham bo'lishi mumkin. Demak, biz olmoshi ifodalagan ko'plik ot ifodalagan ko'plikdan farq qiladi. Ya'ni kitoblar oldim gapida u bir nomdagi kitobning bir necha nusxasini ham, turli nomdagi kitoblarning birdan ortiqligini ham ko'rsatishi mumkin.

Shunday qilib, biz birinchi shaxsdagi so'zlovchining ko'pligini ifodalayotganday bo'lib ko'rinsada, u ko'plik so'zlovchi shaxsning ko'pligini ko'rsatmaydi, balki bu ko'plik birdan ortiq shaxslar-dan tashkil topgan bo'ladi.

Biz olmoshi men o'rnida har xil stilda har xil maqsadda ishlatiladi. Masalan, u ilmiy stilda ko'proq kamtarinlik ma'nosida, og'zaki so'zlashuv nutqida esa faxrlanish, katta ketish ma'nolarini bildirish uchun qo'llaniladi: Biz o'z asarimizda yirik olimlar fikrlariga asoslanamiz (kamtarinlik). Bizning o'g'ilchamiz katta bo'lib qoldi (faxrlanish). Biz o'z ishimizni bilib qilamiz, sizning maslahatingizga zor emasmiz (manmanlik) kabi.

Xuddi shunday katta ketish, manmanlik ma'nosini ba'zan kontekstda men olmoshi ham ko'rsata oladi:

...yo'l bo'yidagi teraklarni ko'rdingmi?

Dexqonboy: Ko'rdim...

M av lon (kerilib): Men ekanman! Tutni ko'rdingmi?

Dehqonboy: Yaxshi o'sibdi.

M a v lon: Men ekkanman. (A. g\.)

Ba'zan biz olmoshi ko'plik affiksi -lar bilan qo'llanadi: Bizlar yangi, siz eski. Bu esa biz olmoshi sostavida qotgan -z ning -lar bilan teng emasligini ko'rsatadi: biz//bizlar. Biz olmoshidagi -z so'zlovchining birdan ortiqligini ko'rsatmaydi. Bu esa biz olmoshiga -lar affiksining qo'shilib ishlatilishiga imkon beradi. Bizlar formasida shaxslarning miqdori biz formasiga nisbatan aniqroq.

Sen olmoshi va uning ko'plik formasi ham ba'zi bir xususiyatlari bilan men olmoshiga o'xshab ketadi. Ya'ni sen olmoshi, odatda, tinglovchi shaxsning birligini, siz esa uning ko'pligini ko'rsatadi.

Sen olmoshidan so'zlovchi o'zidan yosh jihatdan kichik shaxsga murojaat qilganda foydalanadi. Uzidan katta yoshdagi shaxsga nisbatan ishlatilganda hurmatsizlik, loqaydlik ma'nolarini ifodalaydi. Ammo poeziyada ko'zda tutilgan shaxsga o'ta hurmat bildirilganda ham ko'pincha shu formaga (senta) murojaat qilinadi. Masalan:

Ona, sening yoshliging g'am bilan o'tgan,

Qayg'u, azob, uqubat yoqangdan tutgan.

Mash'alday yoritding zulmat jahonni,

Sen osha porlagan inson dahosin. (G'. G'.)

Birinchi misolda sen olmoshi ona o'rnida, ikkinchisida esa doxolar o'rnida qo'llangan.

Sen olmoshi ham men olmoshi kabi -lar affiksini qabul qilmaydi. So'zlovchi nutq qaratilgan shaxsga hurmatsizlik bilan muomala qilganda, undan o'zini yuqori tutganda, ba'zan sen ol-moshi -lar affiksi bilan ishlatiladi: Endi senlarning kasofatingga men qolamanmi? (M. Ismoilov.) Bo'shat endi, senlar ham bo'y yetib o'tirgan kelingni badnom qilma. (M. Avezov.) Senlar-ga nima kerak? Mana qaytimgini ol-da, jo'nab qol, tinch qo'y meni. (N. Suleykuri.) Bu gaplardagi sen olmoshining ma'nosi ko'plik formadagi siz olmoshining ma'nosiga ancha yaqin. Ya'ni har ikki holatda ham (senlar va siz) II shaxsning ko'pligi ko'rsatilmaydi. Xuddi siz o'z ichiga II va III shaxsni ola olgani kabi, senlar olmoshida ham xuddi shunday inklyuziv holatni (tinglov-chilarni II va III shaxsga bo'lish mumkin: Senlar kimlar? Senlar = sen + sen+u) ko'rsatish mumkin.

Ko'plik tushunchasini ifodalash xususiyatlari bilan siz, sizlar, senlar formalari bir-birlariga o'xshaydi. Biroq siz va sizlar formalari ko'plikni ko'rsatish bilan birga II shaxsga nisbatan hurmat ottenkasiga ham ega bo'ladi. Senlar formasida esa, aksincha, nutq qaratilgan shaxsga hurmatsizlik, mensimay qarash, salbiy baho ottenkasi mavjud bo'ladi. Men va sen olmosh-lari, asosan, shaxslarga nisbatan ishlatiladi. Poetika va publitsistikada jonlantirish priyomi qo'llanilganda

men, sen olmoshlari jonsiz predmetlarni ko'rsatadi.

U olmoshi men, sen olmoshlaridan farq qiladi. U olmoshining qo'llanish doirasi boshqa shaxs olmoshlariga qaraganda keng: u jonli predmetlarga nisbatan ham, jonsiz predmetlarga nisbatan ham ishlatila beradi. III shaxs kishilik olmoshi u formal jihatdan ko'rsatish olmoshi u bilan bir xil.

Ular olmoshi uchinchi shaxsning ko'pligini ko'rsatadi, birgina shaxsga nisbatan ishlatilganda esa hurmat ma'nosini ifodalaydi: Dadam zavodda ishlaydilar. Ular kommunistik mehnat bri-gadasining a'zosi.

Kishilik olmoshi u tarixan ul formasida ishlatilgan. Hozir ham ba'zan tarixiy temada yozilgan prozaik asarlar tilida, poetik nutqda u olmoshi ul formasida ishlatiladi.

Zinaga tashakkur aytdim dilimdan,

Ajab xolisona ish qilibdur ul. (A. Shukuhiy.)

Sen ishlagan kolxozda ul ham,

Topdi hamma dardiga malham. (H. O.)

Tilshunoslikda egalik affikslari kishilik olmoshlarndan kelib chiqqan degan fikr mavjud. Ko'p hollarda ular bir-birlariga teng keladi. (Bu haqda egalik kategoriyasi stilistikasida gapirilgan.)

Ko'rsatish olmoshlari: u, bu, shu, o'sha predmet yoki voqeani ajratib, ta'kidlab ko'rsatish uchun xizmat qiladi. Ular shu ma'-nosi bilan bir-biriga yaqinlashsa, ba'zi ma'no ottenkalari ayrim qirralari bilan farq qiladi. Masalan, u olmoshi predmetning so'zlovchidan bu va shu olmoshlari ko'rsatgan masofaga nisbatan uzoqroq masofada turganligini yoki voqeaning nutq momentiga nisbatan ancha ilgari yuz berganligini ko'rsatadi: U yerga (bu yerga emas) tunagani borasan-da! Xuddi shunday bo'ldi. (G. Amarasekara.) Eslangiz u kunlar qanday beg'ubor! She'r aytib yayradik doim ikkovlon. (A. Shukuhiy.)

U olmoshi kontekst bilan bog'liq ravishda masofadan ko'ra, umumiy ta'kidni ko'rsatish uchun xizmat qiladi:

Kitobdan yaxshiroq do'st yo'q jahonda,

G'amxo'ring bo'lg'ay u g'amli zamonda.

U bilan qol tanho, hech bermas ozor,

Joningga yuz rohat beradi takror. (Jomiy.)

U Abayning armonidir nozlanib turgan,

U Olatov suluvining maqomi erur. (A. O.)

Bu olmoshi u olmoshiga niobatan yaqinroqdagi predmet yoki nutq momentiga nisbatan ancha yaqinda bo'lib o'tgan voqeani ko'rsatadi. Misollar: Ha, olloga yana bir bor shukurki, bu maskanda unga shunday ulkan muhabbat ato qildim. (O. Ye.) Yo'q, bu safar men sizlarga registrator haqida hikoya qilmoqchi emasman, aziz-lar. (3. Ribak.) Aytilgan ma'no ayniqsa mana bu misolda yaqqol ko'rinadi: U xona ichida u yoqdan bu yoqqa yurdi. (M. Sholoxov.)

Ba'zan bu olmoshi masofa emas, umuman predmet yoki voqea-hodisani ko'rsatishi mumkin, qiyos qiling: Xalqimni sevaman, bu sevgi menga Jondan aziz desam, xato qilmasdim. (U.)

Ajib bir osmon bu, osmon tagida, Yulduzlar qo'l cho'zsang shundoq yetgudek. Ona tabiatning xush san'ati bu, Inson va yulduzlar saltanati bu. (A. O.)

Bu olmoshining ma'nosi ayrim o'rinlarda shu olmoshining ma'nosiga yaqinlashadi. Shunday hollarda ularning biri o'rnida ikkinchisini qo'llash ma'noga ko'p ta'sir qilmaydi. Misollarni chog'ishtiring: Bu yoqqa olavering, u yog'i bir gap bo'lar. (F. Musa-jonov.) // shu yoqqa. Bu yerga butun qishloq yig'ilgan, lekin ayollar yo'q edi. (M. Sholoxov.) // butun qishloq shu yerga yig'ilgan, lekin ayollar yo'q edi. Polk Yekaterinoslavdan bu yerga har yer-har yerdan bolsheviklar halqasini yorib, janglar bilan yetib kelgandi. (M. Sholoxov.) To'xtang! Bu to'yni komsomol to'yiga aylantirib yuborsak, nima deysiz. (Ye. Sh.)

Shu olmoshn o'ziga xos xususiyatlari, ma'no nozikliklari bi-*lan* u, bu olmoshlaridan ma'lum darajada farq qiladi. IIIu olmoshi ham, bu olmoshi ham ayirish, chegaralash ma'nosida ishla-tiladi, faqat bu ma'no shu olmoshida bir oz kuchliroq. Ayniqsa, ko'rsatilayotgan narsa alohida ta'kidlanganda doim shu olmoshi qo'llaniladi. Misollar: Yo'lda faqat shu to'g'rida o'ylab, ko'ngli g'ash bo'lib kelgandi. (O. Ye.)

Ikkimiz ham bir sevgi bilan

Shu Vatanga qo'yganmiz ko'ngil. (S. Yesenin.)

Ukam, yovuzlarning topganlari shu, Uz o'g'lin it bo'lib qopganlari shu.

Uz qalbin kafanlab yopganlari shu,

Mo'min Mirzo ukam, seni o'ldirdilar. (A. O.)

Bu va shu olmoshlarining ma'nodagi farqi mana bu misolda yana ham yaqqolroq seziladi. Qiyoslang: Bu artist Hamza tea-tri sahnasida Alisher Navoiy rolini ijro etgan // Hamza teatri sahnasida Alisher Navoiy rolini ijro etgan artist shu. Bi-rinchi gapda artistning Hamza teatrda A. Navoiy rolini ijro etganligidan xabar beriladi. Unda bu teatr sahnasida A. Navoiy rolini faqat ko'rsatilayotgan shaxs ijro etganmi yoki boshqa kishilar ham ijro etganmi degan masala ochiq ifodalanmagan. Ikkinchi gapda esa Hamza teatri sahnasida A. Navoiy rolini faqat shu artist (boshqa artist emas) ijro etganligi alohida ta'kidlanadi.

Bu va shu olmoshlarining farqi ularning vaqt bildiruvchi ba'zi so'zlar bilan munosabatida ham ko'rinadi. Masalan, o'zbek tilida lahza, on, dam kabi so'zlar chegaralangan, konkret vaqtni bildiradi. Bu shu olmoshi uchun xos bo'lgan kuchli chegaralash, ajratish ma'nolariga mos tushadi. Shuning uchun ham bu so'zlar ifodalaydigan chegaralangan vaqtni ko'rsatishda (yoki unga ishora qilishda) doim shu olmoshidan foydalaniladi, ya'ni ko'rsatilgan so'zlar, asosan shu olmoshi bilan birga qo'llanadi. Bu olmoshida chegaralash, ajratib ko'rsatish, ta'kidlash ottenkasi ancha kuchsiz bo'lganligi uchun lahza, on, dam tipidagi so'zlar bu olmoshi bilan, odatda, qo'llanmaydi: Lekin, ayt, bizlarning shaharda bu chog' qolganmi, diyonat, insof, rioya... (Dante.) tipidagi holatlar juda ham kam uchraydi.

Ergash gapli qo'shma gaplarda ergash gapning biror bo'lagi bildirgan narsaning bosh gapning biror bo'lagi orqali ifodalangan narsa bilan aynan bir xil ekanligini (boshqacha emasligini) te'kidlashda bosh gap tarkibida hamma vaqt shu olmoshi ishlatiladi va bu normal holat hisoblanadi. Bunday paytda bu olmoshi qo'llanilmaydi. Misollar: Gapim shuki, kolxozimizda paxta ishiga yaraydigan odamlar qanchaligi o'zlaringga ma'lum. (A. Q.) Bu masalaning muhim tomoni shuki, siz Teshaboy bilan munosabatingizni yaxshilashingiz kerak. (M. Ismoilov.)

Ko'rinadiki, bu va shu olmoshlari bir-biridan masofa bilan bog'liqlik xususiyatidan ko'ra, ko'proq shaxs, narsa-predmet yoki voqeani boshqa predmet va hodisalardan ajratib, chegaralab ko'r-satish, kuchli darajada ta'kidlab ko'rsatish xususiyati bilan sezilarli farq qiladi. Biroq har ikki holatda ham bu va shu olmoshlarini bir-biri o'rnida ishlatish ancha qiyin. Quyidagi misollarda ham shu olmoshi o'rnida bu olmoshini qo'llash imkoniyati borga o'xshab ko'rinib-da, ularni almashtirish mumkin emas: Shu payt Lida xarakteristikalarini olib kirdi. (3. Ribak.) Shu kunlarda havo isib ketdi-da. (F. Musajonov.)

Mabodo bir o'ychan ma'yus qiz

Shu tomonga o'tmadimi, ayt. (S. Yesenin.)

Qalbmida goh g'urur, gohida farah,

Shu uchqur dunyoni turfa ko'ribman. (A. O.)

Shu olmoshi ko'rsatilayotgan shaxs, predmet yoki voqeaning so'zlovchi va tinglovchiga oldindan ma'lum ekanligini ifodalaydi. Shu vazifada shu olmoshi ko'proq og'zaki so'zlashuv nutqida, o'sha olmoshi adabiy stilning boshqa ko'rinishlarida qo'llaniladi: Shu kitobda o'qib chiqdim o'sha kitobda o'qidim.

Usha olmoshi predmet yoki voqea-hodisa oralig'ining so'zlovchiga nisbatan uzoq bo'lishini ko'rsatish bilan u (ko'rsatish) olmoshiga yaqin turadi. Usha yili qushlar juda ko'p uchib o'tgan edi. (M. Sho-loxov.) Urni bilan ular bir-biriga sinonimik munosabatda bo'lishi ham mumkin: Esimda o'sha damlar, Uzi uchar gilam-lar. (H. O.) S Esimda u damlar... Lekin o'sha olmoshi ba'zi xususiyatlari bilan u olmoshidan tamoman farq qiladi. Masalan, o'sha olmoshi har doim so'zlovchiga ilgaridan ma'lum bo'lgan, nutq. momentigacha tanishilgan predmet

yoki voqea-hodisani ko'rsatadi, u olmoshi esa bunday xususiyatga ega emas. Ikkinchidan, o'sha olmoshida ta'kidlash ottenkasi kuchli, u olmoshi uchun ta'kidlash xarakterli emas. Uchinchidan, o'sha olmoshi aynan, xuddi, naq kabi so'zlar bilan birga kelib, o'xshatish vositasi rolini bajara oladi. U olmoshi esa bunday funksiyada qo'llanmaydi.

Demak, o'sha olmoshi so'zlovchiga nisbatan uzoq masofani ko'rsatishi bilan u olmoshiga o'xshasa (Usha joyga ko'chib o'ta qolmay-sanmi deb qoldi (G. Amarasekara.), ta'kidlash, ajratib ko'r-satishning kuchliligi bilan shu olmoshiga yaqinlashadi (Faqat o'sha qizni deyman! (3. Ribak.) Shu xususiyatlariga ko'ra bu olmoshidan tamoman farq qiladi.

Ko'rsatish olmoshlariga mana, ana so'zlari qo'shib, mana bu, mana shu, ana u, ana shu tipidagi sostavli olmoshlarni hosil qiladi. Ba'zan esa mana, ana so'zlari ko'rsatish olmoshi vazifasida keladi. Shu vazifada kelib, -lar affiksini olganda, hurmat ma'nosi anglashiladi:

Brigadir akam qanilar?

Manalar,— dedi zveno boshlig'i qorachadan kelgan bir yigitni ko'rsatib. («Mushtum».)

Ko'rsatish olmoshlari ba'zi tarixiy temada yozilgan asarlarda, poetik nutqda ul, bul, shul, o'ishl formalarida qo'llaniladi: Qani endi, bul jadvallar uning qo'l ostida bo'lsa?.. (0. yo.)

So'roq olmoshining turli xil ko'rinishlari (kim, nima, qana-qa, qanday, qaysi, qancha, qachon, necha, qayer) kontekst bilan bog'liq ravishda ko'pincha biri o'rnida ikkinchisi sinonim sifatida ishlatiladi.

Hozirgi o'zbek tilida so'roq olmoshlaridan kim shaxslarga nisbatan, nima predmetlarga nisbatan ishlatilishi normal holat hksoblanadi. Kim olmoshi o'rnida nima olmoshining ishlatilishi og'zaki so'zlashuv nutqi uchun xos hodisadir. Masalan, og'zaki so'z-lashuv nutqida ko'pincha Bu kishi sizga kim bo'ladi yoki Bu kishi sizning kimingiz bo'ladi deyish o'rniga Bu kishi sizga nima bo'-ladi, Bu kishi sizning nimangiz bo'ladi tarzida qo'llaniladi.

Bunday holatning badiiy asar tilida uchrashi, bir tomondan, og'zaki so'zlashuv nutqi elementlari sifatida izohlansa, ikkinchi tomondan, u badiiy asar tilining kamchiligi sifatida ham qaralishi kerak. Chunki yozuvchilar adabiy tilni pishituvchi, silliq-lashtiruvchilardir. Misollar:— Umri sizning nimangiz bo'la-di? — deb so'radi. (A. Q.) Bu savolga tinglovchi «Umri mening ro'molim bo'ladi, ko'zim bo'ladi» tarzida javab qaytarishi mumkin. Ammo M. Qoriyevning «Oydin kechalar» asaridan keltirilgan mana bu so'roq gapga bunday javob berish mumkin emas: Bemorning kimi bo'lasan? (Akasi, ukasi kabi javob beriladi.)

Demak, kim va nima olmoshlarining sinonim sifatida almashtirilishi to'g'ri emas.

Eski o'zbek tilida, ba'zan hozir ham badiiy asarlar tilida nima olmoshi ne, na1 formalarida ishlatiladi: Senga endi ne-lar aytayin, Qaydan boshlab, qaydan qaytayin. (H. O.)

To'g'ri yo'lda qaltirasa dorboz oyog'i,

Ne bo'ladi holi dorga chiqqan chog'i. (X. Dehlaviy.)

Mehnatning mahsuli ne jamarg'ang bor,

Bu Vatan kuchiga sen qo'shgan hissang. (G'. G'.)

Kelmadi... Na qilarimni bilmay, yotoqxonaga ma'yus yo'l oldim.

(M. Qoriyev.) Nima olmoshi belgi haqidagi so'roqni ifodalaganda, belgi haqidagi so'roqni bildiruvchi qanday so'roq olmoshi bilan sinonimik munosabatga kirishishi mumkin: Mahallaning imomi shu paytda eshigimdan o'tib qolsa, nima degan odam bo'laman. (O.)

Ayniqsa, nima olmoshi nechuk formasi anglatgan ma'nosi bilan qanday olmoshiga sinonim bo'ladi. Qanday neytral qimmatga, nechuk ekspressivlikka ega bo'lishi bilan farq qiladi, nechuk ko'proq poetik nutqda, ba'zan tarixiy temada yozilgan asarlar tilida ishlatiladi:— Nechuk esingizdan chiqdi, enajon. (O. Ye.) // Qanday esingizdan chiqdi, enajon.

Qo'lingga solishar tilladan zanjir,

Shahzoda yigitga hurmat bu, axir!

Bu nechuk qabohat, bu nechuk taqdir,

Mo'min Mirzo ukam, seni o'ldirdilar. (A. O.)

Nima olmoshi (na formasida) aylamoq fe'li bilan birikib, naylayin tarzida qo'llanganda, qanday olmoshining qilmoq fe'li bilan birikkan formasi bilan sinonim bo'la oladi. Vasl umidi birla dildan yuksalar doim navo, Naylayin, sozim chalib, qilsam-da izhor bilmading. (M. Boboyev.) // qanday qilayin.

Nima olmoshining ne formasi -ga morfemasi bilan kelib, sababni aniqlash uchun ishlatilganda, (nega) nima uchun, nima sababli birikmalari bilan almashtirilishi mumkin: Har qalay ilgari bunchalik emas edi-yu, nega bunday qildi?— degan fikr o'tdi. (O. Ye.) Sen sababini ayt, nega ketishimiz kerak? — deb so'-radi Xristoniya. (M. Sholoxov.)

Xuddi shunday ma'no nima so'roq olmoshi hamda uchun ko'makchisining qisqarishi va ularning qo'shilishidan hosil bo'lgan ne-

1 O'zbek tili Xorazm dialektida ham - na formasi qo'llaniladi. chuk formasi orqali ham ifodalanadi. Ammo u ko'proq ioeitik nutq uchun xarakterli. Misollar:

Nechun meni faqat shu zulmat payti
Quchib ardoqlaysan, nozik farishtam.
Samoviy ko'zlaring sachratib uchqun
Nechun tikiladi faqat o'shanda. (A. O.)

Nechun u berahm dilbar singari
Oshiqlar diydasin etadi giryon. (A. Shukuhiy.)

Nima olmoshi gapda takrorlanib ishlatilganda, uning ikkinchi komponenti - lar morfemasi bilan sinonim bo'la oladi: Nima, nima olding ---- nimalar olding?: — Nima, nima deyapsan, bu qanaqasi bo'ldi, kim shunaqa qildi? (M. Qoriyev.) // nimalar deyap-san?

Belgi haqidagi so'roqni bildiruvchi qanday, qanaqa, qalay so'roq olmoshlarini, ba'zan esa ko'proq payt va o'rin uchun ishla-tiladigan qay olmoshini bir-birlari bilan sinonim sifatida almashtirib ishlatish mumkin. Lekin bu doimiy hodisa emas. Chun-ki qalay, qay so'roq olmoshlari ko'proq og'zaki so'zlashuv va poetik nutq uchun xarakterli. Hatto ba'zan qanday va qanaqa olmosh-larini ham almashtirib qo'llash mumkin bo'lmaydi. Misollar: Qiziq! Nima qilish kerak? Qanday o'zgartirish mumkin. (O. Ye.) // qanaqa mumkin, qalay, qay mumkin emas. Bilmam, qanday ayol bo'lgan Alisherning onasi. (A. O.) // qanaqa mumkin, qalay mumkin emas. Qanday endi, ishlar yaxshimi // qanaqa mumkin emas, qalay esa mumkin.

Ko'pincha qanday olmoshi o'rnida qalay, qay olmoshlarini ishlatib bo'lmaydi. Ammo qalay va qay olmoshlari o'rnida hamma vaqt qanday olmoshini ishlatish mumkiya, qanaqa olmoshini ishlatish esa doim to'g'ri kelavermaydi. Misollar: Hay, xotining qalay? (M. Gor'kiy.) //qaiday mumkin, qanaqa mumkin emas. Salom, kampir, Ahvollar salay? (S. Yesenin.) // qanday mumkin, qanaqa mumkin emas. Yoki: Xo'sh, qani aytinglar: ishlaringiz kay ahvolda? (M. Sholoxov.) Endi kolxoz ommasining ko'ziga qay yuz bilan qaraysan, Nagul'nov? (M. Sholoxov.)

Qay olmoshi har doim predmetning tusi, hajmi haqidagi ma'noni ifodalovchi so'zlar bilan birga keladi: qay darajada, qay ahvolda, qay tusda kabi. Gap qanday belgi haqida borayotgani aniq bo'lmasa, qay olmoshi qo'llanmaydi, balki qanday ol-moshi qo'llanadi. (Yuqoridagi misollarga e'tibor bering.) Masalan: qanday odam, qanday joy deyish mumkin, qay odam, qay joy deyish mumkin emas. Qay olmoshi predmetning rangi, hajmi kabi belgilari haqida so'roqni bildirishi bilan qanday va qanaqa olmoshlarining sinonimi bo'la oladi. Ammo uning bu ma'-noda ishlatilishi qanday olmoshiga nisbatan cheklangan. Qay olmoshi harakatning belgisi haqidagi so'roqni ham bildirishi mumkin. Bu ma'noda ham harakatning

belgisi haqidagi so'roqni ifodalashda qo'llanuvchi qanaqa, qanday, qalay olmoshlaridan

ba'zi bir xususiyatlari bilan farqlanadi. Ya'ni bunday sharoitlarda qay olmoshi, odatda, harakatning konkret belgisini bildiruvchi so'zlar bilan birga ishlatiladi. Qanday, qanaqa, qalay olmoshlari esa bunday so'zlarsiz ham ishlatila beradi. Masalan, qanday ishlayapti, qalay ishlayapti deyish mumkin, qay ishlayapti deb bo'lmaydi. Bunday vaqtlarda qay tarzda, qay darajada ishlayapti deyiladi.

Qay olmoshi harakatning bajarilish o'rni yoki vaqtini aniqlash uchun ishlatilganda ham, qanday, qanaqa, qalay olmoshlari bilan sinonim bo'la olmaydi. Chunki keyingi uch olmosh harakatning o'rni va vaqtini ko'rsata olmaydi. Ular yer, vaqt so'zlari bilan qo'llangandagina o'rin va vaqtni ko'rsatadi. Qay olmoshi esa bu so'zlarsiz ham shu ma'noni ifodalaydi. Misollar: Etiging qani?— dedi kampir.— Kiyimlaring kayda, shim qani u irtiq indamadi. (X 0.) Qaylarga boray, Qaylarda turay, Botinkangiz bo'lmasa, Qo'qondan olay. (Qo'shiqdan.)

Qaydan kelgandi — u? Bilmadi kimsa, Qabrga ham jimjit kirib ketdi u. (A. 0.)

Qay olmoshi vaqt so'zi bilan birga ishlatilib, harakatning bajarilish payti haqidagi so'roqni ifodalaganda qachon _so'roq olmoshi bilan sinonim bo'la oladi: Shu ekin-tekinlar qay vaqtda, qanday ekiladi, qanday tarbiyat qilinadi («S. Uzb.») Qachon olmoshi o'rnida qay vaqtda, qay paytda birikmalarini hamma vaqt ham ishlatib bo'lmaydi. Chunki qachon olmoshi konkret vaqt, hatto asrlarni ham o'z ichiga oluvchi davr haqidagi so'roqni ifodalash uchun ishlatiladi. Ammo qay vaqtda yoki qay paytda birikmalari esa konkret, chegaralangan vaqt haqida so'roqni ifodalash uchun qo'llanadi. Masalan, qachon keldi //qayvaqtda keldi birikmalarida ularni almashtirish mumkin. Lekin Bu voqea XIX asrda yuz berdi gapiga nisbatan qachon so'rog'ini qo'llash mumkin, qay vaqtda yuz berdi tarzida so'roq berish esa vaqt davomiyligini chegaralab qo'yadi. Qanaqa olmoshi o'rnida qanday olmoshini ba'zan qo'llash mumkin, ba'zan esa mumkin emas. Misollarga e'tibor bering: Xo'sh, qanaqa gap o'zi? Bilsam bo'ladimi? (N. Sa-farov.)/ qanday gap. Yuragingga harakat berib turgan mehr-muhabbatdan bir so'zning zahri bilan judo bo'lsang. Bu qanaqasi! (M. Qoriyev.) — bu o'rinda qanday olmoshini qo'llab bo'lmaydi.

Uzbek tilida necha, qancha olmoshlari miqdor haqidagi so'roqni bildiradi. Shu funksiyada ular bir-birlari bilan va nechta olmoshi bilan sinonim bo'la oladi. Lekin ular ayrim o'ziga xos xususiyatlari, ma'no nozikliklari bilan bir-birlaridan farq ham qiladi. Masalan, necha olmoshi umuman predmetning miqdori haqidagi va konkret bo'lmasada, uning donasi haqidagi so'roqni ham bildiradi, ammo nechta olmoshi esa faqat predmetning donasi haqidagi so'roqni bildirish uchungina qo'llanadi. Nechta olmoshi sostavidagi -ta elementi dona, nafar va boshqa numerativlar ma'nosini ifodalaydi. Shu sababli ham nechta olmoshi numerativlar bilan ishlatilmaydi: necha kilo, necha dona, necha bog', necha tup deyish mumkin, lekin nechta kilo, nechta dona, nechta bog', nechta tup deb ishlatilmaydi.

Bundan tashqari, necha olmoshi konkret va abstrakt predmetlarga nisbatan ham, donalab sanash mumkin bo'lgan va mumkin bo'lmagan predmetlarga nisbatan ham ishlatila beradi. Nechta olmoshi esa, asosan, donalab sanash mumkin bo'lgan konkret predmetlarga nisbatan ishlatiladi. Masalan, nechta daftar, nechta olma.

Necha olmoshi umumiy miqdorni bildirish ottenkasi bilan qancha olmoshiga sinonim bo'ladi: ...bir qancha telegramma... (A. Furmanov) bir necha telegramma.

Ammo numerativ so'zlar bilan kela olish yoki kela olmaslik jihatdan necha va qancha olmoshlari farqlanadi. Necha miqdor bildirganda, ko'pincha numerativlar bilan ishlatiladi. Qancha esa shu funksiyada numerativlarsiz ishlatiladi, ya'ni necha so'm, necha kilo, necha qavat. Lekin qancha so'm, qancha kilo, qancha qavat tarzida qo'llash norma hisoblanmaydi. Shu sababli qancha olmoshi o'rnida necha olmoshi qo'llanadigan bo'lsa, albatta, u numerativ so'z bilan birga keladi va aksincha, numerativ so'z bilan birga qo'llangan necha olmoshi o'rnida qancha so'zi ishlatiladigan bo'lsa, numerativ tushirilib qoldiriladi. Numerativ bilan qo'llangan necha olmoshi konkret miqdorni, numerativsiz qo'llangan qancha olmoshi umumiy miqdorni bildiradi. Misollarni kuzating:— Qancha terdingiz? — Ellik tonnaga yaqin. (M. Qoriyev.) // necha kilogramm (yoki tonna) terdingiz. ...Shu yerdan Shayxanto-vurgacha necha minutda borasiz? (0.) // Shu yerdan Shayxantovurga qanchada borasiz?

Misollardan ham ko'rinib turibdiki, qancha olmoshi ko'proq umumiylikni ifodalaydi. Unda predmetni donalash, donasi haqidagi so'roqni bildirish xususiyati yo'q darajada. Qiyoslang: Majlisga necha odam keldi gapida kelgalarning konkret soni so'ralsa, Majlisga qancha odam keldi gapida, asosan, odamlarning ko'p yoki ozligi nazarda tutiladi.

Qancha olmoshi ergash gap sostavida bosh gapda ifodalangan belgining aniqlovchisi vazifasida kelganda, harakatning darajamiqdorini bildirgan necha olmoshi bilan sinonim bo'la olmaydi: Qancha ko'p o'qisang, shuncha ko'p bilasan. (Maqol.)

Foyda yo'qdir, go'zal, zolim falakdan,

Qancha dod qilsang-u, qancha shikoyat.

Qancha yolvorsang-u, qancha to'ksang yosh,

Baribir, alamga bo'lmas nihoyat. (H. 0.)

Hozirgi o'zbek tilida qaysi olmoshi belgi to'g'risidagi so'roqni bildirganda, qanday olmoshi bilan; qayerda (-ga, dan) so'roq olmoshi poetik nutqda o'rin, jo'nalish yoki chiqish kelishigi qo'-shimchasini olgan qay olmoshi bilan funksiyadoshlik qilishi mumkin. Misollar: Qaysi kinoga boramiz? (M. Qoriyev.)— qanday kinoga boramiz. Partiya qaysi yo'ldan boshlasa, biz doimo shu yo'ldan boramiz. (U.) // kanday yo'ldan. Yana qiyoslang: qayerda qayerdan //

qaydan, qayerga // qayga kabi.

Uzlik olmoshi (o'z) egalik affiksini qabul qilib, kishilik olmoshlarining ekvivalenti vazifasini bajarishi mumkin. Shuning uchun gapda o'zlik olmoshi egalik affiksi bilan qo'llanganda, kishilik olmoshlari har uchala shaxsda ham tushirilib qoldirilishi mumkin: mening hovlim // o'zimning hovlim; sening hovling / o'zingning hovling kabi. Gapda ham kishilik olmoshi, ham egalik affiksini olgan o'zlik olmoshi bo'lsa, ta'kidlash, kuchaytirish ma'nosi anglashiladi.

Uzlik olmoshi kelishiklar bilan turlanishi uchun avval egalik affiksini qabul qiladi. Bu adabiy til normasi hisoblanadi. Ammo badiiy asar tilida, xususan, poetik nutqda o'zlik olmoshining egalik affiksini qabul qilmay turlangan holatlari uchraydi. Bu esa stilistik normaga kiradi. Misollar:

Ikkovi emikdosh, qarindosh, payvand,

Birining — birisi o'zning o'zidir.

Bel tutdi o'g'lonlar kim o'zmoq uchun. (G'. G'.)

Belgilash olmoshlari anglatgan ma'nolarining yaqinligiga qarab ikki katta gruppaga bo'linadi. Ularning bir gruppasi (har, har kim, har nima, har narsa, har qanday, har qaysi) shaxs, predmet va belgini ajratib ko'rsatish uchun xizmat qiladi, ikkinchi gruppasi esa (hamma, barcha, bari, butun) jamlaydi, umumlashtiradi.

Birinchi guruppa o'zaro bir-biri bilan sinonimik munosabatga kirishishi qiyin, chunki sostavidagi turli ma'no anglatadigan elementlar bunga yo'l qo'ymaydi. Masalan, har kim va har nima olmoshlari sostavidagi kim va nima elementlari (so'roq olmoshi), har qanday va har qaysi olmoshlari sostavidagi qanday va qaysi elementlarining farqiga e'tibor bering. Kim va nima, qanday va qaysi so'zlari bir-biri bilan juda kam holatlardagina (shunda ham adabiy til normasidan chekinib) ma'no jihatdan yaqinlashadi.

Ikkinchi guruppadagi belgilash olmoshlari esa ayrim ma'no nozikliklari bilan bo'lsa ham, bir-birlari bilan sinonimik munosabatga kirisha oladi: Bari seniki. (G'.G'.) Q i y o s l a n g: barchasi seniki // hammasi seniki, jami seniki. G'sha usta alla-qachon hamma narsani payqab olib, orqamizdan poylab yurgan ekan. (M. G.) Qiyoslang: barcha narsani // bari narsani //jami narsani kabi.

Hamma olmoshi birdan ortiq predmetning jamini yoki bir predmetning yaxlit, butun, to'liq holini bildiradi. Agar hamma olmoshi predmetni bildiruvchi so'zdan oldin qo'llansa, shu so'z orqali ifodalangan predmetning birdan ortiqqligini, ularning jamini ko'rsatadi va, aksincha, predmet yaxlitligini bildirganda, hamma olmoshi predmetni ko'rsatgan so'zdan keyin keladi.

Chog'ishtiring: Hovlining hammasiga gul ekdim (bir hovlining butun qismiga) //Hamma hovliga gul ekdim (bir nechta hovliga). Do'kon ichidagilarning hammasi birdan g'imirlab qoldi. (M. Sholoxov.) Bu yerga hamma qishloq

yig'ilgan. (M. Sholoxov.)

Barcha, hamma, butun, jami belgilash olmoshlari nutq stillarida qo'llanishiga va ifodalagan ma'no nozikliklariga ko'ra farq qiladi. Masalan, barcha ko'proq yozma nutq uchun xos, og'zaki so'zlashuv nutqida esa kam ishlatiladi. Barcha olmoshida ko'p narsa va shaxsni umumlashtirib belgilash ma'nosi hamma olmoshiga nisbatan kuchli. Umuman, barcha olmoshi deyarli hamma vaqt shu ma'noni ifodalash uchun xizmat qiladi. Bir predmetning yaxlit butunligini ifodalash uchun esa barcha olmoshi deyarli ishlatilmaydi, ya'ni hovlining barchasiga gul ekdim deb bir hovlining yaxlitligini belgilash mumkin emas.

Quyidagi misollarga ham e'tibor bering: Bu detallarning barchasi yangi tiklangan sex mahsuloti ekanligini injener yaxshi bilar edi. (G. Nikolayeva.) Barcha ashulachilar va ularni o'rab olgan hamma kizil askarlar «badiiy xotira bo'lsin» beyishdi. (A. Furmanov.)

So'nggi misoldagi barcha va hamma olmoshlarining sinonimik munosabatiga e'tibor bering.

Yedingiz barchangiz itdek fuqaroning etini,

G'asb ila molin olib, qo'ymadingiz bitini.

(Turdi.)

Butun olmoshi birdan ortiq shaxs va predmetlarning jamini ifodalash uchun ham, bir predmetni yaxlit belgilash uchun ham ishlatiladi. Shu sababli kontekst bilan bog'liq ravishda u hamma, barcha olmoshi bilan ham, bari, jami olmoshlari bilan ham sknonimik munosabatga kirisha oladi. U, birinchidan, ko'proq yozma nutqqa tegishliligi bilan barcha olmoshiga yaqin turadi va og'zaki nutq uchun xos bo'lgan bari olmoshidan farq qiladi.

Ikkinchidan, hamma, barcha, bari olmoshlarida predmetlarning umumiy to'dasini ko'rsatish, butun olmoshida bir predmetning yaxlitligini belgilash kuchli. Shu sabablarga ko'ra, ba'zan ularning biri o'rnida ikkinchisini ishlatish qiyin. Masalan, ...go'yo uning butun badburush yuzini og'iz qopladi. (0.) Ammo bu o'rinda hamma bari // barcha yuzini tarzida ishlatish mumkin emas.

Quyida keltirilgan misolda butun olmoshini hamma, barcha, bari olmoshlari bilan almashtirish mumkin. Chunki bu misolda butun olmoshi birdan ortiq predmetlarning jamini ko'rsatyapti: Ket... o'rmalab chiqib ket-ye, ilon! Butun gap senda... hamma aio senda... qizimni sen zaharlading. (M. Gor'kiy.)

Hozirgi o'zbek tilida gumon olmoshlari so'roq olmoshlari oldidan allamorfemasini yoki so'roq olmoshlaridan so'ng -dir mor-femasini, ba'zan esa so'roq olmoshlaridan avval bir so'zini keltirish bilan hosil qilinadi. Bu elementlar yordamida tuzilgan olmoshlar ko'pincha predmet, uning belgisi haqidagi taxmin, gumon ma'nosini anglatadi. Ularni biri o'rnida ikkinchisini

ishlatish mumkin. Bunday hollarda gumon olmoshlari sostavidagi so'roqni bildiruvchi qism o'zgarishsiz qoladi va ularga qo'shiladigan elementlarning (alla-, -dir, bir) o'rni almashadi. Demak, allakim // kimdir, allanima // nimadir, allaqanday // qandaydir va bir nima kabi juftlarning sinonimligi alla-, -dir morfemalari va bir so'zining o'z va kontekstual ma'nolaridagi sinonimik munosabatiga asoslanadi. Misollar: ...ketmoqchi bo'lib turganimda kimdir meni yo'qlayotganligini aytishdi. (M. Qoriyev.) // allakim // bir kishi. Farida ko'chaning muyulishiga yetganda nimadir taraqlab ketdi. (Rashod Nuri.) // allanima // bir nima. Bola qandaydir mudhish hodisa sodir bo'lganligini payqadi. (Ch. A.)) // allaqanday.

Fe'l.Fe'l zamon formalarining stilistik xususiyatlari

«Har qanday borliqning asosiy formalari makon va zamondir. Makondan tashqari borliq bo'lishi qanday eng bema'ni safsata bo'lsa, zamondan tashqarida borliq bo'lishi ham shunday eng bema'ni safsatadir»¹

Demak, harakat qandaydir bir joyda, o'rinda — makonda, qandaydir bir vaqtda, paytda — zamonda yuz beradi.

Grammatik zamon ma'nosi nutq momentiga nisbat berib belgilanadi. Ya'ni harakat nutq so'zlanib turgan paytdan oldin, nutq momenti bilan bir paytda yoki undan so'ng yuz berishi mumkin. Shunga qarab fe'lning o'tgan, hozirgi va kelasi zamonlari belgilanadi. Bu zamonlar bir-birlari bilan uzviy aloqada bo'ladi. Masalan, hozirgi zamonda bajarilayotgan ish-harakat o'tgan zamonda boshlangan bo'lishi va kelasi zamonda ham davom etishi mumkin, yoki kelasi zamonda bajariladigan ish hozirgi zamonda boshlangan bo'lishi mumkin va hokazo. Shuningdek, bir zamon formasi o'zi uchun tipik bo'lmagan kontekst va situatsiyada, intonatsiya yordamida, janrlar bilan bog'liq ravishda boshqa zamon ma'nosini ifodalashi mumkin. Biroq, bir zamon ichida bajarilgan harakat distansion uzoq-yaqinligi, ;bir martalik yoki davomiylik kabi xususiyatlari bilan farqlanadi. Bunday farqli ma'nolarni ifodalashda ba'zan bir zamonni ifodalovchi turli formalardan(// ishlayotir // ishlarimoqda // ishlab turibdi // ishlab yuribdi), ba'zan birgina formadan foydalaniladi.

Kontekstual va situativ ma'no real ma'noga (formaning odatdagi ma'nosiga) mos kelmay qolishi natijasida ma'noda ko'chish yuz beradi, ya'ni ma'lum forma o'zi anglatishi kerak bo'lgan ma'noni emas, balki boshqa ma'noni ifodalash uchun xizmat qiladi. Bu turli xil ekspressiv ma'nolarni ifodalash uchun muhimdir.

O'tgan zamon fe'llari nutq momentidan ilgari bajarilgan, yuz bergan harakatni ko'rsatadi. Hozirgi o'zbek tilida o'tgan zamonda yuz bergan harakatni ko'rsatishda -di, -gan, +edi, -(i)b + + edi, -(a)r + edi kabi affikslardan, konstruksiyalardan foydalaniladi.

Utgan zamondagi harakat bajarilishining aniqligi, konkretligi yoki konkret emasligi, nutq momentiga munosabati jihatidan o'zaro farqli ottenkalarga ega

bo'ladi. Ana shu farqlarni ko'rsatish uchun yuqorida ko'rsatilgan turli formalar ishlatiladi. Shu bilan birga bu formalar ma'lum ma'nolarni ifodalashda bir umumiy nuqtaga birlashadi. Ana shu umumiylik ichida ayrim farqli ottenkalari bo'lgani holda, ba'zan bunday farqlar yo'q darajaga kelganda, biri o'rnida ikkinchisini ishlata berish mumkin.

-di va -gan formalari munosabatini olaylik. Bu har ikki forma ham harakatning o'tgan zamonda aniq bajarilganligi yoki bajarilmaganligini bildiradi. Ammo -di formantini olgan o'tgan zamon formasida harakatning bajarilish protsessiga, -gan formantini olgan o'tgan zamon formasida harakatning natijasiga e'tibor beriladi. Qiyos qiling: Keldi ochilur chog'ing, o'z-linging namoyon qil. (H. H.) Chappar urib gullagan bog'in, o'par edim Vatan tuprog'in. (H. O.)

Bundan tashqari, -gan formasi orqali ifodalangan harakat payt, vaqt jihatidan -di orqali ifodalangan harakat paytiga nisbatan bir oz bo'lsada «ilgariroq» yuz bergan yo yuz bermaganlik ottenkasiga ega bo'ladi. Ularning har ikkalasi ham bir paytdagi harakatni ko'rsata olishlari uchun gapda yana boshqa yordamchi vositalar ham ishtirok etishi lozim. Qiyoslang: Bu yil mo'l hosil yetishtirildi /bu yil mo'l hosil yetishtirilgan. Bunday vaqtda ularni biri o'rnida ikkinchisini ishlatish imkoni bo'ladi.

Utgan zamon fe'lining -(i)b va shaxs-son affiksi qo'shilishidan hosil bo'lgan formasi so'zlovchining o'z ko'zi bilan ko'rgan, bilgan harakatini anglatganda, shu zamonni ko'rsatuvchi -di formasi bilan sinonim bo'lishi mumkin: Yalinib-yolvorib Shokirvoy-ni zo'rg'a qutqarib olibman. (H. No'mon.) // Zo'rg'a qutqarib oldim.

Ba'zan -gan + edi birikmasi harakatning nutq momentiga nisbatan avval bajarilganligini ifodalaydi va bu xususiyati bilan -di morfemasiga grammatik sinonim bo'ladi.

Nutq momentidan ancha ilgari bajarilgan harakni ko'rsatish xususiyati bilan o'tgan zamon fe'lini hosil qiluvchi -gan+ + edi va -(i)b+edi formalari bir-biri bilan sinonim sifatida almashtirilib ishlatilishi mumkin. Ulardan -gan + edi ko'p-roq yozma nutq uchun -(i)b + edi (-v + di) og'zaki so'zlashuv nutqi uchun xarakterlidir. Utgan zamon ma'nosi -yotgan+edi, -yotib+edi, -moqda + edi, -(a)r + edi, -guvchi + edi kabi konstruksiyalar yorda-mida ham ifodalanadi. Bular harakatning bajarilish vaqtini ko'rsatishi jihatidan biri o'rnida ikkinchisi qo'llanishi mumkin(Qiyoslang: o'qimoqda edi//o'qiyotgan edi; o'qir edi // o'qiguvchi edi). Bulardan -moqda + edi formasi kitobiy, rasmiy stilga xos bo'lib, so'zlashuv stilida deyarli ishlatilmaydi, -guvchi+edi formasi esa, aksincha, ko'proq so'zlashuv stilida ishlatiladi, dialektal xarakterga ega.

Utgan zamon fe'l formalari kontekst va situatsiya bilan bog'liq ravishda, ayrim janrlarda boshqa zamon ma'nosini ham ifodalaydi. Masalan, ba'zan nutq momentida yuz berayotgan ho-disani tasvirlashda o'tgan zamon formasidan foydalaniladi: Mayli... sen ovqatingni yeyatur bo'lmasa, ketib qolma, adashib ketsam kelib so'rayman. Qarigan chog'imda agitator ham bo'ldim. (A. Q.) Nutq

momentidan avval kampir agitator bo'lgan emas.

Utgan zamon formasi bajarilishi nutq momenti bilan chegaralanmagan harakatni ham bildiradi. Bunday vaqtda o'tgan zamon «formasi harakatni hozirgi zamonda ham davom etayotganligi ma'nosini anglatadi: Daraxtlar gullagan, muattar havo, charaqlagan oftob mehnatkash Buxarestning ko'rkiga ko'rk qo'shgan. (J- Jab-borov.) Xalqimiz ahvoli yaxshilangan, hamma yaxshi kvartiralar bilan ta'minlangan va hokazolar.

Utgan zamon fe'l formasining kelasi zamon ma'nosida ishlatilishi tez-tez uchrab turadi. Masalan, o'tgan zamon fe'l formasi kelajakda bajarilishiga qat'iy qaror qilinganlik, ishonch ma'nosini ifodalovchi kelasi zamon formasi o'rnida qo'llanadi: Xo'p... Yana gaplashamiz. Men ko'p bolali onaning uyini ko'rishga ketdim.

So'zlovchi o'z fikrini tasdiqlash yoki so'zlovchining qo'yilgan masalaga munosabatini aniqlash maqsadida murojaat qilganda, ko'pincha kelasi zamon emas, balki o'tgan zamon formasidan foy-dalanadi: Bunday bexijolat, betashvish mehmonlar har kuni kelsalar ham, mayli! Nima dedingiz, janob muboshir. (S. Abd.) // nima deysiz?

Ba'zan bajariladigan ishga ishonchsizlik ma'nosi ifodalanganda ham o'tgan zamon formasi kelasi zamon ma'nosini anglatadi:

Juda qattiq so'raydi deyishyapti, qalay bo'larkin?

Utsak o'tdik, o'tmasak yanagi yilga kelarmiz-da. (R. Rahmonov.) / o'tsak o'tarmiz...

Utgan zamon formasi ish-harakatning bajarilishi to'g'risida taxmin, faraz ma'nolarini ifodalagan kelasi zamon o'rnida ko'llanadi: Xo'sh, faraz qilaylik, dushman patillatib otib ke-layotibdi. Bordi-yu, men o'zimni yo'qotib, otmasdan g'o'dayib turaberdim. Yeki qo'rqib pana joyda pisib yotdim. Nima bo'ladi? Dushman kelib shartta otadi-qo'yadi. (U.) I/ g'o'dayib turabersam, ...pisib yotsam...Hozirgi zamon fe'li -yotir, -yap, -moqda morfemalari orqali hosil qilingan fe'l formalariga shaxs-son affikslarini qo'shish natijasida hosil qilinadi. Bu formalar harakatning nutq momenti bilan bir paytda bajarilayotganligini ko'rsatish xususiyatiga ko'ra bir-birlariga nisbatan sinonimik munosabatda bo'la oladi. -yotir, -yap, -moqda formalarini nutq momentidan ilgari boshlangan va nutq momentidan keyin ham davom etishi mumkin bo'lgan harakatlarni ham ko'rsata oladi. Shu sababli -yotir, -yap, -moqda formalarini ko'pincha sinonimlar sifatida biri o'rnida ikkinchisini ishlatish mumkin: yozayotirsan // yozyapsan // yozmoqdasan; ishlayotirsan // ishlayapsan // ishlamoqdasan kabi. Bu formalar, avvalo, ma'nodagi ayrim nozikliklari bilan bir-biridan farqlanadi. Ikkinchidan, stillarda ishlatilish chastotasi bilan ham bir-biridan farqlanadi. Ya'ni -yotir va -moqda morfemalari ko'proq yozma nutq uchun xos, -yap morfemasi, asosan, og'zaki so'zlashuv nutqida qo'llanadi.

Konkret hozirgi zamonni ko'rsatuvchi -yap, -yotir, -moqda formalari vositasida hosil qilingan hozirgi zamon fe'llari ma'no nozikliklari bilan ham bir-biridan farq qiladi. Masalan, -moqda formasi -yap, -yotir formalariga nisbatan uzoqroq davom etgan harakatni ko'rsatish uchun xizmat qiladi. Qiyos qiling; Ana kelyapti deyish mumkin, amma ana kelmoqda deyilmaydi.

Bu morfemalardan tashqari, hozirgi zamonni ayrim yot, tur, o'tir, yur fe'llarining -(i)b yordamida hosil bo'lgan ravishdosh formalarini shaxs-son affikslari bilan tushlash orqali ham ifodalash mumkin.

Hozirgi zamonni ko'rsatuvchi -yotir, -yap, -moqda kabi sintetik formalar anglatgan ma'noni yot, tur, yur, o'tir fe'llari yordamida hosil bo'lgan analitik formalar yordamida ham ifodalash mumkin. Shu sababli ularning biri o'rnida ikkinchisini ishlatib bo'ladi. Ma'noda katta farq bo'lmaydi: ishlayotir // ishlab o'tiribdi, ishlayotir // ishlab yuribman kabi. Ba'zan ularni almashtirish imkoni bo'lmaydi. Masalan, yugurib yuribdi, ochilib yuribdi, ochilib-sochilib o'tiribdi tipidagi nisbatan qisqa muddatda yuz beradigan va hozirgi zamon ma'nosini ifodalaydigan analitik formalarni yuguryapti, ochilayotir, o'tirayotir tipidagi sintetik formalar o'rnida ishlatish tamoman boshqa ma'noning kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Hozirgi zamon fe'l formalari boshqa zamon formalari o'rnida qo'llanib, ular anglatishi lozim bo'lgan ma'noni ifodalashi mumkin. Ilmiy asarlarda bu hodisa zamon formalarining ko'chishi sifatida talqin qilinadi. Hozirgi zamon fe'llarining har uchala zamon ma'nosidagi elementlarni o'z ichiga olishi uning boshqa zamonlar o'rnida ko'chma qo'llanishi imkoniyatini beradi. Masalan, hozirgi zamon formasi o'tgan zamon ma'nosida ishlatiladi. Bu ko'proq so'zlovchining o'tmishda ko'rgan-bilganlarini hikoya qilib berish holatini tasvirlashda yuz beradi: Ko'zimni. ochsam, tikonli simlar bilan o'ralgan, usti ochiq yerda o'zimga o'xshash yaradorlar, asirlar o'rtasida yotibman. («Yosh I.») Ba'zi bir hujjatlar bilan port shahriga chiqdim, yolg'izman. Yonimda odamlar daryoday oqib boryapti. (O'zbekiston ovozi)

Qelajakdagi ishning bajarilishiga qat'iy ishonch bildirilganda hozirgi zamon formasi kelasi zamon ma'nosini anglatish uchun xizmat qiladi Oliy kengash sessiyasi ochilishi kuniga davlat planini bajarishyapti. bajaradilar. Bugun 688 reys bilan Moskvaga uchib ketyapman. /I uchib ketaman ketajakman ketadiganman.

Kelasi zamon fe'llari -ajak (-yajak) affiksi + shaxs-son affikslari, -r, -ar vositasida yasalgan sifatdosh yoki -a, -y bilan yasalgan ravishdosh + shaxs-son affikslari modeli asosida hosil bo'ladi va harakatning nutq momentidan keyin bajarilganligini bildiradi. Kelasi zamon yana -a, -y bilan yasalgan ravishdosh + -digan + shaxs-son affiksi modelida ham bo'ladi. Ularning hammasi harakatning nutq momentidan keyin bajarilishini ko'rsatish bilan bir umumiy mahrajga birlashadi va bir-birlari bilan sinonimik munosabatda bo'ladi. Ana shu umumiylik asosida ksntekst va situatsiya bilan bog'liq ravishda ularning biri o'rnida ikkinchisini qo'llash mumkin. Qiyoslang: kelajakman kel-moqchiman //

keladiganman; borajaksan // bormoqchisan // boradigansan kabi.

Lekin ularni almashtirish hamma vaqt ham mumkin bo'lavermaydi. Masalan, Daryo suvini bahor toshirar, Odam qadrini mehnat oshirar gapida toshirar, oshirar so'zlarini na -moqchi formasi bilan va na -digan formasi bilan almashtirib ishlatish mumkin. Bu ko'proq ko'rsatilgan kelasi zamonni bildiruvchi affikslar yordamida ifodalanadigan ma'nolar o'rtasidagi ichki farqlar bilan bog'liq.

Qelasi zamon formalari ham o'tgan va hozirgi zamon ma'nolarini anglatib (kontekst bilan bog'liq ravishda) o'tgan va hozirgi zamon formalari o'rnida, kelishi mumkin. Masalan: Rais majlisni ochiq deb e'lon qilaoi, majlisning faxriy prezidiumi saylanadi, hamma o'rnidan turadi, gulduros qarsaklar yangraydi. Ha, bu yerda hayot qaynaydi... Studentlar baxtiyor yoshlik, xurram studentlik gashtini suryaptilar. Yovuz dushman qon to'kib Ma'shuqqa ham yetib keladi. («Uzbekiston madaniyati».) Agar e'lon qiladi, saylanadi, turadi fe'llari kontekstdan ajratib oliksa yoki boshqa kontekst ichida kelsa, kelasi zamonni bildirish uchun xizmat qiladi. Ammo bu misolda va shunga o'xshash holatlarda mazkur fe'llar o'tgan zamon ma'nosini ifodalaydi.

Bog'ni boqsang, bog' bo'lar, botmon daxsar yog' bo'lar. It hurar — karvon o'tar tipidagi maqollarda kelasi zamon fe'l formalari hozirgi zamon bilan chegaralanmaganlik ma'nosini anglatayotganligi aniq seziladi. Xuddi shunga o'xshash ma'no nima yasamoqchisan (qiyoslang: nima yasayapsan) tipidagi gaplarda ham anglashiladi.

Ijro maylidagi fe'l, o'tgan zamon birinchi shaxs ko'plik son formasida kelganda ham, buyruq ottenkasiga zga bo'lishi mumkin: Qani konferensiyaga ketdik. Yuringlar, biz ham tomosha qilaylik. (S. Nazar.) — taklif ottenkali buyruq.

Titrab-qaqshab so'kindi.— Ketdik!— dedi u to'pponchasini sheriklariga silkib. (yo. Sh.) — qat'iy buyruq.

Ijro maylidagi fe'l ham maxsus intonatsiya yordamida buyruq ottenkasiga ega bo'ladi: Kirmaysiz kolxozga!—Kiraman!— Kirmaysiz!— Kiraman!— ahmoq! (A. Q.) Qiyoslang: Kolxozga kirmang!— Kiraman!— Kirmang!..

Ijro mayli formasidagi fe'l shart mayli o'rnida kelib, u anglatgan ma'noni ifodalash uchun xizmat qiladi: Va'da berdingmi, uning uddasidan chiq. // Va'da bersang, uning uddasidan chiq. (So'zlashuv nutqi.)

Ijro maylidagi bo'ladi, yetadi fe'llarining turli xil ko'rinishlari va shularga yaqin ma'no anglatuvchi bas so'zi kontekst, intonatsiya va boshqa vositalar yordamida buyruq ma'nosini ifodalaydi

Misollar: Mehribon onalar, opa-singillar, Zor qaqshab yig'lamang! Yetar, kelinglar! Egmasdan ko'taring boshingiz baland! Bo'ldi, bas, xonasi vayron bo'lguncha... Zindon, dor, qam-chilar bizni qo'rqitmas!— Sabr kosasi to'ldi, toshdi, bas! (K. Yashin.) M a n s u r. Ulug' amir, afv qiling, menda gunoh yo'q,

menga buyurib edilar. N a v o i y. Bas! Kurollari qilich, dor, zahar! Usullari hiyla, nayrang! (Uyg'un. I. Sultonov.) Mahbubaxon qo'llari bilan yuzini yashirdida, yolvorgandek dedi: Bas! Bas! (yo. Sh.) Qiyoslang: Jim bo'ling, to'xtang!

Buyruq maylidagi fe'l boshqa mayl ma'nolarini ifodalab, ularning o'rnida qo'llanishi mumkin. U ijro mayli o'rnida kelganda, harakatning bajarilish yoki bajarilmasligini ta'kidlab ko'rsatishda katta effekt kasb etadi. Masalan: Ko'ring buni, domla, — dedi Sergey amaki Ulmasning orqasini o'girib. — Bolani o'qitish o'rniga xizmatingizni qildiring, yana urdiring! Axir, sizda insof bormi? (yo. Sh.) Qiyoslang: Xizmatingizni qildiribsiz, yana urdiribsiz. Barcha ishni qullar kilsin, daromadni qul egalari olsin, shu haqqoniyatmi? // Barcha ishni qullar qiladi, daromadni qul egalari oladi. Siz, siz! — dedi Begmat Normatning ko'ziga tikilib,— siz yashirib qolgan yeringizga ekkan qovun-tarvuzingiz bilan koppon bozorini obod qiling, o'z foydangizni ko'zlang, jabrini xalq tortsin. (H. Shams.) // ...obod qilasiz,— ...foydangizni ko'zlaysiz, jabrini qullar tortadi.

Buyruq mayli formasi ba'zan ijro mayli orqali ifodalanishi lozim bo'lgan gumon ma'nosini o'zida mujassamlashtiradi va ijro mayli o'rnida ishlatiladi: Xonzoda (cho'chib). Nima maslahatlari bor ekan, payqamadingizmi? Tag'in, qozi pochchangiz sizga yangi ayacha topgan bo'lmasin, Xolmatjon! (H. H.) // ...qozi pochchangiz sizga yangi ayacha topgandi

Bu mayl formasining shart mayli ifodalaydigan ma'nolarni ifodalash holatlari ham uchraydi. Bunday vaqtda -sin va -sa formalari sinonimik munosabatga kirishadi. Misollar: Zang chalinsin, hammamiz dalaga chiqamiz // Zang chalinsa... Ilohim Sizning aytganingiz bo'lsin, biz ham tomosha qilaylik. (H. Shams.) /I Sizning aytganingiz bo'lsa, biz ham tomosha qilar edik. Mirzo Ulug'bek inongan lashkarboshilar esa... Yuksak rutba, shon-shavkat va zeb-ziynatga o'ch bu amiru umaro esa... faqat taxt sohibi kuchda turgan mahaldayoq qo'l qovushtirib turadi. Saltanat sal tebransin, darhol yuz o'giradi. (0. yo.) // Saltanat sal tebransa, darhol yuz o'giradi. Qaysi ota-ona o'z fidoyiligini farzand yuziga minnat qilib solibdiki, ona minnat qilsin? («S. O'zb».) // ona minnat qilsa. (Shu o'rinda qilsin formasi minnat qiladi tarzida ijro mayli bilan ham almashtirilishi mumkin.)

Buyruq mayli formasi kontekst bilan bog'liq ravishda -sa + ham konstruksiyasi yordamida anglashiladigan to'siqsizlik ma'nosini ifodalash uchun xizmat qiladi:,Xox inoning, xoh inon-mang, aka, ishqida yuragimga g'ulg'ula Tushib, xuddi tomir urishim bexosdan o'zgarib ketganday bo'ldi. («Sharq yulduzi».) // Inonsangiz ham, inonmasangiz ham... Emdi, xoh inoning, xoh inonmang haqiqat izlab, tag'in dargohi ilmga keldim, usta.

(0. Ye.) Bunday ma'noda ko'pincha buyruq maylining III shaxs birlik formasidan foydalaniladi: Kattaqo'rg'onga qaytib kelgach, uni qaysi ishga qo'yishmasin, hamma yerda jon kuydirib ishladi. («S. Uzb.») qaysi ishga qo'yishsa ham... Ha, u o'z umrida qancha xatolar qilmasin, qancha yanglishmasin, ilm-ma'rifat yo'lida qirq yil qilgan mehnati zoye ketmabdi. (0. Yo.) // xatolar qilsa ham, qancha yanglishsa ham...

Shart mayli formasining -sa +bo'ladimi konstruksiyasi o'tmishda kutilmagan, to'satdan yuz bergan, hayratda qolishga sabab bo'lgan voqealarni tasdiqlaydi va ijro mayli o'rnida qo'llana-di: Saharga yaqin Achchida ketayotgan edim, ro'paramdan yo'lbars chiqib qolsa bo'ladimi? (A. Q.) // chiqib qoldi. ...Kenjaboyning o'g'li yugurib kelsa-yu, to'ni bilan sumkasini qo'limga tutqazsa bo'-ladimi? (0.) // qo'limga tutqazdi.

Shart mayli formasi, asosan, buyruq mayli ma'nosida ishlatiladi. Bunda intonatsiya hal qiluvchi rol o'ynaydi: Bitta movut beretka olib bersangiz. (G'. G'.) // olib bering. Tezroq kel-sang, kinoga borar edik // Tezroq kel, kinoga boramiz. Sabr qilsang, g'o'radan halvo pishar // Sabr qil, g'o'radan halvo pishadi. Ishlasang tishlaysan // ishla tishlaysan kabi.

12-Mavzu: Sintaktik stilistika

Reja:

1. Sintaktik uslubshunoslikning vazifalari.
2. sintaktik sinonimiya.
3. So'z biriikmasi sinonimiyasi.
4. Til bo'laklarinnig uslubiy xususiyatlari.
5. Qo'shma gap sinonimiyasi.

Mavzu uchun tayanch atamalar: Ritorik so'roq, ellins, gradatsiya, band anofera, takror, antiteza, sintaktik sinonimiya, leksik sinonimiya, sodda gap sinonimiyasi, qo'shia gap sinonimiyasi.

Sintaktik stilistika birliklarini belgilash bu sohaning predmetini belgilash demakdir. Ritorika, poetika, adabiyot nazariyasida sintaktik figuralar deb atalgan konstruksiyalar sti-listik snntaksis vositalari deb qaraladi. Bundan tashqari, o'rinli va original qo'llangan sintaktik konstruksiyalar ham stilistik vositalar bo'lib xizmat qiladi. Bundan barcha sintaktik birliklar stilistik vosita hisoblanar ekan, degan xulosa kelib chiqmaydi. Ayrim sintaktik vositalar o'z tabiatiga ko'ra ekspressiv-tasviriy vosita hisoblansa, ayrimlari faqat kontekstda ekspressivlik ifodalaydi. Ekspressiv-tasviriy vositalar, asosan, badiiy poetik, publitsistik va notiqlik uslublari uchun xarakterlidir. Bu hol shu uslublarning tabiati bilan, ularda

obrazlilik, emotsional-ekspressivlikning kuchlilik bilan bog'liqdir. Antik ritorikadan boshlab sintaktik figuralar deb atalayotgan hodisalar (ritorik so'roq, ellipsis, gradatsiya, band, anafora, epifora, takror, antiteza kabilar) badiiy-poetik sintaksis birliklari hisoblanadi. Uzbek tili badiiy-poetik sintaksisi elementlari haqida fikr yuritilganda ham, shular tilga olinadi. Uzbek tili taraqqiyotining hozirgi bosqichida funksional uslublar farqlanib, uning ilmiy, badiiy, publitsistik, rasmiy ish qog'ozlari, so'zlashuv kabi uslublari shakllandi. Sintaktik konstruksiyalar nutq uslublari neytral bo'lgani kabi, funksional xarakterda ham bo'ladi. Sintaktik stilistika uchun neytral xarakterdagi sintaktik vositalar emas, nutq uslublari xoslangan funksional sintaktik vositalar muhimdir. Neytral va funksional sintaksis ish ko'radi. Lekin bularning nisbati hamma uslublarda bir xil emas. Masalan, ilmiy va rasmiy ish qog'ozlarida neytrallik ustun bo'ladi. Badiiy, poetik, publitsistik uslublar uchun neytral sintaksis bilan bir qatorda, sintaktik figuralar, inversiya, to'liqsiz gaplar, sintaktik kompressiya (tejamkorlik), emotsional-ekspressivlik ifodalovchi boshqa sintaktik konstruksiyalar xarakterlidir.

Ilmiy nutq uchun fikrni aniq, logik izchillik bilan ifodalash xarakterlidir. Bunda isbot va xulosa, konkret material va uni umumlashtirish, sabab va natija munosabatlari o'zaro bog'liq holda ifodalanadi. Ilmiy uslubning ancha murakkabligi, unda kuzatish va eksperiment tufayli erishilgan xulosalarni umumlashtirishda turli logik munosabatlarni ifodalovchi ko'plab sintaktik vositalarning keng qo'llanish sababi ham mana shundadir.

Umuman, ifodaning logik izchil bo'lishi, bunda logik uquv, logik zehn, logik qobiliyatga mo'ljallanishi, mana shu maqsadda ifodaning intellektual elementlariga ko'p murojaat qilinishi ilmiy uslubning asosiy belgilaridan hisoblanadi.

Ilmiy uslub uchun qat'iy logik izchillik, tekst komponentlarining uzviy bog'liq bo'lishi muhimdir. Ma'lum bir abzatsdagi gaplarning keyingisi oldingi gapda ifoda qilingan fikrni to'ldirib boradi. Bu hol tekst strukturasining tizma shaklda bo'lishini ta'minlaydi.

Ilmiy asarlar mulohaza va isbotdan iborat bo'ladi. Isbot aniq bayon qilinadi. Buning uchun ifodaning to'liq bo'lishi lozim. Shunga ko'ra ham ilmiy tekstlar uchun to'liq gaplar xarakterli. Bunda to'liqsiz gap fikrning aniqligiga putur yetkazadi. . Ilmiy uslubda ot bilan ifodalangan gap bo'laklari, jumladan ot-kesimlar, qaratuvchi-qaralmish birikmalari ko'p qo'llanadi.

Ilmiy ifodada logik izchillikni ta'minlovchi muayyan so'z tartibiga amal qilish muhimdir. Bunda o'zbek adabiy tilining grammatik qurilishi talablariga rioya qilinadi. Shu bilan birga, fikrni aniq, izchil ifodalash uchun ba'zan gap bo'laklarining tartibini o'zgartish ham mumkin.

Ilmiy nutqning o'ziga xos belgilaridan yana biri unda qo'shma gap, uning murakkab tiplarining keng qo'llanishidir. Qo'shma gap komponentlari ko'pincha semantik munosabatlarni aniqroq ifodalovchi bog'lovchi va bog'lovchi

vazifasidagi boshqa vositalar orqali birikadi. Juda ko'phollarda chunki, shuning uchun, shu sababli kabi bog'lovchilar, shart mayli va ravishdosh formalari, -dek affiksi kabilardan keng foydalaniladi.

Ilmiy uslubda passiv konstruksiyali gaplar, bir sostavli gap tiplaridan egasi topilmaydigan gaplar keng ishlatiladi.

Ilmiy asarlarning isbot, xulosa qismlarida shunday ekan, aytiladi, deb ataladi, masalan, to'xtab o'taylik, diqqat qilaylik, diqqat qiling, qiyoslang, qiyos qiling kabi iboralardan keng foydalaniladi.

Ilmiy tekstlar uchun o'quvchining diqqatini bayon qilinayotgan hodisaga jalb qilish maqsadida ayrim so'zlar, so'z birikmalari, gaplarni ajratish, havola va turli izohlar berish ham xarakterlidir.

So'zlashuv uslubi so'zlashuv nutqi tushunchasidan farq qiladi. So'zlashuv nutqi adabiy so'zlashuv uslubi bo'lib, tilning adabiy normalariga mos keladi. U «ishlangan», «tartibga solingan» bo'lib, kasbi yoki mutaxassisligidan qat'i nazar, shu tilda so'zlashuvchi har bir kishi uchun tushunarli bo'lgan asosiy uslub hisoblanadi. Adabiy so'zlashuv nutqi aloqa tematikasiga bog'liq bo'lmaydi. Oddiy so'zlashuv uslubi esa kishilarning turmushi, hayotiy tematikasi bilan bog'liq bo'ladi. Lekin ular o'rtasida ma'lum bog'lanish bor: so'zlashuv uslubi ekspressivlik ifoda qiluvchi elementlarni adabiy so'zlashuv nutqidan oladi. Adabiy so'zlashuv nutqining o'zicha ekspressivlik ifoda qiladigan hodisalari oddiy so'zlashuv uslubiga kirib boradi. Shu bilan birga, adabiy suzlashuv nutqida neytral bo'lgan ayrim hodisalar ham oddiy so'zlashuvda ekspressivlik ifoda qilishi mumkin.

So'zlashuv uslubi deganda oddiy so'zlashuv uslubi ko'zda tutiladi. Xalq og'zaki ijodi asarlari, sahna asarlari, prozaik asarlardagi personajlar nutqi kabilar ham so'zlashuv uslubini tashkil qiladi. So'zlashuv uslubi erkin holda shakllanishi bilan farqlanadi, unda emotsionallik kuchli bo'ladi. So'zlashuv nutqida adabiy so'zlashuv nutqiga xos elementlarning biror jihatdan adabiy til normalariga mos kelmaydigan konstruksiyalarining qo'llanishi mumkinligi ham uning xarakterli belgilaridan hisoblanadi.

So'zlashuv nutqi sintaktikasining o'ziga xos belgilari uning nutq momentida shakllanishi bilan bog'liq bo'ladi. So'zlovchi suhbat davomida o'z nutqini oldindan tayyorlash, uni «ishlash» imkoniyatiga zga bo'lmaydi. Bunda suhbatdoshlar bevosita qatnashib, bir-birini osonlik bilan tushunaveradilar. Bunda nutq so'zlanib turgan situatsiya, nutqning dialog formasida bo'lishi ham muhim rol o'ynaydi.

Suhbatdoshlar orasida rasmiy munosabatning bo'lmasligi, ya'ni munosabatlarning iyyetral bo'lishi, ifodaning ko'rsatmasiz shakllanishi, ya'ni undan rasmiylik (leksiya, doklad, axborot) talab qilinmaganligi uchun oddiy so'zlashuv nutqi erkin bo'ladi. Bunda to'liqsiz gaplarning ko'p qo'llanishi sababi

ham mana shundadir. So'zlovchi ko'pincha imo-ishora bilan chegaralanadi, ohang va turli imo-ishoralar fikrning to'g'ri anglashilishiga yordam beradi.

Oddiy so'zlashuvda ko'pincha kundalik turmush bilan bog'liq bo'lgan voqealar haqida fikr yuritiladi. Shuning uchun ham nutq turli emotsional bo'yoqqa ega bo'ladi. Bu hol nutqqa affektivlik tusini beradi.

So'zlashuv uslubi ko'proq dialogik xarakterda bo'ladi. Bu hol so'zlashuv uslubining sintaktik qurilishini belgilaydi.

Oddiy so'zlashuvning asosiy sintaktik belgilari quyidagilar.

1. So'zlashuv uslubi sintaksisining o'ziga xos asosiy belgisi gaplarning sintaktik qurilishida namoyon bo'ladi. Bunda, ilmiy uslubga qarama-qarshi o'laroq, fikr ko'proq to'liqsiz gap shaklida ifodalanadi. Bu situatsiya, turli imo-ishoralar, oldingi gaplar, so'roqlarga javob bo'lish, suhbatdoshlarning bayon qilinayotgan fikrga bo'lgan munosabati, xabar qilinayotgan voqea bilan qanchalik tanish bo'lishi, suhbatdoshlar bir-birini qanchalik tushunayotganligi kabi omillar bilan belgilanadi.

Ixcham va sodda formadagi gaplar keng qo'llanadi. Bular tinglovchining aytilayotgan fikrni tez anglab olishini osonlashtiradi. Bunday sodda gaplar ixchamligi bilangina emas, xalqning kundalik turmush sharoitiga aloqador bo'lishi bilan ham xarakterlanadi.

2. Faqat kesimdan tashkil topgan to'liqsiz gaplar ko'p qo'llanadi. Bunday gaplar ko'pincha takrorlanib kelib, ifoda ta'sirchanligini kuchaytiradi.

Ma'lum bir fikr suhbatdoshlar tomonidan qismma-qism ifodalanishi ham mumkin.

Oddiy so'zlashuvda, ayniqsa, xalq og'zaki ijodi asarlarida kesimi ko'pincha sifatdosh + emish, sifatdosh+ekan konstruksiyalari hamda tuslangan ravishdoshlar bilan ifodalangan gaplar ko'p ishlatiladi. Bunda voqea-hodisaning eshitilganligi, hikoya qilinayotganligi ifodalanadi. Bu holat funksional stillarning boshqa ko'rinishlarida deyarli uchramaydi.

Maqol va hikmatli so'zlar, turli xalq iboralari keng qo'llanadi. Bular, bir tomondan, ifodaning ta'sirchanligini oshirsa, ikkinchi tomondan, ifodaning hayotiy tajribaga asoslanganligini ko'rsatib, nutqning yanada xalqchil bo'lishiga xizmat qiladi.

Bunda qo'shma gaplarga ham tez-tez murojaat qilinadi. Lekin qo'shma gaplarning komponentlari qisqa, ixcham formada bo'ladi. Bunda bog'langan qo'shma gaplarga qaraganda bog'lovchisiz qo'shma gaplar, ergashtan qo'shma gaplar ko'p kuzatiladi. Nutqning bu ko'rinishida ko'chirma gaplar alohida

ajratilmaydi. Ular ko'pincha avtor gapi bilan birikkan holda qo'llanadi.

So'zlashuv uslubi uchun aytilgan fikrni boshqa formada takrorlash ham xarakterlidir. Bu vaqtda keyingi gaplar birinchi gapdan anglashilgan fikrni izohlash, chuqurlashtirish, kon-kretlashtirish uchun xizmat qiladi.

Oddiy so'zlashuv uchun, ayniqsa, inversiya xarakterlidir. Bunda hol-kesim, to'ldiruvchi-kesim, ega-kesim inversiyalari ko'p kuzatiladi. Oddiy so'zlashuv uslubida qaratuvchining qaralmishdan keyin kelish hollari ham uchraydi. Badiiy nutq kommunikativ va estetik funksiya bajaradi. «Badiiy uslubning boshqa uslublardan ajralib turadigan asosiy belgisi,— deb yozadi A. I. Yefimov,— uning estetik funksiyasi, obrazlilik va ekspressivligidir»¹. Bu hol uning umuman stilini, jumladan, sintaktik qobig'ini belgilaydi.

Badiiy uslubning qo'llanish doirasi juda keng bo'lib, tematik va stilistik tomondan chegaralanmagan. Bunda barcha uslub imko-niyatlaridan foydalaniladi, shu bilan birga, adabiy til normalaridan chekinilishi mumkin.

Badiiy uslubning uziga xos sintaktik belgilari umumxalq tilining boy imkoniyatlaridan qanchalik o'rinli foydalanilganligini aniqlash orqali ochiladi.

Umumxalq tili yozuvchi ixtiyoriga gap qurilishining tayyor va qat'iylashtirilgan usullaridan tanlab foydalanish imkoniyatini ham beradi.

Badiiy uslub sintaksisi sifatlovchining keng qo'llanishi, so'z tartibida teskari, sub'yektiv tartibga keng yo'l qo'yilishi, ritorik so'roq va undov gaplar, sintaktik figuralarning ko'p qo'llanishi kabi holatlar bilan xarakterlanadi.

SINTAKTIK SINONIMIYA STILISTIK VOSITA SIFATIDA

Fikrni to'g'ri va ta'sirchan ifodalashda sintaktik sinonimiya imkoniyatidan keng foydalaniladi. Sintaktik sinonimiya nutq uslublarini farqlashda muhim stilistik vositadir. Tushuncha yoki fikrning u yoki bu ifoda varianti nutq uslubining ma'lum turi uchun tipik bo'lsa, boshqasi uchun tipik bo'lmasligi mumkin.

Sintaktik sinonimiya konnotativ², bir xil ma'noli sintaktik birliklardir. Bular strukturaga ko'ra bir xil bo'lishi shart emas. Struktura jihatidan turlicha bo'lgan sintaktik birliklar ham qo'shimcha ma'no ottenkasiga ega bo'lib yoki biror uslub uchun xarakterli bo'lib, sintaktik bir xil ma'noli sinonimiya hosil qilishi mumkin. Bunda sodda gap bilan qo'shma gap, bir sostavli gap bilan ikki sostavli gap, ravishdosh oborot bilan sodda gap, bo'laklarga ajralmaydigan gaplar bilan bo'laklarga ajraladigan gaplar va tipik konstruksiyalarning sinonimiya hosil qilishi mumkinligi ko'zda tutiladi.

Stilistikada sinonim va variant tushunchalari farq qilinadi. Sinonim ma'no ottenkasini ko'rsatadi. Variant esa aniq ma'no ottenkasiga ega bo'lmaydi. U bir ma'no ottenkasi doirasida bo'ladi. «Variantlar,— deb yozadi Ye. I. Shendel's,— sinonim hisoblanmaydi, ular yo ma'no jihatidan bir xil dublet bo'ladi yoki

ma'nosidagi farqi grammatik ma'nolar sistemasiga ta'sir ko'rsatmaydi»1. Qiyoslang: Bu boqqa juda ko'p mehnatimiz singgan. (0.) Mehnatimiz bu boqqa juda ko'p singgan; Albatta, gapiring, albatta, yaxshimi? (J- A.) Gapiring, yaxshimi?

Umumlashgan grammatik ma'no sinonimik gaplarning ma'nosidan kelib chiqadi. Umumiy ma'no turlicha usullar bilan ifodalanadi. Sintaktik sinonimiya nutqda mana shulardan tanlab olib qo'llash imkonini beradi.

Sintaksisga funksional yondashish sinonimik gruppalaridan qanchalik o'rinli foydalanilganini aniqlashga xizmat qiladi. Tilni yaxshi o'zlashtirishda sinonimiyaning bilish muhimidir. «Yuksak nutqiy madaniylilik,— deb yozadi G. A. Zolotova,— fikrni turli usullar bilan ifoda qila olish, kommunikativ vazifaga ko'ra til vositalaridan aniq va maqsadga muvofiq'ini tanlay olishdadir»2.

Sintaktik sinonimiya gap bo'lagi, so'z birikmasi, gap doirasida bo'lishi mumkin.

GAP BULAKLARI SINONIMIYASI

Gap bo'lagiga oid sinonimiya leksik sinonimiyaga birmuncha o'xshasada, farqli tomonlari ham bor: leksik sinonimiyada leksemalar, ularning leksik ma'nosi hisobga olinsa, sintaktik sinonimiyada gap bo'laklari haqida fikr yuritiladi. Uning ma'nosi bilan bir qatorda strukturni va formasi ham hisobga olinadi.

Odatda, gap bo'laklarining har biri sinonimiya hosil qilishi mumkin. Quyida bosh bo'laklardan kesim, ikkinchi darajali bulaklardan to'ldiruvchi va hollar sinonimiyasini ko'rib o'tamiz:

1. Bir sostavli gaplarning bir turida kesim harakat nomi (o'qish, o'qimoq, o'quv) hamda kerak, zarur, lozim, darkor kabi so'zlarning qo'shilishidan tashkil topgan konstruksiyalar bilan ifodalanadi. Bular kesim sinonimiyasidir. Harakat nomining qaysi formada kelishi, ko'rsatilgan so'zlarning qaysi biri bilan birga kelishi stilistik talabga bog'liq.

Q i y o s l a n g: Jasoratlariga ofarin o'qimoq kerak. (0.) Lekin zarur vaqtdagina tilga erk bermoq lozim. (0.) Shuning uchun ularni g'aflatdan uyg'otish darkor. (0.) Aql, fahm-farosat bilan ko'ngilni yo'lga solib turish kerak. (A. Q.) Bu gaplarning barchasida kesim ish-harakatni bajarish majburiy, zaruriy ekanligini ifoda etyapti. Bundan tashqari, kesim o'ziga xos ma'no ottenkasiga ham ega.

Ko'makchili va kelishikli formadagi to'ldiruvchi va hollar sinonimiya hosil qiladi.

To'ldiruvchi sinonimiyasi: Olim uchun vijdon ham o'tkir ilm kabi zarur. (J. A.) Olimga vijdon ham o'tkir ilm kabi zarur. Atrofda ichishga yaraydigan bir qultum suv ko'rinmasdi. (J. A.) Atrofda ichish uchun yaraydigan bir qultum suv ko'rinmasdi.

Hol sinonimiyasi: Abdulla sevinganidan sakrab yuboray dedi. (U. U.) Abdulla sevingani uchun (sababli) sakrab yuboray dedi. Adolat o'zining dovdirab qolganligi sababli uyalib ketdi. (S. 3.) Adolat o'zining dovdirab qolganligidan uyalib ketdi.

Nutqda bunday sinonimlar qator kelishi ham mumkin. Bu vaqtda nutq ta'sirchanligi, ekspressivlik kuchayadi: Lekin nima sababdan, nima uchun bunday qiladilar, bilmayman. («Saodat» jurn.)

SUZ BIRIKMASI DOIRASIDA SINONIMIYA

Bunday sinonimiya ko'proq tobe bo'lak formalari asosida hosil bo'ladi. Quyida bulardan ba'zi namunalar keltiramiz.

Tobe bo'lagi turli kelishik formalari bilan ifodalangan so'z birikmalari sinonimiya hosil qiladi.

Tobe bo'lagi bosh va tushum kelishiklari bilan ifodalangan so'z birikmalari: Zulfiyani, boradi, deb o'yladim. — Zulfiya boradi, deb o'yladim.

Tobe bo'lagi tushum va jo'nalish kelishiklari bilan ifodalangan so'z birikmalari— Uqishni o'rgandim.— Uqishga o'rgandim; velosipedni minmoq — velosipedga minmoq.

Birinchi komponenti qaratqich va chiqish kelishiklari bilan ifodalangan so'z birikmalari: studentlarning biri — studentlardan biri.

Tobe bo'lagi tushum va o'rin-payt kelishiklari bilan ifodalangan so'z birikmalari: ko'chada izg'imoq — ko'chani izg'imoq.

Tobe bo'lagi tushum va chiqish kelishiklari bilan ifodalangan so'z birikmalari: kamchiliklarni gapirmoq — kamchiliklardan gapirmoq; eshitganlarini gapirmoq — eshitganlaridan gapirmoq; devorni oshib o'tmoq — devordan oshib o'tmoq.

Qelishikli va ko'makchili konstruksiyalar sinonimiya hosil qiladi: telefon orqali so'zlashmoq — telefonda so'zlashmoq; televizor orqali ko'rsatish — televizorda ko'rsatish; Zulfiya uchun olmoq — Zulfiyaga olmoq va boshqalar.

Qaratuvchi-qaralmish birikmasi sifatlovchi-sifatlanmish bi-rikmasi bilan sinonimiya hosil qiladi: Gruppamizdagi barcha studentlar sport bilan shug'ullanadi — Gruppamizning barcha studentlari sport bilan shug'ullanadi.

Shaklan qaratuvchi-qaralmish konstruksiyasiga, mazmunan izohlovchi-izohlanmish konstruksiyasiga o'xshab ketadigan Toshkent shah-ri, unvoni, «Oktyabr» massi-vi, «Paxtaqaynar» kolxozi kabi konstruksiyalar (bularda predmet nimaningdir nomi bilan atal-ganligini bildirganda) degan so'zi bilan hosil bo'luvchi konstruksiyalarga sinonim bo'ladi: Toshkent shahri— Toshkent degan shahar kabi.

Shu tipdagi, lekin predmet kimningdir nomi bilan atalganini ko'rsatuvchi Kirov rayoni, Voroshilov ko'chasi, 1 darajali Suvorov ordeni kabi konstruksiyalarga nomidagi, nomi bilan ataladigan, deb ataladigan birikmalari bilan hosil bo'ladigan konstruksiyalar sinonim bo'ladi: Kirov rayoni — Kirov nomidagi rayon — Kirov nomi bilan ataladigan rayon kabi.

Aniqlovchi-aniqlanmish birikmasi tojikcha izofali birikma bilan sinonimiya hosil qiladi: azim daryo — daryoyi azim, istirohat bog'i — bog'i istirohat, doston madhi — madhi doston, bedavo dard — dardi bedavo, nafs balosi — baloyi nafs, suhbat ahli — ahli suhbat.

Izofali birikma ko'proq badiiy, so'zlashuv uslublari uchun xarakterlidir. Ayniqsa, eski uslubda yozilgan she'riy asarlada, tarixiy temaga oid prozaik asarlarda izofali birikmalarga ko'p murojaat qilinadi.

GAPLAR SINONIMIYASI

Uzbek tilida gap qurilishi boy stilistik imkoniyatlarga ega. Quyida sodda va qo'shma gaplar doirasida yuz beradigan sinonimiya bayon qilinadi:

Sodda gap sinonimiyasi

1. Ikki sostavli va bir sostavli gaplar sinonimiyasi: Elga qo'shilgan er bo'ladi, eldan ajralgan yer bo'ladi.— Elga qo'shilsang, er bo'lasan, eldan ajralsang, yer bo'lasan.

Bularda bir xil tipik mazmun ifodalangan. Ammo gap strukturasi ikki xil: birinchi gap ikki sostavli, ikkinchi gap shaxsi umumlashgan bir sostavli gapdir. Bular ma'no ottenkasiga ko'ra ham farq qiladi: birinchi gapda hayotiy tajriba ifodalanyapti, ikkinchi gapda esa fikr umumga qaratilyapti. Boshqa misol: Ishqilib, o'qqa uchib ketmagin, o'rtoqlaring bilan yenginglar-u yengilmanglar. (G'. G'.) Ishqilib, sen o'qqa uchib ketmagin. Birinchi gap shaxsi aniq bir sostavli gap, ikkinchi gap — ikki sostavli gap. Har ikkisida bir xil tipik mazmun ifodalangan. Lekin birinchi gapda diqqat markazi harakatga, ikkinchisida esa sub'yektga qaratilgan. Shuningdek, Sen majlisda so'zga chiqishing kerak tipidagi ikki sostavli gap Senga majlisda so'zga chiqishga to'g'ri keladi tipidagi egasi topilmaydigan bir sostavli gaplarga sinonim bo'ladi.

2. Bir sostavli gaplar sinonimiyasi: Kechaga taklif qog'ozi bilan kiritishadi — Kechaga taklif qog'ozi bilan kiritiladi.

Birinchi gap egasi topiladigan gaplarning shaxsi noaniq turi, ikkinchisi esa egasi topilmaydigan gapdir. Bularning umumiyliigi (bir sostavli gaplarning egasiz turi bo'lishida, mazmundagi farq birinchi gapda shaxs noaniq bo'lsa ham, uni topish mumkinligi, ikkinchi gapda esa harakatning shaxs istagiga bog'liq emasligi, egani topish mumkin emasligidadir.

Deyarli barcha ritorik so'roq gaplar o'z sinonimiga ega bo'ladi: Menga nima

qilibdi?! Otdekman. Bir kun ming kun emas. (U. U.) Birinchi gapda Menga hech narsa qilgani yo'q degan mazmun kuchli emotsiya bilan ifodalangan. Har ikki gapda tipik mazmun anglashiladi. Lekin ularning (birinchisi ritorik so'roq gap, ikkinchisi esa darak gapdir. Birinchi gapda emotsional ekspressivlik kuchli, ikkinchi gap esa oddiy darak gap. Birinchi gap ko'proq so'zlashuv, badiiy, publitsistik uslubga xos, ikkinchi gap esa uslubning barcha turlarida qo'llanaveradi. Egasi topilmaydigan bir sostavli gaplar shu tipdagi so'roq gaplar bilak sinonimiya hosil qiladi. Ilmni mehnatsiz egallab bo'lmaydi — Ilmni mehnatsiz egallab bo'ladimi?!

Aktiv va passiv konstruksiyali gaplar sinonimiyasi. Bunda bir xil tipik mazmun aktiv va passiv konstruksiyali gaplar orqali ifodalanadi: A'lochi studentlarga mukofotlar berish Zul-fiya Nazirovna Rahimovaga topshirildi.— Biz a'lochi studentlarga mukofotlar berishni Zulfiya Nazirovna Rahimovaga topshirdik; Rasm Erkin Sodiqovich Niyozov tomonidan ishlandi — Rasmni Erkin Sodiqovich Niyozov ishladi. Har ikki misolda bir xil tipik mazmun ifodalangan. Lekin birinchisi passiv, ikkinchisi — aktiv konstruksiyali gap. Birinchi gapda ega harakatni o'ziga qabul qilgan ob'yektni, ikkinchi gapda esa harakatni bajaruvchi shaxsni ifodalagan.

Tasdiq va inkor formadagi gaplar sinonimiyasi: Qarab tur, seni otangga chaqmasammi! (0.) — Qarab tur, seni otangga chaqib beray. Har ikki gapda tipik mazmun ifoda qilingan. Lekin birinchi gap inkor formasida, ikkinchisi esa tasdiq gapdir. Birinchisi emotsional ekspressivlikka ega bo'lib, ko'proq so'zlashuv uslubiga xos. Bunday gaplar ilmiy, rasmiy ish qog'ozi uslublariga xos adabiyotlarda uchramaydi.

Qo'shma gaplar sinonimiyasi

Bog'langan qo'shma gaplarning bog'lovchili turi bog'lovchisiz turi bilan, ergashgan qo'shma gaplarning yordamchili turi yordamchisiz turi bilan sinonimiya hosil qiladi.

Qo'shma gaplarning bog'lovchili yoki yordamchili turlari ko'proq kitobiy nutq uchun, bog'lovchisiz turlari so'zlashuv nutqi uchun xarakterlidir.

Bog'langan qo'shma gaplar sinonimiyasi

Men o'zimning kimligimni sizga aytib berdim, ammo siz o'zingizning kimligingizni aytib bermadingiz. (S. Ahm.) Men o'zimning kimligimni sizga aytib berdim, siz o'zingizning kimligingizni aytib bermadingiz. Har ikki gapda ziddiyat munosabati ifodalangan. Lekin birinchisi — bog'langan qo'pgma gap, ikkinchisi esa bog'lovchisiz qo'shma gapdir.

Ergashgan qo'shma gaplar sinonimiyasi

Otaxonning yuragi shuv etib ketdi, chunki to'pponchani o'z ko'zi bilan birinchi ko'rishi edi. (As. M.) — Otaxonning yuragi shuv etib ketdi: to'pponchani

o'z ko'zi bilan birinchi ko'rishi edi. Hunar o'rgan, chunki hunarda ko'p sir. (Nizomiy.) — Hunar o'rgan, hunarda ko'p sir. Har ikki misolda bir xil tipik mazmun ifoda etilgan. Lekin birinchi guruh gaplar ergashgan qo'shma gap, ikkinchi guruh gaplar esa bog'lovchisiz qo'shma gaplardir.

Qo'shma va sodda gaplar sinonimiyasi

Bunda ko'pincha to'ldiruvchi va ega ergash gapli qo'shma gaplar sodda gaplar bilan sinonimiya hosil qiladi.

To'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap va sodda gap sinonimiyasi: Bilib qo'yki, seni Vatan kutadi. (G'. G'.) — Seni Vatan kutishini bilib ko'y. Bilasizmi, Zebixon, hammadan ko'p ishlagim keladi? (S. Ahm.) — Zebixon, hammadan ko'p ishlagim kelishini bilasizmi?

Shuni ham aytish kerakki, undov ko'pincha o'ziga xos mimika bilan aytiladi.

Ega ergash gapli qo'shma gap va sodda gap sinonimiyasi

Bog'lovchisiz qo'shma gap va sodda gap sinonimiyasi

Esingizdami, buzilgan imoratlarning o'rnini tozalashga chikardik? (77. Q.) — Buzilgan imoratlarning o'rnini tozalashga chiqqanimiz esingizdami? Abdullaning hali-hali esidaki, qish-loqda urush yillari Dadaboy amaki degan bir odam yashardi. (U. U.) Qishloqda urush yillari Dadaboy amaki degan bir odam yashagani Abdullaning hali-hali esida.

Xalqlarning tillari bir xil emas, bil! (G'. G'.) — Xalqlarning tillari bir xil emasligini bil!

Bola-chaqangiz bormi?

Bor edi. Xotinim... Sizning bolalaringizday ikkita qora ko'z o'g'lim bor edi. Hammasidan ajraldim. (P. T.)

Darak gaplar, xabar bilan bir qatorda, gumon, sevinch, achi-nish, g'urur, orzu-istak kabi ma'nolarni ham ifodalaydi. Bunda kesim formasi muhim rol o'ynaydi: Biz tinchlik istaymiz. Zulfiya sayohatdan qaytgandir. Bugun havo ochiq bo'lar gaplarini qiyos qilib ko'raylik. Bu gaplarning hammasida ham biror voqea-qodisa ifodalanyapti. Bundan tashqari, birinchi gapda istak, ikkinchi va uchinchi gaplarda esa gumon ham ifodalangan. Bu kesimning leksik ma'nosi va uning formasi bilan bog'liq.

Darak gaplarning kesimi ot yoki otlashgan so'zlar bilan ifodalanganda, gap tasviriyl xarakterda bo'ladi. Bunda biror predmetning xarakteristikasi ifodalanadi: Mening akam — injener.

Darak gaplar nutqda boshqa gap turlariga qaraganda ko'p qo'llanadi.

Odatda, butun bir tekst darak gapdan tashkil topadi.

Darak gaplar nutq uslublarining har bir turida qo'llanadi. Ilmiy, rasmiy va ish qog'ozlari uslubiga oid tekstlar deyarli darak gaplardan iborat bo'ladi. Badiiy va publitsistik, so'zlashuv uslublarida ham darak gaplardan keng foydalaniladi. Badiiy adabiyotda tabiat manzarasi, obrazlarning portreti, ularning holati, asosan darak gaplar orqali ifodalanadi. Drama asarlaridagi remarkalar, turli izohlar faqat darak gaplardan iborat bo'ladi. Darak gap biror voqea-hodisa haqidagi xabarni ifodalaganda tinch ohang bilan talaffuz qilinadi, ohang kesim tomon pasayib boradi. Gap tarkibidagi biror bo'lak logik urg'u olsa, ohang ko'tarilib, keyin yana susayadi. Darak gap gumon, sevinch kabilar ifodalaganda, intonatsiya ham shunga moslanadi.

So'roq gap. Bunda so'zlovchi uchun noma'lum bo'lgan biror predmet, harakat-holat, belgi haqidagi so'roq ifodalanadi. Suroq gaplarda suhbatdosh s'gzlovchining so'rog'iga javob berishga, unga o'z munosabatini bildirishga undaladi. Bundan tashqari, so'roq gaplar so'roq yo'li bilan bildirilgan hayrat, taajjub, hayajon, buyruq, gumon kabi ma'nolarni ifodalashi ham mumkin.

So'roq gaplar kutiladigan javob xarakteriga ko'ra bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan ikki gruppaga bo'linadi.

Birinchi gruppaga tasdiq yoki inkor talab qiladigan so'roq gaplar kiradi. Bunda so'roq gap so'roq olmoshlarisiz, intonatsiya yoki so'roq yuklamalari orqali hosil qilinadi, gap tarkibida so'zlovchi uchun noma'lum bo'lgan narsa, voqea-hodisa nomi uchraydi. Bunday so'roq gaplar ko'proq -mi yuklamasi yordamida hosil bo'ladi. Ular badiiy, publitsistik, ilmiy, so'zlashuv uslublariga oid adabiyotlarda keng qo'llanadi.

-chi so'roq yuklamasi yordamida tuzilgan so'roq gaplar esa so'zlashuv nutqi uchun xarakterli bo'lib, to'liqsiz gaplardagina qo'llanadi. -

-a yuklamasi yordamida tuzilgan so'roq gaplar ham so'zlashuv nutqiga xos bo'lib, to'liq gaplarda ham, to'liqsiz gaplarda ham qo'llanaveradi. Bu yuklama ba'zan mustaqil holda so'roq gap bo'lib kelishi ham mumkin. Bu so'zlovchi tinglovchi fikrini eshitmay yoki anglamay qolganda yuz beradi:

— A?— dedi eshon, ko'zlari baqrayib. (P. T.)

Nahotki yuklamasi taajjub ifodalangan so'roq gaplar tarkibida keladi. Bunday gaplar ko'proq badiiy, publitsistik, so'zlashuv uslublarida qo'llanadi.

yolg'iz intonatsiya yordamida tuzilgan so'roq gaplar ham so'zlashuv nutqiga xos bo'lib, ular tarkibida shekilli, chog'i kabi so'zlar ham keladi. Bunday so'roq gapda taxmin, gumon ottenkasi bo'-ladi.

Birinchi gruppaga oid so'roq gaplarning javobi hamma vaqt ham tasdiq yoki inkor (ha, yo'q) formalarida bo'lavermaydi. Ba'zan javobda ha, yo'q gaplarini

qo'llab bo'lmaydi: O'muman, ular bilishi kerakmi-yo'qmi? (U. U.) Bu nima? Ungimmi yoki tushimmi? (77. T.) Uqiysanmi yoki ishlaysanmi? Yana dam olasanmi yo bo'ldimi? Bu tip gaplar asosan badiiy, publitsistik va so'zla-shuv uslublari uchun xarakterlidir.

Ba'zan javob ha, yo'k so'zlaridan keyin uning ma'nosini ifodalovchi konstruksiya bilan kengaytiriladi. Bu vaqtda ha va yo'q so'zlari kirish funksiyasini bajarib, ma'no ta'kidlanib, nutqning ta'sirchanligi ortadi.

— Ha, nega yig'layapti? yo biror narsa dedingizmi?— dedi eshonvachchalariga otinoyi.

— Io'q, hech narsa deganimiz yo'q!— dedi Sayfulla.

— Uzi yig'layapti. (P. T.)

Ba'zan suhbatdosh tasdiqlash yoki inkor qilish o'rniga so'roq beradi: so'zlovchining so'rog'iga suhbatdosh so'roq bilan javob beradi. Bu tip gaplar javob-so'roq gap hisoblanadi:

Siz ham shu yerda o'qiysizmi, aka?— dedi Elmurod.

Nimaydi?

Sayfulla akamni imlab qo'ysangiz. (P. T.)

Bu tip so'roq gaplarga javob ba'zan tinglovchi tomonidan emas, so'zlovchining o'zi tomonidan beriladi. Bu vaqtda nutq emotsionalligi, fikr ta'sirchanligi ortadi. Bu ko'proq publitsistik nutqqa xos: Axir, Jazoir va uning xalqi senga nima qildi? Senga tegdimi, biron narsangni o'g'irladimi? Sening uyingga bostirib kirdimi? Biror tanga zarar berdimi, ishlaringga ara-lashdimi? Io'q, aslo. (V. 3.) Bunda inkor ma'nosi kuchayadi.

Nutqda ba'zan so'zlovchi so'roq javobini kutmasdan, o'z fikrini davom ettiraveradi. Bu vaqtda javob kontekst va vaziyatdan anglashilib turadi: Endi bu yoqqa qara hu anavi madrasani ko'rdingmi? Hu ana. Ana shu yerdan o'tasanu, muyulishga chiqasan. (P. T.)

Bu tip so'roq gaplarning tarkibida n i m a so'roq olmoshi ham ishlatiladi. Bu vaqtda n i m a olmoshidan keyin qisqa pauza bo'lib, u so'zlovchining tinglovchiga so'roq berishini anglatadi, so'roq gap so'roq yuklamasi yordamida shakllanadi: Nima, og'zingizga yoqmadimi? — deb so'radi Ergash. (P. T.) Bunday so'roq gaplar so'zlashuv uslubiga xosdir.

Birinchi tipga oid so'roq gaplar javobi tasdiq yoki inkor formasida bo'lmasligi ham mumkin:

Yaxshi bitirdingizmi?

Yomon emas,— Abdulla oltin medal olganini aytishga uyaldi. (U. U.)

Bunda javob ha formasida ham bo'lishi mumkii edi. Lekin yozuvchi o'z qahramonining kamtarligini ko'rsatish uchun Yomon emas gapini qo'llagan.

Badiiy adabiyotda nutq ta'sirchanligini oshirish uchun so'zlovchining o'ziga o'zi savol berishi usulidan keng foydalaniladi: U o'ziga savol beradi: «Mabodo, men buni ilgariroq, masalan, av-valgi kun yoki kecha sezgan bo'lsam, hayotimni, qulayotgan imoratimni, yong'in o'z girdobiga yutayotgan uyimni, erimning nomusi, sadoqatini omon saqlab qola bilarmidim? U o'z savoliga o'zi javob bera olmadi. (H. G'.)

Ba'zan bu tip so'roq gaplar tarkibida a yuklamasi keladi. Bu so'roq ma'nosini kuchaytiradi: Hammasini aytib beraymi ho-zir, a? (P. T.) Ishq o'tida yongan yana biron tentak o'zini daryoga tashladimi yo, a? — kulimsirab so'radi u. (I. Sh.)

Badiiy nutqning emotsional-ekspressivligini oshirish uchun bu formadagi gaplardan keng foydalaniladi: Ko'cha, tramvay va trolleybuslardagi odamlarning shodiyona so'zlari va hayajonli ifodalarini aytmysizmi? Biletlar bir necha kun oldin sotilib, tarqatilib bo'lgan. (V. 3.) Bularku butun-butun respublika, yirik shaharlarning beminnat do'stligi oqibati. Ayrim kishilarning qalb haroratlarini aytmysizmi? (R. F.) Bunda fikr so'roq yuklamali kesim orqali ta'kidlanyapti. Bunday gaplar his-hayajon bilan aytiladigan buyruq gaplar (...hayajonli ifodalaringizni ayting ... qalb haroratlarini ayting!) sinonimidir.

Bu tip so'roq gaplarning rasmiy uslubga xos quyidagi ko'rinishiga e'tibor .beraylik: Loyihaga o'zgartishlar bo'ladimi? (Ovozlar: Yo'q.) Qimki shu qaror qabul qilinsin desa, qo'l ko'tarsin. Tushiring. Qarshilar? Io'q. Betaraflar? Io'q. Bunda birinchi gap savol-javob xarakterida. Ikkinchi va uchinchi so'roq gaplarda esa javob vaziyatiga ko'ra (hech kim qo'l ko'tarmagan) so'zlovchining o'zi tomonidan berilgan. So'roq gaplarda esa savol ifodalovchi !bo'lak (bu o'rinda kesim) tushirilgan. Bu xil sa-vol-javoblarni dialogik nutqning alohida bir ko'rinishi deb qarash mumkin.

So'roq gaplarning ikkinchi tipida so'zlovchi uchun uni qiziqtirgan fikrning biror elementi noma'lum bo'ladi. So'zlovchi harakatni bajaruvchi shaxsni, belgisi, o'zni, payti, sababi, maq-sadini bilishni istaydi. Bu vaqtda so'zlovchi uchun noma'lum bo'lgan narsaning nomi gapda atalmasdan, unga ishora qilinadi, gap tarkibiga so'roq olmoshlari (kim, nima, qanday, nega, qayerda, nechanchi, qachon, nimaga kabilar) kiritiladi. So'roq gaplarning bu turi nutq uslublarining so'zlashuv, badiiy, publitsistik turlarida ko'p qo'llanadi:

Hamma narsa yer ustida. Yer o'zi nimaning ustida? (Q. M.)

So'roq gap tarkibida so'roq olmoshlari bir nechta bo'lishi ham mumkin. Bunda so'zlovchiga noma'lum bo'lgan bir qancha narsa haqidagi so'roq ifodalanadi: Qim iima to'g'risida gapirmoqchi?

Ba'zan so'zlovchi o'ziga noma'lum bo'lgan ko'p narsani bilishga intiladi.

Bu vaqtda birin-ketin so'roq berilaveradi. Bu ko'proq badiiy va so'zlashuv uslubiga xos bo'lib, fikrning ta'sir-chan bo'lishi uchun xizmat qiladi:

— Nima deyapti, a, amaki? Qanaqa ozodlik bo'lyapti-a? Kimlarga ozodlik bo'lyapti? (P. T.)

Birin-ketin beriladigan so'roqlar so'roq gaplarning har ikki tipiga oid bo'ladi: Hech atrofga qaraysanmi: o'rtoqlaring, o'zing qatori qarollar, batraklar nima qildi, nima qilayotipti? (A. Q.)

Ayvonda tik turgan otinoyi so'radi:

To'p stishdimi? Nima balo bo'ldi tag'in? (P. T.) Bu o'lkada qim kuchliroq: odamlarmi, Amumi? (G'. G'.) Axir, siz kimsiz? Umrzoqov — katta xo'jalikning rahbari, sovxoz xalqining otasi, partiyaning cho'ldagi ishonchli vakilimi yoki es-xushini tanib olmagan yengiltak yigitchami? (H. G')

Nega poshsholar urishadi? Urishmasa bo'lmaydimi?—o'ksinib so'radi Elmurod. (P. T.)

So'roq gaplar tarkibida ba'zan q a n i so'roq olmoshi kirish vazifasida kelib, ta'kid uchun xizmat qiladi: Qani, xo'sh, nimalar bo'ldi? Qim nima dedi? Qani, ayt-chi?(P- T.)

Tarixiy mavzuda yozilgan asarlarda qandai olmoshi urnida ne qo'llanishi kuzatiladi: Xo'sh, Alisher, haligi cholning boshiga ne kulfat tushibdur?(V.S.)

So'roq gaplar, so'zlovchining qanday javob kutishiga qarab ham turlicha tuziladi:

So'roq gaplarda so'zlovchi javobning qanday bo'lishini oldindan tasavvur qilolmaydi: Professornikiga borish kerakmi, yo'qmi? (U. U.) Tog'asi, xolasi bo'ldi nima-yu, bo'lmadi nima? (P. T.)

So'roq gaplarda javobning ijobiy bo'lishiga shubha bildiriladi. Bu tip gaplar tarkibida ba'zan axir kirish so'zi keltirilib, ma'no kuchaytiriladi:—Nima, xo'jayining ust-bosh ber-maydimi? — Ha-ha, — dedi eshon esga olib, — anavi, oq poshshoga qarshi bosh ko'targan rabochiy-da. Axir, u ablahni badarg'a qilib yubormabmidilar? (P. T.)

So'roq gaplarning bu tipida ham ba'zan javob so'zlovchining o'zi tomonidan beriladi. Bu bilan nutqning emotsional-ekspressivligi yanada ortadi, ifodalangan fikrning o'quvchi tomonidan anglashilishi ancha oson bo'ladi. So'roq gaplarning bu turi badiiy va publitsistik uslub uchun xarakterlidir: Axir, Uzbekistonda oliy ma'lumotning asoschisi hisoblangan Urta Osiyo Davlat universitetini kim yaratdi?.. , bir guruh rus, ukrain olimlari! (V. V.)

Ba'zan so'roq gaplar ketma-ket kelib, konkret javob talab qilmaydi. Ular faqat asar qahramonlarining ichki dunyosini to'laroq ochish uchun, fikrning

ta'sirchan bo'lishi uchun xizmat qiladi. Bunday so'roq gaplar badiiy, so'zlashuv hamda publitsistik uslublarda ko'p qo'llanadi: — Domla.. Bu kishi qayerda turadilar? Men ko'rsam bo'ladimi? (. T.)

So'roq gaplar rasmiy-yuridik tekstlarda deyarli qo'llanmaydi. Ilmiy uslubga oid adabiyotlarda ba'zan o'quvchining diqqatini biror masalaga tortish vositasi sifatida so'roq gaplarga murojaat qilinadi. Bunday so'roq gaplar ko'pincha ilmiy tadqiqot problemalarini belgilashda qo'llanadi:

Moddiy maydon qanday xossalarga ega? Eng avvalo, moddiy maydon xossalarini bilishni yer tortishi va elektromagnit hodisalarini tekshirishdan boshlamoq kerak. Yer sharining har qanday nuqtasida turli xildagi jism yerga tortiladi. Yer atrofida Yerning markaziga yo'nalgan kuchlar ta'siri paydo bo'ladi. Bu esa o'z navbatida tortish maydonini vujudga keltiradi. Shun-ga o'xshash xususiyat elektromagnit maydoniga ham xosdir..)

So'roq gaplar ilmiy uslubga oid adabiyotlarning amaliy qismlarida (topshiriq va masalalarda) ko'p qo'llanadi. Bunday so'roqlardan ayrimlarining javobi qo'llanma oxirida ko'rsatiladi.

Ba'zi so'roq gaplar javobi bilan (javob so'zlovchining o'zi tomonidan berilganda) shunday birikib ketadiki, ularni so'roq va javobga ajratish sun'iylikka olib keladi: Siz jon-jigar ukalaringiz qoni uchun qonga qon, jonga jon oldingizmi — oldingiz. Qurbon bo'lgan o'rtoqlaringiz bilan birgalikda puleiyotni ishga solib, dushmani mudofaa marrasiga quvdingizmi— quvdingiz. (Q. Ya.)

Bu tip gaplar so'zlashuv, badiiy, publitsistik uslub uchun xarakterli bo'lib, fikrning aniq va ta'sirchan bo'lishiga xizmat qiladi.

So'roq gaplarda so'roq olmoshlarining qo'llanishi uslubning qandayligiga (kitobiy yoki so'zlashuv uslubi) ham bog'liq. Masalan, qayerda, qayerga, qayerdan olmoshlari yordamida tuzilgan so'roq gaplar kitobiy xarakterda bo'lsa, qayoqda, qayoqqa, qayoqdan olmoshlari ishtirokida tuzilgan so'roq gaplar so'zlashuv nutqiga xosdir.

Qanday, qanaqa, qalay olmoshlarining so'roq gaplarda qo'llanishi stilistik ahamiyatga ega bo'ladi. Qiyoslang: Qanday odam? Qanaqa o'qish? Ishlar qalay?

So'roq gaplar so'zlashuv nutqida so'roq intonatsiyasi bilan aytiladi. Bunda so'roq maxsus leksik-grammatik vositalar orqali ifodalansa, kuchli ohang bilan aytiladi: ohang ko'tarilib boradi. Logik urg'uning qaysi gap bo'lagiga tushishiga qarab, ohang o'zgarishi ham mumkin. Masalan, logik urg'u so'roq gap boshidagi bo'lakka tushsa, ohang pasayib boradi, gap oxiridagi bo'lakka tushsa, ohang ko'tarilib boradi, gap o'rtasidagi bo'lakka tushsa, ohang ko'tarilib pasayadi. So'roq olmoshlari yordamida tuzilgan so'roq gaplarda ohang so'roq olmoshida ko'tariladi.

Buyruq gap. Bunda tinglovchini biror ishni bajarish yoki bajarmaslikka undash, da'vat etishdan tashqari, do'q, qat'iy buyruq, iltimos, maslahat, yalinish,

taklif kabilar ham ifoda qilinadi. Buyruq gaplarning bo'lishsiz formasi faqat -ma affiksi orqali shakllanadi.

Buyruq gaplar badiiy adabiyotlarda, dialog formasidagi nutqda, rasmiy ish qog'ozlari uslubida, turli chaqiriqlarda, ilmiy uslubga oid mashq va topshiriqlarda ko'p qo'llanadi. Buyruq gapning kesimi ko'pincha buyruq maylidagi fe'llar bilan ifodalangan bo'ladi: Yo'qol, ko'zimga ko'rynma! (I. R.) Abu Said: — Yana ne g'avg'o? Chaqiring, kirsin! (V. S.) Fan asoslarini chuqurroq egallangiz! (Chaqiriqlardan.) 43-mashq. Uqing va qaysi nutq uslubiga oidligini ayting. («Uzbek tili» darsl.)

Buyruq gaplarning -bu turida kesim tarkibida -gin (-gil) affiksi kelishi ham mumkin. Bu vaqtda buyruq iltimos, so'rash otteikasiga ega bo'ladi: Avvalo, u qizga e'tibor bermadi. Fakat yonidagi hamrohiga «Qaragin, ancha durustgina qizga o'xshay-di»,— dedi. (M. Q.)

Qesak otib yovni yengganmi hech xalq?!

Qilich taqqil, bo'lmay desang qonga g'arq. (H. O.)

Buyruq gaplar ko'pincha ikkinchi shaxsga qaratilgani uchun ham ularda undalma qo'llashga zaruriyat qolmaydi. Lekin ish-harakatning kimga qaratilganligini konkretlashtirish maqsa-dida bunday gaplar tarkibida undalma qo'llanishi ham mumkin: E kuyosh, ko'rsat yuzing, tunda bag'ir qonlanmasin. (S. Abd.)

Buyruqqa taajjub ottenkasini berish uchun gap kesimi yukla-ma olib keladi: Qolxozning qovunini kim poylaydi? Gapingni kara-ya! (S. Abd.)

Buyruq gaplar kesimi buyruq maylining I shaxs formasi bilan ifodalangan bo'lsa, istak, harakatni bajarishga xohish, ahd qilish, so'zlovchining o'zi ishtirokida ish-harakatni bajarishga undash kabilar ifodalanadi. Bunday gaplar so'zlashuv va badiiy uslubga xos tekstlarda ko'p uchraydi: Olimjon aka, yerlarimizni qondirib-qondirib sug'oraylik, ana shunda bu yerlar ham hosil koni bo'ladi. (Sh. R.)

Badiiy uslubda ba'zan bu tip gaplarning kesimiga -in af-fiksi qo'shilib keladi. Bunda ta'kidlash, kuchaytirish kabi ottenkalar ifoda qilinadi:

Qaysi bir istak bayonin oshkoro aylayin,

Qaysi dardimni deyin hamda kimga da'vo aylayin. (S.Abd.)

Buyruq gap kesimi iltimos ma'nosini anglatlsa, fe'lning shart mayli bilan ifoda qilinishi mumkin: Qechagi kitobingni berib tursang. Ba'zan bu tip gaplar -chi yuklamasi bilan kelib, qistash, tashvishlanish ottenkalariga ega bo'ladi: Tez-tez yozsangchi!

-chi yuklamasi buyruq mayli bilan ifodalangan kesimga ham qo'shilib

keladi. Bu vaqtda do'q-po'pisa ifodalanadi: Qani, gapirib ko'rsinchi!

Buyruq gap kesimi ijro mayli bilan ifodalanishi mumkin: Ishlamaganingga qo'ymayman, ishlaysan.

Buyruq gap kesimi harakat nomi kerak, zarur, lozim, darkor formasidagi konstruksiyalar bilan ifodalanganda, ish-harakatni bajarish zaruriyligi yoki zarur emasligi anglashiladi: Va'daga vafo qilmoq kerak. (Maqol.)

Buyruq gaplar ilmiy uslubga oid adabiyotlarda ham qo'llanadi. Ba'zan o'quvchining diqqatini bayon etilayotgan fikrga jalb qilish uchun Qiyoslang, Yana bir masalaga ahamiyat bering, Chog'ishtiring tipidagi buyruq gaplarga murojaat etiladi.

Buyruq gaplarning ayrim tiplari standart holda bo'lib, ularda istak, maslahat o'ttenkalari sezilib turadi. Bu tip gaplar so'zlashuv uslubiga xosligi bilan xarakterlanadi: Baraka toping. Hushyor bo'ling. Yaxshi qoling. Xafa bo'lmang. Bor bo'ling. Shukur qiling. Madad qiling. Avf eting. Sog'-salomat bo'ling. Aylanib ketay. Urgilay kabi gaplar mana shunday gaplardir.

Buyruq gaplarning ikkinchi shaxsga qaratilgan ba'zi turlarining kesimi uchinchi shaxs formasida keladi: Qani, kirsinlar! (S. Abd.) Bu tip gaplar ko'proq so'zlashuv uslubiga xosdir.

Buyruq gap o'ziga xos ohang bilan aytiladi. Bunda ohang gapning modal ma'nolariga qarab turlicha bo'ladi. Qat'iy buyruq, do'q kabilar ifoda qilinganda, kuchli ohang bilan aytiladi. Maslahat, taklif kabilar ifodalanganda esa, ohang kuchsizroq, lekin darak gap ohangidan kuchliroq bo'ladi.

Undov gap. Undov gaplarda so'zlovchining ichki his-haya-joni, tuyg'usi yoki voqelikka bo'lgan turli emotsional munosabati ifodalanadi. So'zlovchining ichki hayajoni, tuyg'usini ifoda qiluvchi gaplar sof undov gaplardir. Bunda emotsionallik gapning asosiy magzini tashkil qiladi. Darak, so'roq, buyruq gaplar ham his-hayajon bilan aytilib, undov gapga aylanishi mumkin. Bu-larda asosiy maqsad ma'lum fikrni ifoda qilish bo'lib, emotsiya, effektlarni ifodalash esa qo'shimcha vazifadir.

Undov gap tarkibidagi emotsiya ifodalovchi bo'lak kuchli ohang bilan aytiladi.

Undov gaplarda zavqlanish, shodlik, hayratlanish, taajjub, achinish, gazab, nafrat kabi ichki kechinmalar ifodalanadi. Umuman, undov gaplar emotsionalligi bilan ajralib turadi. Ular ko'proq badiiy, so'zlashuv va publitsistik uslublar uchun xarakterlidir. Ularning shakllanishida qanday, qanaqa, naqadar, qancha, qaysi kabi emotsional-kuchaytiruv ma'nosidagi olmoshlar, undov so'zlar ishtirok etadi. Bulardan tashqari, intonatsiya ham bu tip gaplarning shakllanishida muhim rol o'ynaydi:

Kapsanchilar qishlog'i shunaqa chiroyli! (A. Q.) Tinch va ozod mehnat qilish, ilmiy, ma'rifatli bo'lish, osuda yashash qanday baxt! (V. 3.)

Undov gaplar faqat undov so'zlarning o'zidan tashkil topishi ham mumkin:

Voydod! Bu meni o'ldiradi. (H. G'.)

Ha-ha!— dedi Risolat buvi cho'zib.— Shunaqami hali, ishlab bo'psan. (S. 3.)

Bu tip gaplar dialog formasidagi nutqqa xos bo'lib, bo'laklarga ajralmaydigan gaplarning bir ko'rinishidir.

Undov gaplarda tartib muhim rol o'ynaydi. Kesimning prepozitiv holda kelishining o'zi emfaza hosil qiladi. Yashasin g'alabalarimizning ilhomchisi va tashkilotchisi jonajon Mustaqil Respublikamiz. Ha, zoye ketmadi o'sha kurashlar, uyqusiz tunlar!— dedi u ilgorigidek jo'shib. (Y. Sh.)

Undov gaplar rasmiy-yuridik tekstlarda qo'llanmaydi. Ba'zan ilmiy uslubga oid adabiyotlarda, ilmiy bahslarda undov gaplarga murojaat qilinadi.

14-§. GAP BO'LAKLARINING FUNKSIONAL QULLANISHI

Gap bo'laklari nutq uslublarida qo'llanishiga ko'ra o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bu ko'proq ularning ifodalanishi, forma-si, qo'llanishida ko'rinadi.

Ega ko'pincha kishilik olmoshining birinchi va ikkinchi shaxs formalari bilan ifodalanadi. Bunda ega logik urg'u olgan bo'l-sa, nutqda doim saqlanadi. Boshqa holatlarda (kesim shaxs-son ifoda qiluvchi formantlarga ega bo'lganda) uning qo'llanmasligi ko'p kuzatiladi: Men butun hayotimni o'qituvchilik ishiga bag'ish-layman. Butun hayotimni o'qituvchilik ishiga bag'ishlayman. Ikkin-chi gapda kesim formasi asosiy rol o'ynagan.

Men olmoshi bilan ifodalangan ega ko'pincha publitsistik nutqda tushirilmaydi. Bu publitsistik nutq tabiatidan kelib chiqadi: so'zlovchi shaxs muhim hisoblanib, suhbatdosh diqqati sub'yektga qaratilgan bo'ladi: Men bu yerda mana shu ulug' rus xalqi, uning azamat proletariati haqida bir necha so'z aytmoq-chiman. (V. Zohidov.) Lekin baxt tushunchasi baxtli hayot tushunchasidan yuqoriroq turadi — men bu gapni yoshlarga aytayotirman. (T. Qoriniyoziy.) Bu jihatdan ilmiy uslub o'zgacha: unda bunday ega o'rnida bi-rinchi shaxsning ko'plik formasi qo'llanadi. Umuman, ilmiy uslubda harakat sub'yektini ko'rsatmaslik tendensiyasi kuchli.

Eganing bir sostavli gap turlaridan shaxsi aniq, shaxsi no-anii, shaxsi umumlashgan turlarida qo'llanmasligi norma hisoblanadi, uni tushirilgan yoki yashiringan deb bo'lmaydi. Agar ega nutqqa kiritilsa, gapning mazmuni ham, strukturasi ham o'zga-radi. Qiyoslang: Boshingga qilich kelsa ham, to'g'ri gapir.—

Boshingga qilich kelsa ham, sen to'g'ri gapir.

So'zlashuv uslubida ega situatsiyaga ko'ra nutqda qo'llanmaydi: Bir gruppada studentlar olimpiadadan qaytayotgan o'rtoqlarini kutib olish uchun vokzal perroniga chiqishadi. Uzoqdan poyezd ko'-rinadi. Shu vaqtda kutuvchilardan biri Ana kelyapti deb yubora-di. Yana misol: Terim mashinasi yo'lda ko'ringan zahoti onasi:

So'zlashuv uslubida ega situatsiyaga ko'ra nutqda qo'llanmaydi: Bir gruppada studentlar olimpiadadan qaytayotgan o'rtoqlarini kutib olish uchun vokzal perroniga chiqishadi. Uzoqdan poyezd ko'-rinadi. Shu vaqtda kutuvchilardan biri Ana kelyapti deb yubora-di. Yana misol: Terim mashinasi yo'lda ko'ringan zahoti onasi:

— Keldi! Keldi!— deb, bizga peshvoz chiqdi. (P. Q.)

Topishmoqlarda harakat sub'yektini topish talab etilsa, ega qo'llanmaydi:

Sochlaringni silaydi, Ko'rolmaysan qo'lini. Qulog'ingga shivirlar, Tushunmaysan tilini. (Sh.)

Ega aktiv va passiv konstruksiyali gaplarda ma'nosiga ko'ra o'zgachadir. Aktiv konstruksiyali gaplarda ega harakat sub'yekti-ni ifodalaydi. Passiv konstruksiyali gaplarda esa harakat ob'yekti-ni ifodalaydi. Ega ob'yektni ifodalaganda, harakat sub'-yekti doim shaxs oti bo'lib, ko'makchili konstruksiya yoki jo'nalish kelishigi formasidagi so'zlar bilan ifodalanadi. Qiyoslang: To'y mahali, hamma o'yin-kulgi bilan band edi. (J. A.) Mutaxassisga berilgan otvod masalasi sud, prokuror, tergovchi yoki su-rishtiruv o'tkazgan shaxs tomonidan hal qilinadi. («Uzbekiston SSR Jinoyat protsessual kodeksi»dan.) Chopiq ishlari Mahfuza-ga topshirildi.

Passiv konstruksiyali gaplar ko'proq kitobiy nutqda, uning rasmiy-idoraviy uslubida qo'llanadi. So'zlashuv uslubida esa ega sub'yektni ifodalaydi. Kesim, nutq uslublarida qo'llanishiga ko'ra, ayrim xususiyat-larga ega. Masalan, ot-kesim (sodda ot-kesim ham, sostavli ot-kesim ham) ko'proq ilmiy va rasmiy idoraviy uslublarga, fe'l-kesim (sodda fe'l-kesim ham, sostavli fe'l-kesim ham) esa ko'proq so'zlashuv, badiiy, publitsistik uslublarga xosdir. Bu hol ularning maqsad va vazifalari bilan izohlanadi. Qiyos-l a n g:

Rasmiy-idoraviy uslubdan: Saylov binosida ovoz berish vaq-tida saylov to'g'risida agitatsiya qilishga yo'l qo'yilmaydi.

Saylov binosida tartib saqlanishi uchun uchastka saylov ko-missiyasining raisi javobgardir. (« Konstitutsiyasi»dan.)

Badiiy uslubdan: Ikromjon na bo'ri tovushini eshitar, na yuzlariga urilayotgan kamishlarning shitirlashini eshitar edi.(S. A.)

So'zlashuv uslubidan:— Seni akang boqolmay taqachiga top-shirgan ekan.

— dedi Ergash, — meni o'z otam qashshoqlikdan bir boyga topshirdi. (P. T.)

Publitsistik uslubdan: Bu konsert kechasidan ko'chaga bepoyon Vatanimiz, ajoyib xalqimiz, nuroniy hayotimiz uchun iftixor tuyg'usi bilan mag'rurlanib chiqqanimizda bir achchiq tarixiy faktni aytib berishdi menga. (V. 3.)

Kesim ilmiy va rasmiy-idoraviy uslublarda ko'proq uchinchi shaxs formasidagi majhullik va o'zlik nisbati formasidagi fe'llar bilan ifodalanadi. Bu vaqtda ilmiy uslubda kesim fe'lining ijr¹ mayl¹, rasmiy-idoraviy uslubda buyruq mayli orqali beriladi. Badiiy, so'zlashuv uslublarida esa bunday ke-simlar nisbatan kam uchraydi.

Fe'lining birinchi shaxs birlik formasi bilan ifodalangan kesim ilmiy uslubda kuzatilmaydi. Buning o'rnida uning ko'plik formasi ishlatiladi: Uzlik daraja formasi ob'yektl¹ fe'l-ni ob'yektsiz fe'lga aylantirishini ko'rgan edik. (Uzb. t. gram., 1 t.)

Badiiy, publitsistik va so'zlashuv uslublarida sostavli fe'l-kesimlarning murakkab formalari ko'p kuzatiladi:

Mayli, men sizni savodli kilganim bo'lsin!— dedi Elmu-rod. (P.T.)

Onam betob bo'lib qoluvdi: ro'zg'orga qarashdim,— dedi as-ta. (P.T.)

Sostavli fe'l-kesimlarning har ikki komponenti tuslovchi qo'shimchalar olib kelish hollari ham uchraydi. Bunday kesimlar ko'proq so'zlashuv uslubiga xos: Bu kishi hidlab o'tirmaydi, to'g'-ri yeydi-qo'yadi. (A. Q.) Birpasda Ikromjonning qaddi bukildi-koldi. (S. A.) Traktorist bo'lding-qo'yding. (U. U.)

So'zlasho'v uslubida kesimning yana shunday ko'rinishlari uch-raydi: Dadasi bolaginamni koyigani koyigan. (S. A.) Endi siz-ning etagingizni ushlaganim-ushlagan, Urmonjon aka. (A. Q.)

Bu misollarda kesim tarkibidagi har ikki so'z o'z leksik ma'nosini saqlagan.

Nutqda sub'yekt va predikatni keng ifodalash zaruriyati tu-fayli ikkinchi darajali bo'laklarga murojaat etiladi. Ilmiy uslub uchun ko'proq ot yoki otlashgan so'zlar bilan ifodalangan ikkinchi darajali bo'laklar muhim bo'lsa, badiiy uslub uchun sifat, ravish, ularning o'rnida qo'llanuvchi olmosh, fe'lining si-fatdosh, ravishdosh formalari bilan ifodalangan ikkinchi da-rajali bo'laklar xarakterlidir.

Badiiy uslubdan: Kabinet birin-ketin iljayishib kirib kel-gan katta-kichik va bir xil ko'kish forma kiygan bolalar bilan to'ldi. (P. T.)

Badiiy uslubning obrazlilikiga sabab unda sifatlovchilar-ning ko'p qo'llanishidir. Ko'pincha bir predmet sifatdosh oborot-lar, ega-kesim shaklidagi yoyiq aniqlovchilar hamda uyushgan va uyushmagan sifatlovchilar bilan

aniqlanadi. Ba'zan sifatdosh oborotlar birdan ortiq kelishi ham mumkin: Qisqa-yu, dalilli chin so'z «Pravda» — Yengil, to'rt sahifa olamga mashhur: (G'. G'.)

Bu hol publitsistik uslub uchun ham xarakterli: Har birisi asrlarga teng keladigan bu azamat yillar shu do'stlik, shu ham-korlikning tantanasidir. (V. 3.)

Nutq uslublarning boshqa turlarida ham sifatlovchiga ko'p murojaat qilinadi. Lekin badiiy uslub sifatlovchilarning ko'p qo'llanishi bilan *boshqa uslublardan xiyla ajralib turadi.

So'zlashuv uslubida shu uslubgagina xos ayrim sifatlovchilar ko'zga tashlanadi: Go'ringdan tutun chiqqur Rahmatilla domla aytgan edi. (A. Q.)

Qaratuvchi-qaralmish konstruksiyasi badiiy va so'zlashuv uslublari nisbatan ilmiy uslubda ko'proq qo'llanadi. Bu uslubning ekstralingvistik belgisi bilan izohlanadi.

Qaratuvchining belgili-belgisiz qo'llanishi mavjud adabiyotlarda keng yoritilgan. Nutqda birdan ortiq qaratqich qator kelishi mumkin. Bu vaqt-da ularning biri belgili, qolganlari belgisiz qo'llanadp: V. I. — xalqlari qon-qardoshligining buyuk ijod-kori. Bunda uchinchi qaratuvchi belgili qo'llangan. Buning bel-gisiz qo'llanishi mumkin emas. Bu uning o'z aniqlovchisiga ega bo'lishi, tarkibida egalik affiksining mavjudligi, qaralmish bilan distant holda bo'lishi bilan izohlanadi. Bunday payt-larda qaratuvchi doimo belgili qo'llanadi. Buni qaratuvchi va qaralmishning semangikasi ham, uslub ham taqozo qiladi.

Kontakt holatda kelgan qaratuvchi va qaralmish konstruksiya-sida qaratuvchi uslub talabiga ko'ra belgili va belgisiz kelishi mumkin. Quyidagi gapga diqqat qilaylik: Mohidil kundan-kun inson tabiatining naqadar murakkabligini chuqurroq tushuna boshladi. (J. A.) Bu gapdagi belgisiz qaratuvchini belgili qo'llash mumkin: Mohidil kundan-kun insonning tabiati naqadar murakkabligini yanada chuqurroq tushuna boshladi. Bu har ikki gap ma'no ottenkasi bilan farq qiladi. Birinchi gapda inson tabiatining naqadar murakkabligi, ikkinchi gapda esa qarash-lilik ma'nosi ta'kidlanaypti.

Qaratuvchi poeziyada ba'zan vazn, turoq talabiga ko'ra belgi-siz qo'llanishi mumkin:

Cheksiz ulug' Vatan har kaft tuprog'i

Siz bosgan qadamlar bo'ldi chamanzor. (G'. G'.)

Qaratuvchi-qaralmish konstruksiyalarida kompressiya (tejamkorlik) qonuniyati asosida qaratuvchi qo'llanmasligi, qarashli-lik ma'nosi faqat egalik formasidagi otlar bilan ifodalani-shi ham mumkin: Nutqing doston ham bo'lmasin, qisqa ruboiy ham bo'lmasin, o'rtamiyona g'azal bo'lsin. (H. G'.) Aqling mog'or bosmaganimi bu? (A. Q.)

So'zlashuv uslubida egalik affikslari qo'llanmasdan taalluq-lilik belgisiz

ifodalanishi mumkin. Esimni tanibmanki, biz-ning xonadonda ayolga qo'l ko'targan kimsani bilmayman. («Saodat» jurn.)

— gani, yuring, — dedi Tursunali aka o'rnidan turib. — Biz-ning qizniig choyidan ichamiz. (U. U.)

Bu hol poeziyada ham uchraydi. Buni vazn va turoq taqozo qiladi:

Mukammal odamni yaratmak uchun

Faqat bizning qonun bo'ladi asos. (G'. G'.)

Vositasnz to'ldiruvchining belgili-belgisiz qo'llanishi ham stilistik ahamiyat kasb etadi. Bu holat mavjud lingvistik ada-bpyotlarda, darslikning «Morfologik stilistika» bobida keng izohlangan. Bu o'rinda quyidagilarga to'xtalib o'tamiz:

Kelishiklarning ma'nolari ko'makchilarning ma'nolari va funksiyalari bilan munosabatdor bo'lishi mumkin. Bu hol nutq-da kelishikli va ko'makchili konstruksiyalar sinonimiyasini yuza-ga keltiradi: telefonda gaplashdim — telefon orqali gaplashdim.

Ayrim o'rinlarda jo'nalish kelishigi — tomon ko'makchisili konstruksiya bilan sinonimiya hosil qiladi. Bunday konstruksiya-lar tarkibida kelishik affiksi qo'llanishi ham mumkin: Sayyora yigitlarni markaziy fontan tomon boshlab ketdi. (U. U.) Ba'zan ko'makchi kelishik affiksini olib kelishi ham mumkin: Alyosha daryo bo'yidagi o'tloq tomonga qarab-qarab qo'yardi. (J. A.) Yigit istar-istamas chodir tomonga keta boshladi. (S.Ahm.) Uzbek adabiy tilida kelishik formali gap bo'laklari stan-dart holda bo'ladi: har bir kelishik bitta grammatik formaga ega. So'zlashuv va badiiy uslublarda esa ularning boshqacha ko'ri-nishlari ham qo'llanadi.

Poeziyada ba'zan qaratuvchi affiksi -« shaklida uchraydi.

Bu Vatan — lar xalqin tuprog'i, Muqaddas, dahlsiz—buni bilib qo'y!(G'.G'.)

Qaratuvchi affiksi so'zlashuv uslubida -ni shaklida qo'lla-nadi: Foydasi yo'q hozir gapirishni. (U. U.)

Vositasiz to'ldiruvchi affiksi -ni poetik asarlarda ba'zan -n, klassik adabiyotda -i shaklida uchraydi.

Dushman kelib bog'imdan gul uzolmas, Go'daklarning tinch uyqusin buzolmas.

Har fasl o'z ishin bilsin, Qishvoy qishligin qilsin. (Q. M.)

Adl qulog'i-la eshit holimi. (M.)

So'zlashuv uslubida -ni affiksi -di, -ti shaklida ham uch-raydi.

Yozma yodgorliklar, klassik adabiyot va folxlor asarlarida chiqish kelishigi formasidagi gap bo'laklari affiksi -din, -tin, -tan, -nan shaklida keladi:

Bu hikmat Rusiyaning davlatidin,

Bo'libdur ilmning xosiyatidin. (Furqat.)

Gavhar balchiqqa tushgani bilan, qimmatini yo'qolmas va o'z baho-sidin qolmas.(I. S.)

Jo'nalish kelishigi formasidagi gap bo'lagining affiksi poeziyada -a shaklida ham uchraydi:

Dugonajon, dugona,

Chehrang zebi-zebona,

Ovoz kilib har yona,

Bizlarni, e durdona,

Chaqirdingmi bu yona?(V. S.)

Uslubiy qo'llanmada "" faniga oid ma'ruzalarning mazmun-mohiyatini talaba yoshlarga etkazish, unda ko'tarilgan axloqiy-tarbiyaviy masalalarni ular ongiga singdirish bo'yicha ta'lim berish texnologiyasi keltirilgan.

Tuzuvchilar: dots. A.Musayev

katta o'qituvchi Z Abduvalieva

“Charxpalak” texnologiyasi

- **Texnologiyaning tavsifi.** Ushbu texnologiya talabalarni oʻtilgan mavzularni yodga olishga, mantiqan fikrlab, berilgan savollarga mustaqil ravishda toʻgʻri javob berishga va oʻz-oʻzini baholashga oʻrgatishga hamda qisqa vaqt ichida oʻqituvchi tomonidan barcha talabalarning egallagan bilimlarini baholashga qaratilgan.
- **Texnologiyaning maqsadi.** Talabalarni dars jarayonida mantiqiy fikrlash, oʻz fikrlarini mustaqil ravishda erkin bayon eta olish, oʻzlarini baholash, yakka va guruhlarda ishlashga, boshqalar fikriga hurmat bilan qarashga, koʻp fikrlardan keraklisini tanlab olishga oʻrgatish.

“Zinama - zina” texnologiyasi

- **Texnologiyaning tavsifi.** Ushbu mashğulot talabalarni oʻtilgan yoki oʻtilishi kerak boʻlgan mavzu boʻyicha yakka va kichik jamoa boʻlib fikrlash hamda xotirlash, oʻzlashtirilgan bilimlarni yodga tushirib, toʻplangan fikrlarni umumlashtira olish va ularni yozma, rasm, chizma koʻrinishida ifodalay olishga oʻrgatadi. Bu texnologiya talabalar bilan bir guruh ichida yakka holda yoki guruhlarga ajratilgan holda yozma ravishda oʻtkaziladi va taqdimot qilinadi.
- **Texnologiyaning maqsadi.** Talabalarni erkin, mustaqil va mantiqiy fikrlashga, jamoa boʻlib ishlashga, izlanishga, fikrlarni jamlab ulardan nazariy va amaliy tushuncha hosil qilishga, jamoaga oʻz fikri bilan taʼsir eta olishga, uni maʼqullashga, shuningdek, mavzuning tayanch tushunchalariga izoh berishda egallagan bilimlarini qoʻllay olishga oʻrgatish.

“Muammo” texnologiyasi


- Talabalarga oʻquv predmetining mavzusidan kelib chiqqan turli muammoli masala yoki vaziyatlarning yechimini toʻgʻri topishlariga oʻrgatish, ularda muammoning mohiyatini aniqlash boʻyicha malakalarni shakllantirish, muammoni yechishning baʼzi usullari bilan tanishtirish va muammoni yechishda mos uslublarni toʻgʻri tanlashga oʻrgatish, muammoni kelib chiqish sabablarini va muammoni yechishdagi hatti-harakatlarni toʻgʻri aniqlashga oʻrgatish.

“Labirint” texnologiyasi

- **Texnologiyaning maqsadi.** Talabalarning o'quv va hayotiy faoliyatlarida uchraydigan turli holat va vaziyatlardan o'z obrõlarini saqlagan holda chiqish, vaziyatni tõg'ri baholash va tezlik bilan kerakli yechimini topish kõnikmalarini shakllantirish, shu boradagi malakalarini oshirishga kõmaklashish, ularning fikrlash qobiliyati va nutqiy faoliyatini õstirish hamda muloqot qilish madaniyatini shakllantirish.

“Blits-sōrov” usuli

- **Usulning tavsifi.** Ushbu usul talabalarni harakatlar ketma-ketligini tōgri tashkil etishga, mantiqiy fikrlashga, ōrganayotgan predmeti asosida xilma-xil fikrlar, ma'lumotlar ichidan kerakligini tanlab olishni, shu bilan bir qatorda, ōzgalar fikrini hurmat qilish va ularga ōz fikrini ōtkaza olish hamda ōz faoliyati, kunini rejalashtira olishni ōrgatishga qaratilgan.
- **Usulning maqsadi.** Ushbu usul orqali talabalarga tarqatilgan qoғozlarda kōrsatilgan harakatlar ketma-ketligini avval yakka tartibda mustaqil ravishda belgilash, kichik guruhlarda o'z fikrini boshqalarga ōtkaza olish yoki ōz fikrida qolish, boshqalar bilan hamfikir bōla olish kabi kōnikmalarni shakllantirish.



“O‘zbek tili stilistikasi” fanini o‘rganish bo‘yicha o‘qitiladigan ma‘ruza, amaliy mashg‘ulotlarining ta‘lim berish texnologiyalarini ishlab chiqishning kontseptual asoslari

O‘zbekiston bugun xalqaro hamjimiyaatning va global moliyaviy-iqtisodiy bozorning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanayotgan bir davrda, o‘qish va o‘qitish ishlarida ham jahon standartlariga moslashish, mutaxassis kadrlarni yangi talablar va uslublar asosida tayyorlash, ularga zamonaviy bilimlarni berish dolzarb masalalardan biridir.

SHunday ekan, O‘zbekiston yosh, rivojlanayotgan mamlakatlar ichida birinchilardan bo‘lib ta‘lim tizimini isloh qilishga kirishdi va Respublikamizda kadrlar tayyorlash “Milliy dastur”i va “Ta‘lim to‘g‘risidagi” qonunlar qabul qilindi.

“Ta‘lim to‘g‘risida”gi qonun, Prezidentimizning “O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda” kitobi, Oliy majlisning birinchi sessiyasida qilgan ma‘ruzalaridan kelib chiqib, respublikamizda kasblar yo‘nalishi bo‘yicha mutaxassis kadrlar tayyorlashga alohida e‘tibor berilmoqda.

Bu sohada, ya‘ni kadrlar tayyorlash va ta‘lim samaradorligini oshirishda bir qator loyihalar, iqtisodiy ta‘lim islohotlari amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning kishilarning umumta‘lim va professional malaka darajasini oshirish, yangi talablar asosida kishilarning savodhonligini oshirish, uzluksiz ta‘lim tizimini joriy qilish borasidagi tashabbuslari negizida barcha sohalarda etuk mutaxassislar va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash orqali tarmoqlardagi o‘shish parametrlarining yaxshilanishiga erishilmoqda.

Ma‘lumki, uzluksiz va uzviylik ta‘lim tizimida ortiqcha takroriylikka chek qo‘yib, eng avvalo, jamiyatning ma‘naviy va intellektual salohiyatini kengaytiradi, qolaversa, davlatning ijtimoiy va ilmiy–texnik taraqqiyotini takomillashtirish omili sifatida ishlab chiqarishning barqaror rivojlanishini ta‘minlaydi. Pedagogik texnologiyalarning rivojlanishi va ularning o‘quv – tarbiya jarayoniga kirib kelishi oqibatida, shuningdek axborot texnologiyalarining tez almashinuvi va

takomillashuvi jarayonida har bir inson uchun o'z kasbiy tayyorgarligini, mahoratini kuchaytirish imkoniyati yaratildi.

Ta'limning barcha bosqichlariga oid umumiy pedagogik va didaktik talab talabani dasturiy bilim, tasavvur va ko'nikmalari asosida mustaqil ishlash samaradorligini takomillashtirish, ilmiy fikrlashga, o'quv faniga qiziqishni kuchaytirish, kasbiy bilimlarini faolligini oshirishdan iboratdir. Ta'limda pedagogika tajribasi, zamonaviy pedagogik texnologiyalarining talabalarni fanga qiziqitirishga, ularning mustaqil ishlashda faolliklarini oshirishda imkoniyati cheksiz ekanligi tasdiqlanmoqda.

Ta'limning bugungi vazifasi o'quvchilarni kun–sayin oshib borayotgan axborot–ta'lim muhiti sharoitida mustaqil faoliyat ko'rsata olishga, axborot oqimidan oqilona foydalanishga o'rgatishdan iboratdir. Buning uchun ularga uzluksiz ravishda mustaqil ishlash imkoniyati va sharoitini yaratib berish zarur. Aytish lozimki, ta'lim sohasi jamiyat hayotining iqtisodiy sohasida o'ziga xos muhim ahamiyat kasb etsa, ta'lim faoliyati esa, jamiyat iqtisodiy rivojlanishining muhim bir bo'lagi hisoblanadi. SHu sababli, iqtisodiy ta'lim jarayonini texnologiyalashtirish, aniq vazifalarni qo'ygan holda, dars mashg'ulotlarining usul va vositalarini to'g'ri tanlash orqali shaxsning intellektual salohiyati va ijodiy qobiliyatini rivojlantirish, jamiyatdagi har bir fuqaroning bilim va malakasini oshirish, tezkor ta'lim uchun shart-sharoit yaratish mumkin.

Ma'naviy ta'lim-tarbiya kishilarning tafakkuri, axloqiy va ishchanlik sifatlarini, tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish, ijtimoiy faolligini oshirishga imkon beradi; o'z-o'ziga talabchanlik va mas'uliyat hissi ortadi. Ma'naviy tarbiya natijasida texnologik jarayonlar va jihozlarning yangilanishi, yuqori sifatli mahsulotlar tayyorlash, shaxsiy muvaffaqiyat va farovonlikka olib keladi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim. Bu ta'lim o'z mohiyatiga ko'ra ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to'laqonli rivojlanishlarini ko'zda tutadi. Bu esa ta'limni loyihalashtirilayotganda, albatta, ma'lum bir ta'lim oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog'liq o'qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondoshishni nazarda tutadi.

Tizimli yondashuv. Ta'lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o'zida mujassam etmog'i lozim: jarayonning mantiqiyligi, uning barcha bo'g'inlarini o'zaro bog'likligi, yaxlitligi.

Faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv. Individdning jarayonli sifatlarini shakllantirish, ta'lim oluvchining faoliyatini faollashtirish va tezlashtirish, o'quv

jaryonida uning barcha qobiliyati va imkoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga yo'naltirilgan ta'limni ifodalaydi.

Hamkorlikdagi ta'limni tashkil etish. Ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi o'rtasida demokratik, tenglik, hamkorlik kabi o'zaro sub'ektiv munosabatlarga, faoliyat maqsadi va mazmunini birgalikda shakllantirish va erishilgan natijalarni baholashga e'tiborni qaratish zarurligini bildiradi.

Muammoli ta'lim. Ta'lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish asosida ta'lim oluvchilarning o'zaro faoliyatini tashkil etish usullaridan biridir. Bu jarayon ilmiy bilimlarni ob'ektiv qarama-qarshiligi va uni hal etish usullarini aniqlash, dialektik tafakkurni va ularni amaliy faoliyatda ijodiy qo'llashni shakllantirishni ta'minlaydi.

Axborotni taqdim qilishning zamonaviy vositalari va usullarini qo'llash – bu yangi kompyuter va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashdir.

O'qitish uslublari va texnikalari. Ma'ruza (kirish, mavzuiy, ma'lumotli, ko'rgazmali (vizuallashtirgan), anjuman, aniq vaziyatlarni echish), munozara, muammoli uslub, pinbord, aqliy hujum, tezkor –so'rov, savol-javob, amaliy ishlash usullari.

O'qitishni tashkil etish shakllari: dialog, polilog, muloqot, hamkorlik va o'zaro o'qitishga asolangan frontal, jamoaviy va guruhlarda o'qitish.

O'qitish vositalari: o'qitishning an'anaviy vositalari (o'quv qo'llanma, ma'ruza matni, tarqatma materiallar) bilan bir qatorda – chizmalik organayzerlar, kompyuter va axborot texnologiyalari.

Kommunikatsiya usullari: talabalar bilan tezkor qaytar aloqaga asoslangan bevosita o'zaro munosabatlar.

Qaytar aloqalarning (ma'lumotning) usul va vositalari: tezkor-so'rov, o'qitish diagnostikasi.

Boshqarish usullari va vositalari: o'quv mashg'uloti bosqichlarini belgilab beruvchi texnologik karta ko'rinishidagi o'quv mashg'ulotlarini rejalashtirish, qo'yilgan maqsadga erishishda o'qituvchi va tinglovchining birgalikdagi harakati, nafaqat auditoriya mashg'ulotlari, balki auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarning nazorati.

Monitoring va baholash: o'quv mashg'ulotida va butun kurs davomida mavzu yuzasidan nazorat savollarini berib borish orqali o'qitishning natijalari rejali tarzda kuzatib boriladi. Kurs oxirida test topshiriqlari yordamida tinglovchilar (talabalar)ning bilimlari baholanadi.

MARUZA MASHG'ULOTLARINING TA'LIM TEXNOLOGIYASI

1-mavzu

1-Mavzu (2 soat) : O'zbek tili stilistikasining maqsad va vazifalari.

“O'zbek tili stilistikasining maqsad va vazifalari. ” mavzusidagi ma'ruza bo'yicha Ta'lim berish texnologiyasining modeli

Mashg'ulot vaqti-2 soat	Talabalar soni: 116 gacha
Mashg'ulot shakli	Kirish-axborotli ma'ruza
Ma'ruza rejasi	Reja: 1. Tadqiqotchilarning stilistika haqidagi mulohazalari. 2. Stilistikaning bo'limlari haqida fikrlar. 3. Stilistikaning o'rganilishi va uning uslublari haqida. 4. Xulosa.
O'quv mashg'ulotining maqsadi: Fan haqida umumiy tushuncha berish. Talabalarni O'zbek tili stilistikasi fanining o'ziga xos xususiyatlari, taraqqiyot bosqichlari, tilning tarkibi va tizimi, yozma adabiyot bilan munosabati bilan tanishtirish.	
Pedagogik vazifalar: • Fanning maqsadi va vazifalari, o'tiladigan mavzularga tuzilmaviy mantiqiy chizma asosida tushuncha berish; • Talabalarga fanning o'ziga xos	O'quv faoliyati natijalari: • Fanning maqsadi va vazifalari, o'tiladigan mavzularga tuzilmaviy mantiqiy chizma asosida sharhlanadi.

xususiyatlari to'g'risida ma'lumotlar berish; - Talabalarga til taraqqiyot davrlari haqida ma'lumotlar berish; - Talabalarni O'zbek tili stilistikasi ning tarkibi va tizimi bilan tanishtirish; Talabalarni O'zbek tili stilistikasi faning boshqa fanlar bilan munosabatini tanishtirish.	- fanning o'ziga xos xususiyatlarini ochib beriladi. - fanning taraqqiyot davrlarini yoritib beriladi. - fanning tarkibi va tizimi ko'rsatib beriladi. - fanning boshqa fanlar bilan munosabati dalillab beriladi
Ta'lim berish usullari	Ko'rgazmali ma'ruza, suhbat
Ta'lim berish shakllari	Ommaviy, jamoaviy
Ta'lim berish vositalari	O'quv qo'llanma, proektor
Ta'lim berish sharoiti	O`TV bilan ishlashga moslashtirilgan auditoriya
Monitoring va baholash	Og'zaki nazorat: savol-javob

“O'zbek tili stilistikasining maqsad va vazifalari.” ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
Tayyorgarlik bosqichi	1. Mavzu bo'yicha o'quv mazmunini tayyorlash. 2. Kirish ma'ruzasi uchun taqdimot slaydalarini tayyorash. 3. Talabalar o'quv faoliyatini baholash mezonlarini ishlab chiqish. 4. O'quv kursini o'rganishda foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxatini ishlab chiqish.	

1. Mavzuga kirish (15 daqiq)	1.1. O`quv kursi nomini aytadi. Ekranga kursning tuzilmaviy mantiqiy chizmasini chiqaradi mavzular ro`yxatini beradi va ularga qisqacha ta`rif beradi (1-ilova).</p> <p>1.2. Birinchi mashg`ulot mavzusi, uning maqsadi va o`quv faoliyati natijalari bilan tanishtiradi.</p> <p>1.3. Talabalar o`quv faoliyatini baholash mezonlari bilan tanishtiradi (2-ilova). 1.4. Talabalar bilimlarini faollashtirish maqsadida savollar beradi (3-ilova).	Tinglaydilar. Tinglaydilar Talabalar berilgan savollarga javob beradilar.
2- bosqich Asosiy bosqich (55 daqiq)	2.1. Rower Point dasturi yordamida slaydlarni namoyish qilish va izohlash bilan mavzu bo`yicha asosiy nazariy jihatlarini tushuntirib beradi.</p> <p>2.2. Fan haqida umumiy tushuncha beriladi, shuning uchun u jamoa ijodi hisoblanishi, ijodiy metod masalasi, fan ekanligi slaydlar namoyishi orqali tushuntiriladi. (4-ilova).</p> <p>2.3 O`zbek tili stilistikasi taraqqiyot davrlari, qadimgi yozma obidalar orqali e`tib kelishi, hozirgi ahvoli haqida slaydlar namoyishi orqali ma`lumotlar beriladi (5-ilova). 2.3. O`zbek tili stilistikasi tarkibi va tizimi slaydlar orqali tushuntirib beriladi (6-ilova).</p> <p>2.4. Talabalar bilimlarini faollashtirish va mustahkamlash maqsadida quyidagi savollar beriladi:</p> <p>2.5 1. O`zbek tili stilistikasi fanining markaziy masalalari nima? 2. Fonetika va stilistika Leksikologiya va stilistika Grammatika va stilistika	Tinglaydilar, yozadilar. Talabalar berilgan savollarga javob beradilar.

		Tinglaydilar, yozadilar.
3. Yakii bosqich (10 daqiqqa)	3.1. Mavzu bo`yicha talabalarda yuzaga kelgan savollarga javob beradi, yakunlovchi xulosa qiladi.  3.2. Mustaqil ishlash uchun o`tilgan mavzuni o`rganib kelish topshiriladi va Insert texnikasi asosida mazkur o`quv materialini o`rganib kelish vazifasini beradi.	Savollar beradilar. Vazifani yozib oladilar.

SYEMINAR

MASHG`ULOTLARI

UMUMIY TILSHUNOSLIKNING PREDMETI, BAHS MAVZULARI VA ASOSIY VAZIFALARI." ma`ruza mashg`ulotining texnologik xaritasi

1-ilova

Muloqotga ishtirok etuvchilarga eslatma!

1. Muloqot muammoni echishga qaratilgan usuldir.
2. Gapirayotganda uzoq so`ylama, boshqalar ham o`z fikrlarini bayon etishlarini unutma.
3. Hissiyotni jilovlagan holda fikringni shunday jamlab aytki, u murod nishoniga tegsin.
4. Muxolifatingni so`zlarini hurmat bilan tingla.
5. Monosabatingni aniq bergin va fikrlar takrorlanishiga yo`l qo`yma!
6. O`z bilimdonliging, iqtidoring va zakovatingni ko`rsatish uchun so`ylama, balki munozara mavzusi doirasida so`z yuritgin.

Har bir ma`ruza va amaliy mashg`ulot uchun 2.0 balldan 1.1 gacha ballgacha qo`yiladi. Reyting bo`yicha natijalar bahosi:

2.0 ball - «a`lo»

1,6 ball - «yaxshi»

1.1 ball - «koniqarli»

0,5 ball - «qoniqarsiz»

Jonlantirish uchun savollar:

1.O`zbek tili stilistikasi fanining markaziy masalalari nima?

2. Fonetika va stilistika

3.Leksikologiya va stilistika

4.Grammatika va stilistika

2.1.Ta'lim berish texnologiyasining modeli

Tilshunoslikning paydo bo'lishida materialistlar va idealistlarning fikrlari nimalardan iborat?

2. Til to'g'risidagi nazariyalarni tarixiy jihatdan necha turga bo'lish mumkin?
3. Qadimgi Hind tilshunosligida lingvistik qarashlar?
4. Hind tilshunoslari necha reja asosida tilni o'rganganlar?
5. Qadimgi Gretsiya va Yunonistonda til muammolarini qanday o'rgangan?

MARUZA MASHG'ULOTLARINING TA'LIM TEXNOLOGIYASI

2-mavzu	2-Mavzu (2 soat) Funktsional uslublar va fonetik stilistika haqida.
---------	---

Funksional uslublar va fonetik stilistika haqida." mavzusidagi ma'ruza bo'yicha Ta'lim berish texnologiyasining modeli

Mashg'ulot vaqti-2 soat	Talabalar soni: 116 gacha
Mashg'ulot shakli	Kirish-axborotli ma'ruza
Ma'ruza rejas	Reja: 1. Nutqning funksional uslublari haqida ma'lumot. 2. Funktsional uslublarning ko'rinishlari hususida tushuncha.

	3. Fonetik stilistika haqida ma'lumot.
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> Fan haqida umumiy tushuncha berish. Talabalarni O'zbek tili stilistikasi fanining o'ziga xos xususiyatlari, taraqqiyot bosqichlari, tilning tarkibi va tizimi, yozma adabiyot bilan munosabati bilan tanishtirish.	
<i>Pedagogik vazifalar:</i> - Fanning maqsadi va vazifalari, o'tiladigan mavzularga tuzilmaviy mantiqiy chizma asosida tushuncha berish; - Talabalarga fanning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida ma'lumotlar berish; - Talabalarga til taraqqiyot davrlari haqida ma'lumotlar berish; - Talabalarni O'zbek tili stilistikasi ning tarkibi va tizimi bilan tanishtirish; Talabalarni O'zbek tili stilistikasi faning boshqa fanlar bilan munosabatini tanishtirish.	<i>O'quv faoliyati natijalari:</i> - Fanning maqsadi va vazifalari, o'tiladigan mavzularga tuzilmaviy mantiqiy chizma asosida sharhlanadi. - fanning o'ziga xos xususiyatlarini ochib beriladi. - fanning taraqqiyot davrlarini yoritib beriladi. - fanning tarkibi va tizimi ko'rsatib beriladi. - fanning boshqa fanlar bilan munosabati dalillab beriladi
<i>Ta'lim berish usullari</i>	Ko'rgazmali ma'ruza, suhbat
<i>Ta'lim berish shakllari</i>	Ommaviy, jamoaviy
<i>Ta'lim berish vositalari</i>	O'quv qo'llanma, proektor
<i>Ta'lim berish sharoiti</i>	O'TV bilan ishlashga moslashtirilgan auditoriya
<i>Monitoring va baholash</i>	Og'zaki nazorat: savol-javob

“Funksional uslublarning bo'linishi” haqida

ma`ruza mashg`ulotining texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta`lim beruvchi	Ta`lim oluvchilar
Tayyorgarlik bosqichi	1. Mavzu bo`yicha o`quv mazmunini tayyorlash. 2. Kirish ma`ruzasi uchun taqdimot slaydalarini tayyorash.</p> <p>3. Talabalar o`quv faoliyatini baholash mezonlarini ishlab chiqish. 4. O`quv kursini o`rganishda foydalaniladigan adabiyotlar ro`yxatini ishlab chiqish.	
1. Mavzuga kirish (15 daqiqa)	1.1. O`quv kursi nomini aytadi. Ekranga kursning tuzilmaviy mantiqiy chizmasini chiqaradi mavzular ro`yxatini beradi va ularga qisqacha ta`rif beradi (1-ilova).</p> <p>1.2. Birinchi mashg`ulot mavzusi, uning maqsadi va o`quv faoliyati natijalari bilan tanishtiradi.</p> <p>1.3. Talabalar o`quv faoliyatini baholash mezonlari bilan tanishtiradi (2-ilova). 1.4. Talabalar bilimlarini faollashtirish maqsadida savollar beradi (3-ilova).	Tinglaydilar. Tinglaydilar Talabalar berilgan savollarga javob beradilar.
2-bosqich Asosiy bosqich (55 daqiqa)	2.1. Rower Point dasturi yordamida slaydlarni namoyish qilish va izohlash bilan mavzu bo`yicha asosiy nazariy jihatlarini tushuntirib beradi.</p> <p>2.2. Fan haqida umumiy tushuncha beriladi, shuning uchun u jamoa ijodi hisoblanishi, ijodiy metod masalasi, fan ekanligi slaydlar namoyishi orqali tushuntiriladi. (4-ilova).</p> <p>2.3 O`zbek tili stilistikasi taraqqiyot davrlari, qadimgi yozma obidalar orqali etib kelishi, hozirgi ahvoli haqida slaydlar namoyishi orqali	Tinglaydilar, yozadilar.

	ma'lumotlar beriladi (5-ilova). 2.3. O'zbek tili stilistikasi tarkibi va tizimi slaydlar orqali tushuntirib beriladi (6-ilova). 2.4. Talabalar bilimlarini faollashtirish va mustahkamlash maqsadida quyidagi savollar beriladi: 2.5 1.	Talabalar berilgan savollarga javob beradilar. Tinglaydilar, yozadilar.
3. Yakii bosqich (10 daqiqa)	3.1. Mavzu bo'yicha talabalarda yuzaga kelgan savollarga javob beradi, yakunlovchi xulosa qiladi. 3.2. Mustaqil ishlash uchun o'tilgan mavzuni o'rganib kelish topshiriladi va Insert texnikasi asosida mazkur o'quv materialini o'rganib kelish vazifasini beradi.	Savollar beradilar. Vazifani yozib oladilar.

"Funksional uslublarning bo'linishi" haqida

Muloqotga ishtirok etuvchilarga eslatma!

8. Muloqot muammoni echishga qaratilgan usuldir.
9. Gapirayotganda uzoq so`ylama, boshqalar ham o`z fikrlarini bayon etishlarini unutma.
10. Hissiyotni jilovlagan holda fikringni shunday jamlab aytki, u murod nishoniga tegsin.
11. Muxolifatingni so`zlarini hurmat bilan tingla.
12. Monosabatingni aniq bergin va fikrlar takrorlanishiga yo`l qo`yma!
13. O`z bilimdonliging, iqtidoring va zakovatingni ko`rsatish uchun so`ylama, balki munozara mavzusi doirasida so`z yuritgin.
14. Fikringni qabul qilishlari va uni ma`qul to'g'ri deb hisoblashi uchun harakatlan!

2-ilova

Har bir ma`ruza va amaliy mashg`ulot uchun 2.0 balldan 1.1 gacha ballgacha qo`yiladi. Reyting bo`yicha natijalar bahosi:

2.0 ball - «a`lo»

1,6 ball - «yaxshi»

1.1 ball - «koniqarli»

0,5 ball - «qoniqarsiz»

»

Jonlantirish uchun savollar:

1. SAVOLLAR:

1. Morfologik stilistika haqida tushuncha.
2. Ot formalarining stilistik hususiyatlari.
3. Ko'plik kategoriyasining stilistikasi haqida.
4. Kelishik affikslarining stilistik hususiyatlari.
5. Egalik kategoriyasining stilistik ko'rinishlari.
6. Subektiv baho formalarining stilistik hususiyatlari.

➤ Cifalar, alqach-fol, ko'p, ko'pchilik, stilistik hususiyatlari

MARUZA MASHG`ULOTLARINING TA`LIM TEXNOLOGIYASI		
3-mavzu	3-Mavzu Grammatik stilistika.	
Mashg`ulot shakli	Kirish-axborotli ma`ruza	
Ma`ruza rejası	Reja: 1. So`z qo`llash haqida tushuncha. 2. Omonimlar va ularning tiplari haqida. 3. Sinonimlar. 4. Morfologik stilistika. 5. Ko`plik, kelishik va egalik kategoriyalarining stilistik xususiyatlari haqida. 6. Sintaktik stilistikaning imkoniyatlari. 7. Xulosa.	
O`quv mashg`ulotining maqsadi: Fan haqida umumiy tushuncha berish. Talabalarni O`zbek tili stilistikasi fanining o`ziga xos xususiyatlari, taraqqiyot bosqichlari,tilning tarkibi va tizimi, yozma adabiyot bilan munosabati bilan tanishtirish.		
Pedagogik vazifalar:		O`quv faoliyati natijalari:
• Fanning maqsadi va vazifalari, o`tiladigan mavzularga tuzilmaviy mantiqiy chizma asosida tushuncha berish;</li><li>• Talabalarga fanning o`ziga xos xususiyatlari to`g`risida		• Fanning maqsadi va vazifalari, o`tiladigan mavzularga tuzilmaviy mantiqiy chizma asosida sharhlanadi.

ma'lumotlar berish; • Talabalarga til taraqqiyot davrlari haqida ma'lumotlar berish; • Talabalarni O'zbek tili stilistikasi ning tarkibi va tizimi bilan tanishtirish; Talabalarni O'zbek tili stilistikasi faning boshqa fanlar bilan munosabatini tanishtirish.	• fanning o'ziga xos xususiyatlarini ochib beriladi. • fanning taraqqiyot davrlarini yoritib beriladi. • fanning tarkibi va tizimi ko'rsatib beriladi. • fanning boshqa fanlar bilan munosabati dalillab beriladi
Ta'lim berish usullari	Ko'rgazmali ma'ruza, suhbat
Ta'lim berish shakllari	Ommaviy, jamoaviy
Ta'lim berish vositalari	O'quv qo'llanma, proektor
Ta'lim berish sharoiti	O`TV bilan ishlashga moslashtirilgan auditoriya
Monitoring va baholash	Og'zaki nazorat: savol-javob

“Grammatik stilistika.” ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
Tayyorgarlik bosqichi	1. Mavzu bo'yicha o'quv mazmunini tayyorlash. 2. Kirish ma'ruzası uchun taqdimot slaydalarini tayyorash. 3. Talabalar o'quv faoliyatini baholash mezonlarini ishlab chiqish. 4. O'quv kursini o'rganishda foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxatini ishlab chiqish.	

1. Mavzuga kirish (15 daqiqqa)	1.1. O`quv kursi nomini aytadi. Ekranga kursning tuzilmaviy mantiqiy chizmasini chiqaradi mavzular ro`yxatini beradi va ularga qisqacha ta`rif beradi (1-ilova).</p> <p>1.2. Birinchi mashg`ulot mavzusi, uning maqsadi va o`quv faoliyati natijalari bilan tanishtiradi.</p> <p>1.3. Talabalar o`quv faoliyatini baholash mezonlari bilan tanishtiradi (2-ilova). 1.4. Talabalar bilimlarini faollashtirish maqsadida savollar beradi (3-ilova).	Tinglaydilar. Tinglaydilar Talabalar berilgan savollarga javob beradilar.
2- bosqich Asosiy bosqich (55 daqiqqa)	2.1. Rower Point dasturi yordamida slaydlarni namoyish qilish va izohlash bilan mavzu bo`yicha asosiy nazariy jihatlarini tushuntirib beradi.</p> <p>2.2. Fan haqida umumiy tushuncha beriladi, shuning uchun u jamoa ijodi hisoblanishi, ijodiy metod masalasi, fan ekanligi slaydlar namoyishi orqali tushuntiriladi. (4-ilova).</p> <p>2.3 O`zbek tili stilistikasi taraqqiyot davrlari, qadimgi yozma obidalar orqali e`tib kelishi, hozirgi ahvoli haqida slaydlar namoyishi orqali ma`lumotlar beriladi (5-ilova). 2.3. O`zbek tili stilistikasi tarkibi va tizimi slaydlar orqali tushuntirib beriladi (6-ilova). 2.4. Talabalar bilimlarini faollashtirish va mustahkamlash maqsadida quyidagi savollar beriladi: 2.5	Tinglaydilar, yozadilar. Talabalar berilgan savollarga javob beradilar. Tinglaydilar, yozadilar.
3. Yakii bosqich (10 daqiqqa)	3.1. Mavzu bo`yicha talabalarda yuzaga kelgan savollarga javob beradi, yakunlovchi xulosa qiladi.</p> <p>3.2. Mustaqil ishlash uchun o`tilgan mavzuni o`rganib kelish topshiriladi va Insert texnikasi asosida mazkur o`quv materialini o`rganib kelish vazifasini beradi.	Savollar beradilar. Vazifani yozib oladilar.

SEMINAR

MASHG'ULOTLARI

"Grammatik stilistika." amaliy mashg'ulotining texnologik xaritasi

Muloqotga ishtirok etuvchilarga eslatma!

15. Muloqot muammoni echishga qaratilgan usuldir.
16. Gapirayotganda uzoq so'ylama, boshqalar ham o'z fikrlarini bayon etishlarini unutma.
17. Hissiyotni jilovlagan holda fikringni shunday jamlab aytki, u murod nishoniga tegsin.
18. Muxolifatingni so'zlarini hurmat bilan tingla.
19. Monosabatingni aniq bergin va fikrlar takrorlanishiga yo'l qo'yma!
20. O'z bilimdonliging, iqtidoring va zakovatingni ko'rsatish uchun so'ylama, balki munozara mavzusi doirasida so'z yuritgin.

Har bir ma`ruza va amaliy mashg`ulot uchun 2.0 balldan 1.1 gacha ballgacha qo`yiladi. Reyting bo`yicha natijalar bahosi:

2.0 ball - «a`lo»

1,6 ball - «yaxshi»

1.1 ball - «koniqarli»

0,5 ball - «qoniqarsiz»

Jonlantirish uchun savollar:

1

SAVOLLAR:

1.

1. Ot formalarining stilistik xususiyatlari.
2. Ko`plik kategoriyasining stilistikasi.
3. Kelishik affikslarinig stilistik xususiyatlari.
4. Egalik kategoriyasining stilistik xususiyatlari.
- 5 .Subektiv baho formalarining stilistik hususiyatlari.
- 6 .Sifat stilistikasi.
- 7 .Son stilistikasi.
- 8 .Olmosh stilistikasi.

Ko`rgazmali materiallar

1. Saylovlar mamlakatni demokratlashtirish va liberallashtirishning qonuniy jarayoni

2.1.Ta`lim berish texnologiyasining modeli

MARUZA MASHG`ULOTLARINING TA`LIM TEXNOLOGIYASI

4-mavzu

4-Mavzu: (2 soat) . Morfologik stilistika haqida

“Morfologik stilistika haqida” mavzusidagi ma`ruza
bo`yicha Ta`lim berish texnologiyasining modeli

Mashg`ulot vaqti-2 soat	Talabalar soni: 116 gacha
Mashg`ulot shakli	Kirish-axborotli ma`ruza
Ma`ruza rejasi	Reja: 1. Ot formalarining stilistik xususiyatlari. 2. Ko`plik kategoriyasining stilistikasi. 3. Kelishik affikslarining stilistik xususiyatlari. 4. Egalik kategoriyasining stilistik xususiyatlari. 5 .Subektiv baho formalarining stilistik xususiyatlari.

	6 .Sifat stilistikasi. 7 .Son stilistikasi. 8 .Olmosh stilistikasi. 9 .Fe'l stilistikasi. 10. Xulosa
<i>O`quv mashg`ulotining maqsadi:</i> Fan haqida umumiy tushuncha berish. Talabalarni O`zbek tili stilistikasi fanining o`ziga xos xususiyatlari, taraqqiyot bosqichlari, tilning tarkibi va tizimi, yozma adabiyot bilan munosabati bilan tanishtirish.	
<p><i>Pedagogik vazifalar:</i></p> • Fanning maqsadi va vazifalari, o`tiladigan mavzularga tuzilmaviy mantiqiy chizma asosida tushuncha berish;</li> <li>• Talabalarga fanning o`ziga xos xususiyatlari to`g`risida ma`lumotlar berish;</li> <li>• Talabalarga til taraqqiyot davrlari haqida ma`lumotlar berish; • Talabalarni O`zbek tili stilistikasi ning tarkibi va tizimi bilan tanishtirish;</li> </ul> <p>Talabalarni O`zbek tili stilistikasi faning boshqa fanlar bilan munosabatini tanishtirish.</p>	<p><i>O`quv faoliyati natijalari:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Fanning maqsadi va vazifalari, o`tiladigan mavzularga tuzilmaviy mantiqiy chizma asosida sharhlanadi. • fanning o`ziga xos xususiyatlarini ochib beriladi.</li> <li>• fanning taraqqiyot davrlarini yoritib beriladi.</li> <li>• fanning tarkibi va tizimi ko`rsatib beriladi. • fanning boshqa fanlar bilan munosabati dalillab beriladi
<i>Ta`lim berish usullari</i>	Ko`rgazmali ma`ruza, suhbat
<i>Ta`lim berish shakllari</i>	Ommaviy, jamoaviy
<i>Ta`lim berish vositalari</i>	O`quv qo`llanma, proektor
<i>Ta`lim berish sharoiti</i>	O`TV bilan ishlashga moslashtirilgan auditoriya
<i>Monitoring va baholash</i>	Og`zaki nazorat: savol-javob

**“Morfologik stilistika haqida” ma`ruza mashg`ulotining
texnologik xaritasi**

Ish bosqichi ari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta`lim beruvchi	Ta`lim oluvchilar
Tayyorgarlik bosqichi	1. Mavzu bo`yicha o`quv mazmunini tayyorlash. 2. Kirish ma`ruzasi uchun taqdimot slaydalarini tayyorash.</p> <p>3. Talabalar o`quv faoliyatini baholash mezonlarini ishlab chiqish. 4. O`quv kursini o`rganishda foydalaniladigan adabiyotlar ro`yxatini ishlab chiqish.	
1. Mavzuga kirish (15 daqiq)	1.1. O`quv kursi nomini aytadi. Ekranga kursning tuzilmaviy mantiqiy chizmasini chiqaradi mavzular ro`yxatini beradi va ularga qisqacha ta`rif beradi (1-ilova).</p> <p>1.2. Birinchi mashg`ulot mavzusi, uning maqsadi va o`quv faoliyati natijalari bilan tanishtiradi.</p> <p>1.3. Talabalar o`quv faoliyatini baholash mezonlari bilan tanishtiradi (2-ilova). 1.4. Talabalar bilimlarini faollashtirish maqsadida savollar beradi (3-ilova).	Tinglaydilar. Tinglaydilar Talabalar berilgan savollarga javob beradilar.
2- bosqich Asosiy bosqich (55	2.1. Rower Point dasturi yordamida slaydlarni namoyish qilish va izohlash bilan mavzu bo`yicha asosiy nazariy jihatlarini tushuntirib beradi. 2.2. Fan haqida umumiy tushuncha beriladi, shuning uchun u jamoa ijodi hisoblanishi, ijodiy metod masalasi, fan ekanligi slaydlar	Tinglaydilar, yozadilar.

daqiqa)	namoyishi orqali tushuntiriladi. (4-ilova). 2.3. O`zbek tili stilistikasi taraqqiyot davrlari, qadimgi yozma obidalar orqali e`tib kelishi, hozirgi ahvoli haqida slaydlar namoyishi orqali ma`lumotlar beriladi (5-ilova).</p> <p>2.3. O`zbek tili stilistikasi tarkibi va tizimi slaydlar orqali tushuntirib beriladi (6-ilova). 2.4. Talabalar bilimlarini faollashtirish va mustahkamlash maqsadida quyidagi savollar beriladi: 2.	Talabalar berilgan savollarga javob beradilar. Tinglaydilar, yozadilar.
3. Yakiiy bosqich (10 daqiqa)	3.1. Mavzu bo`yicha talabalarda yuzaga kelgan savollarga javob beradi, yakunlovchi xulosa qiladi.</p> <p>3.2. Mustaqil ishlash uchun o`tilgan mavzuni o`rganib kelish topshiriladi va Insert texnikasi asosida mazkur o`quv materialini o`rganibkelishvazifasini beradi.	Savollar beradilar. Vazifani yozib oladilar.

SEMINAR

MASHG'ULOTLARI

“Sintaktik stilistika” amaliy mashg'ulotining texnologik xaritasi

Muloqotga ishtirok etuvchilarga eslatma!

- 22. Muloqot muammoni echishga qaratilgan usuldir.
- 23. Gapirayotganda uzoq soʻylama, boshqalar ham oʻz fikrlarini bayon etishlarini unutma.
- 24. Hissiyotni jilovlagan holda fikringni shunday jamlab aytki, u murod nishoniga tegsin.
- 25. Muxolifatingni soʻzlarini hurmat bilan tingla.
- 26. Monosabatingni aniq bergin va fikrlar takrorlanishiga yoʻl qoʻyma!
- 27. Oʻz bilimdonliging, iqtidoring va zakovatingni koʻrsatish uchun soʻylama, balki munozara mavzusi doirasida soʻz yuritgin.
- 28. Fikringni qabul qilishlari va uni maʼqul topishlari uchun kurashgin!

Har bir ma`ruza va amaliy mashg`ulot uchun 2.0 balldan 1.1 gacha ballgacha qo`yiladi. Reyting bo`yicha natijalar bahosi:

2.0 ball - «a`lo»

1,6 ball - «yaxshi»

1.1 ball - «koniqarli»

0,5 ball - «qoniqarsiz»

Jonlantirish uchun savollar:

1

SAVOLLAR:

1.Leksik stilistika.

2.Takror.

3. Antifraza.

4. Anafora haqida.

5.Sintaktik stilistika.

6.So'zlashuv uslubining ko'rinishlari.

MARUZA MASHG'ULOTLARINING TA'LIM TEXNOLOGIYASI	
5-mavzu	5- Mavzu (2 soat) Sintaktik stilistika. Sintaktik stilistikaning mundarijasi, maqsad va vazifalari.

Sintaktik stilistika. Sintaktik stilistikaning mundarijasi, maqsad va vazifalari. " mavzusidagi ma`ruza bo'yicha Ta'lim berish texnologiyasining modeli

Mashg'ulot vaqti-2 soat	Talabalar soni: 116 gacha
Mashg'ulot shakli	Kirish-axborotli ma`ruza
Ma`ruza rejası	Savollar: 1 Reja: 1. Sintaksisning stilistik imkoniyatlari. 2. Ilmiy uslub sintaksisi elementlari. 3. So`zlashuv uslubining sintaktik elementlari. 4. Badiiy uslub sintaksisi elementlari. 5. Sintaktik sinonimiya stilistik vosita sifatida.

O`quv mashg`ulotining maqsadi: Fan haqida umumiy tushuncha berish, Talabalarni O`zbek tili stilistikasi fanining o`ziga xos xususiyatlari, taraqqiyot bosqichlari, tilning tarkibi va tizimi, yozma adabiyot bilan munosabati bilan tanishtirish.	
<p>Pedagogik vazifalar:</p> Fanning maqsadi va vazifalari, o`tiladigan mavzularga tuzilmaviy mantiqiy chizma asosida tushuncha berish;</li> <li>Talabalarga fanning o`ziga xos xususiyatlari to`g`risida ma`lumotlar berish;</li> <li>Talabalarga til taraqqiyot davrlari haqida ma`lumotlar berish; Talabalarni O`zbek tili stilistikasi ning tarkibi va tizimi bilan tanishtirish;</li> </ul> <p>Talabalarni O`zbek tili stilistikasi faning boshqa fanlar bilan munosabatini tanishtirish.</p>	<p>O`quv faoliyati natijalari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>Fanning maqsadi va vazifalari, o`tiladigan mavzularga tuzilmaviy mantiqiy chizma asosida sharhlanadi. - fanning o`ziga xos xususiyatlarini ochib beriladi.</li> <li>fanning taraqqiyot davrlarini yoritib beriladi.</li> <li>fanning tarkibi va tizimi ko`rsatib beriladi. - fanning boshqa fanlar bilan munosabati dalillab beriladi
Ta`lim berish usullari	Ko`rgazmali ma`ruza, suhbat
Ta`lim berish shakllari	Ommaviy, jamoaviy
Ta`lim berish vositalari	O`quv qo`llanma, proektor
Ta`lim berish sharoiti	O`TV bilan ishlashga moslashtirilgan auditoriya
Monitoring va baholash	Og`zaki nazorat: savol-javob

“Sintaktik stilistika. Sintaktik stilistikaning mundarijasi, maqsad va vazifalari.” ma`ruza mashg`ulotining texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta`lim beruvchi	Ta`lim oluvchilar
Tayyorgarlik bosqichi	1. Mavzu bo`yicha o`quv mazmunini tayyorlash. 2. Kirish ma`ruzasi uchun taqdimot slaydalarini tayyorash.</p> <p>3. Talabalar o`quv faoliyatini baholash mezonlarini ishlab chiqish. 4. O`quv kursini o`rganishda foydalaniladigan adabiyotlar ro`yxatini ishlab chiqish.	
1. Mavzuga kirish (15 daqiqa)	1.1. O`quv kursi nomini aytadi. Ekranga kursning tuzilmaviy mantiqiy chizmasini chiqaradi mavzular ro`yxatini beradi va ularga qisqacha ta`rif beradi (1-ilova).</p> <p>1.2. Birinchi mashg`ulot mavzusi, uning maqsadi va o`quv faoliyati natijalari bilan tanishtiradi.</p> <p>1.3. Talabalar o`quv faoliyatini baholash mezonlari bilan tanishtiradi (2-ilova). 1.4. Talabalar bilimlarini faollashtirish maqsadida savollar beradi (3-ilova).	Tinglaydilar. Tinglaydilar Talabalar berilgan savollarga javob beradilar.
2- bosqich Asosiy bosqich (55	2.1. Rower Point dasturi yordamida slaydlarni namoyish qilish va izohlash bilan mavzu bo`yicha asosiy nazariy jihatlarini tushuntirib beradi. 2.2. Fan haqida umumiy tushuncha beriladi, shuning uchun u jamoa ijodi hisoblanishi,	Tinglaydilar, yozadilar.

daqiqa)	ijodiy metod masalasi, fan ekanligi slaydlar namoyishi orqali tushuntiriladi. (4-ilova). 2.3. O`zbek tili stilistikasi taraqqiyot davrlari, qadimgi yozma obidalar orqali etib kelishi, hozirgi ahvoli haqida slaydlar namoyishi orqali ma`lumotlar beriladi (5-ilova). 2.3. O`zbek tili stilistikasi tarkibi va tizimi slaydlar orqali tushuntirib beriladi (6-ilova). 2.4. Talabalar bilimlarini faollashtirish va mustahkamlash maqsadida quyidagi savollar beriladi:	Talabalar berilgan savollarga javob beradilar. Tinglaydilar, yozadilar.
3. Yakii bosqich (10 daqiqa)	3.1. Mavzu bo`yicha talabalarda yuzaga kelgan savollarga javob beradi, yakunlovchi xulosa qiladi.</p> <p>3.2. Mustaqil ishlash uchun o`tilgan mavzuni o`rganib kelish topshiriladi va Insert texnikasi asosida mazkur o`quv materialini o`rganib kelish vazifasini beradi.	Savollar beradilar. Vazifani yozib oladilar.

SEMINAR

MASHG`ULOTLARI

“Sintaktik stilistika. Sintaktik stilistikaning mundarijasi, maqsad va vazifalari.” amaliy mashg`ulotining texnologik xaritasi

Muloqotga ishtirok etuvchilarga eslatma!

29.Muloqot muammoni echishga qaratilgan usuldir.

30.Gapirayotganda uzoq so`ylama, boshqalar ham o`z fikrlarini bayon etishlarini unutma.

31.Hissiyotni jilovlagan holda fikringni shunday jamlab aytki, u murod nishoniga tegsin.

32.Muxolifatingni so`zlarini hurmat bilan tingla.

33.Monosabatingni aniq bergin va fikrlar takrorlanishiga yo`l qo`yma!

34.O`z bilimdonliging, iqtidoring va zakovatingni ko`rsatish uchun

Har bir ma`ruza va amaliy mashg`ulot uchun 2.0 balldan 1.1 gacha ballgacha qo`yiladi. Reyting bo`yicha natijalar bahosi:

2.0 ball - «a`lo»

1,6 ball - «yaxshi»

1.1 ball - «koniqarli»

0,5 ball - «qoniqarsiz»

Jonlantirish uchun savollar:

5-Mavzu: Sintaktik stilistika. Sintaktik stilistikaning mundarijasi, maqsad va vazifalari.

SAVOLLAR:

1.Rasmiy uslub haqida.

2.Omonimlar va ularning ko`rinishlari.

3.Tazod.

MARUZA MASHG'ULOTLARINING TA'LIM TEXNOLOGIYASI

6-mavzu

6-mavzu (2 soat). Gap.Gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari.

“Gap.Gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari.” mavzusidagi ma'ruza bo'yicha Ta'lim berish texnologiyasining modeli

Mashg'ulot vaqti-2 soat	Talabalar soni: 116 gacha
Mashg'ulot shakli	Kirish-axborotli ma'ruza
Ma'ruza rejasi	1 Reja: 1. Gap haqida umumiy tushuncha. 2. Darak gap. 3. So'roq gap. 4. Buyruq gap. 5. Tasdiq yoki inkor gaplarning qo'llanishi. 6. Bir sosrtavli gaplarning stilistik husussiyatlari. 7. Xulosa.
O'quv mashg'ulotining maqsadi: Fan haqida umumiy tushuncha berish. Talabalarni O'zbek tili stilistikasi fanining o'ziga xos xususiyatlari, taraqqiyot	

bosqichlari,tilning tarkibi va tizimi, yozma adabiyot bilan munosabati bilan tanishtirish.	
Pedagogik vazifalar: - Fanning maqsadi va vazifalari, oʻtiladigan mavzularga tuzilmaviy mantiqiy chizma asosida tushuncha berish; - Talabalarga fanning oʻziga xos xususiyatlari toʻgʻrisida maʼlumotlar berish; - Talabalarga til taraqqiyot davrlari haqida maʼlumotlar berish; - Talabalarni Oʻzbek tili stilistikasi ning tarkibi va tizimi bilan tanishtirish; Talabalarni Oʻzbek tili stilistikasi fanning boshqa fanlar bilan munosabatini tanishtirish.	Oʻquv faoliyati natijalari: - Fanning maqsadi va vazifalari, oʻtiladigan mavzularga tuzilmaviy mantiqiy chizma asosida sharhlanadi. - fanning oʻziga xos xususiyatlarini ochib beriladi. - fanning taraqqiyot davrlarini yoritib beriladi. - fanning tarkibi va tizimi koʻrsatib beriladi. - fanning boshqa fanlar bilan munosabati dalillab beriladi
Taʼlim berish usullari	Koʻrgazmali maʼruza, suhbat
Taʼlim berish shakllari	Ommaviy, jamoaviy
Taʼlim berish vositalari	Oʻquv qoʻllanma, proektor
Taʼlim berish sharoiti	OʻTV bilan ishlashga moslashtirilgan auditoriya
Monitoring va baholash	Ogʻzaki nazorat: savol-javob

“Gap.Gapning ifoda maqsadiga koʻra turlari.” maʼruza mashgʻulotining texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Taʼlim beruvchi	Taʼlim oluvchilar

Tayyorgarlik bosqichi	1. Mavzu bo'yicha o'quv mazmunini tayyorlash. 2. Kirish ma'ruzasi uchun taqdimot slaydalarini tayyorash. 3. Talabalar o'quv faoliyatini baholash mezonlarini ishlab chiqish. 4. O'quv kursini o'rganishda foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxatini ishlab chiqish.	
1. Mavzuga kirish (15 daqiqa)	1.1. O'quv kursi nomini aytadi. Ekranga kursning tuzilmaviy mantiqiy chizmasini chiqaradi mavzular ro'yxatini beradi va ularga qisqacha ta'rif beradi (1-ilova). 1.2. Birinchi mashg'ulot mavzusi, uning maqsadi va o'quv faoliyati natijalari bilan tanishtiradi. 1.3. Talabalar o'quv faoliyatini baholash mezonlari bilan tanishtiradi (2-ilova). 1.4. Talabalar bilimlarini faollashtirish maqsadida savollar beradi (3-ilova).	Tinglaydilar. Tinglaydilar Talabalar berilgan savollarga javob beradilar.
2- bosqich Asosiy bosqich (55 daqiqa)	2.1. Rower Point dasturi yordamida slaydlarni namoyish qilish va izohlash bilan mavzu bo'yicha asosiy nazariy jihatlarini tushuntirib beradi. 2.2. Fan haqida umumiy tushuncha beriladi, shuning uchun u jamoa ijodi hisoblanishi, ijodiy metod masalasi, fan ekanligi slaydlar namoyishi orqali tushuntiriladi. (4-ilova). 2.3 O'zbek tili stilistikasi taraqqiyot davrlari, qadimgi yozma obidalar orqali etib kelishi, hozirgi ahvoli haqida slaydlar namoyishi orqali ma'lumotlar beriladi (5-ilova). 2.3. O'zbek tili stilistikasi tarkibi va tizimi slaydlar orqali tushuntirib beriladi (6-ilova). 2.4. Talabalar bilimlarini faollashtirish va mustahkamlash maqsadida quyidagi savollar beriladi: 2.5	Tinglaydilar, yozadilar. Talabalar berilgan savollarga javob beradilar. Tinglaydilar, yozadilar.

3. Yakii bosqich (10 daqiqqa)	3.1. Mavzu bo`yicha talabalarda yuzaga kelgan savollarga javob beradi, yakunlovchi xulosa qiladi.</b> <b>3.2. Mustaqil ishlash uchun o`tilgan mavzuni o`rganib kelish topshiriladi va Insert texnikasi asosida mazkur o`quv materialini o`rganib kelish vazifasini beradi.	Savollar beradilar. Vazifani yozib oladilar.

SEMINAR

MASHG`ULOTLARI

“Gap.Gapning ifoda maqsadiga ko`ra turlari.” amaliy mashg`ulotining texnologik xaritasi

Muloqotga ishtirok etuvchilarga eslatma!

- 36.Muloqot muammoni echishga qaratilgan usuldir.
- 37.Gapirayotganda uzoq so`ylama, boshqalar ham o`z fikrlarini bayon etishlarini unutma.
- 38.Hissiyotni jilovlagan holda fikringni shunday jamlab aytki, u murod nishoniga tegsin.
- 39.Muxolifatingni so`zlarini hurmat bilan tingla.
- 40.Monosabatingni aniq bergin va fikrlar takrorlanishiga yo`l qo`yma!
- 41.O`z bilimdonliging, iqtidoring va zakovatingni ko`rsatish uchun so`ylama, balki munozara mavzusi doirasida so`z yuritgin.

Har bir ma`ruza va amaliy mashg`ulot uchun 2.0 balldan 1.1 gacha ballgacha qo`yiladi. Reyting bo`yicha natijalar bahosi:

2.0 ball - «a`lo»

1,6 ball - «yaxshi»

1.1 ball - «koniqarli»

0,5 ball - «qoniqarsiz»

Jonlantirish uchun savollar:

SAVOLLAR:

1. Funksional uslublar haqida.
2. Grammatik stilistika.
3. Metonimiya hodisasi.
4. Sinonimiya hodisasi.
5. Ilmiy uslub.
- 6.-lar affiksining uslubiy xususiyatlari.

MARUZA MASHG`ULOTLARINING TA`LIM TEXNOLOGIYASI	
7-mavzu	7-Mavzu (2 soat) Gap bo'laklarinig funksional qo'llanishi.

Ta'lim berish texnologiyasining modeli

Mashg`ulot vaqti-2 soat	Talabalar soni: 116 gacha
Mashg`ulot shakli	Kirish-axborotli ma`ruza
Ma`ruza rejas	Reja: 1. Gap bo'laklari haqida ma'lumot. 2. Ega va uning ifodalanishi. 3. Kesim va uning qo'llanishi 4. Ikkinchi darajali bo'laklar haqida tushuncha.
<i>O`quv mashg`ulotining maqsadi:</i> Fan haqida umumiy tushuncha berish. Talabalarni O`zbek tili stilistikasi fanining o`ziga xos xususiyatlari, taraqqiyot bosqichlari,tilning tarkibi va tizimi, yozma adabiyot bilan munosabati bilan tanishtirish.	
Pedagogik vazifalar: • Fanning maqsadi va vazifalari, o`tiladigan mavzularga tuzilmaviy mantiqiy chizma asosida tushuncha berish;</li> <li>• Talabalarga fanning o`ziga xos xususiyatlari to`g`risida ma'lumotlar berish;	<p>O`quv faoliyati natijalari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Fanning maqsadi va vazifalari, o`tiladigan mavzularga tuzilmaviy mantiqiy chizma asosida sharhlanadi. • fanning o`ziga xos xususiyatlarini ochib beriladi.

• Talabalarga til taraqqiyot davrlari haqida ma'lumotlar berish; • Talabalarni O'zbek tili stilistikasi ning tarkibi va tizimi bilan tanishtirish; Talabalarni O'zbek tili stilistikasi faning boshqa fanlar bilan munosabatini tanishtirish.	• fanning taraqqiyot davrlarini yoritib beriladi. • fanning tarkibi va tizimi ko'rsatib beriladi. • fanning boshqa fanlar bilan munosabati dalillab beriladi
<i>Ta'lim berish usullari</i>	Ko'rgazmali ma'ruza, suhbat
<i>Ta'lim berish shakllari</i>	Ommaviy, jamoaviy
<i>Ta'lim berish vositalari</i>	O'quv qo'llanma, proektor
<i>Ta'lim berish sharoiti</i>	O`TV bilan ishlashga moslashtirilgan auditoriya
<i>Monitoring va baholash</i>	Og`zaki nazorat: savol-javob

“Gap bo'laklarinig funksional qo'llanishi. .” ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi

<i>Ish bosqichi ari va vaqti</i>	<i>Faoliyat mazmuni</i>	
	<i>Ta'lim beruvchi</i>	<i>Ta'lim oluvchilar</i>
<i>Tayyorgarlik bosqichi</i>	1. Mavzu bo'yicha o'quv mazmunini tayyorlash. 2. Kirish ma'ruzasi uchun taqdimot slaydalarini tayyorash. 3. Talabalar o'quv faoliyatini baholash mezonlarini ishlab chiqish. 4. O'quv kursini o'rganishda foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxatini ishlab chiqish.	

1. Mavzuga kirish (15 daqiqqa)	1.1. O`quv kursi nomini aytadi. Ekranga kursning tuzilmaviy mantiqiy chizmasini chiqaradi mavzular ro`yxatini beradi va ularga qisqacha ta`rif beradi (1-ilova).</p> <p>1.2. Birinchi mashg`ulot mavzusi, uning maqsadi va o`quv faoliyati natijalari bilan tanishtiradi.</p> <p>1.3. Talabalar o`quv faoliyatini baholash mezonlari bilan tanishtiradi (2-ilova). 1.4. Talabalar bilimlarini faollashtirish maqsadida savollar beradi (3-ilova).	Tinglaydilar. Tinglaydilar Talabalar berilgan savollarga javob beradilar.
2- bosqich Asosiy bosqich (55 daqiqqa)	2.1. Rower Point dasturi yordamida slaydlarni namoyish qilish va izohlash bilan mavzu bo`yicha asosiy nazariy jihatlarini tushuntirib beradi.</p> <p>2.2. Fan haqida umumiy tushuncha beriladi, shuning uchun u jamoa ijodi hisoblanishi, ijodiy metod masalasi, fan ekanligi slaydlar namoyishi orqali tushuntiriladi. (4-ilova).</p> <p>2.3 O`zbek tili stilistikasi taraqqiyot davrlari, qadimgi yozma obidalar orqali e`tib kelishi, hozirgi ahvoli haqida slaydlar namoyishi orqali ma`lumotlar beriladi (5-ilova). 2.3. O`zbek tili stilistikasi tarkibi va tizimi slaydlar orqali tushuntirib beriladi (6-ilova). 2.4. Talabalar bilimlarini faollashtirish va mustahkamlash maqsadida quyidagi savollar beriladi: 2.5	Tinglaydilar, yozadilar. Talabalar berilgan savollarga javob beradilar. Tinglaydilar, yozadilar.
3. Yakii bosqich (10 daqiqqa)	3.1. Mavzu bo`yicha talabalarda yuzaga kelgan savollarga javob beradi, yakunlovchi xulosa qiladi.</p> <p>3.2. Mustaqil ishlash uchun o`tilgan mavzuni o`rganib kelish topshiriladi va Insert texnikasi asosida mazkur o`quv materialini o`rganib kelish vazifasini beradi.	Savollar beradilar. Vazifani yozib oladilar.

SEMINAR

MASHG'ULOTLARI

"Gap bo'laklarinig funksional qo'llanishi." amaliy mashg'ulotining texnologik xaritasi

Muloqotga ishtirok etuvchilarga eslatma!

43. Muloqot muammoni echishga qaratilgan usuldir.
44. Gapirayotganda uzoq so'ylama, boshqalar ham o'z fikrlarini bayon etishlarini unutma.
45. Hissiyotni jilovlagan holda fikringni shunday jamlab aytki, u murod nishoniga tegsin.
46. Muxolifatingni so'zlarini hurmat bilan tingla.
47. Monosabatingni aniq bergin va fikrlar takrorlanishiga yo'l qo'yma!
48. O'z bilimdonliging, iqtidoring va zakovatingni ko'rsatish uchun so'ylama, balki munozara mavzusi doirasida so'z yuritgin.
49. Fikringni qabul qilishlari va uni ma'qul topishlari uchun harakatlan!

Har bir ma`ruza va amaliy mashg`ulot uchun 2.0 balldan 1.1 gacha ballgacha qo`yiladi. Reyting bo`yicha natijalar bahosi:

2.0 ball - «a`lo»

1,6 ball - «yaxshi»

1.1 ball - «koniqarli»

0,5 ball - «qoniqarsiz»

Jonlantirish uchun savollar:

SAVOLLAR:

1.Omonimiya hodisasi.

2.So'zlashuv uslubi.

3. Anafora.

4. Stilistikaning maqsadi va boshqa fanlar bilan aloqasi.

5.Ilmiy uslub.

6.Leksik stilistika.

2.1.Ta'lim berish texnologiyasining modeli

MARUZA MASHG'ULOTLARINING TA'LIM TEXNOLOGIYASI	
8-mavzu	Ba'diiy tasvir vositalari va troplar.

berish texnologiyasining modeli

Mashg'ulot vaqti-2 soat	Talabalar soni: 116 gacha
Mashg'ulot shakli	Kirish-axborotli ma'ruza
Ma'ruza rejasi	Reja: - Sintaktik figuralar haqida tushuncha. - Sintaktik figuraning asosiy ko'rishishlari. - Anafora. - Epifora. - Konpozitsion bog'lanish. - Takror. - Antitez. - Gradatsiya. - Ritorik so'roq - Troplar.
O'quv mashg'ulotining maqsadi: Fan haqida umumiy tushuncha berish. Talabalarni O'zbek tili stilistikasi fanining o'ziga xos xususiyatlari, taraqqiyot bosqichlari, tilning tarkibi va tizimi, yozma adabiyot bilan munosabati bilan tanishtirish.	
Pedagogik vazifalar:	O'quv faoliyati natijalari:
• Fanning maqsadi va vazifalari,	• Fanning maqsadi va vazifalari,

o'tiladigan mavzularga tuzilmaviy mantiqiy chizma asosida tushuncha berish; • Talabalarga fanning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida ma'lumotlar berish; • Talabalarga til taraqqiyot davrlari haqida ma'lumotlar berish; • Talabalarni O'zbek tili stilistikasi ning tarkibi va tizimi bilan tanishtirish; Talabalarni O'zbek tili stilistikasi fanning boshqa fanlar bilan munosabatini tanishtirish.	o'tiladigan mavzularga tuzilmaviy mantiqiy chizma asosida sharhlanadi. • fanning o'ziga xos xususiyatlarini ochib beriladi. • fanning taraqqiyot davrlarini yoritib beriladi. • fanning tarkibi va tizimi ko'rsatib beriladi. • fanning boshqa fanlar bilan munosabati dalillab beriladi.
Ta'lim berish usullari	Ko'rgazmali ma'ruza, suhbat
Ta'lim berish shakllari	Ommaviy, jamoaviy
Ta'lim berish vositalari	O'quv qo'llanma, proektor
Ta'lim berish sharoiti	O`TV bilan ishlashga moslashtirilgan auditoriya
Monitoring va baholash	Og'zaki nazorat: savol-javob

Ba'diiy tasvir vositalari va troplar. ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar

Tayyorgarlik bosqichi	1. Mavzu bo'yicha o'quv mazmunini tayyorlash. 2. Kirish ma'ruzasi uchun taqdimot slaydalarini tayyorash. 3. Talabalar o'quv faoliyatini baholash mezonlarini ishlab chiqish. 4. O'quv kursini o'rganishda foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxatini ishlab chiqish.	
1. Mavzuga kirish (15 daqiqa)	1.1. O'quv kursi nomini aytadi. Ekranga kursning tuzilmaviy mantiqiy chizmasini chiqaradi mavzular ro'yxatini beradi va ularga qisqacha ta'rif beradi (1-ilova). 1.2. Birinchi mashg'ulot mavzusi, uning maqsadi va o'quv faoliyati natijalari bilan tanishtiradi. 1.3. Talabalar o'quv faoliyatini baholash mezonlari bilan tanishtiradi (2-ilova). 1.4. Talabalar bilimlarini faollashtirish maqsadida savollar beradi (3-ilova).	Tinglaydilar. Tinglaydilar Talabalar berilgan savollarga javob beradilar.
2-bosqich Asosiy bosqich (55 daqiqa)	2.1. Rower Point dasturi yordamida slaydlarni namoyish qilish va izohlash bilan mavzu bo'yicha asosiy nazariy jihatlarini tushuntirib beradi. 2.2. Fan haqida umumiy tushuncha beriladi, shuning uchun u jamoa ijodi hisoblanishi, ijodiy metod masalasi, fan ekanligi slaydlar namoyishi orqali tushuntiriladi. (4-ilova). 2.3 O'zbek tili stilistikasi taraqqiyot davrlari, qadimgi yozma obidalar orqali etib kelishi, hozirgi ahvoli haqida slaydlar namoyishi orqali ma'lumotlar beriladi (5-ilova). 2.3. O'zbek tili stilistikasi tarkibi va tizimi slaydlar orqali tushuntirib beriladi (6-ilova). 2.4. Talabalar bilimlarini faollashtirish va mustahkamlash maqsadida quyidagi savollar beriladi: 2.	Tinglaydilar, yozadilar. Talabalar berilgan savollarga javob beradilar. Tinglaydilar, yozadilar.

3. Yakiiy bosqich (10 daqiqa)	3.1. Mavzu bo`yicha talabalarda yuzaga kelgan savollarga javob beradi, yakunlovchi xulosa qiladi.</p> <p>3.2. Mustaqil ishlash uchun o`tilgan mavzuni o`rganib kelish topshiriladi va Insert texnikasi asosida mazkur o`quv materialini o`rganibkelishvazifasini beradi.	Savollar beradilar. Vazifani yozib oladilar.
---	---	--

SEMINAR

MASHG`ULOTLARI

“Ba’diiy tasvir vositalari va troplar”

amaliy mashg`ulotining texnologik xaritasi

Muloqotga ishtirok etuvchilarga eslatma!

50.Muloqot muammoni echishga qaratilgan usuldir.

51.Gapirayotganda uzoq so`ylama, boshqalar ham o`z fikrlarini bayon etishlarini unutma.

52.Hissiyotni jilovlagan holda fikringni shunday jamlab aytki, u murod nishoniga tegsin.

53.Muxolifatingni so`zlarini hurmat bilan tingla.

54.Monosabatingni aniq bergin va fikrlar takrorlanishiga yo`l qo`yma!

55.O`z bilimdonliging, iqtidoring va zakovatingni ko`rsatish uchun so`ylama, balki muqozaro mavzusi doirasida so`z yuritgin

Har bir ma`ruza va amaliy mashg`ulot uchun 2.0 balldan 1.1 gacha ballgacha qo`yiladi. Reyting bo`yicha natijalar bahosi:

2.0 ball - «a`lo»

1,6 ball - «yaxshi»

1.1 ball - «koniqarli»

0,5 ball - «qoniqarsiz»

Jonlantirish uchun savollar:

SAVOLLAR:

1.Sinekdoxa.

2.Grammatik stilistika.

3.Stilistika haqida ma'lumot.

4.Metonimiya

5. Stilistik tashqi va ichki muhofaza.

2.1.Ta'lim berish texnologiyasining modeli

MARUZA MASHG'ULOTLARINING TA'LIM TEXNOLOGIYASI

9-mavzu

Mavzu: Sintaktik vositalar va trop. (2 soat)

“Sintaktik vositalar va trop” mavzusidagi ma'ruza bo'yicha Ta'lim berish texnologiyasining modeli

Mashg'ulot vaqti-2 soat	Talabalar soni: 116 gacha
Mashg'ulot shakli	Kirish-axborotli ma'ruza
Ma'ruza rejasi	
O'quv mashg'ulotining maqsadi: Fan haqida umumiy tushuncha berish. Talabalarni O'zbek tili stilistikasi fanining o'ziga xos xususiyatlari, taraqqiyot bosqichlari, tilning tarkibi va tizimi, yozma adabiyot bilan munosabati bilan tanishtirish.	
Pedagogik vazifalar: - Fanning maqsadi va vazifalari, o'tiladigan mavzularga tuzilmaviy mantiqiy chizma asosida tushuncha berish; - Talabalarga fanning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida ma'lumotlar berish; - Talabalarga til taraqqiyot davrlari haqida ma'lumotlar berish;	O'quv faoliyati natijalari: - Fanning maqsadi va vazifalari, o'tiladigan mavzularga tuzilmaviy mantiqiy chizma asosida sharhlanadi. - fanning o'ziga xos xususiyatlarini ochib beriladi. - fanning taraqqiyot davrlarini yoritib beriladi.

Talabalarni O'zbek tili stilistikasi ning tarkibi va tizimi bilan tanishtirish; Talabalarni O'zbek tili stilistikasi faning boshqa fanlar bilan munosabatini tanishtirish.	- fanning tarkibi va tizimi ko'rsatib beriladi. - fanning boshqa fanlar bilan munosabati dalillab beriladi
<i>Ta'lim berish usullari</i>	Ko'rgazmali ma'ruza, suhbat
<i>Ta'lim berish shakllari</i>	Ommaviy, jamoaviy
<i>Ta'lim berish vositalari</i>	O'quv qo'llanma, proektor
<i>Ta'lim berish sharoiti</i>	O'TV bilan ishlashga moslashtirilgan auditoriya
<i>Monitoring va baholash</i>	Og'zaki nazorat: savol-javob

“Sintaktik vositalar va trop” ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi

<i>Ish bosqichlari va vaqti</i>	<i>Faoliyat mazmuni</i>	
	<i>Ta'lim beruvchi</i>	<i>Ta'lim oluvchilar</i>
Tayyorgarlik bosqichi	1. Mavzu bo'yicha o'quv mazmunini tayyorlash. 2. Kirish ma'ruzasi uchun taqdimot slaydalarini tayyorash. 3. Talabalar o'quv faoliyatini baholash mezonlarini ishlab chiqish. 4. O'quv kursini o'rganishda foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxatini ishlab chiqish.	

1. Mavzuga kirish (15 daqiqqa)	1.1. O`quv kursi nomini aytadi. Ekranga kursning tuzilmaviy mantiqiy chizmasini chiqaradi mavzular ro`yxatini beradi va ularga qisqacha ta`rif beradi (1-ilova).</p> <p>1.2. Birinchi mashg`ulot mavzusi, uning maqsadi va o`quv faoliyati natijalari bilan tanishtiradi.</p> <p>1.3. Talabalar o`quv faoliyatini baholash mezonlari bilan tanishtiradi (2-ilova). 1.4. Talabalar bilimlarini faollashtirish maqsadida savollar beradi (3-ilova).	Tinglaydilar. Tinglaydilar Talabalar berilgan savollarga javob beradilar.
2- bosqich Asosiy bosqich (55 daqiqqa)	2.1. Rower Point dasturi yordamida slaydlarni namoyish qilish va izohlash bilan mavzu bo`yicha asosiy nazariy jihatlarini tushuntirib beradi.</p> <p>2.2. Fan haqida umumiy tushuncha beriladi, shuning uchun u jamoa ijodi hisoblanishi, ijodiy metod masalasi, fan ekanligi slaydlar namoyishi orqali tushuntiriladi. (4-ilova).</p> <p>2.3 O`zbek tili stilistikasi taraqqiyot davrlari, qadimgi yozma obidalar orqali e`tib kelishi, hozirgi ahvoli haqida slaydlar namoyishi orqali ma`lumotlar beriladi (5-ilova). 2.3. O`zbek tili stilistikasi tarkibi va tizimi slaydlar orqali tushuntirib beriladi (6-ilova). 2.4. Talabalar bilimlarini faollashtirish va mustahkamlash maqsadida quyidagi savollar beriladi: 2.5.	Tinglaydilar, yozadilar. Talabalar berilgan savollarga javob beradilar. Tinglaydilar, yozadilar.
3. Yakii bosqich (10 daqiqqa)	3.1. Mavzu bo`yicha talabalarda yuzaga kelgan savollarga javob beradi, yakunlovchi xulosa qiladi. 3.2. Mustaqil ishlash uchun o`tilgan mavzuni o`rganib kelish topshiriladi va Insert texnikasi asosida mazkur o`quv materialini o`rganib kelish vazifasini beradi.	Savollar beradilar. Vazifani yozib oladilar.

SEMINAR

MASHG`ULOTLARI

“Sintaktik vositalar va trop” ma`ruza mashg`ulotining texnologik xaritasi

Har bir ma`ruza va amaliy mashg`ulot uchun 2.0 balldan 1.1 gacha ballgacha qo`yiladi. Reyting bo`yicha natijalar bahosi:

2.0 ball - «a`lo»

1,6 ball - «yaxshi»

1.1 ball - «koniqarli»

0,5 ball - «qoniqarsiz»

Jonlantirish uchun savollar:

SAVOLLAR:

1. Anafora haqida.
2. Sintaktik stilistika.
3. So'zlashuv uslubining ko'rinishlari.
4. Epitet haqida tushuncha.
5. Morfologik stilistika.
6. Ra'diiv uslub

2.1. Ta'lim berish texnologiyasining modeli

